O’zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi
Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat universiteti

«TARIX» kafedrasi

“Yangi tarix” fanidan

O`QUV - USLUBIY MAJMUA

200000 – Gumanitar fanlar va fanlar ta’lim sohasi
52202000 – Tarix bakalavr yo’nalishlari uchun

Urganch – 2012

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:
№ _____
201___ й « ___ » _____

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 201___ йил «___» августдаги «___»-сонли буйруғи билан тасдиқланган

ЖАҲОН (УМУМИЙ) ТАРИХИ

фанининг

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Билим соҳаси:	100000 – Гуманитар соҳа
	200000 – Ижтимоий соҳа, иқтисод ва ҳуқуқ
Таълим соҳаси:	120000 – Гуманитар фанлар
	220000 – Журналистика ва ахборот
Таълим йўналиши:	5120300 – Тарих (мамлакатлар ва минтақалар бўйича)
	5120400 – Археология
	5220300 – Архившунослик

Тошкент-201____

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув-услубий бирлашмалари фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 201___ йил «___» июндаги «___»-сон мажлис баёни билан маъқулланган.

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Ш.И.Исамиддинова – «Жаҳон тарихи» кафедраси катта ўқитувчиси
С.Ф.Атабекова – «Жаҳон тарихи» кафедраси доценти, т.ф.н.
Қ.Т.Утепов – «Жаҳон тарихи» кафедраси доцент т.ф.н
А.Г.Холлиев – «Жаҳон тарихи» кафедраси доцент т.ф.н
А.А.Розаков – «Жаҳон тарихи» кафедраси катта ўқитувчиси

Тақризчилар:

Абдуллаев Р.М. т.ф.д. проф. - Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти директори
Нуриддинов Э.З.т.ф.д. -Низомий номидаги ТДПУ профессори.

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий-услубий кенгашида тавсия қилинган (201___ йил ___ июндаги ____-сонли баённома)

Кириш

Ушбу дастур мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятига ҳар томонлама интеграциясини чуқурлаштириш каби долзарб масалани ҳорижий мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий тараққиётини тарихий нуқтаи назардан ўрганмасдан ҳал этиб бўлмайди. Жаҳон тарихини мукаммал даражада билмоқ инсоният цивилизациясининг ютуқларидан ва тажрибасидан тўла баҳраманд қилади, умуминсоний қадриятларни англаб етишга кўмаклашади ва дунё миқёсида мавжуд бўлган муаммоларнинг тарихий илдизларини излаб топишга имконият яратади.

Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари

Жаҳон тарихи бўйича чуқур билимларга эга бўлиш талабаларнинг дунёқарашини кенгайтириш йўлидаги энг самарали восита сифатида аҳамиятлидир. Қолаверса, мамлакатимиз ҳамкорлик қилаётган давлатларнинг ривожланиш даражасини, халқларнинг менталитети, урф-одатларини, маданиятини тушуниб етиш учун ҳам жаҳон тарихи фанининг беқиёс аҳамиятини тан олиш керак.

Дунё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий ва этник эволюциясининг асосий босқичлари, ҳамда йўналишлари ҳақида талабаларга ҳар томонлама билимлар бериш.

Фан бўйича талабаларнинг билимига, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар

Жаҳон тарихининг турли босқичларида рўй берган муҳим воқеалар ва жараёнларни ёритиб бериш; – инсониятнинг кўп асрлик тараққиётига катта таъсир кўрсатган омилларни таҳлил қилиш; - тарихий ривожланиш давомида турли мамлакатлар ва минтақаларга хос бўлган хусусиятларни очиб бериш; - дунёнинг турли чеккаларида рўй берган воқеалар ва жараёнларнинг кўп ҳолларда ўзаро боғлиқлигини талабаларга тушунтириш; - тарихий ривожланишнинг барча мамлакатлар учун умумий қонуниятлар мавжудлигини намоён қилиш.

“Жаҳон тарихи” ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

- Жаҳон тарихи даврининг хусусиятлар, хунармандчиликнинг қишлоқ хўжалигидан ажралиши, ишлаб чиқарувчи кучларнинг ўсиши, феодал шаҳарларнинг пайдо бўлиши, ривожланиши, товар-пул муносабатлари, феодал жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, маданий ва диний ҳаётидаги ўзгаришларни ***билиши керак;***
- феодал жамиятнинг ривожланиб, ўзининг энг хусусиятларини йўқотиши ва ўз ўрнини янги иқтисодий муносабатларга бўшатиб бериши, капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келишини тўғри тушуниш ***кўникмаларига эга бўлиши керак;***
- талаба жаҳон тарихининг (қадимги шарқ, қадимги юнонистон ва рим, илк ва сўнгги ўрта асрлар, Осиё ва Африка, Европа ва Америка давлатлари) даврида рўй берган ишлаб чиқаришнинг янги илғор муносабатларига ўтиш учун бевосита шарт-шароит вужудга келганини таҳлил қилиш, янги ишлаб чиқариш муносабатлари билан боғлиқ бўлган халқ оммасининг эски феодал тузумидан норозилиги, миллий-озодлик ҳаракати, Европа миқёсида биринчи марта ғалаба қилган буржуа инқилоби, янги буржуа давлатининг ташкил топиши, ривожланиши, Европа халқларининг янги даврга ўта бошлаши. Жамият тараққиёти босқичлари жараёни ***малакаларига эга бўлиши керак.***

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвий кетма-кетлиги

Талабалар “Жаҳон тарихи” фанини самарали ўзлаштиришлари учун “Ватан тарихи”, “Сиёсатшунослик”, “Маданиятшунослик”, “Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи”, “Тарих фалсафаси ва методологияси”, “Археология”, “Манбашунослик”, “Тарихшунослик”, “Этнология” ва бошқа фанлардан ҳам етарлича билимларга эга бўлишлари лозим.

Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни

Жаҳон халқларининг тарихий ривожланишини босқичма-босқич тарихийлик, илмийлик, холисона ёндашув негизида ўрганиш.

Семинар машғулотлари бўйича мавзулар режаси ва адабиётлар рўйхати талабаларга тақдим этилади ва талаба мустақил тайёрланиб келиб мунозара тарзида ўз билимини намойиш этади.

Тақдим этилаётган фаннинг долзарб масалалари бўйича мавзулар ва адабиётлар рўйхати талабаларга тақдим этилади. Талаба, ўз навбатида мустақил тайёрланиб маъруза ва реферат шаклида ўз билимини намойиш этади.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Дастурда кўрсатилган мавзулар маъруза, семинар шаклида олиб борилади, шунингдек, фаннинг долзарб масалалари талабаларга мустақил иш сифатида ўзлаштириш учун берилади. Фан замонавий педагогик технологияларнинг “Кластер”, “Бумеранг”, “ФСМУ”, “Ақлий ҳужум” сингари методлари орқали, ҳамда слайдлар, мультимедия намойишлари билан ўтказилади.

Дастурдаги мавзуларнинг информацион асосини фанга тегишли адабиётлар, даврий адабиётлар, интернет маълумотлари ташкил қилади.

Дастурдаги мавзуларни ўтишда таълимнинг замонавий методларидан кенг фойдаланиш, ўқув жараёнини янги педагогик технологиялар асосида ташкил этиш самарали натижа беради. Бу борада замонавий педагогик технологияларнинг “Кластер”, “Бумеранг”, “ФСМУ”, “Ақлий ҳужум” методлари, шунингдек, слайдлардан фойдаланиш, дидактик ва роли ўқиш усулларини қўллаш назарда тутилади.

Асосий қисм

Янги тарихи

XVII асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошини ўз ичига олган даврнинг жаҳон тарихида тутган ўрни. “Янги тарих” тушунчаси. Янги даврнинг тарихий мазмуни. Янги тарихни даврлаштириш масаласи. Янги таррихни ўрганиш долзарблиги. Янги даврда рўй берган сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий жараёнларнинг тавсифий хусусиятлари.

Буюк Британия XVII-XX аср бошида

XVII асрнинг биринчи ярмида Англиянинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ривожланиши. Яков I ва Карл I Стюартларнинг ички ва ташқи сиёсати. Парламентда мухолифатнинг кучайиши. Пуританлик. Инқилобнинг замини ва шарт-шароитлари. Инқилобнинг бошланиши. Фуқаролар уруши. Левеллерлар ва республиканинг ўрнатилиши. Республика ва протекторат. Оливер Кромвель. Иккинчи республика ва Стюартларнинг тикланиши. “Шонли инқилоб”. Маданият ва сиёсий фикр. XVIII асрнинг биринчи ярмида Англиянинг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Саноат тўнтарилиши. Инглиз маърифатчилиги. Англия Наполеон Франциями билан уруш даврида. XX асрнинг биринчи ярмида ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиш. Саноат тўнтарилишининг якунланиши. Ташқи сиёсат ва мустамлакачилик масалалари. Буюк Британияда ижтимоий муносабатлар. XIX асрнинг иккинчи ярмида Буюк Британиянинг иқтисодий ва сиёсий ривожланиши. Вильям Гладстон ва Бенджамин Дизраэли. Ирландия масаласи. Ишчилар ҳаракати.

Лейбористлар. XX асрнинг бошида Буюк Британиянинг ички ва ташқи сиёсати. Ллойд Джордж. Урушолди инқирози. Британия доминионлари. Буюк Британия биринчи жаҳон уруши йилларида.

Франция XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида

XVII асрнинг иккинчи ярмида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш. Мазарини ва Фронда. Людовик XIV абсолютизми. Француз маърифатчилиги. Инқилоболди инқирози. XVIII аср Франция инқилоби. Консуллик ва биринчи империя. Наполеон Бонапартнинг ички ва ташқи сиёсати. Бурбонларнинг дастлабки тикланиши. Вена конгресси ва унинг қарорлари. Бурбонларнинг иккинчи тикланиши. Тикланиш даврида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш. 1830 йил июль инқилоби. Францияда Июль монархияси (1830-1848 йй.). 1848 йил инқилоби. Иккинчи Республика. 1851 йил 2 декабрь давлат тўнтарилиш ва Иккинчи империя. Иккинчи империя даврида Франциянинг ички ва ташқи сиёсати. Мустамлакачилик сиёсати. Франция-Пруссия уруши. Учинчи Республика. XIX аср охирида сиёсий инқирозлар. XIX охири – XX бошида Франциянинг иқтисодиёти. Учинчи республиканинг ташқи сиёсати. XX аср бошида сиёсий кураш. Франция Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Германия XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида

Герман давлатлари Ўттиз йилик урушдан сўнг. Иқтисодий вазият. Дехқонлар ҳаракати. Герман шаҳарлари. Бранденбург-Пруссия давлатининг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиши. Пруссия қироллиги. Фридрих II-нинг ички ва ташқи сиёсати. Герман давлатлари халқаро муносабатлар тизимида. Ягона немис миллатининг шаклланиши. Маданий ривожланиш. Франциядаги инқилоб (XVIIIа.) ва немис давлатлари. Герман давлатлари. Наполеон урушлари даврида. 1815-1848 йилларда ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиш. 1848-1849 йиллар инқилоби. Инқилобдан сўнг Германиянинг ривожланиши. Иқтисодий ўсиш. Саноат тўнтаришининг якунланиши. Аграр ислоҳотлар. Отто фон Бисмарк фаолияти. Шимолий Герман иттифоқининг барпо этилиши. Ташқи сиёсат. Франция-Пруссия уруши ва Германиянинг бирлашиши. XIX асрнинг охирги чорагида Германия империясининг давлат тузуми ва иқтисодиёти. “Культуркампф” ва социалистик ҳаракатга қарши кураш. XIX асрнинг охирги чорагида ички сиёсий вазият. Германия халқаро муносабатлар тизимида (XIX асрнинг охири – XX аср бошида). XX аср бошида Германиянинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиши. Германия ва “Жаҳон сиёсати”. Германия биринчи жаҳон уруши йилларида.

Австрия (Габсбурглар) империяси XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида

Австрия Ўттиз йиллик урушдан сўнг. XVII асрнинг иккинчи ярмида ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиш. Венгрия Габсбурглар империяси таркибида. Туркияга қарши уруш. Карловиц тинчлик шартномаси. Габсбурглар империяси “Испан мероси” учун уруш йилларида. XVIII аср бошида империянинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. “Австрия мероси” учун уруш. Мария Терезия ва Иосиф II-нинг “маърифатли абсолютизми”. Чехия, Словакия ва бошқа миллий вилоятлар Габсбурглар империяси таркибида. Австрия империяси Француз инқилоби ва Наполеон урушлари йилларида. XIX асрда империянинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Австрия империяси славян халқларининг “Миллий уйғониш” даври. 1848 йил инқилоби. Австрия империяси 1849-1867 йилларда. 1859 йилдаги Франция ва Пьемонтга қарши уруш. Австрия-Пруссия уруши (1866 й.). Империянинг дуалистик Австро-Венгрия монархиясига айланиши. XIX асрнинг охирги чорагида миллий масаланинг кескинлашуви. Австрияда ижтимоий ҳаракатлар. Венгрия дуализм тизимида. Монархиянинг охирги ўн йилликлари. Австро-Венгрия Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Италия XVII асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошида

Итальян давлатларининг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиши. Тарқоқликнинг сақланиб қолиниши. Чет эл давлатларига қарамлик. “Испан мероси”, “поляк мероси”, “австрия мероси” учун урушлар ва итальян давлатлари. Италия XVIII аср охири –

XIX аср бошида. Рисорджименто (Уйғониш). Итальян давлатлари Француз инқилоби ва Наполеон урушлари даврида. XIX асрнинг 20-30 йиллар инқилоби. Джузеппе Мадзини. “Ёш Италия”. XIX асрнинг 20-30 йилларда иқтисодий ривожланиши. Мўтадил либераллар фаолияти. К.Б.Кавур. Итальян давлатлари 1848-1849 йиллар инқилоби даврида. Джузеппе Гарибальди. Италия қироллигининг барпо этилиши. Франция-Пруссия уруши ва Рисорджиментонинг якунланиши. XIX асрнинг охирги чораги – XX асрнинг бошида Италиянинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиши. Италиянинг ташқи сиёсати. Мустамлакалар учун кураш, Италия Биринчи жаҳон уруши арафасида .“Либерал даврнинг” тугаши. Италия Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Россия XVII асрнинг охири – XX асрнинг бошида

Россия XVII асрнинг охирида. Петр I ва малика Софья ўртасидаги кураш. XVIII асрнинг биринчи чорагида ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиш. Петр I ислоҳотлари. Ташқи сиёсат. Шимолий уруш. Россия сарой тўнтаришлари даврида (1725-1762 йй.). “Петр мероси” масаласи. Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш. Сарой тўнтаришлари даврида Россиянинг ташқи сиёсати. Екатерина II-нинг “маърифатли абсолютизми”. Павел I. XVIII асрнинг охирги ўттиз йиллигида Россиянинг ташқи сиёсати. XVIII асрда рус маданияти. Александр I. Дастлабки ислоҳотлар Наполеон Франциясига қарши уруш. Ислоҳотларни давом эттиришга уринишлар. Декабристлар ҳаракати. Россия Николай I ҳукмронлиги даврида. Ижтимоий-иқтисодий вазият. Ғоявий оқимларнинг шаклланиши. 1848-1849 йиллар Европа инқилобларининг Россияга таъсири. Ташқи сиёсат. Қрим уруши. Александр II-нинг ислоҳотлари. Крепостнойликнинг бекор қилиниши. Либерал ҳаракат. XIX асрнинг 60-70-йилларида инқилобий ҳаракатлар. Народниклар. Александр III-нинг “патриархал бошқаруви”. Тинч 13 йиллик .Иқтисодий ўсиш. Саноат тўнтарилишининг якунланиши. Янги ижтимоий қатламларнинг шаклланиши. Россияга марксизм ғояларининг кириб келиши. XIX асрнинг иккинчи ярмида Россиянинг ташқи сиёсати. XIX асрда рус маданияти. Россия XIX-XX асрлар чегарасида. Иқтисодий ривожланишнинг ўзига хос хусусиятлари. Россиянинг ижтимоий структураси. Сиёсий партиялар ва ташкилотларнинг шаклланиши. XIX аср охири -XX аср бошида Россиянинг ташқи сиёсати. Ислоҳотлари атрофидаги кураш (1894-1904). Биринчи рус инқилоби (1905 й). 1905 йил 17 октябр монефести. Давлат думаси. П.А.Столыпин фаолияти: ислоҳотлар. Сиёсий курашнинг авж олиши. Россия Биринчи жаҳон уруши йилларида. 1917 йил Февраль инқилоби. Октябр тўнтариши.

Испания XVII асрнинг иккинчи ярми XX аср бошида

XVII асрнинг иккинчи ярмида Испаниянинг иқтисодий ва сиёсий аҳволи. “Испан мероси” учун уруши (1701-1714). Испанияда Филипп V ва Фердинанд VI ҳукумронлиги. Карл III “маърифатли абсолютизми”. Абсодютик тузумнинг инқирози. Мануэль Годой. Испания Напалион урушлари йилларида Мустақиллик учун уруш. Биринчи инқилоб. 1808 йил 2 май қўзғолони. 1802 йил Кадис конситутцияси. Фердинанд VII ички ва ташқи сиёсати. Иккинчи инқилоб (1854-1856). Бешинчи инқилоб (1868-1873). Биринчи республика. Испания Бурбонларнинг тикланиши. Ички ва ташқи сиёсат. “Эль–Пардо пакти”. Анархистлар, социолистлар ва мухториятчилар. Мустамлакалардан маҳрум бўлиши. XIX асонинг охири –XX асрнинг бошида Испаниянинг сиёсий-иқтисодий аҳволи. Марокаш масаласи. Сиёсий курашнинг кескинлашуви. Испания биринчи жаҳон уруши йилларида.

АҚШ XVII-XX аср бошида

Шимолий Америкада мустамлакаларнинг барпо этилиши.Инглиз мустамлакалардаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий вазият. Мустақиллик учун урушнинг замини ва шарт-шароитлари. Мустамлакалар ва метрополия ўртасидаги зиддиятлар. Мустақиллик учун уруш ва АҚШнинг ташкил топиши. АҚШ-нинг давлат тузуми ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. АҚШ XIX асрнинг биринчи ярмида: тараққиётнинг асосий тендециялари. АҚШ ҳудудларининг кенгайиши. Ички партиянинг сестемасининг шаклланиши. Шимол ва

Жануб ўртасидаги зиддиятдлар. Фуқаролар уруши 1861-1865 й. Қулчиликнинг бекор қилиниши. Жанубий Реконструкциялаш (1965-1877йй). АҚШ 1877-1914 йилларда: иқтисодий-ижтимой муносабатлар. XIX асрнинг охирги чораги- XX аср бошида АҚШнинг ташви сиёсати. АҚШ биринчи жаҳон уруши йилларида.

Португалия XVII асрнинг иккинчи ярми -XX аср бошида

"Партугалия монефести" ва мустақилликнинг тикланиши. Абсолютик монархия шароитида Партугалиянинг ички ва ташқи сиёсати. Маркиз Помбаланинг фаолияти. Ислоҳотлар. Партугалия Француз инқилоби ва Наполеон урушлари йилларида. 1822 йил Корститутцияси. 1826 йил Хартияси. Фуқаролар уруши 1824-1834 йй. "Хартиячилар" ва "Сентябрчилар" ўртасидаги қарама-қаршилик. XIX аср ўрталарида Партугалияда ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий вазият. XIX асрнинг икккинчи ярмида Партугалиянинг давлат тузуми. Манархия ва икки партияли система: "Реженерадос" ("Ўйғониши") ва Тараққиёт партияси. Республикачилар партиясининг тузилиши. Иқтисодиёт ва сиёсат. XIX асрнинг охири- XX асрнинг бошида Партугалиянинг халқаро аҳволи. 1910 йил инқилоби. Партугалия биринчи жаҳон уруши йилларида.

Нидерландлар Бирлашган Провинциялари Республикаси XVIII-XX аср бошида

Инглиз–голланд урушлари. Жаҳон савдосида устиворликнинг йўқотилиши. Иқтисодий ривожланишдаги пасайиши. Недерландларнинг сиёсий тузуми. XVIII асрнинг икккинчи ярмида республикада ички сиёсий вазият. Недерландлар Француз инқилоби ва Наполеон урушлари йилларида. Батав республикаси. Голландия қироллиги. Франция ҳукумронлигининг ағдарилиши. Вена конгресси ва Нидерландлар қироллигининг барпо этилиши. Ижтимоий-иқтисодий вазият. 1830 йил инқилоби ва Бельгиянинг Нидерландлардан ажралиб чиқиши. 1848 йил Конституцияси. Ислоҳотлар. XIX асрнинг иккинчи ярмида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш. Сиёсий кураш. Нидерландлар XX аср бошида. Нидерландлар Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Лотин Америкаси XVIII-XX аср бошида

Лотин Америкасида мустамлакаларнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий аҳволи. Мустамлакачилик тартибларининг инқирози. XVIII асрнинг иккинчи ярмида Лотин Америкасидаги испан ва португал мамлакатларидаги ўзгаришлар. Савдони эркинлаштириш. Демократик инқилоблар ва мустақиллик учун уруш (1810-1826). Миллий давлатларнинг вужудга келиши. Лотин Америкаси мамлакатларидаги ички инқирозлар. Лотин Америкаси – АҚШ муносабатлари. XIX асрнинг 30-йиллардан бошлаб консерваторлар мавқеининг мустаҳкамланиб бориши. Давлат бошқаруви ва ижтимоий-иқтисодий сиёсатдаги ўзгаришлар. Лотин Америкаси мамлакатлари XIX аср ўрталари – XX аср бошида. Аргентина:иқтисодий ривожланиш ва сиёсий кураш. Бразилияда қулдорчилик тузумининг инқирози. Аболюционистик ҳаракат ва монархиянинг ағдарилиши. Перу, Боливия, Чилининг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиши. Марказий Америка мамлакатлари XIX аср охири – XX аср бошида. Кубада мустақиллик учун кураш ва республиканинг вужудга келиши. 1898 йилда АҚШ-Испания уруши. XX асрнинг бошида АҚШ-нинг Лотин Америкасидаги сиёсати. Мексика инқилоби. Лотин Америкаси Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Польша XVII асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошида

XVII асрнинг иккинчи ярмида Речь Посполитая: давлат тузуми, аҳолиси ва ҳудудлари. Саксония қирolларининг ҳукмронлиги. Речь Посполитаянинг халқаро аҳволи. Ижтимоий-иқтисодий вазият. XVIII асрда Польша: ривожланишнинг асосий тенденциялари. Сиёсий гуруҳлар ўртасидаги кураш. Станислав Август Понятовский фаолияти: ислоҳотлар. Польшани бўлиб олишлар. Тадеуш Костюшко қўзғолони. Польша Наполеон урушлари даврида Варшава князлиги. Вена конгресси қарорлари ва Польша. Польша қироллиги Россия

империяси таркибида. XIX асрнинг биринчи ярмида поляк ерларининг ижтимоий-иқттисодий ривожланиши. 1830 йил қўзғолони. 1848-1849 йиллардаги Европа инқилоблари ва поляк ерларида озодлик учун курашнинг фаоллашуви. 1863 йил қўзғолони. XIX асрнинг охирги ўн йилликлари – XX аср бошида поляк ерларидаги сиёсий вазият. Саноат ва қишлоқ хўжалиги. Ижтимоий ривожланиш ва ижтимоий ҳаракатлар. Ишчилар ҳаракати ва социалистик партияларнинг ташкил топиши. 1905 йил рус инқилоби ва поляк ерлари. Польша Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Жануби-Шарқий Европа халқлари XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида

Жануби-Шарқий Европа ва Усмонийлар империяси. Жанубий славянлар Габсбурглар монархияси таркибида. Ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий аҳвол. Жанубий славянларнинг миллий уйғониши. Ҳарватлар, славянлар, серблар. Австрия империясининг жанубий славянлари 1848-1849 йиллардаги инқилоб даврида. XIX асрнинг 60-йилларида Австро-Венгриянинг жанубий славян ерларида ижтимоий кўтарилиш. XVII-XVIII асрларда Болқон славянлари Усмонийлар ҳукмронлиги остида. Усмонийлар империяси таркибидаги жанубий славянларнинг миллий-озодлик ҳаракати: асосий босқичлари ва тенденциялари. Черногория. Сербия. Босния ва Герцеговина. Болгарияда миллий ууйғониш. Дунай князликлари. Юнонистон Усмонийлар империяси таркибида. 1875-1878 йиллардаги "шарқий инқироз". Жануби-Шарқий Европа халқлари XIX асрнинг охирги чораги – XX аср бошида: ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ривожланиш. Болқон урушлари (1912-1913 йй.). Жануби-Шарқий Европа Биринчи жаҳон уруши йилларида.

Шимолий Европа мамлакатлари XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида

Шимолий Европа XVII-XVIII асрларда. Швеция ва Дания – Норвегия қиролликлари: аҳолиси ва ҳудудлари. Ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ривожланиш. Абсолютизмнинг ўрнатилиши. Скандинавия мамлакатларининг ўзаро муносабатлари ва халқаро аҳволи. Шимолий уруш ва унинг оқибатлари. Шимолий Европа давлатларида сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар. Наполеон урушлари натижасида Шимолий Европанинг сиёсий харитасидаги ўзгаришлар. Шимолий Европа 1815-1870 йилларда: ривожланишнинг асосий босқичлари ва тенденциялари. XIX асрнинг 30-40-йилларида Европада инқилобий ҳаракатлар ва Скандинавия давлатлари. Шлезвиг-Гольштейн масаласи. Иқтисодий ривожланиш ва демократиянинг оёққа туриши. Шимолий Европа мамлакатлари XIX асрнинг охирги чораги – XX аср бошида. Дания, Швеция, Норвегия, Финляндия. Скандинавия давлатлари Биринчи жаҳон уруши йилларида.

XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида халқаро муносабатлар

XVII асрнинг иккинчи ярми – XVIII асрда халқаро муносабатларнинг асосий масалалари. Кучлар нисбатидаги ўзгаришлар. "Испан мероси" учун уруш. Шимолий уруш. "Австрия мероси" учун уруш. Етти йиллик уруш. Европа ва Усмонийлар империяси ўртасидаги муносабатлар. Мустамлакачилик сиёсати. Савдо урушлари. АҚШ-нинг ташкил топиши ва Европа давлатлари. Францияда инқилоб ва халқаро муносабатлар. Европа Наполеон урушлари йилларида. Вена конгресси ва унинг қарорлари. XIX асрнинг 20-,30- ва 40-йиллардаги инқилобий ва миллий озодлик ҳаракатларининг халқаро муносабатларга таъсири. "Вена тизимининг" емирилиши. Қрим уруши. XIX асрнинг 50-60-йилларида халқаро муносабатлар. Мустамлакачилик сиёсатининг усуллари ва характеридаги ўзгаришлар. Германиянинг бирлашиши ва Италиянинг бирлашиши. Франция-Пруссия уруши. XIX асрнинг охирги чорагида халқаро муносабатлар. Ҳарбий-сиёсий гуруҳларнинг (блокларнинг) шаклланиши ва улар ўртасидаги кураш. АҚШ, Германия ва Япониянинг мустамлакалар учун курашга қўшилиши. XX аср бошида халқаро муносабатлар. Рус-япон уруши. Болқон урушлари. Давлатлараро рақобатнинг кескинлашуви. Биринчи жаҳон уруши.

XVII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида маданият, фан ва техниканинг ривожланиши

Янги даврда фан ва техника тараққиётининг умумий хуусиятлари. Илмий фикрлаш хусусияти. Фаннинг ижтимоий тартибот сифатида хизмат қилиши. Фаннинг ижтимоий муносабатлар характерига таъсири. Фан ва техника саноат тўнтарилиши шароитларида. Илмий жамиятларнинг ривожланиши. Табиий фанлар ва техниканинг ривожланиши. Ижтимоий фанлар, назариялар ва таълимотлар. Маданиятнинг ривожланиши: асосий йўналишлар, оқимлар. Тенденциялар. Европа маърифатчилиги ва маданият. Адабиёт ва санъат.

Осиё ва Африка халқлари янги давр бошланишида

Осиё ва Африка халқлари янги давр бошланишида. Шарқ мамлакатларида мустамлакачиликнинг асосий даврлари. Европа ва Америка саноат ривожланиши, хомашё ресурслари ва бозор учун курш. Босқинчилик урушлари. Осиё ва Африка мамлакатларининг ривожланишида ғарб давлатларидан орқада қолиши. Миллий озодлик ҳаракатларининг бошланиши.

XVII аср ва XIX асрнинг 60-йилларида Япония

XVIII асрнинг ўрталарида Японияниг иқтисодий аҳволи. Токугава давлати. Ажратиб қўйиш сиёсати. Савдо-сотиқнинг ривожланиши. Феодал хўжалик инқирозининг кучайиши. Мануфактуранинг ўсиши. Дехқонлар аҳволининг оғирлашуви ва уларнинг оммавий равишда шаҳарга кетиб қолиши. Дехқонлар ва хунармандлар қўзғолонлари. Токугава тартиботи. Япония ва ғарб давлатлари. Рус-япон муносабатлари. Сёгунат даврида Япония маданияти. 1867-1868 йиллардаги инқилоб. Америка, Англия ва Франциянинг Япония ички ишларига аралашуви. Тенгсиз шартномалар. Токугава тартиботига қарши ҳаракат. Фуқаролар уруши ва Сёгунат тартиботининг тугаши. Янги ҳукумат ва унинг сиёсати. Аграр ислоҳот.

XVIII асрнинг ўрталарида ва XIX асрнинг 1870 йилларида Хитой

XVII асрнинг ўрталарида ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий вазият. Маньжур ҳукуматининг ички сиёсати. Цинь империясининг аграр сиёсати. Савдо-сотиқ, мануфактура, хунармандчилик ва шаҳардаги ижтимоий аҳвол. Маньжур ҳукмдорларининг босиб олиш сиёсати. Цинь сулоласининг ташқи сиёсати. Хитойни ажратиб қўйиш. Хитой халқининг Маньжур ҳукмдорларига қарши кураши. Цинь империясининг иқтисодий ва сиёсий аҳволи. Ғарб мамлакатлари ва Хитой. Биринчи инглиз-хитой (афюн) уруши. 1842-1844 йиллардаги тенгсиз шартномалар. Хул-Сио-Цюам таълимоти. Дехқонлар урушининг бошланиши. Тайпинларнинг ички ва ташқи сиёсати. Цинь ҳукумати ва Ғарб давлатлари. Тайпин давлатининг қулаши. Халқ ҳаракатлари. Дунган-уйғур қўзғолони. Ёқуббек ва унинг сиёсати. Хитой ва Марказий Осиё давлатлари. Иқтисодий ва сиёсий муносабатлар.

XVII-XIX асрларда Ҳиндистон

Бобурийлар империясининг инқирози. Ҳиндистондаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий вазият. XVIII асрнинг 2-ярмида Ҳиндистонда Англия ҳукмронлиги. Ҳиндистон ва Ост-Ҳинд компанияси. Ҳиндистон Англиянинг хом ашё манбаи. Ҳиндистонда ер эгалиги қатламининг шаклланиши ва Ҳинд зиёлиларининг пайдо бўлиши. Янги шаҳарларнинг ривожланиши. 1857-1859 йиллардаги халқ қўзғолонлари. XIX асрнинг 60-йилларида Ҳиндистондаги ички ва ташқи вазият. Ҳиндистон ва Марказий Осиё давлатлари. Иқтисодий ва маданий муносабатлар.

XVIII асрнинг ўрталари ва XIX асрнинг 1870 йилларида Эрон

Сафовийлар давлати инқирози ва феодал гуруҳлар ўртасидаги низолар. Нодиршоҳ ҳукмронлиги ва унинг олиб борган ички ва ташқи сиёсати. Керимхон Зеид ва унинг сиёсати. Кажарларнинг ички ва ташқи сиёсати. Англия ва Франция ўртасидаги Эрон учун кураш. Биринчи Россия-Эрон уруши ва Гулистон сулҳи. 1814 йилдаги Инглиз-Эрон шартномаси.

Эрон-Турк уруши. Туркманчай сулҳи. Россия ва Эрон муносабатлари. Инглиз-Эрон муносабатлари. Эронда Бобидлар қўзғолони. XIX асрнинг 50-60 йилларда Эрондаги ички ва ташқи сиёсат. Эрон ва Марказий Осиё давлатлари. Сиёсий, иқтисодий ва маданий муносабатлар.

XVII асрнинг II ярми ва XIX асрнинг I ярмида Турк (Усмонийлар) империяси

XVII асрнинг ўрталарида Усмонийлар итмперияси. Европа давлатлари ва Туркия. Империянинг ички аҳволи. 1730-1731 йиллардаги Истамбул қўзғолони. Усмонийлар империясининг халқаро аҳволи. Салим III ислоҳотлари. Россия-Туркия муносабатлари. Туркия ва Ғарб мамлакатлари. Туркиянинг ярим мустамлакага айлана бошлашининг сабаблари. Махмуд II фаолияти (танзимот) 1853-1866 йиллардагни Қрим уруши ва Париж трактати. Туркиядаги чет эл сармояси. Туркия ва Марказий Осиё давлатлари. Сиёсий, иқтисодий ва маданий муносабатлар.

Афғонистонда Дурронийлар давлати

Жамоа-уруғчилик тузумининг емирилиши ва феодал муносабатларининг шаклланиши. Дурронийлар давлатининг ташкил топиши. Афғонистоннинг XVIII асрнинг иккинчи ярмида ижтимоий-иқтисодий тузуми. Ахмад-шох юришлари. Дурронийлар давлатининг парчаланиши. Англиянинг Афғонистонга тажовузи. Афғон халқининг босқинчиларга қарши кураши. 1855 йилги инглиз-афғон шартномаси. Рус-афғон муносабатлари.

Корея XVII аср иккинчи ярми – XIX аср ўрталарида

XVII-XVIII асрларда Кореянинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Дехқонлар қўзғолонлари ва сиёсий кураш. Феодал Кореяда инқирознинг кескинлашуви. Хон-Чён Нэ қоўғолони ва дехқонларнинг тутган ўрни. Ривожланган давлатларнинг Кореяга тажовузи. XIX асрнинг 60-йилларида дехқонлар қўзғолонлари. Регент Тэвонгуннинг ички ва ташқи сиёсати. Корейс халқининг босқинчиларга қарши кураши.

XVII-XIX асрларда Араб давлатлари

XVII-XVIII асрларда Усмонийлар империяси таркибидаги араб давлатлари. Французларнинг Мисрга ҳарбий экспедицияси. Мисрда инглиз-француз рақобати. Мухаммад Алининг ички ва ташқи сиёсати. XIX асрдаги Араб давлатлари ва Усмонийлар империяси. XIX асрдаги Араб давлатлари ва ғарб мамлакатлари. Араб дунёси ва Марказий Осиё. Маданий ва диний алоқалар.

Осиё ва Африка мамлакатлари XIX асрнинг 70-йиллари ва XX аср бошларида

Осиё ва Африка мамлакатларида XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида рўй берган ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ўзгаришлар. Чет эл сармоясининг ушбу мамлакатларга кириб келиши. Миллий озодлик ҳаракати. Турли сиёсий партиялар, ташкилотлар ва оқимларнинг пайдо бўлиши. Тараққиё этган Европа мамлакатларининг дунёни қайта бўлиб олиш учун кураши. Биринчи жаҳон уруши даврида Осиё ва Африка мамлакатлари.

XIX аср охири XX аср бошларида Хитой

Хитойда янги ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг шаклланиши ва уларнинг хусусиятлари. Кан Ювей раҳбарлигида ислоҳотчилик ҳаракати. Сун Ятсеннинг биринчи инқилобий ташкилоти – “Хитой уйғониши иттифоқи”. Ихэтдон қўзғолони ва унинг мағлубиятга учраши. 1901 йилда тузилган “Якунловчи протокол” ва Хитойнинг ярим мустамлака холига тушиб қолиши. XX аср бошларида Хитойда иқтисодиётнинг ривожланиши. 1905-1907 йилларда Хитойда инқилобий ҳаракатларнинг ўсиши. “Бирлашган иттифоқ” (тукмен). Сун-Ят-Сеннинг “3 тамойили”. Синхай инқилобининг бошланиши. Цин

саройининг сиёсати. Республика ҳукуматининг тузилиши ва Сун Ятсеннинг вақтинча президент қилиб сайланиши. Цинь сулоласи ҳокимиятининг тугатилиши. Юан Шинайнинг ҳокимиятга келиши. Гоминданнинг ташкил бўлиши. Биринчи жаҳон уруши йилларида Хитойнинг сиёсий ва иқтисодий аҳволи.

XIX асрнинг 60-90 йиллари XX аср бошларда Япония

Японияда ички-иқтисодий тараққиётнинг хусусиятлари. Замонавий саноатни вужудга келтиришда давлатнинг роли. 1866 йил инқилобининг ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитлари. Дехқонлар ҳаракати. Самурайлар қўзғолони. Сиёсий партияларининг вужудга келиши. 1881 йилги Конституция. 1894-1895 йилларидаги Япония-Хитой уруши. Япония биринчи жаҳон уруши йилларида.

XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида Мўғулистон

Мўғулистоннинг ижтимоий таркиби. Феодал-демократик давлатнинг ташкил топиши. Ойратларнинг аҳволи. Мўғул халқининг миллий озодлик ҳаракати ва Цинь ҳукуматининг ағдарилиши. Давлат тузуми. Ижтимоий тафаккур.

XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида Ҳиндистон

Ҳиндистон иқтисодиёти ва мустамлакачилик зулмининг кучайиши. Аграр муносабатлар. Ҳиндистонга инглиз сармоясининг кириб келиши. Ҳиндистонда товар-пул муносабатларининг ўсиши. Миллий саноат ривожланиши. 1860-1870 йилларда миллий озодлик ҳаракати ва ундаги асосий оқимлар. Ҳиндистон миллий конгрессининг ташқил бўлиши ва унинг фаолияти. Мусулмон жамоа ҳаракати. 1906-1908 йилларда ишчилар ва дехқонлар ҳаракати. “Свараж” ва “свадеши”. 1905 йилда Бенгалиянинг бўлиб юборилиши ва оммавий ҳаракати. Биринчи жаҳон уруши даврида Англиянинг Ҳиндистондаги сиёсати. М.М.Ганди фаолиятининг бошланиши.

XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида Афғонистон

Англиянинг Афғонистонга тажовузи ва иккинчи инглиз-афғон уруши (1878-1880). Гандамак шартномаси. Қобулдаги халқ қўзғолони. 1891 йилдаги инглиз-афғон шартномаси. Пуштун қабилаларининг инглиз босқинчиларига қарши қўзғолони. 1907 йилдаги инглиз-рус битими ва Афғонистон. Ёш афғонлар ҳаракати. Афғонистон биринчи жаҳон уруши йилларида Марказий Осиё ва Афғонистонда рус-инглиз рақобати.

XIX аср охири – XX аср бошларида Эрон

Эроннинг ярим мустамлакага айланиш жараёни. Эрон иқтисодиётидаги асосий тармоқларнинг Англия, Россия қўлига ўтиши. АҚШ ва Германиянинг Эрондаги фаоллигининг кучайиши. Миллий ҳаракатларнинг вужудга келиши ва ривожланиши. 1908 йилда Техрондаги аксил-инқилобий тўнтарилиш. 1908-1909 йиллардаги Табриз қўзғолони. Мухаммад Али шохнинг ағдарилиши. Англия ва Россиянинг тажовузи. Турк қўшинларининг Эронга кириши. Инқилобнинг енгилиши ва унинг сабаблари. Эрон биринчи жаҳон уруши йилларида.

XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида Туркия

XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркиянинг ижтимоий, иқтисодий тараққиёти. 70-йиллардаги сиёсий инқироз. 1876 йил Конституцияси. Миллий қарама-қаршиликларнинг кучайиши. 1877-1878 йиллардаги Россия-Туркия уруши. 1878 йил Берлине трактати. Сербия, Черногория, Руминия мустақиллигининг тан олиниши. Кипр ва Мисрни Англия томонидан, Тунисни Франция томонидан босиб олиниши. Усмонийлар империясининг ярим мустамлакага айланиш жараёни. Чет эл кнцессиялари. Бағдод темир йўли. Германиянинг Туркияга кириб келиши. Абдул Хамид II тартиботи. Озодлик ҳаракати. “Бирлик ва тараққиёт” партиясининг вужудга келиши. Туркияда ёш туркларнинг инқилоби. Усмонийлар империяси ҳудудларини босиб олиш учун кураш. Ёш туркларнинг ҳокимият тепасига

келиши. Араб ва бошқа халқларнинг миллий озодлик кураши. Пантуркизм ғояларининг вужудга келиши ва моҳияти. Халқ оммасининг аҳволи. Ижтимоий-сиёсий қарама-қаршиликларнинг кескинлашуви. Ёш туркlар сиёсатининг барбод бўлиши.

Корея XIX –XX аср бошида

XIX асрнинг 2-ярмида Кореяда ижтимоий-иқтисодий вазият. Ривожланган давлатларнинг мустамлакачилик сиёсатининг оқибатлари. 1893-1894 йилларда дехқонлар қўзғолонлари. Япония-Хитой урушлари (1894-1895) ва Корея. Рус-япон уруши ва Кореяда Япония протекторатининг ўрнатилиши. Кореяда ижтимоий-иқтисодий муносабатлардаги ўзгаришлар. Кореянинг аннексия қилиниши. Япония мустамлакачилик тартиботи. Корея I-жаҳон уруши йилларида.

Араб мамлакатлари XIX аср охири ва XX аср бошларида

Чет эл сармоясининг араб мамлакатларига кириб келиши. Усмонийлар ҳукуматининг сиёсати. Араб мамлакатларининг ғарб мамлакатлари томонидан босиб олиниши. Мустамлакачилик сиёсатининг ижтимоий, иқтисодий оқибатлари. Англия-Франция қарама-қаршилиги. Фашод инқирози. 1899 йилги битим. Ливиянинг Италия томонидан Тунисниng Франция томонидан босиб олиниши. Жазоир Франция ҳукмронлиги остида. 1890 йил Мадрид конференцияси ва Марокашнинг ярим мустамлакага айланиши. Араб мамлакатларида ижтимоий, сиёсий тафаккурнинг ривожланиши. Миллий ташкилотлар, миллий сиёсий оқимларнинг келиши.

XIX аср охири ва XX аср бошларида Африка

Африка Ғарб давлатларининг босқинчилик сиёсати. 1884-1885 йиллардаги Берлин конференцияси. Африканинг тақсимланиши. Франция, Англия, Италия ва Германиянинг Африкадаги босқинчиликлари. Африка халқининг мустамлакачиликка қарши кураши. Германия ва Португалиянинг жанубий Африкадаги экспедицияси. 1879 йил инглиз-прусс уруши ва жанубий Африка иттифоқининг вужудга келиши. Чет эл ҳукмронлигига қарши курашнинг янги шакллари. Африка миллий конгрессининг пайдо бўлиши. Африкада Ҳинд жамоасининг вужудга келиши. М.Гандининг жанубий Африкадаги фаолияти. Африка биринчи жаҳон уруши йилларида.

Энг янги тарих (1918-1945 йй.)

I ва II Жаҳон уруши ўртасидаги Европадаги мамлакатлар ва АҚШ

I Жаҳон урушининг ниҳояси ва инсоният тарихида энг янги даврнинг бошланиши. 1917 йилги Россиядаги февраль демократик инқилобининг ғалабаси ва октябрь воқеаларининг ғарб мамлакатларидаги таъсири. 1918 йил куз фаслидаги Германия ва Австрия-Венгриядаги демократик инқилоблар ва уларнинг оқибатлари. Биринчи Жахон урушининг натижалари. 1918-1923 йилларда халқаро муносабатлар.

Англия 1918-1939 йилларда

1918-1939 йилларда Англия сиёсий тарихига бағишланган манбалар, иқтисодшунослик. 1918-1924 йилларда Англиянинг ички ва ташқи сиёсати. Англия мустамлакаларида миллий-озодлик ҳаракатлари. Доминион ва мандат системалари. Макдональд башчилигадаги биринчи ва иккинчи хукумати. Невилл Чемберлен ва унинг ички ва ташқи сиёсати.

Германия 1918-1939 йилларда

Веймар Республикасининг ташкил топиши ва унинг ички ва ташқи сиёсати. 1919-1923 йилларда Германияда ўтказилган ислоҳотлар. 1932 йилда ўтказилган сайловлар ва унинг натижалари. 1933 йилларда А.Гитлернинг ҳокимият тепасига келиши ва Веймер республикасининг қулаши. 1933-1939 йилларда Германияда тоталитаризмга асосланган сиёсий системанинг моҳияти. Гитлер бошчилигидаги национал-социалистларнинг ички ва ташқи сиёсати. Мюнхен шартномаси.

Франция 1918-1939 йилларда

Франция судхўрлиги капитализмнинг тараққиёти. 1926-1927 йилларда Пуанкаре бошчилигидаги “Миллий бирлик” ҳукумати. Э.Даладье ҳукуматлари. “Халқ фронти” ҳукуматининг фаолияти ва унинг тарихий аҳамияти Халқ фронтининг тарқаб кетиши.. II-жаҳон уруши арафасида Францияниг ташқи сиёсати.

АҚШ 1918-1939 йилларда

Иқтисодий ва сиёсий инқироз йилларида АҚШ (1918-1921 йй.). Париж конференциясида АҚШ-нинг иштироки. Вашингтон системаси. 1928 йилги Президент сайловлари ва Г.Гувернинг (1929-1932) Президентлиги. 1932 йил Президент сайловларида демократлар ғалабаси ва Ф.Д.Рузвельтнинг “Янгича сиёсати” моҳияти.

Италия 1918-1939 йилларда

Италияда фашизмнинг пайдо бўлиши ва ҳокимият тепасига келиши сабаблари. Б.Муссолини. Италия фашизмининг ўзига хос хусусиятлари. II-жаҳон уруши арафасида Италия.

СССР 1918-1939 йилларда

Совет давлатининг ички сиёсати. Совет империясининг шаклланиши. Тоталитар тузумнинг вужудга келиши. Ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий муносабатларнинг ривожланиши. Саноатлаштириш ва колхозлаштириш иқтисадий ислохатлар. Сталин диктатураси. Совет давлатининг иккинчи Жахон уруши арафасида ташқи сиёсати. Робентроп-Молотов битими.

Шарқий Европа давлатлари 1918-1939 йилларда

Болгария, Венгрия ва Румыния давлатларида фашистик хукуматлар. Польша хукуматининг иккинчи Жахон уриши арафасида ташки сиёсати. Скандинавия давлатларида фашистик сиёсатга ва тизимга ёндашиш.

Фашистик Германиянинг ташқи сиёсатига Европа давлатларининг таслим бериши ва агресив харакатига йўл очиб бериши.

Европа ва Америка мамлакатлари иккинчи жаҳон уруши йилларида (1945-2011)

Иккинчи жаҳон урушининг келиб чиқиш сабаблари. Иккинчи жаҳон урушининг даврлари. Фашистлар Германиясининг Польшага ҳужум қилиши ва иккинчи жаҳон урушининг бошланиши. Ғарбий фронтдаги “Ғалати уруш”. Совет-Германия уруши. Европадаги ҳарбий ҳаракатлар. Осиё-Тинч океани минтақасида ҳарбий ҳаракатлар. Германияга қарши коалициянинг вужудга келиши. Москва,Теҳрон ва Ялта конференциялари.

Хитой 1918-1945 йилларда

Вашингтон конференциясининг Хитой тўғрисидаги қарорлари. Совет-Хитой муносабатлари. 1924 йилги битим. Шимолда чет эл мамлакатларига қарши ҳаракатнинг кучайиши. Сун Ятсен ўлими ва унинг сиёсий васияти. 1925-1927 йилларда Хитой инқилоби ва унинг натижалари. Гоминдан ҳукуматининг ўрнатилиши, сиёсати ва унинг характери. Жанубий Хитойдаги инқилобий қўзғолонлар. Совет ҳудудларида хитой ҳарбий қисмларининг тузилиши. Хитой советларининг биринчи съезди. Хитойда аграр сиёсат. 1930-1933 йиллардаги Гоминдан юришлари. Япониянинг Хитойга хужуми.

Япония 1918-1945 йилларда

Жаҳон иқтисодий инқирозининг Японияга таъсири. Япония тажовузининг кучайиши. Шимолий-Шарқий Хитойнинг босиб олиниши. Япониянинг Хитойга қарши ҳужуми (1937). Япония қўшинларини Хасан кўли. Халхингол дарёси ёнида мағлубиятга учраши.

Япониянинг Жанубий-Шарқий Осиёдаги экспансиясининг кучайиши. Япониянинг Германия билан ҳарбий-сиёсий иттифоқи.

Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда Европа ва Америка мамлакатлари

1944-1945 йилларда халқаро муносабатларнинг вужудга келиши. “Совуқ уруш”. 1950 йилларда Ғарбий Европада узилган иқтисодий бирлашмалар ва “Европа иқтисодий ҳамкорлиги” (Умумий бозор). 1950-1970 йиллардаги икки лагерь ўртасидаги қарама-қаршилик, қуролланиш пойгаси. 1980-1990 йилларида халқаро вазият ва ғарб мамлакатлари.

ГФР II-жаҳон урушидан кейинги йилларда

II-жаҳон урушидан кейин Германияда вужудга келган. Ғарбий ва Шарқий зоналар. 1949 йил май ойида “Бонн Конституцияси”-нинг ишлаб чиқарилиши. Бонн конституцияси асосида ўтказилган сайловлар ва ГФР-нинг ташкил топиши. Икки палатали парламент. Бундестаг ва Бундесрат. ГФР-да парламент республикасининг такомиллашуви.

Г.Коль ҳукуматининг ички ва ташқи сиёсати. 1989 йил Шарқий Европа мамлакатларидаги таназзул ва ГДР. Германия бирлашуви. Германиянинг Европа иттифоқида тутган ўрни.

АҚШ II-жаҳон урушидан кейинги йилларда

Г.Трумэннинг ички ва ташқи сиёсати. Д.Маршалл режаси ва унинг моҳияти. Шимолий Атлантика (НАТО) блокининг вужудга келиши. 1952 йилги Президент сайловлари ва республикачи Д.Эйзенхауэрнинг ғалабаси. 1960 йилги Президент сайловларида республикачилар ва демократларнинг ҳокимият учун олиб борган курашлари. 1962 йилда Кариб инқирози ва Совет-Америка муносабатлари. 1968 йил президент сайловларида Р.Никсоннинг ғалабаси. Унинг ички ва ташқи сиёсати. Ж.Форд президентлиги (1973-1976). 1980 йилги президент сайловларида республикачи Р.Рейтан ғалабаси. 1992 йил президент сайловларида демократ Б.Клинтон ғалабаси. Б.Клинтоннинг ички ижтимои-иқтисодий ислохатлари. Дж.Бушнинг ички ва ташқи сиёсати. Б.Абама маъмурияти.

Франия иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда

1944 йилда Францияниг Гитлерчилар истибдодидан озод этилиши ва Ш. де Голль бошчилигидаги Муваққат ҳукуматининг фаолияти. 1945 йилги Референдум ҳамда таъсис мажлисида ўтказилган сайловлар ва уларнинг натижалари. Францияда IV-республиканинг таъсис этилиши (1946-1958). IV-республиканинг қулаши ва V-республикага асос солиниши. V-республиканинг Конституцияси. V-республика – Президентлик республикаси. Ш. де Голлнинг (1958-1968) ички ва ташқи сиёсати. Президент Валери Жискар Д.Эстен даврида Франция Ф.Миттераннинг президентликка сайланиши. 1988 йилги президент сайловларида Ф.Миттераннинг президентликка қайта сайланиши.1990 йиллардаги ички ва ташки сиёсатни ўзгариши. Францияниг европадаги урни.

Англия иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда

1945 йил Парламент сайловлари. К.Эттли бошчилигидаги ҳукуматнинг (1945-1951) У.Черчилль консерватив ҳукуматининг (1951-1954) ички ва ташқи сиёсати. 1970 йилдаги парламент сайловлари ва консерваторлар ғалабаси (1970-1974). Лейбористлар партиясининг 1974-1979 йилги ҳукумати. 1978 йил сайловларида консерваторларнинг энг ҳокимият тепасига келиши М.Тетчер. М.Тетчернинг ички ва ташқи сиёсати.

Италия иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда

1946 йил 2 июндаги давлат тузуми тўғрисидаги референдум ва таъсис мажлисида ўтказилган сайловлар. Референдум ва сайлов натижалари. Италияда Республиканинг таъсис этилиши. Италия ва Шимолий Атлантика (НАТО) блоки. АҚШ-нинг Италия иқтисодиётига таъсири. 1950-1960 йиллардаги Италиянинг иқтисодий-сиёсий тараққиёти. Италиянинг 1957

йилда Ғарбий Европа мамлакатларининг “Евроатом” ва “Умумий бозор” тўғрисидаги шартномаларга қўшилиши.

СССР иккинчи жаҳон урушидан сўнг

40-80 йилларда иқтисодий ривожланиш. Стагнация ва инқироз жараёнини кучайиши. 40-80 йилларда давлатда ижтимоий-сиёсий аҳвол. Ташқи сиёсат. Шарқий Европада совет ҳукмронлигининг ўрнатилиши. Варшава шартномаси. ССЖИ ва Ғарб мамлакатлари 1980-йилларнинг иккинчи ярмида ижтимий ва иқтисодий қийинчиликлар. Миллатлараро муаммолар.

Республикаларнинг мустақиооикка интилиши. 1991 йил 19-21 август ойида ГКЧП хукумати ва СССРнинг таркаб кетиши. МДХ мамалакатлари.

Шарқий Европа мамлактлари иккинчи Жахон уриши дан сўнг

Иккинчи Жахон уришидан сўнг Шаркий европа давлатлрида коммунистик хукуматларининг ўрнатилиши.БХР,ВХР,ПХР,ГДР,ЧССР. 1956 йилда Будапешт воқеалари. 1968 йилда Прага воқеалари. 1980 йилда Палшадаги Солидарность ишчилар ташкилоти.

СССРдаги Қайта қуриш сиёсати Шарқий Европа давлатларига таъсири.

1990 йилларида Шарқий Европа давлатларида сиёсий ўзгаришлар.

Югославиядаги фуқоролар уриши ва давлатнинг парчаланиши. Косова муаммоси.

Осиё ва Африка мамлакатлари XX аср иккинчи ярмида

Осиё ва Африка давлатларидаги сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар. Мустамлака тизимининг қулаши ва мустақил давлатларнинг пайдо бўилиши. Африка давлатларида ички сиёсий, этник ва диний муамолар.

Хитой XX аср иккинчи ярмида

Хитой халқ республикасининг илк қадамлари ва 1949-1957 йиллардаги ички ва ташқи сиёсати. “Катта сакраш”, “Халқ коммунаси”, “Маданий инқилоб”. 1979-1996 йилларда Хитой Халқ Республикаси. 80-йилларнинг бошларида Хитойдаги ижтимоий, иқтисодий ва маданий ўзгаришлар. 90-йиллардаги ХХР-даги сиёсий, ижтимоий, иқтисодий вазият..

ХХР жаҳон миқёсида иқтисодий ва сиёсий моҳияти.

Япония XX аср иккинчи ярмида

Япон ҳукуматининг ташқи сиёсати. 50-60 йилларда Япониянинг ички ва ташқи сиёсати. 70-80 йилларда Япония. 90-йиллардаги Япониянинг сиёсий, маданий ва ижтимоий, иқтисодий ривожланиши. Япония ва жаҳон ҳамжамияти.

Ҳиндистон XX аср иккинчи ярмида

1947 йил “Ҳиндистон иттифоқи” ва “Покистон”. Мустақилликни қўлга киритгандан кейин Ҳиндистон. Мамлакатни иккига бўлиб юборилганидан кейинги ижтимоий ва иқтисодий аҳволи. Ҳиндистоннинг республика деб эълон қилиниши. Ж.Нерунинг ички ва ташқи сиёсати. Ҳозирги даврда Ҳиндистон тараққиёти. 60-70 йилларда Ҳиндистондаги ички сиёсий вазият. Ҳозирги даврда Ҳиндистондаги маданий ва ижтимоий, иқтисодий тараққиёт. 80-90 йилларда.

Афғонистон XX аср иккинчи ярмида

II-жаҳон урушидан кейин Афғонистоннинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи. Совет-Афғон муносабатлари. 1973 йилдаги тўнтариш ва Республика эълон қилиниши. М.Довуд сиёсати. 1978 йилдаги апрель инқилоби. Х.Амин фаолияти. Б.Кармаль ҳукуматининг ички ва

ташқи сиёсати. 80-90 йилларда Афғонистондаги ички ва ташқи вазият.Толибонлар харакати. НАТО давлатлари томонидан толибанларга қарши харакати.Х.Карзай хукумати.

Эрон XX аср иккинчи ярмида

Эрон ва Боғдод пакти (СЕНТО). Эроннинг ташқи сиёсати. Эрон ва АҚШ. 1978-1979 йиллардаги шоҳ режимига қарши қаратилган инқилоб. Р.Хомейни бошчилигидаги ҳаракатининг Эрон тарихидаги роли. Эрон ислом республикасининг эълон қилиниши. 80-90 йилларда Эрон ҳукумати олиб борган ички ва ташқи сиёсат.

Эрон Ислом Республикаси ва жаҳон ҳамжамияти. Эрон ядро дастури ва халқаро ташкилотларининг муносабати.

Араб мамлакатлари XX аср иккинчи ярмида

Араб-Исроил уруши. 60-йилларнинг охирида Араб мамлакатлари. 70-80 йиллардаги Араб мамлакатларининг ички ва ташқи сиёсати. Араб давлатларининг нефть борасида олиб борган сиёсати. Араб давлатларининг 70-80 йиллардаги саноати тараққий этган давлатлар билан муносабатлари. Араб мамлакатларидаги сиёсий, маданий ва ижтимоий, иқтисодий ўзгаришлар.

Араб мамлакатлари ва халқаро ислом терроризм муамоси.

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Фан учун ишчи дастур тузиш жараёнида мазкур мавзулар рўйхатида семинар машғулоти учун ажратилган соат хажмига мос холда мавзулар танлаб берилади. Шунингдек, семинар машғулотларида талабалар Жаҳон тарихи фанидан маъруза дарсларида олган назарий билимларини мустаҳкамлаш билан бирга, семинарлар мавзулари бўйича тайёргарлик кўриш жараёнида қўшимча адабиётлар ва тарихий манбалар билан танишиш орқали қўшимча билим оладилар. Натижада уларнинг билим доиралари илмий жиҳатдан асосланган ҳолда кенгаяди.

Семинар машғулотларининг тахминий тавсия этиладиган мавзулари:

1. Инглиз инқилоби (XVII аср).
2. Европада XVII-XVIII асрларда феодал-абсолютистик тузум.
3. Россия XVIII-XIX асрларда.
4. Шимолий Америкада мустақиллик учун кураш. АҚШ-нинг ташкил топиши.
5. Француз инқилоби (XVIII аср охири).
6. Франция Консуллик ва Биринчи империя даврида.
7. Европа мамлакатлари 1815-1850 йилларда.
8. Европада 1848-1849 йиллар инқилоблари.
9. Франция 1815-1870 йилларда.
10. 1815-1870 йилларда Европада халқаро муносабатлар.
11. АҚШ-да фуқаролар уруши. Жанубни Реконструкциялаш.
12. 1870-1918 йилларда Европада халқаро муносабатлар.
13. Япония XVII аср ўрталари –XX аср бошида..
14. Хитой XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
15. Ҳиндистон XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
16. Эрон XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
17. Афғонистон XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
18. Туркия XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
19. Корея XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
20. Араб мамлакатлари XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
21. Африка мамлакатлари XVII аср ўрталари – XX аср бошида.
22. Мўғулистон XVII аср ўрталари – XX аср бошида.

23. Жаҳон урушининг ниҳояси ва инсоният тарихида энг янги даврнинг бошланиши.
24. II жаҳон уруши арафасидаги Англия тараққиёти.
25. Германияда ноябрь инқилоби ва Веймар Республикасининг ички ва ташқи сиёсати.
26. Биринчи ва иккинчи жаҳон уруши оралиғидаги йилларда Франция.
27. Ф.Д.Рузвельтнинг “Янги йўл сиёсати”. Ижтимои-иқтисодий ислохатлар ва унинг натижалари.
28. Италияда фашизмнинг пайдо бўлиши ва Б.Муссолинининг ҳокимият тепасига келиши.
29. Япония 1918-1945 йилларда.
30. Совет Иттфоки 1924-1939 ййларда.
31. I жаҳон урушидан сўнг Африка мамлакатлари.
32. Германияда тоталитаризмга асосланган сиёсий тузум.
33. Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда халқаро вазият.
34. 1950 йилдаги ГФР-нинг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий тараққиёти.
35. АҚШ II-жаҳон урушидан кейинги йилларда.
36. Францияда V-республика.
37. Англия II-жаҳон урушидан кейинги йилларда.
38. Италия II-жаҳон урушидан кейинги йилларда..
39. ССЖИ урушдан кейинги даврда.
40. Осиё ва Африка мамлакатлари XX аср иккинчи ярмида.
41. Хитой Халқ Республикаси XX аср иккинчи ярмида.
42. II-жаҳон уруши йилларидан кейинги Япония.

Фан учун дастур тузиш жараёнида мазкур мавзулар рўйхатидан семинар машғулотлари учун ажратилган соат ҳажмига мос ҳолда мавзу танлаб белгиланади. Шунингдек семинар семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза мавзулари бўйича олган билим ва кўникмаларини амалий масалалар ечиш орқали янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, мавзулар бўйича кўргазмали қуроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади.

Мустақил ишни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни

Талаба мустақил ишни тайёрлаш муайян фаннинг хусусиятларини ва мустақил таълим учун ажратилган соат хажмини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- Семинар машғулотларга тайёргарлик;
- Дарслик, хрестоматия ва ўқув қўлланмалари бўйича фан боблари ва мавзуларни ўрганиш;
- тарқатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- тарихий материаллар билан ишлаш, уларни ҳар томонлама таҳлил қилиш;
- махсус адабиётлар бўйича фанлар бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш;
- талабаларнинг ўқув-илмий-тадқиқот ишларини бажариши билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ва мавзуларини чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубларидан фойдаланадиган ўқув машғулотлари.

Тавсия этиладиган мустақил ишларнинг мавзулари:

1. Ғарбий Европа мамлакатларида “маърифатли абсолютизм” тузуми ва унинг амалий кўриниши.
2. XVII асрнинг иккинчи ярми – XVIII асрда Европада дин ва черков масалалари.
3. XVIII-XIX асрларда Европада фан ва техниканинг ривожланиши.
Avtoritarizm – davlat hokimyatining bir shaxs yoki bir tashkilot qo`lida to`planishini, vakillik organlari rolini pasayishini, muxolifatni juda cheklab qo`yilishini, boshqaruvning diktatorlik uslublaridan foydalanishni bildiruvchi siyosiy tuzum; o`ta reaktsion siyosiy tizim.
Agressiya (lot) – Tajovuz, tajovuzkorlik, bosqinchilik, urush ochish, bostirib kirish; bir yoki bir necha davlatning boshqa mamlakatlarni bosib olish maqsadida qurolli hujumi.
Agressor – tajovuzkor, bosqinchi, agressiyaning aybdori, bostirib kirgan tomon; bosqinchilik urushini boshlovchi.
Anarxizm (grek) – hokimiyatsizlik – har qanday davlat hokimiyatini inkor etuvchi mayda burjuaziya oqimi.
Anarxist – 1.anarxizm tarafdori, anarxistlar tashkilotining a'zosi; 2. hokimiyat yoki rahbarlarga bo`ysunmovchi kishi.
Anarxo-sindikalizm –kapitalistik tuzumni sindikatlarning (kasaba ittifoqlarining frantsuzcha nomlanishi) inqilobiy kurashi bilan ag'darib tashlashni maqsad qilgan ishchilar harakatida oqim.
Anglikan cherkovi – Protestantlik –Angliyada absolyutizm kuchaygan davrdagi davlat cherkovi. A.ch. 16-asrning 30-yillarida tyudorlar xonadoni vakili qirol Genrix VIII (1491-1547) ning islohotlari tufayli vujudga kelgan. Genrix VIII amalga oshirgan islohotning asosiy maqsadi A.ch.ni papa ta'siridan ajratib, mustaqil deb e'lon qilish edi. Qirol o`zini A.ch.ning rahbari deb e'lon qilgan. Shundan boshlab

episkoplardan tortib hamma ruhoniylarni papa emas, qirol tayinlaydigan bo`lgan. Monastir yerlari musodara qilingan.
Annenksiya (lot) – qo`shib olish. Agressiyaning bir xili. Bir davlatni zo`rlik bilan qo`shib olish. Boshqa mamlakatni zo`rlik bilan egallab, uni o`z davlatiga qo`shib olish yoki unda o`z ta'sirini o`rnatish. A. biror davlat erini qisman yoki tamoman bosib olish shaklida bo`lishi mumkin.
Antanta (fran) – "Yurakdan kelishuv", "Uchlik bitimi", "Uchlik ittifoqi", 1907 yilda Angliya, Frantsiya va Rossiya ishtirokida tuzilgan harbiy-siyosiy blok.
Vahhobiylik – Arabistonda XVIII asrda yuzaga kelgan diniy-siyosiy oqim tarafdorlari. U Muhammad payg'ambar davridagi (VII asrdagi) islom dini me'yorlariga qaytishga da'vat etadi. Vahhobiylik – Saudiya Arabistonining rasmiy mafkurasi.
Buyukdavlatchilik – yirik mamlakatning milliy ustunligini targ'ib qiluvchi siyosati.
Gegemonlik – ustunlik, etakchilik, rahbarlik.
Genotsid – aholining alohida guruhlarini irqiy, milliy yoki diniy farqlar bahonasi asosida qirib yuborish.
Geosiyosat – davlatning hududiy joylashishi uning siyosatiga va xalqaro jarayonlarga ta'sirini xarakterlovchi tushuncha.
Diskriminatsiya – fuqarolarni irqiy, milliy, diniy, jinsiy va siyosiy e'tiqodlariga qarab huquq va erkinliklarini cheklab qo`yish yoki maxrum qilish.
Dissident - (lotincha – "norozi") – hukmron diniy e'tiqodlarni qo`llab-quvvatlamaydigan odam, keng ma'noda - hukmron mafkuradan norozi bo`lgan odam, o`zgacha fikrlovchi shaxs.
Dominion – Britaniya mustamlaka imperiyasi tarkibidagi davlat bo`lib, Angliya qiroli bu davlat boshlig'i sifatida e'tirof etiladi, lekin ichki siyosiy va ma'muriy o`z-o`zini boshqarish huquqiga ega. Britaniya Hamdo`stligi tarkibiga kirgan sobiq mustamlakalarning bir qismi bu konstitutsiyaviy tamoyilga amal qiladilar.
Druzlar – XI asrda islom dinidan ajralib chiqqan oqim. Hozirda bu oqim vakillari Suriya va Livanda yashashadi.
Izolyatsionizm - AQSh tashqi siyosatida XIX asr o`rtalaridan boshlangan yo`nalish bo`lib, u AQShning Amerika qit'asidan tashqaridagi qurolli mojarolarga aralashmaslik g'oyasiga asoslangan edi. AQSh hukmron doiralari XX asr boshlarigacha bu yo`nalishdan xalqaro munosabatlarda "qo`llar erkinligi"ni saqlash uchun foydalanib keldilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin izolyatsionizm AQShning rasmiy siyosatida o`z ahamiyatini yo`qotdi.
Investitsiyalar – korxonalar qurish va modernizatsiya qilish, barcha ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlantirish, Yangi texnologiya va texnikani o`zlashtirish maqsadida sarmoyalarni uzoq muddatga kiritish.
Interventsiya – bir yoki bir nechta davlatning boshqa davlat ichki ishlariga zo`ravonlik bilan aralashishi. Interventsiya harbiy, iqtisodiy, diplomatik, mafkuraviy shakllarda bo`lishi mumkin. Xalqaro huquqga binoan interventsiyaning bircha shakllari taqiqlangan.
Infrastruktura – ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatuvchi xo`jalik soxalari majmuasi (ishlab chiqarish infrastrukturasi – yo`llar, kanallar, suv omborlari, portlar, aerodromlar, omborlar, transport, aloqa va b.) va jamiyatning xayot faoliyati

sharoitlarini ta’minlovchi (ijtimoiy infrastruktura – ta’lim, sog’liqni saqlash, fan va b).
Klerikalizm – jamiyat hayotida cherkov va ruhoniylarning ustunligini ko`zda tutuvchi mafkuraviy doktrina.
Kollaboratsionizm – dushman bosib olgan hududlarda ular bilan hamkorlik qilish.
Komprador burjuaziya – iqtisodiy jihatdan qoloq bo`lgan mamlakatlarning chet el sarmoyasi bilan milliy bozor o`rtasida vositachilik qiluvchi burjuaziyasi.
Kongregatsiyalar – diniy jamoaga birlashgan katolik diniy tashkilotlar.
Konfessiya – diniy e’tiqod.
Kontsessiya – davlatga tegishli bo`lgan tabiiy boyliklar yoki xo`jalik ob’ektlarini foydalanish uchun chet el firmalariga yoki xususiy shaxslarga vaqtincha ijaraga berish.
Latifundiya – yirik er egaligi, pomeste.
Mandat tizimi – birinchi jahon urushidan keyin etakchi kapitalistik davlatlar o`zlarining mustamlakachilik siyosatini niqoblash uchun qoloq davlatlarga nisbatan “boshqarishga yordam berish” bahonasida qo`llanilgan tadbir, mustamlakachilikning niqoblangan shakli.
Metropoliya – mustamlaka mulklarga ega bo`lgan davlat.
Millatlar Ligasi – birinchi jahon urushidan keyin Parij tinchlik konferentsiyasida dunyoda tinchlikni saqlash maqsadida tashkil qilingan xalqaro tashkilot. Millatlar Ligasi o`z oldiga qo`yilgan vazifani bajara olmadi va ikkinchi jahon urushi davrida o`z-o`zini tarqatib yuborilganini e’lon qildi.
Militarizm – davlatning urushga zo`r berib tayyorlanishi, qurollanish va harbiy sohaga mablag’larni ko`paytirish siyosati.
Oligarxiya – “ozchilikning hokimyati”, uncha katta bo`lmagan ijtimoiy guruhning siyosiy va (yoki) iqtisodiy hukmronligi.
Oppozitsiya – (lotincha – “qarshi qo`ymoq”) – 1). Qarashlar, harakatlarning va shunga o`xshashlarning boshqa qarashlar, harakatlar va shunga o`xshashlarga qarshi turishi. 2). Bir guruh shaxslar tomonidan ko`pchilik fikriga qarshi bo`lgan siyosatning olib borishlari.
Plebistsit – biror hudud taqdirini belgilash uchun aholi o`rtasida olib boriladigan so`rov. Plebistsit o`tkazish rasman referendumdan farq qilmaydi.
Plyuralizm – fikrlar, qarashlar va sh.o`.larning turli-tumanligi.
Postindustrial jamiyat – ijtimoiy taraqqiyot bosqichi bo`lib, unda fan va ta’lim etakchi ahamiyatga ega bo`ladi.
Protektorat – mustamlaka qaramlik shakli bo`lib, unda qaram davlat ichki ishlarda ma’lum darajada muxtoriyatga ega bo`lsada, mudofaa, tashqi siyosat, shuningdek ichki siyosatning eng muhim sohalari metropoliya nazorati ostida bo`ladi.
Protektsionizm – davlatning milliy iqtisodiyotni tashqi ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati (asosan milliy sanoatni moliyaviy qo`llab quvvatlash, eksportni rag’batlantirish, importni cheklash shaklida bo`ladi).
Ratifikatsiya – davlatning uning vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarini uning oliy organi tomonidan tasdiqlanishi.
Revanshizm – urushdagi mag’lubiyat, milliy va davlat manfaatlarini kamsitilganligi uchun o`ch olishga asoslangan siyosiy mafkura.

Referendum – davlat hayotining eng muhim masalalari bo`yicha o`tkaziladigan umumxalq ovoz berishi.
Separatizm – ajralib chiqishga intilish; markaziy hokimyatdan ajralib chiqish va Yangi davlat tuzishga qaratilgan harakat.
Skvatterlik – erkin yerlarni o`zboshimchalik bilan egallab olish.
Stagnatsiya – iqtisodiy hayotdagi turg'unlik (ishlab chiqarishda, chavdoda va sh.o`.).
Suverenitet – davlatning ichki ishlarda va tashqi munosabatlarda boshqa davlatlardan mustaqilligi.
Teokratiya – siyosiy hokimyat diniy shaxslarga tegishli bo`lgan boshqaruv shakli.
Totalitarizm – dohiychilik tizimi, bir partiyali siyosiy tizim, davlat terrori tizimi, davlat mafkurasi tizimining shakllanishidan iborat totalitar davlatchilikning ustunligiga asoslangan ijtimoiy mafkura va ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli.
To`rtlar ittifoqi – 1882 yilda Germaniya – Avsriya-Vengriya va Italiya tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy blok.
Urbanizatsiya – aholi va iqtisodiy hayotning yirik shaharlarda to`planish jarayoni, shuningdek shahar hayotiga xos bo`lgan xususiyatlar va chizgilarni boshqa hududlarga ham tarqalishi.
Fashizm – iqtisodiy tizimda o`ta o`ngradikal davlat-monopolistik tartibga solishga, tabaqaviy-korporativ tamoyillar asosida qurilgan ijtimoiy tuzilmaga, totalitar davlatchilikga, solidarchilik mafkuraviy tizimga asoslangan ijtimoiy model.
Fundamentalizm – o`ta keskin, asosan diniy, qarashlar va g'oyalar tarafdorlarining umumiy nomlanishi.
Xunta – 1). hokimyatni noqonuniy yo`llar bilan qo`lga kiritgan va diktatorlik uslublari bilan boshqaruvchi fitnachilar guruhi; 2). Bir qator Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi hukumatning ijroiya organlari.
Ekspansiya – davlatning o`z ta'sir doirasini iqtisodiy (masalan, sarmoya chiqarish) va noiqtisodiy uslublar (o`zga hududlarni qurolli kuchlar yordamida bosib olish, diplomatik taziyq ko`rsatish va sh.o`.) bilan kengaytirishi.
Ekstremizm – siyosatda o`ta keskin qarashlar va tadbirlarga moyillik.
Elektorat – parlament, prezident, munitsipal saylovlarda qatnashish huquqiga ega bo`lgan fuqarolar guruhi.
Embargo – ma'lum bir turdagi tovarlarni, oltin, qimmatbaho qog'ozlar, valutani mamlakatga kiritish va chiqarishni davlat tomonidan taqiqlanishi.
Etatizm – (frantsuzcha etat -davlat) – ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarida davlatning faol siyosati tamoyili.

YANGI TARIX FANIDAN REFERAT MAVZULARI

MAVZU – 1: Angliyada sanoat to'ntarishining boshlanishi.
MAVZU – 2: Rossiyaning XV111 asr birinchi yarmidagi taraqqiyoti.
MAVZU – 3: Frantsiyada XV111 asr oxiridagi burjua inqilobi voqealari.
MAVZU – 4: Shimoliy Amerikada ingliz mustamlakalarining tashkil topishi.

MAVZU – 5: Lotin Amerikasida milliy-ozodlik harakati va mustaqil davlatlarning tashkil topishi.
MAVZU – 6: Brandenburg-Prussiya davlatining yuksalishi.
MAVZU – 7: Amerika Qo'shma SHtatlarida fuqarolar urushi va Rekonstruktsiya davri.
MAVZU – 8: Rossiyaning X1X asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti.
MAVZU – 9: X1X asr oxiri XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlar.
MAVZU – 10: 1640-1870 yillardagi fan va texnika taraqqiyoti.
MAVZU – 11: 1871-1900 yillardagi xalqaro munosabatlar.
MAVZU – 12: 1900-1914 yillardagi xalqaro munosabatlar.
MAVZU – 13: Angliya 1800-1870 yillarda. Chartistlar harakati.
MAVZU – 14: Frantsiya Napoleon Bonapart hukmronligi davrida.
MAVZU – 15: Vena kongressi (1814-1815 yy) va uning qarorlari.
MAVZU – 16: Rossiyaning X1X asr o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti.
MAVZU – 17: Rossiyaning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti.
MAVZU – 18: Germaniya 1871-1918 yillarda.
MAVZU – 19: Angliya 1871-1914 yillarda.
MAVZU – 20: Frantsiya 1871-1914 yillarda.
MAVZU – 21: Amerika Qo'shma Shtatlari 1870-1914 yillarda.
MAVZU – 22: Italiya 1871-1914 yillarda.
MAVZU – 24: Kapitalizm mustamlakachilik imperiyalarining tashkil topishi va rivojlanishi.
MAVZU – 25: Birinchi jahon urushining sabablari, xarakteri va boshlanishi.
MAVZU – 26: Birinchi jahon urushi yillarida urushayotgan mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy inqirozning kuchayishi.
MAVZU – 27: Germaniya imperiyasining tashkil topishi va unda O.Bismarkning roli.
MAVZU – 28: Yetti yillik urush (1756-1763) va uning xalqaro munosabatlarga ta'siri.
MAVZU – 29: Amerika Qo'shma Shtatlarida ikki partiyali siyosiy tizimning shakllanishi.
MAVZU – 30: Rossiyadagi 1905-1907 yillardagi burjua inqilobi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН ДАРСЛИК ВА ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМАЛАР РЎЙХАТИ
АСОСИЙ ДАРСЛИКЛАР ВА ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМАЛАР

ЯНГИ ТАРИХИ (Европа ва Америка)

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва кафолатлари. – Т., 1997.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т., 2008.
4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий – иқтисодий инқирози ва Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Т., 2009.
5. Янги тарих / Б.Ф.Поршнев таҳрири остида – Т., 1967, т. I.
6. Янги тарих / И.С.Галкин таҳрири остида. – Т.. 1964, т. III.
7. Новая история стран Европы и Америки. Первый период. / Под ред. А.В.Адо. – М., 1986.
8. Новая история. Второй период. / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. – М., 1984.
9. Новая история стран Европы и Америки. Первый период / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. – М., 1998.
10. Новая история стран Европы и Америки. Второй период / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. – М., 1998.
11. Янги тарих фанидан ўқув услубий мажмуа.Т.2011

Қўшимча адабиётлар

1. Буржуазные революции XVII-XIX вв. в современной зарубежной историографии. М.: Высшая школа, 1986.
2. Кертман Л.Г. География, история и культура Англии. М.: Высшая школа, 1979.
3. Барг М.А. Кромвель и его время. М., Уч.пед.издат РСФСР, 1960.
4. История Ирландии. Отв.ред Л.И.Гольман. М.: Наука, 1980.
5. История Франции. Под рук. А.З.Манфреда в 3-х томах. М.: Наука, 1972-1973.
6. Ревуненков В.Г. Очерки по истории Великой Французской революции. Падение монархии. Л., ЛГУ, 1982.
7. Ревуненков В.Г. Очерки по истории Великой Французской революции. Якобинская диктатура и ее крушение. Л., ЛГУ, 1983.
8. Тарле Е.В. Наполеон. Соч.в 12 томах. Т.7. АН СССР. 1957-1962.
9. Манфред А.З. Наполеон Банопарт. М.: Мысль, 1974.
10. Германская история в новое и новейшее время. Под ред. С.Д.Сказкина в 12 томах. Т.1-2. М.: Наука, 1970.
11. Собуль А. Первая республика. 1792-1804. М.: Наука, 1974.
12. Михайлов М.И. Проблемы германской революции 1848 г. М.: Наука, 1985.
13. Галкин И.С. Создание Германской империи. М.: Высшая школа, 1986.
14. Бисмарк О. Мысли и воспоминания. В 3-х томах. М., Госполитиздат, 1940-1941.

15. Война за независимость и образование США. Под ред. Севастьянова Г.Д. М.: Высшая шгкола, 1976.
16. Иванов Р.Ф. Авраам Линкольн и гражданская война в США. М.: Высшая школа, 1964.
17. История Италии. В 3-х томах. М.: Наука, 1970-1971.
18. Освободительное движение народов Австрийской империи. Возникновение и развитие. М.: Наука, 1980.
19. История дипломатии в 5-ти томах. М.: Наука, 1959-1960.
20. История Парижской Коммуны. 1871. М., Наука, 1971.
21. Бебель А. Из моей жизни. М.: Наука, 1963.
22. Сказкин С.Д. Конец Австро-русско-германского союза. М.: Наука, 1974.
23. Кертман Л.Е. Джозеф Чемберлен и сыновья. М.: Мысль, 1990.
24. Принцер Д. Жорж Клемансо. М., Мысль, 1983.
25. Белявская И. Буржуазный реформизм в США. 1900-1914. М., Наука, 1968.
26. Рубинштейн Е. Крушение австро-венгерской монархии. М.: Наука, 1963.
27. Манфред А.З. Образование русско-французского союза. М.: Высшая школа, 1975.
28. Хидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии. Т.: Фан, 1969.
29. Дементьев И.П. Некоторые проблемы историографии нового и новейшего времени. Новая и новейшая история, 1990, №4.
30. Бард М. Цивилизационный подход к истории. 1991.
31. Хвостова К.В. К вопросу об историческом познании. Новая и новейшая история, 1933, №3.
32. Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. М.: Наука, 1989.
33. История США. В 4-х томах. М.: Наука, 1980-1987.
34. Виппер Р.Ю. История нового времени. М.: Черо, 1999.
35. http: // English-www.hss.cmu.edu/history/.
36. http: // www.ukans.edu/history/VL/
37. www. history.ru
38. http://www.eu.spb.ru/history/index.htm.
39. http.//library.byu.edu/-rdh/euridocs
40. http://history.hanover.edu/texts.htm.
41. http:// www.ziyonet.uz
42. http:// www.grid, rug.nl /ahc/
43. http: // www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html
44. http: // www. hss. cmu. edu/history
45. http: // www.ukans.edu/history/vl/
46. http: // www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml
47. http: // www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/
48. http: // www.classics.mit.edu.
49. http: // www.washlaw.edu/forint/
50. http: // www.yole,edu/Lawweb/avolon.htm
51. http: // www.yale.edu/acuns/
52. http: // www.uia.org./website/htm

YANGI TARIXDAN TAYANCH KONSPEKT

YEVROPA VA AMERIKA MAMLAKATLARI XVII ASR 2-YARMI – XIX ASRLARDA

XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshini o’z ichiga olgan davrning jahon tarixida tutgan o’rni. “Yangi tarix” tushunchasi. Yangi davrning tarixiy mazmuni. Yangi tarixni davrlashtirish masalasi. Yangi tarixni o’rganish dolzarbligi. Yangi davrda ro’y bergan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarning tavsifiy xususiyatlari.

Buyuk Britaniya XVII-XX asr boshida

XVII asrning birinchi yarmida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi. Yakov I va Karl I Styuartlarning ichki va tashqi siyosati. Parlamentda muxolifatning kuchayishi. Puritanlik. Inqilobning zamini va shart-sharoitlari. Inqilobning boshlanishi. Fuqarolar urushi. Levellerlar va respublikaning o’rnatilishi. Respublika va protektorat. Oliver Kromvel. Ikkinchi respublika va Styuartlarning tiklanishi. “SHonli inqilob”. Madaniyat va siyosiy fikr. XVIII asrning birinchi yarmida Angliyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Sanoat to’ntarilishi. Ingliz ma’rifatchiligi. Angliya Napoleon Frantsiyasi bilan urush davrida. XX asrning birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Sanoat to’ntarilishining yakunlanishi. Tashqi siyosat va mustamlakachilik masalalari. Buyuk Britaniyada ijtimoiy munosabatlar. XIX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Vilyam Gladston va Bendjamin Dizraeli. Irlandiya masalasi. Ishchilar harakati. Leyboristlar. XX asrning boshida Buyuk Britaniyaning ichki va tashqi siyosati. Lloyd Djordj. Urusholdi inqirozi. Britaniya dominionlari. Buyuk Britaniya birinchi jahon urushi yillarida.

Frantsiya XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida

XVII asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Mazarini va Fronda. Lyudovik XIV absolyutizmi. Frantsuz ma’rifatchiligi. Inqiloboldi inqirozi. XVIII asr Frantsiya inqilobi. Konsullik va birinchi imperiya. Napoleon Bonapartning

ichki va tashqi siyosati. Burbonlarning dastlabki tiklanishi. Vena kongressi va uning qarorlari. Burbonlarning ikkinchi tiklanishi. Tiklanish davrida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. 1830 yil iyul inqilobi. Frantsiyada Iyul monarxiyasi (1830-1848 yy.). 1848 yil inqilobi. Ikkinchi Respublika. 1851 yil 2 dekabr davlat to'ntarilish va Ikkinchi imperiya. Ikkinchi imperiya davrida Frantsiyaning ichki va tashqi siyosati. Mustamlakachilik siyosati. Frantsiya-Prussiya urushi. Uchinchi Respublika. XIX asr oxirida siyosiy inqirozlar. XIX oxiri – XX boshida Frantsiyaning iqtisodiyoti. Uchinchi respublikaning tashqi siyosati. XX asr boshida siyosiy kurash. Frantsiya Birinchi jahon urushi yillarida.

Germaniya XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida

German davlatlari O'ttiz yilik urushdan so'ng. Iqtisodiy vaziyat. Dexqonlar harakati. German shaharlari. Brandenburg-Prussiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Prussiya qirolligi. Fridrix II-ning ichki va tashqi siyosati. German davlatlari xalqaro munosabatlar tizimida. Yagona nemis millatining shakllanishi. Madaniy rivojlanish. Frantsiyadagi inqilob (XVIIIa.) va nemis davlatlari. German davlatlari. Napoleon urushlari davrida. 1815-1848 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. 1848-1849 yillar inqilobi. Inqilobdan so'ng Germaniyaning rivojlanishi. Iqtisodiy o'sish. Sanoat to'ntarishining yakunlanishi. Agrar islohotlar. Otto fon Bismark faoliyati. Shimoliy German ittifoqining barpo etilishi. Tashqi siyosat. Frantsiya-Prussiya urushi va Germaniyaning birlashishi. XIX asrning oxirgi choragida Germaniya imperiyasining davlat tuzumi va iqtisodiyoti. "Kulturkampf" va sotsialistik harakatga qarshi kurash. XIX asrning oxirgi choragida ichki siyosiy vaziyat. Germaniya xalqaro munosabatlar tizimida (XIX asrning oxiri – XX asr boshida). XX asr boshida Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Germaniya va "Jahon siyosati". Germaniya birinchi jahon urushi yillarida.

Avstriya (Gabsburglar) imperiyasi XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida

Avstriya O’ttiz yillik urushdan so’ng. XVII asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Vengriya Gabsburglar imperiyasi tarkibida. Turkiyaga qarshi urush. Karlovits tinchlik shartnomasi. Gabsburglar imperiyasi “Ispan merosi” uchun urush yillarida. XVIII asr boshida imperiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. “Avstriya merosi” uchun urush. Mariya Tereziya va Iosif II-ning “ma’rifatli absolyutizmi”. CHexiya, Slovakiya va boshqa milliy viloyatlar Gabsburglar imperiyasi tarkibida. Avstriya imperiyasi Frantsuz inqilobi va Napoleon urushlari yillarida. XIX asrda imperiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Avstriya imperiyasi slavyan xalqlarining “Milliy uyg’onish” davri. 1848 yil inqilobi. Avstriya imperiyasi 1849-1867 yillarda. 1859 yildagi Frantsiya va Pemontga qarshi urush. Avstriya-Prussiya urushi (1866 y.). Imperiyaning dualistik Avstro-Vengriya monarxiyasiga aylanishi. XIX asrning oxirgi choragida milliy masalaning keskinlashuvi. Avstriyada ijtimoiy harakatlar. Vengriya dualizm tizimida. Monarxiyaning oxirgi o’n yilliklari. Avstro-Vengriya Birinchi jahon urushi yillarida.

Italiya XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshida

Italyan davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Tarqoqlikning saqlanib qolinishi. Chet el davlatlariga qaramlik. “Ispan merosi”, “polyak merosi”, “avstriya merosi” uchun urushlar va italyan davlatlari. Italiya XVIII asr oxiri – XIX asr boshida. Risordjimento (Uyg’onish). Italyan davlatlari Frantsuz inqilobi va Napoleon urushlari davrida. XIX asrning 20-30 yillar inqilobi. Djuzeppe Madzini. “Yosh Italiya”. XIX asrning 20-30 yillarda iqtisodiy rivojlanishi. Mo’tadil liberallar faoliyati. K.B.Kavur. Italyan davlatlari 1848-1849 yillar inqilobi davrida. Djuzeppe Garibaldi. Italiya qirolligining barpo etilishi. Frantsiya-Prussiya urushi va Risordjimentoning yakunlanishi. XIX asrning oxirgi choragi – XX asrning boshida Italiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Italiyaning tashqi siyosati. Mustamlakalar uchun kurash, Italiya Birinchi jahon urushi arafasida .“Liberal davrning” tugashi. Italiya Birinchi jahon urushi yillarida.

Rossiya XVII asrning oxiri – XX asrning boshida

Rossiya XVII asrning oxirida. Petr I va malika Sofya o'rtasidagi kurash. XVIII asrning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Petr I islohotlari. Tashqi siyosat. SHimoliy urush. Rossiya saroy to'ntarishlari davrida (1725-1762 yy.). "Petr merosi" masalasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Saroy to'ntarishlari davrida Rossiyaning tashqi siyosati. Ekaterina II-ning "ma'rifatli absolyutizmi". Pavel I. XVIII asrning oxirgi o'ttiz yilligida Rossiyaning tashqi siyosati. XVIII asrda rus madaniyati. Aleksandr I. Dastlabki islohotlar Napoleon Frantsiyasiga qarshi urush. Islohotlarni davom ettirishga urinishlar. Dekabristlar harakati. Rossiya Nikolay I hukmronligi davrida. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. G'oyaviy oqimlarning shakllanishi. 1848-1849 yillar Yevropa inqiloblarining Rossiyaga ta'siri. Tashqi siyosat. Qrim urushi. Aleksandr II-ning islohotlari. Krepostnoylikning bekor qilinishi. Liberal harakat. XIX asrning 60-70-yillarida inqilobiy harakatlar. Narodniklar. Aleksandr III-ning "patriarxal boshqaruvi". Tinch 13 yillik .Iqtisodiy o'sish. Sanoat to'ntarilishining yakunlanishi. Yangi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi. Rossiyaga marksizm g'oyalarining kirib kelishi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning tashqi siyosati. XIX asrda rus madaniyati. Rossiya XIX-XX asrlar chegarasida. Iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari. Rossiyaning ijtimoiy strukturasi. Siyosiy partiyalar va tashkilotlarning shakllanishi. XIX asr oxiri -XX asr boshida Rossiyaning tashqi siyosati. Islohotlari atrofidagi kurash (1894-1904). Birinchi rus inqilobi (1905 y). 1905 yil 17 oktabr monefesti. Davlat dumasi. P.A.Stolыpin faoliyati: islohotlar. Siyosiy kurashning avj olishi. Rossiya Birinchi jahon urushi yillarida. 1917 yil Fevral inqilobi. Oktabr to'ntarishi.

Ispaniya XVII asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida

XVII asrning ikkinchi yarmida Ispaniyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli. "Ispan merosi" uchun urushi (1701-1714). Ispaniyada Filipp V va Ferdinand VI hukumronligi. Karl III "ma'rifatli absolyutizmi". Absodyutik tuzumning inqirozi. Manuel Godoy. Ispaniya Napalion urushlari yillarida Mustaqillik uchun urush. Birinchi inqilob. 1808 yil 2 may qo'zg'oloni. 1802 yil Kadis konsituttsiyasi.

Ferdinand VII ichki va tashqi siyosati. Ikkkinchi inqilob (1854-1856). Beshinchi inqilob (1868-1873). Birinchi respublika. Ispaniya Burbonlarning tiklanishi. Ichki va tashqi siyosat. “El–Pardo pakti”. Anarxistlar, sotsiolistlar va muxtoriyatchilar. Mustamlakalardan mahrum bo’lishi. XIX asoning oxiri –XX asrning boshida Ispaniyaning siyosiy-iqtisodiy ahvoli. Marokash masalasi. Siyosiy kurashning keskinlashuvi. Ispaniya birinchi jahon urushi yillarida.

AQSH XVII-XX asr boshida

SHimoliy Amerikada mustamlakalarning barpo etilishi.Ingliz mustamlakalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. Mustaqillik uchun urushning zamini va shart-sharoitlari. Mustamlakalar va metropoliya o’rtasidagi ziddiyatlar. Mustaqillik uchun urush va AQSHning tashkil topishi. AQSH-ning davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. AQSH XIX asrning birinchi yarmida: taraqqiyotning asosiy tendetsiyalari. AQSH hududlarining kengayishi. Ichki partiyaning sestemasining shaklllanishi. SHimol va Janub o’rtasidagi ziddiyatdlar. Fuqarolar urushi 1861-1865 y. Qulchilikning bekor qilinishi. Janubiy Rekonstruktsiyalash (1965-1877yy). AQSH 1877-1914 yillarda: iqtisodiy-ijtimoy munosabatlar. XIX asrning oxirgi choragi- XX asr boshida AQSHning tashvi siyosati. AQSH birinchi jahon urushi yillarida.

Portugaliya XVII asrning ikkinchi yarmi -XX asr boshida

“Partugaliya monefesti” va mustaqillikning tiklanishi. Absolyutik monarxiya sharoitida Partugaliyaning ichki va tashqi siyosati. Markiz Pombalaning faoliyati. Islohotlar. Partugaliya Frantsuz inqilobi va Napoleon urushlari yillarida. 1822 yil Korstituttsiyasi. 1826 yil Xartiyasi. Fuqarolar urushi 1824-1834 yy. “Xartiyachilar” va “Sentabrchilar” o’rtasidagi qarama-qarshilik. XIX asr o’rtalarida Partugaliyada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. XIX asrning ikkkinchi yarmida Partugaliyaning davlat tuzumi. Manarxiya va ikki partiyali sistema: “Rejenerados” (“O’yg’onishi”) va Taraqqiyot partiyasi. Respublikachilar partiyasining tuzilishi. Iqtisodiyot va siyosat. XIX asrning oxiri- XX asrning boshida Partugaliyaning xalqaro ahvoli. 1910 yil inqilobi. Partugaliya birinchi jahon urushi yillarida.

Niderlandlar Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi XVIII-XX asr boshida

Ingliz–golland urushlari. Jahon savdosida ustivorlikning yo'qotilishi. Iqtisodiy rivojlanishdagi pasayishi. Nederlandlarning siyosiy tuzumi. XVIII asrning ikkkinchi yarmida respublikada ichki siyosiy vaziyat. Nederlandlar Frantsuz inqilobi va Napoleon urushlari yillarida. Batav respublikasi. Gollandiya qirolligi. Frantsiya hukumronligining ag'darilishi. Vena kongressi va Niderlandlar qirolligining barpo etilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. 1830 yil inqilobi va Belgiyaning Niderlandlardan ajralib chiqishi. 1848 yil Konstitutsiyasi. Islohotlar. XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Siyosiy kurash. Niderlandlar XX asr boshida. Niderlandlar Birinchi jahon urushi yillarida.

Lotin Amerikasi XVIII-XX asr boshida

Lotin Amerikasida mustamlakalarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Mustamlakachilik tartiblarining inqirozi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Lotin Amerikasidagi ispan va portugal mamlakatlaridagi o'zgarishlar. Savdoni erkinlashtirish. Demokratik inqiloblar va mustaqillik uchun urush (1810-1826). Milliy davlatlarning vujudga kelishi. Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi ichki inqirozlar. Lotin Amerikasi – AQSH munosabatlari. XIX asrning 30-yillardan boshlab konservatorlar mavqeining mustahkamlanib borishi. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlar. Lotin Amerikasi mamlakatlari XIX asr o'rtalari – XX asr boshida. Argentina:iqtisodiy rivojlanish va siyosiy kurash. Braziliyada quldorchilik tuzumining inqirozi. Abolyutsionistik harakat va monarxiyaning ag'darilishi. Peru, Boliviya, CHilining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Markaziy Amerika mamlakatlari XIX asr oxiri – XX asr boshida. Kubada mustaqillik uchun kurash va respublikaning vujudga kelishi. 1898 yilda AQSH-Ispaniya urushi. XX asrning boshida AQSH-ning Lotin Amerikasidagi siyosati. Meksika inqilobi. Lotin Amerikasi Birinchi jahon urushi yillarida.

Polsha XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshida

XVII asrning ikkinchi yarmida Rech Pospolitaya: davlat tuzumi, aholisi va hududlari. Saksoniya qirollarining hukmronligi. Rech Pospolitayaning xalqaro ahvoli. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. XVIII asrda Polsha: rivojlanishning asosiy tendentsiyalari. Siyosiy guruhlar o'rtasidagi kurash. Stanislav Avgust Ponyatovskiy faoliyati: islohotlar. Polshani bo'lib olishlar. Tadeush Kostyushko qo'zg'oloni. Polsha Napoleon urushlari davrida Varshava knyazligi. Vena kongressi qarorlari va Polsha. Polsha qirolligi Rossiya imperiyasi tarkibida. XIX asrning birinchi yarmida polyak erlarining ijtimoiy-iqttisodiy rivojlanishi. 1830 yil qo'zg'oloni. 1848-1849 yillardagi Yevropa inqiloblari va polyak erlarida ozodlik uchun kurashning faollashuvi. 1863 yil qo'zg'oloni. XIX asrning oxirgi o'n yilliklari – XX asr boshida polyak erlaridagi siyosiy vaziyat. Sanoat va qishloq xo'jaligi. Ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy harakatlar. Ishchilar harakati va sotsialistik partiyalarning tashkil topishi. 1905 yil rus inqilobi va polyak erlari. Polsha Birinchi jahon urushi yillarida.

Janubi-SHarqiy Yevropa xalqlari XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida

Janubi-SHarqiy Yevropa va Usmoniylar imperiyasi. Janubiy slavyanlar Gabsburglar monarxiyasi tarkibida. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. Janubiy slavyanlarning milliy uyg'onishi. Harvatlar, slavyanlar, serblar. Avstriya imperiyasining janubiy slavyanlari 1848-1849 yillardagi inqilob davrida. XIX asrning 60-yillarida Avstro-Vengriyaning janubiy slavyan erlarida ijtimoiy ko'tarilish. XVII-XVIII asrlarda Bolqon slavyanlari Usmoniylar hukmronligi ostida. Usmoniylar imperiyasi tarkibidagi janubiy slavyanlarning milliy-ozodlik harakati: asosiy bosqichlari va tendentsiyalari. CHernogoriya. Serbiya. Bosniya va Gertsegovina. Bolgariyada milliy uuyg'onish. Dunay knyazliklari. YUnoniston Usmoniylar imperiyasi tarkibida. 1875-1878 yillardagi "sharqiy inqiroz". Janubi-SHarqiy Yevropa xalqlari XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish. Bolqon urushlari (1912-1913 yy.). Janubi-SHarqiy Yevropa Birinchi jahon urushi yillarida.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida

Shimoliy Yevropa XVII-XVIII asrlarda. Shvetsiya va Daniya – Norvegiya qirolliklari: aholisi va hududlari. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Absolyutizmning o'rnatilishi. Skandinaviya mamlakatlarining o'zaro munosabatlari va xalqaro ahvoli. Shimoliy urush va uning oqibatlari. SHimoliy Yevropa davlatlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Napoleon urushlari natijasida SHimoliy Yevropaning siyosiy xaritasidagi o'zgarishlar. Shimoliy Yevropa 1815-1870 yillarda: rivojlanishning asosiy bosqichlari va tendentsiyalari. XIX asrning 30-40-yillarida Yevropada inqilobiy harakatlar va Skandinaviya davlatlari. SHlezvig-Golshteyn masalasi. Iqtisodiy rivojlanish va demokratiyaning oyoqqa turishi. SHimoliy Yevropa mamlakatlari XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida. Daniya, SHvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya. Skandinaviya davlatlari Birinchi jahon urushi yillarida.

XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida xalqaro munosabatlar

XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrda xalqaro munosabatlarning asosiy masalalari. Kuchlar nisbatidagi o'zgarishlar. "Ispan merosi" uchun urush. SHimoliy urush. "Avstriya merosi" uchun urush. Etti yillik urush. Yevropa va Usmoniylar imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar. Mustamlakachilik siyosati. Savdo urushlari. AQSH-ning tashkil topishi va Yevropa davlatlari. Frantsiyada inqilob va xalqaro munosabatlar. Yevropa Napoleon urushlari yillarida. Vena kongressi va uning qarorlari. XIX asrning 20-,30- va 40-yillardagi inqilobiy va milliy ozodlik harakatlarining xalqaro munosabatlarga ta'siri. "Vena tizimining" emirilishi. Qrim urushi. XIX asrning 50-60-yillarida xalqaro munosabatlar. Mustamlakachilik siyosatining usullari va xarakteridagi o'zgarishlar. Germaniyaning birlashishi va Italiyaning birlashishi. Frantsiya-Prussiya urushi. XIX asrning oxirgi choragida xalqaro munosabatlar. Harbiy-siyosiy guruhlarning (bloklarning) shakllanishi va ular o'rtasidagi kurash. AQSH, Germaniya va YAponiyaning mustamlakalar uchun

kurashga qo’shilishi. XX asr boshida xalqaro munosabatlar. Rus-yapon urushi. Bolqon urushlari. Davlatlararo raqobatning keskinlashuvi. Birinchi jahon urushi.

XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida madaniyat, fan va texnikaning rivojlanishi

Yangi davrda fan va texnika taraqqiyotining umumiy xuusiyatlari. Ilmiy fikrlash xususiyati. Fanning ijtimoiy tartibot sifatida xizmat qilishi. Fanning ijtimoiy munosabatlar xarakteriga ta’siri. Fan va texnika sanoat to’ntarilishi sharoitlarida. Ilmiy jamiyatlarning rivojlanishi. Tabiiy fanlar va texnikaning rivojlanishi. Ijtimoiy fanlar, nazariyalar va ta’limotlar. Madaniyatning rivojlanishi: asosiy yo’nalishlar, oqimlar. Tendentsiyalar. Yevropa ma’rifatchiligi va madaniyat. Adabiyot va san’at.

YANGI TARIX FANIDAN O'QUV MATERIALLAR

YANGI TARIX FANIDAN MA'RYZALAR MATNI

1- Mavzu: Yevropa va Amerika mamlakatlari XVII asr ikkinchi yarmi – XIX asrlarda (1640-1871).

R E J A : 2 soat.

1.Yangi tarix tushunchasi.

2.Yangi tarixni davrlashtirish masalasi.

3. Burjua inqiloblari va ularning natijalari.

4. Yevropa va Amerika mamlakatlarining Yangi tarixda tutgan o'rni.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: Yangi davr. TSivilizatsiya. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot. Atlantika tsivilizatsiyasi. G'arb tsivilizatsiyasi. Feodal jamiyat. Natural xo'jalik. G'ayri-iqtisodiy majburlash. Burjua inqilobi. Sanoat to'ntarishi. Ingliz burjua inqilobi. Sudxo'rlik. Sarmoyaning dastlabki jamg'arilish davri. Yangi tarixni davrlashtirish. Yangi tarixning xronologik chegaralari. Manufakturalar. Mashinalashgan ishlab chiqarish. Milliy davlatlar. Ishchilar sinfi. Siyosiy partiyalar. Burjua-millatchilik harakati. Sotsialistik va sotsial-demokratik harakatlar. Mustamlakachilik. Sinfiy va milliy zulm. Mustamlakachilik imperiyasi. Monopoliya.

1. «YANGI TARIX» TUSHUNCHASI.

Biz davom etib kelayotgan an'analarga muvofiq insoniyat tarixini qadimgi dunyo tarixi, o'rta asrlar tarixi va Yangi tarixga bo'lib o'rganib kelganmiz. O'rta asrlardan Yangi tarixga, Yangi davrga o'tish feodalizmdan erkin bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o'tishni bildiradi. Feodalizmdan kapitalizmga o'tish, ya'ni bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o'tish burjua demokratik inqilobi orqali amalga oshadi. Natijada sifat jihatidan avvalgi jamiyatdan tubdan farq qiluvchi Yangi jamiyat vujudga keladi. Yangi tarix bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatning, ya'ni kapitalistik jamiyatning feodal jamiyat ustidan g'alabasi tarixi, kapitalizmning qaror topishi va mustahkamlanishi tarixidir. Yangi tarix o'zidan oldin o'tgan barcha davrlardan ijtimoiy hayotda juda ko'p muhim voqealarning sodir bo'lishi bilan, ularning miqyosi va ahamiyati, oqibatlari bilan ajralib turadi. Haqiqatan ham bu davrda xalqlar hayotida Yangi tsivilizatsiya, Yangi madaniyat yuzaga keldi.

Yangi tarix deb odatda tarixiy adabiyotlarda XVII asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrga aytiladi, albatta bu nomlanish shartli nomlanishdir. Dunyodagi hamma xalqlar ham Yangi tarixga, Yangi davrga bir vaqtning o'zida kirib kelganlari yo'q. Ko'pgina xalqlar yana uzoq davrlar mobaynida Yangi davr taraqqiyotidan Chetda qolib ketdilar. Yangi tsivilizatsiyaga Atlantika okeanining

Yevropa va Amerika qirg'oqlarida yashagan xalqlar asos soldilar, Shuning uchun bu tsivilizatsiyani Atlantika tsivilizatsiyasi deb ham ataydilar. Ikkinchi tomondan qaraydigan bo'lsak, Yangi tsivilizatsiya o'choqlari eng ko'p aholi yashaydigan Evroosiyo qit'asidan g'arbda joylashganligi uchun uni ko'pincha g'arb tsivilizatsiyasi deb ham ataydilar.

YUqorida aytganimizdek, feodalizmdan kapitalizmga o'tish burjua inqiloblari orqali amalga oshadi. Burjua inqilobi bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar bo'lishi kerak.

Ilk burjua inqilobi 1566 yilda Niderlandiyada g'alaba qozondi va kapitalizmning feodalizm ustidan g'alabasining dastlabki qadami bo'ldi. Lekin bu inqilob Niderlandiyaning faqat Shimoliy qismini qamrab oldi va 7 ta qo'shma viloyatdan iborat kichik davlat – Gollandiya tashkil topdi. Niderlandiya burjuaziyasi boy bo'lsa ham ishlab chiqarish bilan emas sudxo'rlik, kemachilik va savdoda vositachilik bilan Shug'ullandi. Shuning uchun ham Gollandiya birinchi bo'lib sanoat to'ntarishini (inqilobini) amalga oshira olmadi, ya'ni manufakturadan mashinalashgan ishlab chiqarishga o'ta olmadi. Niderlandiya inqilobi kapitalizmni feodalizm ustidan g'alaba qozonishini ta'minlashda muayyan rol o'ynagan bo'lsada, bu inqilobning jahon ijtimoiy taraqqiyotiga ta'siri cheklangan edi.

XVII asr o'rtalarida Angliyada ro'y bergan burjua inqilobi juda katta oqibatlarga ega bo'ldi. Bu inqilob Angliyada kapitalizmning tez rivojlanishi uchun muhim hal qiluvchi shart-sharoit yaratib, Angliyada XVIII asrning ikkinchi yarmida boshlangan sanoat to'ntarishini tayyorladi. Angliya uzoq yillar davomida sanoat va savdo sohasida jahonning etakchi davlatiga va dunyodagi birinchi buyuk davlatga aylandi.

Lekin XVII asr o'rtalari o'rta asrchilik bilan Yangi davr o'rtasidagi keskin burilish, chegara bo'la olmaydi va kapitalizmning feodalizm ustidan g'alabasi uzoq davrlarga cho'zildi. Angliya XVII asr o'rtalarida Yevropaning eng kuchli davlatlari qatoriga kirmas edi. Yevropa qit'asida feodalizmga hal qiluvchi zarbani XVIII asr oxiridagi frantsuz burjua inqilobi berdi. Shuning uchun ham XVIII asr oxiriga kelib Yangi jamiyatning eski jamiyat ustidan g'alabasi, kapitalizmning feodalizm ustidan g'alabasi yaqqol namoyon bo'ldi deb hisoblash mumkin.

Lekin XVIII asrdan keyin ham ilg'or kapitalistik mamlakatlar bilan bir qatorda qoloq feodal jamiyatlar va davlatlar ham saqlanib qoldi. Kapitalistik davlatlarning o'zida ham feodalizmning ko'pgina qoldiqlari saqlanib qoldi. Lekin Yangi tarixning asosiy mazmunini Amerika va Yevropaning ilg'or mamlakatlarida kapitalizmning feodalizm ustidan g'alabasi tashkil etadi.

O'rta asrlardagi olimlar o'sha davrdagi tarixga doir bilimlar darajasi va antik hamda diniy an'analarga asoslanib butun jahon tarixini 4 ta monarxiya tarixi davrlariga ajratganlar, bular – Ossuriya-Bobil tarixi, Midiya-fors tarixi, grek-makedon tarixi va Rim tarixi.

XV-XVI asrlardagi gumanistlar birinchi bo'lib antik davrga qarama qarshi bo'lgan «o'rta asrlar» tuShunchasini ishlab chiqdilar va Yangi tarix boshlanganligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdilar. Ular dunyoviy mafkuraning rivojlanishini, shaxs va jamiyatni katolik cherkovining cheksiz hukmronligidan ozod bo'lish uchun olib borilgan kurashni Yangi davrning asosiy xususiyati deb hisoblardilar. Ularning

gumanizm tuShunchasi juda cheklangan burjua-individual mazmunga ega edi. Gumanistlar Yangi davrning boshlanishini Uyg'onish bayrog'i ostida dunyoviy fan va madaniyatning rivojlanishi bilan yoki antik davr an'analari va reformatsiyaning tiklanishi bilan bog'lardilar. Gumanistlar o'sha davrda din bilan munosabatlarni batamom uzmagan edilar. Dunyoviy dunyoqarash ancha keyinroq, XVII-XVIII asrlarda burjua ma'rifatparvarlari tomonidan ishlab chiqilgan edi.

XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab g'arbiy Yevropa universitetlarida jahon tarixini qadimgi tarix (g'arbiy Rim imperiyasining qulashigacha), o'rta asrlar va Yangi davrga ajratish an'anasi keng yoyila boshladi. Lekin burjua-pomeshchik tarixiy adabiyotida Yangi tarixning boshlanishi turlicha tuShunilardi. CHerkov va konservativ dvoryan adabiyotida Yangi tarixning boshlanishi sifatida usmonli turklar bosqinchiligi natijasida Konstantinopolning qulashi (1453 y) voqeasi qabul qilingan edi. Haqiqatda esa bu sana muhim ahamiyatga ega bo'lmay, bu voqeadan ancha oldin Vizantiya o'zining buyuk davlat sifatidagi ahamiyatini yo'qotgan bo'lib, Konstantinopolning qulashi dunyo tarixiy jarayonining borishiga tub o'zgarish kiritmadi.

G'arbiy Yevropa tarixShunosligida gumanizm va Reformatsiyaning paydo bo'lishi Yangi tarixning boshlanishi deb qabul qilingan. XIX asrdagi rus ilmiy adabiyotida ham Shunday fikrlar mavjud (7 tomlik «G'arbiy `evropaning Yangi davrdagi tarixi»ning muallifi N.I.Kareev). Lekin gumanizm ham, Reformatsiya ham jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy tuzilishida tub o'zgarishlar sodir eta olmaganligi uchun bu qarashlar ham asossiz hisoblanadi.

XIX asr oxirlarida AQSHda va Lotin Amerikasi mamlakatlarida Yangi tarixning boshlanishini Buyuk geografik kashfiyotlar bilan, eng avvalo Amerikaning kashf etilishi bilan (1492 y) bog'lash to'g'risidagi qarashlar keng yoyila boshladi.

Yevropada XIX asrning 80 yillarida rus sotsiolog olimi L.I.Mechnikov tarixni 3 davrga bo'lish fikrini, ya'ni qadimgi tsivilizatsiyalar davri, O'rtaer dengizi tsivilizatsiyasi davri va okean tsivilizatsiyasi davriga bo'lish fikrini ilgari surdi. U okean tsivilizatsiyasiga o'tishni buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog'lagan edi. XV asr oxiri–XVI asr boshlaridagi buyuk geografik kashfiyotlar savdo-sotiqning rivojlanishiga, mustamlakalar bosib olish va ularni talashga kuchli turtki bergan bo'lsa ham jamiyat hayotida tub o'zgarishlar bo'lganini bildirmas edi. Bunday tub o'zgarishlar faqat feodalizmdan kapitalizmga o'tish orqali ro'y berdi.

Shunday qilib tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Yangi tarixning boshlanishini va uning asosiy mazmunini har tomonlama asoslab beruvchi va umummiqyosda qabul qilingan yagona mezonlar ishlab chiqilmagan.

Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida marksizm-leninizm ta'limoti bo'yicha insoniyat jamiyati tarixi an'anaviy ravishda qadimgi, o'rta asrlar, Yangi va eng Yangi tarixlarga ajratilgan edi.

K.Marks va uning izdoshlari ijtimoiy taraqqiyot dialektikasini, xususan kapital, ishlab chiqarish, sinflar, inqiloblar rolini ochib berish uchun ancha ishlarni qildilar. Lekin tarixiy tajriba Shuni ko'rsatdiki, bu ta'limot davomchilari ijtimoiy jarayon elementlari rolini bo'rttirib yuborib, ayniqsa ijtimoiy mulkchilikni xususiy mulkchilikdan ustun qo'yib, jamiyat ehtiyojlarini hukmron hisoblab, ishchilar sinfi rahbarligida jamiyat har bir a'zosini erkin, farovon rivojlanishiga erishish mumkin

deb hisoblab, katta xatoga yo'l qo'ydilar. Shu bilan birga ular insoniyat jamiyati taraqqiyotining mazmuni va yo'llarini oldindan bilish mumkinligiga juda qattiq ishongan edilar (ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning o'rin almashishi, kapitalizmning o'tkinchi jamiyat ekanligi, sotsializm va kommunizm g'alabasining muqarrarligi va x.k.). Sotsializm qurilishining halokatga uchrashi ijtimoiy (jamiyat) manfaatlarni va iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyalar sxemasini fetishlashtirishdan (ilohiylashtirish), Shuningdek inqiloblarni ijtimoiy taraqqiyot shakli sifatida mutlaqlashtirishdan ("Inqiloblar – tarix lokomotivlaridir") saqlanish kerakligini ko'rsatdi. Taraqqiyot mezonlarini ham qandaydir sotsializm-kommunizm haqidagi Shubhali, mavhum tushunchalar bilan bog'lash ham noto'g'ri bo'lib chiqdi.

Shuning uchun ham endilikda shaxsning erkin rivojlanishi uchun imkoniyatlarining kengayib borishini taraqqiyotning eng ishonchli mezoni deb hisoblash bilan cheklanib tursak bo'ladi.

Sobiq sho'rolar davrida barcha fanlar qatori Yangi tarix ham markscha-lenincha mafkura asosida o'rganilardi. Bunda ishchilar sinfining roliga, sinfiy kurashga, siyosiy partiyalar roliga va kapitalizmning o'tkinchi ekanligiga alohida urg'u berilardi. Bularning hammasi marksizm asoschilari yashab o'tgan X1X asr uchun ma'lum darajada to'g'ri kelardi. Lekin XX asrga kelib kapitalistik jamiyatning taraqqiyoti boshqacha yo'ldan ketdi. Hozirgi vaqtda bozor munosabatlariga asoslangan dunyoning ilg'or mamlakatlarida kapitalizm X1X asrdagi va hatto XX asr boshlaridagi kapitalizmdan juda katta farq qiladi. Shundan kelib chiqqan holda marksizm-leninizmning sinflar va kapitalizm to'g'risidagi qarashlari hozirgi davr uchun to'g'ri kelmasligini e'tirof etish kerak bo'ladi.

2. YANGI TARIXNI DAVRLASHTIRISH MASALASI.

Yangi tarixning xronologik chegaralarini XVII asr o'rtalaridagi ingliz burjua inqilobidan boshlab 1-jahon urushining tugashi bilan yakunlash mumkin. Yangi tarixni davrlashtirishda ham yagona fikr, yagona qarash yo'q. Ko'pincha Yangi davr 2 ta katta davrga ajratib o'rganiladi. Uning birinchi davri 1640-1870 yillarni o'z ichiga olib, bu davr Amerika va Yevropaning ilg'or mamlakatlarida kapitalizmning g'alabasi va qaror topishi davri hisoblanadi.

2-davr 1871-1917 yillarni o'z ichiga olib, bu davr kapitalizm inqirozi va sotsialistik inqiloblar davri hisoblanadi.

Yangi tarixning birinchi davri XVII asr o'rtalaridagi ingliz burjua inqilobidan boshlanadi va Frantsiya-Prussiya urushigacha davom etadi. Angliya, Frantsiya, Amerika va boshqa mamlakatlardagi burjua inqiloblari, sanoat to'ntarishi, ayniqsa Angliyadagi sanoat inqilobi, yirik kapitalistik sanoatning tez rivojlanishi, burjua-millatchilik harakati va urushlar, Yangi milliy davlatlarning tashkil topishi, ishchilar sinfi va ishchilar harakatining o'sishi, kapitalizm ziddiyatlarining kuchayishi bu davrning asosiy voqealari va jarayonlari hisoblanadi.

Yangi tarixning ikkinchi davrida kapitalistik davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiyotda erkin raqobat o'rnini monopoliyalarning hukmronligi egalladi. Ishchilar harakati kengaydi, sotsialistik va

sotsial-demokratik yo'nalishdagi siyosiy partiyalar tashkil topdi. Mustamlakalar uchun etakchi davlatlar o'rtasida kurash kuchaydi.

Yangi davrning asosiy xususiyatlarini umumlashtirgan holda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- Feodal-patriarxal tartiblarning bekor qilinishi, inson va fuqaro huquq va erkinliklarining e'lon qilinishi.
- Mashinalashgan ishlab chiqarishning keng yoyilishi.
- Ilm-fanning tez rivojlanishi va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilinishi.
- Jamiyat hayotida din rolining pasayishi.
- Milliy davlatlarning tashkil topishi.
- Mustamlakachilik tizimining tashkil topishi.
- Sinfiy, milliy va boshqa ziddiyatlarning kuchayishi.

3. YANGI TARIX BO'YICHA MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998.
2. Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Evropi i Ameriki (1640-1870). Sostavitel E.E.YUrovskaya. M. 1990.
3. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-7. M. 1960.
4. Istoriya Frantsii. Pod ruk. A.Z.Manfreda v3-x tomax.M. 1972-1973.
5. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A.L.Narochnitskogo. M. 1986.
6. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
7. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.T.1-2. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998.
8. Novaya istoriya (1871-1917). Pod red N.E. Ovcharenko. M. 1984.
9. Novaya istoriya. CH.2. Pod red. V.G Revunenkova. M. 1961.
10. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
11. Vasilev L.S. Istoriya Vostoka. T. 1-2. M. 1998.
12. Guber A.A. i dr. Novaya istoriya stran Aziii Afriki. M. 1975.
13. Istoriya stran Azii i Afriki v novoe vremya. T. 1-2. M. 1991.
14. Osiyo va Afrika mamlakatlarining Yangi va eng Yangi tarixi. T. 1982.
15. Novaya istoriya Kitaya. M. 1972.
16. Novaya istoriya Indii. M. 1961.
17. Istoriya Italii v 3-x tomax. M, 1970-1971.
18. Istoriya SSHA. V 4-x tomax. M. 1980-1987.
19. Jahon tarixi. (G'arb mamlakatlari 1640-1918 yy). O'quv-uslubiy qo'llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Yangi tarixning boshlanishini qaysi tarixiy voqea bilan bog'lash keng tarqalgan?
2. Sobiq SHo'rolar davrida insoniyat tarixini davrlarga ajratishda qanday tamoyillar asos qilib olingan edi?
3. Burjua - demokratik inqilobi haqida so'zlab bering.

4. Sarmoyaning dastlabki jamg'arilishi haqida so'zlab bering.
5. Kapitalistik jamiyatning asosiy sinflarining shakllanish jarayoni haqida so'zlab bering.
6. Nima uchun XVII asr o'rtalaridagi ingliz burjua inqilobi Yangi davrning boshlanishi sifatida qabul qilingan?
7. Kapitalizmning o'zidan oldingi tuzumlardan progressiv (ilg'or) ekanligini ko'rsatib bering.
8. Yangi davr tsivilizatsiyalari dastlab qayerlarda yuzaga keldi?
9. Yangi davrning xronologik chegaralari va davrlari haqida so'zlab bering.
10. Yangi davrning o'zidan oldingi jamiyatlardan farq qiluvchi xususiyatlari nimada?

2 MAVZU: BUYUK BRITANIYA XVII - XX ASR BOSHIDA.

R E J A : 2 soat.

1. Angliyada fuqarolar urushi va burjua inqilobining boshlanishi.
2. Angliyada O.Kromvel protektoratining o'rnatilishi.
3. Angliyada Styuartlar restavratsiyasi. 1688-1689 yil to'ntarishi.
4. Angliyada sanoat to'ntarishi va uning oqibatlari.
5. Britaniya dominionlari.
6. Buyuk Britaniya I-jahon urushi yillarida.

Tayanch tushunchalar: Tyudorlar. Parlament. Agrar mamlakat. Jentrilar. G'ov tutish jarayoni. Lendlord. Manufaktura. Styuartlar. Muxolifat. Yakov I . Karl I. Anglikan cherkovi. Puritanlar. Independentlar. Presviterian. Konsistoriya. Kongregatsiya. Qisqa parlament. Uzoq parlament. J.Lilbern. O. Kromvel. Ulug' remonstratsiya. Fuqarolar urushi. Parlament armiyasi. Royalistlar. Kavalyerlar. Dumaloq boshlar. Temir biqinlilar. Birinchi fuqarolar urushi. Yangi tipdagi armiya. Ikkinchi fuqarolar urushi. Levellyerlar. Diggyerlar. Klobmenlar. Angliya respublikasi. Lord-protektor. Harbiy diktatura. "Prayd tozalashi". Kichik (Berbon) parlament. "Boshqaruv vositasi (quroli)". R. Kromvel. Ikkinchi respublika. Karl II. Styuartlar restavratsiyasi. Yakov II. Vigilar. Torilar. Xabeas korpus akt. Davlat to'ntarishi. V. Oranskiy. "Huquqlar to'g'risida deklaratsiya". Konstitutsion monarxiya. Agrar to'ntarish. Sanoat to'ntarishi. "Jenni". Uchuvchi moki. R. Arkrayt. Bug' dvigateli. J. Uaat. Luddchilik. Sanoat burjuaziyasi. Amen sulhi. V.Pitt. Admiral Nelson. Austrlits yonidagi jang. Qit'a qamali. Vena kongressi. R.Ouen. 1832 yilgi parlament islohoti. "Qashshoqlar to'g'risida qonun". "Ish uylari". CHartistlar harakati. Xalq xartiyasi. "Viktoriya davri". Erkin savdo. V.Gladston. B.Dizraeli. K.Marks. Xalqaro Ishchilar Uyushmasi. Internatsional.

1. ANGLIYANING XVII ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARAQQIYOTI.

Angliya tarixida Yangi davr boshida 1640-1660 yillardagi ingliz burjua inqilobi muhim o'rin tutadi. Angliya o'z tarixining bu davrida ancha katta va o'tkir inqirozni boshdan kechirdi va buning natijasida eski, o'rta asrchilikdan Yangi, hozirgi zamon tsivilizatsiyasiga o'tdi. Bu o'tish XVIII asrda ham davom etdi.

Tyudorlar sulolasining vakili qirolicha YElizaveta 1 hukmronligi davrida (1558-1603 yy) Angliya butunlay agrar mamlakat bo'lib, 4,5 mln. aholining 80 foizi qishloqlarda yashardi. London eng katta shahar bo'lib, 1660 yilda bu erda 450 mingga yaqin aholi yashardi. Bu davrda Angliyada xo'jalik hayoti ayniqsa agrar sohada intensiv rivojlanib bordi. Tyudorlar islohotlari yerlarni "puldor odamlar" - jentrilar va manufaktura egalari qo'lida to'planishiga olib keldi. Tadbirkor xo'jayinlar XVI asrdan boshlab jamoa yerlarini g'ov bilan o'rab olib, jun va go'sht sotib daromad olish uchun qo'ychilikni rivojlantira boshladilar. Bu esa Angliyada "g'ov tutish" jarayonining boshlanishiga olib keldi. Buning natijasida dehqonlarning avvaldan foydalanib kelingan o'tloqlari, yaylovlari ulardan tortib olindi. Shu yo'l bilan manufaktura va konlar uchun potnetsial mehnat armiyasi vujudga keldi. Shu bilan birga qishloqda yerlarni kapitalistik ijaraga berish boshlandi, feodal tartiblarga bo'ysunmaydigan fermyerlar qatlami vujudga kela boshladi.

Dehqonlar ikki tomonlama asoratga tushib qoldilar: bir tomondan lendlordlarning dehqonlar huquqiga xuruji kuchaydi, ikkinchi tomondan ularni qishloqda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va mulkiy tabaqalanish xonavayron qilardi.

Sanoatda ham, ayniqsa mehnatni tashkil qilish va mehnat taqsimoti sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Savdo va sudxo'rlik sarmoyasiga bo'ysunuvchi manufakturalar rivojlandi, qo'rg'oshin, mis, tuz, temir qazib olish ko'paydi, Shu asosda metallurgiya rivojlandi. Oyna, shakar, ipak va ip-gazlamalar ishlab chiqaruvchi manufakturalar rivojlandi. XVI asr oxiriga kelib movutchilik ingliz sanoatining asosiy tarmog'iga aylandi, uning mahsuloti ichki va tashqi bozorda ko'plab sotilardi.

Qirolicha Yelizaveta 1 1603 yilda vafot etgach, uning qarindoshi, Styuartlar sulolasining vakili, Shotlandiya qiroli Yakov VI Yakov I nomi bilan taxtga o'tirdi.

Savdo bilan shug'ullanuvchi odamlar soni ko'payib va mustahkamlanib bordi. Savdogarlar va sanoatchilar ko'pincha er-mulklarni va u bilan birga dvoryanlik unvonlarini sotib olardilar. Sanoat ishlab chiqarishi hali qishloq xo'jaligi bilan mustahkam bog'liq edi. Shu sababli shahar burjuaziyasining Yangi yer egalari – jentrilar bilan yaqin ittifoqi tashkil topdi. Yangi dvoryanlar bir vaqtning o'zida ham yer egalari, ham sanoatchilar, ham savdogarlar edilar. Ular mustahkam iqtisodiy mavqega va ma'lum bir imtiyozlarga ega bo'lib, hukmron Styuartlar rejimiga qarshi bo'lgan kuchlar (muxolifat) boshida turardilar.

Bunday tadbirkor odamlarga mamlakatdagi feodal cheklashlar – savdoga taqiq, tsex reglamentatsiyasi, qirolga qaramlik, qirolning parlament ustidan nazorati halaqit berardi. Ularning noroziligi qirol Yakov 1 (1603-1625) va uning o'g'li Karl I (1625-1649) hukmronligi davrida, ingliz absolyutizmining inqirozi davrida juda kuchaydi. Angliya monarxiyasi aristokratlarga, feodal dvoryanlarga va ingliz cherkoviga tayanardi. Tashqi savdoda ham qirollar ingliz burjuaziyasi manfaatlarini hisobga

olmasdilar, ular ingliz dengiz savdosi yo'lida to'siq bo'lib turgan katolik Ispaniya va Frantsiya bilan ittifoq bo'lish yo'lini izlardilar.

Angliya parlamentining burjuaziya va jentrilar (Yangi dvoryanlar) vakillaridan tashkil topgan quyi palatasida – umum palata yoki jamoalar palatasida absolyutizmga qarshi kayfiyatlar kuchaydi. Qirollar norozilarga qarshi kurashish uchun Oliy komissiya va YUlduzli palataning favqulodda sudlarini tashkil qildilar. Mamlakatda qattiq siyosiy va ma'naviy tsenzura o'rnatildi. Lekin norozilik kuchayib bordi. O'sha davrda jamiyatning ma'naviy hayoti hali o'rta asrdagi diniy ildizlardan ajralmaganligi uchun ham o'z umrini yashab bo'lgan tuzumga qarshi noroziliklar ham diniy shaklda namoyon bo'ldi.

Iqtisodiy hayotda katta mavqeni egallagan Yangi dvoryanlar va tadbirkorlarni absolyutizmga bo'ysunuvchi, doimiy pay to'lash va qimmat turuvchi urf-odatlarni o'tkazishni talab qiluvchi, dindorlar ustidan ruhoniylarning hukmronligini o'rnatuvchi anglikan cherkovi qoniqtirmas edi. Ular cherkovni yepiskoplar hokimyatidan, cherkov sudidan, qadimdan meros bo'lib kelayotgan katolitsizmning urf-odatlaridan tozalash tarafdorlari bo'lgan puritanlarga aylandilar ("pure" – inglizcha "sof"). Bu bilan ular jamiyatning siyosiy va ijtimoiy asoslariga qarshi chiqdilar, chunki qirol anglikan cherkovining boshlig'i hisoblanardi, cherkov esa feodal-mustabid monarxiyani yoqlab, oqlab, qo'llab-quvvatlab kelardi. Puritanlar dinning asosi deb har bir shaxsning e'tiqodini e'lon qildilar, bu bilan ular ruhoniylarning odamlar (dindorlar) ustidan hukmronligini inkor etdilar, ularning odamlar bilan xudo o'rtasida turishlarini inkor etdilar. Puritanlar dinda barcha odamlar – oddiy xalq ham, lord ham teng deb hisoblardilar. Ijtimoiy va siyosiy tenglik g'oyasi diniy shaklda Shu tariqa paydo bo'ldi.

Puritanlar dabdabali va qimmat turuvchi diniy urf-odatlarni, sanamlar, xaykallar, cherkov muzikasini inkor etardilar, bularning hammasi kamtarlikga, tejamkorlikga, "arzon cherkov"ga to'g'ri kelmasdi. Puritanlar episkoplikning ierarxik tuzumini inkor qilardilar. Puritanlarning presviterian cherkovi deb nom olgan cherkovi quyidagicha tuzilgan edi: dindorlarning har bir jamoasiga eng hurmatli odam hisoblangan p r e s v i t e r (oqsoqol) rahbarlik qilardi. CHerkovni episkop o'rniga presvityerlar kengashi – konsistoriyalar boshqarardi. Yirik savdogarlar, moliyachilar, yer egalari – jentrilar, erkin dehqonlar presviterian bo'lardilar.

Puritanlarning yana bir oqimi i n d e p e n d e n t l a r (mustaqillar) deb atalardi. Ular davlat din ishlariga aralashmasligi kerak, deb hisoblardilar hamda diniy bag'rikenglik va dindorlar kongregatsiyasining o'z-o'zini erkin boshqarish tamoyillarini yoqlab chiqdilar. Independentlik presviterianlarning tor, yopiq tashkilotlariga qarshi edi, u dindorlar tashabbusiga keng yo'l ochib, ko'p sonli xalq sektalarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Independentlik kongregatsiyalariga jentrilarning o'rta qatlami, uncha katta bo'lmagan ustaxona va manufaktura egalari, mayda do'kondorlar, xalfalar, ijarachi dehqonlar kirgan edi.

2. INQILOBNING BOSHLANISHI, FUQAROLAR URUSHI.

1628 yilda qirol siyosatiga oppozitsiyada bo'lgan parlament "Huquq to'g'risidagi petitsiya"ni e'lon qildi. Bu hujjatda muxolifat tomonidan xususiy

mulkni taxt va cherkov o'zboshimchaligidan himoya qilish, parlament roziligisiz qirol tomonidan Yangi soliqlarni joriy qilmaslik, parlament huquqlari va erkinligi talab qilingan edi. Bunga javoban Karl I parlamentni haydab yubordi va 11 yil (1629-1640) davomida mamlakatni parlamentsiz yakka o'zi boshqardi.

1640 yilda Angliyaning Shotlandiya bilan urushi boshlandi. Qirolning Shotlandiya dagi vakili arxiepiskop Lod bu yerda Yangi diniy urf-odatlarni joriy qilish uchun olib borgan harakati urush chiqishga olib keldi (Shotlandiya da presviterianlik keng tarqalgan edi). Shotlandiya qo'shini Angliya hududiga bostirib kirib, bir qator qal'alarni bosib oldi. Karl I parlamentni chaqirishga majbur bo'ldi. Bu parlament 1640 yil 13 apreldan 5 maygacha ish olib bordi va qirolga Yangi soliqlar to'plashga rozilik bermagani uchun tarqatib yuborildi. Parlament juda qisqa vaqt faoliyat ko'rsatgani uchun u tarixda "Qisqa parlament" deb nom oldi.

Shotlandiya bilan urushning cho'zilishi va mablag'ning etishmasligi qirolni Yangi parlament chaqirishga majbur qildi. Bu parlament 1640 yil noyabrda chaqirildi va 1653 yil aprelgacha faoliyat olib bordi hamda tarixda "Uzoq parlament" nomini oldi. Angliyadagi inqilobning boshlanishi Uzoq parlamentning chaqirilishi bilan boshlangan, deb hisoblanadi. Uzoq parlamentda asl burjuaziya vakillari oz bo'lsada, bu parlament boshlanib ketgan ingliz burjua inqilobida katta rol o'ynadi. Bu parlamentda puritanlarning peshvolari Pim, Gempden, Shuningdek 1628-1629-yillardagi parlament deputati bo'lgan Oliver Kromvel g'oyat faollik ko'rsatdilar.

Bu davrda Angliyada keng inqilobiy harakat avj olib ketgan edi. Aholining qo'llab-quvvatlashidan foydalangan parlament feodal-mustabid hukumatga qarshi hujum boshladi, o'z zarbalarini Karl I ning eng yaqin yordamchilariga qaratdi. Strafford, Lod va hukumatning boshqa bir qancha eng faol arboblari qamoqqa olindi.

Karl o'z arzandasi Straffordni o'limdan olib qolishga harakat qildi, lekin Londonda xalq ommasining qattiq talabi ostida 1641 yil 12 mayda Strafford qatl qilindi.

Shu yili parlament qirolni bir qator siyosiy masalalarda yon berishga majbur qildi. Jumladan levellyerlar rahbarlaridan Jon Lilbern va boshqalar turmadan ozod qilindi. Parlamentni parlamentning roziligisiz tarqatish mumkin emas, degan hujjatga qirol imzo qo'yishga majbur bo'ldi. Absolyutizmning eng muhim organi bo'lgan YUlduzli palata tugatildi, Oliy komissiya o'z faoliyatini to'xtatdi. Qirol armiyasi tarqatib yuborildi.

Angliyada 1640-1641-yillarda dehqonlar harakati ham kuchaydi. Dehqonlar tutilgan g'ovlarni buzdilar, pomeshchiklarga renta to'lashdan bosh tortdilar, o'rmonlarni bosib oldilar.

Parlament a'zolarining ko'pchiligi dehqonlar qo'zg'oloni ko'tarilishidan xavfsirab, islohotlar o'tkazishni talab qilib chiqdilar va Shu yo'l bilan bu xavfni bartaraf qilmoqchi bo'ldilar.

1641 yil oktabrda Irlandiyada ingliz va shotland mustamlakachilariga qarshi qo'zg'olon boshlandi, juda ko'p inglizlar va shotlandlar o'ldirildi. Irlandiyada irland zodagonlari va katolik ruhoniylari rahbarligida milliy konfederatsiya tuzildi, bu konfederatsiya o'z oldiga Chet elliklarni oroldan quvib chiqarish va Irlandiyani mustaqil davlatga aylantirish vazifasini qo'ydi.

Irlandiyadagi qo'zg'olon to'g'risidagi xabar Angliyadagi inqilobiy vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Uzoq parlament 1641 yil noyabrda "Ulug' remonstratsiya" degan nom bilan mashhur bo'lgan hujjat ishlab chiqdi. Bu hujjat 204 moddadan iborat bo'lib, Unda Karl 1 podsholik qilgan so'nggi 10 yil ichida qirol tomonidan qilingan suiiste'mollar batafsil ko'rsatib berilgan edi. Ulug' remonstratsiyada Uzoq parlamentning o'tkazgan tadbirlari ham aniq ko'rsatilgan bo'lib, bundan keyin qirol maslahatchilari, ya'ni ministrlar faqat parlamentning ishonchini qozongan kishilardan tayinlanishi talab qilingan edi. Ulug' remonstiratsiyada savdo va sanoat erkinligi masalalari, burjua presviterian cherkovini barpo qilish, parlament oldida javobgar hukumat tuzish masalalari ham o'rin olgan bo'lib, dehqonlar ommasi va shahar plebey elementlarining ahvolini yaxshilashga qaratilgan talablar yo'q edi. Ulug' remonstratsiya inqilobning boshlang'ich davrida Angliya burjuaziyasining o'ziga xos dasturiy hujjati edi.

Ulug' remonstratsiya 1641 yil noyabrda parlamentda uzoq tortiShuvlardan keyin qabul qilindi.

Qirol saroyi aksilinqilobiy to'ntarish rejasini ishlab chiqdi. 1642 yil yanvar boshida Karl parlamentning eng faol rahbarlaridan 5 kishini (Pim, Gempden va boshqalar) qamoqqa olish haqida farmon berdi. Lekin ular oldinroq ogohlantirilganliklari uchun yashirinib ulgurgan edilar. Qirolning bunday harakatidan norozi bo'lgan shahar kambag'allari va dehqonlar ommasi Londonda g'alayon ko'tardilar. Natijada aksilinqilobiy isyon amalga oshmadi. Qirol parlament faollarini qamoqqa olish to'g'risidagi farmonini bekor qilishga majbur bo'ldi.

1642 yil 10 yanvarda qirol Karl I Londonni tashlab, dvoryanlardan madad olish maqsadida Angliyaning Shimoliga jo'nab ketdi. Angliya fuqarolar urushi bo'sag'asiga kelib qolgan edi.

Karl I 1642 yilda Nottingeym grafligida o'z qurolli kuchlarini to'plab, ularning sonini 8 ming kishiga etkazdi.

Parlament armiyasi son jihatdan ko'p edi-yu, lekin yaxshi harbiy ta'lim ko'rmagan edi. Parlament jang qilishga shoshilmas edi, u qirolni poytaxtga qaytarishga, u bilan kelishishga harakat qildi va qirol oldiga bir qator shartlarni qo'ydi. Lekin qirol bu talablarni rad etdi va fuqarolar urushi muqarrar bo'lib qoldi.

Angliya ikki qismga ajraldi: bir qismi qirol tarafdori edi, bunga Angliyaning Shimoli bilan g'arbi kirardi. Ikkinchi qismi parlamentni qo'llab-quvvatlardi, unga Angliyaning janubi-sharqiy qismi, barcha eng yirik dengiz portlari va butun flot kirardi.

Anglikan episkoplari, Shimoli-g'arbdagi iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan hududlardagi dvoryanlar va bu hududlardagi dehqonlarning bir qismi qirol tarafdori edilar.

Parlament tarafdorlarining sinfiy tarkibi turlicha edi – keng burjuaziya ahli, Yangi dvoryanlar, shahar mayda burjuaziyasi, shaharning plebey elementlari va predproletar tabaqalari, dehqonlarning katta ko'pchiligi, badavlat va o'rtahol dehqonlar parlament tarafdorlari edilar.

Sinfiy jihatdan 2 ta bir-biriga dushman lagerning vujudga kelishi Angliyaning diniy jihatdan 2 ga bo'linishida ham ifodalandi: ingliz puritanizmidagi 2 asosiy oqim – presviterianlar va independentlar parlamentni qo'llab-quvvatladilar.

Iqtisodiy jihatdan qoloq hisoblangan katolik Irlandiya va Shotlandiya ning tog'lik qismi qirol tomonida edi.

Qirol tarafdorlari "kavalyerlar" degan laqab oldilar, parlament tarafdorlari esa "dumaloq boshlar" (sochi olinganlar) deb atala boshlandi.

Fuqarolar urushining birinchi katta jangi 1642 yil kuzida Edjgillda bo'ldi. Parlament qo'shini engildi. Qirol Oksfordni bosib oldi va Londonga yo'l oldi. Lekin London militsiyasi (hunarmandlar, xalfalar, shogird-ishchilar, London aholisi) ularni to'xtatdilar.

1643 yil yozida ahvol yana parlament qo'shini uchun xavfli bo'lib qoldi. Royalistlar (qirol tarafdorlari) parlament qo'shinini engib, Yorkshirni bosib oldilar, g'arbda Devonshir bilan Bristolni egalladilar.

1643 yil sentabrida Angliya parlamenti bilan Shotlandiya parlamenti o'rtasida ittifoq – kovenant tuzildi. Ular o'z zimmalariga presviterian cherkov tuzumini, Angliya va Shotlandiya parlamentlarining va qirolliklarining erkinliklari va imtiyozlarini saqlab qolish majburiyatlarini oldilar.

1644 yilda parlament qo'shinlari qirolning asosiy qarorgohi – Oksfordga hujum qildilar, lekin qattiq mag'lubiyatga uchradilar.

Parlament armiyasi mag'lubiyatining 2 asosiy sababi – harbiy-tashkiliy va siyosiy sababi bor edi. Bu armiya yaxshi tashkil qilinmagan, ikki xil tarkibiy qismdan – doimiy qo'shin va xalq lashkaridan iborat bo'lib, doimiy qo'shin yollanma askarlardan tuzilgan bo'lib, haq to'lanmasa yaxshi jang qilmay, tarqalib ketishi mumkin edi. Xalq lashkari har qaysi graflikda va Londonda yig'ilgan edi. Grafliklar o'z harbiy qismlarini barcha kerakli narsalar bilan ta'minlashi kerak edi. Bu qo'shinlar ancha ishonchli, lekin yaxshi qurollantirilmagan va yaxshi ta'minlanmagan edi.

Qirol armiyasi harbiy xizmatni yaxshi biladigan dvoryanlardan iborat edi.

Parlament armiyasining engilishining yana bir sababi bu qo'shin tepasida turgan kishilar qirol bilan kelishishni hohlar va inqilobning chuqurlashib ketishidan qo'rqardilar. Bosh qo'mondon graf Esseks qirolga qarshi qat'iy jang qilishni hohlamas edi.

Parlament qo'shiniga rahbarlik qilish uchun jiddiy jang qilishga jur'at eta oladigan Yangi xil rahbar kerak edi. Oliver Kromvel (1599-1658) ana shunday kishi edi, u parlamentdagi independentlarga mansub edi. U vajohati xunuk va badf'el, o'rta darajali qishloq burjua – aristokrati bo'lib, o'z sinfiy manfaatlarini to'g'ri deb biladigan kishi edi.

Kromvel zo'r harbiy tashkilotchilik qobilyatiga ega edi. U urushda g'alabani ta'minlaydigan asosiy kuch – xalqning kuchi ekanligini tuShunib etdi.

Kromvel o'z mablag'idan intizomli va jangovar otliq askarlar otryadini tuzdi. U dehqonlardan g'ayratli, jangga otilib kiradigan va intizomga ongli ravishda bo'ysunadigan kishilarni tanlab oldi. Kromvel askarlarni ma'lum belgisiga qarab tanlash yo'lini tutdi: u askarlikga faqat sektantlarni, o'z kurashiga, diniy ish – dinning pokligi uchun kurash deb qarovchi kishilarni ola boshladi.

Kromvel otryadi zo'r jangovarlik ko'rsatdi va "temir biqinlilar" degan nom oldi. 1644 yil iyuldagi jangda uning otryadi jang taqdirini hal qiluvchi g'alabaga

erishdi. Kromvel armiyani Yangi tartibda tuzishni taklif etdi, lekin parlament bunga rozi bo'lmadi. Keyinchalik ommaning talabi bilan yon berishga majbur bo'ldi.

Angliyada inqilob davrida xalq harakatining yana bir shakli yuzaga keldi, u "tayoqchilar" yoki "klobmenlar" deb ataldi, dehqonlar qurol topa olishmagach tayoqlar bilan qurollanib oldilar. Klobmenlar harakati dehqonlarning stixiyali harakati bo'lib, uning muayyan tashkiloti va mafkurasi yo'q edi. Bu harakatning rahbarlari badavlat dehqonlar edi. Klobmenlar harakatida kamida ellik mingga yaqin dehqonlar, fermyerlar, batraklar, xizmatkorlar va hunarmandlar qatnashdi. Klobmenlar goh qirol tomonida, goh parlament tomonida turib jang qildilar.

1645 yil yanvarda parlament armiyani isloh qilishning Kromvel taklif etgan rejasini qabul qildi. Parlament qabul qilgan qonunga binoan harbiy lavozimlarda bo'lgan parlament a'zolari o'z lavozimlaridan voz kechdilar. Grafliklar tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga saqlanadigan otryadlar o'rniga yagona armiya tuzilib, u yagona qo'mondonlik ostida bo'ldi. Bu armiyaga Tomas Ferfaks qo'mondon qilib tayinlandi, ammo uning haqiqiy tashkilotchisi va sarkardasi O.Kromvel edi. Kromvel bosh qo'mondon o'rinbosari (leytenant-general) bo'ldi.

Yangi armiya 1645 yil iyunda Neyzbi yonida qirol armiyasini engdi, 5 ming askar asir olindi. Birinchi fuqarolar urushining yirik operatsiyalari Shu jang bilan tugadi.

1645 yil avgust-sentabrda parlament armiyasi klobmenlarning chiqishlarini bostirdi.

1643 yilda presviterian cherkovi joriy qilinganidan so'ng episkoplar yerlari va delinkventlarning yerlari ustidan pul qarz berish boshlandi.

1646 yilda ritsarlarning er-mulki bekor qilindi. Parlament katta yyer egalarining feodal asosda er-mulk tutishini bekor qildi-yu, lekin kopigolder-dehqonlarning katta yyer egalariga feodal qaramligini bekor qilmadi. Er xususiy mulkka aylantirildi (burjuacha huquq), lekin dehqonlar majburiyatlarni bajarishlari kerak edi. Parlament dehqonlarga qarshi qaratilgan siyosat yurgiza boshladi.

Presviterianlar bilan independentlar o'rtasida kelishmovchilik kuchaya bordi. Presviterianlar parlamentda ko'pchilikni tashkil etardi. Independentlar esa armiyada rahbarlikni o'z qo'llariga olgan edilar.

Bu davrda levellyerlar (tenglashtiruvchilar) harakati ham kuchaygan edi. Bu partiyaning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini mayda mulkdorlar belgilardi. Ularning asosiy talablari umumiy saylov huquqini joriy etish, hammani qonun oldida rasman teng etish, parlamentni har yili qayta saylash kabilardan iborat edi. Ular ijtimoiy sohada to'la savdo va sanoat erkinligini joriy etish, soliqlarni isloh qilish, dehqonlar jamoalariga qarashli yerlarni katta yyer egalari tomonidan tortib olinishini bekor qilinishini talab qilardilar. Levellyerlarning asosiy rahbarlari Lilbern, Overton, Uolvin edi.

Parlament bilan armiya o'rtasida nizo kelib chiqdi. Parlament armiyani tarqatib yubormoqchi bo'ldi, lekin armiya bunga qarshi chiqdi. Parlament qirol bilan muzokara olib bordi.

Kromvel armiyada levellyerlardan bir qanchasini jazoladi.

Qirol Shotlandiya bilan til biriktirib, parlament armiyasiga qarshi hujum qilishga tayyorlandi. 1648 yil martda Angliyada ikkinchi fuqarolar urushi boshlandi.

1648 yil avgustda Kromvel shotlandlarni mag'lubiyatga uchratdi, sentabrda Edinburg ishg'ol qilindi.

Bu vaqtda parlament qirol bilan muzokara olib borayotgan edi. Armiya bunga qarshi norozilik bildirdi, qirol ustidan sud o'tkazishni va parlamentni tarqatib yuborishni talab qildi, lekin parlament bunga rozi bo'lmadi. Armiyaning o'zi (polkovnik Prayd otryadi) 1648 yil 5 dekabrda parlamentni egallab, 140 deputatni parlamentdan haydab yubordi.

Qirol ustidan sud o'tkazish uchun 135 kishidan iborat maxsus oliy tribunal tashkil etildi. 1649 yil 27 yanvarda oliy sud qirolni o'limga hukm etdi, 30 yanvarda hukm ijro etildi.

Bir hafta o'tgach umum palata lordlar palatasini tugatish va qirol hokimyatini bekor qilish to'g'risida qonun loyihasini qabul qildi. 1649 yil fevraldan boshlab Angliya amaliy jihatdangina emas, balki yuridik jihatdan ham qirolsiz va lordlar palatasisiz respublika bo'lib qoldi.

3. ANGLIYADA RESPUBLIKA VA O.KROMVEL PROTEKTORATI (1649-1659 yy).

Angliya burjua respublikasi ichki va tashqi sohada katta qiyinchiliklarga, duch keldi. Qirol tarafdorlarining (royalistlar) inqilobga dushmanligi yanada kuchaydi. Mehnatkash xalq ommasining ahvoli yanada yomonlashdi.

"Haqiqiy levellyerlar" yoki diggyerlar (qayta kovlovchilar) harakati kuchaydi, ular qishloq kambag'allariga tayanar edilar. (Levellyerlar esa xususiy mulkni himoya qilib chiqdilar). Diggyerlar yerlarni taqsimlashni, hamma bir xil mol-mulkka va teng huquqlarga ega bo'lishlari kerak, deb talab qilib chiqdilar. Diggyerlar bo'sh yotgan yerlarni birgalikda ishlay boshladilar.

O.Kromvel ham, J.Lilbern ham diggyerlarga qarshi chiqdilar.

"Haqiqiy levellyerlar"ning mafkurasining o'zagini "Er – uning barcha farzandlari uchun umumiy xazinadir" degan shior tashkil qilar edi.

Jerard Uinsteenli "haqiqiy levellyerlar"ning eng yirik mafkurachisi edi va ko'pgina pamfletlarning muallifi edi. U ko'proq xayoliy fikrlarga berilardi (yer egalarining insofga kelishlari, o'z mulklaridan ixtiyoriy ravishda voz kechadilar va h.k.).

Respublika tuzumi o'rnatilgandan keyin levellyerlar Yangi tuzumni qattiq tanqid ostiga oldilar. Lilbern o'zining "Angliyaning Yangi zanjirlari" deb atalgan pamfletida parlamentni xalqqa hech qanday huquq va erkinliklar bermaganlikda, xalqning turmush sharoitini yaxshilash haqida qayg'urmaganlikda ayblab, parlamentni o'z manfaatlarini o'ylovchi bir guruh oqsuyaklarning yig'iniga aylanganligini ko'rsatdi. Haqiqatan ham mamlakatni Kromvel boshchiligidagi bir guruh harbiylar boshqarmoqda edi. Parlament a'zolari esa eng avvalo o'z shaxsiy va sinfiy manfaatlari haqida qayg'urmoqda edilar.

Urush va inqiroz natijasida xalq ommasining ahvoli juda yomonlashdi. Ishsizlik avj oldi, minglagan daydilar yo'llarda sang'ib yurardilar. Uch yil davom etgan hosilsizlik natijasida oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashib ketdi. 40 ming kishilik armiya ham xalq gardanidagi og'ir yuk edi. Soliqlar o'sdi, vijdon erkinligi e'lon qilingan bo'lsada cherkov desyatinasi bekor qilinmadi.

1649 yil bahoriga kelib “haqiqiy leveller”larning harakati avj olib ketdi. Xalqning quyi qatlamlari mulkiy tengsizlikni tugatish, yerlarni umumlashtirish va asoratga solishni tugatish talablari bilan chiqdilar.

Levellyerlar qonuniy yo’llar bilan islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yo’qligini ko’rishgach, 1649 yil bahorida Solsberida qo’zg’olon ko’tardilar. Boshqa joylarda ham ularni qo’llab-quvvatlovchilar topildi. Kromvel va Ferfaks qo’zg’olonchilarga qarshi eng yaxshi harbiy qismlarni tashladilar. Natijada 1649 yil kuziga borib Angliyada levellyerlar harakati batamom tugatildi. Inqilobdagi demokratik kuchlarning mag’lubiyati respublikaning sinfiy asosini ancha qisqartirib qo’ydi, xalq keng ommasining – dehqonlar, mayda burjuaziya va shahar plebey elementlarini inqilobdan Chetlashishiga va oqibatda inqilobning halokatga uchrashiga olib keldi.

Respublika oldida independentlardan chiqqan jentrilar va burjuaziyaning hokimyatini mustahkamlash vazifasi turardi. Mamlakat ichidagi oppozitsiyani bostirgach, Irlandiya va Shotlandiya dagi royalistlar o’choqlarini yo’q qilish kerak edi. Kromvel 1649 yil iyulda o’z armiyasi bilan Irlandiyaga hujum boshladi. U bu erda mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch kelgach, hech kimni – na ayollarni, na bolalarni va na ruhoniylarni ayab o’tirmay, shafqatsizlik bilan mamlakatni qonga botirdi.

Lekin Shunga qaramasdan royalistlar xavfi bartaraf etilmadi. Qatl qilingan qirolning o’g’li Karl II Shotlandiya da barcha 3 davlatning qiroli deb e’lon qilindi. Natijada Angliyaga Shimoldan hujum bo’lish xavfi paydo bo’ldi. Kromvel o’z armiyasi bilan shotlandlarga qarshi hujum boshladi. 1650-1651 yillarda u shotlandlarni qattiq mag’lubiyatga uchratdi. Shotlandiya armiyasi batamom tor-mor etildi, unga qo’mondonlik qilgan yosh qirol qochib qolishga majbur bo’ldi. Shotlandiya va Irlandiya siyosiy va iqtisodiy uniya asosida Angliya respublikasiga qo’shib olindi. O.Kromvelning Shuhrati, obro’-e’tibori va hokimyati juda yuksaldi. Uning g’alabalari natijasida Ispaniya, Germaniya, SHvetsiya, Frantsiya, italyan davlatlari va dengiz ortidagi mustamlakalar Angliya respublikasini tan oldilar.

Kromvelning Shotlandiya va Irlandiyada erishgan g’alabalari uning obro’sini oshirib yubordi. Uning xususiy mulkni qattiq himoya qilishi, milliy harakatlarni va dehqonlar harakatlarini shafqatsizlik bilan bostirishi mulkdor qatlamlarning Kromvel atrofida jipslashishiga olib keldi. Burjuaziya va Yangi dvoryanlar qatlami shahar va qishloq quyi tabaqalariga qarshi kurashishning ishonchli apparati sifatida Kromvel boshchiligida harbiy diktatura o’rnatishga intildilar.

Lekin respublikaning ichki ahvoli yomon edi. Mamlakat xarobaga aylangan, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo inqirozga uchragan edi. Yangi paydo bo’lgan boylar dehqonlarni avvalgidan ham ko’proq talashar, ularning yerlarini tortib olardilar. Qamoqxonalar qarzini to’lay olmagan odamlar bilan to’lib ketgan edi. Ishsizlar soni juda ko’payib ketdi.

Qonunchilik sohasida islohotlarni amalga oshirish, cherkov ishlarini tartibga solish va eng avvalo Angliyaning Yangi konstitutsiyasini qabul qilish kerak edi. Lekin Angliyadagi mavjud parlament bu ishni qilishga qodir emas edi (bu parlament

xalq ichida “dum, quyruq” deb nom olgan edi). Parlament a’zolari faqat o’z boyliklarini ko’paytirish, o’z hokimyatlarini saqlab qolish qayg’usi bilan band edilar.

Halq ommasi ichida hukmron doiralarning harakatsizligi va sotqinligidan norozilik kuchaydi. Armiyada ham, Shuningdek yuqori martabali zobitlar ichida ham islohot tarafdorlari ko’paydi. Ana Shunday sharoitda Kromvel yana bir inqilobiy tadbirni amalga oshirdi: u 1653 yil 20 aprelda parlamentni haydab yubordi va Yangi parlament chaqirdi.

Kichik yoki Berbon parlamenti deb nom olgan bu parlament 1653 yil 4 iyulda o’z ishini boshladi. Bu parlament asosan mayda burjuaziya vakillaridan tashkil topgan edi. Yangi parlament bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi: ingliz qonunchiligini tartibga solish (kodlashtirish) boshlandi, feodalizm davridan qolgan kantsler sudini bekor qildi, diniy nikohni fuqarolik nikohi bilan almashtirdi, qiynoqqa solib o’ldirishni bekor qildi, lendlordlarning cherkov amaldorlarini tayinlash huquqi bekor qilindi. Shu bilan birga Yangi parlament ijtimoiy-iqtisodiy sohada ham o’zgarishlar qilishga harakat qildi: soliq yig’ishda otkup tizimi bekor qilindi, aholining daromadiga qarab soliq solish tartibi muhokama qilina boshlandi, g’ov tutish jarayonida kambag’allarga etkazilgan zararni qoplash, lendlordlarga to’lanadigan aktsizlar, rentalarni va cherkov desyatinasini bekor qilish, qamoqda yotgan qarzdorlarni ozod qilish masalasi o’rtaga qo’yildi.

Yangi parlamentning bunday harakati hukmron doiralarning, katta yyer egalarining, Kromvelning g’azabini kuchaytirdi. YArim yilga yaqin faoliyat ko’rsatgan parlament burjuaziya va dvoryanlarning taziyqi ostida tarqatib yuborildi deb e’lon qilindi va butun hokimyat O.Kromvel qo’liga o’tdi.

1653 yil dekabrda Angliyada Yangi Konstitutsiya – “Boshqaruv vositasi (quroli)” qabul qilindi. Unga binoan O.Kromvel Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning umrbod lord-protektori (homiysi, himoyachisi) mansabini egalladi. Parlamentga saylanish uchun 200 funt sterlinglik mablag’ga ega bo’lish kerak edi, bu Styuartlar davridagidan ham katta mablag’ edi. Ijroiya hokimyat protektorga va zobitlar Kengashi tomonidan umrbod saylanadigan 15 shaxsga tegishli edi. Protektorning o’zi juda katta hokimyatga ega bo’lib, mansabdor shaxslarni saylar, qurolli kuchlarga qo’mondonlik qilar, xalqaro siyosat olib borar, qonunlar uning roziligisiz qabul qilinmas va soliqlar joriy qilinmas edi. Amalda mamlakatda O.Kromvelning harbiy diktaturasi o’rnatilgan bo’lib, bu diktatura inqilobda g’alaba qozongan independent-zobitlarga va kuchli hokimyatdan manfaatdor bo’lgan xususiy mulkchilarning keng qatlamiga tayanardi. Kichik parlament boshlab bergan islohotlar to’xtab qoldi.

1654 yilda Yangi konstitutsiyaga muvofiq saylangan birinchi parlament ish boshladi. Bu parlamentda ham Kromvelning harbiy diktuturasiga qarshi bo’lgan muxolifat mavjud edi. Ular armiyadagi askarlar sonini ikki marta qisqartirishni talab qilib chiqdilar. Shundan keyin Kromvel parlamentni tarqatib yubordi va mamlakatni bir yilcha parlamentsiz, 18 oliy generaldan tashkil topgan Davlat kengashiga tayanib boshqardi.

Angliya 11 ta harbiy harbiy-ma’muriy okrugga bo’lingan bo’lib, ularga generallar boshchilik qilardilar, ular cheklanmagan politsiya vakolatiga ega bo’lib, o’zlariga topshirilgan okrugni idora qilar, soliqlar yig’ar, aholining ahloqini kuzatib

borar, davlatga qarshi har qanday muxolifat va harakatlarni shafqatsizlik bilan bostirar edilar. Shunga qaramasdan mamlakatda norozilik kuchayib boraverdi. Shuning uchun ham harbiy diktatura kuchaytirilib borildi.

Angliyaning faol tashqi siyosat yuritishi natijasida jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar paydo bo'ldi. 1654 yilda Kromvel Gollandiya va Portugaliyaga qarshi urushni g'alaba bilan tamomlagach, Ispaniyaga qarshi urush olib bordi va 1655 yilda ispanlarning mustamlakalariga hujum boshlab, YAmayka orolini bosib oldi.

Kromvelning Ispaniya mustamlakalarini bosib olish uchun olib borgan kurashi bilan XVIII asrdagi Britaniya mustamlakachilik imperiyasiga asos solingan edi.

Urushni davom ettirish uchun mablag' etishmay qolganligi sababli 1656 yilda yana parlament chaqirishga to'g'ri keldi, bu parlament o'ziga xos tiklash (restavratsiya) siyosatini yurgizdi. Parlament Kromvelga Angliyada lordlar palatasi, qirol hokimyati va davlat cherkovini tiklashni taklif etdi va Kromvelni qirol bo'lishga chaqirdi. Lekin respublikachilik ruhi kuchli bo'lgan armiya ham, oliy tabaqa generallar ham Kromvelning tojni qabul qilishiga qat'iy norozilik bildirdilar. 1657 yilda lordlar palatasi tiklandi.

Kromvel hukmronligining oxiri katta harbiy yutuq – Ispaniya armiyasining tormor qilinishi bilan nishonlandi, Denkerk bosib olindi.

Lekin Kromvel ingliz qo'shinlari qozongan g'alaba samaralaridan foydalanishga ulgurmay, 1658 yil sentabrda vafot etdi.

Oliver Kromvel vafotidan keyin uning o'g'li Richard Kromvel Yangi lordprotektor bo'ldi, lekin uning noshud va ojizligidan foydalangan harbiylar mamlakatni boshqara boshladilar, bu esa parlament bilan armiya o'rtasida nizo chiqishiga olib keldi. Xalq ommasining noroziligi kuchayib bordi va uning taziyqi ostida 1659 yil bahorida Uzoq parlamentning respublikachi "dumi" hokimyat tepasiga keldi. Angliyada Ikkinchi respublika o'rnatildi. Lekin bu parlament hech bir sohada islohotlarni amalga oshira olmadi, natijada xalq ommasining noroziligi yanada kuchaydi. Xalq ommasining noroziligini bostirish uchun general Lambert rahbarligidagi armiyaning yuqori qatlami 1659 yil kuzida parlamentni haydab yuborib, harbiy diktatura o'rnatdi.

Mamlakatdagi siyosiy tuzumning beqarorligi, xalq g'alayonlarining kuchayib borishi, demokratik islohotlar o'tkazilishi haqidagi talablarning kuchayishi burjua-dvoryanlar ittifoqini monarxiya hokimyatini qayta tiklashga undadi. General Monk armiyasi Londonga kelib, 1648 yilda parlamentdan quvilgan independentlarni parlamentga qayta to'pladi. Yangi parlament davlat mansablarini, armiya va militsiyadagi rahbarlik lavozimlarini o'z tarafdorlari qo'liga topshirdi.

Bu vaqtda Gollandiyada turgan Karl II Bred deklaratsiyasini e'lon qilib, unda ingliz xalqining fuqarolar urushi vaqtidagi qilmishlarini avf etganligini, vijdon erkinligi berilishini, inqilob davrida sotilgan va musodara qilingan er-mulklarni qaytarib olinmasligini e'lon qildi. 1660 yil 25 aprelda chaqirilgan Konvent Karl II ni qonuniy qirol deb e'lon qildi. 26 mayda Yangi qirol tantana bilan Londonga kirib keldi. Angliyada yana absolyut monarxiya tartiboti o'rnatildi.

Monarxiyani qayta tiklash qatag'on qilishlar bilan birga bordi. Chet ellarga chiqib keta olmagan inqilob rahbarlari ushlab, qatl qilindi. Hatto Kromvel, uning kuyovi Ayrton va Karl I ustidan o'tkazilgan sud rahbari Bredshoularning jasadlari

qabrdan olinib, kallasi olinib, hammaning ko'zi oldida osib qo'yildi. Anglikan cherkovi huquqlari qayta tiklandi, presviterian va independent ruhoniylari cherkovlardan quvildi. Matbuot ustidan qattiq nazorat o'rnatildi.

Inqilob davrida royalistlardan, qirol va cherkovdan musodara qilingan yerlarning bir qismi avvalgi egalariga qaytarildi.

Restavratsiya davrida qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarni joriy qilish davom etdi, jamoa yerlariga g'ov tutish kuchaydi. 1666, 1677 yillarda qabul qilingan bir qator qonunlar dehqonlarning jamoa huquqlarini cheklash va yirik yer egalarining manfaatlarini himoya qilish imkonini berdi. Buning natijasida XVII asrning oxiri va XVIII asrning 1-yarmida ingliz dehqonlarini erdan tamomila maxrum qilish uchun yuridik shart-sharoit yaratildi.

Angliya bozorlarida g'allani yuqori narxlarda sotilishini ta'minlash uchun hukumat Chet elga g'alla sotuvchi kapitalist-fermyerlar va yer egalariga mukofotlar berib bordi. Angliyaga Chet eldan keltiriladigan g'alla, chorva va go'shtga yuqori boj belgilandi.

Hukumat sanoatni rivojlantirishga doir bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Merkantilizm, aktiv savdo balansi yo'li bilan mamlakatga mumkin qadar ko'proq pul jalb qilish tamoyili restavratsiyaning asosiy iqtisodiy siyosati bo'lib qoldi. Angliya mustamlakalardan xom ashyo olib kelish bilan birga Chetga sanoat mahsuloti chiqarishni ko'paytirib bordi.

XVIII asrning 60-80-yillarida Angliyada sarmoya jamg'arish intensiv ravishda bordi. 1660-1688 yillar davomida Angliya sanoati va savdosi, Shuningdek ingliz dengiz flotining yuk ko'tarish imkoniyati 3 baravardan ko'proq o'sdi, bunday o'sish Angliyada hech qachon bo'lmagan edi. Inqilob tufayli kapitalizm taraqqiyoti yo'lida asosiy to'siq bo'lib turgan feodal er egaligining bekor qilinishi, savdo-sanoat monopoliyalarining tugatilishi, Shuningdek mustamlakalar bosib olishni ko'paytirish, ichki bozorni kengaytirish hisobiga bunday o'sishga erishildi.

Karl II va uning atrofidagilar mamlakatni boshqarishda parlamentdan mustaqil bo'lishni istardilar. Shu maqsadda Karl II frantsuz qiroli Lyudovik XIV dan yashirin ravishda sadaqa, pul, nafaqa olib turardi. 1670-yilda maxfiy holda Angliya bilan Frantsiya o'rtasida Duvr shartnomasi tuzildi, uning mazmunidan parlament va ko'pchilik ministrlar ham bexabar edi. Bu shartnomaga ko'ra Angliya hukumati o'z sanoatiga homiylik qilishdan voz kechishi, ingliz-frantsuz savdo munosabatlarida frantsuzlar talablarini so'zsiz bajarishi, Lyudovik XIV ning Yevropadagi bosqinchilik siyosatini qo'llab-quvvatlashi kerak edi. Frantsiya esa o'z navbatida Karl II ga doimiy ravishda nafaqa to'lab borishni va Angliyada g'alayonlar bo'lsa uni bostirish uchun harbiy kuch yuborishni o'z zimmasiga olgan edi. Bu shartnomaga binoan 1672 yilda Angliya o'z ittifoqchisi bo'lgan Gollandiyaga qarshi urush e'lon qildi, bu Lyudovik XIV ning ko'rsatmasi asosida bo'lgan edi.

Karl II Lyudovik XIV ga bergan va'dasini bajarish uchun 1672 yilda "Din erkinligi to'g'risida deklaratsiya"ni e'lon qildi va Shu yo'l bilan katoliklarga siyosiy huquqlar berishga harakat qildi. Shu bilan birga qirol o'zini parlamentdan yuqori qo'yishga intildi, qonunlarni o'z ixtiyori bilan qabul qilish-qabul qilmasligini bildirdi.

Hukumatning bunday reaktsion siyosati 1673 yilda parlamentning keskin norozilik bildirishiga olib keldi. Shu yili katoliklarga qarshi qaratilgan "Qasamyod

to’g’risida akt” qabul qilindi, bu aktga muvofiq davlat lavozimini anglikan cherkoviga mansub bo’lgan kishilargina egallashlari mumkin edi. Karl II ning ukasi gertsog Yorkskiy Yakov katolik bo’lgani uchun o’zining admiral-lord lavozimidan voz kechishga va hatto vaqtincha Chet elga ketishga majbur bo’ldi.

1679 yilda Karl II 18 yil faoliyat ko’rsatgan parlamentni tarqatib yubordi va Yangi parlamentga saylovlar bo’lib o’tdi. Bu saylovlarda qirolga qarshi turgan muxolifat g’alaba qozondi, ular vigilar partiyasini tashkil etdilar, vigilar katolik Yakov Styuartni Angliya taxtiga vorislikdan maxrum qilishni talab qilib chiqdilar. XVII asrning 40-yillarida fuqarolar urushi vaqtida Shotlandiya lik murosasiz presviterianlarni “viggilar” yoki “viggamorlar” (“aravakash”) deb atashardi. Bu laqab ko’pincha burjuaziya bilan Yangi dvoryanlarning manfaatlarini ifodalovchilarga va Yakov Styuartning dushmanlariga berila boshlandi.

Yakov tarafdorlarini esa “tori”lar deb atay boshladilar, bu laqab irlandiyalik partizan-katoliklardan olingan bo’lib, ular XVII asrning 40-yillarida Irlandiyani Angliyaning mustamlakasiga aylantirilishiga qarshi kurash olib borgan edilar. Endi bu laqab konservativ yer egalari va boshqa siyosiy reaktsiya tarafdorlari partiyasiga berila boshladi.

Parlament 1679 yil may oyida muhim qonun – Xabeas korpus aktni qabul qildi . Bu qonunga binoan sudyalar tomonidan berilgan yozma buyruq ko’rsatilmasdan hech kimni qamash mumkin emas edi. Mahbus 24 soat ichida aybini unga aytib berilishini talab qilishga haqli edi, aks holda u ozod qilinishi lozim bo’lar edi.

Xabeas korpus aktning qabul qilinishi ijobiy voqea edi, lekin u asosan burjuaziyaning manfaatlarini himoya qilardi va kambag’allarga hech qanday engillik olib kelmadi, juda ko’plab kambag’allar qarzini to’lay olmaganliklari uchun turmalarga tashlanardi, chunki ularga nisbatan bu qonun qo’llanilmas edi.

Qirol vigilar partiyasi ichidagi o’zaro kelishmovchiliklardan foydalanib, parlamentga qarshi xurujni kuchaytirdi va tez orada vigilar parlamentini tarqatib yubordi. 1680 va 1681 yillarda chaqirilgan parlament taqdiri ham Shunday bo’ldi.

Karl II hukmronligining so’nggi 4 yilida reaktsiya kuchayib ketdi. Parlament chaqirilmadi. Vigilar partiyasi tor-mor etildi, uning bir qator faol rahbarlari qatl etildi, boshqalari Chet ellarga qochib ketishga majbur bo’ldi.

4. ANGLIYADA 1688-YIL TO’NTARISHI.

Karl II vafot etgach 1685 yilda Angliya taxtiga uning ukasi gertsog Yorkskiy Yakov II nomi bilan qirol bo’lib o’tirdi.

Yakov II ham frantsuz qiroli Lyudovik XIV bilan hamkorlikni davom qildirdi, Xabeas korpus aktni bekor qildi, frantsuz tovarlaridan olinadigan bojni kamaytirdi. Bu esa parlament muxolifatini va savdo-sanoat doiralarini juda g’azablantirdi.

Yakov II katolitsizmni tiklashga harakat qildi, katoliklarni “Qasamyod to’g’risidagi akt”ga xilof ravishda muhim davlat lavozimlariga tiklay boshladi. 1687 yilda katoliklarga huquq bergan din erkinligi to’g’risida deklaratsiya chiqardi. Katolik cherkovini tiklash natijasida monastir er egaligi ham tiklanishi kerak edi, bu esa burjuaziya va Yangi dvoryanlarning manfaatlariga to’g’ri kelmas edi. Bularning hammasi so’nggi Styuartning qulashini tezlashtirdi. Torilar bilan vigilar ham umumiy til topdilar, lekin ular xalqqa murojaat qilishdan qo’rqardilar va Yakov II ni o’zlari

uchun qulay bo’lgan boshqa qirol bilan almashtirishga qaror qildilar. Ana Shunday odam Yakov II qizi Mariyaning eri Gollandiya shtatgalteri Vilgelm Oranskiy bo’lib chiqdi.

1688 yil yozida Angliya parlamenti go’yo Angliya qiroli Yakov II taxtdan voz kechganligi uchun bo’sh qolgan taxtga V.Oranskiyni taklif etdi. Oranskiy katta qo’shin bilan Angliyaga kelib tushdi va poytaxtga keldi. Yakov II Chet elga qochdi.

1689 yilda yig’ilib, “konvent” deb atalgan va favqulodda vakolatlar olgan parlament Yakov II ni taxtdan voz kechgan deb e’lon qildi va V.Oranskiyni Vilgelm III nomi bilan qirol deb e’lon qildi (1689-1702).

1688-1689-yillardagi davlat to’ntarishi – bu yuqoridan turib amalga oshirilgan to’ntarish bo’lib, burjuaziya va yirik yer egalarining o’zaro ittifoq tuzishlari natijasi edi. Bu davlat to’ntarishi natijasida Angliya siyosiy hayotida konstitutsion monarxiya o’rnatildi va ijtimoiy-iqtisodiy sohada sanoat to’ntarishi uchun bevosita shart-sharoitlar yaratildi.

1689-yilda Vilgelm III “Huquqlar to’g’risida deklaratsiya” chiqardi va uning asosida “Huquqlar to’g’risida qonun” ishlab chiqarildi. Bu qonun qirol hokimyatini cheklab qo’ydi, qirol biror-bir qonunni amaldan to’xtatish yoki biror moddasini bekor qilish huquqidan maxrum qilindi. Parlamentda muhokamalar erkinligi va parlamentga iltimosnomalar topshirish erkinligi o’rnatildi. Parlamentni muntazam chaqirib turish qat’iy belgilab qo’yildi. Soliq joriy qilish va soliq yig’ish uchun, qirolga doimiy armiyaga ega bo’lish uchun parlament ruxsati kerak bo’lardi. Protestantlar uchun ancha huquqlar berildi. Bu bilan Angliyada absolyutizmni qayta tiklashning oldini olishga harakat qilindi.

Vilgelm III davrida frantsuz savdogarlari va manufakturachilari raqobatiga qarshi keskin choralar ko’rildi, taqiqlovchi boj joriy qilindi. Bu esa XVIII asrda Angliya bilan Frantsiya o’rtasida yuz bergan qator urushlarga sabab bo’ldi.

Chetga g’alla chiqaruvchilarga mukofotlar joriy qilindi. 1689 yilda er solig’i joriy qilinib, xazinaga tushadigan daromadlar ko’paydi. Davlat kreditlarini yaxshilash maqsadida 1694 yilda Angliya banki ta’sis qilindi, bu bankga banknotalar chiqarish, veksellarni hisobga olish va boshqa moliyaviy ishlarni olib borish huquqi berildi. Ingliz banki davlatga 8 % hisobidan 1 mln. 200 ming funt sterling miqdorda katta zayom berdi.

5. ANGLIYANING XVIII ASR 1-YARMIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY TARAQQIYOTI.

Vilgelm va Mariyadan keyin qirollik unvoni Mariyaning singlisi Annaga o’tdi (1702-1714), undan keyin nemislardan bo’lgan Gannovyerlar sulolasining hukmronligi boshlandi. Parlament asosan yirik yer egalaridan iborat bo’lib, ular lordlar palatasidagi barcha o’rinlarni va umumpalatadagi o’rinlarning ko’pchiligini egallagan edilar. Lekin umumpalata yirik burjuaziyaning manfaatlarini ham himoya qilardi. Hukumat va parlament burjuaziyaning manfaatlarini ham hisobga olishga majbur edi.

Ikki partiyali tizim saqlanib qolgan bo’lib, torilar va vigilar bir-birlaridan uncha farq qilmasdilar, ularning ijtimoiy bazasi ham, qishloq xo’jaligidan, savdodan, keyinchalik sanoatdan va mustamlakalarni talashdan eng ko’p foyda olishdan iborat

manfaatlari ham bir-birinikiga o'xshash edi. Faqat ularning siyosiy mavqelari farq qilardi – torilar asosan qirolni qo'llab-quvvatlardilar, vigilar esa parlamentni qo'llab-quvvatlardilar. Ikkala partiya ham parlamentdagi o'rinlarni sotib olish, delegatlarni sotib olish, pora berish hisobiga o'zlari uchun qulay sharoit yaratishga intilardilar. Butun siyosiy hayot korruptsiya bilan o'ralgan edi. Parlamentda ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan partiya vakillaridan Vazirlar mahkamasi tashkil qilinardi. Har ikki partiya galma-gal hukumatni boshqarib turardi.

1721 yilda hokimyatga G.Uolpol boshchiligidagi viglar partiyasi keldi va u 20 yilcha hokimyatda turdi. Bu davrda ingliz sanoati va savdosi ustidan homiylik siyosati olib borildi, er solig'i va Angliyaga keltirilayotgan xom ashyolarga boj solig'i kamaytirildi. Shu bilan birga bu vaqtga kelib ko'payib borayotgan qashshoqlar va daydilarni majburiy mehnatga jalb qilish to'g'risida qonun chiqarildi. Mustamlakalarga nisbatan agressiya kuchaydi, Angliyaning Hindiston, Amerika va Afrikadagi mustamlakalari kengaydi. Angliya Ispan merosi (1701-1713) va Avstriya merosi (1740-1748) uchun urushlarda va 7 yillik urushda (1756-1763) faol ishtirok etib, mustamlakalardagi o'z hukmronligini yanada mustahkamladi va eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi.

6. ANGLIYADA SANOAT TO'NTARISHI VA UNING OQIBATLARI.

Angliyada sanoat to'ntarishini tayyorlagan eng muhim sharoitlardan biri agrar to'ntarish bo'ldi. Angliyada dehqonlarning erga jamoa bo'lib egalik qilish huquqi juda erta emirila boshladi. Jamoa yerlarning va dehqonlarga tegishli chek yerlarning lordlar tomonidan tortib olinishi XV asrning 70-yillaridan keng qo'llanilib, XVI – XVII asrda ayniqsa kuchayib ketdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada dehqonlar sinf sifatida butunlay yo'q bo'lib ketdilar, ularning o'rnini korchalon-fermyerlar va ishchi-batraklar egalladilar. Hukumatning o'zi yerlarga g'ov tutish va dehqonlarni yerlardan ko'chirib yuborish to'g'risida farmonlar chiqarardi. G'ov tutishga qarshi chiqqanlar va g'ovlarni buzib tashlaganlarga nisbatan o'lim jazosi belgilangan edi. Natijada juda ko'plagan mayda dehqonlar, bartraklar va qishloq hunarmandlari xonavayron bo'lib, daydilarga aylanardilar yoki shaharlarga ish izlab ketardilar.

Agrar to'ntarishning oqibatlari:

1. Kapitalistik fermerchilik rivojlandi.
2. Yersiz qolgan dehqonlar ishsizlar armiyasini to'ldirardi, u erdan manufaktura va fabrikalarga doimiy ishchi kadrlar olib turilardi.
3. Ichki bozor kengaydi, ekspropriatsiya qilingan omma endi o'zining oziq-ovqatga, kiyim- kechakga va boshqa narsalarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun bu narsalarni faqat pulga sotib olishi mumkin edi.

XVIII asrning o'rtalarida Angliyada yirik kapitalistik ishlab chiqarishning vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud edi. Bu vaqtda ingliz kapitalistlari qo'lida mustamlakalarni talash va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiqdan juda katta foyda olish natijasida juda katta miqdordagi "bo'sh" sarmoya to'plangan edi. Erdan maxrum bo'lgan dehqonlar, singan kosib, hunarmandlar ishsizlar safini to'ldirmoqda edi. Manufakturalarning rivojlanishi mashinalashgan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun zarur tayyorlov bosqichi bo'lib xizmat qildi. Jamiyatning o'sib borayotgan ehtiyojini, ichki va tashqi bozorlarning talab-ehtiyojini

manufaktura ishlab chiqarishi bilan qondirib bo'lmas edi. Shuning uchun ham XVIII asrning dastlabki o'n yilliklaridayoq mashinalarni ixtiro qilish, texnikani takomillashtirish yo'lida urinishlar bo'lgan edi. XVIII asrning 60-80-yillarida mashinalarni ixtiro qilish va ishlab chiqarishga joriy qilish avj olib ketdi.
Angliyada sanoat to'ntarishi ip-gazlama korxonalarida boshlandi, bu ancha Yangi tarmoq bo'lib, tashqi raqobat uchun ochiq edi.

Ip-gazlama sanoatida Djon Key 1733 yilda uchuvchi moki ixtiro qildi, natijada gazlama to'qish ko'paydi, lekin yigirilgan ip tanqisligi yuzaga keldi. 1765 yilda to'quvchi Jems Xargrivs qo'l bilan harakatga keltiriladigan mexanik ip yigiruvchi charx ixtiro qildi va uni "Jenni" deb atadi. Bu charx hali kishi qo'li bilan harakatga keltirilar, ipi ingichka, lekin jonsiz edi, unda bir yo'la 16-18 dug bilan ishlash mumkin edi.

1769 yilda texnik Richard Arkrayt suv dvigateli bilan harakatga keltiriladigan Yangi stanok loyihasini taqdim etdi (u buni bir ixtirochidan o'g'irlab olgan edi). 1771 yilda bug' bilan ishlaydigan fabrika qurilib, Arkrayt dastlabki ip-yigiruv fabrikantlaridan biri bo'ldi. 1779 yilda bu fabrikada 300 ishchi ishlardi. 1780 yilda Angliyada bunday ip yigiruv fabrikalarining soni 20 ta bo'lgan bo'lsa, 1790-yilda fabrikalarning soni 150 taga etdi.

Keyinchalik ip yigiruv mashinasini Samyuel Krompton (1799 y) takomillashtirdi, u myul-mashina degan mashinani ixtiro qildi.

1785 yilda Edmund Kartrayt mexanik to'quv stanogini ixtiro qildi, u qirqta to'quvchi o'rnini bosa olardi.

Bu mashinalarning hammasi oddiy mashinalar bo'lib, suv kuchidan harakatlanar edi. Bunday fabrikalarni qurish uchun daryo bo'ylaridan, oqar suv manbalaridan foydalanilar edi.

Jems Uatt Angliyada birinchi bo'lib bug' mashinasini ixtiro qildi va 1769 yilda unga patent oldi. 1784 yilda ikki tomonlama bug' beradigan mashinasi uchun patent oladi. 1784 yilda bug' dvigateli bilan ishlaydigan birinchi ip yigiruv fabrikasi qurildi. Bug' dvigatellari metallurgiyada ham qo'llanila boshlandi. Bug' mashinasining ixtiro qilinishi fabrika ishlab chiqarishiga juda katta turtki berdi. Endilikda fabrikalarni daryo bo'ylarida emas, istalgan joyda qurish mumkin bo'lib qoldi. Bug' mashinalari uchun ko'mirdan foydalanish esa ko'mir sanoatining rivojlanishiga olib keldi.

XVIII asrda ingliz sanoatida metallurgiyaning yirik sanoatga aylanishiga yordam bergan boshqa bir qancha ixtirolar qilindi. 1735 yilda Abragam Derbi ma'danga so'ndirilmagan ohakni aralashtirish yo'li bilan cho'yan eritish uchun toshko'mirdan foydalanish usulini ochdi. Benjamin Xontsman (1750 y.) va Genri Kort 1784 yilda mineral yoqilg'ida po'lat eritish usulini ixtiro qildilar, bu usul tezda keng tarqaldi.

Yirik fabrika sanoatining rivojlanishi natijasida Manchester, Birmingem, Liverpul, Shotlandiya da Glazgo va boshqa shaharlar mamlakatning asosiy sanoat markazlariga aylandi. Yo'l qurilishi va transport rivojlandi. Jamiyatda Yangi sinf – sanoat ishchilar sinfi-proletariat yuzaga keldi. Yangi fabrikalarning ishchilari avvalgi o'rta asrlardagi tsex va manufaktura ishchilaridan tubdan farq qilardi. Endilikda ishchi mashina-mexanizmning tirik bir bo'lagiga, qo'shimchasiga aylangan edi. Fabrikalardagi mehnat bir xil va og'ir bo'lib, sutkasiga 14-18 soat davom etardi. Ish

xaqi past bo’lib, bolalar va ayollar mehnatiga yanada kam haq to’lanardi. Hukumat qonunlari juda qattiq bo’lib, ishchilar o’rtasida juda qattiq intizom o’rnatilgan bo’lib, har qanday tartib buzish juda qattiq jazolanardi. Yangi mashinalarning ixtiro qilinishi ishchilarni ishdan bo’shatishga olib kelardi. Bu esa ishchilar o’rtasida norozilik uyg’otib, ular mashina-mexanizmlarni sindirib tashlardilar (Luddchilik harakati-ishchi Ned Ludd nomidan kelib chiqqan). Parlament 1769 yilda mashinalarni sindirganlik uchun o’lim jazosini joriy qildi. XVIII asrning ikkinchi yarmida stachka (ish tashlash) harakati yuzaga keldi. Ishchilar asta-sekin birlashib, ish xaqini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun kurashga birlasha boshladilar.

Sanoat rivojlanishi bilan birga sanoat burjuaziyasining ta’siri ham o’sib va kuchayib bordi. Burjuaziya bir hovuch oqsuyak (aristokart) oilalarning siyosiy hukmronligiga qarshi chiqa boshladilar. Vigilar va torilar partiyasidagi bir guruh radikallar birlashib, siyosiy islohotlar uchun kurash boshladilar.

1873 yildagi iqtisodiy inqirozdan keyin Angliyada sanoat, qishloq xo’jalik, savdo va moliya sohasida uzoq cho’zilgan «buyuk tushkunlik» yuz berdi. Angliya sanoat sohasidagi gegemonligidan mahrum bo’ldi. Faqat 20 yildan keyingina ishlab chiqarish jonlana boshladi. 80-90-yillar davomida Angliyadan dastlab AQSH, keyinchalik Germaniya o’zib ketdi. 1879-1914 yillarda Angliyada sanoatning umumiy ishlab chiqarishi 2 marta ko’paydi, lekin dunyoda bu ko’rsatkich 4 marta o’sgan edi, buni quyidagi ma’lumotlardan ham ko’rsa bo’ladi:

Po’lat ishlab chiqarish (mln. t.).

	1880 y.	1900 y.
Angliya	1,3	4,9
AQSH	1,2	10,2
Germaniya	0,7	6,4

Angliyaning jahon bozoridagi mavqei ham o’zgarmoqda edi. U hali ham tashqi savdoda etakchilik qilsada, boshqa davlatlar u bilan raqobatlasha boshlagan edilar, buni quyidagi jadvaldan ko’rish mumkin:

Jahon tashqi savdosidagi hissasi (% larda):

	1870 y	1900 y	1913 y
Angliya	22	19	15
Germaniya	13	13	13
AQSH	8	12	11

Angliya sanoatning to’qimachilik, kemasozlik, ko’mir qazib olish kabi eski tarmoqlarida ancha vaqtgacha o’z ustunligini saqlab qolgan bo’lsada, bu sohalarda uning jahon miqyosidagi ishlab chiqarishi pasayib bordi. Jumladan jahonda toshko’mir ishlab chiqarishda Angliya hissasiga 1860 yilda maxsulotning 57,6 % i to’g’ri kelgan bo’lsa, 1900 yilda 29,7 % i to’g’ri keldi, dunyoda etkazilgan paxta xom ashyosining Angliyadagi iste’moli 1860 yildagi 51 % dan 1900 yilda 28,2 % ga tushib qoldi.

Angliyaning jahon xo'jaligidagi hissasi 1873 yildan 1900 yilgacha bo'lgan davrda 2 marta qisqardi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 3-o'ringa tushib qoldi.

Angliya jahon savdosida xali ham birinchi o'rinda turgan bo'lishiga qaramay Germaniya uning asosiy raqibiga aylandi. Germaniya tovarlari Angliya mustamlakalariga kirib bormoqda, shuningdek ilgari Angliya savdogarlari hukmronlik qilgan bozorlarni egallab olmoqda edi. X1X asr oxiriga kelib Angliyada Germaniya raqobatining halokatli oqibatlaridan ogohlantiruvchi yuzlab pamfletlar bosilib chiqqan edi.

1885 yilda Angliya parlamenti ingliz sanoati inqirozini o'rganish uchun «katta komissiya» tashkil etdi. Bu komissiya yirik shaharlar vakillari va savdo firmalarining fikrlarini o'rgandi. Ularning hammasi chet el raqobatining halokatli oqibatlari haqida gapirardilar.

1887 yilda burjua doiralarining talabi bilan Germaniyadan Angliyaga keltiriladigan barcha tovarlarga «Germaniyada ishlab chiqarilgan» degan tamg'a yopishtirilishi haqida qonun qabul qilindi. Bu bilan inglizlarning vatanparvarlik tuyg'ularini qo'zg'ab, ularni chet el tovarlarini sotib olmaslikka da'vat etish ko'zda tutilgan edi. Lekin bu yo'l kutilgan samaraga olib kelmadi, chunki nemis tovarlari ancha arzon edi.

Ingliz burjuaziyasi o'z sarmoyalarini chet ellarga chiqarish orqali daromadlarini ko'paytirishga harakat qilardi. CHet ellarga chiqarilgan ingliz sarmoyalarining umumiy summasi 1850 yilda 200 mln.funt sterling bo'lgan bo'lsa, 1875 yilda 1,1 mlrd.f.s.ga etdi, 25 yil davomida chetga sarmoya chiqarish 5 martadan ko'proq o'sdi. 80-yillardan boshlab Angliya mustamlakalarida (Hindiston, Avstraliya, Kanada), shuningdek Janubiy Amerika, AQSH va Yevropaning bir qator mamlakatlarida temir yo'llar qurilishi munosabati bilan chetga sarmoya chiqarish yanada ko'paydi. 1900 yilga kelib AQSHning chet ellardagi investitsiyalari deyarli 2 mlrd. f .s.ga etdi va barcha yirik kapitalistik davlatlar chetga chiqargan sarmoyalarining yarmini tashkil etdi.

CHetga sarmoya chiqarish ingliz tadbirkorlariga juda katta daromad keltirardi. X1X asr oxirida bu daromadlar 90 mln. f.s.ga etdi, Angliyaning tashqi savdodan oladigan daromadi 18 mln.f.s.dan oshmas edi.

CHetga sarmoya chiqarishning o'sishi Angliyaning o'zida sanoatga mablag' qo'yishning qisqarishiga olib keldi. 1875 yildan 1914 yilgacha bo'lgan davrda mamlakat ichida mablag' qo'yish 80 % ga o'sgan bo'lsa, chetga sarmoya chiqarish 250 % ga teng bo'ldi.

Angliya texnika taraqqiyoti jihatidan boshqa mamlakatlardan tobora orqada qola boshladi. Ko'pgina korxonalarning jihozlari eskirib qolgan edi. AQSH va Germaniyada elektr energiyasidan keng foydalanilgan bir davrda Angliyada bug' asosiy energetika kuchi hisoblanardi. Sanoatning elektrotexnika, ximiya kabi Yangi tarmoqlari Angliyada keng rivojlanmadi.

Angliyada sanoat jihatidan orqada qolish bilan birga qishloq xo'jaligida ham orqada qolish kuzatilmoqda edi.

X1X asrning 70-yillarigacha Angliya qishloq xo'jaligi mamlakat oziq-ovqat ehtiyojining 80 % ini qondirar edi. Lekin XX asr boshiga kelib Angliya oziq-ovqat

mahsulotlarining deyarli 65 % ini mustamlakalardan va boshqa mamlakatlardan keltirar edi. Bunday ahvol Angliya mustamlakachilik monopoliyasi bilan bog'liq edi. Ingliz burjuaziyasi mamlakat qishloq xo'jaligiga katta zarar etkazishiga qaramasdan mustamlakalardan arzon oziq-ovqat va xom ashyo maxsulotlarini olib kelishni afzal ko'rardi.

Lekin qishloq xo'jaligini orqada qolishining asosiy sababi Angliya qishlog'ida lendlordizm tizimining hukmronligi edi.

1873 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha 4 mingga yaqin eng yirik yer egalari mamlakat er fondining yarmidan ko'prog'ini egallagan edilar. Qolgan yerlarning uncha katta bo'lmagan qismi 217 ming mayda fermyerlarga tegishli edi. Lordlar yerlarini kapitalist-fermyerlarga ijaraga berardilar, bu fermalarda qishloq xo'jalik ishchilari ishlardi. Fermyerlar juda katta ijara haqi to'lashga majbur bo'lganlari uchun Angliyaning o'zida etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari chetdan keltiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlaridan qimmat bo'lardi. Angliya g'allasi o'zining tannarxi bo'yicha ancha arzon bo'lgan Shimoliy Amerika, Kanada, Amerika g'allasi bilan raqobatlasha olmasdi. 70-yillarda Angliyaga chet el g'allasi ko'plab keltirila boshlandi. Ingliz g'allasining narxi 50 % ga tushib ketdi. CHet el mahsulotining raqobati Angliyada qishloq xo'jaligi sohasi daromadini pasaytirib yubordi, qishloq xo'jaligiga mablag' solishni qisqartirdi va qishloq aholisining kamayishiga olib keldi.

40 yil (1851-1891) davomida qishloq aholisi 33 % ga qisqardi. 1891 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha Angliyada shahar aholisi 77 % ni, qishloq aholisi 23 % ni tashkil etardi.

Dunyoning hech bir mamlakatida sanoatning qishloq xo'jaligidan ustunligi Angliyadagidek emas edi. SHuning uchun ham ingliz iqtisodiyoti chetdan keltiriladigan katta miqdordagi xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlariga muhtoj edi. Bu esa dengiz kemachiligining rivojlanishiga yordam berdi. Angliya kemachilikda o'zining etakchilik rolini saqlab qoldi. 1890 yilda Angliyaga dunyo savdo floti tonnajining 48 % i to'g'ri kelardi.

Angliya shuningdek jahon savdosi kreditori va mustamlakalar bo'yicha dunyodagi etakchilik rolini ham saqlab qolgan edi.

X1X asrning so'nggi choragida Angliya Osiyoning ilgari taqsimlab olinmagan ancha qismini bosib oldi. U Afrikani taqsimlab olishda ham ishtirok etdi. Agar 1860 yilda Angliyaning mustamlaka mulklari hududi 6,5 mln kv.km.ga, aholisi 145,1 mln kishiga teng bo'lgan bo'lsa, XX asr boshiga kelib bu ko'rsatkichlar 30 mln.kv.km.ga va 390 mln. kishiga etdi.

Ingliz burjuaziyasi oq tanli aholi yashaydigan mustamlakalarga (Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya) ijtimoiy rivojlanishi uchun bir qancha imkoniyatlar bergan bo'lsa ham ular arzon xom ashyo bazasi va sarmoya qo'yish sohasi bo'lib qolaverdilar. SHu bilan birga ingliz burjuaziyasi mustamlakalarning katta qismini shafqatsiz asoratga solish va talash hisobiga katta boylik orttirmoqda edilar. Ayniqsa 300 mln aholiga ega bo'lgan Hindistonni talash bunga yaqqol misol bo'ladi. Angliyadagi sudxo'rlar qatlami 1 million kishini tashkil etardi.

2. Angliya davlat tuzumining o’ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, burjuaziya o’rta asrlardan beri saqlanib kelayotgan tashkilot va institutlarni (monarxiya, lordlar palatasi) o’z manfaatlariga moslashtira oldi. Lordlar palatasi odatda har qanday progressiv qonun loyihasiga to’sqinlik qilardi.

Parlamentdagi o’rinlarning ko’pchiligi va hukumatdagi asosiy mansablar burjuaziyaga tegishli edi. Lekin mamlakat siyosiy hayotida er egaligi zodagonlari (aristokratiyasi) ham hal qiluvchi rol o’ynardi. Zamindor oqsuyaklardan mustamlakalar ma’muriyati rahbarlari, cherkovning oliy lavozimli rahbarlari, armiya va flotning yuqori lavozimli zobitlari etishib chiqardi. Yirik yer egalari o’z sarmoyalarini sanoat va savdo korxonalariga qo’yish orqali burjuaziya bilan iqtisodiy jihatdan birlashib ketgan edilar.

X1X asrning 70-yillarida Angliyada boshqa kapitalistik mamlakatlarga nisbatan ancha demokratik tartiblar o’rnatilgan edi. X1X asrning 2-yarmida ingliz liberal burjuaziyasi ishchilar sinfining taziyqi ostida saylov sohasida bir qator islohotlarni amalga oshirdi, natijada saylovchilar soni 4 marta ko’paydi. Mayda burjuaziya va ishchi aristokratiyasi ham saylov huquqiga ega bo’ldi. YAshirin ovoz berish joriy qilindi. Angliyada majburiy harbiy xizmat joriy qilinmaganligi sababli harbiylarning ta’siri uncha katta emas edi.

Angliya siyosiy hayotida 2 ta yirik partiya – liberallar va konservatorlar navbatma-navbat hokimyatni boshqarar edi.

Burjuaziya va lendlordlar 2 partiyali tizim yordamida hukmronlik qilishni davom ettirib, hokimyatni o’z qo’llaridan chiqarmas edilar. Ishchilar sinfi hali o’zining mustaqil partiyasiga ega emas edi.

Konservatorlar bilan liberallar o’rtasidagi kurash hech qachon Angliya burjua tuzumining asoslariga daxl qilmas edi. Bu kurash asosan ikkinchi darajali masalalar ustida olib borilardi.

Angliya iqtisodiy ahvolidagi o’zgarishlar mamlakatdagi siyosiy kuchlar joylashuvida ham o’zgarishlar bo’lishiga olib keldi. Burjuaziya og’ir sanoat magnatlari, zamindor zodagonlar va bank sarmoyadorlarining manfaatlarining ifodachisi bo’lgan konservativ partiyaga tobora ko’proq hayrihoh bo’la boshladi.

Savdo-sanoat burjuaziyasining keng qatlamlariga tayanuvchi liberallar ikkinchi o’ringa tushib, ichki inqirozni boshdan kechirmoqda edilar.

Konservatorlar kuchli agressiv tashqi siyosat o’tkazishni va «imperiyani mustahkamlashni» talab qilardilar. Ular fritrederchilikdan voz kechish va protektsionizmga o’tishni talab qilardilar. Dizraeli va konservatorlarning boshqa rahbarlari imperiya doirasida bojxona ittifoqini tuzish g’oyasi bilan chiqdilar. Konservativ partiya saflarida «Yangi torizm» tarafdorlarining ta’siri kuchaydi, ular ba’zi islohotlar o’tkazish va tred-yunionlarga ba’zi yon berishlar orqali xalq ommasini bu partiya tarafiga tortish mumkin deb hisoblardilar.

Konservativ partiya 80-yillargacha o’z ta’siri bo’yicha liberallardan orqada qolib keldi. Ular 70-yillar oxirida partiya saflarini qayta qurib, 1883 yilda Konservativ assotsiatsiyalarning Milliy ittifoqini tuzdilar.

Konservatorlar etakchisi Benjamin Dizraeli (1804-1881) yahudiy oilasidin chiqqan edi. U o’z faoliyatini yozuvchi sifatida boshlab, asarlarida o’z davrining o’tkir siyosiy va ijtimoiy muammolarini ko’tarib chiqib, ularni cheklanmagan

monarxiya va cherkovning hukmronligi davriga qaytib hal qilish mumkinligi to'g'risidagi reaktsion va utopik g'oyalarni olg'a surardi. U 1837 yilda parlamentga saylangach, taxt va cherkov atrofida birlashish g'oyasi ostida konservatorlarga rahbarlik qildi. Partiyaning ta'siri o'sib borishi bilan Dizraelining ham ta'siri, obro'si o'sib bordi. U 1876 yilda Bikonsfild lordi unvonini oldi, o'limidan keyin esa konservativ partiyaning haqiqiy dohiysiga aylandi.

Liberallar konservatorlardan farq qilgan holda fritrederchilikni himoya qilishni davom ettirdilar. Lekin Germaniya va AQSH tarafidan yuzaga kelgan raqobat ta'sirida ularning bir qismi fritrederchilikdan voz kecha boshladilar. Liberallar o'zlarini boshqa xalqlar suverenitetining himoyachilari deb e'lon qildilar, lekin amalda ularning tashqi siyosati konservatorlarniki kabi agressiv siyosat edi.

Liberal partiyaning etakchisi Liverpullik yirik savdogarning o'g'li Vilyam Gladston (1809-1898) edi. Gladstonning siyosiy jihatdan shakllanishi yirik burjuaziyaning siyosiy qarashlarining shakllanishi kabi bo'ldi. U yoshligida ashaddiy tori (konservator) bo'lib, islohotlar va negrlarni ozod qilishning ashaddiy dushmani edi. U liberal pozitsiyaga o'tgach, erkin savdo, «yuqoridan» o'tkaziladigan mo'ta'dil islohotlar va davlatning iqtisodiyotga aralashmaslik g'oyalarini targ'ib qilishga o'tdi. Gladston juda katta notiqlik mahoratiga ega edi.

Angliya burjuaziyasi mustamlakalar bosib olishni davom ettirishga , shu yo'l bilan o'z qiyinchiliklarini bartaraf etishga va boshqa mamlakatlar bilan bo'layotgan raqobat kurashida g'alaba qozonishga intilardi. 1883 yilda «Imperiya ligasi» tashkil etilgan bo'lib, uning vazifasi Britaniya imperiyasini yanada kengaytirishdan iborat edi.

Liberallar X1X asrning 2-yarmida ancha katta ta'sir kuchiga ega bo'ldilar va 10 yildan ko'proq xokimyat tepasida turdilar (1868-1874 va 1880-1886). Saylovchilarni o'z tomonlariga tortish maqsadida Gladston 1872 yilda parlamentga saylovlarda yashirin ovoz berishni joriy qildi, 1884 yilda esa Yangi parlament islohoti o'tkazildi, natijada mulk tsenzi bekor qilinib, saylovchilar soni 2 marta oshdi. 1885 yilda bu islohot davom qildirilib, butun mamlakat bir xildagi saylov okruglariga ajratildi (har birida 50 mingga yaqin saylovchi). Yirik shaharlar aholisi sonidan kelib chiqib bir necha deputat yuborish huquqiga ega bo'ldilar (London 52 deputat).

Liberallar boshqa sohalarda ham ba'zi mo''tadil islohotlarni amalga oshirdilar. Zobitlar patentini sotish bekor qilindi. Davlat xizmatchilari malakasini oshirish uchun ishga kirishda imtihon joriy qilindi, oliy o'quv muassasalarining tizimi soddalashtirildi, maktablar mablag' bilan ta'minlana boshlandi. Ishchilar talabiga yon berib, 1871 yilda tred-yunionlar qonunlashtirildi.

Konservatorlar ham ishchilar sinfining ovoziga ega bo'lish uchun bir qator islohotlarni amalga oshirdilar. Xo'jayinlar va xizmatkorlar to'g'risidagi eski qonun bekor qilindi, 10 yoshga to'lmagan bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlash to'g'risida qonun qabul qilindi. 1891 yilda bepul boshlang'ich ta'lim to'g'risida qonun qabul qilindi.

3. 1649 yilda O. Kromvel Irlandiyaga hujum boshladi, urush Angliyaning g'alabasi bilan yakunlandi. Urushda Irlandiya aholisining 1/3 qismi halok bo'ldi.

Minglagan irlandlar Angliyaning Amerikadagi mustamlakalariga qul sifatida sotib yuborildi. Aholining ko'pchiligi mamlakatning shimoli-g'arbidagi hosilsiz yerlarga ko'chirilib yuborildi, ularning yerlari ingliz lendlordlari, zobitlar, amaldorlar qo'liga o'tdi.

Irlandiyada Yakov II ni himoya qilishga qaratilgan isyonlar bostirilgach (1691), Irlandiya ingliz hukumati tomonidan tayinlanadigan vitse-qirol va davlat sekretari tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Ingliz lendlordlari irlandlarni shafqatsiz asoratga sola boshladilar.

Angliyaning X1X asr so'nggi choragidagi siyosiy hayotida Irlandiya masalasi katta rol o'ynardi. Irlandiya og'ir qashshoqlik va muhtojlik holatida edi. 1875-1879-yillardagi hosilsizlik va u bilan bog'liq ocharchilik davrida Irlandiya aholisining ahvoli ayniqsa og'irlashib ketdi. Yerlarning katta qismi pomeshchiklar qo'lida edi. Irlandiyadagi yerlarning yarmi 742 nafar lendlordga tegishli edi. Qo'pgina pomeshchiklar o'n minglagan akr erga ega edilar (markiz Lensdaun 135 ming akr erga, gertsog Devonshirskiy 60 ming akr erga, lord Klanrichard 52 ming akr erga va b.). 80 yillarda fermyerlar ijara uchun hosilning deyarli yarmini to'lar edilar. Doimiy hosilsizlik va ocharchiliklar natijasida fermyerlarning qarzlari ko'payib ketar va ular bu qarzlarni to'lashga qodir emasdilar. Lendlordlar mayda irland fermyerlarini ommaviy ravishda yerlardan quvib yuborardilar. 1871 yildan 1882 yilgacha 85 mingdan ko'proq ijarachilar yerlaridan quvib yuborildi. Yerlaridan mahrum bo'lgan dehqonlar chet ellarga muhojirlikga ketishga majbur bo'lardilar. Ocharchilik va muhojirlik natijasida Irandiya aholisi 1851 yildagi 6,5 mln.dan 1901 yilda 4,4 mln.ga tushib qoldi.

Angliya zulmi Irlandiyada keng milliy harakatni yuzaga keltirdi. Bu harakatning asosini dehqonlar tashkil qilardi. Ijarachi dehqonlar kurashning turli uslublarini qo'llardilar. Irlandiyada «Oy yorug'i odamlari», «Oq bolalar» va boshqa nomdagi yashirin dehqon tashkilotlari harakat qilardi. Ular pomeshchiklarning uylariga o't qo'yishar, mollarini mayib qilishar, ekinlarini payxon qilishar, ba'zan pomeshchiklarni o'ldirar edilar. 70 yillarning oxiri – 80 yillarning boshlarida irland ijarachilarining harakati keng yoyildi, bu harakatga 1879 yilda tashkil qilingan «Yer ligasi» rahbarlik qilardi. Liga ijarachilar o'rtasida katta obro'ga ega bo'lib, 1880 yilda mamlakatda uning 200 ga yaqin bo'limi bor edi.

«Yer ligasi» lendlordlar yerlarini imtiyozli asoslarda fermyerlarga berilishiga erishdi. Liga lordlarga nisbatan jamoa bo'lib ijara hakini to'lamaslikga erishdi. Liga boykot taktikasini qo'llay boshladi. Boykot taktikasining mohiyati shundan iborat ediki, ijarachilar Liga rahbarligida lendlordlar dalasida ishlashdan, ularning fermalariga xizmat ko'rsatishdan, ular va ularning ish boshqaruvchilari bilan har qanday ish olib borishdan bosh tortdilar. Ijarachi haydab yuborilgan fermadan hech kim er olmasligi kerak edi. Boykot taktikasi Irlandiyaning turli hududlarida keng qo'llanildi.

Irlandiya burjuaziyasi ham ingliz zulmiga qarshi bo'lib, **gomrul** berilishini, ya'ni Britaniya imperiyasi tarkibida Irlandiyaga o'z-o'zini boshqarish hukuqi berilishini talab qilib chiqdi. 1873 yilda «Gomrul ligasi» tashkil qilinib, ingliz parlamentida alohida irland fraktsiyasi tashkil topdi. 1877 yildan Irlandiyada katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan irland burjua millatchisi CHarlz Parnell Ligaga rahbarlik

qila boshladi. Parnell keng demokratik harakatning dushmani edi, lekin u keng xalq ommasining ishtirokisiz o'z-o'zini boshqarishga erishib bo'lmasligini bilar edi.

Angliya hukmron doiralari Irlandiyaga gomrul berishdan bosh tortdilar. SHunda Parnell mamlakatda keng yoyilgan dehqonlar harakatidan foydalanishga qaror qildi. U boykot kampaniyasini quvvatlab, ijarachilarni birlashishga chaqirdi.

Irlandiyadagi aholining turli qatlamlarini qamrab olgan ommaviy xalq harakati Angliya hukmron doiralarini tashvishga soldi. Parlament Irlandiyada favqulodda holat to'g'risida akt qabul qildi. «Yer ligasi»ning yuzlab arboblari qamoqqa olindi. SHu bilan birga hukumat irland dexqonlariga birmuncha yon berishlarni amalga oshirdi. 1881 yildagi er akti bo'yicha ijara haqini o'z vaqtida to'lab turgan ijarachilarni erdan quvishni taqiqlab qo'ydi.

Yer to'g'risidagi yangi qonun ijarachilarni qanoatlantirmas edi. «Yer ligasi» hukumatga ishonmaslikga da'vat etdi.

Bunga javoban hukumat Liga yig'ilishini taqiqlab uning ko'pgina faollarini qamoqqa oldi. 1881 yil oktabrda Parnell ham qamoqqa olindi. SHundan keyin Liga manifest chiqarib, ijara haqini to'lamaslikga chaqirdi. Hukumat o'z navbatida Irlandiyaga qo'shimcha kuch yubordi va fermyerlarni ko'chirib yuborishga ruxsat berdi. Liga faoliyati amalda to'xtab qoldi. Hukumat irland burjuaziyasi bilan, eng avval turmada o'tirgan Parnell bilan kelishishga harakat qildi.

Gomrul tarafdori bo'lgan Parnell ingliz mustamlakachiliri bilan xiyonatkorona bitim tuzdi va amalda irland ijarachilariga qarshi hukumat qatag'onlarini ma'qulladi. Ingliz hukumati Parnellni turmadan ozod etdi.

«Yer ligasi»ning o'ng elementlari Parnellning hukumat bilan tuzgan bitimini ma'qulladilir. Liganing so'l qismi esa Parnellning bu ishini Ligaga xiyonat deb baholadi. So'l qismning bir qancha a'zolari 1881 yilda tashkil topgan «G'oliblar» deb nomlangan tashkilotga a'zo bo'ldilar. Bu tashkilot barcha yirik ingliz amaldorlarini yo'q qilish uchun tuzilgan terroristik tashkilot edi.

Irlandiyadagi vaziyat keskinligicha qolmoqda edi.

1882 yil may oyida «G'oliblar» tashkiloti a'zolari tomonidan Irlandiyaning Yangi vitse-qiroli lord Kavendish va uning o'rinbosari Berk o'ldirildi. Angliya hukumati bu voqeadan irland xalqiga qarshi Yangi qatag'onlarni amalga oshirish uchun foydalandi.

XX asr boshlariga kelib Irlandiya masalasi yana keskinlashdi. Bu erda milliy-ozodlik harakati yana kuchaydi, unda irland ishchilari va mayda tadbirkorlar faol ishtirok etdilar. Mamlakatda «SHin feyn» («Biz o'zimiz») nomli Yangi burjua-millatchilik tashkiloti tashkil topdi. SHinfeynyerlar Irlandiyani mustaqil respublikaga aylantirish talabi bilan chiqdilar. SHinfeynyerlar aholini ingliz tovarlarini boykot qilishga, soliqlarni to'lamaslikga va o'z parlamentini tuzishga chaqirdilar.

Hukumat 1912 yilda parlament muhokamasiga gomrul to'g'risidagi billni (qonun) kiritdi va bu bilan Irlandiyani mustaqil respublika bo'lib chiqishini oldini olishga harakat qildi. Bill Irlandiyaga cheklangan muxtoriyat berilishini ko'zda tutardi, eng muhim davlat funktsiyalari ingliz hukumati qo'lida qolardi. Lekin shunga qaramasdan konservatorlar bu billga qarshi chiqdilar, ular gomrulning qabul qilinishi Britaniya imperiyasi yaxlitligini xavf ostida qoldiradi deb hisoblardilar.

Gomrul to’g’risidagi bill 2 marta jamoalar palatasida qabul qilindi, lekin lordlar palatasi uni 2 marta rad etdi. Jamoalar palatasi billni uchinchi marta qabul qildi va parlament tartibi bo’yicha u 1914 yilda qonun kuchiga ega bo’lishi kerak edi. Lekin konservatorlar kurashning parlamentdan tashqari usullaridan foydalandilar. Ular bunda Shimoliy Irlandiyada, Olsterda yashovchi ingliz-shotland bosqinchilarining avlodlari bo’lgan protestantlardan foydalandilar. Ular iqtisodiy jihatdan ancha boy va ijtimoiy mavqelari ancha baland bo’lib, gomrulning aщaddiy dushmanlari edilar. Olsterliklar gomrul qabul qilingan taqdirda hokimyat tepasiga keladigan katoliklarga bo’ysunmasliklarini e’lon qildilar

Olster yunionchilari (Irlandiyaning Angliya bilan ittifoqi tarafdorlari) ko’ngillilardan yuz ming kishilik armiya tuzdilar. Irland millatchilari ham qurollandilar. Olster va Janubiy Irlandiya chegarasida qurolli to’qnashuvlar boshlanib ketdi. Angliya hukumati Irlandiyaga qo’shin yuborishga qaror qildi, lekin ingliz zobitlari buyruqni bajarishdan bosh tortdilar va iste’foga chiqish bilan tahdid soldilar. Natijada Angliyada va Irlandiyada chuqur siyosiy inqiroz yuzaga keldi. Lekin uni to’la holda namoyon bo’lishiga 1914 yilda boshlanib ketgan birinchi jahon urushi halaqit berdi.

4.Angliyaning X1X asr oxiri – XX asr boshlaridagi tashqi siyosati.

Angliyadagi hukmron liberal va konservatorlar partiyalarining tashqi va mustamlakachilik siyosatlari bir-birlaridan uncha farq qilmas edi.

Dizraeli har qanday islohotlarning dushmani edi. U tashqi siyosatdagi yutuqlar yordamida xalq ommasining diqqatini ijtimoiy muammolardan chalg’itishga harakat qilardi. U 1876 yilda parlament orqali qirolicha Viktoriyani «Hindiston imperatritsasi» deb e’lon qildi. Dizraeli hamma joyda Angliyaning savdo manfaatlarini rag’batlantirib, boshqa mamlakatlardagi eng reaktsion kuchlarni ham qo’llab-quvvatlashdan qaytmas edi. Masalan Turkiyani Bolqondagi slavyan xalqlarining milliy-ozodlik harakatini bostirishida shunday bo’ldi. 1877-1878 yillardagi rus-turk urushida ingliz hukumati Turkiya tarafida turdi va o’z flotini Qora dengizga kiritdi. Berlin kongressida Dizraeli Turkiyadan Kipr orolini oldi.

1878 yilda inglizlar Afg’onistonga hujum boshladilar. Afg’on feodallarining hukmron doiralari 1879 yil may oyida Angliya bilan bitim tuzdi. Afg’oniston ustidan amalda Angliya protektorati o’rnatildi. Bundan norozi bo’lgan xalq ommasi va afg’on askarlari 1879 yil sentabrida Qobulda qo’zg’olon ko’tardilar va ingliz garnizonini qirib tashladilar. Inglizlar keyinchalik qo’shimcha harbiy kuch olib kelib, Qobulni qayta egallagan bo’lsalar ham, keyinchalik bu erdan chiqib ketishga majbur bo’ldilar. Lekin inglizlar Afg’onistonning Hindiston bilan chegaradosh hududlarini bosib oldilar. Afg’oniston tashqi siyosati ustidan Angliya nazorati o’rnatildi.

X1X asrning 60 yillarida Janubiy Afrikaning Transvaal va Oranj respublikalari hududida oltin va olmosga boy konlarning topilishi inglizlarni bu yerlarga bo’lgan qiziqishini kuchaytirdi. Bu yerlarni qo’lga kiritish uchun Angliya hukumati burlar (Gollandiyadan ko’chib kelgan aholining avlodlari. Golland tilida «bur» dehqon degani) yashaydigan bu ikki respublikani anneksiya qildi. Natijada burlar bilan inglizlar o’rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. Ingliz qo’shinlari bir

necha marta mag'lubiyatga uchradi va 1881 yilda sulh tuzishga majbur bo'ldilar. SHu bilan birga Transvaalning tashqi siyosati ustidan Angliya nazorati o'rnatildi.

Angliya hukumati boshlig'i Dizraeli 1875 yilda parlament bilan kelishmay turib "asr savdosi" nomini olgan tadbirni amalga oshirdi, ya'ni Suvaysh kanali kompaniyasining aktsiyalarining yirik paketini sotib oldi. Angliya bu bilan Yevropadan SHarqqa boruvchi iqtisodiy va strategik jihatdan muhim yo'lni qo'lga kiritish bilan birga Misrning ichki ishlariga aralashish huquqiga ham ega bo'ldi.

80 yillar boshida Misrda Angliya zo'ravonligiga qarshi umumxalq harakati kuchaydi. Bu harakat aholining turli qatlamlarini qamrab oldi. Unga o'z Vatanining manfaatlarini qadrlovchi Misr armiyasining bir guruh zobitlari ham qo'shildi.

1882 yilda Misrda polkovnik Ahmad Arabiy (Orabi-bey) al-Husayn boshchiligida askarlar va zobitlarning qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olonchilar chet elliklarni haydab yuborish va burjua islohotlarini o'tkazishni talab qildilar.

Angliya Misr xalqining milliy-ozodlik harakatini bostirish va Misrni to'la bosib olishga qaror qildi.

1882 yil 11 iyulda Angliya eskadrasi admiral Seymur boshchiligida Aleksandriyaga hujum boshladi va shaharni bombardimon qildi. Ertasiga ingliz dengiz desanti shaharni egalladi va uni Misrning boshqa hududlaridan ajratib qo'ydi. Inglizlar avgustda Yangi kuch olib kelib, mamlakat ichkarisiga kirib bordilar. Milliy-ozodlik kuchlari tor-mor etildi. Ingliz qo'shini bu harakatning faol a'zolarini qattiq jazoladi, ularning ko'pchiligi qatl qilindi. Ahmad Arabiy o'limga hukm qilindi, keyinchalik o'lim jazosi umrbod katorga bilan almashtirildi va umrbod TSeylon oroliga surgun qilindi.

Angliya Misrni to'la bosib oldi va Suvaysh kanali ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi.

Inglizlar 70 yillardan boshlab Sudanga ham kirib kela boshladilar. Ingliz amaldorlari Misr xadivining vakili sifatida Sudanning barcha provintsiyalarida gubernator lavozimini egallagan edilar. Misr xadivi 1877 yilda general Gordonni butun Sudanning general-gubernatori qilib tayinlagan edi.

Inglizlar zulmi Sudan aholisi barcha qatlamlarining g'azabini qo'zg'atdi. Mamlakatda milliy-ozodlik harakati boshlanib, 1881 yilda qo'zg'olonga aylanib ketdi. Sudanliklar etakchisi Muhammad Ahmad xalqni «Muqaddas urush»ga – g'azotga chaqirdi. Muhammad Ahmad o'zini Mahdiy deb e'lon qildi. U boshchiligidagi qo'zg'olon 1881-1885 yillarni o'z ichiga oladi. CHorvadorlar, dehqonlar, hunarmandlar, o'troq va ko'chmanchi xalq Mahdiy ortidan ergashdi. Ularning hammasiga tenglik va'da qilingan edi.

General Xiks boshchiligida qo'zg'olonni bostirish uchun yuborilgan ingliz qo'shini 1883 yil noyabrda qo'zg'olonchilar tomonidan qirib tashlandi.

1884 yilda qo'zg'olonchilar general Gordon boshchiligidagi ingliz askarlari joylashgan Xartum shahrini qamal qilishga kirishdilar. 11 oylik qamaldan keyin shaxar qo'lga kiritildi va Gordon boshliq butun garnizon qirib tashlandi.

Keyinchalik qo'zg'olonchilar ichidagi nizolar milliy-ozodlik harakatining zaiflashishiga olib keldi. Bundan foydalangan inglizlar 1899 yilda Sudan Angliya va Misr qo'sh dominioni (kondominium) deb e'lon qilindi. Inglizlar 1904 yilga kelib Ekvatorial Sudangacha o'z hokimyatlarini o'rnatdilar.

1885 yilda Birma davlati o’z mustaqilligini yo’qotdi va Britaniya Hindistonining bir provintsiyasiga aylantirildi. Shundan keyin Malakka yarim oroli to’la bosib olindi.

Angliya Afrikadagi bosqinchiligini davom ettirib, 1889 yilda Janubiy Afrikada katta hududlarni qo’lga kiritdi va uni Angliya mustamlakachiligi siyosatining yirik arbobi Sesil Rodsning xususiy kompaniyasiga berdi. Bu mamlakat Rods nomi bilan Rodeziya deb atala boshlandi.

Inglizlar 1888-1897 yillar davomida Afrikaning janubida joylashgan Zambezi va Limpopo daryolari o’rtasida yashovchi matabele va mashona qabilalariga qarshi urush olib borib, bu yerlarni bosib oldilar va u erda Janubiy Rodeziya davlatiga asos soldilar.

Inglizlar Afrika qit’asida Ugandani (1893), Keniya (1895), Nigeriya (1900), Serra-Leone (1896) va Oltin Qirg’oqni (1900) bosib oldi.

XX asr boshiga kelib Angliyaning mustamlaka va yarim mustamlaka mulklarining maydoni uning o’z maydonidan yuz martadan ko’proq katta edi.

Angliya 1899 yil oktabrda burlar respublikalariga (Transvaal va Oranj respublikalari) qarshi urush boshlab yubordi bu urush ingliz-bur urushi nomini oldi. Urushning dastlabki davrida burlar bir necha marta g’alabaga erishdilar, lekin inglizlar o’z qo’shinlari sonini 450 mingga etkazib, 1902 yilda urushni g’alaba bilan yakunladilar. Bur respublikalari o’z mustaqilligini yo’qotdi. Ingliz-bur urushida Angliya tomonidan 6 ming askar o’ldi, 23 mingi yarador bo’ldi, 16 mingi mayib-majruhlikdan vafot etdi, urushdan ko’rilgan zarar 222 mln. funtga teng bo’ldi. Angliya kontsentratsion lagyerlarida 20 mingdan ortiq burlar – bolalar, ayollar, qariyalar halok bo’ldi.

Angliya mustamlakalarida milliy-ozodlik xarakatining kuchayib borishi ingliz hukumatini mustamlakalarga yon berishga majbur qildi. 1885 yilda Xindiston burjuaziyasiga o’z siyosiy tashkiloti – Hindiston Milliy Kongressini (HMK) tuzishga ruxsat berildi. Asosan ingliz aholisi yashaydigan «oq» mustamlakalarga dominion, ya’ni o’z-o’zini boshqarish huquqi berildi. Dastlab bunday maqomga Kanada (1867), Yangi Zelandiya (1907), Janubiy Afrika (1910) ega bo’ldi.

XX asr boshiga kelib Angliyaning xalqaro ahvoli ancha yomonlashdi. Bu davrga kelib etakchi davlatlar o’rtasida mustamlakalar bosib olish, xom ashyo manbalariga va tovar sotish bozorlariga ega bo’lish uchun raqobat kuchaydi. X1X asr oxiridan kuchayib borayotgan Germaniya imperializmi dunyoni qaytadan taqsimlab olish da’vosi bilan chiqa boshladiki, bundan eng avvalo eng yirik mustamlakachi davlat bo’lgan Angliya zarar ko’rishi mumkin edi. SHu asosda Angliya-Germaniya munosabatlari keskinlashdi. Germaniya urushga tayyorlanib o’zining dengiz floti qurilishini kuchaytirdi. Bundan tashvishlangan Angliya 1905 yilda har birining suv sig’imi 18 ming tonnaga teng bo’lgan o’ta qudratli harbiy kemalarni – drednoutlarni qura boshladi (bunday turdagi birinchi kema “Dreadnought” – “Neustrashimыy” deb atalgan). Bunga javoban Germaniya ham shu turdagi kemalarni qura boshladi. Bu ikki davlatning dengizda qurollanishni qisqartirish uchun qilgan harakatlari natijasiz tugadi.

Angliyaning mustamlakal r bosib olish uchun olib borgan siyosati uni dunyoda yakkalanib qolishiga va ko’pgina davlatlar bilan munosabatlarining sovub

ketishiga olib keldi. XX asr boshiga kelib dunyoda urush xavfining yaqqol namoyon bo'lishi Angliyani o'ziga ittifoqchi izlashga majbur qildi. Natijada Angliya hukumati Frantsiya va Rossiya bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan harakatlarni kuchaytirib yubordi. Bu esa 1904 yil aprelda Angliya bilan Frantsiya o'rtasida bitim tuzilishiga olib keldi, bu bitim «Yurakdan kelishuv» ya'ni Antanta deb ataldi.

1907 yil avgustda Angliya bilan Rossiya o'rtasida O'rta Sharqdagi munosabatlarni tartibga solish to'g'risidagi bitim imzolandi, bu bilan 3 davlatdan iborat -Angliya, Frantsiya va Rossiyadan iborat Antanta harbiy-siyosiy bloki tashkil topdi.

Angliyaning hukmron doiralari kelib chiqishi muqarrar bo'lgan urushga ancha oldindan tayyorlana boshladilar. angliyaning harbiy xarajatlari urushdan oldingi 10 yil davomida 3 baravar o'sdi. 1903 yilda tashkil qilingan Imperiya mudofaa qo'mitasi butun imperiya miqyosida strategik reja ishlab chiqdi.angliya harbiy okruglarga ajratildi, qit'ada urush bo'lib qolgan taqdirda jang olib borish uchun armiya tashkil qilindi. Hukumat dengizdagi urushga alohida tayyorgarlik ko'rib, flotni kuchaytirdi, Yangi bazalar tashkil qildi.

Ingliz xalqi katta qismining, ayniqsa ishchilar sinfining urushga qarshi qaratilgan kayfiyati hukmron doiralarning urushga tayyorgarlik ko'rishni juda maxfiy saqlashga majbur qildi. irlandiyadagi murakkab vaziyat ham shunga majbur qilardi. Angliyaning 1904 va 1907 yillarda tuzgan bitimlari, shuningdek uning o'z zimmmasiga olgan majburiyatlari to urush boshlanguncha nafaqat keng doiralarga, hatto ba'zi ministrlarga ham ma'lum emas edi.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Yangi davr boshida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti qanday edi?
2. "G'ov tutish" jarayonining oqibatlari haqida so'zlab bering.
3. Qirol hokimyati (absolyutizm) bilan parlament o'rtasidagi ziddiyatlarning sabablari nimalarda edi?
4. "Ulug' remonstratsiya" nima?
5. Angliyada fuqarolar urushi qaysi yillarda bo'lib o'tdi va u necha qismdan iborat edi?
6. Fuqarolar urushining dastlabki davrida nima uchun parlament armiyasi mag'lubiyatga uchragan edi?
7. Ingliz burjua inqilobi qachon boshlandi?
8. Ingliz burjua inqilobida ishtirok etgan siyosiy kuchlar haqida so'zlab bering.
9. O.Kromvelning ingliz burjua inqilobida tutgan o'rni haqida so'zlab bering.
10. Angliyadagi respublika va Kromvel protektorati haqida so'zlab bering.
11. Nima uchun ingliz burjua inqilobi mag'lubiyatga uchradi?
12. Angliyada monarxiyaning qayta tiklanishi haqida so'zlab bering.
13. Angliyada 1688-1689-yil davlat to'ntarishi va uning oqibatlari haqida so'zlab bering.
14. Angliyadagi agrar to'ntarish va uning oqibatlari haqida so'zlab bering.

15. Angliyadagi sanoat to’ntarishi va uning oqibatlari haqida so’zlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.T.1-2. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998
2. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A. L. Narochnitskogo. M. 1986.
3. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-6. M. 1960.
4. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
5. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
6. Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Evropi i Ameriki (1640-1870). Sostavitel E.E.YUrovskaya. M. 1990.
7. Jahon tarixi. (G’arb mamlakatlari 1640-1918 yy).O’quv-uslubiy qo’llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.
8. Yangi tarix. T.1. T.1967.
9. Yangi tarix. T.2. T. 1973.

3 – MAVZU: FRANTSIYA XVII ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHIDA

3. Frantsiyaning XVII – XVIII asrlardagi ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti. Frantsuz absolyutizmi va uning inqirozi.
4. XVIII asrdagi frantsuz inqilobi va uning oqibatlari.
3. Frantsiya Direktoriya, Konsullik va 1-imperiya davrida.
4. Frantsiyada 1848 yil inqilobi. Frantsiyada Ikkinchi Respublika.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Absolyut monarxiya. Feodal ierarxiya. Senor. TSenzitariy. Serv. Ushr. Rotyure. Lyudovik XIV. Kardinal Mazarini. Parij parlamenti. Fronda. “Lyudovik XIV asri”. “Qirol quyosh”. Ekspropriatsiya. “Senorlar reaktsiyasi”. J.B.Kolber. Kolbertizm. Aktiv savdo balansi. “Qirol manufakturalari”. Banalitet huquqi. Notabllar kengashi. General shatatlar. Nekker. Ta’sis majlisi. Bastiliyaning olinishi. Milliy gvardiya. Parij kommunasi. “Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi”. Konvent. M.Robesper. J.P. Marat. Eber. Danton. Demulen, Lamet. Lafayet. “Xalq do’sti” gazetasi. 1791 yil Konstitutsiyasi. Konstitutsion monarxiya. Kordelyyerlar. Yakobinchilar. Felyanlar. Jirondachilar. “Tekislik”. “Botqoq” «Tog’». Parij kommunasi. “Kulbalarga tinchlik – saroylarga urush!”. Frantsiyada Birinchi respublikaning o’rnatilishi. Ijtimoiy Najot qo’mitasi. Baholar maksimumi. Spekulyatsiya. 1793 yil Konstitutsiyasi. Umumiy harbiy majburiyat. 9-termidor aksilinqilobiy to’ntarishi. Termidorchilar Konventi. Respublikaning III yili Konstitutsiyasi (1795 y). Oqsoqollar Kengashi. Besh yuzlar Kengashi. Direktoriya. Napoleon Bonapartning Misrga yurishi. 18-bryumer

to’ntarishi. Konsullik. Harbiy diktatura. Napoleon Bonapart I – Frantsiya imperatori. “Napoleon kodekslari”. Tilzit sulhi. Antifrantsuz koalitsiyalari. Qit’aviy qamal. Napoleon armiyasining Rossiyaga bostirib kirishi. Borodino jangi. Moskvaning olinishi. Frantsuzlarning chekinishi. “Xalqlar jangi”. Napoleonning taxtdan voz kechishi. Taleyran. Burbonlar restavratsiyasi. Lyudovik XVIII. Vena kongressi. Napoleonning “100 kunligi”. Vaterloo jangi. Burbonlarning ikkinchi restavratsiyasi. Karl X. Ordonanslar. “SHonli 3 kun”. “1814 yil Xartiyasi”. “1830 yil Xartiyasi”. Iyul monarxiyasi. L.F.Orleanskiy. Ikkinchi respublika. Milliy ustaxonalar. Kavenyak. Lui Napoleon. “Tartib-intizom partiyasi”. “10 dekabr jamiyati”. 1851 yil 2 dekabr davlat to’ntarishi. Napoleon III. Imperiya inqirozining kuchayishi.

1. Frantsiyaning XVII asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

O’rta asrlarda Frantsiya feodal munosabatlar barqaror rivojlangan klassik feodal davlat edi. XVII asr o’rtasiga kelib Frantsiyada absolyut monarxiya to’la shakllanib bo’lgan edi. Ko’p sonli doimiy armiya, amaldorlar apparati, yuqori darajada siyosiy markazlashishning mavjudligi va 1613 yildan to 1789 yilgacha General shtatlarning chaqirilmaganligi ham qirol hokimyatining qudratidan dalolat berardi. Rishele davridayoq (1618-1642) gugenotlarning siyosiy erkinliklari tugatilgan, yirik feodallarning qasr-saroylari buzib tashlangan va ularning o’zboshimchaliklariga barham berilgan edi. Qirol viloyatlarda katta hokimyatga ega bo’lgan va soliqlar to’plash ustidan qattiq nazorat olib boruvchi yuqori martabali amaldorlar – intendantlarni tayinlardi.

Harbiy g’alabalar Frantsiyaning xalqaro mavqeini mustahkamladi. O’ttiz yillik urush natijasida (1618-1648) Gabsburglar davlati bo’lgan Ispaniya va Avstriya zaiflashib qoldi. XVII asr o’rtalaridan G’arbiy Yevropada Ispaniya gegemonligi o’rniga Frantsiyaning harbiy-siyosiy ustunligi o’rnatildi va u yarim asrdan ko’proqqa cho’zildi.

Angliya bilan Frantsiyani bir-biriga taqqoslab ko’rganda ularda o’ziga xos farqlar borligi yaqqol ko’rinadi. Angliyada dvoryanlarning bir qismi burjualashmoqda edi, kapitalizm sanoatdan zo’r berib qishloq xo’jaligiga kirib bormoqda edi, bu esa ingliz burjuaziyasiga yangi dvoryanlardan iborat siyosiy ittifoqchi etkazib berdiki, ingliz burjuaziyasi bu dvoryanlar bilan birgalikda inqilobga boshchilik qildi.

Frantsiyada esa ahvol boshqacha edi, bu mamlakatda ijtimoiy hayotda feodalizm gegemonlik qilib kelardi va buning yaqqol alomati burjuaziyaning bir qismining dvoryanlashuvi edi. Kapitalistik ukladda jamlangan boyliklarning bir qismi feodal er-mulklar, unvonlar va mansablar sotib olish uchun hamda dvoryanlar monarxiyasiga qarz berish uchun sarflanar edi. SHuning uchun ham frantsuz burjuaziyasi o’z ittifoqchilarini dvoryanlar ichidan emas, balki xalq ommasidan, dehqon-plebeylar ichidan izlashi kerak edi.

Frantsiyada feodal ierarxiya saqlanib qolgan bo’lib, eng yuqori pog’onada qirol turar, qiroldan keyingi o’rinda u yoki bu territoriyaga gertsog va graflar egalik qilishardi. Graflik bir qancha baroniyaga, baroniya bir qancha shatelleniyaga, shatelleniya esa quyi darajadagi mulklarga, tsenzual yyerlarga bo’linar edi. Vassallarning o’z yyerlari uchun senorlarga pul to’lash sistemasi va feodal

yurisdiktsiya darajasi saqlanib qolgan edi. Frantsiyadagi yyerlarning asosiy qismi shu ierarxiyaga kiritilib, juda oz qismigina allodial mulk edi.

Ierarxiyaning har qaysi bosqichida ham har bir syuzeren erning bir qismini bevosita o'z mulki sifatida o'z qo'lida olib qolib, boshqa bir qismini o'z vassallariga berardi. Natijada Frantsiyadagi barcha yyerlarning yarmi – turli viloyatlarda 30 % dan 60 % gacha bo'lgan qismi pirovard-oqibatda (vassal tomonidan to'lanadigan quyi formadagi to'lovning xiliga: tsenz yoki chinsh to'lanishiga qarab) tsenzual yoki tsenziva deb ataladigan quyi darajadagi mulklarga bo'linar edi. TSenziva mulklarining egalari, ya'ni tsenzitariylar deb ataluvchi mulkdorlar kamdan-kam hollarda dvoryanlar, ruhoniylar, shaharliklar bo'lsada, lekin tsenzitariylarning ko'pchiligi dehqonlar edi. XVII-XVIII asrlarda tsenziva Frantsiyadagi dehqonlar er egaligining asosiy shakli bo'lgan.

Frantsuz senorlari o'zlarining bevosita mulklarida o'z pomeshchik xo'jaliklarini yuritmas edilar. Xo'jayin yyerlarining yo'qolib borishi Frantsiyadagi agrar tuzumning alohida xususiyati edi. Ko'pincha senor o'zining bevosita mulkini mayda bo'laklarga bo'lib, hosildan hissa olish sharti bilan chorakorga yoki muayyan miqdorda pul olish sharti bilan dehqonlarga ijaraga berardi.

Ijara shartnomasi turli muddat uchun: 1 yil va undan ortiq muddat uchun, ijarachi o'lguncha, 2 nasl va shu kabilar uchun tuzilishi mumkin edi. SHartnomada ko'rsatilgan muddat tamom bo'lganidan keyin er uchastkasi senor ixtiyoriga qaytarilib berilardi. TSenziva esa, aksincha, odatdagi huquqga muvofiq senor tomonidan o'zining bevosita mulkiga hech mahal qo'shib olinmas edi, binobarin tsenzitariy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelgan bo'lsa, u er uchastkasidan abadiy foydalanishga va bu uchastkani tsenzitariy nasllari qo'lida qolishiga amin bo'lishi mumkin edi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, dehqonlar erdan foydalanish huquqi bo'yicha 2 asosiy guruhga – tsenzitariylarga va ijarachilarga ajralar edi. Umuman olganda ular feodallarga qaram bo'lgan dehqonlar sinfi edi.

Frantsiyaning Sharqiy rayonlarida va qisman Shimoliy rayonlarida krepostnoy dehqonlardan – servlardan iborat katta bir tabaqa saqlanib qolgan edi, ular mol-mulkini meros tariqasida birovga berish huquqiga ega bo'lmay, ularning bir erdan ikkinchi erga ko'chish huquqi juda cheklab qo'yilgan edi.

Frantsiyada cherkov ham eng katta yer egalaridan hisoblanardi. CHerkov lavozimlariga tayinlash Frantsiya qirolining vazifasi hisoblanib, u bundan foydalanib, o'z dvoryanlarini qo'llab-quvvatlar edi. YUqori daromad beradigan cherkov lavozimlari frantsuz zodagonlariga berilgan edi. CHerkov o'z yyerlaridan oladigan daromadlardan tashqari, Frantsiyadagi barcha dehqon xo'jaliklaridan «ushr»ham olardi. Frantsiyada aholi 3 tabaqaga bo'lingan bo'lib, 1-toifa – ruhoniylar, 2-toifa – dvoryanlar, 3-toifa – shaharliklar edi. 1 va 2-toifa vakillari bir-birlari bilan shaxsiy aloqalar orqali mustahkam bog'langan edi. Dvoryanlarning bir qismi armiyada barcha komandirlik lavozimlarini egallab, katta-katta maosh olardilar.

Frantsiyada kapitalizm qishloqqa kosibchilik sanoati orqali, ya'ni dehqonlarning shahardagi olib sotarlar uchun ip, nafis to'rlar, kulolchilik buyumlari va boshqa xil tovarlar tayyorlab berish orqali kirib bordi. Qishloq sanoati kapitalistik manufakturaning tarqoq shakli edi. SHaharlar doirasida manufakturaning ancha

rivojlangan shakllari bor edi. Lekin ishchilar soni 100 dan ortiq bo'lgan katta manufakturalar juda kam edi.

Frantsiyaning tashqi savdosi ancha rivojlangan bo'lib, Ispaniya, Portugaliya, Hindiston, Italiya va Levant mamlakatlariga tovar chiqarilardi. Lekin Niderlandiya va Angliyaning raqobati bu savdoni qiyinlashtirib qo'ydi.

XVII asrda Frantsiyaning ichki bozori rivojlanmay qolgan edi. Dehqonlar ommasida pul yo'q edi va ular bozordan juda kam narsa sotib olardilar. Sanoat asosan qo'lida pul to'plagan dvoryanlar uchun mahsulot ishlab chiqarardi. Keng ichki bozor bo'lmaganligi sababli savdo va sanoatda kapitalizm rivojlana olmadi.

Frantsiyada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi juda qiyinchilik bilan bordi. Hukumat sanoatga va savdo ishlariga juda katta soliqlar solar edi, har qanday burjua jamg'arish ekspropriatsiya qilinish xavfi ostida turardi. Davlat qishloq va shahardagi «badavlat kishilar»ni qo'lga tushirish uchun juda ko'p bahonalar topardi.

Frantsiyada savdo ishlari bilan shug'ullanish past mavqedagi ish hisoblanardi. Biror sohibkorlik bilan shug'ullangan dvoryanni o'z toifasidan – aslzodalar toifasidan chiqarib yuborar edilar. Savdo ishlari past tabaqa kishilari – «rotyure» shug'ullanadigan ish edi. XVII asrdagi Frantsiya davlati, ya'ni qirolning mustabid hokimyati tamoyili asosida qurilgan davlat o'z sinfiy mohiyati e'tibori bilan dvoryanlar diktaturasi edi. Absolyutistik davlatning ob'ektiv vazifasi feodal tuzumni himoya qilish edi.

Lyudovik XIII 1643 yilda o'ldi, bu vaqtda taxt vorisi Lyudovik XIV 5 yoshda bo'lib, unga onasi Anna Avstriyskaya regent qilib tayinlandi, lekin haqiqatda mamlakatni birinchi ministr lavozimidagi kardinal Mazarini 18 yil idora etdi (1643-1661).

Mazarini saroydagi qondosh shahzodalarning (qirolning amakisi Gaston Orleanskiy, shahzodalar Konde, Konti va b.) davlat boyliklarini taqsimlashga qaratilgan harakatlarini cheklab qo'ydi.

Mazarini urushni (30-yillik urush) yakunlash uchun yangi daromad qidirib, mansabdor shaxslarning huquq va imtiyozlariga daxl qildi va bu bilan absolyutizmni (qirol hokimyatini) bu shaxslar madadidan mahrum qildi. Bu esa Parij parlamentini burjuaziya bilan birgalikda absolyutizm bilan aloqani uzish yo'liga, antifeodal xalq kuchlari bilan vaqtincha blok tuzish yo'liga olib keldi. Frantsiyada Fronda harakati ana shu tariqa boshlandi.

"Fronda" so'zining ma'nosi "sopqon" demakdir, Parijda bu quroldan foydalanish man qilingan edi. "Frondalash" degan ko'chma ma'nodagi so'zning asl ma'nosi tartibni buzish, ma'murlarga qarshi ish ko'rish demakdir. Fronda tarixi 2 davrga: 1648-1649 yillardagi "eski Fronda" yoki "parlament Frondasi" davriga, 1650-1653 yillardagi "yangi Fronda" yoki "shahzodalar Frondasi" davriga bo'linadi.

Mansabdor aristokratlardan tashkil topgan Parij parlamenti 1648 yil may oyida Mazariniga qarshi chiqdi va qirolning majlislarni to'xtatish to'g'risidagi buyrug'iga bo'ysunishdan bosh tortdi. Parlament avvalo parlament zodagonlarining manfaatlarini, qolaversa burjuaziyaning va qisman xalq ommasining manfaatlarini ko'zda tutuvchi islohotlar dasturini e'lon qildi (soliqlar parlament tomonidan

tasdiqlanishi, huquqiy asossiz qamoqqa olmaslik, soliqlarni sotib olish tizimini bekor qilish, sud palatasini tashkil qilish va h.k.).

Parlamentni xalq ommasi ham qo'llab-quvvatladi. Dehqonlar soliq to'lashni to'xtatdilar.

Mazarini parlamentning 2 ta rahbarini qamoqqa oldi, bunga javoban 1648 yilning 26-27 avgustida Parijda ommaviy qo'zg'olon ko'tarildi, barrikadalar qurildi. Hukumat parlament talablarining ko'pchiligini qabul qilishga majbur bo'ldi.

Lekin bu sulh Frondani to'xtatmadi va Mazarini boshchiligidagi qirol saroyi Parijdan Ryuelga qochdi. SHahzoda Konde boshchiligidagi qirol qo'shinlari Parijni qamal qila boshladi.

Qamal vaqtida burjuaziya bilan xalq ommasi o'rtasida ixtilof ro'y bera boshladi. Angliyada qirolning qatl etilishi, xalq ommasining faollashuvi parlament mansabdorlarini qo'rqitmoqda edi. SHahar boylari va parlament mansabdorlari saroy bilan yashirin muzokara olib borib, 1649 yil 15 martda sulh shartnomasini tuzdilar. Saroy Parijga qaytib keldi. Burjuaziya yo'lboshchilari kurashni davom ettirmasdan, taslim bo'ldilar, bu «parlament Frondasi»ning tugaganini bildirar edi.

Dvoryanlarning yuqori qatlami Parijdagi voqealardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildi. 1650 yilda «SHahzodalar Frondasi» boshlandi, bu fronda bir to'da oqsuyaklarning Mazarini bilan bo'lgan o'z xususiy janjallari edi. Mazarini va qirol oilasi Frantsiyadan chiqib ketishga majbur bo'ldi. 1653 yilda Mazarini isyon ko'targan katta amaldorlar bilan yakka-yakka bitimga kelib, ularga unvonlar, pensiyalar, mansablar berdi, qirol oilasi yana Parijga qaytib keldi.

Mazarini 1661 yilda o'ldi va Lyudovik XIV birinchi o'ringa chiqdi, u Frantsiyani 54 yil mustaqil idora qildi, ba'zan bu davrni «Lyudovik XIV asri» deb ataydilar (1661-1715). U hukmronlik qilgan davrning 1-yarmida Frantsiyada absolyutizm o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Lyudovik XIV 60 yillarda Parij parlamentini ilgarigi vaqtlardagi siyosiy mavqeidan mahrum eta boshladi. U parlament mansabdorlariga qarata «Janoblar, siz o'zingizni davlat deb o'ylaysizmi? Davlat – men bo'laman!» degan mashhur so'zlarni aytgan. Saroy laganbardorlari uni «Qirol-quyosh» deb atardilar.

1673 yilda parlament o'zining asosiy huquqidan, ya'ni qirol chiqargan qonunlarni to'xtatish va bu qonunlar ustiga o'z e'tirozlarini (remontranslarini) yozib qo'yish huquqidan mahrum qilindi. Bu tadbirlar qirol hokimyatining yanada kuchayishiga olib keldi.

Lyudovik XIV moliyachilarga ham qattiq taziyq o'tkazdi. U 1661 yilda syurintendant (davlat moliyasining rahbari) Nikolay Fukeni qamoqqa olishni buyurdi. Tergovda davlat mablag'lari juda ko'plab talon-taroj qilinganligi ma'lum bo'ldi. Fukedan tashqari yana bir qancha moliyachilar turmaga tashlanib, ularning boyliklari musodara qilindi. Bundan tashqari davlatning ba'zi qarzlari o'zboshimchalik bilan bekor qilindi, davlat olgan qarzlari uchun to'lanadigan foizlar kamaytirildi. Bu tadbirlar avval davlatning moliya resurslarini va qudratini ancha oshirdi, lekin oqibatda burjuaziyaning davlatga kredit berishini yomonlashtirdi.

Mazarini vafotidan keyin uning yordamchilaridan biri bo'lgan Jan Batist Kolberning (1619-1683) saroydagi mavqei o'sa bordi. Lyudovik XIV tomonidan o'tkazilgan ichki siyosatga doir eng muhim ishlarning hammasi va tashqi siyosatga

doir ishlarning ko’pi Kolberning bevosita ishtiroki bilan amalga oshirilardi, u 1665 yilda bosh moliya nazoratchisi degan unvonga ega bo’ldi va hukumatda birinchi o’rinda turdi.

Kolber burjuaziyadan olinadigan kreditni kamaytirish, davlat daromadlarini ko’paytirish va dvoryanlarning daromadlarini ko’paytirishdek qiyin masalani hal qilishi kerak edi. Kolber dehqonlardan olinayotgan majburiyat va soliqlarning umumiy hajmi juda oshib ketganligini hisobga olib, dehqonlardan olinadigan qirol soliqlarini biroz kamaytirdi (50 mln. livrdan 35 mln. livrga tushdi).

Kolbertizmning asosiy e’tibori tashqi savdoga qaratilgan edi. «Aktiv savdo balansi» vositasi bilan Frantsiyani boy va qudratli mamlakatga aylantirishga harakat qildi. U tovarlar eksportini ko’paytirish va importni kamaytirishga harakat qildi. SHu maqsadda u yirik manufakturalar – «Qirol manufakturalari»ni tashkil etishga e’tibor berdi. Natijada Frantsiyaga chetdan mol keltirish juda qisqardi va chetga mol chiqarish ancha ko’paydi. Tashqi savdoni rivojlantirish uchun Ost-Indiya, Vest-Indiya, Levant, Shimoliy va boshqa imtiyozli monopol kompaniyalar tashkil etildi. Kolberning faoliyati tufayli Frantsiyada katta savdo floti va katta harbiy flot tashkil etildi. Kolber mustamlakachi Frantsiya imperiyasining asoschilaridan biri hisoblanadi (Hindistonda, Shimoliy Amerika va Vest-Indiyada).

Kolbertizm siyosati imkonyatlari cheklanganligi sababli o’z vazifasini to’la bajara olmadi, lekin shunga qaramay hukumat Kolber rejalariga amal qilib, «Qirol manufakturalari»ni tashkil etish orqali chetdan mol keltirishni qisqartirish, mustamlakalarni kengaytirish, chetga mol chiqarish yo’lidan bordi.

Lyudovik XIV ning 54 yillik hukmronligining 33 yili urushlarda o’tdi. Uning biPinchi urushi zaiflashib qolgan Ispaniyadan Belgiyani tortib olish uchun bo’lib o’tdi (1667-1668 yy). Frantsuz armiyasi dastlab bir qancha yutuqlarga erishdi, lekin Gollandiya, Angliya va SHvetsiyadan iborat ittifoqchilarning urushga kirishi Frantsiyani urushni to’xtashishga majbur qildi. Frantsiya Belgiyaning bir necha qal’alarini qo’lga kiritdi.

1672 yilda Frantsiya Gollandiyaga hujum boshladi va deyarli bu mamlakatni to’la bosib oldi. Lekin Gollandiyada bosqinchilarga qarshi xalq ommasining ko’tarilishi, Ispaniya va Gabsburglar Avstriyasining yordamga kelishi natijasida frantsuzlar chekinishga majbur bo’ldilar. 1678 yildagi Nimevgen sulhiga binoan Frantsiya bosib olgan barcha hududlarni Gollandiyaga qaytarib berdi. Frantsiyaning Ispaniya, Gollandiya va Angliyadan iborat ittifoqqa qarshi olib borgan urushi ham muvaffaqiyatsiz tugab, u bir qator hududlardan mahrum bo’ldi (1697 yildagi Risvik sulhi).

Lyudovik XIV hukmronligi davridagi so’nggi urush ispan merosi uchun bo’lgan urush (1701-1714) bo’lib, unda Yevropada gegemonlik uchun kurash bordi. Bu urushda Frantsiyaning og’ir iqtisodiy ahvoli o’z ta’sirini ko’rsatdi. Mamlakatda tez-tez ochlik isyonlari ro’y berib turardi. 1713 yilda Frantsiya Angliya, Gollandiya, Prussiya bilan sulh shartnomasini tuzdi, 1714 yilda shunday sulh Muqaddas Rim imperiyasi bilan tuzildi.

Urush Frantsiyaning iqtisodiy ahvolini yomonlashtirib yubordi, sulh shartlari urushning harbiy xarajatlarini qoplamas edi. Frantsiyaning Yevropada gegemonlik qilish rejasi amalga oshmadi.

Urushlar natijasida Frantsiya aholisining soni keskin qisqarib ketdi: XVII asrning 80 yillarida mamlakatda 15 mln.ga yaqin aholi yashagan bo'lsa, XVIII asrning 20-yillarida 12 mln.ga yaqin aholi bor edi.

2. XVIII ASRDAGI FRANTSUZ INQILOBI.

Frantsiya aholisi 1789 yilda 26 mln kishini tashkil etib, uning 96 foizini uchinchi tabaqa kishilari tashkil qilardi. Mamlakatdagi o'tloqlar, o'rmonlarning 80 % ga yaqini imtiyozli tabaqalar qo'lida edi.

Dehqonlar feodallarga obrok (hosilning 25-40 % i) va bundan tashqari senorlarga yana qo'shimcha ravishda juda ko'p mayda soliqlar va o'lponlar to'lardilar. Senorlar yana banalitet huquqidan, ya'ni tegirmonlar, nonvoyxonalarga, uzum presslariga, temirchilik ustaxonalariga tanho egalik qilish huquqidan foydalanardilar.

Frantsiyada XVIII asrning 80-yillarini «Senorlar reaktsiyasi» davri deb ataydilar. Bu davrda pomeshchiklar dehqonlar ustidan feodal zulmni kuchaytirdilar, dehqonlarning majburiyatlarini oshirishga intildilar va shu yo'l bilan o'z daromadlarini ko'paytirdilar.

Savdo va sanoatni o'z qo'lida to'plagan burjuaziya uchinchi tabaqaning eng etuk qismi hisoblanardi. Siysiy huquqga ega bo'lmagan burjuaziya davlat tizimini qayta qurish orqali bu huquqlarni qo'lga kiritishni ko'zlardi. Xalq ommasining asosiy qismi –dehqonlar, hunarmandlar, ishchilar turli xil o'lpon va majburiyatlardan, ochlik va qashshoqlikdan xalos bo'lishni, fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va o'zlarining moddiy ahvollarini yaxshilashni istar edi.

1788-1789 yillarda yog'ingarchilik tufayli ekinlarning yarmi nobud bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi keskin oshib ketdi va xalq ommasining ahvoli yanada yomonlashdi. Och qolgan xalq ommasi boylarning uylarini talar edilar.

Ancha uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari xalqni tinchlantirishga va islohotlar orqali qirol hokimyatini mustahkamlashga harakat qildilar. Lekin ular saroy va dvoryanlar ko'pchiligining qarshiligiga duch keldilar. Ba'zi bir islohotlarni o'tkazishga harakat qilgan amaldorlar ishdan olindi (Tyurgo, Nekker, Kaloni).

1789 yil boshiga kelib ahvol juda murakkablashdi, davlat qarzi 4,5 mlrd. frankga etdi, hatto uning foizlarini to'lash uchun ham pul yo'q edi. Mablag'siz qolgan qirol davlatning moliyaviy ahvolini muhokama qilish uchun mamlakatdagi aslzodalar vakillaridan iborat bo'lgan notabllar kengashini chaqirdi. Lekin notabllar kengashi o'z zimmasiga biroi ma'sulyatni olishni istamadi va qirolga 1614 yildan beri chaqirilmagan General SHtatlarni chaqirish maslahatini berdi. Qirol tabaqaviy vakillik organi bo'lgan General SHtatlarni chaqirishga rozi bo'ldi.

1789 yil 5 mayda Versalda General SHtatlarning majlisi boshlandi. 3 tabaqa vakillari birgalikda qirol va ministrlarning ma'ruzalarini tingladilar va qaror qabul qilish uchun alohida-alohida zallarga ketdilar. O'zini butun millatning vakillari hisoblagan uchinchi tabaqa vakillari qolgan tabaqa vakillarini o'zlariga qo'shilishlarini taklif qildilar. Bu taklif boshqa tabaqalarda bir necha hafta muhokama qilindi va bu tabaqalarning bir qancha vakillari uchinchi tabaqa safiga qo'shildi hamda General SHtatlarning bu qismi 17 iyunda o'zini Milliy majlis deb e'lon qildi.

Qirol 23 iyunda toifa vakillarini palatalarga tarqalishini taklif etdi, lekin Milliy majlis qirol buyrug'iga bo'ysunishdan bosh tortdi va 9 iyulda o'zini Ta'sis majlisi deb e'lon qildi.

INQILOBNING BOSHLANISHI. Qirol Bosh moliya nazoratchisi Nekkerni vazifasidan bo'shatganligini eshitgan Parij aholisi 12 iyulda ko'chalarga chiqdilar. Askarlar ham xalq tomoniga o'tdi. Parij aholisi tomonidan saylangan bir necha yuz kishi meriya binosiga to'planib, Parij qo'mitasini (shahar munitsipial boshqarmasi) tashkil etdilar.

Qo'mita 13 iyulda 48 ming kishidan iborat Milliy gvardiyani tashkil etdi. 14 iyulda ko'p sonli olomon qurol omboriga bostirib kirib, 30 ming miltiq va 20 ta to'pni qo'lga kiritdilar. SHundan keyin olomon qirol hokimyatining tayanchi bo'lgan turma-qal'a Bastiliyaga yo'l oldi. Qisqa olishuvdan keyin Bastiliya taslim bo'ldi. 14 iyul Frantsiyaning milliy bayrami bo'lib qoldi.

Bastiliyaning olinishi haqidagi xabar butun Frantsiyani to'lqinlantirib yubordi. Barcha joyda eski hokimyat uchinchi toifa vakillari tomonidan saylab qo'yilgan organlar bilan almashtirildi. Ko'pchilik shaharlarda Milliy gvardiya tuzilib, mahbuslar qamoqlardan ozod qilindi. Bunday jarayonlar munitsipial inqiloblar nomini oldi. Siyosiy hokimyat amalda Ta'sis majlisi qo'liga o'tdi, ya'ni zodagonlardan tortib olinib, uchinchi toifa qo'liga o'tdi.

Bunday voqealar qishloqlarda ham bo'lib o'tdi, dehqonlar pomeshchiklarning saroylariga o't qo'ydilar, feodal majburiyatlar yozilgan hujjatlarni yo'q qilib tashladilar. Boylarning ko'pchiligi chet ellarga qochib ketdilar.

Ta'sis majlisi 4-11 avgust kunlari toifaviy imtiyozlarni, feodal huquq, cherkov ushrini bekor qilish to'g'risida dekretlar qabul qildi. Lekin bir qator feodal majburiyatlar (obrok, barshchina, chinsh, desyatina) to'lov orqali bekor qilinishi mumkin edi. Natijada butun yoz davomida dehqonlarning g'alayonlari to'xtamadi.

1789 yil 26 avgustda Ta'sis majlisi «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ni e'lon qildi. «Huquqlar Deklaratsiyasi» asosida ma'rifatparvarlarning insonning tabiiy va ajralmas huquqlari to'g'risidagi, so'z, shaxs, vijdon erkinligi, zulmga qarshilik ko'rsatish to'g'risidagi tamoyillari turardi.

«Deklaratsiya» 17 moddadan iborat bo'lib, birinchi moddada «Inson huquqda erkin va teng bo'lib tug'iladi va shunday bo'lib qoladi» deb yozilgan edi. Bu va boshqa moddalar toifaviy imtiyozlarga qarshi qaratilgan bo'lib, burjua jamiyati tamoyillarini o'rnatish uchun xizmat qilardi. So'nggi, 17 modda xususiy mulkni muqaddas va buzilmas huquq deb e'lon qildi.

Inqilob kengayib bordi, lekin Frantsiyaning iqtisodiy ahvoli yaxshilanmadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining etishmasligi, spekulyatsiya (olib sotarlik), qimmatchilik xalqning noroziligini kuchaytirdi. 5 oktabrda 20 mingga yaqin odam Versalga – Ta'sis majlisi va qirol oilasi qarorgohiga yo'l oldi. Qirolning "Huquqlar Deklaratsiyasi"ni imzolashdan bosh tortishi xalq ommasining unga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga olib keldi.

SHu kuni 6 mingga yaqin xotin-qiz Versal saroyiga bostirib kirdi. Xalq ommasi qirolni va Ta'sis majlisini Parijga ko'chib o'tishini talab qildi. 6 oktabrda qirol va Ta'sis majlisi Parijga ko'chib o'tdi va xalq nazorati ostiga olindi. Qirol «Huquqlar Deklaratsiyasi»ni va 4-11 avgustdagi dekretlarni imzolashga majbur bo'ldi.

Ko’pchiligi sanoatchilar va liberal dvoryanlardan iborat bo’lgan Ta’sis majlisi o’z mavqeini mustahkamlab olgach, o’z faoliyatini davom ettirish va islohotlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ldi. Ta’sis majlisida markiz Lafayet, graf Mirabo, yosh advokat Maksimilian Robesper va uning bir qator tarafdorlari muhim rol o’ynadilar.

Ta’sis majlisi fuqarolar tengligi tamoyiliga amal qilib, 1790-1791 yillarda toifaviy imtiyozlarni, merosiy dvoryanlik institutini, dvoryanlarning gerblari va unvonlarini bekor qildi. Davlat reglamentatsiyasi va tsex tizimi tugatilib, tadbirkorlik erkinligi o’rnatildi. Ichki bojxonalarning bekor qilinishi, Angliya bilan savdo shartnomasining tuzilishi milliy bozorning shakllanishiga yordam berdi.

Ta’sis majlisi burjuaziyaga raqobat va ishga yollash erkinligini berish bilan birga ishchilarga o’z tashkilotlarini tuzish va o’z manfaatlari uchun kurash olib borish huquqini rad etdi. 1790-1791 yillarda ishchilarning ish tashlashlari ko’payib, ishchilar ittifoqlari tashkil topa boshlagach, Ta’sis majlisi sudsiz qatl qilish to’g’risida qonun qabul qildi. 1791 yil 14 iyulda tashkilotlar tuzishni va ish tashlashlarni ta’qiqlovchi qonun (Le SHapele qonuni) qabul qilinib, u 1864 yilgacha amalda bo’ldi.

Dehqonlar qo’zg’olonlarining kuchayib borishi Ta’sis majlisini agrar masalaga qaytishga majbur qildi. Ta’sis majlisining 1789 yil 2 noyabrdagi dekreti bilan cherkov mulki bo’lgan ko’pgina yyerlar musodara qilinib, asosan burjuaziyaga va boy dehqonlarga sotib yuborildi. Kambag’al dehqonlar er sotib olish imkoniyatiga ega emas edi.

1791 YIL KONSTITUTSIYASI. Ta’sis majlisi 1791 yil sentabrda Konstitutsiya ustida ishlashni yakunladi. Barcha fuqarolar «faol» va «passiv», ya’ni saylash huquqiga ega bo’lgan va ega bo’lmagan toifaga ajratildi. 25 yoshga to’lgan va 1,5-3 livr (o’rtacha oylikning 3 kunlik miqdori) to’g’ri soliq to’laganlar «faol» fuqarolar hisoblanardi. 9 mln. erkak aholidan 4,3 mln.i ana shunday huquqga ega edi. Saylovlar 2 bosqichli edi. Konstitutsiya mustamlakalarga joriy qilinmadi va ulardagi qulchilik bekor qilinmadi.

Konstitutsiya Frantsiyada konstitutsion monarxiya tartibotini o’rnatdi. Qonunchilik hokimyati bir palatali Qonunchilik majlisiga tegishli bo’lib, ijro hokimyati vorisiy qirol va u tomonidan tayinlanadigan ministrlar qo’lida edi. Qirol Majlis tomonidan ma’qullangan qonunni vaqtincha to’xtatib turish huquqiga ega edi. Frantsiya 83 departamentga ajratildi, ularda hokimyat saylab qo’yiladigan kengashlar va direktoriyalar tomonidan amalga oshirilardi, shahar va qishloqlarda esa saylab qo’yiladigan munitsipalitetlar tomonidan amalga oshirilardi.

SHunday qilib, Ta’sis majlisi mulkdor tabaqalarning ijtimoiy va siyosiy hukmronligini huquqiy jihatdan belgilab va tasdiqlab qo’ydi. Inqilob lagerida ijtimoiy-siyosiy ajralish boshlandi. Uchinchi toifa endilikda bir xil emas edi. Xalq ommasi va burjuaziyaning radikal qismi inqilobni davom ettirish tarafdori edi. Burjuaziyaning yuqori qatlami va liberal dvoryanlar inqilobdan o’zlari uchun zarur imtiyozlarni qo’lga kiritgach, inqilobni to’xtatish tarafdorlari bo’lib qoldilar.

Inqilob davomida Frantsiyada bir qator siyosiy klublar tashkil topib, ular siyosiy partiyalar rolini o’ynadilar. Bu klublar qatoriga felyanlar, Yakobinchilar, kordelyyerlar va boshqa klublar kirardi. 1791-1792 yillarda kordelyyerlar klubi eng demokratik klublardan biri bo’lib, u hunarmandlar, «passiv fuqarolar»ni birlashtirgan

edi. Bu klubga Marat, Danton, Demulen va boshqalar a'zo edi. Bu klub a'zolari belini ip (kord) bilan bog'lab yuradigan monaxlar monastirida to'planganliklari uchun kordelyyerlar klubi nomini olgan edi.

Muqaddas Yakob monastirida to'planadigan Yakobinchilar klubi ham katta ta'sir kuchiga ega edi. Bu klub turli yo'nalish tarafdorlarini birlashtirgan edi. Keyinchalik provintsiyalarda bu klubning mingdan ortiq filiallari tashkil topdi. Mirabo va Robesper uning rahbarlari edi. 1791 yilda Yakobinchilar klubida ajralish yuz berib, felyanlarning konstitutsion-monarxistik siyosiy klubi tashkil topdi (felyanlarning ma'naviy ordeni joylashgan monastir). M.Lafayet, A. Barnav, A. Lamet bu klubning etakchilari edi.

Inqilob natijasida ko'plab gazetalar nashr qilina boshlandi. Maratning «Xalq do'sti» gazetasi katta obro'ga ega edi.

INQILOBIY URUSHLARNING BOSHLANISHI. Yevropa davlatlarining hukmdorlari va hukmron sinflari Frantsiyadagi inqilobni xavotir va nafrat bilan qarshi oldilar. Ayniqsa Avstriya va Prussiya bu inqilobdan juda xavfsirardi. 1792 yil fevralda Avstriya va Prussiya inqilobiy Frantsiyaga qarshi harbiy ittifoq tuzdilar. Frantsiya qiroli va uning tarafdorlari urushga intilar edilar va ular shu yo'l orqali inqilobdan xalos bo'lishni ko'zlardilar. Felyanlarning bir qismi, shuningdek Robesper, Marat va Yakobinchilar klubining ko'pchilik a'zolari urushga qarshi edilar. Jirondachilar (Jironda departamentidan kelgan deputatlar) urush olib borish tarafdorlari bo'lib, tez g'alaba qozonishga umid qilardilar.

Urush tarafdorlari ustun kelib, 1792 yil 20 aprelda Frantsiya Avstriyaga urush e'lon qildi. Bu inqilobiy Frantsiyaning monarxiyachi Yevropaga qarshi urushi edi. Urushning boshlanishi Frantsiya uchun muvaffaqiyatsiz kechdi. Eski armiya tarqalib ketgan, zobitlarning ko'pchiligi chet ellarga ketib qolgan, ko'ngillilar yaxshi ta'lim ko'rmagan va yomon qurollangan bo'lib, zobitlarga ishonmas edilar.

QONUNCHILIK MAJLISI. 1791 yil oktabrda Konstitutsiya qabul qilingach, Qonunchilik majlisi ish boshladi. Uning o'ng qismini felyanlar – yirik moliyachilar, kema egalari, qulfurush savdogarlar, yirik yer egalari, sanoatchilar va ularga qo'shilgan liberal dvoryanlar partiyasi tashkil etardi. Bu partiya monarxiyani va 1791 yil Konstitutsiyasini saqlab qolish tarafdori edi.

Majlisning so'l qismi Yakobinchilar bilan aloqada bo'lgan deputatlardan iborat edi. Ko'p o'tmasdan bu qism 2 guruhga ajraldi. Ulardan biri jirondachilar nomini oldi. Bu guruh savdogarlar, sanoatchilar va yangi yer egalarining manfaatlarini himoya qilib, jamiyatni qaytadan qurish tarafdorlari edilar. Ular dastlabki davrda 1791 yil Konstitutsiyasini qo'llab-quvvatladilar, lekin keyinchalik respublikachilar pozitsiyasiga o'tdilar.

Qonunchilik majlisining eng so'l guruhini montanyarlar tashkil qilardi. Ular Qonunchilik majlisi zalida eng yuqori o'rindiqlarda o'tirganlari uchun shu nomni olgan edilar («tog'» - «montage»). Inqilobning ommaviy yuksalish sharoitida Parijning 48 sektsiyasi ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta boshladi. Asosan ular 1792 yil 10 avgustdagi inqilobni tayyorladilar. Avgust boshida sektsiyalar monarxiyani ag'darishga zo'r berib tayyorgarlik ko'ra boshladilar.

1792 yil 10 avgustdagi xalq qo'zg'oloni. 25 iyulda gertsog Braunshveygskiy Avstriya va Prussiya monarxlari nomidan Parij aholisiga murojaat qilib, qirolga

bo’ysunishni talab qildi, aks holda Parijni vayron qilish bilan tahdid qildi. Bunga javoban 48 sektsiyadan 47 tasi Qonunchilik majlisidan Lyudovik XVI ni ag’darib tashlashni va Milliy konvent chaqirishni talab qildi. Lekin Majlis bu talablarga rozi bo’lmadi. 10 avustga o’tar kechasi Parijda qo’ng’iroq ovozlari yangradi – sektsiyalar qo’zg’olonni boshlab yubordilar, sektsiyalarning ko’pchiligi o’z komissarlarini sayladilar. Ana shu tariqa hokimyatni o’z qo’liga olgan isyonkor Parij kommunasi tashkil topdi. Shomett, Eber va boshqalar uning a’zolari qilib saylandi. Qo’zg’olonchilar shu kuni Tyuilridagi qirol saroyini egalladilar.

11 avgustda fuqarolarni «faol» va «passiv» toifaga ajratish bekor qilindi. 21 yoshga to’lgan va xususiy xizmatda bo’lmagan barcha erkak aholi saylov huquqiga ega bo’ldi.

Karuseli maydonida doktor J. Giloten tomonidan yasalgan gilotina o’rnatildi. 1792 yil 17 avgustda Parij Kommunasi sudyalari va hakamlaridan iborat tribunal tuzildi. 26 avgustda Kommunaga qasamyod qilmagan ruhoniylarni Frantsiyadan chiqarib yuborish to’g’risida qonun qabul qilindi.

Konstitutsion monarxiya tarafdorlari hokimyatdan chetlashtirildi. Parij Kommunasi shahar hokimyati organiga aylandi.

Ana shunday bir vaziyatda Prussiya armiyasi Frantsiya chegarasini buzib o’tib, gertsog Braunshveygskiyning qo’shinlari Verden va Longvini egalladilar. Kommuna chegaralarni berkitib, to’siqlar qurishni va ko’ngillilarni armiyaga chaqirishni tashkil etdi. 20 sentabrda Valmi qishlog’i yaqinida Frantsiyaning inqilobiy armiyasi prusslarni mag’lubiyatga uchratib, chekinishga majbur qildi. Bu g’alaba katta ahamiyatga ega bo’ldi, u frantsuz armiyasining jangovarlik ruhini ko’tardi va shu davrdan armiyaning g’alabalar davri boshlandi. Milliy Konvent va armiya bu davrda qo’shni davlatlar aholisiga yordam berishni o’z oldiga vazifa qilib qo’ydi. Konvent a’zolaridan birining ma’ruzasi bo’yicha «Kulbalarga tinchlik – saroylarga urush» shiori qabul qilindi, bu esa Frantsiya tomonidan okkupatsiya qilingan hududlarda krepostnoy huquq bekor qilinishini, xalq suvereniteti e’lon qilinishini va shunga o’xshashlar amalga oshirilishini bildirar edi. Inqilobiy armiyaning g’alabasi natijasida Savoyya va Nitstsa, Reynning chap qirg’og’i va Belgiya Frantsiyaga qo’shildi.

Avstriya va Prussiya voqealarning bunday rivojlanishini kutmagan edilar. O’zini betarafligini bildirgan Angliya Frantsiyaning Belgiyadagi g’alabalaridan keyin ochiqdan ochiq Frantsiyaning dushmanlari tomoniga o’tdi. Keyinchalik Frantsiyaning harbiy g’alabalari unga qarshi bo’lgan davlatlar koalitsiyasining tuzilishiga olib keldi.

Konventning ochilishi. Respublikaning e’lon qilinishi. 1792 yil 20 avgustda Milliy Konvent ochildi, unga Frantsiyadan 749 deputat va mustamlakalardan 34 deputat saylangan edi. Ular ichida xalq vakillarining soni 40 dan sal ko’proq edi.

Jirondachilar Konventda 165 o’ringa ega edilar, ular Konventning o’ng qanotini tashkil etardilar. Ularning ko’pchiligi Yakobinchilar klubidan chiqib ketdilar, natijada bu klub asosan montanyarlardan iborat bo’lib qoldi. Montanyarlarning soni 150 ga yaqin edi. Ular qirol ustidan sud o’tkazilishini va boshlangan radikal islohotlarni davom ettirilishini talab qilardilar. 500 ga yaqin deputat esa bu guruhlardan hech biriga kirmas edi va ularni «tekislik» yoki «botqoq» deb atardilar. Konvent 21

avgustda qirol hokimyatini yo’q qilish to’g’risida dekret qabul qildi. 22 sentabrda Frantsiya respublika deb e’lon qilindi.

1792-1793 yil qishida shahar va qishloklarning xalq ommasi inqilobni yanada chuqurlashtirishni talab qilib chiqdilar. SHaharlarda xalq ommasining ahvoli juda og’ir edi. Konventga non va boshqa mahsulotlarga qat’iy narx o’rnatishni talab qilgan arznomalar tushardi.

Konventda oziq-ovqat masalasi ko’rilgan bo’lsa ham, u hal qilinmagan edi. Faqat Parij Kommunasi nonga qat’iy baholar o’rnatish bo’yicha tadbirlarni amalga oshirdi. Boylarga soliq joriy qilindi. 1793 yil may oyida un va bug’doyga maksimum narxlar joriy qilish to’g’risida, boylarga 1 mlrd. livr majburiy zayom joriy qilish to’g’risida dekretlar qabul qilindi. Parij Kommunasi kambag’allar manfaatlarini himoya qilardi. Ayniqsa Kommuna prokurori Gaspar SHomett va uning o’rinbosari Jak Eber faol harakat qilardilar.

Qirol Lyudovik XVI ni jazoga tortish masalasi Konventda, undan tashqarida, Parij ko’chalarida va butun Frantsiyada keng muhokama qilinardi. Konvent deputatlarining bu boradagi fikrlari bir-biriga qarama-qarshi edi. Jirondachilarning ko’pchiligi va «botqoq»ning bir qismi qirolni qatl qilinishiga qarshi edilar. Lekin montanyarlar, shuningdek jirondachilarning va «botqoq»ning bir qismi qirolni qatl qilish tarafdori edilar. Noyabr-dekabr oylarida qirolning antifrantsuz koalitsiyasiga kiruvchi davlatlar monarxlari bilan yozishmalari ma’lum bo’lib qoldi, ularda respublikaga qarshi urush haqida so’z borardi. Bu esa hamma ishni hal qildi.

Konventda qirolga jazo berish masalasi ustida qattiq tortishuv bordi. Deputatlardan 387 tasi qirolni qatl qilish uchun ovoz berdi, 344 deputat turmaga tashlash uchun ovoz berdi. 1793 yil 21 yanvarda xalq ommasining ko’zi oldida qirol Lyudovik XVI qatl qilindi. SHu yili oktabrda inqilobiy tribunalning hukmi bilan qirolicha Mariya Antuanetta ham qatl qilindi.

Qirolning qatl kilinishiga, xalq ommasining talabi bilan bir qator dekretlarning qabul qilinishiga, non va donga maksimum narxlar joriy qilinishiga qaramay parlamentda va undan tashqarida kurash pasaymadi. Aholiga oziq-ovqat mahsulotlari etishmas, ocharchilik, qimmatchilik hukm surardi. Ana shunday sharoitda jirondachilar montanyarlarga qarshi kurashni kuchaytirdilar. Jirondachilar Konventi sektsiyalar va Kommuna faoliyatini tekshirish uchun «12 lar qo’mitasi»ni tuzdi. Eber, Varlen va boshqalarni qamoqqa olish to’g’risida buyruq berildi. Jirondachilarga qarshi Kommuna, sektsiyalarning katta qismi, montanyarlar, kordelyyerlar klubi a’zolari birlashdilar. Kommuna tomonidan tuzilgan Isyonchilar Qo’mitasining buyrug’i bilan 1793 yil 31 mayda qurollangan ko’p ming kishilik xalq ommasi va Milliy gvardiya Konventni o’rab oldi. Jirondachilarning rahbarlari qamoqqa olindi. Xalq qo’zg’oloni g’alaba qozondi, hokimyatga Yakobinchilar keldi.

Yakobinchilar hokimyatga kelgan davrda Parijda va butun Frantsiyada vaziyat juda og’ir va murakkab edi. Mamlakatdagi 83 departamentdan 60 ga yaqinida jirondachilarning ta’siri kuchli edi, bu yyerlarda Konventga qarshi isyonlar davom etardi. Ayniqsa sanoat jihatidan qoloq bo’lgan Vandeyda dehqonlar monarxiyachi dvoryanlar ta’siri ostida Konventga qarshi haqiqiy urush boshlab yuborgan edilar. Bu erdagi qo’zg’olon 1793 yilda bostirildi. Har ikki tomondan 600 mingdan ko’proq frantsuzlar halok bo’ldi.

Yakobinchilar Konventi o’z mavqeini mustahkamlab olish uchun darhol er va dehqonlar masalasi bilan shug’ullana boshladi. 1793 yil 10 iyulda jamoa yyerlarini taqsimlab berish to’g’risida dekret qabul qilindi. 17 iyulda barcha feodal majburiyatlarni bepul bekor qilish to’g’risida dekret e’lon qilindi. Erni faqat puli borlar olishi mumkin edi, er kapitalistik xususiy mulkka aylana boshladi, u ochiq holda sotilar va sotib olinardi.

Yakobinchilar Konventi tomonidan qabul qilingan dekretlarning asosiy qismi amalda bajarilmas edi. Oziq-ovqat masalasi avvalgidek hal qilinmagan edi, spekulyatsiya avj olgan edi. 1793 yil 29 sentabrda Yakobinchilar kundalik ehtiyoj mollariga ikkinchi maksimumni joriy qildilar, lekin u ham hech nimani o’zgartirmadi, chunki Yakobinchilarning iqtisodiy siyosati Konventning e’tiboridan chetda qolgan edi.

Yakobinchilar blokida ham kuchlarning qutblashishi amalga oshmoqda edi. «Quturganlar» ham, «so’l Yakobinchilar» ham inqilobni chuqurlashtirishga intilardilar. Bir tomondan Ijtimoiy najot Qo’mitasini boshqarayotgan Danton va uning tarafdorlari terrorni cheklash tarafdori edilar. Ikkinchi tomondan Robesper va uning tarafdorlari qattiqqo’l hokimyatni har qanday vositalar yordamida saqlab qolish tarafdori edilar. Inqilobiy terror asta-sekin Robesper va uning guruhining shaxsiy himoyasiga aylandi. Iyun oxiriga kelib, yangi Konstitutsiya qabul qilingach, Yakobinchilar blokidagi guruhlar o’rtasidagi kurash o’zining eng yuqori cho’qqisiga etdi.

Konvent 1793 yil 29 iyunda Frantsiyaning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi, unga ko’ra Frantsiya bir palatali majlisdan iborat Respublika deb e’lon qilindi. Konstitutsiyada xalqning qo’zg’olon ko’tarish, bilim olish, mehnat qilish, mayib-majruhlarga ijtimoiy yordam olish huquqlari yozib qo’yilgan edi. Demokratik huquq va erkinliklarni ta’minlab beruvchi hech qanday huquqiy asos va kafolatlar yo’q edi. Bu Konstitutsiya so’llar tomonidan qattiq tanqid qilindi. Ana shunday kamchiliklari bo’lishiga qaramay bu Konstitutsiya kuchga kirmadi va urush tugaguncha uni to’xtatib turishga qaror qilindi.

1793 yil 13 iyulda faol Yakobinchi, Konvent a’zosi, inqilobiy «Xalq do’sti» gazetasining redaktori, olim Jan Pol Marat dvoryan ayol SHarlotta Korde tomonidan o’ldirildi. Undan avvalroq Yakobinchi SHale ham aksilinqilobchi terrorchilar tomonidan o’ldirilgan edi, ko’pgina shaharlarda aksilinqilobiy terror kuchayib bormoqda edi. Bunga javoban Yakobinchilar ham terrorni kuchaytirdilar.

Urushda burilish. Terrorning davom etishi. 1793 yil yozi va 1794 yil qishida urushda burilish yuz berdi. Respublikadagi barcha kuchlarni dushmanga qarshi safarbar etish natijasida ana shunday g’alabaga erishildi. Urushda yangi taktikaning qo’llanilishi, ximiya, matematika va boshqa fanlardan amaliy maqsadlarda foydalanish harbiy sohada katta yutuqlarga olib keldi. Frantsiyada hali boshqa mamlakatlarda ma’lum bo’lmagan umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi. 1794 yil qishiga kelib mamlakatdagi feodallarning isyonlari bostirildi, chet el qo’shinlari mamlakatdan quvib chiqarildi.

Lekin tashqi dushman ustidan g’alaba qozona borgan sari Yakobinchilar bloki ichidagi ziddiyatlar kuchayib bordi. Davlatning asosiy organi bo’lgan Ijtimoiy najot Qo’mitasini o’z qo’liga olgan «sotilmas» Robesper boshchiligidagi robesperchilar

bilan boshqa guruhlar o'rtasidagi ajralish kuchaydi. Robesper tarafdorlari Yakobinchilarning boshqa guruhlariga nisbatan murosasizlik, betoqatlik mavqeida turdilar, bu kurash qisqa vaqt ichida terror bilan tugadi. Bu masalada yuridik jihatdan surishtirish, tahlil qilish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. 1794 yil martida inqilobning Jak Ru, SHomett, Eber va boshqa faol rahbarlari va ishtirokchilari gilotinada qatl qilindilar. Aprelda Danton va uning tarafdorlari qatl qilindi.

3.Frantsiya Direktoriya, Konsullik va 1-imperiya davrida.

Yakobinchilar diktaturasi terrorni kuchaytirib bordi. 1794 yil 10 iyundan 26 iyulgacha Robesperchilar guruhi 1563 hukm chiqardi, uning 1285 tasi o'lim jazosi hukmi edi. Yakobinchilar olib borayotgan siyosatdan xalq ommasining noroziligi kuchayib bordi. Oziq-ovqat narxi ustidan nazorat yo'q edi. Qishloqda ijara haqining maksimumi belgilanmagan edi. Ishchilar va hunarmandlarning ahvoli yomonlashib ketdi. Bunday vaziyatda xalq ommasining quyi qismida Robesperga va uning safdoshlariga bo'lgan ishonch yo'qola bordi, shu tariqa Yakobinchilar xalq ommasi madadidan mahrum bo'la boshladilar.

Frantsiyaning harbiy g'alabalari, savdo va sanoatning jonlanishi yirik burjuaziyani Yakobinchilar diktaturasi tartibotidan, rekvizitsiyalar, maksimumlar va terrorlardan ozod bo'lish istagini kuchaytirib yubordi. Konventda va provintsiyalarda «yangi boylar»ning ta'siri kuchaydi. Konventda Robesper va uning safdoshlariga qarshi aksilinqilobiy fitna etilib kelmoqda edi. Buni shubhasiz Robesper ham bilardi. Fitnada asosiy rolni inqilob davrida boyib ketgan Konvent a'zolari Talen, Barras, Freron va boshqalar o'ynardi, lekin Robesperni o'zining sobiq safdoshlarini qatl qilgani uchun kechirmaganlar ham ko'p edi. Robesper 1794 yil 8 termidorda (26 iyul) Konventda nutq so'zlab, inqilobga qarshi fitna tayyorlanayotganligi haqida ogohlantirib, xushyorlikka da'vat etdi. Lekin u fitnachilarga qarshi kurashish uchun hech qanday chora-tadbir ko'rmadi va uyiga ketdi. Fitnachilar hal qiluvchi vaqt etib kelganini angladilar.

9 termidorda (27 iyul) Konvent o'z majlisini davom ettirdi. Fitnachilar Sen-Jyustning ma'ruzasini to'xtatib qo'yib, Robesperni hokimyatni qo'lga kiritishda, yakkahokimlikda (tiran) ayblay boshladilar. Bahs-munozaralar avj olgan bir vaqtda hech kimga ma'lum bo'lmagan deputat Mushe Robesperni qamoqqa olishni taklif etdi. Konventning ko'pchilik a'zolari bu taklifni qo'llab-quvvatladi. Robesper va uning safdoshlarini qamoqqa olib bordilar, lekin turma boshlig'i Robesperni qamoqqa olishdan bosh tortdi. Parij Kommunasi va uning sektsiyalari Robesperning boshqa safdoshlarini ham turmadan ozod qildi va ularni Ratushaga olib keldilar. Ratushada hamma Robesperni Konventga qarshilik ko'rsatishni tashkil qilishini kutgan edilar. Askarlar Parijning barcha sektsiyalarini yordamga chaqirib, tungi soat 2 gacha ratusha yonida turdilar. 48 sektsiyadan faqat 16 tasi o'z otryadlarini yubordi, keyinchalik ular ham tarqalib ketdilar. Konvent otryadi ratushaga kirib, Robesperning barcha tarafdorlarini qattiq jazoladi. Robesperni jag'idan otishdi va butun tun davomida unga azob berishdi. 10 termidorda Robesper va uning safdoshlaridan 22 kishi qatl qilindi. Keyingi 2 kun davomida Parij Kommunasining 80 nafar a'zosi gilotinada qatl qilindi.

Yakobinchilar diktaturasi tugatildi va Yakobinchilardan tozalangan qonvent faoliyat ko’rsata boshladi. Frantsiyadagi burjua inqilobi shu tariqa tugadi. 1789-1794 yillardagi bu inqilob feodal dvoryanlar va monarxiya ustidan to’la g’alaba qozonishgacha olib borilgan burjua inqilobi edi.

9 termidordan keyin respublika kalendarining 2-yilida (1794 yil 27 iyul) hokimyat inqilob natijasida boyigan sanoatchilar, moliyachilar va yangi yer egalaridan iborat Konvent qo’liga o’tdi. Termidorchilar Konventi 1795 yil 26 oktabrgacha ish olib bordi. Yakobinchilar klubi va uning filiallari darhol yopildi, jamoatchilik tashkilotlari tarqatib yuborildi, narxlar maksimumi bekor qilindi. Savdo erkinligi spekulyatsiya erkinligiga aylandi. Terrorga qarshi kurash bahonasi ostida mavjud ahvoldan norozi bo’lgan qashshoqlarga qarshi kurash kuchaydi. Ochlik va muhtojlikdan og’ir ahvolda qolgan Parij aholisining quyi qatlami 1795 yil bahorida qo’zg’olon ko’tardi. 12 jerminalda (1 aprel) yangi tartibotdan norozi bo’lgan olomon ko’chalarga chiqdilar. Ularning asosiy talabi non va 1793 yil Konstitutsiyasini joriy qilish edi. Konvent binosi yonida bu olomon tarqatib yuborildi va ko’pchiligi qamoqqa olindi.

1 prerialda (20 may) ikkinchi qo’zg’olon boshlandi. Bu qo’zg’olonda qurollangan Milliy gvardiya otryadlari ham ishtirok etdilar va qo’zg’olonchilar soni 20 ming kishiga etdi. Qo’zg’olonchilar Konvent binosini egallab, uni 24 soatdan ko’proq o’z qo’llarida tutib turdilar, lekin qo’zg’olon bostirildi.

1795 yilda Termidorchilar Konventi yangi Konstitutsiyani, Respublika III yili Konstitutsiyasini qabul qildi (1793 yilda qabul qilingan inqilobiy kalendar bo’yicha 1792 yil Respublikaning I yili deb qabul qilingan edi). Bu Konstitutsiya respublikani saqlab qolgan bo’lsada, uning asosiy yutuqlaridan biri – umumiy saylov huquqini yo’q qildi. Bu Konstitutsiya xususiy mulkdorlar huquqlarini e’lon qildi. Konvent o’rniga Oqsoqollar kengashi (250 odam) va Besh yuzlar Kengashi saylandi. Bu ikki palata qonunchilik hokimyatiga ega edi. Qonunchilik hokimyati 3 direktordan iborat ijroiya hokimyatini – Direktoriyani sayladi.

Konstitutsiya qabul qilingach Konvent tarqatib yuborildi va hokimyat Direktoriya qo’liga o’tdi. Oqsoqollar Kengashi va Besh yuzlar Kengashiga asosan Termidorchilar Konventi a’zolari saylandi. Diretoriyaning siyosati asosan inqilob davrida boylik to’plagan moliyachilar va sanoatchilar guruhlarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi.

Direktoriya tarkibi uning faoliyati davomida (1795 yil 4 bryumer – 1799 yil 18 bryumer) bir necha marta o’zgargan bo’lsa ham shahar va qishloq kambag’allarining ahvoli yaxshilanmadi. Direktoriyaning ichki va tashqi siyosati o’zgarib turardi. U bir vaqtlarda royalistlarga qarshi kurashish uchun Yakobinchilarga tayanar, ba’zan esa demokratlarga qarshi kurash olib borardi. Direktoriya davriga kelib Frantsiya tomonidan olib borilayotgan urushning xarakteri o’zgarib ketdi va bu urush boshqa davlatlar hududini bosib olish uchun olib borilayotgan bosqinchilik urushiga aylandi. Frantsuz qo’shinlari Italiyani bosib olib, bu erda TSizalpin va Liguriya respublikalarini o’rnatdilar. Rim papasi Rimdan ko’chirib yuborildi. Pemont Frantsiyaga qo’shib olindi. SHveytsariya o’rnida Gelvetiya respublikasi tashkil etildi. Bu vassal davlatlardan frantsuzlar qimmatbaxo moddiy boyliklarni tashib ketdilar.

Angliya Frantsiyaning asosiy dushmani bo'lib qolmoqda edi. Frantsiya unga zarba berish va uning mustamlaka qudratiga zarar etkazish uchun Hindistonga ekspeditsiya yuborishga qaror qildi va buni uchun dastlab Misrni egallashga qaror qildi. Ekspeditsiyaga Napoleon Bonapart rahbarlik qildi, u 1798 yil 20 iyunda piramidalar yaqinidagi mashhur jangda Misr armiyasini engdi. G'alabadan ruhlangan Napoleon o'z armiyasini Suriyaga olib o'tdi, lekin bu erda ichimlik suvining etishmasligi, kasallik frantsuz armiyasini og'ir ahvolga solib qo'ydi.

1 avgustda Nelson boshchiligidagi ingliz floti Abukir yonida frantsuz eskadrasini mag'lubiyatga uchratdi. Bu esa Angliya, Rossiya, Turkiya, Neopolitan qirolligi va Avstriyadan iborat antifrantsuz koalitsiyasining tashkil topishini tezlashtirdi. Yevropadagi urushlar boshlanib ketdi va 1799 yil bahorida frantsuzlar qo'shini Germaniyada mag'lubiyatga uchradi. Italiyada ham frantsuzlar mag'lubiyatga uchradilar.

Direktoriya siyosatidagi ziddiyatlilik va harbiy muvaffaqiyatsizliklar, tashqi dushman xavfi Frantsiyadagi boy qatlamlarni tashvishga solib qo'ydi. Royalistlarning isyonlari, shaharlarda va katta yo'llardagi bosqinchiliklar, mamlakatda huquq-tartibotning yo'qligi, aholining katta qismini, ayniqsa Parij aholisini inqilobiy chiqishlari hokimyatni qattiq qo'l kuchlarga topshirish zarurligiga ishonch hosil qilishiga olib keldi. Napoleon Bonapart tevaragidagi bir qancha yuqori martabali harbiylar mamlakatda harbiy diktatura o'rnatishga intilardilar. Napoleon Misrdagi armiya qo'mondonligini general Kleberga topshirib, 500 askar bilan Frantsiyaga qaytdi.

1799 yil 18 bryumerda (9 noyabr) Yakobinchilar isyoni to'g'risidagi mish-mishlar Qonunchilik korpusi binosiga etib keldi. Korpus majlisi shahar tashqarisidagi Sen-Klu saroyiga ko'chirildi va Napoleon shu erga etib keldi.

Napoleon Direktoriyaning 2 a'zosi – Siyes va Roje Dyuko bilan davlat to'ntarishini amalga oshirish haqida oldindin kelishib oldi. Bir necha bankirlar kerakli odamlarni sotib olish uchun Napoleonga katta miqdorda pul berdilar. Napoleon askarlari Majlislar binosini o'rab oldi. Napoleon zalga kirib Besh yuzlar Kengashidan Konstitutsiyani o'zgartirishni taklif etdi. Lekin deputatlar Napoleon Bonapartni «Yo'qolsin tiran» degan chaqiriqlar bilan qarshi olib, uni zaldan chiqib ketishini talab qildilar. SHunda majlisga raislik qilayotgan Napoleonning ukasi Lyusen Bonapart askarlar yoniga chiqib, Napoleon Bonapartni urishyapti deb aytadi. Askarlar zalga bostirib kirib, qisqa vaqt ichida norozilarni zaldan chiqarib tashlaydilar. Kengashning zalda qolgan bir qancha a'zolari hokimyatni Bonapart, Roje Dyuko va Siyesdan iborat 3 Konsulga berish haqida dekret qabul qildilar. Napoleon Bonapart birinchi Konsul bo'ldi, hokimyat birinchi Konsul qo'lida to'plandi.

Napoleon 18 bryumer to'ntarishidan keyin o'z hokimyatini huquqiy jihatdan rasmiylashtirib olishga shoshildi. YAngi Konstitutsiya qabul qilindi, bu masalada plebistsit politsiya nazorati ostida o'tkazildi. 3 milliondan ko'proq frantsuzlar yangi Konstitutsiyani yoqlab ovoz berdi, 1,5 ming kishi qarshi ovoz berdi. YAngi Konstitutsiya bo'yicha Frantsiya respublika bo'lib qoldi, lekin amalda barcha hokimyat birinchi Konsul qo'lida to'plangan edi. Qonunchilik hokimyati nomigagina

Davlat kengashi, Qonunchilik korpusi va Tribunat qo'lida bo'lib, ijroiya hokimyati 10 yilga konsullar qo'liga berilgan edi. Konstitutsiyaga binoan birinchi konsul armiya Bosh qo'mondoni hisoblanib, qonunchilik hokimyatining barcha a'zolarini tayinlardi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish tugatildi. Departamentlarga birinchi konsul tomonidan tayinlangan prefektlar rahbarlik qilardi. Ministrlar ham birinchi konsulga bo'ysunardilar.

Napoleon Bonapart o'ta g'ayratli shaxs edi. U talantli sarkarda, mohir tashkilotchi bo'lib, inqilobning asosiy yutuqlarini yo'q qilib tashlash mumkin emasligini tushunardi va sanoatchilar hamda boy dehqonlar uchun foydali bo'lgan barcha yutuqlarni saqlab qoldi. Napoleon inqilob yillarida boylik va erga ega bo'lganlarning qo'llab-quvvatlashiga tayanib, o'zining shaxsiy hokimyati diktaturasini o'rnatdi. Tangalarda uning rasmi zarb qilinardi. 1802 yilda Napoleonning tug'ilgan kuni milliy bayram deb e'lon qilindi. SHu yili o'tkazilgan plebistsitga binoan u o'z vorisini e'lon qilish huquqiga ega bo'lgan umrbod konsulga aylandi. Napoleon ko'pgina qirollar ega bo'lmagan huquqlarga ega edi.

Napoleon Yakobinchilardan farq qilgan holda cherkovning ahamiyatini tushunardi va uni yangi davlatning xizmatiga qo'yishni istardi. 1801 yilda Rim papasi bilan konkordat tuzilib, cherkovning davlatdan ajralishi bekor qilindi, diniy bayramlar qayta tiklandi. Rim papasi ham o'z navbatida inqilob davrida musodara qilingan cherkov yyerlariga bo'lgan da'vosidan voz kechdi, frantsuz davlatining ruhoniylar va episkoplar faoliyati ustidan o'rnatilgan nazoratini tan oldi. 1804 yil 18 mayda Bonapart Napoleon I nomi bilan imperator bo'ldi, uning hokimyati merosiy hokimyatga aylandi. 2 dekabrda unga tantanali ravishda toj kiygizildi.

1804, 1808 va 1811 yillarda odatda «Napoleon Kodekslari» deb ataluvchi Fuqarolik, Tijorat va Jinoyat kodekslari nashr qilindi. Kodekslar fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi va xususiy mulkni mustahkam himoya qilishi kerak edi. Bu albatta feodal-absolyutistik davlat qonunchiligiga nisbatan progressiv voqea bo'lib, Frantsiyada erkin raqobat va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun shart-sharoit yaratib berdi. Lekin Kodekslar jismoniy jazo berish, o'lim jazosini bekor qilmadi, xotin-qizlar avvalgidek haq-huquqsiz edilar. Le-SHapele qonuni amal qilishda davom etdi. SHu bilan birga kodekslarda vijdon erkinligi, hammaning qonun oldida tengligi, xususiy mulkning daxlsizligi va boshqalar belgilab qo'yildi.

Umuman olganda kodekslar Frantsiyaning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi. Qishloq xo'jaligi tez rivojlanib bordi. G'allaning hosildorligi oshdi, uzumchilik, ipakchilik rivojlanib, chorva mollari soni ko'paydi. Aholining 75 % foizini tashkil qilgan dehqonlar huquqiy jihatdan mustaqil bo'lib, ma'lum bir huquqlarga ega bo'lib, erga ega edilar va er sotib olishlari mumkin edi. Qishloq burjuaziyasining qatlami o'sib bordi.

Sanoatda, ayniqsa to'qimachilik, ipakchilik, metallurgiya va boshqa sohalarda texnik mukammallashtirish joriy qilinib, sanoat to'ntarishi boshlandi. XIX asrning birinchi o'n yilligida Frantsiya sanoati deyarli 50 % ga o'sdi. Manufakturalar va savdo bo'yicha bosh boshqarmalar (kengashlar) tashkil etildi. Moliya tizimi tartibga solinib, Frantsiya banki tashkil etildi. Bosib olingan mamlakatlardan kelayotgan pul va boyliklar, foydali tashqi savdo bitimi, protektsionistik siyosat Frantsiya

iqtisodiyotining rivojlanishiga ko’maklashdi. Iqtisodiyot bilan birga frantsuz burjuaziyasi ham o’sdi va mustahkamlandi.

Napoleonning tashqi siyosati burjuaziya manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borilmoqda edi. U Frantsiyani Yevropada iqtisodiy va siyosiy jihatdan gegemon bo’lish maqsadini ko’zlardi. Yevropa davlatlari tomonidan tuzilgan 7 ta koalitsiyaning dastlabki 5 tasi Yevropada birinchi bo’lib doimiy armiyaga aylangan frantsuz armiyasiga qarshi tura olmadi. Bu armiya boshqa mamlakatlardagiga o’xshab yollanma askarlardan emas, balki er olgan yoki er olish umidida bo’lgan shaxsan ozod dehqonlardan tashkil topgan edi. Uning tepasida malakali komandirlar turardi, Napoleonning o’zi esa mohir sarkarda va etuk davlat arbobi edi.

Napoleon Kodekslari Frantsiyaga qaram bo’lgan davlatlarda – Щveytsariyada, Varshava gertsogligi, Belgiya, bir qator italyan davlatlarida ham joriy qilingan edi. Muqaddas Rim imperiyasi tugatildi. Frantsiya tomonidan bosib olingan mamlakatlarda Napoleon Kodekslari feodal tartiblarni bekor qildi. SHuning uchun ham bu mamlakatlarda aholining katta qismi Napoleonga to’sqinlik qilmadi va hatto urushda unga yordam berdilar.

Lekin Napoleonning siyosati Angliya, Rossiya, Avstriya, Prussiyaning qattiq noroziligiga duch keldi. 1805 yil kuzida urush qaytadan boshlandi. 1805 yil oktabrda ingliz admirali Nelson frantsuz-ispan flotini tor-mor etdi, lekin 2 dekabrda frantsuzlar Austerlits yonida Avstriya va Rossiya qo’shinlari ustidan katta g’alabaga erishdilar. Avstriya sulh tuzishga majbur bo’ldi. 1806 yilda 2 ta jangda to’rtinchi koalitsiyaga kirgan Prussiya armiyasi tor-mor qilindi. Napoleon armiyasi Berlinga kirdi.

Napoleonga o’z oldida bitta asosiy dushman – Angliya qolgandek ko’rindi. Napoleon Angliyani iqtisodiy jihatdan tor-mor etish vazifasini qo’yib, shu maqsadda Yevropa bozorlarini Angliya uchun yopib qo’yishga qaror qildi. Qit’aviy qamal e’lon qilindi, ya’ni Frantsiyaga qaram barcha davlatlar va hududlar uchun Angliya bilan savdo va boshqa har qanday aloqalari olib borish taqiqlab qo’yildi. Lekin Angliya Frantsiyaga va uning ittifoqchilariga dengiz kontrabandasi bilan javob berdi. Angliya kemalari frantsuz va boshqa betaraf davlatlar savdo kemalarini bosib olardilar, frantsuz portlarini qamal qilib, har qanday to’siqlarga qaramay ingliz tovarlarini Yevropaga va hatto Frantsiyaga keltirar edilar. Qamal ko’pgina Yevropa mamlakatlariga og’ir ta’sir ko’rsatdi. Frantsiyaning o’zi ham bundan katta zarar ko’rdi, uning portlari yopilib qoldi. 1810 yilda ingliz tovarlari bilan cheklangan savdo qilishga ruxsat berildi.

Yevropa davlatlari, shu jumladan Rossiya ham qit’aviy qamaldan norozi edilar. U frantsuz-rus ziddiyatlarini yanada kuchaytirib yubordi. Prussiya mag’lubiyatga uchragandan keyin ham ruslar bilan frantsuzlar o’rtasidagi janglar davom etmoqda edi. 1807 yilda Sharqiy Prussiyada 2 ta katta jang bo’lib, frantsuzlar katta yo’qotishlar evaziga g’alabaga erishdilar. Ikki mamlakatning armiyasi ham holdan toygan edi, 2 taraf ham tinchlik istardi. Napoleon ham Rossiyasiz o’zining asosiy dushmani bo’lgan Angliyani enga olmasligiga ishondi.

1807 yil 7 iyulda Neman daryosida qurilgan plotda 2 imperatorning – Napoleon va Aleksanda I ning uchrashuvi bo’lib, unda sulh va ittifoq to’g’risida bitim tuzildi. Ular tomonidan imzolangan sulhga ko’ra Rossiya Napoleon tomonidan Yevropada o’rnatilgan hududiy va siyosiy o’zgarishlarni tan oldi va Angliyaga qarshi

unga ittifoqchi bo'ldi. Rossiya Frantsiyaning G'arbdagi gegemonligini tan oldi, o'z navbatida Napoleon Rossiyaning YAqin Sharq va SHvetsiyaga nisbatan bo'lgan talablarini qondirishda ko'maklashishga va'da berdi. Bundan tashqari Rossiya Angliyaga qarshi qit'aviy qamalga qo'shilishga rozi bo'ldi, bu Frantsiya uchun juda muhim edi.

Lekin bu sulh uzoq davom etmadi. Napoleonning Yevropa va jahon gegemonligiga da'vo qilishi Rossiya manfaatlariga to'g'ri kelmasdi. Tilzitdagi muzokaralar vaqtidayoq keskin ziddiyatlar borligi ma'lum bo'lib qoldi. Napoleon Prussiyani yo'q qilib tashlamoqchi edi, lekin Aleksandr I ning talabi bilan Prussiya mustaqil davlat sifatida saqlanib qoldi. Frantsiya bilan unga bo'ysungan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar ham keskinlashdi. Ispaniya va Portugaliya xalqlari ham Napoleonga qarshi kurashga ko'tarildi.

Napoleon 1810 yilda Rossiyaga bostirib kirishga tayyorlana boshladi. Rossiya qit'a qamalini buzib, rus portlariga betaraf kemalarning kirishiga ruxsat bergan edi. 1811 yilda Rossiya frantsuz tovarlariga yuqori bojxona tariflarini o'rnatdi. Bularning hammasi rus-frantsuz munosabatlarini yomonlashtirib yubordi.

Napoleon Avstriya va Prussiya bilan ittifoq tuzib, Rossiyani diplomatik jihatdan yakkalab qo'yishga intildi, lekin bunga erisha olmadi.

Napoleon Rossiya chegarasida yarim millionlik armiyani jangga tayyorladi. Uning saflarida vassal davlatlardan o'n minglagan askarlar ham bor edi. Rus armiyasidagi askarlar soni 200 mingdan sal ko'proq edi. 1812 yil 24 iyunga o'tar kechasi Napoleon armiyasi Neman daryosidan kechib o'tib, Rossiyaga bostirib kirdi. Deyarli hamma Napoleon armiyasining g'alabasiga ishonar edi.

Napoleon rus armiyalarini alohida-alohida o'rab olib, yanchib tashlamoqchi edi. Lekin rus armiyalari Smolensk yonida birlashib, og'ir janglar bilan Moskvaga chekina boshladilar. Rus xalqi Vatanni himoya qilishga otlandi. Moskva yaqinidagi Borodino qishlog'i yonida 7 sentabrda (eski hisob bilan 26 avgustda) o'sha davrning eng buyuk janglaridan biri bo'lib o'tdi. Jang oldidan ruslarda 120 ming kishi, frantsuzlarda 135 ming kishi bor edi. Borodino jangi frantsuz armiyasini holdan ketkazdi, ular 58,5 ming kishi yo'qotdilar, ruslar esa 41 ming kishi yo'qotdi. Ruslar Borodino jangidan keyin Moskvaga qarab chekina boshladilar. Rus armiyasi qo'mondonligi Moskvani jang qilmasdan dushmanga topshirishga qaror qildi.

14 sentabrda bosqinchilar armiyasi Moskvaga kirib keldi. Napoleon shahar darvozasi oldida o'ziga shahar kalitini olib kelishlarini va Aleksandr I ning sulh tuzish to'g'risidagi taklifini kutdi, lekin hech kim uni kutib olmadi. Moskva deyarli bo'shab qolgan edi. Napoleon bir necha marta rus imperatoriga sulh tuzishni taklif etdi, lekin undan hech qanday javob ololmadi. SHaharda yong'in boshlandi. Frantsuz askarlari Moskvada bir oydan sal ko'proq turdilar va bu erda doimo xavf-xatarga duch keldilar. 18 oktabrda Napoleon Moskvani tashlab chiqishga buyruq berdi.

Rus armiyasi frantsuzlarni urush tufayli vayron qilingan Smolensk yo'lidan chekinishga majbur qildilar, butun yo'l davomida frantsuzlar rus askarlarining, partizanlarning hujumlarini qaytarishga majbur bo'ldilar va katta yo'qotishlarga duchor bo'ldilar. 1812 yil dekabrida 20 mingga yaqin askar - Napoleonning «buyuk armiyasi»ning omon qolgan qoldiqi, Neman daryosidan qaytib o'tishga muvaffaq bo'ldi.

1813 yil bahorida Frantsiyaga qarshi Rossiya, Angliya, Portugaliya, Ispaniya, Prussiya, SHvetsiya va Avstriyadan iborat oltinchi koalitsiya tuzildi. Rossiyaga qarshi urush Napoleon armiyasining engilmasligi haqidagi afsonani yo'qqa chiqardi. Ittifoqchilarning Frantsiyani barcha egallagan hududlardan voz kechib, avvalgi chegarasiga qaytish asosida sulh tuzish haqidagi taklifini Napoleon rad etdi. Oltinchi koalitsiya a'zolari urushni Napoleon armiyasini batamom tor-mor etilguncha davom ettirish haqida bitim tuzdilar.

1813 yil 16-19 oktabrda Leyptsig yonida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi, unda yarim milliondan ortiq askar ishtirok etdi. Bu jang tarixga «Xalqlar jangi» nomi bilan kirdi. Frantsuz qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi va Reyn orqasiga chekinishga majbur bo'ldilar. 1814 yil boshida ittifoqchilar qo'shini Frantsiya hududiga kirib keldi. 1814 yil 31 martda Parij qo'lga kiritildi.

Parijda Taleyran boshchiligida Vaqtli hukumat tuzildi. 30 mayda sulh shartnomasi imzolandi. Frantsiya barcha bosib olgan hududlaridan mahrum bo'ldi va uning chegarasi 1792 yilgi hududlar bo'yicha o'rnatildi. Senat Napoleonni ag'darilgan deb e'lon qildi va qatl qilingan qirol Lyudovik XVI ning akasi graf de Lillni (graf Provanskiy) qirol Lyudovik XVIII deb e'lon qildi. Taxtdan voz kechgan Napoleon Elba oroliga surgun qilindi.

1814 yil sentabrda Venada Frantsiyaning kelgusi taqdirini hal qilish uchun kongress chaqirildi. G'olib davlatlar Yevropada XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yuz bergan siyosiy o'zgarishlarni yo'q qilishga intildilar. Vena kongressi xalqlarning milliy manfaatlarini hisobga olmagan holda Yevropa qit'asi xaritasini qayta tuzmoqda edi.

Elbada surgunda yurgan Napoleon Frantsiyadagi voqealardan, Vena kongressi ishtirokchilari o'rtasidagi kelishmovchiliklardan xabardor edi. U yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib, 1815 yil 1 martda o'ziga sodiq ming askar va bir guruh zobitlar bilan Frantsiyaning janubiga kelib tushdi va Parijga qarab yo'l oldi. Napoleon 3 haftadan keyin o'ziga qarshi yuborilgan askarlar bilan birgalikda Parijga kirib keldi.

Lyudovik XVIII va uning saroyi qochib ketdi. Napoleonning Frantsiyada osonlik bilan hokimyatni egallashining asosiy sababi keng xalq ommasining, eng avvalo dehqonlarning va armiyaning Burbonlarga bo'lgan nafrati edi.

Napoleon Parijdan Belgiyaga qarab o'zining so'nggi yurishini boshladi. 1815 yil 15 iyunda Vaterlooda (Bryussel yonida) ittifoqchilar armiyasi bilan Napoleon armiyasi o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Napoleon mag'lubiyatga uchradi va inglizlarga taslim bo'ldi. U Muqaddas Elena oroliga surgun qilindi va shu erda 1821 yil may oyida vafot etdi.

Frantsiyada Burbonlar ikkinchi marta restavratsiya qilingach mamlakatda Yakobinchilar terroridan qolishmaydigan oq terror avj oldi.

FRANTSIYADA IYUL MONARXIYASI.

Frantsiyada Burbonlar sulolasi ikkinchi marta qayta tiklangach, reaktsiya avj oldi. 1815 yil avgustda yangi deputatlar palatasi saylandi, bu ultraroyalistlardan tashkil topgan juda reaktsion palata edi. Qirolning o'zi ham bu palatadan norozi edi va yangi inqilobning oldini olish uchun 1816 yilda palata tarqatib yuborildi. Lekin

yangi saylangan palatada ham ko’pchilik o’rin konstitutsional-royalistlarga tegishli edi. Ular qirol hokimyatining himoyachilari edilar, shu bilan birga 1814 yil Xartiyasini rad qilib bo’lmasligini va inqilobdan oldingi tartibotga qaytish mumkin emasligini tushunardilar. Ular hokimyatda turgan 4 yil mobaynida burjuaziyaning huquqlari kengaydi.

1820 yil fevralda taxt vorisi gertsog Berriyskiy o’ldirildi, natijada bir qator reaktsion qonunlar qabul qilindi. 1821 yilda Monmoransi boshchiligidagi o’ta ultraroyalist kuchlar hukumatga keldi. Natijada qirolga, hukumatga qarshi bo’lgan tashkilotlar tuzila boshlandi.

1824 yilda Lyudovik XVIII vafot etgach uning ukasi 67 yoshli graf d Artua Karl X unvoni bilan taxtga o’tirdi. U har qanday hurfikrlilikga qarshi kurashuvchi mustabid shaxs edi. Hukumatni esa Klrl X ning erkatoyi, o’ta reaktsioner shaxs Polinyak boshqardi. Mamlakatda reaktsiya yanada kuchaydi. 1825 yilda muhojirlarga inqilob davrida tortib olingan mol-mulklari uchun 1 mlrd. frank pul mukofoti to’lash haqida qonun qabul qilindi. 1827 yilda Milliy gvardiyani tarqatib yuborish to’g’risida qonun qabul qilindi. CHerkov va dinga qarshi chiqqanlik uchun o’lim jazosi berish to’g’risida qonun chiqarildi. Bularning hammasi xalq ommasining noroziligini kuchaytirib yubordi. 1827 yildagi iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari xalq ommasini yanada og’ir ahvolga solib qo’ydi.

20-yillarning boshida Frantsiyada italyan karbonariylariga o’xshash yashirin tashkilotlar paydo bo’ldi. Bu tashkilotlar yaxshi uyushmagan bo’lib, aniq harakat dasturiga ega emas edilar. Frantsuz karbonariylari bir necha marta qo’zg’olon ko’tarishga urinib ko’rdilar, lekin ular natijasiz tugadi. Ko’pgina fitnalar fosh etilib, ularning rahbarlari qatl etildi. Lekin shunga qaramasdan mamlakatda norozilik kuchaydi, dehqonlarning g’alayonlari keng yoyila boshladi. Respublikachilar harakati ham o’sib bordi.

Ana shunday sharoitda Karl X reaktsion to’ntarish o’tkazishga qaror qildi. 1830 yil 15 iyulda qirol 4 ta ordonansga (farmon) imzo chekdi, unga binoan deputatlar palatasi tarqatib yuborildi, saylov huquqi o’zgartirildi, endilikda faqat yirik yer egalarigina saylovlarda ishtirok eta olardi, matbuot erkinligi bekor qilindi va gazeta nashr qilish uchun oldindan ruxsat olish tizimi joriy qilindi. Bu bilan absolyutistik tuzumni tiklashga harakat qilindi.

1830 yil 26 iyulda bu ordononslar matbuotda e’lon qilindi. Parijda qurolli qo’zg’olon boshlandi. Ko’chalarda barrikadalar qurildi. Ishchilar, talabalar qo’llariga qurol oldilar, ularga sobiq Milliy gvardiyachilarning bir qismi qo’shildi. Askarlarning bir qismi ham qo’zg’olonchilar tomoniga o’tdi. Hukumat qo’shini bilan to’qnashuvlar boshlandi. 29 iyulda qirol saroyi qo’zg’olonchilar qo’liga o’tdi. Karl X Angliyaga qochdi. «SHonli uch kun» ichida (1830 yil 27-29 iyul) inqilob g’alaba qozondi.

Deputatlar palatasi a’zolari Burbonlar sulolasini boshqa sulola bilan almashtirish kerakligi to’g’risidagi xulosaga keldilar. 1830 yil 9 avgustda gertsog Lui Filipp Orleanskiy Frantsiya qiroli deb e’lon qilindi. Iyul inqilobi dvoryanlar monarxiyasini burjuaziya monarxiyasi bilan almashtirdi. Mamlakatda Iyul monarxiyasi o’rnatildi (1830-1848).

Frantsiyada respublikachilar partiyasining zaifligi sababli hokimyatni yirik moliyachilar guruhi egallab, respublika o’rnatilishiga yo’l qo’ymadilar.

Avgustda «1814 yil Xartiyasi»ga qaraganda ancha liberal bo'lgan «1830 yil Xartiyasi» qabul qilindi. Unga binoan deputatlar palatasining huquqlari ancha kengaydi, perlar palatasi saylanadigan bo'ldi, mulkiy saylov tsenzi ancha pasaytirildi, katolik ruhoniylarning huquqlari ancha cheklandi, tsenzura vaqtincha bekor qilindi, Milliy gvardiya qayta tiklandi. Lekin politsiyachi-byurokratik davlat apparati va ishchilarga qarshi qo'llaniladigan qattiq jazolar o'zgarishsiz qoldirildi.

Burjuaziyaning dvoryanlar ustidan qozonilgan g'alabasi Iyul inqilobining asosiy yakuni bo'ldi. Lekin 1830 yildan 1848 yilgacha bo'lgan davrda burjuaziyaning hammasi emas, balki uning eng boy qatlami, ya'ni moliya aristokratiyasi deb ataluvchi guruhga kirgan bankirlar, birjalarning yirik ishbilarmonlari, «temir yo'l» qirollari, o'rmonlar, ko'mir konlarining egalari, yirik yer egalari hukmronlik qildilar. Moliya aristokratiyasi davlat apparatidagi eng yuqori mansablarni egallab oldi.

Frantsiya 30-40 yillarda iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha Yevropada Angliyadan keyin 2-o'rinda turardi. SHu davrda Frantsiyada sanoat inqilobi keng avj oldi. Ip-gazlama, jun va ipak matolar ishlab chiqarish, bezak buyumlari ishlab chiqarish ko'paydi. Og'ir sanoatda ham rivojlanish yuz berdi. 1825 yildan 1847 yilgacha bo'lgan davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 66 % ga o'sdi. YAngi tarmoqlar, eng avvalo kimyo sanoati rivojlandi, rezina, bo'yoqlar, gugurt ishlab chiqarish ko'paydi. 30-yillarda elektr telegraf qurila boshlandi, 1828 yilda Parijni gaz bilan yoritish yo'lga qo'yildi, bu erda 30-yillarda dunyoda birinchi bo'lib ko'chalarni asfaltlashtirish boshlandi.

Transportda ham inqilob amalga oshdi, dastlab bug' bilan yuruvchi kemalar (paroxod), 40-yillardan boshlab temir yo'llar qurila boshlandi.

Iyul monarxiyasi yillarida Frantsiya agrar mamlakat bo'lib qolmoqda edi. 35 mln. aholining 75 foizi qishloqlarda yashardi. Qishloq xo'jaligi kapitalistik yo'ldan rivojlanmoqda edi. Mamlakat Shimolida tovar g'allaning asosiy qismini etkazib beruvchi yirik kapitalistik fermer xo'jaliklari tashkil topdi. 1825-1847 yillar davomida qishloq xo'jaligi mahsuloti 38 % ga ko'paydi, lekin qishloq xo'jaligini texnik jihatdan rivojlantirish sekin bormoqda edi.

Frantsiyada sanoat rivojlanib borgani sari ishchilar sinfi ham shakllandi, lekin ishchilar sinfi tarkibi jihatidan bir xil bo'lmay, zavod-fabrika ishchilari, kapitalistik manufaktura ishchilari, hunarmand ishchilardan iborat edi. Iyul monarxiyasining so'nggi davriga kelib ishchilarning soni 5 mlndan oshib ketdi, ulardan 1,3 mln.i yirik korxonalarning ishchilari edi.

4. 1848 YIL INQILOBI. FRANTSIYADA 2 - RESPUBLIKA.

Frantsiyadagi Iyul monarxiyasi mehnatkash xalq ommasining turmush darajasini yaxshilash uchun hech qanday amaliy chora–tadbir ko'rmadi. Natijada xalqning ahvoli yaxshilanmadi. 1845-1847 yillardagi hosilsizlik va 1847 yildagi iqtisodiy inqiroz Yevropadagi boshqa mamlakatlar singari Frantsiyani ham qamrab oldi.

Iyul monarxiyasining ichki va tashqi siyosati unga qarshi bo'lgan muxolifatchi kuchlarning kuchayishiga olib keldi. Respublikachilar tarafdori bo'lgan kuchlar «Nasonal» va «Islohot» gazetalari atrofiga to'plangan edilar. 1847 yil yozida Frantsiyada oshkora tarzda siyosiy banketlar kampaniyasi boshlanib ketdi, u mamlakatda saylov tizimini isloh qilishga yordam berdi. Banketlarda qadah so'zi

sifatida siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishni talab qiluvchi ma’ruzalar aytila boshlandi.

1847 yil dekabr oxirida parlamentning qonunchilik sessiyasi ochildi. Unda liberal burjuaziya hukumatning ichki va tashqi siyosatini qattiq tanqid ostiga oldi, lekin ularning talablari rad etildi va saylov islohati tarafdorlarining 22 fevralga belgilangan navbatdagi banketi taqiqlab qo’yildi. 21 fevral kuni kechqurun muxolifatdagi deputatlar va jurnalistlar xalqni hokimyatga bo’ysunishga chaqirdi.

Lekin 22 fevral kuni minglagan parijliklar, eng avvalo talabalar va ishchilar ko’chalarga chiqdilar. Politsiya bilan to’qnashuvlar yuz berib, barrikadalar qurila boshlandi. Milliy gvardiya qismlari qo’zg’olonchilarga qarshi kurashishdan bosh tortdi, ba’zi joylarda ular qo’zg’olonchilar tomoniga o’tdilar. Voqealarning borishidan qo’rqib qolgan qirol Lui Filipp 13 avgustda Bosh vazir F. Gizoni ishdan olib, uning o’rniga graf Moleni tayinladi. Liberallar doiralari buni xursandchilik bilan kutib olib, qo’zg’olonni to’xtatishga tayyor edilar.

Lekin ishchilar monarxiyaga qarshi o’z kurashlarini to’xtatmadilar. 24 fevralda poytaxtning barcha muhim strategik punktlari qo’zg’olonchilar qo’liga o’tdi. Lui Filipp o’zining voyaga etmagan nabirasi graf Parijskiy foydasiga taxtdan voz kechib, oilasi bilan Angliyaga qochdi. Qo’zg’olonchilar Tyuilri saroyini qo’lga kiritib, qirol taxtini Bastiliya maydoniga olib chiqib, tantanali suratda yoqib yubordilar. Inqilob g’alaba qozonib, Vaqtli hukumat tuzildi.

Vaqtli hukumat o’z tarkibiga ko’ra koalitsion hukumat bo’lib, keksa Dyupon de l Er rais, Lamartin tashqi ishlar vaziri, Ledryu-Rollen ichki ishlar vaziri bo’ldi. Vaqtli hukumat respublika o’rnatilganligini e’lon qilishga shoshilmadi, shunda ishchilar delegatsiyasi hukumatdan tezda respublika e’lon qilinmasa qo’llariga qurol olib, kurashni davom ettirishlarini bildirdilar. Natijada Vaqtli hukumat 1848 yil 24 fevralda Frantsiyada respublika o’rnatilganligini e’lon qildi, bu Frantsiyadagi ikkinchi respublika edi. Bir necha kundan keyin 21 yoshga to’lgan erkaklar uchun umumiy saylov huquqini joriy qilish to’g’risida dekret chiqarildi. Lekin hukumat eski davlat mashinasini o’zgarishsiz qoldirdi, faqat eng reaktsion elementlar davlat apparatidan chetlashtirildi.

Respublikaning e’lon qilinishi Frantsiyada xalq ommasining siyosiy faolligini kuchaytirib yubordi. Demokratik matbuot rivojlandi, ko’p sonli inqilobiy klublar tashkil topdi, ishchilarning ommaviy chiqishlari ko’paydi. Ishchilarning mehnat qilish huquqini kafolatlash, barcha fuqarolarni ish bilan ta’minlash, ishchilar assotsiatsiyalarini tuzishga ruxsat berish to’g’risida qonunlar qabul qilindi.

Hukumat Parij ishchilari o’rtasidagi ommaviy ishsizlikga qarshi kurashish uchun Milliy ustaxonalar tashkil etdi. 1848 yil mayiga kelib shunday ustaxonalarga 100 mingdan ortiq ishchi ishga qabul qilindi. Ish vaqti 11 soatga keltirildi, non narxi pasaytirildi, Frantsiya mustamlakalarida qulchilik bekor qilindi.

23 aprelda Ta’sis majlisiga saylovlar bo’lib o’tdi. Majlisdagi 880 o’rindan 500 tasini burjua respublikachilari egalladi. Ta’sis majlisi 1848 yil 4 mayda o’z faoliyatini boshladi va Frantsiyada respublika boshqaruvi saqlanib qolishini e’lon qildi.

Ijroiya qo’mitasi 22 iyunda Milliy ustaxonalarda ishlayotgan 18 yoshdan 25 yoshgacha bo’lgan ishchilarni armiyaga olish, qolgan ishchilarni qishloqlarga borib botqoqliklarni quritishda ishtirok etishga, aks holda ishdan bo’shatish haqida buyruq

chiqardi. Bu vaqtda Milliy ustaxonalarda 117 mingdan ortiq ishchi ishlardi. Ishchilar bu ig'voga qo'zg'olon ko'tarish bilan javob berdilar.

23 iyunda Parij ko'chalarida barrikadalar qurish boshlandi. Ertasiga Ta'sis majlisi Parijni qamal holatida deb e'lon qildi va barcha hokimyatni general Kavenyakga berdi. SHaharga 150 ming askar tashlandi. Qo'zg'olonchilarga qarshi artilleriya qo'llandi. Qo'zg'olonchilar 4 kun qarshilik ko'rsatdilar, 26 iyunga kelib qo'zg'olon bostirildi. Ishchilarga qarshi qonli terror avj oldi. Turmalar to'lib ketdi, sud, tergovsiz otib tashlash amalga oshirildi.

Iyun qo'zg'oloni 1848 yil inqilobining burilish nuqtasi bo'ldi, shu vaqtdan boshlab inqilob pasaya bordi.

28 iyunda Kavenyak hukumat boshlig'i bo'ldi. Katta ko'lamda sud ishlari, qamoqqa olishlar, surgun qilishlar avj oldi. Ish kunini qisqartirish to'g'risidagi dekret bekor qilindi, Milliy ustaxonalar yopildi, inqilobiy klublar tarqatib yuborildi. 1848 yil 4 noyabrda Konstitutsiya e'lon qilinib, u mehnatkash ommaning huquq va manfaatlariga qarshi qaratilgan bo'lib, ishchilarga ish tashlash taqiqlab qo'yildi.

Konstitutsiyaga binoan umumxalq tomonidan 4 yilga saylanadigan prezident respublikani boshqarar va u katta vakolatlarga ega edi. Qonunchilik hokimyatini umumiy saylov huquqi asosida 3 yilga saylanadigan bir palatali Qonunchilik majlisi amalga oshirardi.

1848 yil Konstitutsiyasi xususiy mulkni daxlsiz deb e'lon qildi. Konstitutsiya eski ma'muriy tizimni, sud, armiya, munitsipalitetlar tashkilotlarini va boshqalarni o'zgarishsiz qoldirdi.

YAngi Konstitutsiyaga binoan 10 dekabrda prezident saylovlari bo'lib o'tdi va unda 6 ta nomzod qo'yildi. Ishchilar Raspayl uchun ovoz berdilar. Saylovlarda Napoleon Bonapartning qarindoshi Lui Napoleon eng ko'p (74 %) ovoz oldi. Bunda Napoleon I ning harbiy g'alabalari haqidagi xotira ham katta o'rin tutdi.

Lui Bonapart prezident bo'lgach monarxiyachi Odillon Barroni hukumat boshlig'i etib tayinladi. Respublikachilar davlat apparatidan haydaldi. Orleanchilar, legitimchilar va bonapartchilardan iborat monarxiyachi partiyalar bloki «Tartib-intizom partiyasi»ga birlashib, Ta'sis majlisini tarqatib yuborish va Qonunchilik majlisiga saylovlar o'tkazishga harakat qila boshladilar. 1849 yil 13 mayda Qonunchilik majlisiga saylovlar o'tkazilib, unda ko'pchilik o'rinni (500 ga yaqin) «Tartib-intizom partiyasi» qo'lga kiritdi.

28 mayda Qonunchilik majlisi o'z ishini boshladi. Hukumat va Qonunchilik majlisining ko'pchiligini tashkil etuvchi monarxiyachilar demokratik elementlarga qarshi kurashni kuchaytirdilar va tashqi siyosatda reaktsion yo'nalishni davom ettirdilar. Prezident Lui Bonapart Rim respublikasiga qarshi interventsiyani davom ettirib, u erga frantsuz ekspeditsiyasini yubordi. Majlisda so'l respublikachilar bunga qarshi chiqdilar. 11 iyunda ular Qonunchilik majlisida prezident va vazirlarni Konstitutsiyani buzganlikda ayblashib, (respublika qurolli kuchlaridan boshqa xalqlar erkinligiga hujum qilish uchun foydalanish), ularni sudga berilishini talab qildilar. Qonunchilik majlisi bu talabni rad etgach, so'l respublikachilar 1849 yil 13 iyunda qurolsiz tinch namoyish o'tkazdilar, lekin politsiya bu namoyishni qurol kuchi bilan tarqatib yubordi.

SHundan keyin Qonunchilik majlisidagi demokratik kuchlar vakillari bo'lgan deputatlarning mandatlari bekor qilindi, ularning ko'pchiligi sudga berildi. Majlisda «Tartib-intizom partiyasi»ning cheklanmagan diktaturasi o'rnatildi. Monarxiyachilar demokratik erkinliklarning qoldiqlarini yo'q qilishga kirishdilar: namoyishlar va yig'ilishlar erkinligi bekor qilindi, matbuot erkinligi yanada cheklandi, xalq ta'limi ustidan ruhoniylar nazorati o'rnatildi, saylov tsenzi kuchaytirildi.

Burjuaziya doiralarining parlament tizimidan xafsalalari pir bo'ldi, ular yangi inqilobiy larzalardan o'zlarini himoya qila oladigan kuchli hokimyat tuzishga intila boshladilar. Bonapartchilar «10 dekabr jamiyati»ni (Lui Bonapartning prezident qilib saylangan kuni) tuzib, sotib olishlar, yolg'on-yashiq va'dalar yordamida imperiya tarafdorlarini to'plab, davlat to'ntarishiga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Ular politsiya va armiyani o'z qo'llariga olib, eng muhim harbiy lavozimlarga o'z tarafdorlarini o'tkazdilar. Bonapartchi fitnachilar 1851 yil 2 dekabrda prezident boshchiligida davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Qonunchilik majlisi tarqatib yuborildi, bonapartchilikga qarshi bo'lgan siyosiy arboblar qamoqqa olindi, demokratik kayfiyatdagi ishchilar, ziyolilar va talaba yoshlarning qarshiligi kuch bilan bostirildi. 20 mingdan ortiq kishi qamoqlarga tashlandi. Barcha vazirliklar rahbarlari bonapartchilardan qo'yildi. Lui Bonapart to'ntarishning aksilinqilobiy mohiyatini yashirish va aholining demokratik doiralarini aldash maqsadida saylov huquqini cheklashga doir 1851 yil 31 maydagi qonunni bekor qilinganligini e'lon qildi.

Lekin Lui Bonapartga va «10 dekabr» partiyasiga o'z hokimyatini qonuniy asosda mustahkamlash zarur edi. SHu maqsadda 1851 yil 21 dekabrda armiya va politsiya nazorati ostida plebistsit o'tkazildi. Unda 7 mln.dan ortiq kishi prezidentning hatti-harakatini qo'llab-quvvatlab, uni hokimyatda qolishi uchun ovoz berdi, 646 ming kishi qarshi ovoz berdi. SHu tariqa demokratik erkinliklarning qoldiqlari ham yo'q qilindi. Natijada Frantsiyada imperiya sari yo'l ochib berildi.

FRANTSIYADA IKKINCHI IMPERIYANING O'RNATILISHI VA UNING FAOLIYATI.

1851 yil dekabrdagi davlat to'ntarishi Lui Bonapartga hokimyatni to'la qo'lga olish uchun yo'l ochib berdi. 1852 yil 2 dekabrda (Napoleon 1 ning toj kiygan kuni) Lui Bonapart imperator Napoleon III deb e'lon qilindi (Bonapartchilar Napoleon 1 va Mariya Luizaning hech vaqt hukmronlik qilmagan 21 yoshda vafot etgan o'g'li gertsog Reyxshtadtskiyni Napoleon II deb hisoblardilar). Frantsiyada ikkinchi respublika tugatildi. Napoleon III Sen-Kludagi prezident saroyidan o'z amaldorlari bilan Parijdagi frantsuz qirollarining qarorgohi bo'lgan Tyuilri saroyiga ko'chib o'tdi. YAngi imperator sanoatchilar doiralariga tayanardi, dehqonlar ommasining ko'pchiligi uni qo'llab-quvvatlardi. Napoleon III frantsuz jamiyatining turli sinf va guruhlari o'rtasida ustamonlik bilan ish yuritishga harakat qildi va shuning uchun Ikkinchi imperiya tinchlik imperiyasi bo'ladi deb va'da berdi. Lekin Ikkinchi imperiya mavjud bo'lgan butun 18 yil urushlarda o'tdi.

Frantsiyadagi davlat boshqaruvi imperator hokimyatini kuchaytirishga va vakillik organlari ahamiyatini yo'qqa chiqarishga qaratilgan edi. Vakillik organlari uch palatadan – qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lmagan qonunchilik

korpusidan, imperator tomonidan tayinlanadigan amaldorlar va oliy ruhoniylardan iborat senatdan va imperator tomonidan taklif etilgan qonun loyihalari ustida ishlovchi Davlat kengashidan iborat edi. Matbuot politsiya ixtiyoriga berilgan bo'lib, 1853 yildan boshlab ichki ishlar vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi. Juda qattiq tsenzura o'rnatilgan bo'lib, har qanday kichik xatolar uchun ham gazetalar yopib qo'yilardi. Xalq maorifi katolik cherkov nazorati ostida edi. Turmalar mahbuslarga to'lib ketgan edi. Hatto eng mo''tadil respublikachilar ham chet ellarga muhojirlikga ketishga majbur bo'lgan edilar. Bularning hammasi bonapartchilar tartiboti dushmanlarini maxfiy fitnalar uyushtirishga, terrorchilikga undardi. Napoleon III ga nisbatan bir necha marta suiqasd uyushtirildi.

XIX asrning 50-60-yillarida Frantsiyada sanoat inqilobi o'z yakuniga etdi, kapitalizm tez rivojlanib bordi. Xo'jalikning asosiy tarmoqlarining barchasida mashinalar ishlab chiqarishda keng qo'llanila boshlandi. YUqoridagi davr ichida ishlab chiqarish hajmi 3 baravar o'sdi. Sanoatda ishlab chiqarish va sarmoyaning kontsentratsiyalashish jarayoni ro'y berdi, yirik banklar tashkil topdi. Parij birjasi jahon ahamiyatiga ega bo'ldi. Temir yo'llar qurildi. Hukumat Parijda juda katta rekonstruktsiya ishlarini olib bordi.

Tashqi siyosat.

Frantsiya 50-yillarda Qrim urushida (1853-1856) ishtirok etdi. Urush mamlakatdan juda katta qurbonlarni va moddiy boyliklarni olib ketdi va amalda hech qanday foyda olib kelmadi.

1856-1857 yillarda Frantsiya Rossiya bilan yaqinlasha boshladi. Frantsiya bu bilan Angliyaga qarshi turuvchi ittifoqchiga ega bo'lishni ko'zlagan edi, chunki bu vaqtga kelib Yevropada va mustamlakalarda Angliya bilan Frantsiya o'rtasidagi raqobat keskinlasha boshlagan edi.

Qrim urushidan keyin Napoleon III Italiya ishlariga aralasha boshladi va Italiyaning birlashishiga yordam berishga va'da berdi, buning uchun u "Karbonariy" laqabini ham olgan edi. Frantsuz-italyan qo'shinlari 1859 yil yozida Avstriya armiyasi ustidan bir necha marta g'alaba qozondilar. Lekin keyinchalik Napoleon III Italiyaga xiyonat qilib, Avstriya bilan sulh tuzdi va frantsuz korpusini papani va Papa viloyatini himoya qilish uchun Rimga yubordi. Napoleon III ning bu hatti-harakati hatto Frantsiyada ham katta norozilikni keltirib chiqardi.

Frantsiya Ikkinchi imperiya davrida Uzoq Sharqda faol mustamlakachilik siyosatini olib bordi. 1857-1858 yillardagi va 1869 yildagi Xitoyga qarshi olib borilgan bosqinchilik urushlari natijasida unga teng huquqli bo'lmagan bitimlar qabul qildirildi. Frantsiya Vetnamning bir qismini mustamlakaga aylantirdi. 1863 yilda Kamboja ustidan frantsuz protektorati o'rnatildi.

Napoleon III ning Meksikaga qarshi uyushtirgan ig'vogarligi ham barbod bo'ldi. Meksikada 60-yillarda Ispaniyaga qarshi milliy-ozodlik harakati kuchaydi. 1862 yilda Ispaniya Meksika ustidan o'z hukmronligini yo'qotdi. Bundan foydalangan Napoleon III Meksikaga o'z qarindoshi Avstriya ertsgertsogi Maksimilian boshchiligida frantsuz korpusini yubordi. Bosqinchilar kuchi bilan taxtga o'tirgan Maksimilian faqat frantsuz askarlari kuchi bilan o'z hokimyatini saqlab turardi. AQSH hukumatining qat'iy talabi ostida 1867 yilda Napoleon III Meksikadan o'z qo'shinlarini chaqirib oldi. "Imperator" Maksimilian meksikalik

respublikachilar tomonidan ag’darildi va otib tashlandi. Meksika ekspeditsiyasi Frantsiyaga juda qimmatga tushdi, u mamlakatda norozilikni kuchaytirib, Ikkinchi imperiya obro’siga katta zarba berdi.

Frantsiya tashqi siyosatidagi muvaffaqiyatsizliklar bu bilan tugamadi. 60-yillarning ikkinchi yarmida Frantsiya xalqaro munosabatlarda deyarli yakkalanib qoldi. Frantsiyaning 1863 yildagi polyak qo’zg’olonini diplomatik tomondan qo’llab-quvvatlashga bo’lgan urinishi chor Rossiyasini unga qarshi qilib qo’ydi. 1867 yildan keyin Frantsiyaning Prussiya bilan munosabatlari keskin yomonlashdi, chunki Germaniyani birlashtirishning yakuniga yaqinlashib borishi Frantsiya hukmron doiralarini tashvishga solmoqda edi. Napoleon III ning mustamlakalar borasidagi ig’vogorona harakatlari Angliya bilan bo’lgan munosabatlarni yomonlashtirmoqda edi. Bunga Angliyaning qarshiligiga qaramasdan frantsuzlar tomonidan qurilib, 1869 yilda ishga tushirilgan Suvaysh kanali ham sabab bo’lgan edi. Napoleon III ning Italiyani birlashtirishga to’sqinlik qilishi Italiyada keng xalq ommasining Frantsiyadan uzoqlashishiga olib keldi. SHunday qilib, 60-yillar oxiriga kelib Frantsiyaning Yevropadagi bir qator davlatlar bilan munosabatlari yomonlashgan edi.

Imperiya ichki inqirozining keskinlashishi.

1866 yilda Frantsiyada yangi iqtisodiy inqiroz boshlandi. U ichki siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishi, ishchilar harakati va demokratik harakatlarning kuchayishi bilan birga bordi. Mayda va o’rta burjuaziyaning keng qatlamlari bonapartchilar tartibotidan o’z noroziliklarini yashirmas edilar. Ziyolilarning ilg’or qismi hukmatga faol qarshi chiqardilar. Hatto yirik burjuaziyaning bir qismi hukumatni qo’llab-quvvatlashdan bosh tortmoqda edi.

60 yillarda demokratik matbuot ham ancha ta’sir kuchiga ega bo’la bordi. 1868-1869 yillarda Ikkinchi imperiyaning ichki va tashqi siyosatini keskin tanqid qilib chiqqan so’l respublikachilar gazetalari paydo bo’ldi (“Marseleza” gazetasi, “Fonar” jurnali va b).

Bu davrga kelib ishchilar harakati kuchaydi, ish tashlashlar tez-tez sodir bo’ladigan bo’ldi. Hukumat 1791 yildan beri amalda bo’lgan Le SHapele qonunini bekor qilishga majbur bo’ldi. 1870 yil aprelda Internatsionalning Frantsuz federatsiyasi sektsiyasi tashkil topdi.

1870 yil mayida navbatdagi plebistsit o’tkazildi, u politsiya nazorati ostida o’tkazilsada, frantsuzlarning uchdan bir qismi hukumatga qarshi ovoz berdi. Ikkinchi imperiya hukumatining ichki va tashqi siyosati deyarli halokatga uchragan edi. Napoleon III va hukmron doiralarning fikricha bunday vaziyatdan faqat g’olibona urush olib borish orqali chiqib ketish mumkin edi. Bu urush 1870 yil 19 iyulda boshlandi.

FRANTSIYA – PRUSSIYA URUSHI (1870-1871 gg).

Yevropa tarixida Frantsiya bilan Germaniya o’rtasidagi urush muhim voqea hisoblanada. Odatda bu urush Yangi tarixning ikkinchi davrining boshlanishi hisoblanadi.

Bu urush Germaniya bilan Frantsiya o'rtasidagi chuqur ziddiyatlardan kelib chiqqan edi. Shimoliy Germaniya ittifoqiga birlashgan ko'pgina nemis davlatlari birlashishga intilardilar. Faqat 4 ta nemis davlati – Baden, Bavariya, Vyurtemberg va Gessen-Darmshtadt Frantsiya bilan iqtisodiy va diniy (katolik) jihatdan bog'langan bo'lib, ular Frantsiya tomonga intilar edilar.

Prussiya Frantsiyaning Yevropadagi ta'sirini susaytirishga harakat qilardi. Frantsiya esa o'zining Yevropadagi ustunligini saqlab qolishga intilar, Germaniyaning birlashishiga halaqit berib, Prussiyaning kuchayib ketishini istamas edi. Shimoliy Germaniya ittifoqining tuzilishiga halaqit qila olmagan Frantsiyaning hukmron doiralari uning kengayishi va mustahkamlanishiga qarshi edilar.

Shimoliy Germaniya ittifoqi hukmron doiralari Frantsiya ustidan g'alaba qozonmaguncha nemis davlatlarini uzil-kesil birlashtirib bo'lmasligiga ishonch hosil qildilar va Frantsiyaga qarshi urush boshlashga qaror qildilar.

Germaniyani uzil-kesil birlashtirish va Frantsiyaga qarshi urush boshlashga aholining barcha qatlamlari rozi edi. Reyxstagda askarlar sonini ko'paytirish va harbiy xarajatlarni oshirish to'g'risida qonun qabul qilindi. Urushni boshlash uchun bahona yetishmas edi. Tez orada ana shunday bahona topildi.

Ispaniya qiroli vafot etgach, uning vorisi yo'q edi. Natijada prusslarning Gogentsollernlar sulolasidan bo'lgan shahzoda Leopoldning nomzodi ko'rsatildi. Lekin tez orada Leopold o'z nomzodini qaytarib olgan bo'lishiga qaramay, Napoleon III pruss qiroliga xat bilan murojaat qilib, undan Gogentsollernlardan hech kim ispan taxtini egallamasligi xaqida va'da berishini talab qildi. Lekin Prussiya qiroli bunday va'da berishdan bosh tortdi.

Mamlakat ichida o'z ta'sir kuchini va obro'sini yo'qotib borayotgan Frantsiya qiroli Napoleon III Prussiyaga qarshi urush olib borish va g'alabaga erishish orqali o'z mavqeini yaxshilab olishga harakat qilmoqda edi. U bu voqeadan urush boshlash uchun foydalanishga qaror qildi. Natijada urush muqarrar bo'lib qoldi.

1870 yil 19 iyulda Frantsiya Prussiyaga urush e'lon qildi. Frantsiya urushga oldindan tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa ham amalda u urushga tayyor emas edi. Urush olib borish rejasi ishlab chiqilmagan, ko'pgina harbiy istehkomlar xali qurib bitkazilmagan, yo'llar remont qilinmagan, safarbarlik yaxshi tashkil qilinmagan, o'q-dori va oziq-ovqat o'z vaqtida etkazib berilmasdi. Gospitallar, vrachlar, dori-darmon etishmasdi. Hatto sharqiy chegaralarning xaritasi ham yo'q edi.

Prussiya armiyasi esa yaxshi tayyorlangan bo'lib, frantsuzlar armiyasidan 2 marta ko'p edi. Ular tashkiliy va harbiy jihatdan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, mamlakatni birlashtirish g'oyasidan ruhlangan edilar. Germaniya temir yo'llari to'xtovsiz ishlab turar va harbiy omborlar zahiralarga to'la edi.

4 avgustda birinchi yirik jang bo'ldi. Frantsuzlar katta talofat berib, chekinishga majbur bo'ldilar. 1 sentabr kuni frantsuzlarning marshal Mak-Magon boshchiligidagi 90 ming kishilik armiyasi Sedan yaqinida nemislar tomonidan o'rab olindi va artilleriyadan o'qqa tutildi. Frantsuz askarlarining o'q-dorisi tugab, vaziyat yanada og'irlashdi. 12 soatlik jangdan keyin imperator Napoleon III ning buyrug'i bilan frantsuz armiyasi taslim bo'ldi.

Sedandagi mag'lubiyat Parijga etib kelgach, bu erda g'alayonlar boshlanib ketdi. Qonunchilik korpusi binosida respublikachilar va monarxiyachi-orleanchilar to'plandilar. (Monarxiyachilarning 3 guruhi bor edi – 1.Legitimchilar- Burbonlar tarafdorlari. 2. Orleanchilar – Orlean sulolasi tarafdorlari. 3. Bonapartchilar.).

Qonunchilik korpusi binosiga Parij aholisi bostirib kirdi va 1870 yil 4 sentabrda Frantsiya respublika deb e'lon qilindi, bu Frantsiya tarixidagi Uchinchi respublika edi. Ikkinchi monarxiya ag'darildi. General Troshyu boshchiligida hukumat tuzildi. Mamlakatni himoya qilish uchun harakat kuchaydi. 220 ming kishidan iborat Yangi qo'shin tuzildi. Lekin Frantsiyaning strategik ahvoli juda og'ir edi. Frantsuz armiyasining qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, nemis qo'shinlari birin-ketin Frantsiya shaharlarini bosib ola boshladilar. Sentabrda Parij o'rab olindi.

1871 yil 18 yanvarda Versalda urush g'oliblari – nemis davlatlarining qirollari, gertsoglari, barcha nemis davlatlarining hukumat a'zolari to'plandilar. Vilgelm I Gogentsollern tantanali suratda Germaniya imperatori deb e'lon qilindi. Germaniya imperiyasi tashkil topdi, Germaniyani birlashtirish yakunlandi.

1871 yil 28 yanvarda Germaniya bilan Frantsiya o'rtasida dastlabki sulh tuzildi. Sulhni ratifikatsiya qilish uchun Frantsiyada Milliy majlisga saylovlar bo'lib o'tdi. Milliy majlis dastlabki sulh shartlarini tasdiqladi. Frantsiya o'zining eng muhim 2 provintsiyasidan – Elzas va Lotaringiyadan mahrum bo'ldi, 3 yil davomida 5 milliard frank kontributsiya to'lash majburiyatini oldi.

Hukumat Germaniya bilan sulh tuzgach mamlakat ichidagi inqilobiy harakatni bostirish yo'liga o'tdi. Parij aholisining qurolli kuchi hisoblangan Milliy gvardiyani qurolsizlantirish haqida buyruq berildi. 18 mart tunida hukumat qo'shinlari Milliy gvardiyaning to'plarini tortib olishga harakat qildilar. Bunga javoban milliy gvardiyachilar, Parij aholisi g'alayon ko'tardilar. Askarlar ularga qarshi o'q otishdan bosh tortdilar. Bu voqea hukumatga qarshi umumxalq chiqishi uchun signal bo'ldi. Parijda inqilob boshlandi.

Parijdagi 1871 yil 18 martdagi inqilob o'z xarakteriga ko'ra proletar inqilobi edi. Bu inqilobning harakatlantiruvchi kuchi parijlik ishchilar sinfi edi, ularga mayda burjuaziya ham qo'shildi. Inqilob Parijda burjuaziya hukmronligini ag'darib tashlab, hokimyatga ishchilar sinfi vakillarini olib keldi.

Inqilobga Milliy gvardiya Markaziy Qo'mitasi rahbarlik qildi. MQ o'zini hukumat deb hisoblamas edi. U saylovlar orqali saylanadigan Kommuna Yangi inqilobiy hukumat bo'lishi kerak deb hisoblardi.

26 martda umumxalq saylovlari asosida Kommuna Kengashi saylandi va u proletariat hokimyatiga aylandi.

Kommuna cherkovni davlatdan ajratilganini e'lon qildi, maktablarga dunyoviy xarakter berildi, madaniyat sohasida bir qator demokratik tadbirlar amalga oshirildi.

Kommuna dekretlari bilan bir qator korxonalar milliylashtirildi, ba'zi korxonalar ustidan ishchi nazorati o'rnatildi. O'zboshimchalik bilan ishchilarsha jarima solish, ish haqidan ushlab qolish taqiqlandi, 10 soatlik ish kuni joriy qilindi, ishsizlarni ishga joylashtirish byurosi tashkil etildi.

Lekin Parij Kommunasi o’z faoliyatida bir qator xatolarga yo’l qo’ydi. Eng avvalo u burjuaziya armiyasini qurolsizlantirmadi. Burjuaziyaga tegishli bo’lgan mol-mulklarni, banklarni milliylashtirmadi.

1871 yil 2 apreldan boshlab Versal armiyasi hujumga o’tdi. 21 mayda ular Parijga kirib keldilar. Kommunarlar bir hafta davomida har bir uy, har bir ko’chani jon-jahdlari bilan himoya qildilar, bu hafta tarixga «qonli may haftasi» nomi bilan kirdi. 28 mayda Kommunarlarning so’nggi barrikadasi quladi, 29 mayda Vensen forti versalchilar qo’liga o’tdi.

Versalchilar kommunarlardan shafqatsizlarcha o’ch oldilar, 30 mingdan ortiq odam o’ldirildi, 50 ming odam qamoqqa olindi, ulardan 14 mingi katorgalarga yuborildi, turmalarga tashlandi.

1871 yil 10 mayda Frankfurt-Maynda Germaniya bilan Frantsiya o’rtasida yakuniy sulh bitimi imzolandi. Frantsiya 5 mlrd. frank tovon to’lashi, Elzasni va Lotaringiyaning shimoli-sharqiy qismini Germaniyaga berishi kerak edi.

Ko’mir va temir rudalariga boy Elzas va Lotaringiyaning qo’ldan ketishi Frantsiyaning 1-jahon urushigacha bo’lgan taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Frantsiyaning sharqiy chegarasi himoyasiz qoldi, chunki uning 28 qal’asi Germaniyaga o’tgan edi.

Frantsiya-Germaniya urushi natijasida Germaniyaning birlashishi yakunlandi, Germaniya imperiyasi tashkil topdi. Frantsiyada 2-imperiya quladi va Uchinchi respublika tashkil topdi. Urush Italiyaning birlashishiga ham ta’sir ko’rsatdi, Rim papasini himoya qilib turgan frantsuz korpusi chaqirib olindi va Italiyani birlashtirish oxiriga etkazildi. Frantsiyaning xalqaro mavqei pasaydi. Frankfurt sulhi Yevropadagi kuchlarning Yangi nisbatini yuzaga keltirdi va ziddiyatlarning kuchayishiga omil bo’ldi.

2. Frantsiya 70-yillar boshida sanoat ishlab chiqarishi bo’yicha dunyoda Angliyadan keyin ikkinchi o’rinda turar edi. X1X asr oxiriga borib Frantsiya 4-5-o’ringa, sanoatning ba’zi sohalari bo’yicha hatto 6-7-o’rinlarga tushib qoldi.

1871 yildagi sulh shartnomasi bo’yicha Frantsiya Germaniyaga to’qimachilik va og’ir sanoat rivojlangan, temir va ko’mir rudalari zahiralariga ega bo’lgan, 1,5 mln. aholi yashaydigan 145 ming kv.km.ga teng Elzas va Lotaringiyani berishga majbur bo’ldi. Frantsiya urushda 150 ming kishi yo’qotdi, urushdan ko’rilgan zarar 16 mlrd. frankga teng bo’ldi, bundan tashqari Germaniyaga 5 mlrd. frank tovon to’lash kerak edi. Frantsiya sanoatiga xom ashyo etishmasligi sababli chet ellardan sotib olishga majbur bo’lardi.

Lekin shunga qaramasdan Frantsiyada, ayniqsa uning Shimoliy departamentlarida sanoat o’sishi yuz berdi. Mamlakatda temir yo’llar qurilishi kuchaydi, bu esa metallurgiya va tog’-kon sanoatining rivojlanishiga turtki berdi.

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash kuchaydi. 1852 yildan 1900 yilgacha bug’ dvigatelli korxonalar soni 9 marta ko’paydi, bug’ dvigatellarining soni esa 12 marta ko’paydi.

70-yillarda Frantsiyada bir qator kontsernlar tashkil topdi. 1872 yilda 16 ming ishchiga ega bo’lgan 30 ta ximiya zavodini birlashtirgan «Sen-Goben» monopolistik

birlashmasi tashkil topdi. 1876 yilda 4 kompaniyani birlashtirgan Metallurgiya sindikati tashkil etildi.
Angliya, Germaniya va AQSHdan farq qilgan holda, Frantsiya agrar-industrial mamlakat bo'lib qolmoqda edi. Og'ir sanoatning rivojlanishiga qaramay, 80-90 yillarda mamlakat iqtisodiyotida engil sanoat etakchi o'rinni egallardi.
X1X asrning so'ngi choragida frantsuz industriyasi og'ir inqirozni boshdan kechirdi. Inqirozlar va depressiyalar davri deyarli 20 yilcha davom etdi.
Frantsiya iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi katta rol o'ynardi. Qishloq aholisi 1876 yilda mamlakat aholisining 57,6 % ini, 1896 yilda 60,9 % ini tashkil etardi.
X1X asr 2-yarmida qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar kuchaydi. Bu esa mayda dehqonlarning ersizlanishiga, dehqonlarning tabaqalanishiga olib keldi. Quloq va yirik kapitalistik xo'jaliklarda ishlov beriladigan er maydonlari ko'payib bordi. 1892 yilda 4 853 000 mayda xo'jalikda 12 568 4000 gektar ishlov beriladigan er bo'lgan bo'lsa, 815 700 yirik xo'jalikda 36 803 800 gektar er bor edi.
Mayda yer egalari juda katta qiyinchilik va mehnat evaziga yerlarini o'z qo'llarida ushlab turardilar. Ular banklar va sudxo'rlardan qarzdor bo'lib qolardilar. 1840 yilda ularning ipoteka qarzlari 11,29 mlrd. frankga teng bo'lgan bo'lsa, X1X asr oxiriga kelib bu qarz 25 mlrd. frankga etdi.
Yevropada X1X asr oxirida ro'y bergan va deyarli 20 yilga cho'zilgan agrar inqiroz Frantsiya qishloq xo'jaligiga, ayniqsa donchilik va vinochilikga juda katta zarar etkazdi.
Yevropa bozorlariga AQSH, Argentina va Kanadadan arzon g'allaning keltirilishi uning bahosini tushirib yubordi. Frantsiya Yevropa g'alla bozoridan siqib chiqarildi.
Italiyadan arzon vinolarning keltirilishi Frantsiya bozorlarida mayda vinochilarning kasod kasod bo'lishiga olib keldi.
Qishloqning kapitalistik qatlamlari bozorning Yangi sharoitlariga moslasha oldilar. Ular batraklar va mayda dehqonlarni asoratga solishni kuchaytirish, Yangi texnika va o'g'itlarni qo'llash, sabzavotchilikni rivojlantirish orqali inqirozni bartaraf eta oldilar. Mayda dehqonlar o'zlarining kichik er maydonlarida Yangi texnikani va ilg'or agrotexnika usullarini qo'llay olmas edilar. Frantsiyada bug'doy va boshqa donli ekinlar hosildorligi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha past edi. Qishloq xo'jaligi mamlakat sanoatini xom ashyo bilan to'liq ta'minlay olmas edi.
Mayda dehqonlar kambag'alliklari sababli sanoat tovarlarini sotib ololmas edilar, bu esa ichki bozorning rivojlanmay qolishiga va sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.
Turmush darajasining pastligi Frantsiyada aholining o'sishiga ham ta'sir ko'rsatdi. 1872-1901 yillar davomida Frantsiya aholisi 2 859 ming kishiga ko'paydi, shu davr ichida Germaniya aholisi esa 15 mln. kishiga ko'paygan edi.
Frantsiya sanoat taraqqiyoti darajasi bo'yicha boshqa mamlakatlardan orqada qolayotgan bo'lsa ham, sarmoyalarning kontsentratsiyalashishi darajasi bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turardi. Mamlakat moliya rezervlarining 75 % i 3 ta yirik bankga – «Lion krediti», «Milliy hisob kontorasi» va «Bosh jamiyat»ga tegishli edi. Tadbirkorlar yuqori foyda olishni ko'zlab sarmoyalarini chet ellarga chiqarar edilar.

70-80-yillarda frantsuz sarmoyalari Bolqon mamlakatlariga, Turkiya, Ispaniya, Lotin Amerikasiga chiqarilar edi. Rossiyaga mablag' chiqarish ko'payib bordi. 1900 yilda Rossiyaga 7 mlrd. frank miqdorida zayom berildi.
1869 yildan 1890 yilgacha Frantsiyaning chet ellarga chiqargan mablag'i 10 mlrd. frankdan 20 mlrd. frankga etdi. Frantsiya chetga sarmoya chiqarish bo'yicha dunyoda Angliyadan keyin 2-o'rinda turar edi.
Frantsiyada XX asr boshlarida industrlashtirish jarayoni davom etdi. Mamlakatda cho'yan eritish 1900 yildagi 2,7 mln t.dan 1913 yilda 5,2 mln. t.ga , po'lat quyish 1900 yildagi 1,9 mln.t.dan 1913 yilda 3,6 mln.t.ga etdi. Lekin sanoatning rivojlanishi Frantsiyada Germaniya,AQSH, Angliyadagiga nisbatan sekin bormoqda edi. 1913 yilda cho'yan eritish Frantsiyada Germaniyadan 3 marta, AQSHdagidan 6 marta kam edi.
1914 yilga kelib Frantsiyaning chet ellarga chikargan sarmoyalari 60 mlrd. frankni tashkil etardi. Frantsiyaning ssuda sarmoyasi asosan Yevropada : Rossiyada (10 mlrd. frankga yaqin), Bolqon mamlakatlari va Turkiyada joylashtirilgan edi
XX asr boshlarida Frantsiya iqtisodiyotida moliya oligarxiyasi hukmronlik qilardi. Uning tepasida mamlakat siyosiy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatuvchi «200 oila» turardi (de Vandeli, SHneyder, Malle va b.).
Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi va kontsentratsiyalashuvi ishchilar sinfi saflarining o'sishiga olib keldi, 1906 yilda Frantsiyada 3,5 mln. sanoat ishchisi bor edi.
Frantsiyada sanoatlashtirish jarayoni borishiga qaramasdan u agrar-industrial mamlakat sifatida qolmoqda edi. 1911 yilda Frantsiyaning qishloq rayonlarida 56 % aholi yashab, aholining 40 % i Kishloq xo'jaligida ishlardi. Sanoatda aholining 35,8 % i band edi. Frantsuz dehqonining ahvoli og'ir bo'lib, u er kamligidan va qarzlarining ko'pligidan aziyat chekardi.

3. Respublika uchun kurash. 1875 yil Konstitutsiyasi.

Siyosiy vaziyat ham juda murakkab edi. Parij kommunasi ag'darilgach, reaktsion kuchlar monarxiyani tiklashga intilardilar. Respublikani saqlab qolish uchun kurash Frantsiyada 70-yillarda siyosiy xayotning asosiy masalasiga aylandi. Monarxiyachi guruhlar – orleanchilar, legitimchilar va bonapartchilar hokimyat uchun kurash olib bormoqda edilar. Bu guruhlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar monarxiyaning qayta tiklanishini qiyinlashtirar edi. 1871 yil fevralda saylangan Milliy majlim a'zolarining katta ko'pchiligi monarxiyachilar, zodagonlar edi. SHuning uchun ham o'sha yillardagi Frantsiyani kinoya bilan «Gertsoglar respublikasi» deb atardilar. Ularni xalqning Yangi qo'zg'olonlari oldidagi qo'rquv birlashtirib turardi. 1872 yilda sotsializmni targ'ib qilganlik uchun 2 yildan 5 yilgacha qamoq jazosi joriy qilindi.

Respublikaning birinchi prezidenti qilib orleanchi Ter saylandi. U o'zining reaktsion siyosatiga qaramay harbiy diktatura tarafdorlariga yoqmadi va 1873 yil may oyida iste'foga chiqdi. Prezidentlikga klerikal va frantsuz armiyasining noshud qo'mondoni Mak-Magon saylandi. Respublikachilar reaktsion Milliy majlisni tarqatib yuborishni va respublika tartibotini mustahkamlashni talab qildilar.

1875 yil 21 yanvarda Ta'sis majlisi siyosiy tuzum shakli to'g'risidagi qonunni muhokama qilishga kirishdi. Frantsiyada respublika tuzumi saqlab qolindi. Prezident

7 yilga 2 palataning qo’shma majlisida saylanadigan bo’ldi. Ijroiya hokimyati prezidentga va u tomonidan tayinlanadigan ministrlar kengashiga tegishli bo’ldi.

Deputatlar palatasi 21 yoshga to’lgan fuqarolar tomonidan umumiy yashirin ovoz berish yo’li bilan 4 yilga saylanardi. Xotin-qizlar, harbiylar va mustamlakalarning aholisi saylov huquqiga ega emas edi. Natijada 40 mln aholidan 12 mln.i saylovlarda ishtirok eta olardi.

Monarxiyachilar Konstitutsiyani o’zgartirishga – monarxiya o’rnatishga umid qilardilar, respublikachilar esa mavjud tuzumni mustahkamlash va demokratiyani rivojlantirishga intilardilar. Bu Konstitutsiya uncha katta bo’lmagan o’zgarishlar bilan to 1940 yilgacha amal qilib keldi.

1879 yilda birinchi marta mo’ta’dil respublikachilar vakili J.Grevi mamlakat prezidenti bo’ldi. Respublikachilar hokimyatga kelgach, hukumatni Versaldan Parijga ko’chirdilar.Marseleza milliy madhiya bo’ldi, 14 iyul – Bastiliya olingan kun Frantsiya respublikasining milliy bayrami deb e’lon qilindi.

Respublikachilar bir qator tadbirlarni amalga oshirdilar. 1880 yilda Parij kommunasi ishtirokchilarini avf etish to’g’risida qonun chiqarildi, yig’ilishlar erkinligi, matbuot erkinligi va sh.o’. qonunlar qabul qilindi. 1884 yilda kasaba ittifoqlarini legallashtirish to’g’risida qonun qabul qilindi.

Shu bilan birga hukumat 80-90-yillarda sanoat va savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirdi, natijada egri soliqlar oshdi. Bu esa respublikachilarning omma orasidagi obro’si pasayishiga olib keldi. Respublikachilarning o’zini ichida ham kelishmovchilik kuchaydi.

Mamlakatda respublikachilar siyosatidan norozilikning kuchayishidan monarxiyachilik kayfiyatidagi zobitlar foydalanib qolishga harakat qildilar, shovinistik va revanshistik da’vatlar bilan chiqib, Elzas va Lotaringiyani qaytarib olishga chaqirdilar. Ularning ko’pchiligi xalq ommasi va armiyani birlashtira oladigan va Germaniyaga qarshi g’alabali urush olib boradigan kuchli diktator hokimyati o’rnatilishini istar edilar. Ana shunday vaziyatda general Bulanje nomi bilan bog’liq harakat tez o’sdi.

Bulanjechilar o’z manfaatlari yo’lida 1887 yilda ro’y bergan siyosiy inqirozdan foydalandilar. Prezident J.Grevi o’z kuyovi Faxriy legion ordenini sotish bilan shug’ullanganligi uchun iste’foga chiqdi, mo’ta’dil respublikachilarning obro’si yanada tushib ketdi.

Bulanje 1889 yildagi parlament saylovlarida chorak million ovoz to’plab, katta muvaffaqiyatga erishdi. U respublikachilar siyosatiga qarshi bo’lgan «Norozilik qo’mitasi»ga rahbarlik qildi. Bulanje so’zda respublikachilar tarafdori bo’lsa ham, amalda monarxiyachilarni qo’llab-quvvatlardi va ulardan mablag’ olib turardi.

Bulanjechilar tomonidan o’ylangan to’ntarish amalga oshmadi. Fitna oshkor bo’lib qoldi. Bulanjening monarxiyachi doiralar bilan bo’lgan siyosiy aloqalari fosh etildi. Hukumat Bulanjega qamoqqa olish bilan tahdid qildi. U Belgiyaga qochib ketdi.

1892-1893 yillarda Panama kanali qurilishi bilan bog’liq Yangi inqiroz yuzaga keldi. 1888 yilda Panama kanali qurilishi bo’yicha aktsionerlik jamiyati tashkil qilingan bo’lib, uning 800 mingdan ortiq mayda aktsionyerlari bor edi. Lekin kompaniya mayda aktsionyerlarga divident to’lashni to’xtatib qo’ydi.

Bu ishni tekshirish uchun Panamaga bir necha komissiya yuborildi, lekin boshlangan tekshiruvlar ataylab bir necha yilga cho'zilib ketdi. Oxir-oqibatda poraxo'rlik va o'girlik natijasida aktsionerlik jamiyati bankrot bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Panama aferasiga yirik moliyachilar, hukumat a'zolari, senatorlarning oilalariva hatto prezidentning qarindoshlari ham aralashganligi ma'lum bo'ldi. Monarxiyachi guruhlar tarafdorlari bu ishlarda respublikachilar aybdor deb shovqin ko'tarishib, respublika tizimini yaroqsiz va sotqin deb ko'rsatishga intildilar. Lekin ular bunga erisha olmadilar. 1893 yilda sud jarayoni va u bilan bog'liq janjal tugadi , shu vaqtdan keyin «Panama» so'zi moliyachilarning jinoiy harakatlariga nisbatan ishlatiladigan salbiy tushuncha bo'lib qoldi.

1894 yilda Frantsiyani Bosh shtabda ishlayotgan monarxiyachilar tomonidan keltirib chiqarilgan yana bir siyosiy inqiroz larzaga keltirdi. Bosh shtab monarxiyachilarning so'nggi qo'rg'oni edi, shuning uchun barcha respublikachi hukumatlar Bosh shtabda tozalash o'tkazishga harakat qilardi.

1894 yilda Bosh shtabdan Germaniya elchixonasiga yuborilgan maxfiy hujjatlar qo'lga tushadi. Kelib chiqishi yahudiy bo'lgan 28 yoщli zobit Alfred Dreyfus Germaniya uchun josuslik qilganlikda ayblanib, uning unvonlari olib tashlanib, Frantsiya Gvianasiga umrbod surgun qilinadi.

Lekin kontrrazvedkaning Yangi boshlig'i polkovnik Pikar Bosh shtabda yana josuslik davom etayotganini, harbiy ma'lumotlar chiqib ketayotganligini aniqlaydi. U buni Bosh shtabga ma'lum qiladi. Harbiy sud sud obro'sini tushirib yuboradi degan bahona ostida Dreyfus ishini qayta ko'rishni rad etadi. Polkovnik Pikarni Tunisga ishga yuboradilar.

Dreyfus ishi mamlakatni 2 lagerga ajratib yubordi. Ishni kayta ko'rish tarafdorlari harakati o'sib, respublikachilarning monarxiyachilar bilan jiddiy to'qnashuvlariga va siyosiy inqirozga aylana boshladi. 1896 yilda yozuvchi E.Zolya «Oror» gazetasida prezidentga qarata «Men ayblayman» deb boshlanadigan ochiq xat bilan chiqib, Bosh shtab, prezident, sud va soxta guvohlarni ayblab, oshkoralik va haqiqatni qaror toptirishga chaqirdi. Buning uchun sud Zolyani sirtdan sud qilib, uni jarima va qamoq jazosiga hukm qildi, Zolya chet elga chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Dreyfus ishini qayta ko'rishga sud ham, hukumat ham rozi bo'lmadi, bu ish parlamentga berildi. Mamlakat aholisi dreyfuschilarga va antidreyfuschilarga ajraldi. Oxir-oqibatda sud bu ishni qayta ko'rib chiqdi. Sud qarori g'alati va yarim-yorti edi: Dreyfus oqlandi lekin reablitatsiya qilinmadi. Faqat 1906 yilda u to'la reablitatsiya qilindi. Dreyfus ishi monarxiyachi guruhlarning respublika tuzumini obro'sizlantirish yo'lidagi so'nggi urinishlari bo'ldi.

4. Uchinchi respublikaning tashqi siyosati.

Frankfurt sulhidan keyin Frantsuz-german munosabatlari keskinligicha qoldi, buning ustiga Bismark bir necha marta Frantsiyaga qarshi Yangi urush boshlash tahdidi bilan chiqdi. (1879 yilda Avstriya-Germaniya ittifoqini tuzganda, keyinroq Uchlar ittifoqini tuzganda).

Bu esa Frantsiyaning Rossiya bilan yaqinlashishiga olib keldi. Rossiyaning Frantsiya bilan bo'lgan tashqi savdosi to'xtovsiz o'sib bordi. 1887 yilda Rossiya Frantsiyadan 500 mln. franklik birinchi zayomni oldi. Deyarli o'n yil davom etgan muzokaralar va diplomatik yozishmalardan keyin bu ikki davlat o'rtasida 1891 yilda

harbiy xarakterga ega bo'lgan konsultativ pakt tuzildi. Frantsiyaga Germaniyaga qarshi tura oladigan ittifoqchi kerak edi. Rossiya Frantsiya timsolida kredit olishning muhim manbaini va bo'lg'usi ittifoqchisini ko'rdi.

1893 yil dekabrda harbiy konventsiya Frantsiya-Rossiya ittifoqi to'g'risidagi siyosiy bitim bilan to'ldirildi. Bu bitim Uchlar ittifoqiga qarshi koalitsiya (ittifoq) vujudga kelishini boshlab berdi va bu ikki mamlakatni ajralib qolganlik holatidan (izolatsiya) chiqardi.1912 yilda bu ikki davlat o'rtasida harbiy-dengiz konventsiyasi imzolandi. Bu bitim Frantsiyaning mavqeini mustahkamladi va uning mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi.

80 yillarda hukumat boshlig'i Jyul Ferri, deputatlar palatasi vitsen-prezidenti Ejen Eten va boshqalar faol mustamlakachilik siyosati olib borishning ko'zga ko'ringan tarafdorlari edilar. Mustamlakalar uchun kurashda Frantsiyaning asosiy raqibi Angliya edi, XX asr boshidan esa Germaniya asosiy raqibga aylandi.

X1X asr o'rtalaridan frantsuz sarmoyasi Tunisga kirib kela boshlagan edi. Angliya diplomatlari Frantsiyaning Tunisga bo'lgan tasirini qo'llab-quvvatlardilar. 1881 yil aprelda frantsuz qo'shinlari Tunisning bir necha shaharchalarini bosib oldilar. Frantsuz qo'shinlari qo'mondoni general Brear Tunis hukmdoriga (bey) protektorat to'g'risidagi bitimni qabul qildirdi. Tunis aholisi qo'zg'olon ko'tardi, lekin bu qo'zg'olon bostirildi.

70-80 yillarda frantsuzlarning Afrikaga kirib borishi kuchaydi. Frantsuzlar 1890-1893 yillarda Senegalda amir Ahmadning davlatini tor-mor qildilar. Uzoq davom etgan urushdan keyin 1898 yilda amir Samorining davlati bo'ysundirildi. G'arbiy Afrikada eng kuchli davlat bo'lgan Dagomeya ham 1892 yilda mag'lub bo'ldi.

X1X asr oxiriga kelib Frantsiya G'arbiy Afrikasi tashkil topdi, unga Senegal,frantsuz Gvineyasi,Frantsiya Sudani, Mavritaniya, Dagomeya, Fil suyagi Kirg'og'i, YUqori Volta, keyinroq Niger kirgan edi.

Frantsuzlar undan oldinroq Tropik (Ekvatorial) Afrikani Uzlashtira boshlagan edilar. X1X asrning 70 yillarida frantsuz sayyoxi va tadbirkori de Brazza Kongo daryosi bo'ylab ekspeditsiya tashkil etib, faktoriyalar barpo etdi. U eng yirik faktoriyani o'z nomi bilan Brazzavil deb atadi va Ubangi daryosigacha bo'lgan barcha hududlarni Frantsiya mulki deb e'lon qildi. Keyinroq bu hududga Gambiya daryosi bo'ylab CHad ko'ligacha bo'lgan yerlar ham qo'shildi.

Frantsiya 1910 yilda Urta Kongo va Gabonni bosib oldi. Bu yerlarning hammasi Frantsiya Tropik Afrikasi deb atala boshlandi.

SHu vaqtning o'zida frantsuz sarmoyasi Hindi-Xitoyga (Annam) ham kirib kela boshladi. 1883 yilda Frantsiya Annamga protektorat to'g'risidagi bitimni qabul qildirdi. Xitoy hukumati mamlakat uchun xavf paydo bo'lganini anglab, 1884 yilda Frantsiyaga qarshi urush boshladilar. Frantsuzlar kutilmaganda 1885 yil mart oyida jiddiy mag'lubiyatga uchradi.

1885 yil aprelda Xitoy bilan Frantsiya o'rtasida bitim imzolandi, Xitoy Frantsiyaning Annam ustidan protektoratini tan olishga majbur bo'ldi, chunki unga Yaponiya tomonidan yanada jiddiyroq xavf paydo bo'lgan edi.1887 yilda frantsuzlar Tonkin, Annam va Koxinxindan iborat Hindi-Xitoy ittifoki nomli mustamlakasini tashkil etdilar. 1893 yilda unga Kamboja qo'shildi.

1882 yilda frantsuz qo’shinlari Madagaskar oroliga xujum boshladilar. Kuchlar teng bo’lmaganligi sababli 1885 yilda Madagaskar hukumati Frantsiyaning protektorati to’g’risidagi bitimni imzolashi kerak edi. Lekin frantsuz hukumati 1895 yilda orolni anneksiya qilishni talab etdi. Madagaskar qirolichasi bu talabni rad etgach, Frantsuz hukumati harbiy harakatlarni boshlab yubordi va Frantsiyaning Madagaskar ustidan hukmronligini tasdiqlovchi bitimni qabul qildirdi. Ko’p o’tmasdan Frantsiya parlamenti Madagaskarni anneksiya qilinganligini e’lon qildi. Kirolicha ag’darib tashlandi va mamlakatdan chiqarib yuborildi.

Frantsiya X1X asrning so’nggi o’n yilligida Atlantika va Tinch okeanida bir necha orollarni bosib oldi.

Angliya va Frantsiya manfaatlari SHimoli-SHarqiy Afrikada ham to’qnash keldi. Frantsiya hukumati SHarqiy Sudanga kapitan Marshan boshchiligida harbiy otryad yubordi. Bu otryad 1898 yil iyulida Misr Sudaning Faщod degan qishlog’iga etib keldi. SHu vaqtda bu erga ingliz generali Kitchener boshchiligidagi misr-ingliz otryadi ham etib keldi. Kitchener frantsuzlarning Fashoddan chiqib ketishini qat’iy talab qildi, 2 tomon ham urushga tayyorlana boshladi, lekin oxir-oqibatda Frantsiya chekinishga va yon berishga majbur bo’ldi.

1899 yil dekabrda Sudandagi chegaralarni belgilash to’g’risida ingliz-frantsuz bitimi imzolandi. Frantsiya Sudanning faqat g’arbiy viloyatlari ustidan nazorat o’rnatadigan bo’ldi. Bu bitim 2 davlat hukumatlarining mustamlakalarni taqsimlab olish borasidagi kelishuvlarini boshlab berdi, chunki bu 2 davlatga Germaniya xavf solayotgan edi. 1899 yildagi bitim Angliya bilan Frantsiyani yaqinlashtirib, ularni 1904 yildagi Antanta bitimiga olib kelish uchun yo’l ochib berdi.

Germaniyaning mustamlakachilik ekspansiyasining kuchayishi ingliz-german ziddiyatlarini yanada kuchaytirib qolmasdan Frantsiya bilan Germaniya o’rtasidagi ziddiyatlarni ham kuchaytirdi. 1904 yilda rus-yapon urushi natijasida Frantsiya o’zining ittifoqchisi Rossiya Uzoq SHarqda o’ralashib qolganligi sababli Yangi ittifoqchi izlashga majbur bo’ldi, bu esa Frantsiyaning Angliya bilan yaqinlashishiga olib keldi. 1904 yilda bu 2 davlat o’rtasida bitim tuzildi, unda Frantsiya Angliyaning Misrdagi «huquq»larini tan oldi, Angliya esa Frantsiyaning Marokkoga bo’lgan «huquqlarini» tan oldi. Щundan keyin ingliz va frantsuz Bosh shtablarining harbiy masalalar bo’yicha maxfiy muzokaralari boshlandi. SHu asosda «yurakdan kelishuv» – ingliz-frantsuz Antantasi tashkil topdi.

Shimoliy Afrikada Marokko X1X asr oxirida ham o’z mustaqilligini saqlab qolgan edi. Frantsiya o’zining bu erdagi siyosatini kuchaytirdi, sultonga zayomlar berdi. Frantsiya 1905 yilda Marokko moliyasi ustidan o’z nazoratini o’rnatilishini va Marokko armiyasida qayta qurish o’tkazishni taklif etdi. Marokko sultoni buni rad etdi, chunki u shunday taklifni Germaniyadan ham olgan edi.

Germaniya tashabbusi bilan Alxessiras shahrida 14 davlat vakillaridan iborat xalqaro konferentsiya o’tkazilib, unda Marokko masalasi ko’rildi. Konferentsiya Marokko mustaqilligini tan oldi, lekin barcha davlatlarga iqtisodiy faoliyat erkinligi berildi.Germaniyaning qarshiligiga qaramasdan konferentsiya Frantsiyaning Marokkodagi alohida manfaatlarini tan oldi, Frantsiya Marokko politsiyasi ustidan nazorat o’rnatish va ichki tartibni ta’minlash huquqiga ega bo’ldi.

1911 yil may oyida Marokkoda sultonga qarshi qo'zg'olon ko'tarilganda Frantsiya manfaatlarini himoya qilish bahonasida Frantsuz qo'shinlari poytaxt Fesga kiritildi. Germaniya Xukumati Alxessiras konferentsiyasi pakti Frantsiya tomonidan buzilganligini e'lon qilib, darhol Markkoning asosiy porti Agadirga o'zining harbiy kemalarini yubordi. Lekin Buyuk Britaniya va Rossiya hukumatlari Frantsiya tarafini olishgach, Germaniya chekinishga majbur bo'ldi.Uzoq davom etgan muzokaralardan keyin Germaniya Kongoning bir qismini oldi, Frantsiya esa ko'p o'tmasdan Marokko ustidan o'z protektoratini o'rnatdi.

1912 yilda o'ng burjua guruhlari vakili bo'lgan Raymon Puankare bosh vazir lavozimini egalladi. Yangi hukumatda moliya-monopolistik guruhlar bilan bevosita aloqada bo'lgan burjua partiyalari vakillari eng muhim lavozimlarni qo'lga kiritdilar. Bu davrda Frantsiya boshqa etakchi kapitalistik davlatlar qatori urushga faol tayyorgarlik ko'rish ishlarini olib bordi.

1913 yil yanvardagi prezident saylovlarida urush tarafdori bo'lgan Raymon Puankare g'alaba qozonib, Frantsiya prezidenti bo'ldi. Raymon Puankare (1860-1934) respublikachilarning o'ng guruhi rahbarlaridan biri edi. Yangi prezident ishchilar harakatiga qarshi kurash olib borish va urushga tayyorlanishni o'zining asosiy vazifasi deb bilardi. Uning tashabbusi bilan parlament 1913 yil yozida harbiy xizmat muddati 2 yildan 3 yilga uzaytirish to'g'risida qonun qabul qildi. shu bilan bir vaqtda Frantsiyaning harbiy qudratini oshirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirildi. 1914 yilda harbiy xarajatlar ulkan summani - 1,5 mlrd. frankni tashkil etdi, bu jami budjet xarajatlarining 38 %ini tashkil qilardi.

Frantsiya sotsialistik partiyasining rahbarlaridan biri, mohir notiq, jurnalist, tarixchi va publitsist Jan Jores parlament deputati sifatida Frantsiya hukumatining urushda ishtirok etishiga va mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqdi. Lekin aholining katta qismi va ko'pchilik sotsialistlar Germaniya tomonidan mavjud bo'lgan xavfdan hadiksirardilar va ular Germaniyaga qarshi zarba berish tarafdorlari edilar. Jan Jores u 1914 yil 31 iyulda frantsuz shovinsiti tomonidan o'ldirildi.

Frantsiya aholisining ko'pchiligining qo'llab-quvvatlashishiga ega bo'lgan Frantsiyaning hukmron doiralari Angliya va Rossiya bilan ittifoq bo'lib Germaniyani mag'lubiyatga uchratish va 1871 yilda qo'ldan berilgan hududlarni qaytarib olishga va Frantsiyani Yevropada etakchi davlatga aylanishiga umid qilardilar. Natijada 1914 yil avgustida millionlagan frantsuzlar birinchi jahon urushining qonli girdobiga tashlandilar.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. YAngi davr boshlarida Frantsiyaning ahvoli haqida so'zlab bering.
2. 30-yillik urushdan (1618-1648) keyin Frantsiyaning mavqei haqida so'zlab bering.
3. YAngi davr boshlarida Frantsiya aholisi qanday tabaqalarga (toifa) ajralgan edi?
4. Frantsiyada nima uchun ichki bozor rivojlanmay qoldi?
5. Frantsiyadagi Fronda harakati haqida so'zlab bering.
6. Jan Batist Kolber faoliyati haqida so'zlab bering.

7. Lyudovik XIV hukmronligi haqida so’zlab bering.
8. XVIII asr oxiridagi frantsuz burjua inqilobining sabablari, vazifalari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida so’zlab bering.
9. XVIII asr oxiridagi frantsuz inqilobining asosiy voqealari haqida so’zlab bering.
10. Inqilob davridagi oq terror va qizil terror to’g’risida so’zlab bering.
11. 9 termidor aksilinqilobiy to’ntarish to’g’risida so’zlab bering.
12. Direktoriyaning o’rnatilishi va uning faoliyati haqida so’zlab bering.
13. Konsullik va uning faoliyati haqida so’zlab bering.
14. Napoleon Bonapartning hokimyatga kelishi to’g’risida so’zlab bering.
15. Yevropa davlatlarining Frantsiyaga qarshi harbiy koalitsiyalari haqida so’zlab bering.
16. Napoleonning Rossiyaga hujumi haqida so’zlab bering.
17. Napoleonning taxtdan tushirilishi va Burbonlar sulolasining restavratsiyasi haqida so’zlab bering.
18. Vena kongressi haqida so’zlab bering.
19. Frantsiyadagi Iyul monarxiyasi faoliyati haqida so’zlab bering.
20. Frantsiyadagi 1848 yil inqilobi haqida so’zlab bering.
21. Frantsiyada Ikkinchi imperiya va uning faoliyati haqida so’zlab bering.
22. Napoleon III ning tashqi siyosati haqida so’zlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. 1998.
2. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-7. M. 1960.
3. Istoriya Frantsii. Pod ruk. A.Z.Manfreda v3-x tomax.M. 1972-1973.
4. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A.L.Narochnitskogo. M. 1986.
5. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
6. Novaya istoriya stran Evropы i Ameriki.T.1. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998.
7. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
8. Jahon tarixi. (G’arb mamlakatlari 1640-1918 yy).O’quv-uslubiy qo’llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.
9. Mualliflar jamoasi. Yangi tarix. T.1. T.1967.
10. Mualliflar jamoasi. Yangi tarix. T.2. T.1973.

4 - Mavzu: GERMANIYA XVII ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHIDA.

R E J A : 2 soat.

3. Mamlakatning XVII asrning 1-yarmidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
4. German davlatlari XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida.

3. Germaniyada milliy davlat tuzish uchun harakat va milliy davlatning tashkil topishi.
4. XIX asrning oxirgi choragida Germaniya imperiyasining davlat tuzumi va iqtisodiyoti.

Tayanch tushunchalar: Agrar mamlakat. Gabsburglar. 30 yillik urush. Vestfaliya sulhi. Nemis millatining Muqaddas Rim imperiyasi. Imperiya shaharlari. TSex tizimi. Manufaktura. Merkantilistik siyosat. Fridrix Vilgelm. Fridrix I. Fridrix Vilgelm I («qirol-soldat»). Militarlashtirish. Ma'rifatli absolyutizm. Reyn ittifoqi. Tilzit sulhi (1807 y). Napoleonning Rossiyaga bostirib kirishi (1812 y). Nemis-rus legioni. Vena kongressi. Germaniya ittifoqi. Bojxona ittifoqi. 1848 yil inqilobi. Fridrix Vilgelm IV. Milliy majlis. Imperiya Konstitutsiyasi. Vilgelm 1. Otto fon Bismark. Germaniyani birlashtirish yo'llari. Avstriya-Prussiya urushi (1866). Ma'rifatparvarlik. Nemis ma'rifatparvarlari. Leybnits. Xristian Volf. I. Kant. G. E. Messing. "Bo'ron va taziyq". I.V.Gyote. I.F.Shiller. I.F.Gendel. I.S.Bax.

1. MAMLAKATNING XVII ASR 2-YARMIDAGI SIYOSIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOLI.

Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida savdo yo'llarining o'zgarib ketishi Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyotiga yomon ta'sir ko'rsatdi, nemis savdo-sotig'i inqirozga yuz tutdi. Germaniya tobora agrar mamlakatga aylanib bormoqda edi.

Germaniyada hukmronlik qilayotgan Gabsburglar Ispaniyadagi hukmron Gabsburglar bilan qarindosh-urug' edilar. Ular birgalikda dunyoga hokim bo'lishga intilardilar va qo'shni davlatlarga nisbatan agressiv siyosat yurgizar edilar. Bu bilan ular bir qancha Yevropa mamlakatlarini, Shu jumladan, Gollandiya, Angliya, Frantsiya, Daniya, SHvetsiyani o'zlariga qarshi qilib qo'ydilar.

1526 yilda Chexiya yana imperiya tarkibiga kirdi va Gabsburglar xonadonining meros eri deb hisoblana boshladi. Bunda CHexiyaga uning muxtoriyatini saqlab qolish, chex seymini, davlat tili sifatida chex tilini, milliy cherkov sifatida chexlarning isloh qilingan cherkovini saqlab qolish va'da qilingan edi. Lekin Gabsburglar o'z va'dalarini bajarmadilar. Natijada CHexiyada bir necha marta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi, 1618 yilda ana Shunday qo'zg'olonlardan eng kattasi yuz berdi. Bu qo'zg'olon 30 yillik urushning (1618-1648 yy) boshlanishiga olib keldi.

1620 yil noyabrda qo'zg'olon bostirildi, chexlar shafqatsiz jazolandi, juda ko'plari o'z yurtlaridan quvg'in qilindi. Bunda Chexiyaga bostirib kirgan ispan Gabsburglari ham katta yordam ko'rsatdilar.

Germaniyadagi imperator bilan knyazlar o'rtasidagi, katoliklar bilan protestantlar o'rtasidagi, Gabsburglar bilan Chexiya o'rtasidagi munosabatlarga doir ichki masala Chet ellarga ham katta ta'sir ko'rsatdi. G'arbiy Yevropadagi bir qator mamlakatlar Germaniyaga qarshi chiqdilar. 1625 yilda Angliya, Gollandiya va Daniya o'rtasida ispan va Avstriya Gabsburglariga qarshi Uchlar ittifoqi

tuzildi. Natijada urush goh u tomonning, goh bu tomonning ustunligi bilan uzoq vaqt davom etdi. Faqat 40-yillarning boshlarida ittifoqchilar qat'iy g'alabaga erisha boshladilar.

1643 yilda frantsuzlar ispan piyodalarini qattiq mag'lubiyatga uchratdilar, 1645 yilda ular Elzasni bosib oldilar. 1645 yilda shvedlar sharqda imperiya qo'shinlarini tor-mor etdilar. Frantsuzlar va shvedlarning birlashgan armiyasi 1646 yilda Bavariyaga bostirib kirdi, Germaniya sulh muzokaralarini boshlashga majbur bo'ldi.

30 yillik urushga yakun yasagan Vestfaliya sulhi 1645-1648-yillarda tuzildi. Frantsiya va SHvetsiya Vestfaliya sulhining kafolati (garanti) bo'ldilar, bu ularga Germaniyaning ichki ishlariga aralashish imkoniyatini berdi. Bu davlatlar bir qancha hududlarni o'z tarkibiga qo'shib oldilar. Germaniyaning siyosiy tarqoqligi yanada kuchaydi. Bu erda 300 dan ortiq diniy va dunyoviy knyazlik, 51 ta erkin shahar va 1,5 mingga yaqin ritsarlarning mayda er-mulklari bor edi. Zamondoshlar Germaniyadagi davlatlar soni bir yildagi kunlar sonidan ham ko'p, deb aytgan edilar. Bu davlatlar faqat nomigagina German millatining Muqaddas Rim imperiyasiga birlashgan edilar. Imperiya imperatori 9 ta eng yirik nemis knyazlari – kurfyurstlari tomonidan Avstriya Gabsburglari xonadoni a'zolaridan saylanardi. Imperatorning hokimyati o'z mulklaridan tashqarida hech qanday amaliy kuchga ega bo'lmay, faqat nomigagina edi. Umumgerman tashkiloti hisoblangan reyxstag ham, Shuningdek turli xil sudlar ham hech qanday amaliy hokimyatga ega emas edilar. Shu bilan birga umumgerman armiyasi ham, umumiy moliya tashkilotlari ham yo'q edi. Germaniyaning birligi faqat tashqi ko'rinish edi. Germaniya aholisining yarmidan ko'pi urush natijasida qirilib ketdi, mamlakat xarobaga aylangan edi.

30 yillik urushdan keyin Germaniya G'arbiy Yevropada taraqqiy etgan mamlakatlardan ancha orqada qoldi va ularga qaramligi osha boshladi. Vestfaliya sulh shartnomasiga muvofiq Shimoliy dengizga chiqadigan joylar Gollandiyaga, Boltiq dengiziga chiqadigan yerlar esa SHvetsiyaga o'tdi.

Germaniyada 30 yillik urush dehqonlarni yanada xonavayron qildi, ularni qaram dehqonlarga (krepostnoy) aylanish jarayonini yanada kuchaytirdi.

German davlatlarida feodal-mustabid tartibot hukm surardi. Frantsiya, Ispaniya yoki Rossiya kabi yirik davlatlardagi mustabid tuzumdan farq qilgan holda nemis knyazlarining maydadavlatchilik absolyutizmi mamlakatni markazlashtirishga yordam bermadi, aksincha shakllana boshlayotgan nemis millatining birlashishiga to'sqinlik qildi. Knyazlarning o'zboshimchaligi juda reaktsion rol o'ynab, feodal bosh-boshdoqlikni mustahkamladi. Knyazlarning o'zaro janjal-nizolari, qo'pol o'zboshimchaliklari va isrofgarchiliklari, o'z armiyasiga juda katta mablag'larni sarflashlari va har qadamdagi bojxona to'lovlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini to'xtatib qo'ydi.

G'arbiy Germaniyada senor xo'jaligi shaklidagi agrar munosabatlar, ya'ni yirik er egasi chek yerlar uchun obrok shaklidagi yoki boshqa xil to'lovlar tarzida feodal er rentasi olardi. SHarqiy Germaniyada esa barshchina xo'jaligi keng tarqalgan edi.

30 yillik urush davrida erdan maxrum bo'lgan dehqonlarning soni juda ko'payib ketdi. Pomeshchiklar dehqonlarning shaxsan qaramligidan foydalanib, hatto ersiz dehqonlarni ham barshchina o'tashga majbur etardilar. Dehqonlarning yoppasiga krepostnoylashtirilishi XVII va XVIII asrlarda Germaniyada sanoat taraqqiyotiga xalal bergan asosiy to'siqlardan biri bo'ldi.

30 yillik urushdan keyin Germaniya sanoati, hunarmandchiligi juda orqaga ketdi. Buning asosiy sababi Germaniyaga juda ko'p miqdorda Chet el tovarlari kirib kelar edi. Nemis shaharlaridagi yarmarkalar Chet el buyumlari saqlanadigan omborxona bo'lib qoldi.

XVII asr oxiridan Germaniyada iqtisodiy jonlanish boshlandi, u birinchi navbatda qishloq sanoatida yuz berdi (kalava ip, jundan va zig'ir tolasidan gazlama, har xil to'rlar tayyorlash va sh.o'.).

XVII-XVIII asrlarda shaharlarning ilgarigidek imperiya shaharlariga va zemstvo, ya'ni knyazlik shaharlariga bo'linishi saqlanib qolgan edi.

Imperiya shaharlari bevosita imperatorga bo'ysunadigan shaharlar hisoblanar edi. Imperiya seymlarida (reyxstaglarda) ularning vakillari alohida shahar kuriyasini tashkil etar edi. Imperiya shaharlarining tushkunlikga ketishi natijasida ularning 2/3 qismi, ya'ni 100 ga yaqini dunyoviy yoki diniy knyazlar qo'li ostiga tushib qoldi. XVIII asrda atigi 51 ta shahar o'zining yuridik mustaqilligini saqlab qolgan edi.

Avvalgi shahar aristokratiyasi (patritsiylar) XVII-XVIII asrlarda eng oddiy dvoryanlarga aylangan edilar. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning orqaga ketganligi savdogarlar va sudxo'rlarni o'z pullarini er-mulklar va imperatordan turli feodal unvonlar sotib olishga sarflashga majbur etar edi.

Zemstvo shaharlarining ko'pchiligi oddiy qishloqlardan farq qilmas va mahalliy dvoryanlar hokimyatining o'zboshimchaligiga butunlay qaram edi. Boshqa shaharlar esa o'zini-o'zi boshqarish, soliqlar yig'ish va sud hokimyati sohasidagi ilgarigi huquqlarining bir qismini saqlab qola olgan edilar.

2. GERMAN DAVLATLARI XVIII ASR OXIRI – XIX ASR BOSHLARIDA.

XVIII asrda Germaniyada krepostnoy dehqonlarni asoratga solish yanada kuchaydi. Ko'pincha bu dehqonlar qochib ketar edilar. Bir qator knyazliklarda qochoq dehqonlarga nisbatan juda qattiq jazolar, hatto o'lim jazosi belgilangan edi.

XVIII asr ikkinchi yarmidan dehqonlarni o'z yerlaridan quvib yuborish keng tus oldi. Tashqaridan u Angliyadagi g'ov tutishlarga o'xshar edi, lekin juda boshqa ijtimoiy oqibatlarga olib keldi. Angliyadagi g'ov tutishlar kapitalistik ishlab chiqarish usulining, ozod yollanma mehnatni ekspluatatsiya qiluvchi (asoratga soluvchi) kapitalistik fermerlikning rivojlanishiga shart-sharoit tug'dirdi. Prussiyada esa dehqonlarni erdan maxrum qilish dehqonlar chek yerlarini tortib olish hisobiga feodallar yerlarini kengaytirish va krepostnoy dehqonlarni asoratga solish (barshchina) hisobiga pomeshchiklarning tovar xo'jaligini kengayishiga olib keldi.

SHarqiy Germaniyada barshchina xo'jaligi keng tarqaldi. G'arbiy Germaniyada senorial tizim (natural obrok yoki pul rentasi) keng yoyildi.

XVIII asrda Germaniyada sanoat rivojlanishi Angliya, Frantsiya, Gollandiyaga nisbatan past darajada bo'ldi. Germaniyaning bir qancha rayonlarida yirik

manufakturalar paydo bo'ldi. Lekin butun asr davomida sanoatning hukmron shakli sifatida tsex hunarmandchiligi asosiy o'rin tutdi.

Shu bilan birga manufakturalar bilan tsex hunarmandchiligi o'rtasidagi raqobat kuchaydi. Krepostnoylik tuzumi manufakturalarga qishloqdan keladigan yollanma ishchilar yo'lida asosiy g'ov bo'lib qolmoqda edi.

XVIII asrda nemis millatining tashkil topish jarayoni sekinlik bilan bo'lsada davom etdi. Mamlakat siyosiy jihatdan tarqoq holda bo'lib, XVIII asrning 1-yarmida ayrim hududlar o'rtasida iqtisodiy aloqalar juda kuchsiz edi. Keyinchalik, iqtisodiy hayotning jonlanishi natijasida, yagona umummilliy bozor tashkil topa boshladi, lekin Germaniyaning tarqoqligi unga to'siq bo'lib turardi.

XVII asrda va XVIII asrning 1-yarmida Germaniyada bir qator mahalliy provintsial dialektlar asosida mahalliy provintsial adabiyot rivojlanib bordi. Mamlakatda umummilliy nemis adabiy tiliga bo'lgan ehtiyoj tobora ko'proq sezilib bormoqda edi. Shu bilan birga bu davrda lotin tili asosiy til bo'lib qolmoqda edi. Angliya va Frantsiyada bu vaqtda fanning barcha sohalarida milliy til keng qo'llanilmoqda edi.

Germaniyada knyazlik absolyutizmi shaklidagi nemis mayda davlatchiligi feodal o'zboshimchaligi va despotizmi(hukmronligi)ning eng qo'pol shakli edi. Nemis knyazlari o'zlarining Lyudovik XIV ning saroyiga o'xshatib qurilgan qasrlarida turli xil ko'ngil ochar bazmlar o'tkazishar, ballar, ov, turli bayramlar tashkil etishar, buning uchun o'z qo'l ostidagilarni qattiq asoratga solishar, katta-katta soliqlar solishar edilar. Nemis dvoryanlari frantsuzcha so'zlashar, frantsuz modalarini, odob-ahloqini o'zlashtirishga intilar edilar.

Nemis knyazlari o'z fuqarolarini jang qilish uchun Chet ellarga sotar edilar. XVIII asrning 1-yarmida ular askarlarni sotishdan Angliyadan 46,5 mln. funt sterling, Frantsiyadan 137 mln. livr daromad oldilar. Knyazlar o'z mulklarida turlicha o'zboshimchaliklarni amalga oshirar edilar: birlari o'z qo'l ostidagilarga kofe ichishni taqiqlasa, boshqasi o'zi chiqaradigan tanganing og'irligini kamaytirar, uchinchisi juda katta to'lov evaziga o'z fuqarosini harbiy xizmatdan olib qolar va h k. Knyazlar o'zboshimchaligi va feodal zulmning chidab bo'lmas darajada kuchayib borishi natijasida ko'pgina nemislar o'z vatanlarini tashlab ketar edilar. Faqat 1756-1766 yillar davomida 200 mingdan ko'proq nemis dehqoni Amerika va Rossiyaga ko'chib ketdi.

XVIII asrda Germaniyada qishloq ho'jalik mahsulotlarini eksport qilishning ko'payishi qaram dehqonlarni yanada ko'proq ekspluatatsiya qilinishiga olib keldi. Sanoatning rivojlanishi juda sekin bordi. Bu davrda pruss burjuaziyasi juda kuchsiz bo'lib, uning siyosiy hayotda ishtirok etishi sezilmas edi.

Er-mulklarga monopol hukmronlikni o'z qo'llarida saqlab qolgan yirik feodallar o'z qaram dehqonlaridan katta daromadlar olardilar. Pomeshchiklar hukmron sinf vakillari sifatida feodal absolyutistik davlatga xizmat qilib, undan yirik daromad va imtiyozlar olardilar.

Vestfaliya sulhidan boshlab to XVIII asr oxirigacha bo'lgan bir yarim asr davomida Brandenburg-Prussiya davlatining mavqei ancha kuchayib bordi. Vestfaliya sulhiga ko'ra Brandenburg kurfyursti Fridrix Vilgelm bir qator hududlarni, Shu jumladan SHarqiy Pomeraniyani qo'lga kiritdi. Boltiq va Shimoliy dengizga

quyiladigan barcha daryolar Brandenburg hududidan oqib o'tardi, bu esa mamlakat iqtisodiyotini yuksalishiga, qishloq xo'jalik mahsulotlarini Chetga chiqarishga imkon berdi.

Fridrix Vilgelm hukmronligi davrida bu kichik hududli davlat Yevropa davlatiga aylandi. Kurfyurst o'zining cheklanmagan hokimyatini o'rnatib, tabaqalarning va tabaqa vakillik organining rolini cheklab qo'ydi, boshqaruvni qattiq markazlashtirdi, armiyani kuchaytirdi. U ustamonlik bilan tashqi siyosat yurgizib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi, eng asosiysi Polshaga vassal qaramlikdan ozod bo'lib, Prussiya gertsogligining to'la suverenitetini qo'lga kiritdi. Uning hukmronligi davrida kanallar va yo'llar qurildi, manufakturalar barpo etildi. Kurfyurstning 1685 yildagi Potsdam edikti katta ahamiyatga ega bo'ldi, unga ko'ra 20 mingdan ortiq frantsuz protestant-gugenotlari Brandenburgga, asosan Berlinga ko'chirib keltirildi, bu o'z navbatida Brandenburgda savdo va sanoatning rivojlanishiga katta yordam berdi. Savdoni rivojlantirish maqsadida Afrikaning Gvineya qirg'oqlarida koloniya tashkil etilib, Brandenburg-Afrika savdo kompaniyasi tashkil etildi va savdo floti qurildi.

Fridrix Vilgelmning o'g'li kurfyurst Fridrix imperatordan o'ziga qirol unvonini olishga erishdi va imperatorga vassal qaramlikdan ozod bo'ldi. U 1701 yilda Kyonisbergda Prussiya qiroli Fridrix I sifatida toj kiydi.

Fridrix I ning o'g'li qirol Fridrix Vilgelm I (1713-1740) qattiq merkantilistik siyosat olib borib, Chet ellardan tovar olib kelishga qattiq qarshilik ko'rsatdi. Shu bilan birga u armiyani kuchaytirishga katta e'tibor berdi va Shu sababli "qirol-askar" laqabini oldi. U Afrikadagi koloniyani sotib yubordi. 1717 yilda majburiy maktab ta'limi joriy qilindi, 1715 yilda jodugarlarni jazolash tartibi bekor qilindi.

Fridrix-Vilgelm I tayoq metodidan foydalanar, fuqarolarni, dehqonlar, amaldorlarni kaltaklatardi. Chet ellardan tovar keltirishni taqiqlab qo'ygan va ilm-fanga dushman edi. Uning davrida pruss armiyasi 89 ming kishiga etdi, holbuki mamlakat aholisi 2,5 mln. kishi edi. Davlat daromadlari 7 mln. taler bo'lib, uning 5-6 mln.i armiyaga sarflanardi.

Fridrix II davrida (1740-1786) Prussiyada ma'rifatli absolyutizm siyosati o'tkazishga harakat qilindi.

Ma'rifatli absolyutizm absolyut monarxiyali davlatlarda rasmiy jihatdan ma'rifatparvar g'oyalarga amal qilgan va feodalizmning ayrim eskirgan tomonlarini o'zgartiruvchi, burjuaziyaning biroz rivojlanishiga yo'l beruvchi islohotlar o'tkazishni ko'zda tutuvchi nazariyadir. Ma'rifatli absolyutizm faylasuflar maslahatiga amal qiluvchi, ijtimoiy hayotni Yangi, oqilona yo'lga solib yuborishga qobil bo'lgan, tepasida ma'rifatli monarx turgan davlat haqidagi g'oya XVIII asr ma'rifatchilari orasida keng tarqalgan edi (Volter). Bu g'oyaning asl ma'nosi yuqoridan turib, feodal absolyut tuzum asoslarini saqlab qolgan holda, islohotlar yordami bilan (feodallarning ayrim imtiyozlarini o'zgartirish, cherkovni davlatga bo'ysundirish, er, sud, maktab islohotlarini o'tkazib, tsenzurani biroz yumshatib) jamiyatni qayta qurishga erishish edi.

Fridrix II katta bilimga ega odam bo'lib, u ma'rifatparvarlar mafkurasi ta'siri ostida bo'lib, Volter bilan xat yozishib turardi. U "ma'àifatli absolyutizm" siyosati vakili bo'lib, islohotlar yo'li orqali feodal tuzumni inqirozdan olib chiqishga intilardi.

Fridrix II davlat boshqaruvi va huquq sohasida, moliya va sud sohalarida islohotlarni amalga oshirdi, merkantilistik siyosatni davom ettirdi, uning davrida manufakturalar, kanallar qurildi, banklar ochildi, Berlin va Potsdamda katta qurilishlar amalga oshirildi, boshlang'ich ta'limni kengaytirishga doir islohotlar amalga oshirildi, diniy erkinlikga doir qonun qabul qilindi. U dvoryanlarning kayfiyatini hisobga olib, krepostnoylikni bekor qilmadi.

Shu bilan birga politsiya o'zboshimchaligi kuchaydi. Juda qattiq pasport tizimi joriy qilindi, pruss fuqarolariga Chet elga chiqish deyarli taqiqlab qo'yildi. Olimlar, yozuvchilar, faylasuflarga nisbatan dushmanlik kuchaydi.

Fridrix II davrida Prussiyani militarlashtirish kuchaydi, armiya 180 ming kishiga etdi, uni boqish uchun 13 mln taler, davlat daromadlarining 2/3 qismi ketar edi.

German davlatlari xalqaro munosabatlarda.

30 yillik urushdan keyin nemis davlatlari hududlari xalqaro ziddiyatlarni hal qilish maydoniga aylanib, bu erda bir-biriga dushman mamlakatlar qo'shinlari to'qnashadigan joyga aylandi va ko'pincha nemis davlatlari ham Shu urushlarda ishtirokchi bo'lar edilar.

Rossiyaning Yevropada faol harakat qilishiga o'tishi nemis davlatlarining xalqaro ahvoliga bevosita ta'sir ko'rsatdi. XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa Pyotr 1 davridan boshlab Rossiyaning bir qator nemis davlatlari bilan aloqalari kuchaydi. 1699 yilda Rossiya Saksoniya kurfyursti va Polsha qiroli bilan SHvetsiyaga qarshi ittifoq tuzdi. 1715 yilda bu ittifoqqa Gannover ham qo'shildi. SHvetsiya Shimoliy urushda mag'lubiyatga uchrab, nemis davlatlariga tegishli yerlarning bir qismidan maxrum bo'ldi. Rossiya esa buyuk davlatga aylanib, uning nemis davlatlariga ta'siri kuchaydi.

Pyotr I Germaniyadagi nemis knyazlari uylari bilan o'z qarindoshlari o'rtasida sulolaviy nikoh tizimini ham yo'lga qo'ydi. Jumladan uning qizi Anna Golshteyn gertsogi Gottorpskiyga turmushga chiqdi, Pyotr I ning qarindoshi YEkaterina esa Maklenburg gertsogiga turmushga chiqdi. Shu vaqtdan boshlab rus podsholari sulolasi bilan nemis sulolasi vakillari o'rtasida nikoh tuzish munosabatlari kuchaydi (podsho Aleksandr III dan boshqa hamma rus podsholari nemis monarxlari sulolasi vakillariga uylanganlar), bu esa siyosiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Rossiya qudratining ancha oshishi, uning Germaniyadagi ta'sirining kuchayishi Angliya va Avstriyaning xavfsirashi va noroziligini kuchaytirdi. 1714 yilda Gannover kurfyursti Georg 1 Angliya qiroli bo'ldi. 1719 yilda Angliya, Gannover, Avstriya, Saksoniya va Polsha o'rtasida Rossiya va Prussiyaga qarshi qaratilgan ittifoq bitimi tuzildi. Ittifoq a'zolarining taziyqi ostida Pyotr 1 yon berishga majbur bo'ldi, lekin Angliyaning Rossiya va Prussiyaga qarshi qaratilgan siyosati rus-pruss munosabatlarining mustahkamlanishiga yordam berdi.

XVIII asr davomida Pyotr 1 vorislari davrida rus diplomatiyasi Germaniyada faol siyosat olib bordi, ko'pincha nemis davlatlari o'rtasidagi kurashga, kuchayib borayotgan Avstriya-Prussiya raqobatiga aralashib turdi. Rus qo'shinlari Germaniya hududida ro'y bergan harbiy harakatlarda biror bir nemis davlatining ittifoqchisi sifatida ishtirok etardi. Jumladan 7 yillik urushda (1756-1763) Rossiya Avstriya,

Saksoniya, Frantsiya va SHvetsiya bilan ittifoq bo'lib, Angliya va Prussiyaga qarshi kurash olib bordi. Urush davomida rus qo'shinlari 1760 yilda Berlinga kirib bordilar. Rus imperatori YElizavetaning o'limi Prussiya qiroli Fridrix II ni batamom tor-mor bo'lishdan saqlab qoldi.

GERMAN DAVLATLARI NAPOLEON URUSHLARI DAVRIDA. GERMANIYA ITTIFOQINING TASHKIL TOPISHI.

Napoleon urushlari nemis xalqi taqdiriga katta ta'sir ko'rsatdi. Germaniyada Napoleon hukmronligi o'rnatilib, bir qator hududlar Frantsiyaga qo'shib olindi. 1803 yildan bir qator diniy knyazliklar va mayda ritsarlarning mulklari tugatilib, ularni yirik davlatlarga qo'shib yuborish jarayoni boshlandi. 1806 yilda Reyn ittifoqi tuzilib, Napoleon uning protektori bo'ldi. 1812 yilga kelib Avstriya va Prussiyadan, Shuningdek bevosita Frantsiyaga qo'shib olingan yerlardan tashqari barcha nemis davlatlari Reyn ittifoqiga kirdi. Reyn ittifoqining tashkil topishi 1806 yil avgustda nemis millatining Muqaddas Rim imperiyasining tugatilishiga olib keldi.

Reyn ittifoqi davlatlari Frantsiya bilan mudofaa va hujum bo'yicha ittifoq tuzgan bo'lib, Napoleon ularning qo'shinidan foydalanar edi. Reyn ittifoqi davlatlarida Frantsiya namunasidagi feodalizmga qarshi bir qator islohotlar amalga oshirildi, jumladan dehqonlarning qaramligi bekor qilindi, bir qator davlatlarda Frantsiyaning Fuqarolik kodeksi joriy qilindi va boshqalar amalga oshirildi. Lekin nemis davlatlaridagi bu o'zgarishlar Napoleon rejimi manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilgan edi. Frantsuzlarning hukmronligi ommaviy ravishda mol-mulklarni musodara qilishda, majburiy zayomlarni joriy qilishda, soliqlarni oshirishda, armiyaga rekrutlar olishda yaqqol namoyon bo'ldi. Bularning hammasi, Shuningdek qita'viy qamal nemis aholisining iqtisodiy ahvoliga og'ir ta'sir ko'rsatdi va aholining noroziligi hamda qarshiligini keltirib chiqardi.

Prussiya betaraflikdan voz kechib, Reyn ittifoqining tuzilishiga va frantsuz hukmronligining o'rnatilishiga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ldi. Lekin Prussiya 1806 yilda urushda mag'lubiyatga uchradi. Frantsuz qo'shinlari Berlinga kirib keldilar va Prussiyani okkupatsiya qildilar. Faqat rus imperatori Aleksandr 1 ning aralaShuvi bilan Napoleon 1807 yil iyuldagi Tilzit sulhi bo'yicha Prussiyani saqlab qolishga rozi bo'ldi. Prussiya bir qancha hududlardan ajraldi, katta miqdorda tovon to'lashga va qit'a qamaliga qo'shilishga majbur bo'ldi.

Prussiyani bunday og'ir ahvoldan olib chiqish va Napoleon zulmidan xalos etish uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi. 1807 yilda dehqonlarning shaxsan qaramligi bekor qilindi va ularning to'lovlari va majburiyatlari uchun vikup (sotib olish) belgilandi, tsex tizimi tugatildi. Tarmoqlar bo'yicha vazirliklar tashkil etildi, shaharlarning o'z-o'zini boshqarish tamoyili joriy qilindi. Armiyada dvoryanlarning zobitlik mansablariga tayinlashdagi imtiyozlari bekor qilindi, jismoniy jazo berish bekor qilindi, zahiradagi o'rgatilgan armiya - landver tashkil etildi.

Napoleon I nemis davlatlarining moddiy va inson resurslaridan Rossiyaga bostirib kirishda keng foydalandi. Frantsiya Rossiyaga qarshi urushga mafkuraviy jihatdan tayyorlanishda "Yevropaga qarshi rus xavfi" degan afsonadan keng foydalandi. Napoleon I ning 1812 yilda Rossiyaga bostirib kirgan "buyuk armiyasi"ning uchdan bir qismini nemislar tashkil etardi. Bir qator nemis davlatlari,

Shu jumladan Avstriya va Prussiya ham majburiy ravishda Napoleonning ittifoqchisiga aylangan edilar.

1812 yildagi Vatan urushi davrida ko'plab nemis vatanparvarlari Rossiyada boshpana topib, Germaniyani frantsuzlar zulmidan ozod etish uchun kurashda faol ishtirok etdilar. Bu kurashda rus podshosi tomonidan 1812 yilda Rossiyaga "buyuk ishlar" uchun taklif etilgan sobiq pruss vaziri SHteyn katta rol o'ynadi. Uning taklifi bilan Rossiyada Nemis ishlari bo'yicha Qo'mita va nemis-rus legioni tashkil etildi.

1812 yil iyulida SHteyn tomonidan tayyorlangan va bosh qo'mondon Barklay de Tolli tomonidan imzolangan 10 ming nusxadagi frantsuzlarga qarshi qaratilgan varaqalar Napoleon armiyasidagi nemislarga tarqatildi. Nemis-rus legioni harbiy harakatlarda ishtirok etdi.

1813-1814 yillarda Napoleonga qarshi olib borilgan ozodlik urushlari davomida rus-nemis siyosiy ittifoqi ancha mustahkamlandi, rus imperatori Aleksandr I ning Germaniyadagi obro'si oshdi.

Vena kongressining 1815 yil 8 iyundagi aktiga binoan german millatining Muqaddas Rim imperiyasi o'rnida Germaniya ittifoqi tashkil topdi. Bu ittifoqqa 35 ta suveren monarxiya va 4 ta erkin shahar – Gamburg, Bremen, Lyubek va Frankfurt-Mayn shaharlari kirgan edi. Germaniya ittifoqi mustahkam bo'lmagan birlashma edi. Ittifoqning vakillik organi bo'lgan bundestag Frankfurt-Maynda ittifoqqa kirgan davlatlar vakillaridan iborat bo'lib, Avstriya vakili rahbarligida doimiy ravishda ish olib borardi. Bundestagning qarorlari Ittifoqning barcha a'zolari uchun majburiy emas edi.

Germaniya ittifoqi bo'linmas deb e'lon qilindi. Avstriya bilan Prussiya Ittifoqning eng kuchli davlatlari bo'lib, bundestagning barcha eng muhim qarorlari bu ikki davlatning oldindan kelishib olishiga qarab hal qilinardi. Germaniya ittifoqi nemis xalqini iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymadi, balki Avstriya shtats-kantsleri knyaz Klemanso fon Metternixning qayta tiklash siyosatining quroli bo'ldi.

Germaniyadagi inqilob.

Parijdagi xalq g'alayonlari, Frantsiyada qirol hokimyatining ag'darilishi va respublika o'rnatilganligi to'g'risidagi xabar nemis davlatlarida ham inqilobiy ko'tarilishga olib keldi. 1 mart kuni Frantsiya bilan chegaradosh bo'lgan Baden gertsogligida liberallar va radikal demokratlar ko'pming kishilik xalq yig'inini to'plab, parlamentga petitsiya qabul qildilar. Unda xalqni qurollantirish, ya'ni militsiya tashkil etish, matbuot erkinligi joriy etish, tsenzurani tugatish, siyosiy erkinliklar berish, feodal huquqni bekor qilish, umumgerman parlamentini chaqirish kabi talablar bor edi. Landtag (palata) bu talablarni qo'llab-quvvatladi. Buyuk gertsog landtag qarorini tasdiqlashga va yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish uchun liberallardan iborat hukumat tuzishga majbur bo'ldi.

Boshqa nemis davlatlarida ham 1848 yil martida Badendagiga o'xshash voqealar sodir bo'ldi. Shuning uchun ham Germaniyadagi bu inqilob "mart inqilobi" nomini oldi.

Mart inqilobi Germaniyaning yirik davlatlari – Avstriya va Prussiyaga ham tez yoyildi. Prussiyada 18-19 mart kunlari Berlinda namoyishchilarning qo'shin bilan

to’qnaShuvlari bo’lib o’tdi. Prussiya qiroli Fridrix Vilgelm IV konstitutsiya joriy qilishga va’da berdi.

1848 yil 18 mayda Frankfurt-Maynda Milliy majlisning birinchi yig’ilishi bo’lib o’tdi. Milliy majlis asosan liberallardan va bir qancha demokratlardan, Shuningdek konservatorlardan tashkil topgan edi.

Milliy majlis amalda umumgerman markaziy hokimyatiga aylanmadi. Parlament tomonidan saylangan imperiyaning Muvaqqat hukmdori Avstriya ertsgertsogi Iogann va Muvaqqat imperiya hukumati ham hech qanday vakolatga, hech qanday mablag’ga va biron-bir siyosat olib borish imkoniyatiga ega emas edilar, chunki Avstriya, Prussiya va boshqa davlatlar bunga qarshi edilar. Parlamentda uzoq vaqt davomida imperiya konstitutsiyasining loyihasi, Germaniyaning kelajagi masalasi, Germaniya davlatining “buyukgerman” (Avstriya imperiyasi ishtirokida) yoki “kichikgerman” (Avstriyasiz) variantlari muhokama qilinardi.

1849 yil 28 martda parlament imperiya Konstitutsiyasini qabul qildi, 1849 yil dekabrda esa unga qo’shimcha sifatida “Nemis xalqining asosiy huquqlari” qabul qilindi. Shunday qilib nemis tarixida birinchi marta fuqarolarning erkinliklari e’lon qilindi. Barcha tabaqaviy imtiyozlar tugatilib, o’lim jazosi bekor qilindi. Imperiyaning “kichikgerman” varianti qabul qilinib, Prussiya qiroli Fridrix Vilgelm IV “nemislar imperatori” va ijroiya hokimyati boshlig’i qilib saylandi. Qonunchilik hokimyati vazifasini xalq kengashi (folksxaus) va davlatlar kengashi (shtatenxaus)dan iborat 2 palatali parlament bajarardi. Shunday qilib konservatorlar bu Konstitutsiya yordamida Germaniyada ko’p sonli davlatlarni saqlab qolishga va konstitutsion monarxiya tamoyilini mustahkamlashga erishdilar.

Frankfurt parlamenti qabul qilgan Konstitutsiya amalda hech qanday kuchga ega bo’lmadi. Qirol Fridrix Vilgelm IV taxtga o’tirishdan qat’iyan bosh tortdi, bu esa Germaniyada aksilinqilob boshlanganini va Frankfurt parlamenti faoliyati barbod bo’lganini bildirar edi. Ko’plab nemis davlatlari monarxlari va hukumatlari ham Konstitutsiyani rad etdilar.

Respublika tarafdorlari va demokratlar Konstitutsiyani himoya qilishga va uni hayotga joriy qilishga harakat qildilar. 1849 yil may-iyun oylarida Drezdenda, Reyn viloyati, Pfalts va Badenda Konstitutsiyani himoya qilishga qaratilgan xalq harakatlari bo’lib o’tdi. Lekin ularning hammasi qo’shin tomonidan bostirildi. 1849 yil 18 iyulda Frankfurt parlamenti ham tarqatib yuborildi.

1849 yil iyuniga kelib Prussiyada aksilinqilob mustahkam mavqega ega bo’lib oldi, liberallar hukumati iste’foga chiqarildi.

Inqilob mag’lubiyatga uchradi va nemis xalqi oldida turgan asosiy masalani – Germaniyani milliy jihatdan birlashtirishni hal qila olmadi. Bu inqilob XVIII asrdagi frantsuz inqilobidan farq qilib, o’z yakuniga etmadi, ya’ni monarxiyani tugatishga va feodal tuzum qoldiqlarini bekor qilishga erisha olmadi. Shu bilan birga feodalizmning ko’pgina qoldiqlari tugatildi, Prussiyada va bir qator nemis davlatlarida aholiga ko’pgina huquq va erkinliklar bergan konstitutsiyalar amal qilardi. Bularning hammasi Germaniyada kapitalizmning rivojlanishiga, nemis davlatlarida burjuaziyaning siyosiy hayotda va davlat tizimida ishtirok etish imkoniyatini ko’paytirdi. Inqilob Germaniyada demokratik harakatning o’sganligini, ishchilar tashkilotlari va inqilobiy tashkilotlar va ularning etakchilarining bu harakatdagi roli

kuchayganligini ko’rsatdi. Germaniyani quyidan turib inqilobiy yo’l bilan milliy jihatdan birlashtirish amalga oshmadi. Tarix sahnasiga birlashtirishning boshqa yo’li chiqdi, unda pruss monarxiyasi etakchi rol o’ynadi.

3. Germaniyada milliy davlat tuzish uchun harakat va milliy davlatning tashkil topishi.

Nemis davlatlari ichida gegemonlik qilish uchun Avstriya va Prussiya o’rtasida raqobat kurashi borardi. 1849 yilga kelib Prussiya bu kurashda birmuncha muvaffaqiyatga erishdi. May oyida Prussiya, Gannover va Saksoniyadan iborat “pruss uniyasi” yoki “uch qirol uniyasi” tuzildi, 28 ta mayda va o’rta nemis davlatlari bu uniyaga qo’shildilar. 1850 yil martda Erfurtda bu Yangi ittifoqning Ta’sis parlamenti chaqirildi.

Lekin Avstriyadagi Gabsburglar monarxiyasi Prussiya boshchiligidagi german davlatlari ittifoqidan iborat xavfli qo’shniga ega bo’lishni istamas edi. Rus podshosi Nikolay 1 1850 yil oktabrda Varshavada Prussiya va Avstriya vakillari bilan bo’lgan muloqotda Avstriyani qo’llab-quvvatlashini ma’lum qildi. Prussiya o’zining gegemonlik da’vosidan voz kechishga majbur bo’ldi. Noyabr oyining oxirida Prussiya Avstriya bilan Germaniya ittifoqini va uning asosiy organi bo’lgan bundestagni (unda Avstriya rahbarlik qilardi) qayta tiklash to’g’risidagi Olmyuts bitimini imzoladi. Prussiyaning Germaniyani o’z hukmronligi ostida birlashtirish uchun qilgan birinchi urinishi ana Shunday tarzda natijasiz yakunlandi.

Prussiyada reaktsiya davri boshlandi. 1850 yil dekabrda Mantoyfel prezident-ministr qilib tayinlandi. Uning davrida uch sinfli saylov tizimi joriy qilindi. 1850 yilda joriy qilingan konstitutsiya qirolga katta vakolatlar berdi. Pruss parlamentining palatalari qirol ko’rsatmasi bo’yicha chaqirilir edi, u istagan vaqtida parlamentni tarqatib yuborishi mumkin edi.

Avstriya imperatori 1851 yil oktabrda konstitutsiyani bekor qildi va oshkora ravishda mustabid boshqaruvga o’tildi. Barcha nemis davlatlarida reaktsiya kuchaydi. Germaniya ittifoqi bu reaktsiyani amalga oshirish vositasi edi. Shu maqsad uchun tuzilgan maxsus qo’mita inqilob yillarida nemis davlatlari konstitutsiyalariga kiritilgan o’zgarishlarni “monarxiya tamoyillari” asosida qayta ko’rib chiqishi kerak edi. Qonunlar yordamida ma’muriy organlar kuchaytirildi, harakat qilish erkinligi cheklandi, yig’ilishlar va ittifoqlar erkinligi cheklandi, maktab ustidan qattiq nazorat o’rnatildi. Ishchilar va demokratik harakatning ko’pgina ishtirokchilari Chet ellarga chiqib ketishga majbur bo’ldilar. Mamlakatda og’ir zo’ravonlik siyosati o’rnatildi. Lekin inqilobdan oldingi tartiblarga to’la qaytishning iloji bo’lmadi.

Germaniyada Frantsiyadagi XVIII asr oxiridagi burjua inqilobiga va Angliyadagi sanoat to’ntarishiga asoslangan holda feodal tuzumni tugatish va burjuacha Yangilanishlar sari yo’l tutildi. Bu Germaniyadagi kapitalistik taraqqiyotning alohida o’ziga xos yo’lini – islohotlar yo’lini, uni eng yirik kapitalistik davlatga aylanish yo’lini belgilab berdi.

50-60-yillar Germaniyada juda katta iqtisodiy yuksalish davri bo’ldi. 1857-1859 va 1866-1867-yillardagi iqtisodiy inqirozlarga qaramay, sanoat inqilobi o’zining eng yuksak cho’qqisiga etdi va muvaffaqiyatli yakunlandi. Germaniya dunyoning etakchi sanoat davlatlari ichida Angliya va AQSHdan keyin uchinchi

o’ringa chiqib oldi. Qishloq xo’jaligida feodal tartiblarning tugatilishi Germaniyada sanoatning jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. 1850 yil martda Prussiyada dehqonlarni to’lov (vikup) evaziga feodal qaramlikdan ozod qilish to’g’risida farmon chiqarildi.

Vyurtemberg, Baden, Gessen, Saksoniya va boshqa nemis davlatlarida ham 50-yillar boshlarida feodal tizimni bekor qilishga qaratilgan agrar islohotlar o’tkazildi. 60-yillar boshiga kelib Germaniyaning barcha joyida qishloq xo’jaligida kapitalistik munosabatlar o’rnatildi.

1834 yilda tashkil topgan Germaniya bojxona ittifoqining faoliyati ham sanoatning tez rivojlanishiga yordam berdi. 1854 yilga kelib Avstriyadan tashqari barcha nemis davlatlari bojxona ittifoqiga a’zo bo’lgan edilar. Bu ittifoq o’z a’zolari uchun yagona bojxona tartib-qoidalari va qarorlarini joriy qilib, Chetga tovar chiqarish uchun bojlarni kamaytirib, nemis davlatlarini xalqaro savdo munosabatlariga kirishishiga ko’maklashdi.

Bu davrda engil sanoatga nisbatan og’ir sanoat, ayniqsa mashinasozlik tez rivojlanib bordi. Temir yo’llar qurilishi tezlashdi. Hissadorlik jamiyatlarining soni tez o’sib bordi va u ishlab chiqarish va sarmoyaning kontsentratsiyalashishiga yordam berdi.

Qishloq xo’jaligiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishi tez yuksalib bordi. Ishlab chiqarishning ko’pgina sohalarida mashinalashgan ishlab chiqarishning joriy qilinishi natijasida manufakturalar o’rniga fabrikalar keldi. Sanoatning rivojlanishi, shaharlarning o’sishi qishloq xo’jaligi mahsulotlariga bo’lgan talabni kuchaytirdi, bu esa qishloq xo’jaligining rivojlanishiga yordam berdi. Yirik yunker xo’jaliklari tashkil topdi. Qishloq xo’jalik fanlari rivojlandi, Yangi qishloq xo’jalik mashinalari qo’llanila boshlandi.

Sanoat inqilobining yakunlanish davriga kelib german jamiyatidagi sinflarning mavqei, tarkibi va tuzilishida ham o’zgarishlar yuz berdi. Yirik korxonalar, ayniqsa shaxtalar va metallurgiya zavodlari egalari ichidan juda katta boylikga ega bo’lgan oilalar paydo bo’ldi (Stinneslar, SHtummlar, Krupplar va b.). Banklarning rivojlanishi bilan birgalikda moliyachilarning ta’siri ham o’sib bordi.

Yirik yer egalari, yunkyerlar sinfi ham sezilarli darajada o’zgardi. Qishloq xo’jalik tadbirkorlariga aylangan yunkyerlar yanada boyib bordilar, lekin ularning imtiyozlari qisqardi, Shunga qaramasdan ular davlat tizimida o’z ustunliklarini saqlab qoldilar.

Ishchilar sinfi ham tez o’sib bordi. 40-yillar oxirida va 50-yillarda ishchilarning ish sharoiti va turmushi juda og’ir edi. Oziq-ovqat va uy-joy masalasi juda yomon edi. To’qimachilik sanoatida ishchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etardi, bolalar mehnatidan keng foydalanilardi.

Lekin 60-yillarga kelib bir qator o’zgarishlar yuz berdi. Mehnatni tashkil qilish yaxshilanib, ish kuni ancha qisqardi. Ishlab chiqarishda ancha mukammal, murakkab mashinalarning qo’llanilishi ishchilarning ish malakasini oshirilishiga olib keldi. Ishchilarning ahvoli ancha yaxshilandi. Ish haqi 1860-yildan 1870-yilgacha undan oldingi o’n yillikga nisbatan 4 marta o’sdi. Bunda ishchilarning mustaqil, uyushgan harakatlari va doimiy talablari katta rol o’ynadi.

Nemis dehqonlari ichida ham tabaqalanish yuz berdi. Hamma joyda dehqonlar shaxsan ozod qilinib, feodal renta va erga feodal mulkchilik bekor qilindi. Kapitalistik er bozori va mehnat bozori shakllandi. Qishloqning ijtimoiy tuzilishi ham o'zgardi. Qishloq aholisi katta xo'jaliklarda arzimas haq uchun mehnat qilayotgan ersiz batraklardan, mayda, o'rta dehqonlardan, rivojlangan xo'jalikga ega bo'lgan grossbauerlardan va burjuacha agrar tadbirkorlarga aylanib borayotgan yirik yer egalari, yunkyerlardan iborat edi.

50-60-yillarda xo'jalik hayotida kapitalistik Yangilanishning amalga oshishi, Bojxona ittifoqi ichida yagona ichki bozorning tashkil topishi natijasida umumiy iqtisodiy hayot shakllandi. Bu davrda milliy ong o'sib, milliy jihatdan birlashishga bo'lgan intilish kuchaydi.

Tez o'sib borayotgan burjuaziyani iqtisodiyotni yanada tez rivojlanishiga halaqit beruvchi mayda davlatlarning mavjudligi va yagona fuqarolikning yo'qligi qoniqtirmas edi. Mamlakatni Chet davlatlar xurujidan himoya qila oladigan milliy davlatni tashkil etish nemis xalqining eng zarur ehtiyojiga aylangan edi.

1858 yil oktabrda pruss taxtining vorisi Vilgelm o'z akasi bo'lgan qirolning ruhiy kasalligi tufayli shahzoda-regent deb e'lon qilindi (u 1861 yildan Vilgelm 1 nomi bilan Prussiya qiroli bo'ldi). U Mantoyfelning reaktsion hukumatini iste'foga chiqardi, konservativ-liberal hukumat tuzib, avvalgi reaktsion yo'ldan voz kechilganligini va Yangi hukumat zamon talabi asosida ish olib borishi kerakligini e'lon qildi.

Germaniyani birlashtirishning ikkita yo'li bor edi. Birinchisi quyidan inqilob orqali. Bunda xalq ommasini inqilobiy kurash orqali mayda nemis davlatlari hukmdorlariga qarshi ko'tarish va Shu yo'l bilan Germaniyani birlashtirish edi. Ikkinchisi – yuqoridan turib amalga oshiriladigan inqilob orqali. Bunda eng kuchli hisoblangan ikkita nemis davlatlaridan Avstriya yoki Prussiya rahbarligida mayda nemis davlatlariga qarshi kurash olib borish yo'li orqali Germaniyani birlashtirish mumkin edi. Bu yo'l sulolaviy urushlar, diplomatik keliShuvlar va murosalar yo'li edi.

1860 yil fevralda Prussiya harbiy vaziri fon Roon landtagda harbiy islohotlar o'tkazish taklifi bilan chiqdi. U harbiy xizmat muddatini 2 yildan 3 yilga uzaytirish, askarlar sonini ko'paytirish va armiya tarkibini o'zgartirish taklifi bilan chiqdi. Parlament islohot loyihasini rad etdi, lekin hukumatga favqulodda harbiy xarajatlar uchun 9 mln. taler ajratdi. Bu mablag' islohot loyihasida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun ishlatildi.

1861 yilda parlamentdagi Progresschilar partiyasi qirolga va hukumatga qarshi kurash boshladi. 1861 yil dekabrda landtagga bo'lgan saylovlarda Progresschilar katta g'alaba qozondilar. Natijada Prussiyada konstitutsion inqiroz (konflikt) yuzaga keldi. Qirol 1862 yil martda deputatlar palatasini tarqatib yubordi, liberal ministrlarni ishdan bo'shatdi. Bu "Yangi davr" liberal siyosatining tugaganligini bildirar edi. Qirolning bu harakatlari butun mamlakatda norozilikni kuchaytirib yubordi. Ko'pgina shaharlarda mitinglar o'tkazilib, hukumatning siyosati tanqid ostiga olindi. Qirol Berlinga harbiy qismlarni keltirishga farmon berdi. Qatag'on qilishlarga qaramasdan 1862 yil bahoridagi saylovlarda ham Progresschilar yana ustunlikga erishdilar.

Progresschilar armiyani qayta qurish borasidagi o’z talablari bajarilmasa harbiy xarajatlar uchun mablag’ ajratishni rad etishlarini bildirib, hukumatga taziyq o’tkazishga harakat qildilar. Natijada davlat inqirozi yuzaga keldi. Armiyaning yuqori mansabdagi amaldorlari landtagga nisbatan qat’iy harakat qilish tarafdorlari edilar, qirol esa taxtdan voz kechishga tayyor edi. Lekin yunkyerlarning konservativ-militaristik guruhlari boshqa yo’l topdilar. Ular qirolga vatan xaloskori sifatida 47 yoshli diplomat, 1848 yilda yunkyerlarning aksilinqilobi va kuch ishlatish tarafdori bo’lgan Otto fon Bismarkni tavsiya qildilar. 1862 yil 24 sentabrda Bismark ministr-prezident bo’ldi.

“Quturgan yunker” O.Bismark o’zi kelib chiqqan yunkyerlar tabaqasiga xos barcha xaraktyerlarga ega edi. U butun umri davomida pruss taxtiga sadoqat bilan xizmat qildi va Prussiyaning Germaniyada hukmron bo’lishining qizg’in tarafdori edi. U 1848-1849 yillardagi inqilob davridayoq o’zining demokratiyaga nafrat bilan qarashi orqali tanilgan edi. Lekin sog’lom fikrli, boy diplomatik va siyosiy tajribaga ega shaxs sifatida u Germaniyani birlashtirish davridagi iqtisodiy, ichki va tashqi siyosiy vaziyatga to’g’ri baho bera oldi.

Bismark butun xalq ommasining orzu-istagi bo’lgan milliy davlatni tashkil etish ishini Prussiya monarxiyasi rahbarligi ostida amalga oshirish kerakligini va bunda xalq ommasining inqilobiy chiqishlariga halaqit qilish kerakligini bilar edi. U o’z so’zida davrning buyuk masalalari ko’pchilikning nutqlari va qarori bilan emas, balki temir va qon bilan hal qilinadi, deb aytgan edi.

Shu bilan birga Yevropa markazida Yangi kuchli davlatning tashkil topishi bilan bog’liq tashqi siyosiy muammolar ham paydo bo’ldi. Yevropa siyosatchilari Yangi davlatning tashkil topishi ularning hohishiga bog’liq emasligini bilsalarda, ularning bunga munosabatlari bir xil emas edi. Ularning ko’pchiligi Bismark tarafida edi. Avstriya va Frantsiya Prussiyaga qarshi edi. Rossiya ham, Angliya ham Germaniyani Prussiya rahbarligida Avstriya ishtirokisiz birlashishiga qarshi emas edilar. Rus podshosi Aleksandr II Gogentsollernlar bilan qarindosh bo’lib, bundan tashqari bu ikki davlat Yevropada inqilob xavfiga qarshi birgalikda kurashish an’analariga ega edilar. Rus podshosi o’zining SHarqdagi mavqeini mustahkamlashda Prussiyadan yordam olishga umid qilardi. Angliyaning Gladston boshchiligidagi liberallar hukumati esa birlashgan Germaniyani Yevropada gegemonlikni da’vo qilayotgan Frantsiyaga qarshi tura oladigan kuch bo’la oladi deb o’ylardi. Buning ustiga qirolicha Viktoriyaning qizi Avgusta pruss qirolining turmush o’rtog’i edi. Boshqa Yevropa davlatlari esa o’zaro ziddiyatlar tufayli Prussiyaga qarshi biron-bir jiddiy ittifoq tuza olmas edilar. Shunday qilib 60-yillar boshiga kelib Prussiya uchun qulay vaziyat yuzaga keldi.

Bismark 1866 yil bahorida Vilgelm 1 dan Avstriyaga qarshi urushga tayyorgarlik ko’rish uchun ruxsat oldi va faol harakat qila boshladi. U Italiya bilan Avstriyaga qarshi ittifoqchilik to’g’risida bitim tuzdi.

1866 yil iyunida Bismark yana bir qaltis qadam qo’ydi, u Ittifoq seymiga Germaniya ittifoqining Yangi konstitutsiyasi loyihasini taqdim etdi, unda Avstriyani ittifoqqa kiritmaslik ko’zda tutilgan edi. Keyin pruss qo’shinlari Golshteynga kiritildi. Avstriya seymga Germaniya ittifoqi qo’shinlarini Prussiyaga qarshi safarbarlik e’lon qilish taklifini kiritdi. Lekin 1866 yil 14 iyunda Prussiya o’zini Germaniya ittifoqidan

chiqqanligini e’lon qildi. Ertasi kuni Avstriya bilan Prussiya o’rtasida urush boshlanib ketdi. Baden, Bavariya, Vyurtemberg, Gannover va Saksoniya Avstriya tomonida turib urushga kirdi. Tyuringiya va Shimoliy Germaniyadagi uncha katta bo’lmagan shaharlar Prussiyaning ittifoqchisi bo’ldilar.

Urush boshidanoq ustunlik Prussiya qo’liga o’tdi. Pruss armiyalari general Moltke tuzgan reja asosida harakat qilib, Avstriyaga va uning ittifoqchilariga qaqshatqich zarbalar berdilar. Urushda harbiy maqsadlarda birinchi marta temir yo’llardan va telegrafdan foydalanildi. 1866 yil 3 iyulda Sadovaya yaqinida hal qiluvchi jang bo’ldi va Avstriya mag’lubiyatga uchradi. Keyin pruss qo’shinlari Venaga kirib bordilar.

1866 yil iyul oxirida Avstriya bilan Prussiya o’rtasida dastlabki sulh tuzildi, 23 avgustda esa Venada sulh bitimi imzolandi. Uning shartlariga binoan Germaniya ittifoqi tarqatib yuborildi, Avstriya esa Yangi davlat birlashmasi bo’lgan Shimoliy Germaniya ittifoqiga kirish huquqidan mahrum qilindi. Avstriya SHlezvig, Golshteyn, Gannover, Kurgessen, Nassau va erkin shahar Frankfurt-Maynni Prussiyaga qo’shib olinishiga rozilik berishga majbur bo’ldi, Venetsiya Italiyaga berildi, bulardan tashqari Prussiyaga tovon to’lash majburiyati yuklatildi. Urushning g’alaba bilan yakunlanishi Bismarkka Prussiyadagi konstitutsion inqirozni (konflikt) bartaraf etish imkonini berdi.

1866 yildagi urush Germaniyani birlashtirish yo’lidagi hal qiluvchi qadam bo’ldi. 1866 yil avgustida Vena sulhi imzolangach, 17 ta nemis davlati Shimoliy German ittifoqiga birlashdi. Sentabrda ularga yana 4 ta davlat qo’shildi. Endilikda unga Mayndan Shimolda joylashgan barcha nemis yerlari kirar edi. 1867 yil aprelda Yangidan chaqirilgan reyxstag Shimoliy German ittifoqining Konstitutsiyasini qabul qildi. Huquqiy jihatdan mustahkamlangan yagona iqtisodiy tizim shakllandi. Harakat erkinligi, yagona o’lchov birliklari joriy qilindi, hissadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga halaqit qiluvchi cheklashlar bekor qilindi, yagona jinoyat qonunchiligi o’rnatildi.

Janubiy Germaniyaning katolik yerlari bo’lgan Bavariya, Vyurtemberg, Baden va Gessen-Darmshtadt Yangi ittifoqqa kirmadi. Ular Avstriya tomonga intilar edilar.

Avstriyaning Prussiya bilan bo’lgan urushdagi mag’lubiyati uning Germaniyada hukmron bo’lish uchun uzoq vaqt olib borgan kurashidagi mag’lubiyatini anglatar edi. Buning asosiy sababi Prussiyaning iqtisodiy jihatdan ustunligi edi. Prussiyaning g’alabasi Germaniyani birlashtirish yo’lidagi Avstriya-Prussiya dualizmidan iborat to’siqni bartaraf etdi va Yevropaning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan voqea bo’ldi. Yevropa markazida eski, o’z umrini yashab bo’lgan Germaniya ittifoqi o’rnida milliy nemis davlati – Shimoliy Germaniya ittifoqi tashkil topdi. Avstriya amalda buyuk davlatlik mavqeini yo’qotdi, bu Italiyani birlashtirishni yakuniga etkazish uchun yo’l ochib berdi. Vaziyatning o’zgarishi Frantsiyaning Yevropadagi gegemonligiga ham jiddiy xavf soldi.

Barcha zamondoshlar 1866 yil voqeasini inqilob sifatida baholadilar. Bu “yuqoridan qilingan inqilob”, Bismark inqilobi edi. Otto fon Bismarkning Germaniyani birlashtirishdagi roli juda katta bo’ldi. Uning Prussiya ministr-

prezidenti qilib saylangandan to 1871 yilda yaratilgan Germaniya imperiyasini qurilishini nihoyasiga etkazguncha bo'lgan davr Bismarkning yulduzli davri edi.

4. NEMIS MADANIYATINING RIVOJLANISHI.

XVIII asrda Yevropada Ma'rifatparvarlik nomi bilan keng madaniy harakat yoyildi. U ijtimoiy munosabatlarda, davlat qurilishida va hukmron ideologiyada kapitalizm taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan feodalizm qoldiqlari va ko'rinishlariga qarshi bo'lgan burjuaziya oppozitsiyasining ifodasi edi.

Zamondoshlar XVIII asrni Ma'rifatparvarlik asri deb va o'sha davrda yashab o'tgan madaniyatning ilg'or arboblarini ma'rifatparvarlar deb ataganlar. Ular odamlarni bilimli, ma'rifatli qilish yo'li bilan, diniy uydirmalarni fosh qilish va mavjud tuzumning yomon tomonlarini tanqid qilish orqali tenglik, erkinlik, umumiy baxtga erishish mumkinligiga ishonganlar.

Ma'rifatparvarlarning mavjud tuzumni tanqid ostiga olishlari katta ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'rifatparvarlarning feodal-mustabid tuzumga qarshi, cherkovga
qarshi va boshqa o'rtaasrchilik muassasalariga qarshi kurashi inqilobiy to'ntarish uchun yo'l tozalab, ijtimoiy hayotning yuqoriroq bosqichiga o'tish uchun shart-sharoit yaratib berdi.

Ma'rifatparvarlik arboblari, ma'rifatparvarlar burjuaziya mafkurachilari edilar, o'sha davrda burjuaziya jamiyatning inqilobiy sinfi sifatida maydonga chiqqan edi.

Ma'rifatparvarlik harakati Angliyada paydo bo'lib, unga XVII asr o'rtasidagi ingliz burjua inqilobi katta turtki bergan edi. Ma'rifatparvarlik keyin Yevropadagi boshqa mamlakatlarga yoyildi. Frantsiya Ma'rifatparvarlikning mumtoz vataniga aylandi.

Ma'rifatparvarlik davrida Germaniyada ham bir qator ajoyib yirik namoyandalar etishib chiqdi. Lekin nemis ma'rifatparvarlarining ommaga ta'siri ingliz va frantsuz ma'rifatparvarlari kabi o'ta kuchli bo'lmadi. Buning sababi Germaniyaning siyosiy tarqoqligi, uning iqtisodiy qoloqligi va Shundan kelib chiqqan holda burjuaziyaning zaif, kuchsizligida edi. Nemis byurgerligining mafkurachilari mamlakatdagi mavjud achchiq va og'ir haqiqatdan Chetlashib, falsafa, sof nazariya va musiqaning hissiy dunyosi bilan Shug'ullanishga harakat qildilar.

XVII asrning ikkinchi yarmida ilg'or olimlar yagona adabiy nemis tilini yaratish uchun kurashdilar, Shu maqsadda maxsus jamiyatlar tuzildi.

1652 yilda SHveynfurtda Yevropada dastlabki akademiyalardan biri bo'lgan tabiiyot fanlari akademiyasi ochildi, bu akademiya 1678 yilda umumgermaniya miqyosidagi muassasa bo'lib qoldi.

1687 yildan boshlab universitet ma'ruzalari nemis tilida o'qitila boshlandi, ilmiy jurnallar ham nemis tilida nashr qilina boshlandi.

Nemis Ma'rifatparvarligining dastlabki namoyandalaridan biri bo'lgan yirik faylasuf-idealist Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646-1716 yy) edi. U yagona Germaniya barpo qilish g'oyasini targ'ib qildi. Leybnits har tomonlama ma'lumotla odam bo'lib, ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U falsafa, matematika, tarix sohasida ijod qilgan.

Leybnitsning shogirdi Xristian Volf (1679-1754 yy) matematik, tabiatShunos va faylasuf bo'lib, ma'rifatparvarlik g'oyalarini yoyish uchun ko'p xizmat qildi va Rossiyadagi Fanlar Akademiyasini barpo etishda ishtirok etdi.

Nemis Ma'rifatparvarligining eng yirik faylasufi Immanuil Kant (1724-1804 yy) edi. Kant falsafasining asosiy xususiyati – materializm bilan idealizm orasida o'rtacha yo'lni topishdan iborat edi. Kant ob'ektiv dunyoning mavjudligini e'tirof etar, lekin uni kishilarning bilishi printsipial suratda mumkin bo'lmagan "narsa o'zida" deb hisoblar edi ("narsa biz uchun").

Kant umrining oxirida "oqilona" davlat barpo etish to'g'risida yozdi. U respublikani, abadiy tinchlikga olib kelishi mumkin bo'lgan xalqlar ittifoqi barpo etishni "oqilona" davlat deb tuShundi.

Ma'rifatparvarlik mafkurasi adabiyotda Gotxold Efraim Messing (1729-1781 yy) asarlarida o'z aksini topdi. Messing adabiyotni realistik yo'ldan rivojlantirishni yoqlab chiqdi, feodallar zulmiga, xotin-qizlarning asoratga solinishiga qarshi kurashdi.

XVIII asrning 70-80-yillarida "Bo'ron va taziyq" adabiy harakati keng yoyildi, bu harakat ishtirokchilari o'z asarlarida Germaniyadagi feodal tartiblar zulmini qoralab chiqdilar. Eng yirik nemis yozuvchilari Iogann Volfgang Gyote (1749-1832 yy) va Iogann Fridrix SHiller (1759-1805 yy) o'z asarlarida xalq ommasining harakatlarini yoqlab chiqdilar va demokratik Germaniya barpo etishga chaqirdilar. Kompozitorlar Iogann Fridrix Gendel, Iogann Sebastyan Bax, Kristof Glyuk ijodida ham ma'rifatparvarlik g'oyalari o'rin olgan edi.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Buyuk geografik kashfiyotlar Germaniyaga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. 30 yillik urush Germaniya uchun qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Vestfaliya sulhi qachon tuzildi?
4. Nemis millatining Muqaddas Rim imperiyasi qanday davlat edi?
5. Brandenburg-Prussiya davlatining iqtisodiy taraqqiyotining sabablari nimada edi?
6. "Ma'rifatli absolyutizm" siyosatining mohiyati nimada edi?
7. Prussiya qachon qirollikga aylandi?
8. Prussiyada qachon "Ma'rifatli absolyutizm" islohotlari o'tkazishga harakat qilindi?
9. XVIII asr boshlarida Rossiya bilan nemis davlatlari o'rtasidagi munosabatlar haqida so'zlab bering.
10. Nemis davlatlarining Napoleon urushlari vaqtidagi ahvoli qanday bo'lgan?
11. Nemis millatining Muqaddas Rim imperiyasi qachon tugatildi?
12. Reyn ittifoqi qachon tashkil topdi?
13. Germaniyada 1848 yil inqilobiy voqealari haqida so'zlab bering.
14. Prussiyadagi konstitutsion konflikt (inqiroz) haqida so'zlab bering.
15. O.Bismarkning Germaniyani birlashtirishdagi roli haqida so'zlab bering.
16. Germaniyadagi ma'rifatparvarlik harakati haqida so'zlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.T.1-2. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998
2. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A. L. Narochnitskogo. M. 1986.
3. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-7. M. 1960.
4. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
5. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
6. Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Evropi i Ameriki (1640- 1870). Sostavitel E.E.YUrovskaya. M. 1990.
7. Jahon tarixi. (G'arb mamlakatlari 1640-1918 yy).O'quv-uslubiy qo'llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.
8. Yangi tarix. T.1. T.1967.
9. Yangi tarix. T.2. T.1973.

5 - Mavzu: AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASI XVII ASRNING 2- YARMI - XX ASR BOSHIDA.

R E J A : 2 soat

4. Avstriya XVII asrning 2-yarmida.
5. Avstriya merosi uchun kurash.
6. Avstriya imperiyasi Napoleon urushlari davrida.
4. Avstriya imperiyasi 1849-1867-yillarida.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Gabsburglar sulolasi. 30-yillik urush (1618-1648). Nemis millatining Muqaddas Rim imperiyasi. Imperator Leopold I. 1660 yildagi Avstriya-Turkiya urushi. Tabaqaviy Konstitutsiya. Davlat Kengashi. Nikoh ittifoqi. Transilvaniyadagi qo'zg'olon. Imre Tyokyoli. Papa Innokentiy XI. YAn Sobeskiy. Evgeniy Savoyskiy. Karlovitsa sulhi (1699). Ispan merosi uchun urush (1701-1713). F. Rakotsi. Satmar sulhi (1711). Utrext va Rashtadt sulhlari (1713, 1714 yy). Pragmatik sanktsiya. Mariya Tereziya. Etti yillik urush (1756-1763 yy). "Ma'rifatli absolyutizm" siyosati. Iosif II. Harbiy islohotlar. Maktab islohoti. "Tolerantlik to'g'risida patent". Frants II. Avstriya va antifrantsuz koalitsiyalari. K. Metternix. Vena kongressi. 1848-1849 yillar inqilobi. Saroy to'ntarishi. Frants Iosif (1848-1916). Vengriyada 1848 yil inqilobi. Rus armiyasining Venaga yurishi. Inqilobning bostirilishi. Avstriya-Prussiya urushi (1866). Avstriya-Vengriya imperiyasining tashkil topishi.

1. AVSTRIYA XVII ASRNING IKKINCHI YARMIDA.

30 yillik urush (1618-1648) va unga yakun yasagan Vestfaliya sulhi (1648 y) Gabsburglar sulolasining yuksalishida va Avstriyaning buyuk davlatga aylanishida muhim bosqich bo'ldi. Bu urushda chex qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi natijasida CHexiya taxtiga tegishli bo'lgan yerlar (CHexiya, Moraviya, Sileziya) uzil-kesil Avstriyaga qo'shib olindi. Katoliklar sulolasi protestantlar ustidan g'alaba qozondi. Juda ko'plagan protestant dvoryanlar, shaharliklar, savdogarlar, hunarmandlar o'z mulklaridan mahrum bo'ldilar va quvg'in qilindilar.

Urush va Vestfaliya sulhining eng muhim oqibatlaridan biri bu nemis millati Muqaddas Rim imperiyasining tushkunlikga uchrashi va uning bir necha yuz mustaqil mayda davlatlarning kuchsiz, zaif ittifoqiga aylanishi bo'ldi. Germaniya buyuk davlat bo'lmay qoldi. Vestfaliya sulhining kafili hisoblangan SHvetsiya va Frantsiya qirollari Germaniya ishlariga aralishish huquqiga ega bo'ldilar. Muqaddas

Rim imperiyasi imperatorining faxriy nomi faqat nomigagina saqlanib qoldi. Gabsburglar bilan Frantsiya o'rtasida Germaniyada gegemon (etakchi) bo'lish uchun uzoq davom etgan kurash boshlandi.

Imperator Leopold 1 Avstriyani Yevropadagi kuchli davlatga aylantirish uchun kurash boshladi. U mahalliy feodallarning hokimyatini cheklab qo'ydi, butun mamlakat uchun yagona bo'lgan soliq tizimi va boshqaruv tizimini joriy qildi. Bu islohotlar avj olib turgan bir davrda Avstriyaga usmonli turklarning bostirib kirish xavfi paydo bo'ldi. XVII asrning 2-yarmidan boshlab turklarning Venetsiya, Polsha, Rossiyaga qarshi muntazam hujumlari boshlandi. 1660 yilda birinchi Avstriya-Turkiya urushi boshlandi. Turklar armiyasi Transilvaniya knyazi armiyasini tor-mor etib, Avstriya chegarasiga yaqinlashib qoldi. Vengr feodallari tomonidan qo'llab-quvvatlangan Avstriya armiyasi bu urushda turklarni engdi. Lekin Avstriya qo'shini turklarni taqib qilib bormadi va 1664 yilda ikki davlat o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi, unga ko'ra turklar egallagan yerlar ularning qo'lida qoldi. CHunki bu davrda Avstriya imperatori Vengriya qirolligining g'arbiy va Shimoli-g'arbiy qismlarini o'z hududiga qo'shib olish masalasi bilan band edi. Vengriya taxti nikoh ittifoqiga asosan 1526 yildanoq Gabsburglarga tegishli edi. Lekin Vengriyaning markaziy qismini turklar egallab olgan edi, sharqda yarim mustaqil Transilvaniya knyazligi mavjud edi, g'arbiy viloyatlar esa Avstriya hukmronligi ostida edi. Lekin bu hukmronlik zaif va mustahkam emas edi. Gabsburglar qirollikning eski tabaqaviy konstitutsiyasini bekor qilishga jur'at qila olmadilar, bu konstitutsiyaga binoan qonunchilik hokimyati qirol bilan Davlat kengashiga tegishli edi. Joylardagi hokimyat amalda mahalliy dvoryanlar tomonidan amalga oshirilardi. Vengriyaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan yaxshi uyushgan dvoryanlari Gabsburglarga qarshi ko'plab isyon va qo'zg'olonlarga boshchilik qilardilar. Ular orasida milliy monarxiyani tiklash g'oyasi yoyila boshlagan edi.

1670 yilda eng yirik vengr va xorvat dvoryanlarining Avstriyaning asosiy dushmani bo'lgan Frantsiya saroyi bilan til biriktirgan fitnasi yuzaga keldi. Keyingi yili bu fitna fosh etildi va 3 fitnachi qatl qilindi. Leopold Vengriyaga yollanma qo'shin kiritdi, gubernatorlik joriy qilib, jazolash ishlarini kuchaytirib yubordi. Fitnada qatnashishda ayblanib, minglab dvoryanlar harbiy tribunallarga berildi, ularning mulklari xazina foydasiga musodara qilindi. Avstriya qo'shinlari protestantlarning cherkovlari va maktablarini egallab, ruhoniylar va o'qituvchilar sud qarori bilan xuddi oddiy jinoyatchilar kabi harbiy kemalarga qul qilib yuborildi. Minglagan odamlar shafqatsiz jazolanishdan qochib, o'z yashab turgan joylarini tashlab, mamlakatning Transilvaniya bilan chegaradosh bo'lgan Shimoli-sharqiy hududlariga yashirindilar. 1670 yilda bu erda qaram dehqonlar va harbiy xizmatdan haydalgan askarlarning qo'zg'oloni boshlanib ketdi. 1678 yilda qo'zg'olonga dvoryanlardan bo'lmagan yirik pomeshchik Imre Tyokyoli boshchilik qila boshlagach uyushgan tusga kirdi.

Ikki yil davomida Tyokyoli boshchiligidagi qo'zg'olonchilar qirollikning butun Shimoliy qismini avstriyaliklardan ozod qildilar. Avstriya imperatorining Vengriyani ham markazlashgan mustabid davlat tarkibiga kiritish rejasi amalga oshmadi. Leopold gubernatorlikni bekor qildi va 1681 yilda 20 yillik tanaffusdan keyin Davlat kengashini chaqirdi va unda knyaz P.Esterxazi hokim qilib saylandi.

Kengash dvoryanlarning imtiyozlarini mustahkamlab qo'ydi va bir qator komitatlarda (Vengriya Qirolligidagi asosiy ma'muriy birlik) protestant diniga e'tiqod qilishga ruxsat berdi. Dvoryanlarning bir qismi qo'zg'olondan Chetlashdi. Tyokyoli qo'shini va dehqonlar qo'zg'olonni davom ettirdilar, lekin ular turk sultoni homiyligiga o'tishga majbur bo'ldilar, bu esa ular olib borayotgan sharafli ishning obro'sini tushirib yubordi.

TURKIYA BILAN URUSH. KARLOVITSA SULHI.

Usmoniylar imperiyasi 1683 yilda Avstriyaga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Shu yili yozda turklarning 100 ming kishilik armiyasi imperiya poytaxti Venani qamal qilishni boshladilar. Imperator poytaxtni o'z holiga tashlab, saroy ahli bilan YUqori Avstriyaning poytaxti Lintsga qochdi. 12 ming kishilik garnizonga ega bo'lgan Vena himoyachilari turklarga bas kela olmas edi. Sentabr oyiga kelib ahvol juda og'irlashdi. Nihoyat Vena turklarni Yevropa bo'sag'asida to'xtatib turgan so'nggi to'siq ekanligini tuShunib etgan Yevropalik hukmdorlar turklarga qarshi birlashishga kirishdilar. Papa Innokentiy X1 vositachiligida Polsha qiroli YAn Sobeskiy Avstriya imperatori bilan ittifoq tuzdi, unga keyinroq Venetsiya, Genuya, Toskana, Portugaliya, Ispaniya va bir necha yildan keyin Rossiya ham qo'shildi. Shu davrning eng qudratli davlati hisoblangan Frantsiya ittifoqdan Chetda qoldi. Shu tariqa musulmon Usmoniylar imperiyasiga qarshi xristian Yevropasining "Muqaddas Liga"si tuzildi. Turklarning Venani shturm qilishga tayyorlanayotgan bir davrda ittifoqchilar yordamga etib keldilar va turklarni mag'lubiyatga uchratdilar.

1688 yilda imperator armiyasi Belgrad qal'asini qo'lga kiritdi va Bolqonga kirib bordi. Avstriyaning g'alabasidan tashvishga tushib qolgan Frantsiya qiroli Lyudovik XIV Leopold bilan tuzilgan sulhni buzib, Pfaltsga bostirib kirdi va avstriyaliklar o'z kuchlarining bir qismini Germaniyaga tashlashga majbur bo'ldilar. Urush harakatlari cho'zilib ketdi, unga Avstriya shahzodasi Evgeniy Savoyskiy rahbarlik qila boshlagach, avstriyaliklar ustun kela boshladilar. Mohir sarkarda va diplomat bo'lgan E.Savoyskiy Vena va Buda uchun bo'lgan janglarda o'zini ko'rsatdi va 30 yoshida feldmarshal unvoniga ega bo'ldi. U 1697 yilda Zenta yonida Vengriya taqdirini hal qilgan va imperiyani buyuk davlatga aylantirgan tarixiy g'alabani qo'lga kiritdi. 1699 yilda Karlovitsa sulhi tuzilib, Vengriyaning katta qismi ustidan deyarli bir yarim asrdan beri hukm surib kelayotgan turklar zulmi tugatildi. Mamlakatning Temesh Banatidan tashqari deyarli barcha hududi ozod qilindi.

Vengriyaning deyarli butun hududida davom etgan o'n yillik urush mamlakatni xarobaga aylantirdi. Buning ustiga imperator qo'shinlari bu erda o'zlarini bosqinchilardek tutib, aholini talar edilar. Boy savdo markazi bo'lgan Debretsen bir kun ichida qashshoq shaharga aylantirildi. 60-80 ming kishilik armiyani ta'minlash butunlay aholi zimmasiga yuklatilgan edi. Saroy vengr dvoryanlarining musodara qilingan er mulklarini saxiylik bilan o'zga erliklarga – generallar va armiya ta'minotchilariga tarqatar edi. Avstriya absolyutizmi Vengriyani avval o'ziga bo'ysundirish, keyin esa uni qashshoq va katolik mamlakatga aylantirish rejasini amalga oshira boshladi.

1701-1711 YILLARDAGI OZODLIK URUSHI.

XVIII asr boshida Gabsburglar bilan Burbonlar o'rtasidagi raqobat yana keskinlashdi. Ispaniya taxtidagi Gabsburglarning so'nggi vakili bo'lgan farzandsiz Karl II Ispanskiyning o'limi Yevropada katta urushning boshlanishi uchun bahona bo'ldi. 1701 yilda Ispan merosi uchun urush boshlandi va unga deyarli barcha Yevropa davlatlari tortildi. Bir yildan keyin Avstriyaga ikki frontda – Frantsiyaga qarshi va uning ittifoqchisi bo'lgan Vengriyaga qarshi urush olib borishga to'g'ri keldi. Gabsburglarga qarshi qaratilgan Yangi harakatga turklarga va Avstriyaga qarshi ko'p sonli urushlarda ishtirok etib o'zini ko'rsatgan Transilvaniya knyazlarining vorisi 25 yoshli Ferents Rakotsi (1676-1735) rahbarlik qildi. Rakotsi ismining o'zi mustaqillik uchun kurashning ramziga aylangan bo'lib, Rakotsining o'gay otasi Imre Tyokyoli va onasi Ilona Zrina ham avstriyaliklarga qarshi qurolli kurash olib borgan edilar.

Rakotsi 1703 yilda kurash olib borib, mamlakatning katta qismini avstriyaliklardan ozod qildi. Uning armiyasi 1704 yilda Avstriya chegarasiga etib kelib, Venaga xavf sola boshladi.

1705 yilda Rakotsi Davlat kengashini chaqirib, Gabsburglarni Vengriya konstitutsiyasini buzishda aybladi, Avstriya taxtiga Leopold I o'rniga kelgan imperator Iosif I ni qirol sifatida tan olishdan bosh tortdi. Rakotsi Vengriyaning hukmron knyazi deb e'lon qilindi. Frantsiya Vengriyaga iqtisodiy tomondan faqat ramziy ma'noda yordam ko'rsatdi, ya'ni Rakotsining 70 ming kishilik armiyasidan faqat 5 ming askarga maosh to'lab turdi. Avstriya va uning ittifoqchilari bo'lgan Angliya va Gollandiya qo'shinlari frantsuz-bavariya qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, chekinishga majbur qildilar.

Rakotsi vengr milliy davlatini qurishga kirishdi. Muhim davlat ishlarini hal qilish uchun senat va iqtisodiy kengash joriy qilindi, milliy pul – mis tangalar zarb qilina boshlandi. Vengriya tarixida lotin tilida birinchi gazeta "Merkurius Veridikus" chiqa boshladi, Yangi maktablar ochildi, fan va san'at rivojlana boshladi. Lekin mamlakat va urush taqdirini hal qilishdagi asosiy narsaga – jamiyatning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki sinfini murosaga keltirib bo'lmadi. Rakotsi qaram dehqonlarning taqdirini yaxshilashga harakat qildi. 1708 yilda urush oxirigacha armiyada xizmat qilgan qaram dehqonlarni ozod qilish to'g'risida farmon chiqardi. Vengriya tarixida dvoryanlar birinchi marta soliqqa tortildilar.

Rakotsi mamlakat ichidagi siyosiy vaziyat yomonlashgan bir davrda kuchli ittifoqchi yordamiga muhtoj edi. Bunday sharoitda Rossiya ana Shunday ittifoqchi bo'la olardi. 1707 yilda knyaz Pyotr I bilan ittifoq tuzdi, elchilar almashildi, knyaz rus-frantsuz muzokaralarida vositachi bo'ldi. Lekin Rossiya bu vaqtda SHvetsiya bilan Shimoliy urushni olib borayotgan va turklarga qarshi kurashayotgani uchun o'z ittifoqchisiga amalda yordam bera olmadi. 1708 yilda boshlab Rakotsidan harbiy yutuqlar ham yuz o'gira boshladi. Yangi harbiy qismlar bilan o'z qo'shinini kuchaytirib olgan Avstriya Vengriyada birin-ketin g'alabaga erisha boshladi. Dvoryanlar ichida Avstriya bilan murosaga kelish kayfiyati kuchaydi. Rim papasi vengr dvoryanlaridan "qonuniy qirol" Iosif I ga bo'ysunishni talab qilib chiqdi. Rakotsi Pyotr I bilan uchrashish uchun Varshavaga jo'nab ketdi, armiyaga qo'mondonlik qilishni va vaqtni cho'zish uchun avstriyaliklar bilan muzokaralar olib

borishni SHandor Karoyiga topshirdi. U esa Avstriya bilan Satmar sulhini tuzdi (1711 y) va vengrlarga qurollarni topshirishga buyruq berdi. Sulh shartlari bo'yicha Avstriya imperatori Vengriya konstitutsiyasini hurmat qilishga va din erkinligi joriy qilishga va'da berdi. Urush ishtirokchilari avf etildi.

Rakotsiga ham avf taklif etildi, lekin knyaz sharmandali avfdan ko'ra abadiy quvg'inlikni afzal ko'rdi. U Varshavadan Versalga jo'nadi, lekin frantsuz qirolidan yordam ololmagach Turkiyaga jo'nab, umrining oxirigacha Shu erda yashadi. Vengriya o'z mustaqilligini qo'lga kirita olmadi, lekin Satmar sulhi Avstriyaga o'z mustabid hokimyatini Vengriyaga ham yoyishga to'sqinlik qildi. 1713-1714 yillardagi Utrext va Rashtat sulhlari bilan o'z yakuniga etgan Ispan urushi Avstriyaning Ispaniyani va ispan Amerikasini qo'lga kiritish umidini batamom yo'qqa chiqardi. Lekin Gabsburglar Italiyada Sardiniya, Milan, Mantuya, Mirandolani, Ispan Niderlandiyasini (hozirgi Belgiya), Reynda bir qator hududlarni qo'lga kiritdi. Avstriya 1716-1718 yillarda Usmoniylar imperiyasidan Vengriya hududining so'nggi qismi bo'lgan Banatni, Shuningdek Serbiyaning Belgarad bilan birgalikdagi bir qismini, Bosniya va Valaxiyaning bir qismini tortib oldi. Bu bilan Avstriya Gabsburglari imperiyasi XVIII asr boshida o'zining butun tarixidagi eng katta hududlarga ega bo'ldi.

Lekin qirg'oqlarini Adriatika, O'rtaer va Shimoliy dengizlar yuvib turuvchi bu ulkan davlat ilgarigidek mo'rt birlashma bo'lib, uning birligini, mustahkamligini ta'minlaydigan umumiy boshqaruv tizimi ham, umumiy qonunchilik ham yo'q edi. Imperiyaning barcha qismlari o'z tabaqaviy tashkilotlari, o'z ana'nalari, qonunlari, urf-odatlari yordamida boshqarilardi. Ularni ba'zi vaqtlarda o'z boshqaruv apparatiga ega bo'lmagan Avstriyadan yuborilgan hokimlar boshqarardi.

Avstriyada ham Vengriyadagi kabi krepostnoylik munosabatlari – qishloqlarda krepostnoylik huquqi, shaharlarda tsexlar hukmronlik qilardi. Avstriya-chexiya viloyatlari imperiyaning o'zagini tashkil qilib, bu yerlarda absolyutizmning markazlashish darajasi ancha yuqori edi. Bu yerlarda savdo va manufakturalar ancha rivojlangan bo'lib, davlat Chetga tovar chiqarishni rag'batlantirar edi.

4. AVSTRIYA MEROSI UCHUN KURASH.

Avstriyadagi hukmron Gabsburglar sulolasidan bo'lgan imperatorning o'g'li yo'qligi va taxt vorisi uchun erkaklar liniyasi bo'yicha voris yo'qligi Gabsburglar sulolasining tugatilish xavfini keltirib chiqargan edi. Shuning uchun taxtga imperator Karl o'limidan keyin uning qizi Mariya Tereziyani o'tqazish uchun taxt vorisi to'g'risidagi qadimdan kelayotgan qonunni o'zgartirishga qaror qilindi. 1713 yilda Karl Pragmatik sanktsiya chiqarib, unda taxtga xotin-qizlar liniyasi bo'yicha ham vorislikni joriy qildi hamda Gabsburglar sulolasi mulklarini bo'linmas va meros bo'lib o'tishini e'lon qildi. Yevropa davlatlari Pragmatik sanktsiyani e'tirof qildilar.

Lekin 1740 yilda imperator vafot etib, taxtga 23 yoshli Mariya Tereziya o'tirgach, o'zlarining oldindan olgan majburiyatlariga qaramasdan Frantsiya, Prussiya, Bavariya, Ispaniya, Savoyya hukmdorlari unga qarshi chiqdilar. Bavariya kurfyursti esa Avstriya taxtiga da'vogar bo'lib chiqdi. Prussiya imperiyaning eng boy va rivojlangan qismi bo'lgan Sileziyani egallab, "Avstriya merosi uchun urush"ni boshladi (1740-1748). Mamlakatga g'arb tomondan Karl Albert Bavarskiy o'z

qo’shinlari bilan bostirib kirdi, Gabsburglarning dushmanlari Bavarskiyni Karl VIII nomi bilan CHexiya qiroli va Rim imperatori qilib sayladilar (1742-1745).

Ana Shunday qaltis vaziyatda Avstriyani halokatdan Vengriya qutqarib qoldi. Imperatritsaning iltimosini hisobga olgan vengrlar unga o’n minglagan saralangan askar va zarur pul mablag’larini etkazib berdilar. Mariya Tereziya tez orada bavariyaliklarni mag’lubiyatga uchratdi, CHexiyada o’z hokimyatini qayta tikladi va eri Frants Ferdinandga Rim imperatori unvonini qaytarib olib berdi. Lekin Sileziya Fridrix II (Prussiya) qo’lida qoldi. Axen sulhi bo’yicha (1748) Mariya Tereziya Parma va Piatsentsani ham berishga majbur bo’ldi, lekin Pragmatik sanktsiyani Yevropa davlatlari tomonidan tan olinishiga erishdi.

ETTI YILLIK URUSH.

Avstriya merosi uchun bo’lgan urushdan keyin Prussiya Yevropadagi buyuk davlatga aylandi. Shundan keyin Fridrix II juda katta agressiv rejalarni ishlab chiqdi. U Saksoniya va CHexiyani bosib olishni, sharqda Polshaning bir qismini o’z hududiga qo’shib olishni, Polshaga qaram bo’lgan Kurlandiya gertsogligiga o’z qarindoshi shahzoda Genrix Gogentsollernni o’tqazishni maqsad qilib qo’ygan edi. Bular o’z navbatida Avstriya manfaatlariga va uning ittifoqchisi bo’lgan Rossiyaning manfaatlariga xavf solar edi. Rossiya davlati Polsha va Kurlandiyani o’z ta’siri ostida saqlashga intilardi.

Mariya Tereziya Sileziyani boy berilishiga rozi emas edi. U Avstriyaga qarshi ittifoq tuzishga harakat qildi. 1756 yilda Avstriya bilan Frantsiya o’rtasida Versal ittifoqchilik bitimi tuzildi va bu bilan ikki davlat o’rtasidagi ikki asrlik dushmanlikga barham berildi. Angliya bunga javoban Prussiya bilan Vestminster ittifoqchilik bitimini tuzib, urushga diplomatik jihatdan tayyorgarlik ko’rishni oxiriga etkazdi. Mustamlakalar uchun ingliz-frantsuz kurashining keskinlashishi va pruss agressiyasining Avstriya, Frantsiya va Rossiya manfaatlari bilan to’qnashishi 1756-1763 yillardagi Etti yillik urushga olib keldi.

Etti yillik urush (1756-1763) Sileziya uchun urush kabi boshlandi. Buyuk Fridrix dushmanlaridan o’zib ketishga harakat qilib, Avstriyaga hujum boshladi va bu bilan xalqaro munosabatlarda me’yor sifatida “preventiv (cheklangan, ajratilgan) urush”ni qaror toptirdi. Lekin u yanglishgan edi. Prussiyaning o’zi urush maydoniga aylandi. Uning poytaxti ikki marta – dastlab ruslar va avstriyaliklar tomonidan , keyin vengrlar tomonidan bosib olindi. Prussiyani batamom tor-mor qilinishidan Rossiyaning to’satdan urushdan chiqishi qutqarib qoldi. Malika YElizaveta vafotidan keyin Rossiya taxtiga gertsog Golshteynskiy Pyotr III nomi bilan o’tirgach, u Fridrix II ga qarshi urushni to’xtatdi va Rossiya imperiyasi manfaatlariga to’g’ri kelmasa ham Daniyaga qarshi Prussiya bilan ittifoq tuzdi. 1762 yilda Prussiya Avstriya va Frantsiya bilan sulh tuzdi. Davlatlarning Yevropadagi chegaralari o’zgarishsiz qoldi. Lekin Angliya okean ortida Frantsiyaning eng boy mustamlakalarini bosib oldi va eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi.

Etti yillik urushda Mariya Tereziya Sileziyani qaytarib ololmadi. Lekin Fridrix II ham o’z bosqinchilik maqsadlarini amalga oshira olmadi, bunga Rossiyaning g’alabalari halaqit berdi. Rossiyaning Avstriya va Frantsiya bilan bo’lgan ittifoqi tarqalib ketdi. Pyotr III vafotidan keyin taxtga o’tirgan YEkaterina II Daniyaga

qarshi Prussiya bilan tuzilgan bitimni bekor qildi, lekin Prussiya bilan yaqinlashish siyosatini davom ettirdi. Urush yakuni Germaniyada Prussiya bilan Avstriyani deyarli bir-biriga teng davlatga aylantirdi.

“Ma’rifatli absolyutizm” siyosati.

Mariya Tereziya va uning o’g’li Iosif II “Ma’rifatli absolyutizm” ruhidagi islohotlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Islohotlar asosan Avstriya-chexiyadagi merosiy mulklarda o’tkazildi. Islohotlar katta mablag’larni talab qilardi, davlat xazinasi esa bo’shab qolgan edi. Eng avvalo harbiy va ma’muriy-moliyaviy sohalarda katta o’zgarishlar qilindi. YOllanma xizmat o’rniga markazlashgan rekrutlik asosidagi umrbod harbiy xizmat joriy qilindi, Vena harbiy akademiyasi tashkil etildi. Tabaqaviy tashkilotlar davlat hokimyatining ijroiya organlari bilan almashtirildi, soliq ishi ham davlat qo’liga o’tdi.

Mariya Tereziya hisobga olish va nazoratning markazlashgan tizimini joriy qildi, u mamlakat tarixida birinchi marta er mulklarni va aholini ro’yxatga olishni amalga oshirdi, dvoryanlar va ruhoniylarning soliq imtiyozlarini bekor qildi. Bir qator farmonlar asosida qaram dehqonlarning ahvoli ancha engillashtirildi, barshchina haftasiga avvalgi 5-6 kundan 3 kungacha kamaytirildi, pomeshchiklarning qaram dehqonlar ustidan sud hokimyati cheklab qo’yildi. Imperatritsa 1776 yilda o’rta asrlarga xos bo’lgan qiynoqqa solishni taqiqlab qo’ydi va jazo sifatida o’lim jazosini qo’llashni cheklab qo’ydi, jinoiy huquqn@ tartibga soldi.

Xalq ta’limiga va puxta o’ylangan maktablar tizimiga asos solgan maktab islohoti katta ijobiy ahamiyatga ega bo’ldi. Hisob, o’qish va yozishga o’rgatadigan qishloq maktablari, shahar maktablari, qishloq o’qituvchilarini tayyorlovchi maktablar va universitetlar tashkil etilib, ularda dunyoviy va tabiiy-ilmiy fanlar diniy fanlardan ustun qo’yilardi. Iosif II davrida (1780-1790) yanada keskinroq, ba’zan puxta o’ylanmagan islohotlar amalga oshirildi. Avstriya-chexiya viloyatlarining, Shuningdek Galitsiyaning dehqonlari ozod qilindi. Iosif II krepostnoylik huquqini bekor qildi, dehqonlarni shaxsan ozod qildi, lekin ularning majburiyatlari saqlanib qoldi.

Diniy bag’rikenglik to’g’risidagi demokratik tamoyillarning e’lon qilinishi ko’p millatli imperiyaning katta qismida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega bo’ldi. “Tolerantlik (diniy bag’rikenglik) to’g’risidagi patent” sharqiy-grek (pravoslav) va protestantlik cherkovlarining kamsitilishini bekor qildi, protestantlarga o’z dinlariga erkin e’tiqod qilishlariga, jamoatchilik va davlat ishlari bilan Shug’ullanishga, maktablar va cherkovlar qurishga ruxsat berdi. Rim-katolik cherkovi o’zining ko’pgina huquq va imtiyozlaridan, Shu jumladan papa bullalarini imperator ruxsatisiz e’lon qilish huquqidan maxrum bo’ldi. Iosif “foydali faoliyat” bilan Shug’ullanmaydigan, ya’ni kasallarni davolash, bolalarni o’qitish va Shunga o’xshash ishlar bilan Shug’ullanmaydigan diniy orden va monastirlarni tarqatib yubordi. Hatto Venaga kelib diniy islohotlarni bekor qilish yoki ularni yumshatishni iltimos qilgan Rim papasining safari ham natijasiz tugadi.

“Ma’rifatli absolyutizm”ning namunaviy modelini yaratishga ahd qilgan Iosif II nafaqat ayrim shaxslarning, balki tabaqalar va hatto butun-butun xalqlar manfaatlari bilan hisoblashmasdan harakat qilardi. U xalq uchun va xalq manfaatlari uchun harakat qilayapman deb ishonardi. Lekin Shu bilan birga u bu ishlarni xalq

ishtirokisiz ham amalga oshirib bo'ladi, ya'ni "hammasi xalq uchun, lekin uning ishtirokisiz" degan tamoyilga amal qilardi. Iosif II bu quroq imperiyada boshqaruvni qattiq markazlashtirish va bir xillikga erishish uchun nemis tilini yagona rasmiy til (ish yuritsh tili) deb e'lon qildi, imperiyada yashovchi boshqa xalqlarning tillari ikkinchi darajali deb hisoblandi. Bu esa mazlum xalqlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi hamda milliy adabiyot va madaniyatning rivojlanishi uchun qudratli harakatni yuzaga keltirdi. Ko'pgina slavyan xalqlarida bu harakat "milliy tiklanish" harakati nomi bilan tarixga kirdi. Boshqaruvning despotik uslublari Belgiyada va Vengriyada oshkora noroziliklarni keltirib chiqardi.

Iosif Gabsburgning "Ma'rifatli absolyutizm" siyosati hal qilib bo'lmaydigan masalani - eski, o'z umrini yashab bo'lgan feodal-tabaqaviy iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarni Yangi burjuaziya davri talab-ehtiyojlariga moslashtirish yo'li bilan feodalizmni qutqarish masalasini hal etolmadi. 1784 yilda Transilvaniyada 30 mingga yaqin qaram dehqonlar ishtirok etgan feodallarga qarshi isyon ham bundan darak berardi.

3. AVSTRIYA IMPERIYASI NAPOLEON URUSHLARI DAVRIDA.

Iosif II ning ukasi Leopold II davrida (1790-1792) asta-sekinlik bilan "Ma'rifatli absolyutizm"dan feodal-absolyutistik reaktsiyaga o'tish boshlandi. Inqilobiy Frantsiyaga qarshi kurash, imperiyani parchalanib ketishdan saqlab qolish birinchi o'ringa chiqdi. Yangi imperator tashqi siyosatda ancha ustomon va ichki siyosatda ancha yon beruvchi bo'lib chiqdi. U avvalgi imperatorning islohotlaridan norozi bo'lgan aristokratlar va dvoryanlarning ishonchini qozona oldi. Vengriyaga uning qadimgi konstitutsiyasini qaytardi, uni bir butun deb e'lon qildi. 1788 yilda Turkiya bilan boshlanib ketgan urushni to'xtatdi va Avstriyaning ashaddiy dushmani bo'lgan Prussiya bilan ittifoq tuzdi va bu bilan prusslarning Vengriya va Belgiyada Avstriyaga qarshi olib borayotgan ig'vogarliklariga barham berildi. Avstriya London va Peterburgning taziyqiga qaramasdan Frantsiyaga qarshi qaratilgan birinchi koalitsiyaga qo'shilmadi va singlisi, Frantsiya malikasi Mariya Antuanettaning iltimoslariga qaramasdan Frantsiyaga ham yordam bermadi.

Avstriya taxtiga Frants II o'tirgach (1792-1835) vaziyat keskin o'zgardi. Uning qarashlari va siyosatini hatto matbuotda ham Frantsiya inqilobi haqidagi xabarlarni bosishni taqiqlash to'g'risidagi dastlabki farmonlaridan bilib olsa bo'ladi. Avstriya imperiyasi Yevropada feodal-monarxiyacha tartiblarni tiklash va mustahkamlash uchun Frantsiyaga qarshi uzoq cho'zilgan urushlar girdobiga tortildi. Avstriya Shu davrdan boshlab Frantsiyaga qarshi qaratilgan barcha koalitsiyalarda ishtirok etdi va ularning ko'pchiligida mag'lubiyatga uchradi.

Gabsburglarning Frantsiyaga qarshi olib borgan urushlari odatda ularning mag'lubiyatlari bilan tugardi, Avstriya hududi bir necha marta urush maydoniga aylandi. 1806 yilda Napoleon taziyqi ostida Gabsburglar nemis millatining Muqaddas Rim imperiyasi imperatori unvonidan abadiy maxrum bo'ldilar. Monarxiya Avstriya imperiyasi deb atala boshlandi, Frants II esa Frants I ga aylandi.

1809 yilda frantsuzlar Avstriyani yana bir marta tor-mor qilishgach, mohir diplomat, Avstriya va Yevropa siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan Klemens Metternix tashqi ishlar vaziri va amalda hukumat boshlig'i bo'ldi. Metternix olib borgan

mohirona diplomatik siyosat natijasida Avstriya barcha urush kompaniyalarini boy berib va 1812-1813 yildagi hal qiluvchi urushda ishtirok etmasdan turib ham g'olib davlatlar qatoridan o'rin olishga muvaffaq bo'ldi. Aynan Avstriya uzoq davom etgan urushlar davriga yakun yasagan va Yevropa qit'asi xaritasini qaytadan tuzib chiqqan sulh konferentsiyasini tashkil etish sharafiga musharraf bo'ldi. Yevropa mamlakatlari va xalqlari taqdirini bir necha o'n yillarga oldindan belgilab bergan Vena kongressida asosiy rolni Rossiya imperatori Aleksandr I, Britaniya ministri Kaslri bilan bir qatorda imperator Frants I ning qudratli ministri Metternix o'ynadi. U Yevropadagi inqiloblarni va hurfikrlilikni bostirish uchun tuzilgan Muqaddas ittifoqning mualliflaridan biri edi. Vena kongressi Avstriyaga Belgiyadan tashqari barcha boy berilgan mulklarini qaytarib berdi. Avstriya qaytadan tashkil qilingan Germaniya ittifoqiga kirib, Frankfurtdagi ittifoq kengashida raislik qilish huquqiga ega bo'ldi. Germaniya va Italiyada o'z ta'sirini tiklab olgan Avstriya Yevropadagi bu ikki buyuk millatning birlashishi yo'lidagi qudratli to'siqqa aylandi.

4. AVSTRIYA XIX ASRNING 50-60 YILLARIDA.

1846 yildagi iqtisodiy inqiroz va 3 yil davom etgan (1845-1847) hosilsizlik imperiya uchun halokatli natijalarga olib keldi. Pulning qadrsizlanishi, qimmatchilik, oziq-ovqatlar narxining keskin ko'tarilishi, ishsizlar sonining oshib ketishi imperiyada keskin vaziyatni yuzaga keltirdi. 1848 yil 13 martda Vena kambag'allari, talabalar va shaharliklarning namoyishlari va stixiyali chiqishlari bilan Avstriyada inqilob boshlanib ketdi. Minglagan shaharliklar landtag binosi oldiga to'planishib, knyaz Metternixning iste'foga chiqishini va konstitutsiya e'lon qilinishini talab qildilar.

Hukumat Venaga qo'shin kiritdi, ishchilar va talabalar ko'chalarda barrikadalar qurdilar. Talabalar Akademik legion tashkil etishga kirishdilar. Askarlarning bir qismi xalqqa o't ochishdan bosh tortdi. Imperatorning o'zi ham ikkilanib qoldi. U talabalarga qurol berishga rozi bo'ldi va burjua Milliy gvardiyasini tuzishga to'sqinlik qilmadi hamda Metternixni iste'foga chiqardi. Inqilob birinchi muhim inqilobni qo'lga kiritdi. Yangi tashkil qilingan hukumat tarkibiga liberal burjuaziya vakillari ham kirdi.

Inqilobiy lagerdagi turli ijtimoiy kuchlarning vaqtincha birlashishi tez orada o'z nihoyasiga etdi. Burjuaziya, ayniqsa uning yuqori qatlami qo'lga kiritilgan yutuqlardan qanoat hosil qilib, Shu yutuqlarni saqlab qolishga intildi. Xalqning quyi qatlamlari esa o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qilish huquqini amalga oshirish, egri soliqlarni bekor qilish, 10 soatlik ish kuni o'rnatish, ish haqini oshirish uchun kurashni davom ettirdilar. Dehqonlar bekor qilingan majburiyatlar uchun pomeshchiklarga haq to' ashni yo'q qilishni talab qildilar. Hukumat konstitutsiya loyihasini ishlab chiqdi, unda burjua erkinliklari (matbuot, yig'ilish, so'z), ikki palatali parlament va uning oldida javobgar bo'lgan hukumat tuzish kabilar o'rin olgan edi. Imperator bir qator huquq va vakolatlarga ega bo'lib, u oliy bosh qo'mondon, reyxstag (parlament) qarorlariga veto qo'yish huquqiga ega edi. Saylov huquqi yuqori mulk tsenzi asosida tashkil etilgan edi.

Absolyutizmning bu shakldagi tiklanishiga qarshi Vena demokratlari Milliy gvardiyaning Siyosiy qo'mitasi nomli tashkilot tuzdilar. Hukumat bu qo'mitani tarqatib yuborishga harakat qilganda xalq ommasi 15 may kuni ko'chalarga chiqib,

barrikadalar qura boshladi. Hukumat yon berishga majbur bo'ldi, ertasi kuni qo'mitani tarqatish to'g'risidagi farmon bekor qilinib, askarlar shahardan olib ketildi. Kechasi imperator boshchiligidagi saroy ahli saroyni yashirin holda tashlab, Alp tog'lari etagida joylashgan Tirol viloyatiga jo'nab ketdi. 26 mayda harbiy vazir graf Latur Akademik legionni qurolsizlantirishga harakat qildi. Talabalarga ishchilar yordamga kelishdi. Qo'zg'olon ko'targanlarning qat'iy harakatlari ishchilarning bir qismini ular tomoniga o'tishiga olib keldi. Venada hokimyat Adolf Fishxof boshchiligidagi ijtimoiy xavfsizlik qo'mitasi qo'liga o'tdi. Imperator armiyasi asosiy qismining inqilob alangasi ichida qolgan Vengriya va Italiyada joylashganligi Venadagi inqilob g'alabasini ancha engillashtirdi.

Iyul oyida demokratiya va reaktsiya kuchlari o'rtasida keskin to'qnaShuvlar maydoniga aylangan Avstriya reyxstagining majlislari boshlandi. Reyxstag depututlari ichida slavyan xalqlari – chexlar, polyaklar, ukrainlar vakillari, Shuningdek dehqonlar manfaatlarini himoya qiluvchilar ko'pchilikni tashkil etardi. Lekin siyosiy etakchilikni mo''tadil liberallar o'z qo'llariga oldilar, bu esa qabul qilingan qarorlar mohiyatiga va xarakteriga o'z ta'sirini o'tkazdi. Reyxstag feodal-krepostniklik munosabatlarini bekor qilish to'g'risida qonun qabul qildi, bu eng muhim yutuqlardan biri edi. Feodal majburiyatlarning bir qismi bepul bekor qilindi. Ularning ichida eng og'iri bo'lgan obrok va barshchina uchun haq to'lash talab qilinardi. Reaktsiya kuchlari dehqonlar ommasining katta qismini o'z tomoniga og'dirib ola oldi va ularni demokratik kuchlarga qarshi qo'yishga erishdi. Bu esa Avstriya inqilobi uchun halokatli rol o'ynadi. Shu bilan birga reaktsionyerlar dehqon depututlari ovozi bilan Italiya va Vengriyaga qarshi aksilinqilobiy urush olib borish uchun mablag' ajratish to'g'risidagi qarorni ham tasdiqlatib olishga erishdilar.

Inqilob kun tartibiga milliy masalalarning bir butun murakkab majmuasini, Shu jumladan nemis milliy masalasini ham qo'ygan edi. Avstriya burjuaziyasining Germaniyani birlashtirishning 2 varianti – buyukgerman va kichikgerman variantlariga munosabati ham ziddiyatli edi. Nemis tilida so'zlaShuvchi avstriyaliklarning ko'pchiligi o'zlarini umumgerman etnosotsial jamoasining bir qismi hisoblardilar. Gabsburglar sulolasi kabi Avstriya burjuaziyasi Yangidan birlashadigan Germaniyada o'zlarini rahbarlik rollariga da'vogar hisoblab, uning tarkibiga kirishga tayyor edilar, bunda ular Avstriya imperiyasida yashovchi xalqlarning hohish-irodasini hisobga olmasdilar. Shuning uchun ham Avstriya delegatlarining Frankfurtda o'tgan majlisida chexlar va boshqa slavyan xalqlarining xavotirlanishi o'rinli edi. Avstriyaning an'anaviy raqibi bo'lgan Prussiya ham va boshqa nemis davlatlari ham bunga qarshi edilar.

1818 yil iyunda Frankfurtda imperiyadagi slavyan halqlarining s'ezdi bo'lib, uning ishtirokchilari Avstriya imperiyasini saqlab qolish tarafdorlari bo'lib chiqdilar va uni Germaniya tarkibiga kirishiga qarshi chiqdilar.

Avstriya askarlarining Pragadagi tinch namoyishchilarga hujum qilishlari Praga qo'zg'oloniga olib keldi. Bu qo'zg'olon Avstriya harbiylari tomonidan 1848 yil 17 iyunda shafqatsizlik bilan bostirildi.

Venada ishchilar, hunarmandlar, talabalarning chiqishlari boshlandi. Imperator saroyi chexlarning Olomouts shahriga yashirindi. 22 oktabrda Vena

hukumat qo’shinlari tomonidan o’rab olindi. 1 noyabrda shahar askarlar tomonidan shturm bilan olindi.

Inqilobiy Vengriyaning Vena qo’zg’olonchilariga yordamga kelayotgan armiyasi tor-mor etildi. Avstriya inqilobi o’z nihoyasiga etdi, navbat Vengriyaga etdi. Bu vazifani osonlashtirish uchun 2 dekabrda kichkina saroy to’ntarishi o’tkazildi: irodasiz va aqli zaif Ferdinand taxtdan Chetlashtirilib, taxtga uning 18 yoshli qarindoshi Frants Iosif (1848-1916) o’tirdi.

VENGRIYADA 1848 YIL INQILOBI.

Vengriyadagi burjua inqilobi 1848 yil 15 martda boshlanib ketdi. Peshtda SHandor Petyofi boshchiligidagi radikal yoshlar guruhining chaqirig’iga asosan ishchilar, hunarmandlar, talabalar bosmaxonani egallab, inqilobiy varaqalar chiqardilar va “12 modda” nomli inqilobiy dastur ishlab chiqdilar. Unda burjuacha erkinliklar bilan bir qatorda barshchinani yo’q qilish, milliy bankni ta’sis etish, mamlakatdan imperiya qo’shinlarini olib chiqish, vengr polklarini mamlakatga qaytarish, mustaqil hukumat tuzish, Vengriyani Transilvaniya bilan birlashtirish (uniya tuzish) talablari ham bor edi.

Namoyishchilar inqilobiy hokimyat organi sifatida ijtimoiy xavfsizlik Qo’mitasini tashkil qildilar. 17 martda Davlat kengashi oldida javobgar bo’lgan Vengriyaning birinchi hukumati tuzildi. Unga muxolifat rahbarlaridan biri bo’lgan graf Layosh Battyani boshchilik qildi, Layosh KoShut moliya vaziri bo’ldi. Dehqonlar islohoti o’tkazilib, barshchina va cherkov ushri bekor qilindi, ishlov beriladigan yerlarning 1/3 qismi dehqonlar qo’liga o’tdi. Dehqonlar tabaqasining 40 foizini tashkil etuvchi qaram dehqonlar teng huquqli mulkdorlarga aylandilar.

Mart oyining oxirida Vena saroyi Vengriyaning inqilobda qo’lga kiritgan yutuqlarini yo’q qilishga harakat qildi. Lekin Pesht shahri aholisining qat’iy chiqishlari imperatorni inqilobiy qonunlarni rasmiy ravishda tasdiqlashga majbur qildi. Qirollikdagi barcha xalqlar burjua erkinliklari va erga ega bo’ldilar, lekin vengr bo’lmagan xalqlarning milliy huquqlari to’g’risidagi masala hatto kun tartibidan ham o’rin olmagan edi. Shuning uchun ham Vengriya inqilobi tez orada o’zining potentsial ittifoqchilaridan maxrum bo’la boshladi, Avstriya reaktsiyasi esa milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha ishlarni amalga oshirdi. Aholining asosiy qismini serblar tashkil qiluvchi mamlakatning janubida tez orada qurolli to’qnaShuvlar boshlanib ketdi.

1848 yil sentabrda Vengriyaga qarshi aksilinqilobiy urush boshlanib ketdi, Vengriya hududiga xorvat bani Elachich boshchiligidagi qo’shin bostirib kirdi. Vengriyada KoShut boshchiligidagi mudofaa Qo’mitasi dushmanga qarshilik ko’rsatishga rahbarlik qildi. O’zining Yangi bosqichiga kirgan inqilob ozodlik urushiga aylandi. Sentabr oyining oxirida vengrlar xorvatlar hujumini to’xtatdilar, keyin ularni Avstriyaga uloqtirib tashladilar. 1849 yil bahorida vengr qo’shinlari imperator armiyasini bir necha marta qattiq mag’lubiyatga uchratdilar va yana Avstriya chegaralariga chiqdilar.

Avstriya imperiyasining ahvoli halokatli tus oldi. CHor Rossiyasining harbiy interventsiyasi Avstriyani bu halokatdan qutqarib qoldi.Feldmarshal Paskevich boshchiligidagi 200 ming kishilik rus armiyasining Vengriya hududiga bostirib

kirishi bu erdagi inqilobni mag'lubiyatiga olib keldi. Vengriya armiyasining asosiy kuchlari 1849 yil 13 avgustda qarshilik ko'rsatishni to'xtatdi.

AVSTRIYA IMPERIYASI 1849-1867 YILLARDA.

Inqilob bostirilgandan keyin imperiyada neoabsolyutizm nomli tartibot o'rnatildi. Uning mohiyatini yirik burjuaziyaning monarxiya va yirik yer egalari bilan ittifoqi tashkil etardi. Lekin feodal-absolyutistik tartiblarni to'la holda qayta tiklash, "eski tartiblar"ga to'la qaytish amalga oshmadi. 1851 yilda imperator tomonidan 1849 yilda "hadya qilingan" konstitutsiyaning bekor qilinishi bilan neoabsolyutizm to'la shakllandi. Krepostnoylik qayta tiklanmadi. Qishloq xo'jaligini kapitalistik yo'lga o'tkazilishi, tashqi savdoga cheklovlarning bekor qilinishi, temir yo'l va paroxodchilik kompaniyalariga yer uchastkalari, ruda konlari va shaxtalarni sotib olishda imtiyozlarning berilishi iqtisodiyotni jonlanishiga olib keldi. Temir yo'llar qurilishining kuchayishi natijasida 60-yillar oxiriga kelib 6 ming kilometr temir yo'llar qurildi.

Lekin imperiyaning ichki va xalqaro ahvoli mustahkam emas edi. Qrim urushi davrida imperiyaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik mavqesida turganligi uning tashqi siyosatda yakkalanib qolishiga olib keldi. Avstriya 1859 yilda Frantsiya va Pemont bilan bo'lgan urushda mag'lubiyatga uchradi va o'zining eng boy viloyatlaridan biri bo'lgan Lombardiyadan ajraldi. Bu mag'lubiyatdan keyin neoabsolyutizm tartiboti inqirozga yuz tutdi.

Avstriya konstitutsion tajribalar o'tkazish yo'liga o'tdi. Lekin 1860 va 1861 yillarda e'lon qilingan konstitutsiyalar loyihalari ("Oktabr diplomi" va "Fevral patenti") juda mo''tadil bo'lib, liberal burjuaziyani qanoatlantirmadi. Bu loyihalar Vengriyada keskin norozilikni keltirib chiqardi. Mo''tadil siyosatchi Ferents Deak boshchiligidagi vengr dvoryanlari "passiv qarshilik" e'lon qilib, Avstriya hukumati bilan hamkorlik qilishdan bosh tortdilar va 1848 yilgi konstitutsiyani tiklashni talab qildilar. 1866 yildagi Avstriya-Prussiya urushida mag'lubiyatga uchragan Avstriya Germaniyadan abadiy ketishga majbur bo'ldi, Avstriya hukmron guruhlari Vengriyadagi muxolifatchilar bilan muzokaralar olib borishga majbur bo'ldilar. 1867 yil fevralda Avstriya-Vengriya bitimi tuzilib, dualistik Avstriya-Vengriya monarxiyasi tuzildi, unda har ikki davlat ham ichki ishlarida o'z mustaqilligini saqlab qoldilar.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Avstriya Gabsburglarining Yangi davr boshidagi mulklari to'g'risida so'zlab bering.
2. 30-yillik urush (1618-1648 yy) Avstriya uchun qanday oqibatlarga ega bo'ldi.
3. Turkiya-Avstriya urushi va Karlovitsa sulhi (1699 y) haqida so'zlab bering.
4. Avstriya va ispan merosi uchun urush (1701-1713).
5. Avstriya merosi uchun urush (1740-1748 yy) va uning Avstriya uchun oqibatlari.
6. Avstriya etti yillik urush (1756-1763) davrida.
7. Avstriyada "Ma'rifatli absolyutizm" siyosatini amalga oshirish uchun harakat.
8. Avstriya imperiyasi Napoleon urushlari davrida.
9. Vena kongressi va unda ko'rilgan masalalar.

10. Avstriyada 1848-1849 yillar inqilobi.
11. Vengriyada 1848 yil inqilobi.
12. Avstriya-Vengriya imperiyasining tuzilishi va siyosiy tuzumi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998.
2. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-6. M. 1960.
3. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A.L.Narochnitskogo. M. 1986.
4. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
5. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.T.1. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998.
6. Jahon tarixi. (G'arb mamlakatlari 1640-1918 yy). O'quv-uslubiy qo'llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.
7. Mualliflar jamoasi. Yangi tarix. T.1. T. 1967.

6-MAVZU: ITALIYA XVII ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHIDA.

R E J A : 2 soat.

1. Italiyaning XVII asr oxiri – XVIII asr boshlaridagi ijtimoiy iqtisodiy ahvoli.
2. Italiya XVIII asrda.
3. Italiyada milliy davlat tuzish uchun kurash va milliy davlatning tashkil topishi.

1. Italiya XVII asrning 2-yarmidan XVIII asr oxirigacha.
2. Italiya XVIII asr oxiridan - XIX asr o'rtalarigacha.
3. Italiyani birlashtirish uchun kurash va milliy davlatning tashkil topishi.
4. Italiyaning XIX asr oxirgi choragi – XX asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Siyosiy tarqoqlik. Avstriya Gabsburglari. Ispan Burbonlari. Ispan merosi uchun urush (1701-1714). Bojxona to'siqlari. Imtiyozli tabaqalar. "Ma'rifatli absolyutizm" siyosati. Italyan ma'rifatparvarlari. Tashqi savdoga homiylik. Risorjimento. Italyan "Yakobinchilari". "Napoleon Kodekslari". Karbonariylar. Vena kongressi. Italiya tarixida Restavratsiya davri. Siyosiy reaktsiya. J. Madzini. "YOsh Italiya". Inqilobchi-demokratlar. Mo''tadil-liberallar. Sanoat to'ntarishi. Birinchi Italiya-Avstriya mustaqillik urushi. Karl-Albert. Rim respublikasi. J.Garibaldi. B.K.Kavur. "Minglar ekspeditsiyasi". Sitsiliyadagi qo'zg'olon. Plebistsit. YAgona Italiya qirolligi.

1. ITALIYA XVII ASRNING 2-YARMIDAN XVIII ASR OXIRIGACHA.

XVI asrdayoq Janubiy Yevropa mamlakatlari bo'lgan Italiya va Ispaniya siyosiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib, Italiyaning katta qismida ispan Gabsburglarining hukmronligi o'rnatilgan edi. Mamlakat Shimolida Pemont, O'rta

Italiyada Papa viloyati va 2 shahar-respublika – Genuya va Venetsiyadan tashqari deyarli butun Italiya 2 asrga yaqin Ispaniya viloyatlari sifatida mavjud bo'lib turdi. Ispanlar hukmronligi Italiyani juda ko'p urushlarga giriftor qilishdan tashqari, uning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, mamlakatda feodal reaktsiyaning tarqalishi va mustahkamlanishiga ko'maklashdi.

Italiyada XVI asrda boshlangan feodal reaktsiyasi butun XVII asrda va qisman XVIII asrda ham davom etdi. XVIII asrga kelib Italiya Yevropadagi savdo gegemonligini yo'qotdi. Sanoat ishlab chiqarishi ham keskin qisqarib ketdi. Chet elliklarning hukmronligi zulmi, siyosiy tarqoqlik, iqtisodiy jihatdan qoloq, doimiy urushlar girdobida qolgan Italiyaning ahvoli og'ir edi. XVII asrning ikkinchi yarmida ham Italiya davlatlari o'rtasidagi o'zaro urushlar to'xtamadi. Frantsiyaning Gabsburglarga qarshi olib borgan urushlari ham asosan Italiya hududlarida kechdi.

Italiya ayniqsa ispan merosi uchun bo'lgan urush davrida (1701-1713) juda katta talofat ko'rdi, uning hududi frantsuz-ispan va Avstriya qo'shinlari o'rtasidagi jang maydoniga aylandi. Bu urushda kim g'olib chiqishiga qaramasdan italyan shaharlari tovon to'lashga majbur qilinardi, dehqonlar esa bosqinchilar tomonidan talanar, ularning ekin maydonlari payhon qilinardi. Italiya davlatlari hukmdorlari esa urushayotganlarning goh u guruhiga, goh bu guruhiga qo'shilib, o'z fuqarolari boshlariga katta kulfatlar olib kelardilar.

Ispan merosi uchun olib borilgan urush 1713 yilda Frantsiyaga qarshi davlatlar ittifoqining g'alabasi bilan yakunlandi. Ispanlar va frantsuzlar Apennin yarim orolidan haydab chiqarildi. Lekin tarqoq va vayron qilingan Italiya ularning mag'lubiyatidan o'z mustaqilligini qo'lga kiritish uchun foydalana olmadi. 1714 yildagi Rashtadt sulhiga ko'ra Ispaniyaning Italiyadagi mulklari (Neapol qirolligi, Milan gertsogligi, Toskana va Sardiniya oroli) va u bilan birgalikda yarim oroldagi hukmronlik Avstriya qo'liga o'tdi. Bir Chet elliklarning zulmi ikkinchisi bilan almashdi.

Ispan Burbonlari o'zlarining Italiyadagi mulklarining qo'ldan ketishiga rozi bo'lmadilar. Shuning uchun ular Italiyaga qarshi bir necha marta bosqinchilik urushlari olib bordilar. Ispan Burbonlari bilan Avstriya Gabsburglari o'rtasidagi urushlar Italiya territoriyasida to 1748 yilgacha davom etdi.

1746 yilda Avstriya qo'shinlari Genuyaga yaqinlashdi, hukumat ularga qarshilik ko'rsatmay, shahar darvozalarini ochib berdi. Avstriyaliklar shaharga juda katta tovon soldilar va kambag'al aholini tahqirladilar.

SHahar aholisi avstriyaliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi, shahar zodagonlari ularga qurol berishdan bosh tortdi, lekin qo'zg'olonchilar qurolxonalarni bosib olib, qurollandilar, ularga shahar atrofidagi dehqonlar ham qo'shildi. 6 kun davom etgan qonli janglardan keyin avstriyaliklar shahardan quvib chiqarildi. Genuya respublikasining mustaqilligi saqlab qolindi.

1748 yilda Yevropa davlatlarining Axen sulh shartnomasiga muvofiq ispan Burbonlari Italiyadagi kuchli ta'sirlaridan ozgina qismini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Ular qaytadan barpo etilgan ikkala Sitsiliyadan (Neapol va Sitsiliya) iborat mustaqil qirollik taxtiga ispan qiroli Filipp V ning o'g'li Don Karlosni o'tqazdilar. Lekin yarim orolning Shimolida avstriyaliklar hukmronligi mustahkam o'rnatildi: Lombardiya Avstriya imperiyasi tarkibiga kirdi, Toskana taxtiga Gabsburglar

xonadoni vakili o'tirdi. Savoyya qirolligi endi Savoyya, Sardiniya va Pemontdan tashkil topdi. Boshqa italyan davlatlarining ahvoli va chegaralari deyarli o'zgarmadi va Italiya XVIII asr o'rtalariga kelib ham Chet davlatlarning fitna va agressiyalari oldida himoyasiz kichik davlatlar konglomerati (yig'indisi) bo'lib qolaverdi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida Italiya iqtisodiyoti og'ir tanazzulni boshdan kechirdi. Chet el bosqinchilari olib borgan urushlar, mamlakat ichkarisidagi o'zaro janjallar qishloq xo'jaligi va sanoatni xonavayron qildi. Bir vaqtlar shaharlarida kapitalizm tug'ilib rivojlangan Italiya XVIII asr o'rtalarida agrar mamlakat bo'lib qoldi. Shimoliy Italiyada ishlov beriladigan yyerlarning 2/3 qismi va Markaziy hamda Janubiy Italiyada 9/10 qismi diniy va dunyoviy feodallar qo'lida edi. Janubdagi ba'zi latifundiyalarda o'n minglab aholi yashardi.

Qishloq xo'jalik texnikasi juda qoloq, hosildorlik past edi, juda ko'p yyerlar ekilmasdan qolar, mamlakatda g'alla etishmas va Chetdan keltirilar edi.

Yer egalari o'z xo'jaliklarini to'g'ri, ratsional yurgizish haqida o'ylamas edilar. Dvoryanlar o'z yyerlarini kichik uchastkalarga ajratib, ijaraga berardilar, ijarachilar hosilning yarmini, ba'zan 2/3 qismini to'lashga majbur bo'lardilar va turli xil majburiyatlarni bajarar edilar. Dehqonlar o'z senorlariga uylarida tovuq, cho'chqa boqqanligi, mol so'yganligi, axlatlarni chiqarib tashlaganliklari uchun ham to'lov to'lashga majbur edilar. Bulardan tashqari dehqonlar davlatga va cherkovga soliq to'lashga majbur edilar. Janubiy Italiyada dehqonlar zimmasidagi har xil soliqlar, majburiyatlar va to'lovlarning soni yuzdan oshib ketardi. Sitsiliya qirolligi va Toskanada krepostnoy qaramlik sarqitlari saqlanib qolgan edi. Bu erda erga birkitilgan dehqonlar toifasi mavjud bo'lib, ular qochib ketishga harakat qilsalar, senorlar ularni umrbod qamoqqa mahkum qilardilar.

Italiya davlatlari o'zlarining Shimoliy va Markaziy Yevropaning Levant (SHarq) bilan bo'ladigan savdo yo'llarida joylashishdek qulay geografik imkoniyatlaridan foydalana olmasdilar. Genuyada ham, Venetsiyada ham, ikki Sitsiliya qirolligida ham dengiz yo'llarining xavfsizligini ta'minlay oladigan kuch va imkoniyatlar yo'q edi. O'rtaer dengizida turk va barbar (Shimoliy Afrikalik) qaroqchilari hukmronlik qilardilar. SHarqiy O'rtaer dengizi bozorlarida ilgari hukmronlik qilgan italyan savdogarlarini G'arbiy Yevropaning rivojlangan savdo firmalari siqib chiqara boshladi.

Italiyaning o'zida dehqonlarning og'ir ahvoli sanoat mahsulotlarining sotilishiga halaqit berib, ichki bozorning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Ichki bojxona bojlari tovar qiymatini deyarli 2 marta oshirib yuborardi. Har bir italyan davlatlari o'rtasida emas, hatto har bir shahar o'rtasida bojxona zastavasi o'rnatilgan edi. Janubiy Italiyaning o'zidagina 367 ta ana Shunday bojxona zastavasi bo'lib, uning 122 tasi davlatniki, 245 tasi xususiy edi. Neapolda tovarni bir kvartaldan ikkinchi kvartalga olib o'tishda ham boj olinardi.

Buning ustiga yo'llarning yomonligi, yagona o'lchov va pul tizimining yo'qligi, qonunlarning turli-tumanligi ham Italiyaning ahvolini yanada yomonlashtirar edi va yagona umummilliy bozor tashkil topishiga katta g'ov bo'lardi.

Sanoat ham og'ir ahvolda edi, tsex korporatsiyalari o'zlarining turli talablari bilan texnika taraqqiyotiga to'siq bo'lar edilar. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ham qisqarib ketdi. Milanda jun gazlama to'qish XVIII asr boshiga kelib XVII asr

boshidagidan 15 marta qisqardi. Kremonda XVI asrda 5 ming to'quvchilik stanogi bo'lgan bo'lsa, 1749 yilda faqat 60 tasi qoldi, uning aholisi deyarli 4 marta qisqardi. Sanoat tanazzullga uchradi, ishchilarning ko'pchiligi Chet ellarga ko'chib ketdilar.

Feodal reaktsiyasi mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Jamiyat tabaqaviy to'siqlar bilan bir-biridan ajratilgan edi. Imtiyozli tabaqalar hisoblangan ruhoniylar va dvoryanlar davlatga soliq to'lashdan ozod qilingan edilar. Faqat dvoryanlargina armiya va davlat apparatida yuqori lavozimlarni egallashlari mumkin edi. Ba'zi italyan davlatlarida dvoryanlar uchun alohida sudlar va alohida qonunlar joriy qilingan edi. Arzimas jinoyat sodir qilgan hunarmand bir umrga kemalarga eshkakchi qilib yuborilardi, jinoyat sodir qilgan dvoryan esa engil jazo bilan qutulib qolardi.

Rim papasi homiyligi ostidagi ruhoniylar tabaqasi juda katta er-mulklarga ega bo'lib, jamiyatda katta ta'sir kuchiga ega edilar. Mamlakat ruhoniylar, monaxlar, iezuitlarga to'lib ketgan edi. Papa viloyatida butun hokimyat ularga tegishli bo'lib, boshqa italyan davlatlarida boshqaruv ishlarida ularning ta'siri juda katta edi. Lekin ruhoniylar tabaqasi ichida katta farqlar bor edi: prelatlar – cherkov knyazlari o'z boyliklari va ta'sir kuchlari bo'yicha yirik dunyoviy feodallardan qolishmas edilar, qishloqning kambag'al ruhoniylari esa dehqonlardan uncha farq qilmas edilar, shahar klirlari esa italyan jamiyatining burjua elementlari bilan bog'lanib ketgan edi.

2. ITALIYA XVIII ASR OXIRIDAN - XIX ASR O'RTALARIGACHA.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Italiyada 40 yil davom etgan tinchlik davrida iqtisodiyot va madaniyat yuksala bordi. Aholi soni o'sib, qishloq va shaharlar kengaydi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'paydi, dehqonchilik rivojlandi.

Dvoryan mulklarining meros bo'lib o'tishi, mayorat kabi feodal tartib-qoidalar qishloqda burjuaziyaga erga ega bo'lishni qiyinlashtirar edi. Shuning uchun ham kapitalistik tadbirkorlar yirik ijarachilik faoliyati bilan cheklanishga majbur bo'lardilar. Feodal tartiblar hali buzilmasdan saqlanib qolgan va natural xo'jalik hukm surayotgan Janubiy Italiyada shaharlik ijarachilar feodallar bilan dehqonlar o'rtasidagi vositachiga aylangan edilar. Ularning bu erda paydo bo'lishlari ahvolni yaxshilamadi, aksincha dehqonlarni ikki tomonlama – ham feodallar tomonidan, ham (ijarachi) vositachi-burjuaziya tomonidan asoratga solinishini kuchaytirdi.

Shimoliy va qisman O'rta Italiyada shaharlarning o'sishi va qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabning o'sishi tufayli qishloq xo'jaligi tovarlilik xususiyatiga ega bo'la bordi. Natural ijara to'lovi o'rnini pul egallay boshladi. Irrigatsiya ishlari kuchaytirilib, botqoqlar quritilib, ekin maydonlari kengaytirildi.

Shimoliy Italiyada yirik yer egalari va yirik ijarachilar o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida o'z yerlaridan dehqonlarni quvib yuborib, kapitalistik shakldagi yirik fermalarni tashkil etib, batraklar mehnatidan foydalanishni yo'lga qo'yadilar. Bu yerlarda agrotexnika tadbirlari yaxshi yo'lga qo'yilib, hosildorlik ko'tarildi, aynan Shu yerlarda, Lombardiyada boshqa yerlardan ancha ilgari qishloq burjuaziyasi va proletariati shakllana boshladi.

Sanoatda ham o’zgarishlar yuz berdi. Janubiy Italiyada sanoat hali ham qishloq va hunarmandchilik xarakterida bo’lib, chuqur tanazzulni boshdan kechirayotgan bo’lsada, O’rta va Shimoliy Italiyada uning o’sishi ko’zga tashlanmoqda edi. SHahar va qishloqlarda hunarmandlar soni o’sdi, ayrim hududlarda gazlama, metall buyumlari, qog’oz, shisha va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqishga ixtisoslashish boshlandi. Milanda XVIII asr ikkinchi yarmida ipak to’quvchi stanoklar soni 500 donadan 1400 donaga etdi.

Lombardiya, Pemont, Toskanada tarqoq manufakturalar soni ko’paydi, XVIII asr oxiriga kelib Shimoliy Italiyada o’nlagan markazlashgan manufakturalar ishlab turgan edi. Milanda 300 va hatto 400 ishchi ishlaydigan manufakturalar bor edi. Italiya davlatlarining hukmdorlari yirik manufakturalar qurilishini rag’batlantirib turardilar.

Lekin ichki bojlarning mavjudligi, davlat reglamentatsiyasi, mamlakatning siyosiy tarqoqligi va ichki bozorning rivojlanmay qolganligi yirik sanoatni rivojlantirish yo’lidagi to’siqlar edi. Buning oqibatida sanoat yana uzoq davrlar mobaynida hunarmandchilik va tarqoq manufaktura holatida qolib ketdi.

Papa viloyatidagi dabdabali ibodat marosimlari va cherkov knyazlarining boy-badavlat hayoti oddiy xalqning o’ta qashshoqligi, chuqur iqtisodiy va madaniy tanazzul bilan keskin tafovutda edi. Bu erda sanoat va savdoni rivojlantirish uchun hech qanday imkoniyat yo’q edi. Italiya darajasida olganda ham bu kichik va qoloq davlat o’zining ilgarigi siyosiy ta’sirini yo’qotgan bo’lsada xalqaro ig’vogarlik va papa reaktsiyasining markazi bo’lib qolgan edi. XVIII asrda ham bu erda inkvizitsiya hukmronlik qilar, “dahriy”larning kuydirilgan jasadlari Rim ko’chalarida osib qo’yilardi.

Bir vaqtlari boy va qudratli savdo respublikalari bo’lgan Venetsiya va Genuya o’zlarining ilgarigi qudratlarini yo’qotgan edilar. Ularning savdo va sanoati tobora ko’proq tanazzulga yuz tutmoqda edi. Genuya respublikasi hukumati o’zining bekor qolgan savdo flotini Chet ellik ishbilarmon tadbirkorlarga ijaraga berishga majbur edi. Genuyalik savdogarlar o’z tadbirkorlik faoliyatlarini davom ettirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo’lgan Milan, Neapol, Turinga ko’chib borib joylashardilar.

Turklar bilan bo’lgan urushda mag’lubiyatga uchragan Venetsiya 1718 yildagi Pojarevats sulhiga ko’ra Bolqon yarim orolidagi deyarli barcha mulklaridan mahrum bo’ldi va o’zining ilgarigi Shuhrati va “dengizlar malikasi” degan nomini qayta tiklashga harakat ham qilmadi.

Italyan davlatlari ichida ancha yirigi bo’lgan Toskana buyuk gertsogligining poytaxti bo’lgan Florentsiya ham inqirozga uchrab, O’rta Italiyaning sanoat va madaniyat markazi sifatidagi Shuhratini yo’qotdi. 1735 yilda Frantsiya va Avstriya Toskanani Mariya Tereziyaning eri, Muqaddas Rim imperiyasi taxtiga nomzod Frants Lotaringskiyga berishga kelishib oldilar. 1738 yildan boshlab Frants o’z noiblari orqali Toskanani boshqara boshladi, uning asosiy faoliyati bu erdagi mablag’larni Venaga tashib ketishdan iborat bo’ldi. Bir vaqtlar gullab yashnagan o’lka avstriyaliklar hukmronligi ostida vayronaga aylandi. Toskana shaharlarida Avstriya qo’shinlari joylashtirildi. Toskana nomiga mustaqil davlat hisoblansada aslida Avstriya viloyatlaridan biriga aylandi.

XVII asr o’rtalaridan boshlab Lombardiya (sobiq Milan gertsogligi) nafaqat amaliy jihatdan, balki huquqiy jihatdan ham ana Shunday provintsiyaga aylantirilgan edi. XVIII asr birinchi yarmidagi urushlar natijasida Lombardiyaning hududlari yanada qisqardi. Uni Venadan yuborilgan gubernatorlar boshqarardi.

Venetsiyani hisobga olmaganda Pemont XVIII asrda Italiyada mustaqil siyosat olib borayotgan yagona davlat edi. Pemont gertsoglari Italiyada urush olib borayotgan davlatlar o’rtasida ustomonlik bilan siyosat olib borib, o’z mulklarini ancha kengaytirib olishga erishdilar. Utrext va Rashtadt sulhlari bo’yicha (1713-1714) gertsog Viktor Amedey II o’z mulklariga Sitsiliyani qo’shib oldi va qirol unvoniga ega bo’ldi. U tez orada Sitsiliyani avstriyaliklarga berishga majbur bo’lgan bo’lsada, uning o’rniga Sardiniyani (1720 y.) oldi va qirol unvonini saqlab qoldi. Shu tariqa Yevropa xaritasida kelgusida Italiyaning siyosiy hayotida katta rol o’ynagan Sardiniya qirolligi paydo bo’ldi.

XVIII asrning 60-70 yillarida italyan davlatlarining hukmdorlari “Ma’rifatli absolyutizm” g’oyalari asosida bir qancha mo’’tadil islohotlarni amalga oshirdilar. “Ma’rifatli absolyutizm” siyosati ijtimoiy hayotning turli tomonlarini o’z ichiga olgan edi. Italiyalik hukumatlar tashqi savdoga homiylik qilar, markazlashgan manufakturalarni ochishga mablag’ ajratishar va ularni qo’llab-quvvatlardilar. Toskana, Lombardiya, Pemontda botqoqliklar quritilib, yo’llar yaxshilandi. Bir qator davlatlarda ichki bojxonalar soni kamaytirildi, savdo-sotiq tartibga solindi, Lombardiya va Toskanada tsexlar bekor qilindi. Qonunlarni tartibga solish boshlandi, jismoniy azob berish bekor qilindi.

Bir qator davlatlarda ruhoniylarning imtiyozlarini cheklashga harakat qilindi. Neapol, Lombardiya, Toskanada cherkov yerlari soliqqa tortildi, cherkov huquqlari qisqartirildi, cherkov yerlarini kengaytirish cheklab qo’yildi. Bu yerlarda monastirlar yopilib, iezuitlar quvila boshlandi.

Qashshoq dehqonlar tomonidan tez-tez ko’tarilib turadigan qo’zg’olonlar hukumatlarni dehqonlar ahvolini biroz bo’lsa ham yaxshilashga majbur qildi. Janubiy Italiyada dehqonlarning soliqlari biroz kamaytirildi. Boshqa davlatlarda dvoryanlarning imtiyozlari cheklab qo’yildi. Toskanada krepostnoy dehqonlar er berilmasdan shaxsan ozod qilindi.

“Ma’rifatli absolyutizm” islohotlari Italiyaning hamma davlatlarida ham amalga oshirilgani yo’q. Bunday islohotlar Papa viloyati va Genuyada umuman o’tkazilmadi, Venetsiyada esa islohotlarning faol tarafdorlari turmalarga tashlandi. Islohotlar faol amalga oshirilgan joylarda ham u mo’’tadil va murosachilik xarakteriga ega bo’ldi.

Italiyada amalga oshirilgan “Ma’rifatli absolyutizm” islohotlarining maqsadi burjuaziya muxolifatini karaxt qilish, xalq ommasini sadaqalar berish yo’li bilan tinchlantirish, puturdan ketgan feodal monarxiyasi tuzumini Yangilash va mustahkamlash edi. Lekin yirik dvoryanlar bu siyosatni o’zlarining tor tabaqaviy manfaatlari va imtiyozlariga qarshi qaratilgan deb baholadilar. Feodallarning qat’iy noroziliklari va talablari ostida XVIII asrning 90-yillarida islohotlar to’xtab qoldi, ba’zi joylarda hatto orqaga qaytish yuz berdi, masalan, Parmada ilgari bekor qilingan inkvizitsiya qayta tiklandi.

“Ma’rifatli absolyutizm” siyosatining umumiy natijalari juda kam ahamiyatga ega bo’lib chiqdi va xalq ommasi hamda burjuaziyaning noroziligi kuchayib bordi. Dehqonlar qo’zg’olonlari ko’paydi.

3. ITALIYADA MILLIY DAVLAT TUZISH UCHUN KURASH VA MILLIY DAVLATNING TASHKIL TOPISHI.

XVIII asr oxirida jamiyatning ilg’or kuchlari Yangi, yagona va mustaqil Italiya davlatini barpo etish uchun oshkora siyosiy kurashga kirishdilar. Italiya tarixida XVIII asr oxiridan 1870 yilgacha davom etgan R I S O R J I M E N T O (Tiklanish) davri boshlandi. Risorjimentoning boshlang’ich nuqtasi 1789-1794 yillardagi frantsuz burjua inqilobiga to’g’ri keladi. Xuddi Shu davrda italyan “Yakobinchilari” Apennin yarim orolining turli burchaklarida feodalizmga, avstriyaliklar hukmronligiga qarshi qaratilgan, respublika uchun boshlangan ozodlik harakatiga rahbarlik qila boshladilar.

90-yillarning ikkinchi yarmida qo’shni Frantsiyaning Italiyaga siyosiy ta’siri kuchaydi. Italiyadagi progressiv kayfiyatdagi kuchlar o’zlarining milliy-ozodlik kurashlariga frantsuzlar yordam ko’rsatadi deb ishonardilar. 1796 yilda Napoleon Bonapart armiyasi antifrantsuz koalitsiyasi qo’shinlariga zarba berish uchun Italiya hududiga kirdi. 1797-1799 yillarda frantsuzlar yordami bilan Apennin yarim orolida 4 ta respublika – TSizalpin, Liguriya, Rim, Neopolitan respublikalari tashkil topdi.

Lekin tez orada italyan vatanparvarlarining Frantsiyaga bo’lgan ishonchi yo’qqa chiqdi. Frantsuz hukumati o’z chegarasida bir butun va kuchli Italiya davlati paydo bo’lishini istamas edi va mamlakatda inqilobiy-demokratik harakatning yanada yuksalishidan qo’rqardi.

Frantsuzlar Italiyani okkupatsiya qilgan kundan boshlaboq mamlakatni talashga tushdilar. Ular Italiyadan san’at asarlarini, qimmatbaho metallar, oziq-ovqat mahsulotlarini tashib keta boshladilar. Ular Yangi respublikalar hukumatlariga juda katta kontributsiyalar yukladilar. Natijada aholining ahvoli yanada yomonlashdi.

Frantsuz okkupantlari italyan demokratlari o’tkazmoqchi bo’lgan demokratik va ijtimoiy islohotlarga qarshilik ko’rsatdilar. Frantsuzlar asta-sekin mamlakatda konstitutsion monarxiya o’rnatish tarafdorlari bo’lgan yirik italyan burjuaziyasi va liberal dvoryanlarga tayana boshladilar. Ular demokratlarni taqib qilishga o’tib, ularning klublarini yopib qo’yishar, gazetalarini taqiqlardilar.

Italiyada frantsuz bosqinchilaridan norozilik kuchayib bordi. Antifrantsuz koalitsiyasi armiyasi yordamida 1799 yil bahorida frantsuzlar qo’shini Italiyadan haydab chiqarildi.

1800-yilda Italiyaga qarshi frantsuzlarning Yangi bosqini boshlandi va buning oqibatida Italiya 15 yil mobaynida Napoleon hukmronligi ostida qoldi. Uning Shimoliy hududlari Frantsiya tarkibiga qo’shib olindi. Italiyaning katta qismida Napoleon Bonapartning qarindoshlari hukmronlik qiluvchi davlatlar tashkil topdi. Faqat Sitsiliya va Sardiniya orollarigina frantsuzlar asoratiga tushmay qolgan edi.

Frantsuzlar hukmronligi o’rnatilgan joylarda kapitalizm rivojlanishini tezlashtirgan bir qator muhim tadbirlar amalga oshirildi. Sanoatni rivojlanishiga halaqit beruvchi tsex cheklashlari va bojxona bojlari bekor qilindi. Feodallar va

ruhoniylarning imtiyozlari bekor qilindi, cherkov yerlarini sekulyarizatsiya qilish va sotish amalga oshirildi, o'z davri uchun ilg'or hisoblangan Napoleon qonunlari, Fuqarolik kodeksi joriy qilindi. Lekin bular frantsuzlar hukmronligining salbiy tomonlarini yo'q qila olmadi. Frantsuzlar mamlakatni ochiqdan-ochiq iqtisodiy talash bilan birga, Italiyani zo'rlab qit'a qamalida ishtirok qildirdilar, aholini ommaviy ravishda Napoleon armiyasiga safarbar qildilar, italyan vatanparvarlari va ilg'or kuchlarini ta'qib-quvg'in qilardilar.

Frantsuzlar hukmronligidan norozilik Janubiy Italiyada karbonariylar harakatini yuzaga keltirdi. Ular rahbarligida 1812-1813 yilarda frantsuzlarga qarshi qaratilgan bir necha qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi, lekin bu qo'zg'olonlar mag'lubiyatga uchradi.

Napoleon hokimyati halokatga uchragach, buyuk davlatlar 1815 yilda Italiya taqdirini o'zlaricha hal qildilar. Vena kongressining qaroriga binoan Italiya birlashtirilmadi, aksincha parchalab tashlandi. Mamlakat 8 qismga ajratildi – Ikki Sitsiliya qirolligi, Papa viloyati, Toskana, Modena, Parma va Lukka gertsogligi, Pemont qirolligi, Lombardiya va Venetsiya Avstriya imperiyasi tarkibiga muxtoriyat huquqi bilan kirdi. Bu davr Italiya tarixida Restavratsiya davri deyiladi va u orqaga qaytishni bildiradi. Barcha davlatlarda absolyutistik monarxiya qayta tiklandi, reaktsion tartiblar o'rnatildi, Dvoryanlar va ruhoniylar yana hukmron kuchga aylanib, ular inqilob va Napoleon davri olib kelgan barcha Yangiliklarni yo'q qilishga kirishdilar. Napoleon rejimining ag'darilishi Italiyani milliy ozodlikga olib kelmadi, frantsuzlar zulmi o'rniga avstriyaliklar zulmi o'rnatildi.

XIX asrning 20-30-yillarida butun Yevropa bo'ylab inqilobiy yuksalish yuz berdi. 1820 yil iyulda Neopolitan karbonariylari qo'zg'olon ko'tardilar. Ikki Sitsiliya qiroli Ferdinand I qo'zg'olonchilarga qarshilik ko'rsatmadi, konstitutsiyani tasdiqlab, parlament chaqirishga ruxsat berdi. Qo'zg'olon rahbarlari Shu bilan o'z vazifalarini bajargan deb hisoblab, parlamentga xalq ommasi hayotiga doir hech qanday masalani kiritmadilar. Natijada xalq ommasi inqilobdan Chetlasha boshladi.

1821 yil fevralda Avstriya qo'shinlari Italiyaning janubiga yurish boshladilar. Inqilobdan ko'ngli qolgan xalq ommasi dushmanga qarshi kurashga ko'tarilmadi. Konstitutsion hukumat tomonidan to'plangan armiya esa tez orada mag'lubiyatga uchradi. 23 martda bosqinchilar Neapolga kirib bordilar.

Shu yili mart oyida Pemontda ham karbonariylar qo'zg'oloni boshlandi. Qirol Viktor-Emmanuil qochib ketdi. Karbonariylar konstitutsiya e'lon qildilar. Lekin bu karbonariylar ham xalq ommasi bilan bog'lanmagan edilar. Natijada bu erdagi qo'zg'olon ham Avstriya qo'shini tomonidan bostirildi.

Neapol va Pemontdagi qo'zg'olonlar bostirilgach, mamlakatda reaktsiya kuchaydi. Barcha joyda karbonariylarni ommaviy ravishda ta'qib etish va qatl qilish avj oldi.

Frantsiyadagi Iyul inqilobi (1830 y) ta'siri ostida 1831 yil fevralda Markaziy Italiyada – Papa viloyati, Moden, Lukka, Parma gertsogliklarida qo'zg'olonlar boshlanib ketdi. Bu erdagi hukmdorlar qochib ketgach, liberal dvoryanlar va burjuaziyadan iborat vaqtli hukumatlar tuzildi. 1821 yil saboqlaridan kelib chiqib, bu hukumatlar xalq uchun ba'zi tadbirlarni amalga oshirdilar (tuz narxini pasaytirdilar,

soliqlarni kamaytirdilar). Lekin pomeshchiklarning yerlari dehqonlarga berilmadi, busiz esa qashshoq va ersiz dehqonlarni inqilob himoyasiga otlantirib bo'lmasdi.

1831 yil mart oyinig boshlarida Avstriya o'z qo'shinlarini Markaziy Italiyaga yubordi. Inqilobdan hech nimaga erishmagan xalq ommasi dushmanga qarshilik ko'rsatmadi. Mart oyining oxiriga borib Markaziy Italiyadagi inqilob bostirildi.

Keng xalq ommasidan ajralgan holda amalga oshirilgan fitna va qo'zg'olonlarning mag'lubiyatga uchrashi italyan inqilobchi-demokratlarini milliy-ozodlik inqilobi va unda xalq ommasining ishtiroki masalasini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. 1831-1833-yillarda Risorjimento sahnasiga genuyalik huquqShunos va filolog Juzeppe Madzini chiqdi. U bolalik chog'idanoq milliy mustaqillik va ozodlik g'oyalari ta'sirida tarbiyalangan edi. Madzini karbonariylar jamiyati faoliyatida ishtirok qilgani uchun 1831 yilda Italiyadan chiqarib yuborilgan edi. U Marselda o'rnashib, "YOsh Italiya" nomli yagona umumitalyan inqilobiy tashkilotini tuzdi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi yagona Italiya milliy davlatini barpo etish edi. Madzinining fikricha, Shusiz italyanlarni millat qilib birlashtirib ham, mamlakatni avstriyaliklar zulmidan ozod qilib ham bo'lmas edi. Madzini Italiyaning kelajagini siyosiy erkinliklar, fuqarolar tengligi, umumiy saylov huquqi o'rnatilgan respublika sifatida tasavvur etardi.

Madzini va uning hammaslaklari bu dasturni faqat inqilob yordamida "xalq bilan va xalq uchun" amalga oshirish mumkin deb hisoblardilar. Shu bilan birga Madzinining xalq ommasiga bo'lgan qarashlarida ziddiyatlilik mavjud edi, u mamlakatni birlashtirish uchun bo'ladigan kurashda xalqni asosiy kuch deb bilardi, ikkinchi tomondan esa u milliy kurashni quyi tabaqalarning ijtimoiy kurashiga aylanishini istamasdi. U agrar masalani hal qilishdan o'zini olib qochardi, qishloq aholisining ehtiyojlarini inkor etardi.

Butun mamlakat bo'ylab "YOsh Italiya"ning ta'siri o'sib bordi. Madzini va uning safdoshlari mahalliy tashkilotlar rahbarlarini umumitalyan inqilobini tayyorlashga yo'naltirdi. Lekin 1833-1834-yillar davomida qo'zg'olon ko'tarish uchun qilingan bir necha urinishlar natijasiz tugagach Madzini va boshqa italyan demokratlari yaqin orada italyan inqilobini amalga oshirib bo'lmasligiga ishondilar.

30-yillarning o'rtalaridan italyan milliy-ozodlik harakatida mo''tadil-liberal oqim oldinga chiqib oldi. Mo''tadil liberallar yuqoridan turib islohotlar orqali amalga oshiriladigan o'zgarishlar Italiya uchun eng to'g'ri yo'l deb hisoblardilar.

Liberallar o'z dasturlarida iqtisodiyotdagi burjuacha o'zgarishlarga asosiy e'tiborni qaratdilar. XIX asrning 20-30-yillarida mamlakatda, ayniqsa Shimoliy Italiyada ijtimoiy-iqtisodiy jonlanish yuz berdi. Lombardiya va Pemontda Yangi agrotexnika asosida yuritiladigan yirik tadbirkorlik xo'jaliklari paydo bo'ldi, bu yerlarda doimiy ishlovchi qishloq xo'jalik ishchilari qatlami shakllandi.

Shimoliy Italiyada qishloq xo'jaligining rivojlanishi bu erda sanoatning jonlanishiga ko'maklashdi, ipak, jun, ip-gazlama ishlab chiqarish jonlandi. Markazlashgan manufakturalar paydo bo'ldi, texnika ancha takomillashdi, mashinasozlikning dastlabki kurtaklari paydo bo'ldi. Bu Yangiliklar XIX asrning 30-40-yillarida Italiyada sanoat to'ntarishi boshlanganligini ko'rsatar edi.

Qashshoqlashgan dehqonlar va hunarmandlardan tashkil topgan sanoat proletariati hali kam sonli edi. SHahar aholisining asosiy qismini hunarmandlar,

kichik ustaxonalar ishchilari, mayda savdogarlar tashkil etardi, ularning turmush sharoiti og'ir edi. Yangi tarmoqlarda xotin-qizlar va bolalar mehnati keng qo'llanilar edi.

Markaziy va Janubiy Italiyada iqtisodiyot ancha orqada qolgan edi. Bu yerlarda kuchli darajada saqlanib qolgan feodalizm sarqitlari sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

1846-1847 yillarda umumYevropa miqyosida ro'y bergan sanoat inqirozi va hosilsizlik Italiyada ham inqilobiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Burjuaziya va liberal dvoryanlarning muxolifati kuchayib, xalq g'alayonlari ko'paydi. Och odamlar olomoni non do'konlarini, boy odamlarning uylarini ostin-ustun qilib tashlar, hukumat qo'shini bilan to'qnashar edilar.

1848 yil 12 yanvarda Palermoda shahar hunarmandlari, ishchilar qo'zg'olon ko'tardilar. Ularga dehqonlar ham qo'shildilar, qo'zg'olon butun Sitsiliyaga yoyildi. Hukumat qo'shinlari qurollangan qo'zg'olonchilarga qarshi muvaffaqiyatsiz kurash olib borgach, 5 kundan keyin orolni tashlab ketishga majbur bo'ldilar.

Sitsiliya qo'zg'olonining g'alabasi haqidagi xabar Apennin yarim orolida yashayotgan barcha aholini ruhlantirib yubordi. Barcha joylarda burjuaziya tashabbusi bilan miting va namoyishlar o'tkazilib, ularning ishtirokchilari siyosiy huquqlar, Konstitutsiya, Avstriya zulmidan ozod bo'lish haqidagi talablar bilan chiqdilar. Xalq harakatidan cho'chib qolgan hukmdorlar 1848 yil fevral-martida Lombardiya-Venetsiyadan tashqari barcha yerlarda mo''tadil liberallardan hukumatlar tuzdilar va konstitutsiyalar joriy qildilar.

1848 yil martda Milanda qo'zg'olon ko'tarildi, ularga boshqa shaharlardan ko'makchilar keldi, natijada 15 ming kishilik Avstriya armiyasi chekinishga majbur bo'ldi. Lombardiyada burjuaziyadan iborat Vaqtli hukumat tuzildi.

Venetsiyada respublika tuzilganligi e'lon qilindi.

Lombardiya va Venetsiyada qo'zg'olonlarning g'alaba qozonishi butun mamlakatda xalq ommasi faolligining o'sishiga va mustaqillik uchun kurashning kuchayishiga olib keldi. Xalq taziyqi ostida Italiyadagi davlatlar hukmdorlari Avstriyaga qarshi urush e'lon qilishga majbur bo'ldilar.

Italiya-Avstriya o'rtasidagi mustaqillik uchun bo'lgan birinchi urush Yevropada, xususan Avstriyada burjua inqilobi g'alaba qozongan, Italiyaning o'zida xalqning vatanparvarlik harakati juda yuksalgan bir vaqtga to'g'ri keldi. Bunday vaziyat Italiyaning g'alaba qozonishini ta'minlar edi.

Lekin burjua-demokratlarning kuchsizligi va xatolari, harakatga rahbarlik qilishni o'z qo'llariga olmaganliklari, milliy-ozodlik harakatiga rahbarlik qilish italyan davlatlari hukmdorlari qo'liga o'tib qolishi urushni mag'lubiyat bilan yakunlanishiga olib keldi. Italyan davlatlarining birlashgan armiyasiga Pemont qiroli Karl-Albert qo'mondon qilib tayinlangan edi.

Mag'lubiyatdan ruhan cho'kkan Avstriya armiyasi Lombardiyaning qiyin yo'llari orqali chekinayotgan edi, bu armiyani qattiq bir zarba bilan tor-mor etish mumkin edi. Lekin Karl-Albert bu urushda g'alaba qozonish xalq ommasining kuchayishiga, Lombardiya va Pemontda respublika tuzilishiga olib kelishi mumkin deb, dushmanga zarba bermadi. Italiyadagi boshqa davlatlar hukmdorlari esa mamlakatning ozod qilinishi va birlashtirilishi o'zlarini taxtlaridan mahrum

qilinishga olib kelishini bilib, o’z qo’shinlarini jangga yuborilishini turli yo’llar bilan kechiktirmoqda edilar.

Natijada Avstriya qo’shini chegaradan o’tib olib, o’zining jangovar saflarini qaytadan tashkil etishga, yordamchi kuchlar, qurol-yarog’ olishga muvaffaq bo’ldi. Aprel oyining oxirida Rim papasi Piy IX o’z qo’shinini frontdan chaqirib oldi, undan keyin Toskaniyaning buyuk gertsogi ham o’z qo’shinini qaytarib oldi, bularning hammasi Italiya birlashgan qo’shinlarining kuchsizlanishiga olib keldi.

1848 yil 25 iyulda Pemont armiyasi avstriyaliklar tomonidan tor-mor etildi va Karl-Albert chekina boshladi. U 3 avgustda o’z qo’shini bilan Milan shahriga keldi. SHahar ishchilari, hunarmandlar, mayda burjuaziya shaharni himoya qilishga tayyor turgan edi. Lekin Karl-Albert Avstriya qo’shini qo’mondoni Radetskiyga elchi yuborib, taslim bo’lish haqida kelishib olishga harakat qildi. Bundan xabar topgan shaharliklar isyon ko’tarib, Karl-Albert joylashgan saroyni o’rab oldilar. Tunda Karl-Albert saroydan qochib chiqdi va o’z qo’shiniga Milanni tashlab chiqish haqida buyruq berdi. Tongda shahar burjuaziyasi Radetskiyga vakil yuborib, tezroq kelib shaharni egallashni va ularni shahar aholisidan himoya qilishni iltimos qildilar. “SHahar otalari” shahar darvozalarini avstriyaliklarga ochib, ularni tantana bilan kutib oldilar. Shu bilan birinchi Italiya-Avstriya urushi yakunlandi.

1848 yil noyabrda italyan inqilobining Yangidan yuksalish davri boshlandi. Venetsiya, Florentsiya va Rim shaharlari bu harakatning markazlari bo’ldi. 1849 yil yanvarda xalq ommasining taziyqi ostida Papa viloyatida Ta’sis majlisi tashkil qilindi. Xalq ommasi harakatida Manini, Montanelli, Gveratstsi, Garibaldi va boshqalar faollik ko’rsatdilar. 1848 yil 9 fevralda Ta’sis majlisi Rim respublikasi tuzilganligini e’lon qildi.

Rim respublikasi hukumati cherkov yerlarini milliylashtirdi, ruhoniylarning imtiyozlarini bekor qildi, boylar uchun majburiy zayom joriy qildi, xalqning eng yomon ko’radigan soliqlarini bekor qildi, ishsizlarni ish bilan ta’minlash uchun ish joylari yaratishga mablag’ ajratdi.

1849 yil 12 martda Pemont qiroli Karl-Albert o’zining bo’shashib ketgan mavqeini yaxshilash uchun Avstriyaga qarshi ikkinchi mustaqillik urushini boshladi, lekin 10 kundan keyin mag’lubiyatga uchradi.

Aprel oyida Italiyadagi inqilobiy harakatlarni bostirish uchun frantsuz va ispan qo’shinlari ham kirib keldi. YOmon qurollangan, harbiy ta’lim ko’rmagan 19 ming ko’ngilliga rahbarlik qilayotgan Garibaldi butun iyun oyi davomida 35 ming kishilik frantsuz armiyasiga qarshi turdi va 1 iyulda Rimni tashlab chiqishga majbur bo’ldi. 3 iyulda ichki va xalqaro reaktsiya kuchlari tomonidan mag’lubiyatga uchragan Rim respublikasi quladi.

1849 yil 22 avgustda Italiyadagi inqilobning so’nggi o’chog’i bo’lgan Venetsiyada ham inqilob Avstriya qo’shinlari tomonidan qonga botirildi.

XIX asrning 50-yillarida Pemont italyan davlatlari ichida Avstriyaga qarshi faol siyosat olib borgan yagona davlat edi.

Frantsiya imperatori Napoleon III mamlakatda o’z mavqeining pasayib borayotganini oldini olish uchun o’zini Italiyaning mustaqilligi va birligining himoyachisi qilib ko’rsatmoqchi bo’ldi va Pemontga o’z yordamini taklif etdi. 1858 yil iyulda Pemont hukumatining boshlig’i Kavur Napoleon III bilan maxfiy

shartnoma tuzdi. Bu shartnomaga ko'ra frantsuz armiyasi Pemont armiyasi bilan birlashib, Avstriyaga hujum qilishi hamda Lombardiya va Venetsiyani ozod qilishda yordam berishi kerak edi. Bu hududlar Pemont tarkibiga qo'shib olinib, Shimoliy Italiya qirolligi tashkil topishi kerak edi. Napoleon esa Italiyadagi Avstriya hukmronligini Frantsiya hukmronligi bilan almashtirishni rejalashtirib qo'ygan edi.

1859 yil aprelda Frantsiya va Pemont Avstriyaga qarshi urush e'lon qildi. 1859 yil iyunda Avstriya armiyasi qattiq mag'lubiyatga uchrab, Lombardiya ozod qilindi.

Bu urush Italiyada xalq ommasining milliy-ozodlik harakatini kuchaytirib yubordi. J.Garibaldi boshliq ko'ngillilar bataloni tuzila boshlandi.

Lekin Napoleon III bir butun va kuchli Italiya davlatini tashkil topishini, xalq harakati Frantsiyaga ham yoyilishini istamas edi. Shuning uchun ham u urushni tezroq tugatish tarfdori edi va urushni g'alaba bilan yakunlash haqidagi va'dasiga qaramay, maxfiy ravishda Avstriya imperatori bilan uchrashib, u bilan yarash sulhi tuzdi.

Pemont hukumati Frantsiya hukumatiga rasmiy ravishda protest bildirdi, lekin urushni frantsuzlarsiz davom qildirishni istamadi. Bu hukumat urushda o'z xalqiga suyanishdan qo'rqardi.

1859 yil noyabrda frantsuz va Pemont hukumatlari Avstriya bilan sulh shartnomasini tuzdilar, unga ko'ra Lombardiya Pemontga o'tdi, Venetsiya esa Avstriya qo'lida qoldi.

1860 yilda Italiyada milliy-ozodlik harakati yanada kuchaydi. Shu yili bahorda Sitsiliyada qo'zg'olon ko'tarildi. Ular Garibaldidan yordam berishni so'radilar. Garibaldi bir mingdan ortiq ko'ngillilar bilan ("Minglar ekspeditsiyasi") yordamga etib bordi. U qisqa vaqt ichida Sitsiliyaning asosiy shahri Palermoni va orolning katta qismini qo'lga kiritdi. Garibaldi bu erda dehqonlarning jamoa yerlarini bosib olishiga qarshilik qilmadi, dehqonlarni bir qator soliqlardan ozod qildi, ozodlik harakatida qatnashgan dehqonlarga jamoa yerlaridan uchastka (hissa) ajratib berish haqida farmon chiqardi. Bu esa Garibaldi qo'shiniga ko'plab dehqon otryadlarining kelib qo'shilishiga sabab bo'ldi.

Lekin 1860 yil yozida dehqonlar endi faqat jamoa yerlarinigina emas, feodallarning xususiy yerlarini ham tortib ola boshlaganlarida Garibaldi dehqonlar chiqishlarini bostira boshladi. Bu esa dehqonlar bilan Garibaldi o'rtasidagi ittifoqqa darz ketishiga, dehqonlarning Garibaldi otryadiga qo'shilishining kamayib ketishiga olib keldi.

Garibaldi Burbonlarni Sitsiliyadan quvib yuborgach, qit'aga (Apenin yarim oroliga) yurish qilishga tayyorlana boshladi. Bu vaqtda uning armiyasi 24 ming kishidan iborat bo'lib, uning 3 mingi dehqonlardan, qolganlari ko'ngillilardan iborat edi.

Xalq harakatidan qo'rqqan Pemont qiroli Viktor-Emmanuil Garibaldining qit'aga kelmasligini talab qildi, lekin Garibaldi uning talabini bajarmadi va o'z armiyasini 17 avgustda kemalarga yukladi.

Bu vaqtda Neapolda feodalizmga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlanib ketgan edi. Garibaldini bu erda shodiyonalik bilan kutib oldilar. Neapol qiroli armiyasidagi askarlarning ko'pchiligi Garibaldi tomoniga o'tdi.

1860 yil sentabrda garibaldichilar Neapolga kirib bordilar. Janubiy Italiya ozod etildi. Bu erda tashkil topgan hukumat xalq manfaatlarini ko'zlab bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Lekin dehqonlar orziqib kutgan qonun – feodallar yerlarini dehqonlarga bo'lib berish to'g'risida qonun chiqmadi. Inqilobiy hukumat tarkibiga kirgan liberal dvoryanlar Garibaldi tomonidan chiqarilgan dekretlarni ham amalga oshirishga to'sqinlik qildilar. Inqilobiy hukumatning agrar masalani uzil-kesil hal qilmaganligi dehqonlarni garibaldichilar siyosatidan ko'ngli sovushiga va ba'zi joylarda ularga qarshi aksilinqilobiy isyonlar ko'tarishlariga olib keldi.

Janubiy Italiyada mehnatkashlarning faol harakatlaridan cho'chib qolgan burjuaziya va liberal dvoryanlar Pemont bilan birlashishga va Shu yo'l bilan Garibaldi rahbarligidagi ozodlik harakatini to'xtatishga urindilar.

Garibaldi Pemont qiroli boshliq qo'shinni keng xalq ommasini kurashga chaqirib va ularga yo'lboshchilik qilish orqali engishi mumkin edi. Lekin u dehqonlar inqilobining dohiysi bo'lishini istamadi va bo'la olmas edi. U janubliklarni Pemont bilan birlashishga chaqirdi, natijada Janubiy Italiyada o'tkazilgan plebistsitda aholining katta ko'pchiligi Janubiy Italiyaning Pemont bilan birlashishini yoqlab chiqdi. Garibaldi o'zini Janubiy Italiyada Viktor-Emmanuilning noibi sifatida qoldirishi haqidagi iltimosini hukumat rad qildi.

Pemont hukumati Garibaldi chiqargan inqilobiy-demokratik qonunlarni bekor qildi, uning armiyasi tarqatib yuborildi. Qo'zg'olon ko'tarilgan qishloqlarga jazo otryadlari yuborildi.

1861 yil aprelda yagona Italiya qirolligi tashkil topganligi rasmiy jihatdan e'lon qilindi. Dastlabki davrda Venetsiya va Rim uning tarkibiga kirmagan edi.

Garibaldi 1862 yilda o'z tashabbusi bilan 2 ming ko'ngilli yordamida Rimni ozod qilish uchun kurash boshlaganida Italiya qiroli Viktor Emmanuilning shaxsiy buyrug'iga asosan to'xtatildi. Risorjimento qahramoni yarador bo'ldi va Sardiniya yaqinidagi Kaprer oroliga surgunga yuborildi (bu orol generel J.Garibaldi 1882 yilda vafot etguncha uning rezidentsiyasi bo'lib qoldi). Garibaldichilarnig Rimni egallash uchun 1867 yilda uyushtirgan ikkinchi ekspeditsiyasi ham to'xtatildi.

Venetsiya 1866 yilda Avstriya hukmronligidan ozod qilindi va Italiya tarkibiga qo'shildi.

1870 yilda Napoleon III o'z qo'shinini Rimdan olib ketishga majbur bo'ldi va frantsuzlar madadidan mahrum bo'lgan papaning diniy hokimyati ag'darib tashlandi. 1871 yilda Rim Italiyaning poytaxtiga aylandi.

Italiyaning birlashishi natijasida konstitutsion monarxiya tashkil topdi. Italiya davlati Chet davlatlar tomonidan e'tirof etildi va xalqaro munosabatlarning muhim ishtirokchisiga aylandi.

4. ITALIYANING XIX ASR OXIRGI CHORAGI – XX ASR BOSHIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY RIVOJLANISHI.

Italiya X1X asrning so'nggi choragida ham avvalgidek agrar mamlakat bo'lib qolmoqda edi. Aholining 3/4 qismidan ko'prog'i qishloqlarda yashar va qishloq xo'jaligida band edi. Italiya qishlog'ida yarim feodal munosabatlar hukmronligi davom etardi. Ishlovga yaroqli yerlarning 5/6 qismiga yaqini dvoryanlar, cherkovlar va burjuaziyadan chiqqan yirik yer egalarining mulki edi. Mayda dehqon mulki juda

kam edi. Dehqonlarning katta qismi ersiz bo'lib, ular og'ir ijara shartlari asosida yerlarni pomeshchiklardan olishga majbur edilar.

Dehqonchilik texnikasi juda oddiy bo'lib, hosildorlik ham juda past edi. Dehqonlar ochlik, muhtojlikda yashardilar. Ayniqsa Italiyaning Janubida va qisman Markaziy Italiyada feodalizm qoldiqlari kuchli darajada saqlanib qolgan edi. Bu yerlarda eski feodal zodagonlarning katta-katta latifundiyalari saqlanib qolgan edi. Latifundiya egalari odatda o'z xo'jaliklarini yuritmas edilar. Ular o'z yerlarini ijaraga berardilar yoki ekin ekmasdan qoldirar edilar. Yirik senorlar ham har doim o'z mulklarini tasarruf qilavermasdilar. Masalan, Sitsiliyada yarim feodal shakldagi yirik ijarachilik – «gabellotto» keng yoyilgan edi. «Gabellotto» senorga uning butun mulki uchun ijara haqini to'lardi va keyin erni mayda ijarachilarga bo'lib berardi.

Janubiy Italiyada, shuningdek qisman Markaziy Italiyada agrar sohada feodalizm sarqitlarining keng tarqalganligi va saqlanib qolganligi bu viloyatlarni qoloqlik va muhtojlikka duchor qilgan edi. Donli ekinlarning hosildorligi Janubda SHimoldagiga nisbatan 2-2,5 marta past edi. SHimol burjuaziyasi ongli ravishda Janubning qoloqligini saqlanib qolishiga harakat qilar va bu bilan Janubni SHimolni xom ashyo bazasiga aylantirishga harakat qilardi. Yirik burjuaziya SHimolni Italiyaning o'ziga xos «ichki koloniyasiga» aylantirib, uning aholisini shafqatsizlarcha asoratga solardi.

SHimolning agrar tuzumi Janubnikidan farq qilardi. Bu erda kapitalistik shakldagi yirik qishloq xo'jaligi rivojlandi. Yirik yyer egalari (dvoryanlar va burjua) o'z xo'jaligida batraklar mehnatidan foydalanib, xo'jaliklarini yuritardilar.Ular bozor uchun bug'doy, sholi, ipak va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarardilar.Ular o'z xo'jaliklarida mashinalardan, sun'iy o'g'itlardan va erga ishlov berishning eng Yangi usullaridan foydalanardilar. Lekin Shimoliy Italiyaning o'zida ham bunday xo'jaliklar ko'pchilikni tashkil qilmasdi.

Italiya qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bo'yicha boshqa mamlakatlardan ancha orqada qolmoqda edi. Misol uchun 1880 yildan 1890 yilgacha Italiya qishloq xo'jaligining mahsuloti hajmi faqat 11 % ga ko'paygani holda, shu davrda AQSHda o'sish 57 % ga teng bo'ldi.

Qishloq xo'jaligida tovar-pul munosabatlarining kuchayishi va kapitalistik munosabatlarning yanada rivojlanishi dehqonlarning tabaqalanishini kuchaytirdi. Ijarachi dehqonlarning katta qismi o'z mol-mulkidan va mehnat qurollaridan mahrum bo'lib hech narsasi yo'q «yurnatyerlar»ga (batraklarga) aylandilar. Yurnatyerlar tirikchilik qilish uchun hech qanday vositalari yo'qligi sababli o'z ish kuchini sotishga majbur edilar. Ikkinchi tomondan dehqonlarning uncha ko'p sonli bo'lmagan yuqori qatlami boyib bordi. Dehqonlarning bu toifasidan «massarlar» qatlami – dehqon burjuaziyasi shakllandi. Massarlar qarzga pul berish (sudxo'rlik), qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib sotish, katta er maydonlarini ijaraga olish yoki xususiy mulk qilib, ularda yollanma ishchilarni ishlatish bilan shug'ullanardilar.

Qashshoqlik va yersizlik yuz minglagan odamlarni qishloqlarni tashlab ketishga majbur qilardi. Ularning bir qismi shaharlardi ish topardi. Lekin yuqori darajada rivojlanmagan Italiya sanoati bu aholini ish bilan ti'minlashga qodir emas edi. Bu esa Italiyaga xos bo'lgan mehnatkash ommaning ommaviy muhojirligini keltirib chiqardi. X1X asrning 60 yillarida Italiyadan har yili 10-15 ming kishi

muhojirlikga ketardi. 80-yillarda muhojirlar soni yiliga 200-300 ming kishiga etdi. 1-jahon urushidan oldingi 40 yil davomida Italiyadan 5,5 mln kishi chet ellarga chiqib ketdi.

Italiya birlashganidan keyin uning savdo va sanoat taraqqiyoti ancha tezlashdi. Temir yo'llar uzunligi 1900 yilda 16 ming km.ga etdi. Yagona kapitalistik milliy bozorning tashkil topish jarayoni yakuniga etdi.

Italiya birlashganidan keyingi o'tgan 30-40 yil ichida sanoat inqilobi amalga oshdi. XX asr boshiga kelib mamlakat sanoat mahsulotining asosiy qismini uncha ko'p sonli bo'lmagan yirik kapitalistik korxonalar etkazib berar edi. Kapitalistik jamiyatning asosiy sinflari – burjuaziya va proletariatning tashkil topish jarayoni ham yakunlandi.

Italiyada tabiiy resurslarning kamligi sanoat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, Italiyada temir rudasi juda kam, ko'mir, mis, paxta yo'q, neft faqat 2-jahon urushidan keyin topilgan. Shuning uchun ham Italiya sanoat jihatidan boshqa davlatlardan orqada qolmoqda edi. Masalan Italiyada cho'yan eritish 90 yillar oxiriga kelib 200 ming tonnaga etdi, Angliyada bu davrda har yili 7,3 mln. tonna cho'yan eritilardi. Po'lat eritish Italiyada 90 yillar oxirida 120 ming tonnaga etgan bo'lsa, Germaniyada 1900 yilda 7 mln. tonna po'lat eritilgan edi.

XX asr boshlarigacha Italiyada asosan to'qimachilik sanoatining turli tarmoqlari rivojlangan edi. Og'ir sanoatning konchilik, metall ishlash va eng muhim bo'lgan mashinasozlik tarmoqlari endigina rivojlanib kelmoqda edi.

Yirik sanoat mayda sanoat ustidan to'la g'alaba qozonmagan edi. X1X va XX asr chegaralarida yirik zavod va fabrikalarning soni ko'p emas edi. Italyan korxonalarining 90 % idan ko'prog'ida ishchilarning soni 10 kishidan oshmas edi. 100 ishchidan ortiq ishchilari bo'lgan korxonalar barcha korxonalarning 2 % idan kamrog'ini tashkil qilardi, lekin ular sanoat mahsulotlarining asosiy qismini etkazib berardilar. Shuningdek mamlakatda ko'p sonli hunarmand va kosiblar ham bor edi.

Sanoat inqilobi mamlakatning janubiy viloyatlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi. Janubning mayda tadbirkorlari va hunarmandlari SHimolning yirik kapitalistlari raqobatiga bardosh berolmay, xonavayron bo'lardilar. Janub borgan sari tobora ko'proq sanoatlashgan SHimolning xom ashyo qo'shog'iga aylana bordi.

X1X asr oxirida sanoat ishchilarining axvoli juda og'ir edi. Ish kuni 16 soat davom etardi, ish haqi past edi. Mehnat muhofazasi yo'q edi. Korxonalarda xo'jayin va mastyerlarning o'zboshimchaligi hukm surardi, ish haqidan jarima undirish keng qo'llanardi. Ishchilarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlari kuchli edi, ishchilar orasida turli kasalliklar keng tarqalgan edi.

XX asr boshlarida ham Italiya agrar mamlakat bo'lib qolmoqda edi. 1901 yilda ishga yaroqli aholining 59 % i qishloq xo'jaligida, 27 % i sanoat va transportda band edi. To'qimachilik sanoati avvalgidek sanoatning etakchi tarmog'i hisoblanardi.

Lekin Italiyaning yirik bankirlari va tadbirkorlari o'z qullarida katta mablag'larni to'plagan edilar. Hukumat armiyani qurollantirish, harbiy kemalar qurish va shunga o'xshashlar uchun ularga katta buyurtmalar berardi. Italiyaning YAqin SHarq va Janubiy Amerika bilan bo'lgan savdosi o'sdi. Shimoliy Italiyadagi yirik yer egalarining qishloq xo'jalik mashinalariga bo'lgan talabi o'sdi. Bularning

hammasi mamlakatda yirik sanoatning turli tarmoqlarining rivojlanishiga yordam berdi.

XX asrning dastlabki o'n besh yilida Italiyada yirik sanoatning o'sish sur'ati yuqori bo'ldi. Mamlakatda Yangi metallurgiya va mashinasozlik zavodlari qurildi. Po'lat va cho'yan ishlab chiqarish kuchaydi. Mamlakatdan tashqarida sotish uchun stanoklar, bug' mashinalari, dinamomashinalar va boshqa jihozlar ишlab chiqarila boshlandi. Sanoatning ximiya, avtomobilsozlik va boshqa tarmoqlari paydo bo'ldi.

Italiyada mineral yoqilg'ining kamligi ko'plab gidroelektr stantsiyalarning qurilishiga olib keldi.

Mamlakat xalq xo'jaligida sanoatning hissasi kuchaydi. 1915 yilga kelib 19 mlrd. liralik milliy daromadning 6 mlrd. lirasi sanoat hissasiga to'g'ri kelardi. Ishchilar sinfi son jihatdan ko'payib, 2,3 mln. kishiga etdi.

Birinchi jahon urushi arafasiga kelib Italiya agrar-industrial mamlakatga aylana boshladi.

Lekin Italiyaning rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan orqada qolishi hamon davom qilmoqda edi. 1-jahon urushi arafasida Italiya po'lat eritish bo'yicha Germaniyadan 18 marta , Frantsiyadan 5 marta orqada qolgan edi. Cho'yan ishlab chiqarish esa Germaniyadan 40 marta, Frantsiyadan 12 marta kam edi.

Italiya iqtisodiyotining rivojlanishi notekis borardi. Yuksalish davrlari inqirozlar bilan almashib turardi. 1900-1903 va 1907-1908 yillarda mamlakat og'ir iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. Ko'plab korxonalar yopilib, yuz minglab ishchilar ishdan haydaldi.

Yirik sanoat asosan avvalgidek mamlakatning shimolida rivojlandi. Janubiy Italiya va orollar SHimoldan yanada ko'proq orqada qolmoqda edi. Shimolda yirik sanoatning rivojlanishi Janubdagi manufaktura va eski uy sanoati shakllarining kasodga uchrashiga va mamlakatning bu qismini yanada orqada qolishiga olib keldi.

Italyan xalqining katta qismining turmush darajasi juda past edi. Ishchilarning ish haqi Angliya, Frantsiya va AQSHdagi ishchilarga nisbatan 2-3 marta past edi. Ishsizlik va ochlik avvalgidek yuz minglagan aholini boshqa mamlakatlarga ketishga majbur qilardi.

X1X va XX asrlar chegarasida boshqa mamlakatlardagi kabi Italiyada ham ishlab chiqarish va kapital(sarmoya)ning kontsentratsiyasi kuchaydi. Sanoat ishlab chiqarishi tobora ko'proq yirik korxonalarda to'plana bordi. Sanoatda ishlab chiqarishning butun bir tarmoqlari ustidan o'z nazoratini o'rnatgan yirik kapitalistik monopoliyalar tashkil topdi. Ular jumlasiga «Ilva» (cho'yan va po'lat ishlab chiqarish) kontserni, «Edison» tresti (elektrotexnika sanoati), «Ansaldo» aktsionerlik jamiyati (mashinasozlik), «Fiat» jamiyati (avtomobilsozlik), «Montekatini» va «Pirelli» (ximiya sanoati) kabilar kirardi.

Bank ishida ham kontsentratsiyalashish jarayoni davom etmoqda edi. Yirik banklar mayda banklarni yutib yuborardi. Mamlakat iqtisodiyotida 4 ta bank – Italiya tijorat banki, Rim banki, «Italiya kredit» banki va Xisob-kitob banki etakchi rol o'ynardi.

Italiya iqtisodiyotida asosan frantsuz va nemis sarmoyalaridan iborat chet el sarmoyasi katta rol o'ynardi. 1-jahon urushi arafasida Italiyaga kiritilgan chet el sarmoyasining umumiy summasi 1,5 mlrd. lirga teng edi.

Italiya XX asr boshlarida «Buyuk davlat»ga aylandi, lekin u buyuk davlatlar ichida zaif davlat edi va boshqa kuchli davlatlar ta'siri ostiga tushib qoldi.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Italiyaning XVII asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti haqida so'zlab bering.
2. Italiyada o'tkazilgan "Ma'rifatli absolyutizm" islohotlari haqida so'zlab bering.
3. Italiyadagi Risorjimento harakati haqida so'zlab bering.
4. Napoleon Bonapartning Italiyadagi siyosati haqida so'zlab bering.
5. Italiyadagi karbonariylar harakati haqida so'zlab bering.
6. Vena kongressining Italiya bo'yicha qarorlari haqida so'zlab bering.
7. Italiyada XIX asr 20-30-yillaridagi inqiloblar haqida so'zlab bering.
8. Italiyadagi 1848-1849 yillardagi inqiloblar haqida so'zlab bering.
9. Birinchi Italiya-Avstriya mustaqillik urushi haqida so'zlab bering.
10. YAgona Italiya qirolligining tashkil topishi haqida so'zlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998.
2. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-7. M. 1960.
3. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A.L.Narochnitskogo. M. 1986.
4. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
5. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.T.1. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998.
6. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
7. Istoriya Italii v 3-x tomax. M, 1970-1971.
8. Jahon tarixi. (G'arb mamlakatlari 1640-1918 yy). O'quv-uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.
9. Mualliflar jamoasi. Yangi tarix. T.1. T.1967.
   Mualliflar jamoasi. Yangi tarix. T.2. T.1973.

7 - Mavzu: ROSSIYA XVII ASRNING OXIRI - XX ASR BOSHIDA.

R E J A : 2 soat.

1. Rossiyaning XVII asr so'nggi choragidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. Rossiyaning XVIII asr 1-yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
3. Rossiyada XIX asrdagi ijtimoiy harakatlar.
4. Rossiyada XIX asrning 60-70-yillarida o'tkazilgan islohotlar va ularning ahamiyati.
5. Rossiyada 1905-1907 yillardagi birinchi burjua inqilobi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: Kiev Rusi. Siyosiy tarqoqlik. Mo'g'il-tatarlar bosqini. Markazlashgan Rus davlati. Qonunnoma. YUriy kuni. Ivan IV Vasilevich (Ivan Grozniy). Dvoryanlar. Qozon xonligi. Astraxan xonligi. Tabaqaviy vakillik monarxiyasi. Boyarlar dumasi. Zemskiy sobor. Pyotr I. Malika Sofya. Podsho Ivan. Manufaktura. Shimoliy urush. Harbiy-dengiz floti. Posession dehqonlar. "YAkka merosxo'rlik to'g'risida qonun". Prikazlar. Dyak. Provintsiya. Voevoda. Senat. Sinod. Bosh prokuror. Kollegiyalar. Rekrut. Harbiy ustav. Milodiy yil hisobi. Artilleriya, Meditsina, Navigatsiya maktablari. Dengiz akademiyasi. Rossiya Fanlar Akademiyasi. A.A.Arakcheev. Harbiy poselenielar. Dekabristlar harakati. "Qutqarish ittifoqi". "Farovonlik ittifoqi". Shimoliy va Janubiy jamiyatlar. A.I. Gertsen. V.G.Belinskiy. N.P.Ogarev. Dekabristlar qo'zg'oloni. «Yer va erk". Narodniklar. M.A.Bakunin. "Xalq ichiga yurish". "Xalq erki". G.V.Plexanov. "Mehnatni ozod qilish guruhi". V.I.Lenin. "Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi". Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi.

1. Rossiyaning XVII asr so'nggi choragidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

Ruslarda IX asrga kelib Qadimgi Rus feodal davlati (Kiev Rusi) tashkil topdi. XI asr oxiridan Rusda siyosiy tarqoqlik boshlandi.

XIII asrda Rus yerlari mo'g'ullar tomonidan istilo qilindi. Quyi Volga bo'yida mo'g'ullarning Oltin O'rda nomli davlati (poytaxti Saroy shahri) tashkil topdi.

Mo'g'ul bosqinchiligi natijasida janubiy rus yerlari (Ukraina) va g'arbiy rus yerlari (Belorussiya) Rusning boshqa qismlaridan ajratib qo'yilgan edi. Ukraina keyinchalik XIV asrda polyak va vengr feodallari zulmi ostiga tushib qoldi. 1385 yilda Polsha-Litva uniyasi tuzildi.

XIV-XV asr davomida rus yerlarining Moskva tevaragida birlashishi natijasida markazlashgan Rus davlati tashkil topdi.

XV asrning 60-80 yillarida Ivan III knyazligi davrida (1462-1505) rus yerlarining siyosiy jihatdan birlashishi asosan tugallanib, markazlashgan davlat tashkil topdi.

1497 yilda Qonunnoma tuzilib, u markazlashgan davlatni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Qonunnoma Rus davlatining hamma erida sud va ma'muriyatning yagona tizimini o'rnatdi. Qonunnoma krepostnoylik huquqini umumdavlat miqyosida yuridik jihatdan rasmiylashtirishga asos soldi. Qonunnomada dehqonlarni yer egalaridan ketishlari uchun yilda bir muhlat – Yuriy kunidan bir hafta oldin va bir hafta keyin haq to'lab ketishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

Hokimyatning va idora etishning Yangi, markazlashgan organlari tarkib topib bordi. Boyarlar dumasi podsho huzuridagi maslahatchi organ edi. Boyarlar dumasiga podshoning o'zi tayinlagan feodal zodagonlarning vakillari kirar edi.

XV asr oxiri-XVI asr 1-yarmida markaziy idoraning prikaz (mahkama) tizimi vujudga kela boshladi. Dyaklar boshliq mahkamalar idora ishlarining turli sohalarini boshqarar edilar.

Ivan IV Vasilevich (1533-1584) 3 yoshda taxtga o'tirdi, davlatni esa uning nomidan bir guruh boyarlar (Glinskiylar, SHuyskiylar, Belskiylar) bir-birlarini almashtirib boshqarar edilar. "Boyarlar hukmronligi" davrida zulm zo'raydi, armiya va davlat apparati zaiflashdi. Shaharliklar va dehqonlarning feodal zulmga qarshi kurashi kuchaydi. Ivan IV Vasilevich 1547 yilda "Butun Rusning buyuk knyazi va podshosi" unvonini oldi. Yosh podsho "Tanlangan rada" nomli hukumat tuzib, islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Bu hukumat butun feodallar sinfi manfaatlarini ko'zlab islohotlarni amalga oshirdi.

1550 yilda qabul qilingan Qonunnoma boyarlarning sud va boshqaruv ishlaridagi huquqlarini chekladi. Markaziy hokimyatni mustahkamlash tadbirlari ko'rildi. Prikazlar soni ko'paytirilib, XVI asr asrda ularning soni 22 taga yetdi. Yirik feodallarning huquqlari cheklandi. Monastirlarga Yangi yyerlarni sotib olish taqiqlandi.

SHu bilan birga dvoryanlarning mavqei kuchaytirilib, asta-sekin boyarlar mavqesiga tenglashtirila borildi. 1550 yilda poytaxt yaqinida saralangan mingta dvoryanni joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu dvoryanlar taxtning tayanchi bo'lishlari hamda armiya va davlat apparatining rahbar lavozimlariga kadrlar etkazib berishlari kerak edi.

1550 yilda bevosita podshoga bo'ysunadigan doimiy qo'shin tashkil etildi. Dastlab bu qo'shin 3 ming o'qchidan iborat edi, keyinchalik ularning soni 12 mingga etkazildi. O'qchilar "o'qchilar slobodasi"da yashashar, ularning xizmati umrbod va merosiy bo'lib, xazinadan maosh olardilar hamda o'z slobodalarida savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanar edilar.

50-yillardagi islohotlar Rossiya davlatini kuchaytirdi, uning harbiy qudratini oshirdi. Bu esa Ivan IV ga faol tashqi siyosat olib borish imkoniyatini berdi.

1552 yilda 150 ming kishilik rus qo'shini Qozonni shturm bilan oldi, Qozon xonligi Rossiyaga qo'shib olindi. 1556 yilda Astraxan xonligi tugatildi. Bu bilan tatar xonlarining Volga bo'ylaridagi 3 asrlik hukmronligiga barham berildi.

Ivan IV vafotidan keyin taxtga uning o'g'li Fedor o'tirdi (1584-1598). Lekin u kasal bo'lib, mamlakatni idora qilishga qodir emas edi. Malikaning akasi Boris Godunov amalda davlatni boshqara boshladi. Uning hukmronligi davrida krepostnoylik tartiboti yanada kuchaydi, qochoq dehqonlarni 5 yil mobaynida xo'jayiniga qaytarish to'g'risida qonun qabul qilindi.

XVII asrga kelib Rossiyada feodal tabaqaviy vakillik monarxiyasi asta-sekin mutlaq monarxiyaga aylanib bormoqda edi. Bu jarayon Pyotr 1 islohotlari bilan o'z yakuniga etdi.

XVII asrda Rossiya aholisining asosiy mashg'uloti qishloq xo'jaligi edi. Ekiladigan yerlar diniy va dunyoviy feodallar, saroy va davlat amaldorlari qo'lida edi. Pomeshchiklarning asosiy daromadlarini qaram dehqonlarning barshchina va obrok majburiyatlari tashkil etardi.

Manufakturalarning tashkil topishi Rossiya iqtisodiyotidagi muhim Yangilik bo'ldi. Metallurgiya korxonalari bilan bir qatorda ko'nchilik, shishasozlik, qog'ozsozlik va boshqa manufakturalar paydo bo'ldi. Lekin aholini sanoat buyumlari bilan ta'minlash manufakturalarga emas, balki dehqonlarning uy hunarmandchiligi, shahar hunarmandlari va mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga tegishli edi.

XVII asrda feodal-mustabid monarxiyaning shakllanish jarayoni davom etdi. Asrning 1-yarmida bir necha marta to'plangan Zemskiy soborlar asr oxiriga borib o'z faoliyatlarini batamom to'xtatdilar. Markaziy idoralar sifatida dyaklar boshchilik qiladigan Moskva prikazlarining ahamiyati o'sdi. Samoderjavie o'zining ichki siyosatida dvoryanlarga tayanardi. 1649 yildagi Qonunnomaga binoan dvoryanlarning erga bo'lgan huquqlari yanada mustahkamlandi va krepostnoy huquq yanada kuchaydi.

XVII asrda dvoryanlar samoderjaviening ijtimoiy asoslarini tashkil etib, davlatda rahbarlik o'rinlarini egallagan edilar. 1613 yildan boshlab Rossiyada Romanovlar sulolasining hukmronligi boshlandi. Dastlab Mixail Fedorovich (1613-1645), keyin uning o'g'li Aleksey Mixaylovich (1645-1676), Aleksey Mixaylovichning o'g'illari – Fedor Alekseevich (1676-1682), Ivan va Pyotr Alekseevichlar (1682 yildan keyin) hukmronlik qildilar. Bu suloladan bo'lgan podsholar dvoryanlarga tayangan holda o'zlarining mustabid hokimyatini kuchaytirib bormoqda edilar. Ular bir tomondan mustabid hokimyatni cheklab turgan tabaqaviy-vakillik organlarini (Boyarlar dumasi, Zemskiy sobor) tugatishga yoki hech bo'lmasa zaiflashtirishga harakat qilsalar, ikkinchi tomondan byurokratik davlat apparatini va doimiy armiyani kuchaytirishga intilardilar. Podsho Aleksey Mixaylovich tomonidan (1645-1676) samoderjavieni kuchaytirish uchun katta ishlar qilindi.

Boyarlar dumasi va Zemskiy soborlarning ahamiyati pasayib bordi. Prikazlarning soni 80 ga yaqinlashib qoldi. Fedor Alekseevich davrida (1676-1682) prikazlar islohoti o'tkazildi, ularning soni kamaytirildi, lekin vazifalari aniq qilib qo'yildi. Mahalliy boshqaruvda razryadlar, ya'ni katta harbiy-ma'muriy okruglar tashkil etilib, podshoning yaqin odamlari ularga rahbarlik qilardilar.

Armiyada ham o'zgarishlar amalga oshirildi. Dvoryan otliq askarlari va o'qchilar o'rniga "Chet el tartibidagi polklar"- ko'ngillilardan tashkil qilingan doimiy qo'shin keldi. Yangi qo'shin uchun harbiy ustavlar joriy qilindi.

Rossiyadagi krepostnoylik tartibi keng xalq ommasi, dehqonlar, shahar kambag'allari yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushardi. Dehqonlarning ahvoli juda og'ir edi. Pomeshchiklar ularni har qanday ayblari uchun qamchi bilan savalashar, zanjirband qilib qo'yardilar.

Shahar aholisining kambag'al qismi ham turli xil soliq va majburiyatlarni o'tashga majbur bo'lib, boylarning qarzdoriga aylanib qolardilar.

Davlat huquqsiz xalq ommasining har qanday norozilik chiqishlarini shafqatsizlik bilan bostirardi. Ayg'oqchilar doimo xalq harakatini kuzatib borardilar va voevodalarga xabar berib turardilar. Qamoqqa olinganlar qamchi bilan savalanar, ko'pincha qamoqdan mayib-majruh bo'lib chiqardilar, o'limga, surgunga hukm qilinardilar.

Feodallar zulmining kuchayishi xalq ommasini kurashga otlantirardi. O'sha davrda yashagan odamlar XVII asrni "isyonlar davri" deb ataganlar. Haqiqatan ham XVII asrda Rossiyada feodal-krepostnoylik zulmga qarshi juda ko'p chiqishlar bo'lgan. Ularning ichida 1648-1650 yillardagi "Mis isyoni" va 1670-1671 yillardagi Stepan Razin boshchiligidagi dehqonlar urushi eng kattalari edi. Hukumat bu qo'zg'olonni qiyinchilik bilan bostirdi.

2. ROSSIYANING XVIII ASRNING 1-YARMIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI.

XVIII asr Rossiya tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu davr rus samoderjaviesining chinovnik-dvoryan monarxiyasiga aylanish va Rossiya imperiyasining tashkil topish davri, feodal-krepostniklik tuzumi inqirozining boshlanishi va sinfiy ziddiyatlarning o'ta keskinlashish davri, rus madaniyatining cherkov mafkurasidan xalos bo'lish va dunyoviy madaniyatga aylana borish va rivojlanish davri bo'ldi.

XVII asr davomida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Rossiya feodal mamlakatligicha qolgan bo'lsada tovar-pul munosabatlari ancha rivojlandi, yagona umumrossiya bozori shakllana boshladi, dastlabki manufakturalar paydo bo'ldi. SHahar hayoti ancha jonlandi, asr oxiriga kelib shaharlar soni 250 taga etdi. Moskvada va boshqa yirik shaharlarda boy savdogarlar qatlami tashkil topdi. Lekin feodal-krepostniklik tuzumi kapitalistik elementlarning rivojlanishiga halaqit bermoqda edi. Siyosiy ustqurmani iqtisodiy bazisdagi o'zgarishlarga mos kelishini ta'minlovchi islohotlarni amalga oshirish kerak edi.

Madaniyat sohasida ham o'zgarishlar yuz berdi. Moskvada nafaqat diniy kitoblar, balki darsliklar va dunyoviy mazmundagi kitoblar ham nashr qilina boshlandi. Dastlabki dunyoviy maktablar (tibbiyot, harf teruvchilar va korrektorlar) ochildi. Turmush tarzi o'zgarib bordi. Boy savdogarlar va feodallar toshdan muhtasham uy-joylar qurib, uni Chet elda ishlangan mebellar, ko'zgular, kartinalar, soatlar bilan bezay boshladilar. Dvoryanlar orasida polyak va nemis ko'ylaklari, Chet el karetalari (aravalari) modaga aylana bordi. Rus odamlarining Chet ellarga safar qilishlari, Chet ellik mutaxassislarni ishga yollashlari ko'paydi.

Rossiyaning iqtisodiy va madaniy jihatdan Yevropaning kapitalistik rivojlanish yo'liga o'tgan ilg'or davlatlaridan (Angliya, Gollandiya) orqada qolganligi o'zini ko'rsatardi. Rossiya Boltiq va Qora dengizga chiqish yo'llariga, o'zining savdo va harbiy flotiga ega emas edi. Rossiya o'zi uchun eng zarur tovarlarni (metall, qurol-yarog') Chetdan keltirish uchun kemalar va dengiz portlariga ega bo'lmaganligi sababli Yevropa davlatlari bilan teng huquqli bo'lmagan savdo-sotiq olib borishga majbur edi. Mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivojlanish ehtiyojlari dengizga siqish yo'llariga ega bo'lish masalasi bilan bog'lanib ketgan edi.

Podsho Fedor Alekseevich vafot etgach (1676-1682) uning ikki ukasi – kasal va davlat boshqaruviga qobilyatsiz Ivan va podsho Aleksey Mixaylovichning ikkinchi xotini N.K.Narishkinadan tug'ilgan Pyotr taxtga voris bo'lib qoldi. 1682 yil mayda Narishkinlarning tarafdorlari Pyotrni podsho deb e'lon qildilar. Lekin tez orada Pyotrning opasi malika Sofya podsho Aleksey Mixaylovichning birinchi xotinining qarindoshlari bo'lgan boyar Miloslavskiylar guruhi boshchiligida Moskva o'qchilarini Narishkinlarga qarshi ko'tardi. Natijada yosh podshoning ta'siri kuchli bo'lgan bir necha tarafdorlari o'ldirildi. O'qchilarning talabi bilan Ivan "birinchi" podsho deb, Pyotr "ikkinchi" podsho deb e'lon qilindi. Amalda esa mamlakatni malika Sofya (1682-1689) boshqardi. Uning hukmronligi davrida Rossiya tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizlikka uchradi, bir necha marta o'qchilarning qo'zg'olonlari yuz berdi. Rus qo'shinining knyaz V.V.Golitsin rahbarligida Turkiya vassali bo'lgan

Qrim xoniga qarshi olib borgan ikkita yurishi (1687, 1689) muvaffaqiyatsiz tugadi. Dvoryanlarning malika Sofya siyosatidan noroziligi Pyotrga davlat to'ntarishini amalga oshirishga yordam berdi. Malika Sofya monastirga yuborildi. Pyotr I dastlab akasi bilan birgalikda, 1696 yilda podsho Ivan vafot etgach yakka o'zi mamlakatni idora eta boshladi.

XVIII asr birinchi choragidagi islohotlar bundan oldingi butun taraqqiyot qonuniyatlari natijasida tayyorlangan islohot bo'lib, yaqqol sinfiy xarakterga ega edi. Lekin Yangilanish, o'zgarish jarayoniga XVIII asrning eng yirik tarixiy shaxslaridan biri, yirik harbiy islohotchi va sarkarda Pyotr I ning ham ta'siri katta bo'ldi. Pyotr yoshlik chog'idanoq o'zining "o'yinchoq" askarlari bilan zo'r berib harbiy mashg'ulotlar o'tkazdi, juda ko'p hunarlarni egallab, kemalar qurdi, 1697-1698 yillarda Angliya, Gollandiya va Brandenburgda safarda bo'lib, kemasozlik, harbiy-injenerlik ishi, artilleriya ilmini egalladi.

Pyotr Chet el safaridan qaytgandan keyin tez orada dastlabki islohotlarni amalga oshira boshladi. 1698 yilda isyon ko'targan o'qchilar polki uzoq shaharlarga jo'natib yuborildi. Ular o'rnida askarlar va dragunlarning dastlabki doimiy polklari tashkil etila boshlandi. Ilgari voevodalarga bo'ysunadigan shaharliklar endi shahar burmistrlari ixtiyoriga o'tkazildi. Uralda temir eritish zavodlarini qurish boshlandi.

Iqtisodiy mustaqillikga erishish, mamlakat mudofaa qobilyatini oshirish ehtiyoji mamlakatda yirik sanoat barpo etishni talab qilardi. Pyotr I manufaktura sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor berdi. XVIII asrning birinchi choragida Rossiyada 180 ga yaqin manufaktura tashkil etildi. Sanoat markazlari ichida Peterburg alohida o'rin tutardi. Metallurgiya, qurol-yarog', bo'z ishlab chiqarish asosiy soha bo'lib qoldi. 1725 yilga kelib Ural metallurgiya korxonalari butun Rossiyada eritilayotgan cho'yanning 75 foizini berardi. Mamlakatda proletariatning ajdodlari bo'lgan manufaktura ishchilari kadrlari shakllana boshladi. Manufakturalarda qaram dehqonlar mehnatidan ham keng foydalanilar edi. Pyotr I manufakturalarning rivojlanishiga yordam berish uchun savdogarlar va sanoatchilarga pomeshchiklardan qishloqlarni dehqonlari bilan birgalikda sotib olishga ruxsat berdi, bunday dehqonlar posession dehqonlar deb atalardi. Yangi manufakturalar tashkil qilish uchun davlat tomonidan pul ssudalari berilar, ba'zan davlatga tegishli zavodlar berilardi.

1750 yilda Rossiyada qora va rangli metallurgiyaning 100 ga yaqin korxonasi bor edi. CHo'yan eritish sohasida Rossiya jahonda oldingi o'rinlarga chiqdi. XVII asr oxirlarida Chet ellardan cho'yan sotib olgan Rossiya 1720 yilga kelib G'arbiy Yevropa mamlakatlariga ko'p miqdorda temir va mis sotadigan mamlakatga aylandi.

XVIII asr 1-yarmida qishloq xo'jaligida ancha jonlanish yuz berdi. Janubiy uezdlarda, Volgabo'yi va Sibirda unumdor yerlarni ishga solish hisobiga ekin maydonlari kengaydi. O'roq o'rniga chalg'i ishlatila boshlandi. Agrotexnika rivojlana bordi. Qishloq xo'jaligiga doir ko'rsatmalar paydo bo'ldi. To'qimachilik manufakturalari qurilganligi sababli texnika ekinlarini ekish ko'paydi. Bog'dorchilik, sabzavotchilikning ahamiyati oshdi.

Movut fabrikalarini jun bilan ta'minlash uchun qo'ychilik rivojlantirila boshlandi. Ukrainadagi qo'y zavodlarida 1726 yilda 130 ming qo'y bor edi. Armiya uchun ot etishtiruvchi zavodlar tashkil etildi.

Lekin dehqon xo'jaliklari ilgarigidek eski va qoloq xo'jaliklar bo'lib qolaverdi. Hosil bo'lmay qolgan yillarda dehqonlar juda og'ir ahvolda qolardilar.

Dehqonlar davlat majburiyatlarini ham bajarishlari kerak edi. Dehqonlar va posad aholisidan o'n minglab sog'lom erkaklar ajratib olinib, armiya va flotga umrbod xizmatga olinar edi. Kanallar, shaharlar qurish uchun juda ko'p dehqonlar safarbar qilinardi (Peterburgni qurishda 40 ming dehqon ishlagan). Askarlarni uy-joy, otlarni em-xashak bilan ta'minlash ham aholi zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushardi. Bundan tashqari juda ko'p soliqlar mavjud edi. Barcha soliq va majburiyatlarni qo'shib hisoblaganda har bir dehqon xonadoniga qariyib 10 so'mdan to'g'ri kelardi, bu esa dehqon xo'jaligining to'lov qobiliyatidan ancha yuqori edi.

XVIII asr boshlarida mamlakatdagi er fondining va qaram dehqonlarning 60 foizi dvoryanlar qo'lida edi. XVIII asrning 1-yarmida yerlarni zo'rlik bilan bosib olish va podsho tomonidan hadya etib berish hisobiga dvoryanlar qo'lidagi yerlar ko'paydi.

Ichki savdo rivojlandi, bu esa kanallar qazishni, kemasozlikni kuchaytirdi. Boltiq dengizining Peterburg, Viborg, Revel portlari tashqi savdoda katta rol o'ynardi.

1714 yilda qabul qilingan "YAkka meroslik to'g'risidagi" qonun dvoryanlarning mavqeining mustahkamlanishiga va boyishiga yordam berdi. Bu qonunga ko'ra pomeste votchinaga (ota meros mulk) tenglashtirildi va dvoryanning meros mulkiga aylandi. Pomeshchik mulki parchalanib ketmasligi uchun u pomeshchik o'g'illaridan biriga beriladigan bo'ldi, boshqa o'g'illar esa harbiy yoki davlat xizmatiga kirishlari kerak edi.

Xizmat o'tash tartibini belgilab bergan 1722 yildagi "Rutbalar jadvali" hukmron sinfni tashkil etishga katta o'zgarishlar kiritdi. Avvalgi davrda dvoryanlarning xizmatga yaroqli-yaroqsizligi uning "zoti", aslzodaligi bilan belgilanar edi. Yangi sharoitda aqlli, bilimli mutaxassislarga, amaldorlarga ehtiyoj kuchaydi. SHu sababli "Rutbalar jadvali" dvoryanlarning shaxsiy sifatlari, umumiy bilimi, maxsus tayyorgarligi, qobilyati va shu kabilarga qarab davlat yoki harbiy xizmat pog'onasida pastdan yuqoriga qarab o'sib borishni ko'zda tutardi. Jadval bo'yicha harbiy va fuqarolik mansablari 14 rutbaga (rangga) ajratilgan edi. Ilgari turli "martabalarga" (boyarlar, okolnichiylar, dvoryanlar va b.) bo'lingan shaxslarning hammasi dvoryan deb hisoblanadigan bo'ldi. Oddiy tabaqadan chiqqanlar 8-rutbani olsa dvoryan bo'lardi.

Pyotr I davrida davlat muassasalarining Yangi tizimi shakllanib, absolyut (mutlaq) monarxiyaning shakllanishi o'z yakuniga etdi. Absolyutizmning qaror topishi davlat apparatining byurokratlashishi va markazlashishining kuchayishi, doimiy armiya va flotning tuzilishi bilan birga bordi.

Davlat apparatini isloh qilish 2 bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1699-1711 yillarda – Burmistr palatasini tashkil qilishdan to Senat tuzilgungacha davom etdi. Bu davrdagi islohotlar shoshma-shosharlik bilan, aniq ishlangan rejalarsiz amalga oshirilgan edi.

Ikkinchi bosqich ancha tinch, Shimoliy urushning eng og'ir davri orqada qolgan vaqtda amalga oshirildi.

Islohotlar boshlangan vaqtda prikazlar tizimi saqlanib qoldi, shu bilan birga Yangi idora organlari tuzila boshlandi. Podshoning shaxsiy mahkamasi – “Kabinet” – davlatni idora qilishda katta rol o’ynadi.

1708-1709 yillarda mamlakatni gubernalarga bo’lish boshlandi, dastlab 8 ta guberna tashkil etilib, ularga gubernatorlar rahbarlik qilardi.

Pyotr 1 1711 yilda Senat ta’sis qilish to’g’risida farmon chiqardi. Senatda dastlab 9 nafar a’zo bor edi. Senat Boyarlar dumasi kabi qonun chiqarishga doir maslahatlar beradigan organ bo’lmay, balki sud, moliya, harbiy ishlar, tashqi savdo va boshqa ishlarni boshqaradigan oliy organ edi. Endi davlatning barcha eng muhim hujjatlari podsho hokimyati nomidan chiqariladigan bo’ldi. Senat faoliyati ustidan nazorat olib borish uchun 1722 yilda bosh prokuror mansabi joriy qilindi (“davlatning ko’zi”).

Eski prikazlar o’rnida kollegiyalar joriy qilindi. 1718-1721 yillarda 11 kollegiya tuzildi. Har bir kollegiya ma’lum bir sohaga rahbarlikni amalga oshirardi (tashqi ishlar, harbiy, admiralteystva, manufaktura, kommerts kollegiya va b.). Diniy kollegiya yoki Sinod cherkov ishlariga rahbarlik qilardi.

1719 yilda mahalliy idoralar qaytadan tuzildi, gubernalar provintsiyalarga ajratildi, 50 ga yaqin provintsiya tashkil etildi, ularga voevodalar rahbarlik qilardi.

Pyotr I 1722 yilda taxt vorisligi to’g’risida farmon chiqardi, unga ko’ra podsho o’zidan keyin taxtga kim o’tirishini o’z hohishi bilan belgilab qo’yadigan bo’ldi.

1699 yilda shahar islohoti o’tkazildi. SHahar aholisi voevodalar qo’lidan olinib, posad kishilari tomonidan saylab qo’yiladigan burmistrlar qo’l ostiga topshirildi. SHahar aholisi “muntazam” va “nomuntazam” fuqarolarga ajratildi. “Muntazam” fuqarolar 2 gildiyaga taqsimlandi: 1-gildiyaga savdogarlar va sanoatchilar, 2-gildiyaga mayda savdogarlar va hunarmand-kosiblar kirardi. Mulki bo’lmagan fuqarolar “nomuntazam” fuqarolar hisoblanib, ular saylovda qatnashmasdilar.

Pyotr I davrida cherkov islohoti o’tkazildi. CHerkovni davlatga bo’ysundirish maqsadida 1721 yilda patriarxlik tugatilib, alohida Diniy kollegiya – oliy ruhoniylardan tayinlangan Muqaddas hukumat Sinodi tashkil etildi.

Pyotr I islohotlari natijasida davlat organlari tuzilishi muayyan bir shaklga kirdi. Bu islohotlar natijasida mamlakatda absolyutizm mustahkamlandi.

Pyotr I yoshlik chog’idanoq harbiy ishga va dengiz ishiga qiziqar edi. U bolalik vaqtidayoq “ermak uchun” qal’a, flot va polklar tashkil etgan (Preobrajenskiy, Semyonov polklari). Pyotr I 1697-1698 yillarda Chet ellarda bo’lib , u erdagi harbiy ish bilan tanishgan.

Shimoliy urushda 1700 yil 19 noyabrda Narva yonidagi mag’lubiyat qurolli kuchlarni qayta tashkil etish zarurligini ko’rsatdi. Pomeshchik-dvoryan suvoriylari tugatilib, uning o’rniga tuzilishi, qurol-yarog’i va taktikasi bir xil bo’lgan muntazam kavaleriya tashkil etildi. Yangi to’plar yasashga kirishildi. 1701 yilda artilleriya polki tuzildi. Narva daryosida harbiy flot qurishga kirishildi. 1702 yildan boshlab rekrutlik joriy qilindi. SHaharliklar va dehqonlar rekrutlikka olinib, oddiy askarga aylanardilar, dvoryanlarga zobitlik unvonlari berilardi. Armiyada xizmat qilish umrbod edi. 1716 yilda Harbiy ustav joriy qilindi. Miltiq ishlab chiqarish yiliga bir necha o’n ming

donaga etkazildi va armiya ehtiyoji to'la qoplandi. Pyotr 1 zamonida yasalgan to'p-zambaraklarning umumiy soni 10 ming donadan oshib ketdi. Piyoda polklar va kavaleriya polklari brigada va diviziyalarga aylantirildi.

Muntazam harbiy-dengiz floti tashkil etildi. Rossiya bir necha o'nlagan katta elkanli kemalardan va yuzlab galeralardan iborat o'z harbiy-dengiz flotiga ega edi. Rossiyaning o'z injenyerlari va artilleriyachilari, dengizchilari va kemasozlari tashkil topdi. Dastlabki dengiz atlaslari va kartalari tuzildi. Rossiyaning harbiy-dengiz floti Shimoliy urushda SHvetsiya flotidan ustun ekanligi amalda tasdiqlandi. Pyotr davrida qurilgan katta-kichik kemalarning soni 895 taga etdi.

Pyotr I davrida 53 ta rekrutlik chaqiruvi o'tkazildi. 1725 yilga kelib rus armiyasida 135 ming kishi bor edi.

MADANIYAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.

1700-yildan Grigoriy kalendariga o'tilib, Yangi yil 1 yanvarda nishonlanadigan bo'ldi. Armiya va flot uchun kadrlar tayyorlash maqsadida maktablar tashkil etishga va maktab ta'limiga e'tibor kuchaytirildi. 1699 yilda Moskvada To'pchilar maktabi ochildi. 1701 yilda Artilleriya maktabi ochildi. SHu yili Navigatsiya (dengizchilik) maktabi ochildi.

1701 yilda Moskvada Meditsina maktabi tashkil etildi.

1715 yilda Peterburgda Dengiz Akademiyasi ochildi. Bir qator shaharlarda dengizchilik, injenerlik, kasb-hunar maktablari va boshqa maktablar ochildi. O'quvchilar uchun darsliklar nashr qilindi.

XVIII asr boshida bir qancha bosmaxonalar ochildi. 1703 yilda birinchi rus gazetasi – "Vedomosti" chiqa boshladi.

1708 yilda cherkov slavyan harflari o'rniga Yangi grajdan harflari joriy qilindi. Kitob nashr qilish ko'paydi.

1725 yilda Rossiya Fanlar Akademiyasi ochildi.

Islohotlarni amalga oshirish katta mablag'larni talab qilardi. Islohotlarning hamma og'irligi mehnatkash xalq zimmasiga tushdi. Soliqlar keskin ko'paydi, podsho moliyachilari turli-tuman Yangi soliqlarni o'ylab topardilar (soqol o'stirganlik uchun, qarag'ay tobut uchun, daryodagi muzni teshib baliq ovlaganlik uchun soliq va b.). Hovli solig'i o'rniga "jon solig'i" joriy etildi. Rekrutlikka olish, kanallar, verflar, qal'alar qurilishiga, ayniqsa Yangi poytaxt Peterburg qurilishiga (1703 y. unda 40 ming dehqon ishlagan) majburiy suratda ishga yuborish xalq ommasi ahvolini yanada og'irlashtirdi. Dehqonlar chekka o'lkalarga qochishar, zulmga qarshi qurolli kurashga otlanardilar. 1705-1706 yillarda Astraxanda katta qo'zg'olon bo'lib o'tdi. 1707-1709 yillarda Donda Kondrat Bulavin boshchiligida katta qo'zg'olon bo'ldi.

3. ROSSIYADA XIX ASRDAGI IJTIMOIY HARAKATLAR.

1812-1814 yillardagi urush Rossiya iqtisodiyotiga og'ir ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina gubernalar vayron qilingan edi. Moskva, Smolensk va boshqa bir qator shaharlar xarobaga aylangan edi. Davlatning moliya tizimi izdan chiqdi. Feodal krepostnoylik zulmi kuchaydi, davlat soliqlari oshdi. Dehqonlarning katta qismi Napoleon ustidan g'alaba qozonilgach o'zlarining ahvoli yaxshilanadi deb o'ylagan

edilar. Lekin podsho tomonidan urushning tugashiga bag'ishlab chiqarilgan manifestda dehqonlarning ahvolini yaxshilash to'g'risida hech qanday gap yo'q edi.

Aleksandr 1 ning hukumati urushdan keyingi yillarda ichki siyosatda oshkora reaktsiya yo'liga o'tdi. Markaziy ma'muriy apparat podshoning hohish-istagini so'zsiz bajaruvchi general A.A.Arakcheev qo'lida edi. Mamlakatda "arakcheevchilik" nomi bilan ataluvchi politsiya o'zboshimchaligi va kaltaklash tartiboti o'rnatildi.

Podsho hukumatining oshkora reaktsiyaga o'tishi dehqonlar masalasi siyosatida yaqqol ko'rindi. Aleksandr 1 ning hukumati pomeshchiklar huquqini kengaytirib, ularning dehqonlar ustidan hukmronligini kuchaytirdi.

Aleksandr I hukumati 1816 yildan boshlab armiyaga ketadigan xarajatlarni kamaytirish va mamlakatda ozodlik harakatiga qarshi kurashda ishonchli kuch bo'la oladigan hamda o'rgatilgan askarlar zahirasini tashkil etuvchi alohida harbiylar tabaqasini yaratish maqsadida harbiy poselenielar tashkil etishga kirishdi. Peterburg, Novgorod, Xerson va boshqa gubernalardagi davlat dehqonlari va askarlarning bir qismiga harbiy poseleniechilar maqomi berildi. Harbiy poseleniechilar harbiy xizmatni qishloq xo'jalik ishlari bilan qo'shib olib borishlari kerak edi. Ularning hayotlari juda qattiq tartibga bo'ysundirilgan bo'lib, salgina tartibsizlik ham ularning o'zlarini, shuningdek xotini, bolalarini qattiq jismoniy jazoga tortishga sabab bo'lardi.

Inqilobiy xavfga qarshi kurashish uchun o'quv yurtlari, matbuot, adabiyot ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan edi.

1812 yildagi Vatan urushi xalq ommasining siyosiy ongini uyg'onishiga olib keldi. O'z qishloqlariga qaytgan sobiq askarlar avvalgidek krepostnoylik zulmi ostida qolishni istamadilar. 1816-1825 yillarda mamlakatda krepostnoylikga qarshi harakat kuchaydi. SHu bilan ishchilarning harakati ham kuchaydi.

Dehqonlarning harbiy poselenielarga qarshi kurashi ham krepostnoy tuzumga qarshi kurashning tarkibiy qismi edi. Harbiy poselenielarda ham bir qator qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi.

Feodalizmga qarshi ommaviy kurash harakati armiyada ham o'z aksini topdi. Askarlarning ahvoli avvalgidek og'ir edi. Harbiy xizmat 25 yil davom etardi. Armiyadagi tayoq tartiboti askarlarning norozilik harakatini keltirib chiqardi. 1816-1825 yillarda Rossiyada askarlarning 20 dan ortiq oshkora chiqishlari bo'ldi.

Hukumatning olib borgan jazo choralariga qaramay mamlakatda norozilik kuchayib bordi. U dvoryanlarning ilg'or fikrli qismini ham o'z ichiga oldi. Ana shunday sharoitda Rossiyada chorizmga qarshi bo'lgan inqilobiy harakat – dekabrchilar harakati paydo bo'ldi.

Rossiyadagi inqilobiy harakat taraqqiyotini unda ishtirok etgan rus jamiyatining uchta asosiy ijtimoiy tabaqa(sinfi)ga qarab 3 asosiy davrga ajratish mumkin:

1). Dvoryanlar davri – 1825-1861 yillar.
2). Raznochinchilar (turli tabaqa) yoki burjua-demokratik davr – 1861-1895 yillar.
3). Proletariat davri – 1895-1917 yillar.

Rossiyada inqilobiy harakat tarixi dekabristlar qo'zg'olonidan boshlanadi. Dekabrchilar va A.I.Gertsen ozodlik harakati dvoryanlar davrining (bosqichining) eng yirik vakillari edilar.

Dekabrchilarning dunyoqarashlari Rossiyadagi mavjud tuzum ta'siri ostida shakllanib bordi. XIX asrning dastlabki choragida Rossiyadagi feodal-krepostniklik tuzumini tugatishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Busiz burjua taraqqiyot yo'lidan oldinga siljib bo'lmas, sanoat, qishloq xo'jaligi, madaniyat sohalarida tez rivojlanishga, mamlakat qoloqligini bartaraf etishga erishib bo'lmas edi. Dekabrchilar harakatida Rossiyaning turli joylarida yashovchi dvoryanlar ishtirok etdilar. Ular bir-birlari bilan aloqada bo'lib, krepostnoylik sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim, fan taraqqiyotini to'xtatib qo'yayotganligini, Rossiyani iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloqlikga duchor etayotganligini yaxshi tushunar edilar.

SHu bilan birga dekabrchilar krepostnoylik huquqni milliy g'ururning tahqirlanishi, xo'rlanishi deb bilardilar. Krepostnoylik huquqi, pomeshchiklarning dehqonlar ustidan zo'ravonligi, pomeshchik-krepostniklarning huquq va imtiyozlarini jon-jahdi bilan himoya qilayotgan mustabid hukumatning reaktsion siyosati va amaldorlarning o'zboshimchaligi bo'lg'usi dekabrchilarni Rossiyadagi mavjud tuzumga bo'lgan o'z munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi va chorizmga qarshi faol kurash olib borish yo'liga undadi. Xalq ommasining feodalizmga qarshi stixiyali chiqishlarining kuchayishi ham dekabrchilar inqilobiy qarashlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Dekabrchilar samoderjavieni ag'darib tashlash va krepostnoylik huquqini tugatish shiorini ilgari surgan dastlabki rus inqilobchilari bo'lishlari bilan birga bu rejani amalga oshirish uchun yashirin jamiyatlar ham tuzgan edilar.

1816 yilda Peterburgda dekabrchilarning birinchi yashirin jamiyati tashkil topdi. U "Qutqarish ittifoqi" (Soyuz spaseniya) yoki "Vatanning asl va sodiq o'g'lonlari jamiyati" deb atalib, unga 30 ga yaqin kishi a'zo edi. Bu jamiyat 2 yil faoliyat olib bordi. Jamiyatning asosiy maqsadi Rossiyada konstitutsiya joriy etish va krepostnoylik huquqini tugatish edi.

1818 yilda dekabrchilarning ikkinchi yashirin jamiyati tashkil topdi, u "Farovonlik ittifoqi" deb ataldi. Bu jamiyat ham mamlakatda dehqonlarni krepostnoylik zulmidan ozod etish va konstitutsion boshqaruv o'rnatishni maqsad qilib qo'ygan edi. Jamiyatning 200 ga yaqin a'zosi bor edi.

1821 yilda "Farovonlik ittifoqi"ning s'ezdi bo'lib, unda bu yashirin jamiyatni tugatishga qaror qilindi. Natijada uning o'rnida Janubiy va Shimoliy jamiyatlar tashkil topdi.

1821 yilda Janubiy jamiyat Ukrainada tashkil topdi. I.I.Pestel, A.P.YUshnevskiy, N.M.Muravyov, A.P.Muravyov-Apostol bu jamiyatning rahbarlari qilib saylandilar. Pestel tomonidan "Rus haqiqati" nomi bilan konstitutsiya loyihasi ishlab chiqildi. Unda Rossiyadagi chor hukumatini, tabaqa tizimini va krepostnoylik huquqini tugatish, Rossiyani respublika deb e'lon qilish ko'zda tutilgan edi.

1821 yil bahorida Peterburgda dekabrchilarning Shimoliy jamiyati tashkil topdi. N.M.Muravev, N.I.Turgenev, M.S.Lunin, S.P.Trubetskoy, E.B.Obolenskiylar uning rahbarlari edilar. Jamiyat tomonidan konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilgan

bo’lib, u Janubiy jamiyatnikiga qaraganda ancha mo’’tadil edi. Loyihada Rossiyada cheklangan monarxiya tizimi o’rnatilish ko’zda tutilgan edi.

Dekabrchilar inqilobiy kurash taktikasini ham muhokama qilardilar. Ular dvoryanlar muhitidan chiqqanliklari uchun xalq ommasiga tayanishdan cho’chirdilar. Ular xalq qo’zg’olonda qatnashsa, anarxiya, bosqinchilik, talonchilik kuchayib ketadi deb o’ylardilar. SHuning uchun ham ular harbiy inqilob tarafdorlari edilar. Dekabrchilar chor hukumatiga qarshi armiyada qo’zg’olon ko’tarish rejasini ishlab chiqdilar. Ular armiya yordamida mamlakatda hokimyatni qo’lga olishga va xalq ommasi manfaatlari yo’lida inqilobiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qildilar.

Lekin vaziyat dekabrchilarni belgilangan vaqtdan oldin harakat boshlashga majbur qildi. 1825 yil noyabrda podsho Aleksandr 1 o’ldi. Uning farzandi yo’q edi, shuning uchun armiya va amaldorlar Yangi podshoga qasamyod qilishlari kerak edi. Aleksandr 1 ning ukasi Nikolay Yangi podsho bo’ldi. 1825 yilning 14 dekabr kuni unga qasamyod qilish kuni deb belgilandi.

Bundan dekabrchilar foydalanib qolishga harakat qildilar. Ular shu kuni o’zlariga hayrihoh qo’shinni Senat maydoniga olib chiqishga va Senatni mavjud hukumatning ag’darilganligini, krepostnoylik huquqini bekor qilinganligini, fuqarolarning asosiy erkinliklarini e’lon qilinishini, Vaqtli hukumat chaqirilishini e’lon qilishga majbur qilmoqchi bo’ldilar. Qo’zg’olon rahbari qilib polkovnik knyaz Trubetskoy belgilandi.

Shimoliy jamiyat a’zolari 14 dekabr kuni Senat maydoniga 3 mingga yaqin askar olib chiqdilar. Lekin bu vaqtda Senat a’zolari qasamyod qilib ketib qolgan edilar. SHuning uchun ham dekabrchilar tezda harakat rejasini o’zgartirishlari kerak edi. Lekin dekabrchilar o’zlari safiga Yangi qo’shinlar kelib qo’shilishini kutib turdilar, knyaz Trubetskoy qo’zg’olonchilar oldiga kelmadi. SHu kuni kechga borib hukumat bu qo’zg’olonni bostirdi.

1825 yil 29 dekabrda mamlakat janubida, Kiev yaqinida CHernigov polki qo’zg’olon ko’tardi va u 6 kun davom etdi. 1836 yil 3 yanvarda bu qo’zg’olon bostirildi. Qo’zg’olon bostirilgach, chor hukumati dekabristlarni jazolash yo’liga o’tdi. 500 dan ko’proq odam qamoqqa olindi. Qo’zg’olon rahbarlari o’limga hukm qilindi. 100 dan ortiq kishi Sibirga surgun qilindi.

Dekabrchilar qo’zg’oloni mag’lubiyatga uchrasada u katta ahamiyatga ega bo’ldi. Bu qo’zg’olon chorizmni ag’darish va krepostnoylik huquqini tugatish uchun dastlabki qurolli chiqish edi. Dekabrchilar Rossiyadagi ozodlik harakatining rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatdilar. Ularning chorizmni ag’darish va krepostnoylik huquqini tugatish to’g’risidagi shiorlari inqilobiy kurashchilarning keyingi avlodlari tomonidan qabul qilinib olindi.

XIX asrning 30-40 yillarida hukumatga qarshi bo’lgan bir qancha yashirin to’garaklar tashkil topdi. Bular jumlasiga N.P.Sungurov, V.G.Belinskiy, A.I.Gertsen, N.P.Ogarevlarning to’garaklarini misol qilib ko’rsatish mumkin. Lekin bu to’garaklarning ko’pchiligi chor jandarmeriyasi tomonidan fosh qilinib, ularning a’zolari qamoqqa olindi yoki surgunga yuborildi.

XIX asrning o’rtalariga kelib Rossiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi . Bu davrda dehqonlarning feodal zulmga qarshi chiqishi kuchaydi. Hukmron doiralar agarda yuqoridan turib islohotlar amalga oshirilmasa xalq ommasining chiqishlari

mavjud tuzumni ag’darib tashlashi mumkinligini tushunardilar. SHuning uchun ham 1861 yilda Rossiyada krepostnoy huquqni bekor qilish haqidagi qonun loyihasini podsho tasdiqlashga majbur bo’ldi. Lekin feodalizmning juda ko’p sarqitlari saqlanib qoldi. SHu bilan birga chor hukumati mamlakatdagi inqilobiy harakatga qarshi qatag’onlarni kuchaytirib bordi.

1861 yilning oxirida bir qancha to’garaklarning birlashishi natijasida «YEr va erk” nomli yashirin inqilobiy tashkilot tuzildi. Bu tashkilotning asoschilari aka-uka Serno-Solovevichlar, N.N.Obruchev, A.A.Sleptsov, V.S.Kurochkinlar edi. Bir qator shaharlarda bu tashkilotning bo’limlari vujudga keldi.

“Yer va erk” tashkiloti inqilobiy adabiyotlarni nashr qilar va tarqatardi. Tashkilot «YEr va erk” nomli jurnal nashr qildi, “Ozodlik” nomli inqilobiy gazeta chiqardi, gazetada tashkilotning dasturi va oldiga qo’ygan vazifalari bayon qilib berildi. Lekin keyinchalik «YEr va erk” tashkiloti ichidagi o’zaro kelishmovchiliklar tufayli tarqalib ketdi.

XIX asrning 70 yillariga kelib Rossiyada ijtimoiy harakat ancha jonlandi. Bunga mamlakat ichidagi dehqonlar harakatining kuchayishi ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, ikkinchi tomondan Parij Kommunasi voqealari ham katta ta’sir ko’rsatdi. Bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy harakat narodniklik ko’rinishida keng yoyildi.

Narodniklarning mafkurachilari Rossiyada aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil qilganligi sababli dehqonlar inqilobi orqali Yangi jamiyat qurish mumkin deb o’ylardilar. Bunda ular konstitutsiyaviy tuzumni va siyosiy kurashni rad etardilar. Ular Rossiyada kapitalizm rivojlanishi uchun shart-sharoit yo’q deb hisoblardilar. Narodniklar asrlar davomida qishloq jamoasi sharoitida yashagan dehqon o’z tabiatiga ko’ra kommunistdir, unga erga xususiy mulkchilik tamoyili begona bo’lib, dehqonlar jamoasi Yangi, kommunistik jamiyatning dastlabki bo’g’ini bo’la oladi, deb o’ylardilar.

Lekin narodniklar o’z nazariya va taktikalarida yakdil emas edilar va unda bir necha yo’nalish mavjud edi. “Isyonchilik” yo’nalishining rahbari M.A.Bakunin fikricha har qanday vositalar yordamida dehqonlarning umumiy qo’zg’olonini keltirib chiqarish zarur edi. Bu qo’zg’olon yordamida davlat apparatini ag’darib tashlash va uning o’rnida erkin holda o’z-o’zini boshqaruvchi dehqonlar jamoalari va ishchilar artellari tashkil etilishi kerak edi. Bakunin xalqaro anarxizmning asoschisi edi. U har qanday davlatni zo’ravonlik mashinasi hisoblab, uni rad etardi.

Narodniklikning yana bar yo’nalishi targ’ibotchilik yo’nalishi bo’lib, u P.L.Lavrov nomi bilan bog’langan edi. Bu oqim vakillari xalq ommasi hali inqilobga tayyor emas, shuning uchun xalq ommasi ichida uzoq vaqt sotsialistik g’oyalarni targ’ib qilib, uni inqilobga tayyorlash kerak deb hisoblardilar.

Fitnachilik yo’nalishi narodniklikdagi uchinchi yo’nalish bo’lib, u P.N.Tkachev nomi bilan bog’liqdir. Tkachev agar halaqit qilinmasa Rossiyada kapitalizm o’rnatilishi mumkin, deb hisoblardi. U xalq ommasini inqilobni amalga oshirishga qobil emas, shuning uchun yaxshi tayyorgarlik ko’rgan bir guruh professional inqilobchilarning markazlashgan partiyasi tomonidan hokimyatni bosib olish kerak, deb hisoblardi. Tkachevning fikricha markaziy hokimyat bosib olingach, sotsialistik islohotlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish mumkin bo’ladi.

Narodniklar o’z g’oyalarini dehqonlar ommasiga singdirish uchun 70-yillarning o’rtalarida “xalq ichiga yurish” uyushtirdilar. Minglagan targ’ibotchilar dehqon kiyimini kiyib, qishloqlarda yurib, narodniklar g’oyalarini targ’ib qildilar, varaqalar tarqatdilar. Lekin dehqonlar inqilob va sotsializm g’oyalarini qabul qilishga tayyor emas edilar. Targ’ibotchilarni ommaviy qamoqqa olish boshlandi va bu harakat tor-mor etildi.

4. ROSSIYADA XIX ASR 60-70 YILLARIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI.

XIX asr o’rtalariga kelib Rossiyada feodal-krepostniklik tuzumi inqirozining kuchayishi, Qrim urushida chorizmning mag’lubiyatga uchrashi va inqilobiy vaziyatning kuchayishi Rossiyada krepostnoylik huquqini bekor qilish zaruriyatini kuchaytirib yubordi. Podsho Aleksandr II 1856 yildayoq pastdan turib ag’darib tashlaganlaridan ko’ra yuqoridan turib ozod qilganimiz yaxshiroq, deb tan olgan edi. 1857 yil bahorida “Pomeshchik dehqonlarining turmushini tashkil qilish tadbirlarini muhokama qilish” uchun Maxfiy qo’mita tashkil qilindi. Krepostnoy huquqni bekor qilish shartlarini ishlab chiqish uchun gubernalarda dvoryan qo’mitalari tashkil etildi. Keyinchalik Maxfiy qo’mita dehqonlar ishi bo’yicha Bosh qo’mita deb nomlandi.

Pomeshchiklar bilan dehqonlar o’rtasida islohotlar ustida qattiq kurash bordi. Pomeshchiklar yerlarning eng yaxshi va katta qismini o’z qo’llarida saqlab qolishga harakat qilardilar. Dehqonlar o’z sinfiy manfaatlarini qo’llaridan kelgancha himoya qilardilar. Islohotdan oldingi 3 yil davomida dehqonlarning feodallarga qarshi chiqishlari avvalgi yillardagiga nisbatan 3 marta ko’paydi.

Dehqonlar noroziligining o’sishi va mamlakatda sinfiy kurashning kuchayishi Aleksandr II hukumatini yon berishga majbur qildi. 1858 yil oxirida Bosh qo’mita tomonidan islohotlarning Yangi dasturi qabul qilindi. U dastlabki dasturdan farq qilib, dehqonlarni faqat shaxsan ozod qilish bilan cheklanib qolmasdan asta-sekin feodal munosabatlarni batamom tugatishni ham ko’zda tutardi. Yangi dastur bo’yicha dehqonlar shaxsan ozod bo’lib, pomeshchiklarga qaram bo’lmas edilar. Dehqonlar o’z chek yerlarini hukumat ko’magi bilan o’z mulki qilib sotib olishlari mumkin bo’lardi, lekin buning uchun pomeshchikning roziligini olish kerak edi. Yerlarni sotib olguncha dehqonlar pomeshchiklar oldida ma’lum bir majburiyatlarni bajarishlari kerak bo’lardi. Bu esa pomeshchiklarga yana uzoq vaqt davomida dehqonlar ustidan o’z hukmronligini saqlab qolish imkoniyatini berardi.

1860 yil oktabrda islohotlar loyihasi muhokama qilish uchun Davlat Kengashiga berildi. Pomeshchiklarning talabi ostida dehqonlarga beriladigan chek yerlar miqdori yanada kamaytirilib, ularning majburiyatlari ko’paytirildi. Podsho Aleksandr II 1861 yil 19 fevralda krepostnoy huquqni bekor qilish to’g’risidagi qonun loyihasini imzoladi.

1861 yil 5 martda Peterburg va Moskvada, keyinchalik boshqa shaharlar va qishloqlarda krepostnoylik huquqini bekor qilinganligi to’g’risidagi manifest e’lon qilindi.

Qonun e’lon qilingan vaqtdan boshlab dehqonlar qaramlikdan ozod bo’ldilar va bir qator shaxsiy va mulkiy huquqlarga ega bo’ldilar. Dehqonlar endilikda pomeshchikning ruxsatisiz savdo va turli kasb-hunar bilan shug’ullanishlari, yashash joyidan ko’chib ketishlari, ko’char va ko’chmas mulkka ega bo’lishlari, turli

shartnoma-bitimlar tuzishlari, da’vo qo’zg’ashlari, o’qishga va xizmatga kirishlari, meshchanlar va savdogarlar toifasiga o’tishlari mumkin edi. Pomeshchiklarning endilikda dehqonlarni sotib yuborish, jazolash, ularning oilaviy ishlariga aralishish huquqlari bekor qilingan edi.

Lekin pomeshchiklar dehqonlarning chek yerlari ustidan egalik qilish huquqini saqlab qoldilar va dehqonlar amalda avvalgidek feodal majburiyatlarni (barshchina va obrok) bajarishlari kerak edi, shuning uchun ham ular “vaqtincha majburiyatli dehqonlar” deb ataldilar. Dehqonlarning “vaqtincha majburiyati”ning tugash muddati qonun bilan ko’rsatilmagan edi. Erdan jamoa bo’lib foydalanish saqlanib qoldi. Dehqon jamoaga birkitilgan bo’lib, u o’z chek erini sotib olmaguncha jamoadan chiqa olmas edi.

Dehqon o’z chek erini xususiy mulkga aylantirish uchun pomeshchik bilan sotib olish bitimini tuzishi kerak edi. SHundan keyin dehqon “vaqtincha majburyatli” holatdan chiqib, mulkdor-dehqonga aylanar edi. Lekin bitim tuzish uchun pomeshchikning roziligini olish kerak edi. Faqat 1881 yil qonun chiqarilib, unda dehqonlarni majburiy ravishda yerlarni sotib olish muddati 1883 yil 1 yanvargacha deb, belgilab qo’yildi. Erni sotib olish summasi bir yillik obrok hajmini 16,6 ga ko’paytirish orqali belgilanadigan bo’ldi.

Dehqonlar bunday miqdordagi summani to’lay olmasligini hisobga olgan hukumat pomeshchikga xazinadan mablag’ to’lardi va bu summani dehqonlardan yiliga 6 % ustama bilan qaytarib olardi. Dehqonlarning hukumatga qarzni qaytarish muddati 49 yil deb belgilab qo’yildi. Sotib olish to’lovlari 1905-1907 yillardagi inqilob natijasida 1907 yilga kelib bekor qilindi.

Krepostnoy huquqning bekor qilinishi chor hukumati tomonidan majburiy ravishda, ilojsizlikdan amalga oshirilgan yon berishning natijasi edi. Lekin islohotlarni hukmron sinf amalga oshirgani uchun u o’zi uchun bir qator imtiyozlarni saqlab qoldi. 1861 yildan keyin ham mamlakat iqtisodiyoti va siyosiy ustqurmasida feodalizmning ko’pgina qoldiqlari – dvoryanlarning yirik er egaligi, podshoning mustabid hokimyati, asoratga solishning yarim feodalcha usullari, mehnatkash ommaning tabaqaviy tengsizligi va boshqalar saqlanib qoldi.

Dehqonlarning ommaviy ravishda talanishi, pomeshchiklar hokimyati va er egaligining saqlanib qolishiga qaramasdan, 1861 yildagi islohot o’z mazmuniga ko’ra burjuacha islohot edi. Bu islohot Rossiyada feodal ishlab chiqarish usulidan kapitalistik ishlab chiqarish usuliga o’tish, Rossiyani burjuaziya monarxiyasiga aylanishi uchun qo’yilgan qadam edi. Islohotdan keyin sanoatda va qishloq xo’jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlar va kapitalistik munosabatlar tez rivojlana boshladi. Krepostnoy huquqning ag’darilishi Rossiyada kapitalizmning hukmron ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga aylanishin jarayonini tezlashtirdi.

MAVZU BO’YICHA SAVOLLAR:

1. Markazlashgan Rus davlati qachon tashkil topdi?
2. “YUriy kuni” nima?
3. Boyarlar dumasi nima?
4. Zemskiy sobor nima?
5. Prikaz nima?

6. Rossiyada mutlaq monarxiyaning shakllanish jarayoni qaysi podsho davrida o’z nihoyasiga etdi?
7. Rossiyada Romanovlar sulolasining hukmronligi qaysi yildan boshlandi?
8. Pyotr I qachondan boshlab mamlakatni yakka o’zi boshqara boshladi?
9. “Rutbalar jadvali” nima va u qachon joriy qilindi?
10. Senat nima va u qachon tashkil qilindi?
11. Pyotr I davrida madaniyat sohasida qanday islohotlar amalga oshirildi?
12. Dekabristlar faoliyati haqida so’zlab bering.
13. XIX asrning 60-70 yillaridagi ijtimoiy harakatlar haqida so’zlab bering.
14. Rossiyada krepostnoy huquq qachon bekor qilindi?

ADABIYOTLAR:

1. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A. L. Narochnitskogo. M. 1986.
2. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-7. M. 1960.
3. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.Yurovskoy. M. 1983.
4. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
5. Jahon tarixi. (G’arb mamlakatlari 1640-1918 yy).O’quv-uslubiy qo’llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.

8-Mavzu: ISPANIYA XVII-ASRNING 2-YARMI XX-ASR BOSHIDA.

Reja:

1. Ispaniyaning XVII -asr 2-yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy axvoli.
2. Ispan merosi uchun urush.(1701-1714).
3. Ispaniyada mustaqillik uchun urush va birinchi inqilob.
4. Ispaniyaning XIX -asr o`rtalaridagi iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti.
5. Ispaniyada beshinchi inqilob. Birinchi Respublikaning elon qilinishi.

1. Ispaniyada XVII- XVIII asrlarda xam inqiroz davom etdi. Qirol hokimiyatining obro`si pasayib ketdi. Pomeshchiklar va faqat o`z manfaatlarini o`ylovchi turli xil “hukumat odamlari”ning xalq ustidan zulmi kuchayib bordi.

Aholining yuqori tabaqalarini dvoryanlar va ruhoniylar tashkil qilardi. Dvoryanlarning yuqori qatlamini grandlar, yuqori unvonli aslzodalar, quyi qatlamini kabalero va idalgolar tashkil qilardi. Ruhoniylar ham o`z navbatida juda katta boyliklarga ega bo`lgan kardinallar va episkoplardan, shuningdek o`z turmush darajasi bo`yicha dehqonlardan unga farq qilmaydigan qishloq ruhoniylaridan (svyashennik) iborat edi. Uchinchi tabaqani aholining eng katta qismini tashkil qilgan dehqonlar, shuningdek hunarmandlar, savdogarlar va kichik tadbirkorlar, amaldorlar tashkil qilardi. Yollanma ishchilar va xizmatkorlar to`rtinchi tabaqaga kirardi. Uchinchi va to`rtinchi tabaqa zimmasiga qirol saroyi, pomeshchiklar va cherkov uchun soliqlar to`lash majburiyati yuklatilgan edi.

Ispaniyaning Braziliyadan tashqari butun Janubiy Amerika, Meksika, Kuba, San-Domingo, shuningdek Italiya va Niderlandiyaning ancha xududlaridan iborat bo`lgan ulkan mustamlakalarida ispan hokimlari mahalliy aholini talab, moddiy boyliklarni tashib ketishar, Amerikadagi mustamlakalarda qayta ishlovchi sanoatni va Ispaniyadan boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq qilishni taqiqlab qo`ygandi. Bu esa kontrabandani kuchayishiga olib keldi, sanoati ancha taraqqiy qilgan davlatlar mustamlakalardan ispan tovarlarini siqib chiqara boshladilar. Angiliyaning dengiz qaroqchilari Janubiy Amerikadan Ispaniyaga oltin va boshqa qimmatbaho tovarlarni olib borayotgan kemalarni bosib olardilar. Ispaniya budjeti doimo kamomaddan ibort bo`lib, davlat xazinasi bo`shab qolgandi. Tez-tez bo`lib turgan urushlar, ko`plab ispanlarning Amerikadagi mustamlakalarga ko`chib ketishlari, mavrlar va yahudiylarning quvg`in qilinishi Ispaniyada ishga yaroqli aholi sonining kamayib ketishiga olib keldi.

Qishloq xo`jaligi tushkunlikni boshdan kechirayotgan edi. Yerlarning bir qismi ekilmasdan qolib ketardi, dehqonlar och-yalang`och yashashardi. Boy charvadorlar o`z qo`ylari suruvlarini butun mamlakat bo`ylab haydab o`tib, dehqonlarning ekinlarini vayron qilardilar. Dehqonlar shaxsan ozod bo`lib, erni pomeshchikdan ijaraga olardilar va hosilning yarmidan uchdan ikki qismigacha bo`lgan hissasini pomeshchiklarga, davlatga va cherkovga berardilar. Hunarmandlar va ustalar fuqarolik huquqlariga ega emas edilar. Foydali mehnat bilan shug`ullanmoqchi bo`lgan dvoryanlar o`z tabaqasidan quvg`in qilinardi.

Mamlakatdagi ichki bojxonalar umummilliy bozorning yaratilishiga to`sqinlik qilardi. Har oldi-sotdi akti tovar qiymatining 10 foizidan iborat bo`lgan alkabala solig`iga tortilardi. Mamlakatning tabiiy boyliklari deyarli ishlatilmasdi, rudali konlar chet elliklarga sotilib, metallar chet elliklardan sotib olinardi. Armiya va flotning jangovarlik qobiliyati juda past bo`lib, dezertirlik avj olgan edi. Harbiy istehkomlar va kemalar, barcha qurol-yarog`lar uzoq vaqtlardan beri yangilanmasdan yaroqsiz holga kelgan edi.

Zaiflashib qolgan Ispaniya xalqaro munosabatlarda faol rol o`ynamay qoldi va ancha kuchli davlatlar o`rtasidagi kurash obektiga aylandi. Frantsiya, Angliya, Germaniya hukmdorlari hali ham ancha katta boylikka ega bo`lgan ispan merosi uchun kurashga tayyorlanmoqda edilar.

Ispan merosi uchun urush (1701-1714).

Gabsburlar sulolasidan bo`lgan so`ngi ispan qiroli Karl II ning to`g`ridan-to`g`ri vorisi yo`q edi va Frantsiya elchisining taziyqi ostida Ispaniya taxtini Frantsiya qiroli Lyudovik 14 ning nabirasi Filipp Anjuyskiyga o`tishi to`g`risida vasiyat qoldirdi. 1700-yilda Karl vafot etgach gertsog Anjuyskiy Filipp V nomi bilan Madridda Ispaniya taxtiga o`tirdi, Gabsburglar o`rniga Burbonlar sulolasi taxtga chiqdi. O`sha davrda Lyudovik 14 quyidagi tarixiy so`zlarni aytgan edi: ”Qanday baxt! Pireneylar endilikda yo`q, ular er qariga ketdilar, endilikda biz (Frantsiya va Ispaniya) bir mamlakat bo`ldik”. Lekin Ispaniyaning Frantsiya bilan bunday birlashishini boshqa Yevropa davlatlari, eng avvalo dunyoda hukmron bo`lish uchun Frantsiyaga qarshi kurash olib borayotgan Angiliya istamasdi.

Spuning uchun ham Angiliya diplomatiyasi Frantsiya va Ispaniyaga qarshi urush olib borish uchun davlatlar koalitsiyasini tuzishga erishdi va bu urush ispan merosi uchun urush deb nom oldi.

Urush goh u tomonning goh bu tamonning ustunligi bilan uzoqqa cho`ziladigan urushga aylandi. Dengizda kuchli ingliz floti hukmronlik qilardi. Ingliz floti 1704-yilda Ispaniyaning strategik jixatdan muhim bo`lgan Gibraltar qalasiga hujum qildi. Qalaning uncha katta bo`lmagan garnizoni taslim bo`ldi va shu vaqtdan boshlab Gibraltar inglizlar qo`liga o`tdi. Ispaniyaga qarshi koalitsiya ishtirokchilari Ispaniya taxtiga F.Anjuyskiy o`rniga German imperatorining o`g`li ertsgertsog Karlning nomzodini qo`llab-quvvatladilar. Karlning o`zi 1711-yilda German imperatori bo`lgach Germaniyaning kuchayib ketishidan xavfsiragan inglizlar uning nomzodini olib tashladilar. SHu bilan birga ular Frantsiya uzoq davom etgan urush natijasida kuchsizlanib qoldi va endilikda jiddiy xavf tug`dirmaydi deb hisobladilar.

Koalitsiyaning Frantsiya va Ispaniya bilan 1713-yilda Utrextda (Utrext sulhi) va 1714-yilda Rashtatda tuzgan sulhlari bo`yicha Filipp V Ispaniya qiroli deb tan olindi, lekin buning evaziga u Frantsiya taxtiga bo`lgan davosidan va xududiy yon berishlardan voz kechishi kerak edi. YUqoridagi sulh shartlariga ko`ra Ispaniya Gibraltarni va Menorka orolini (O`rtaer dengizidagi Balear arxipelagi) Angiliyaga, Savoyyani Sitsiliyaga berdi. Bundan tashqari Ispaniya Lotin Amerikasida negr-qullarni sotish huquqini Angliyaga berishga majbur bo`ldi, Rashtat sulhi bo`yicha esa o`zining Italiya va Niderlandiyadagi barcha mulklaridan mahrum bo`ldi.

Burbonlarning Ispaniya taxtiga bo`lgan huquqining tan olinishi mamlakatga va xalqqa qimmatga tushdi.Filipp V va uning katta o`g`li Ferdinand VI davrida ham deyarli hech narsa o`zgarmadi, Ispaniyada inqiroz, tushkunlik davom etdi.

1759 yilda taxtga Filippning ikkinchi o`g`li Karl SH o`tirdi. Dastlab u avvalgi siyosatni davom ettirdi. Madridda hukumatdagi chet elliklar zo`rovonligiga qarshi 1766 yilda ko`tarilgan xalq qo`zg`oloni vaziyatni o`zgartirib yubordi. Hukumat boshlig`i-italiyalik Skilachchining aholiga milliy kiyim-uzun plashch va keng shlayapalarni kiyishni taqiqlash to`g`risidagi farmoni qo`zg`olon boshlanishiga turtki bo`ldi. Karl III Skilachchini mamlakatdan chiqarib yuborishga, chet ellik ministrlardan voz kechib, ular o`rniga ispanlarni tayinlashga majbur bo`ldi.

3. Ispaniya taxtiga 1788 yilda Karl III ning o`g`li Karl IV o`tirdi. U uzoqni ko`ra olmaydigan va irodasiz odam bo`lib, xotini - hokimiyatparast Mariya Luizaning tasiri ostida edi.

Frantsiyadagi burjua inqilobi Ispaniyada ham kuchli aks sado berdi. Bu erdagi taraqqiyparvar odamlar frantsuz marifatparvarlari va inqilobchilarining qarashlarini qo`llab-quvatladilar, mustabid tuzumni tugatatishga intildilar, Frantsiyadagi voqealarni yorituvchi adabiyotlarni tarqatdilar, yangi frantsuz hukumatining feodal tartiblarga qarshi qaratilgan dastlabki qadamlarini olqishladilar. Bu esa yuqoridan turib mo`tadil o`zgarishlarni amalga oshirishni ko`zlagan va quyidan bo`ladigan inqilobga qarshi bo`lgan Ispaniya hukmdorlarini tashvishga solardi.

Hukumatga rahbarlik qilayotgan Floridablanka siyosiy yo`nalishni keskin o`zgartirdi. U islohotlardan voz kechib,Frantsiya bilan bo`lgan chegarani yopib qo`ydi, Frantsiyadagi inqilobni “frantsuzcha quturish” deb nomlab, inqilob

tarafdorlarini taqib ostiga oldi. Ispaniya Frantsiya bilan diplomatik aloqalarni uzib, inqilobni bo`g`ishga intilayotgan davlatlar koalitsiyasiga kirishga tayyorlana boshladi.

1792 yilda qirolichaning 25 yoshli erkatoyi Manuel Godoy Ispaniyaning birinchi vaziri bo`ldi. Qirolichaga bo`lgan sadoqatidan tashqari hech qanday xizmat ko`rsatmagan, oddiy gvardiyachidan hukumat boshlig`igacha ko`tarilgan bu shaxsning siyosatga kirib kelishining o`zi Ispaniyada absolyutizmning inqirozi kuchayib borayotganini ko`rsatardi. Godoy mamlakatni Frantsiyaga qarshi urushga tortdi va bu urush 2 yil (1793-1795) davom etdi. Frantsuz qo`shinlarining mamlakatga bostirib kirishi va SHimoliy Ispaniyani bosib olishi Ispan hukumatini sulh tuzishga majbur qildi. Ispaniya San-Domingo orolining bir qismini (Gaiti) Frantsiyaga berishga va u bilan harbiy ittifoq tuzishga majbur bo`ldi. Ispaniya qiroli Godoyga “tinchlik elchisi” unvonini berdi.

Frantsiyada hokimyatni qo`lga olgan Napoleon Godoyni Angliyaga qarshi qaratilgan koalitsiyaga kirishga majbur qildi va unga inglizlar ittifoqchisi bo`lgan Portugaliyaga qarshi urush boshlashni buyurdi (1801). Ispan qo`shinlari Portugaliyani okkupatsiya qildilar, Godoy esa generalissimus unvonini oldi. Napodeon Ispaniyani Angliyaga qarshi qaratilgan qit’a qamaliga qo`shib olishga erishdi. Ilgari Angliya Ispaniyadan qishloq xo`jalik mahsulotlarini sotib olar va Ispaniyaga zarur bo`lgan sanoat tovarlarini sotardi. Ispaniya yashirin tarzda qamalni buzdi va buning uchun Napoleonning g`azabiga duchor bo`ldi.

Napoleon dastlab Godoyni Portugaliyaga qarshi yangidan urush boshlashga majbur qildi va birgalikda harakat qilish bahonasi ostida ispan hududiga o`z qo`shinlarini kiritdi. Birinchi urushda bo`lgani kabi Portugaliya armiyasi qarshilik ko`rsatmadi, qirol esa o`z a’yonlari bilan Braziliyaga qochib ketdi. Portugaliya bilan bo`lgan urush tugadi, lekin frantsuz qo`shinlari Ispaniyadan chiqarilmadi. Aksincha, Frantsiyadan qo`shimcha kuchlar keltirilib, 1807 yilda askarlar va zobitlar soni 50 mingga etkazildi.

Qirol oilasi va Godoy Janubiy Afrikaga qochib ketmoqchi bo`ldilar. Bu xabar xalq orasiga yoyilib, mamlakatni frantsuzlar tomonidan talanishiga qarshilik ko`rsatishni istamayotgan hukmdorlarga qarshi qahr-g`azab avj oldi. 1808 yil 19 martda ispan qirollarining Aranxuesdagi yozgi qarorgohida qo`zg`olon ko`tarildi. Olomon hammaning nafratiga duchor bo`lgan Godoyning saroyini ag`dar-to`ntar qildi, askarlar uning o`zini xalq jazosidan zo`rg`a qutqarib qoldilar. Keyin xalq qirol saroyiga kelib, Karl IV ni o`z o`g`li Ferdinand foydasiga taxtdan voz kechishni va Godoyni barcha mansab va unvonlardan mahrum qilishni talab qildi. Qirol bu talablarni barchasini qabul qilishga majbur bo`ldi.

Ispanlar Godoyni yomon ko`radigan yosh qirol Ferdinand VII frantsuz bosqinchilariga qarshi qat’iy kurash olib boradi deb o`ylagan edilar. Lekin ularning bu umidlari puchga chiqdi, yangi qirol o`zini Napoleon tomonidan tan olinishini ko`zlab, uning barcha istaklarini bajarishga tayyor edi.

Napoleon aprelda Ispaniyaga kelishga qaror qildi va Ferdinandni uchpashuvga taklif qildi. Uchrashuv joyi qilib frantsuzlar hududi bo`lgan Bayonna shahri belgilandi, Ispaniya qiroli va qirolichasi hamda Godoy bu erga odinroq etib kelgan edilar.

Napoleon ispan Burbonlari oilasidagi o`zaro dushmanlik va ularning kaltafahmligidan foydalandi. U dastlab ispan taxtini Karl IV dan Ferdinand VII ga o`tishini noqonuniy deb e'lon qildi. Keyin esa qonuniy qirolni (Karl IV) Ispaniyaning farovonligi va gullab yashnashi uchun ispan taxtini o`ziga, ya'ni Napoleonga berishi kerakligiga ishontirdi. Karl Napoleonga qarshilik ko`rsatishga botina olmadi va Ispan taxtidan Frantsiya imperatori foydasiga voz kechishi to`g`risidagi aktni imzoladi. SHundan keyin Napoleon o`z akasi Jozef Napoleonni Ispaniya qiroli deb e'lon qildi.

Lekin Napoleonning Ispaniya ustidan nazorat o`rnatishiga ispanlar rozi bo`lmadilar. Imperator Bayonnada ispan qiroli oilasining barcha a'zolarini to`plash uchun Karl IV ning Madridda qolgan kenja o`g`lini olib kelishga buyruq berdi. Lekin 2 may kuni uni olib ketish uchun kelishganda minglab odamlar poytaxt ko`chalariga chiqdilar va bosqinchilarga qarshi qo`zg`olon boshlandi. Frantsuzlar qo`zg`olonchilarni o`qqa tutdilar. Ispan garnizoni qo`zg`olonchilarni qo`llab-quvvatladi, vatanparvar zobitlar o`z qo`shinlarini jangga olib chiqdilar va frantsuzlarning Madridda joylashgan 25 ming kishilik askarlariga qarshi tengsiz jang boshlandi. Jang butun kun va tun bo`yi davom etdi. Bosqinchilar 3 may kuni ertalab qo`zg`olonning barcha o`choqlarini bostirdilar, shundan keyin shafqatsiz jazolashlar boshlandi. Qo`lga tushgan barcha odamlar otib tashlandi.

Shu vaqtgacha biror marta mag`lubiyatga uchramagan Napoleon Madriddagi voqealarga jiddiy e'tibor bermadi. U qoloq feodal Ispaniyada burjuacha ruhdagi islohotlarni o`tkeazishga qaror qildi. Bayonnada ispanlarning yuqori tabaqa vakillarini to`plab, Ispaniyaning birinchi konstitutsiyasi matnini aytib turib yozdirdi. Bu konstitutsiyada parlament joriy qilish, ichki bojxonalarni tugatish, qonunlar kodekslarini joriy etish, jismoniy azob bershni bekor qilish va boshqalar belgilangan edi. Bayonna konstitutsiyasi o`z davri uchun progressiv bo`lsada ko`pchilik ispanlarning an'anaviy diniy-monarxistik dunyoqarashlariga mos kelmasdi. Ferdinand VII ning taxtdan tushirilishi, chet ellik odamning qirol deb e'lon qilinishi, harbiy okkupatsiya va ispan an'analarining buzilishi – bularning hammasi "monarxist" Napoleonga nisbatan nafratni keltirib chiqardi va Ispaniyada vatan mustaqilligi hamda Ferdinandni taxtga qaytarish uchun kurash boshlanishiga olib keldi.

Ispan provintsiyalari birin-ketin frantsuzlarga urush e'lon qilib, o`z xalq qo`shinlarini tuzdilar va xuntalar tashkil etib, butug hokimyat xuntalar qo`liga o`tdi. Ispanlarda milliy tuyg`u va inqilobiy ruh juda yuqori bo`lganligi sababli, yomon qurollangan va deyarli harbiy ta'lim ko`rmagan xalq qo`shini jangchilari bu davrga kelib deyarli butun Yevropani bo`ysundirgan Napoleon armiyasining tajribali askar va zobitlarini ketma-ket mag`lubiyatga uchrata boshladilar. Napoleonning eng yaxshi qo`mondonlaridan bo`lgan marshal Lann Napoleonga qilgan dokladida Saragosa himoyachilari ko`rsatgan mardlikni hech qaerda ko`rmaganligini bayon qilgan edi. Jerona shahrini himoya qilgan ispanlar ham ana shunday jasorat ko`rsatgan edilar. Baylenning janubida esa frantsuzlarning ko`p sonli qo`shini taslim bo`ldi.

O`z marshal va generallarining harakatlaridan norozi bo`lgan Napoleon Ispaniyadagi qo`shinga shaxsan o`zi rahbarlik qildi. U Ispaniya poytaxtini egallashga erishdi. Napoleon bu erda inkvizitsiyani tugatish, pomeshchiklar huquqlarini bekor

qilish, ko`pgina monastirlarni yopish to`g`risida dekretlar chiqardi. Lekin ispan xalqi bosqinchi qo`lidan hech qanday xayr-ehson olishni istamadi va urushni davom ettirdi.

Frantsuzlar yirik shaharlarni qo`lga kiritganlaridan keyin ham urush to`xtamadi, u faqat o`z xarakterini o`zgartirib – partizanlar urushi – gerilya shaklida davom etdi. Napoleon Ispaniyaga 300 mingdan ko`proq askar yuborishga majbur bo`ldi, lekin bu qo`shin ham xalq qarshiligini bostira olmadi. Ispaniyada napoleon "buyuk armiyasi"ning muvaffaqiyatsizliklari boshlandi va u Rossiyada batamom tor-mor etildi.

1812 yildagi Kadis Konstitutsiyasi.

Ispaniyada mustaqillik uchun urush bilan bir vaqtda uning tarixidagi birinchi inqilob ham boshlandi. Qirol oilasining barcha a'zolari frantsuzlar asirligida bo`lib, mamlakatni boshqarayotgan Markaziy xunta qat'iy harakat qilmas, dushman ustidan g`alaba qozonishga layoqatsiz bo`lib, ijobiy o`zgarishlarni amalga oshirishga qodir emas edi. Bu esa xalqda norozilikni keltirib chiqardi. Mamlakatdagi taraqqiyparvar doiralar vakillari mutlaq monarxiyani konstitutsion monarxiya bilan almashtirishga intilib, 1810 yilda parlamentga (korteslar) saylovlar o`tkazdilar. Bu korteslar 1812 yilda Kadis shahrida to`planib (Madrid bu vaqtda frantsuzlar qo`lida edi), mart oyida konstitutsiyani qabul qildilar. Bu konstitutsiya Kadis konstitutsiyasi deb nom oldi.

Kadis konstitutsiyasida hokimyat taqsimlanishini ko`zda tutardi – qonunchilik hokimyati (parlament), ijroiya hokimyati (qirol va hukumat) va sud hokimyati. Qonunchilik hokimyati 25 yoshdan katta erkaklar tomonidan 2 yilga saylanadigan korteslarga tegishli edi. Hukumat qirol tomonidan tuzilardi, lekin u deputatlar ko`pchiligining ishonchiga ega bo`lishi kerak edi. Qirol korteslarni tarqatib yuborish huquqiga ega emas edi, lekin korteslar tomonidan qabul qilingan qonunlar qirol tomonidan tasdiqlanishi kerak edi. Urush e'lon qilish, sulh tuzish, chet davlatlar bilan bitimlar tuzish – bularning hammasi qirol vakolatiga kirardi, lekin buning uchun u korteslar roziligini olishi kerak edi. Qabul qilingan konstitutsiya progressiv xarakterga ega bo`lib ko`pgina mamlakatlar inqilobchilari uchun uzoq yillar davomida namuna bo`lib keldi.

Kadis korteslari konstitutsiyani qabul qilishdan tashqari inkvizitsiyani tugatish, cherkov desyatinasini bekor qilish, qirol yerlarini ersiz dehqonlarga va mustaqillik urushi qahramonlariga berish, qul savdosini bekor qilish to`g`risida ham bir qator dekretlar chiqardi. Lekin Ispaniya hududining ancha qismi frantsuzlar nazorati ostida bo`lganligi uchun bu dekretlarning ko`pchiligi qog`ozda qolib ketdi.

Napoleon Rossiyaga hujum qilgan vaqtda Ispaniya Rossiyaning ittifoqchisi bo`ldi. Bu ikki davlat o`rtasida do`stlik va Napoleonga qarshi ittifoq to`g`risida bitim tuzildi. Bu ittifoq Ispaniyani g`alabaga olib keldi, 1813 yil kuzida ispanlar va ularning ittifoqchisi inglizlar frantsuz qo`shinlarini tor-mor etdilar. Ispaniya frantsuzlarning bosqinidan ozod bo`ldi. Mustaqillik uchun olib borilgan qahramonona urush yakunlandi. Ispanlar xalq himoyachisi deb hisoblangan qirol Ferdinand VII frantsuzlar asirligidan qutulib, Ispaniyaga qaytib keldi.

4. Ispaniyaning XIX -asr o`rtalaridagi iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti.

XIX -asr o`rtalariga kelib Ispaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti ancha jonlandi. Qazib oluvchi va qayta ishlovchi sanoatda sanoat to`ntarishi amalga oshdi. Engil va oziq-ovqat sanoati, to`qimachilik, ko`nchilik, tamaki, shakar ishlab chiqarish tarmoqlari tez rivojlanib bordi. 1848 yildan boshlab shosse va temir yo`llar qurilishi boshlandi, tashqi savdo hajmi o`sdi, chetga vino, tsitrus mevalari, zaytun yog`i, rangli metallar rudalari, po`kak chiqarish, chetdan ko`mir, paxta, mashinalar keltirilardi. Frantsiya, Angliya, Germaniya, Kuba Ispaniyaning asosiy savdo hamkorlari edi. CHetdan tovar keltirish doimo eksportdan ortiq bo`lib, hukumat yuzaga kelgan defitsitni (kamomad) yangi soliqlar, xorijiy va ichki zayomlar hisobiga qoplardi. Ispaniyadagi taraqqiyot mavjudligi ko`zga tashlansada, lekin u Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri bo`lib qolaverdi. Bu ayniqsa feodal munosabatlar ustun darajada bo`lgan qishloq xo`jaligida yaqqol ko`zga tashlanardi, ekin yerlarining katta qismi ishlov berilmasdan qolib ketardi, hosildorlik juda past edi.

Mamlakatda ishchilar soni o`sib bordi, X1X asrning 60-yillariga kelib ularning soni 250 ming kishiga etdi. Ulardan tashqari yana 2,5 mln.batraklar ham bor edi. Ishchilarning turmush sharoiti juda og`ir edi, ish kuni 14-16 soatni tashkil qilardi, ish haqi tirikchilik minimumini qoplamasdi, xotin-qizlar va bolalar mehnatidan keng foydalanilardi.

30-yillardan boshlab ishchilar tashkilotlari – o`zaro yordam kassalar, keyinroq kasaba uyushmalari tashkil topa boshladi. Birinchi bo`lib 1840 yilda Barselonada “To`quvchilar jamiyati” tuzildi. Keyinchalik tarmoq kasaba uyushmalari yagona “Kataloniya ishchilari ittifoqi”ga birlashdilar, lekin u hokimyat tomonidan taqiqlab qo`yilgach Barselonada dastlabki jiddiy ish tashlashga olib keldi. Lekin Kataloniya ishchilari faqat 1868 yilga kelibgina o`z birlashmalarini tuzish bo`yicha qonuniy huquqga ega bo`ldilar. Ispaniyaga kelgan 1 Internatsional vakili italiyalik Fanelli Bakunin izdoshlaridan bo`lib, u bu erda Internatsionalning dastlabki sektsiyalarini tashkil qildi va uning ta’siri ostida Ispaniyadagi ishchilar harakatida anarxizm asosiy yo`nalishga aylandi.

Ispaniyada hokimyat tepasida generallar – liberal O’Donnel va o`ta o`ng reaktsioner Narvaes galma-galdan almashib turardilar. Narvaes 1857 yilda Andalusiya dehqonlarining qo`zg`olonini shafqatsizlik bilan bostirib, 98 nafar odamni qatl qildirdi. O’Donnel faol tashqi siyosat olib borib, Hindi-Xitoyga qo`shin yubordi, Marokkoda bosqinchilik urushini avj oldirib, uzoq davom etgan ispan-marokko urushini keltirib chiqardi.

60-yillar o`rtalariga kelib ispan jamiyatini qirolichaning janjalli turmush tarzidan, uning yaqinlarining o`zboshimchaligi va zo`ravonligidan, hukumat tepasida bir-birlarini almashtirib turgan generallarning xalqqa qarshi olib borayotgan siyosatidan norozilik, qahr-g`azab qamrab oldi. G`ayratli va radikal kayfiyatdagi general Xuan Prim rahbarlik qilayotgan Progreschilar partiyasi qirolicha Izabella II ni va Narvaesning navbatdagi hukumatini ag`darib tashlash talabi bilan chiqdi. Taniqli advokat va adabiyotshunos Fransisko Pi-i-Margal va Madrid universiteti professori Emilio Kastelyar boshchiligida yaqinda tuzilgan Respublikachilar partiyasi bu talabni qo`llab-quvvatladi. Kastelyar qirollar tomonidan bosib olingan yerlar xalq boyligi ekanligi (Izabella bu yerlarning bir qismini katta pul evaziga sotib yuborgan edi) va qirolicha bu yerlarga egalik qilish huquqiga ega emasligi haqidagi dadil

bayonot bilan chiqib, mamlakatda mashhur bo`ldi. Izabella bunga javoban universitet rektoriga Kastelyarni darhol ishdan bo`shatish haqida buyruq berdi, rektor buni bajarishni rad etganda ularning ikkisini ham ishdan bo`shatdi.

Talabalar bunday o`zboshimchalikga norozilik bildirib, namoyish boshladilar. Narvaes talabalarga qarshi fuqaro gvardiyasini tashlab, ularni o`qqa tutdi, talabalar orasida o`lganlar va yarador bo`lganlar bor edi. Madrid munitsipaliteti o`z sevimli professorlarining ma'ruzalarini eshitish huquqini himoya qilgan talabalarni jazolashga qarshi qat'iy norozilik bildirdi. Narvaes poytaxt munitsipalitetini tarqatib yubordi.

Mamlakatda vaziyat keskinlashdi. Qirolicha "liberal" O' Donnelni hukumat boshlig`i qilib tayinladi, lekin ispan jamiyati uni e'tirof etishni istamadi. Ziyolilar vakillari saroy a'yonlarining jinoyatlaridan o`z noroziliklarini oshkora bayon qildilar, muxolifat rahbari general Prim bir necha marta qo`zg`olon ko`tardi. SHunda Izabella yana, beshinchi marta, Narvaesga murojaat qildi va u etilib kelayotgan inqilobni shafqatsiz terror yordamida oldini olishga harakat qildi. U parlamentni, mahalliy hokimyat organlarini va siyosiy partiyalarni tarqatib yubordi, muxolifatning barcha gazetalarini yopdi, yuzlab muxolifatchilarni qamoqqa oldi va surgun qildi. Lekin terror yangi inqilobning boshlanishini tezlashtirdi.

5. Ispaniyada beshinchi inqilob. Birinchi Respublikaning elon qilinishi.

Qirolicha va Narvaesning raqiblari qurolli qo`zg`olon ko`tarishga qaror qildilar. Qo`zg`olonni tayyorlash general Prim rahbarlik qilayotgan xuntaga topshirildi. Inqilob 1868 yil sentabrda Kadisdagi harbiy dengizchilar qo`zg`oloni bilan boshlanib ketdi. Ularni janubdagi shaharlar garnizonlari qo`llab-quvvatladilar. Ularga qarshi tashlangan qo`shin qo`zg`olonchilar tomoniga o`tib ketdi. Hamma yakdillik bilan Izabellani taxtdan tushirilishini talab qilardi va u Frantsiyaga qochib ketdi. Butun mamlakat bo`ylab inqilobiy xuntalar va milliy militsiya tuzildi. YAngi korteslar saylanib, ularda mamlakatning kelajagi masalasi – monarxiya saqlanib qoladimi yoki respublika o`rnatiladimi degan masala ustida kurash ketardi. Dastlab ikki palatali korteslar bilan cheklanadigan monarxiya joriy etishga kelishildi.

Hal qilinishi kerak bo`lgan ikkinchi masala – kim qirol bo`lishi kerak degan masala edi. Hammaning nafratiga uchragan Izabella va uning kichik yoshli o`g`li haqida gap bo`lishi ham mumkin emas edi, shuning uchun ham chetdan kimnidir chaqirishga qaror qilindi. Prussiya qirolining qarindoshi Leopold Gogentsollern dastlabki nomzod bo`ldi, lekin Ispaniya taxtiga Prussiya sulolasi vakili o`tirishiga Frantsiya imperatori Naaoleon III qat'iy qarshi chiqdi. SHundan keyin Italiya qirolining o`g`li shahzoda Amadey nomzodi tanlandi. Amadey 1870 yil dekabrning oxirida Ispaniyaga keldi va taxtga o`tirdi. Ayni shu kuni Izabellaga qarshi qo`g`olon tashkilotchisi va Amadeyning tarafdori general Prim o`ldirildi.

Amadey 1871-1873 yillarda hukmronlik qildi, u Ispaniyaga begona edi, ispan tilini ham, ispanlarning urf-odatlari, an'analarini ham bilmasdi. Hukmronlik davri u uchun ham og`ir kechdi, unga qarshi 3 marta suiqasd uyushtirildi, u 3 marta korteslarni tarqatib yubordi va yangi saylovlar belgiladi, 7 marta hukumatni almashtirdi. Katoliklar qirolning otasi Viktor Emmanuel II Rim papasiga qarshi urush olib borgani uchun Amadeyni yomon ko`rardilar. Ispan zodagonlari va millatchilari

chet ellik qirolni tan olishni istamasdilar; karlistlar 1872 yildan 1876 yilgacha davom etgan ikkinchi karlistlar urushini boshlab yubordilar, ular don Karlosning nabirasi – Kichik don Karlosni Ispaniya qiroli deb e'lon qilinishi uchun kurashardilar. Respublikachilar monarxiyani respublika bilan almashtirishga harakat qilardilar. Batamom yakkalanib qolgan Amadey 1873 yil fevralda taxtdan voz kechib, Italiyaga qaytib keldi.

Ispaniya korteslari oldida yana mamlakatda qanday davlat tuzumi o`rnatilish masalasi paydo bo`ldi. Deputatlarning ko`pchiligini monarxiyachilar tashkil qilardi, lekin 1873 yil 11 fevralda Madrid aholisi parlament binosini o`rab olib, respublika o`rnatilishini qat'iy talab qilib chiqdilar. Deputatlar xplq ommasining parlament binosiga bostirib kirishi xavfi ostida ularning talabini qondirishga majbur bo`ldilar. Ispaniya o`zining butun tarixida birinchi marta respublikaga aylandi. YAngi korteslar saylanib, ular resaublika konstitutsiyasini ishlab chiqishlari kerak edi.

So`l respublikachi Fransisko Pi-i-Margal respublika prezidenti qilib saylandi. U cherkovni davlatdan ajratish, davlat va pomeshchik yerlarini imtiyozli shartlarda kambag`al dehqonlarga sotish, bepul ta'limni joriy qilish va ishchilar uchun ijtimoiy sug`urtani joriy qilish, xotin-qizlar va bolalar mehnatini cheklash, Ispaniya mustamlakalarida qulchilikni bekor qilish kabi tadbirlarni o`z ichiga olgan ijtimoiy islohotlar dasturini e'lon qildi. Prezident rahbarligida konstitutsiya loyihasi tayyorlanib, unda mamlakatda milliy ozchilik, eng avvalo kataloniyaliklar va basklar, yashaydigan viloyatlar muxtoriyati bilan birga kuchli markazlashgan hokimyatga ega bo`lgan federativ respublika o`znatilishi ko`zda tutilgan edi. Lekin respublikachilar ichida ham yakdillik yo`q edi: ularning "murosasizlar" deb nom olgan bir qismi Pi-i-Margalga qarshi chiqib, markaziy hokimyatni tugatishni va mamlakatni SHveytsariya namunasidagi ko`p sonli uncha katta bo`lmagan o`z-o`zini boshqaruvchi kantonlarga ajratib yuborishni talab qilib chiqdilar. "Murosasizlar"ni ishchilar ichida ta'sir kuchiga ega bo`lgan anarxistlar ham qo`llab-quvvatladilar.

"Murosasizlar" va anarxist-bakuninchilar chaqirig`i bilan 1873 yilning yozida mamlakatning bir qator hududlarida hukumatga qarshi qo`zg`olonlar bo`lib, qo`zg`olonchilar tomonidan egallangan har bir shahar – Sevilya, Granada, Kadis, Malaga, Mursiya, Valensiya va boshqa, asosan janubdagi shaharlar o`zlarini o`z-o`zini boshqaruvchi kantorlar deb e'lon qildilar. Pi-i-Margal qo`zg`olonchilarni qurolli kurashni to`xtatishga va davlatni parchalanib ketishini oldini olishga harakat qilishi samarasiz tugadi. O`z xalqiga qarshi qurolli kuch ishlatishni istamagan prezident iste'foga chiqdi. "Hamma hammaga qarshi" kurash vaziyatida Ispaniya o`zining eng aqlli va dono rahbarlarining biridan ayrildi.

Pi-i-Margal iste'fosidan keyin inqilob pasayish sari yuz tutdi. YAngi prezident kantonlar qo`zg`olonini qurol kuchi bilan bostirdi va yakka hukmdor (diktator) sifatida mamlakatni boshqara boshladi. Lekin respublikaga dushman bo`lgan armiya rahbarlari prezidentni ag`darib tashladilar va generallardan iborat hukumat tuzdilar. Ularning hammasi monarxiya tarafdorlari edilar, lekin kimni qirol qilib saylash masalasida kelisha olmasdilar. 1874 yil dekabrda generallardan biri, Martines Kampos o`ziga sodiq qo`shinlarga tayanib, Izabella II ning 17 yoshli o`g`li Alfons XII ni qirol deb e'lon qildi. Ispaniyadagi birinchi respublikaning qisqa davr davom etgan faoliyati shu tariqa yakunlandi.

Shunday qilib, Ispaniyada XIX asrda ro`y bergan 5 ta inqilob mamlakatni taraqqiyotga olib kelmadi, lekin shunga qaramay kapitalizm taraqqiyotiga to`sqinlik qilayotgan bir qator feodal qoldiqlar tugatildi (bir qator islohotlar amalga oshirildi, konstitutsiya ishlab chiqildi, sanoat ozmi-ko`pmi rivojlandi, ba'zi agrar o`zgarishlar amalga oshirildi). Ispaniya jahon siyosatida uchinchi darajali qoloq davlat bo`lib qolaverdi.

9-Mavzu: AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI XVII - XX ASR BOSHIDA.

Reja: 2 soat.

1. Shimoliy Amerikada ingliz mustamlakalarining tashkil topishi.
2. Mustaqillik urushi va Amerika Qo'shma SHtatlarining tashkil topishi.
3. AQSH Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
4. AQSHning XIX asr birinchi yarmidagi idtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.
5. AQSHning X1X asr oxirlaridagi iqtisodiy taraqqiyoti.
6. AQSH I-jahon urushi arafasida va urush yillarida.

MAVZU BO'YICHA TAYANCH TUSHUNCHALAR: Buyuk geografik kashfiyotlar. "Yangi Gollandiya". "Yangi SHvetsiya". Virginiya. Metropoliya. "Yangi Angliya". Etti yillik urush. Hindular. Qul negrlar. Qonun chiqaruvchi majlis. Gubernator. Plantatsiya. TSenz. Gerb solig'i. Taunshend qonunlari. "Boston choyxo'rligi". "Hurriyat farzandlari". "Muxbirlik qo'mitalari". Skvatterlik. Fuqarolar urushi. "Tetik fikr". Loyalistlar. B.Franklin. T.Jefferson. P.Genri. S.Adams. J.Vashington. Mustaqillik Deklaratsiyasi. "Konfederatsiya yoki mangu ittifoq moddalari". Tabiiy huquq g'oyasi. Konfederativ davlat. Konstitutsion konvent. Federativ davlat. Prezident. Inflyatsiya. Hokimyatning taqsimlanish tamoyili. Kongress. Senat. Vakillar palatasi. Oliy sud. Antifederalchilar. Federalchilar. "Huquqlar to'g'risida qonun". Demokratlar partiyasi. Respublikachilar partiyasi. Abolitsionizm. Frisoylyerlar partiyasi. A.Linkoln. Janub Konfederatsiyasi. Richmond. Fuqarolar urushi. U.Grant. Gomsteda to'g'risida qonun. Negrlarni ozod qilish to'g'risida akt. Rekonstruktsiya. T.Stivens. CH. Samner. Konstitutsiyaga kiritilgan 14 va 15-tuzatishlar. "Qora kodekslar". Ku-kluks-klan. "Rekonstruktsiya hukumatlari".

1. SHIMOLIY AMERIKADA INGLIZ MUSTAMLAKALARINING TASHKIL TOPISHI.

Tarixchilarning taxminicha, Amerikaning dastlabki aholisi xozirgi hindular va eskimoslarning bundan 20-25 ming yilcha oldin Osiyodan kelgan avlod-ajdodlari bo'lgan. X-XV asrlarda asosan grelandiyaliklar, islandlar Shimoliy Amerika soxillariga ahyon-ahyonda safar qilib turganlar. Kolumb Amerikani ochgandan keyin ko'p o'tmay uni muntazam ravishda mustamlakaga aylantirish boshlandi va mustamlakalarni egalash uchun Yevropa davlatlari o'rtasida kurash qizib ketdi.

XVII asr boshida Ispaniya Shimoliy Amerikada Floridani, Texas, Kaliforniya, Meksikani, bulardan ham oldinroq butun Markaziy va Janubiy Amerikani bosib oldi. Frantsuzlar Kanadada (1604 y.), Missisipi daryosi havzasi - Luizianada (1699 y.) o'rnashib oldilar. Gollandlar 1609 yildan boshlab Gudzon daryosi havzasida "Yangi Gollandiya" mustamlakasiga asos soldilar. 1638 yilda hozirgi Delaver shtatida "Yangi SHvetsiya"ga asos solindi.

Inglizlar ekspeditsiyasi 1607 yilda Shimoliy Amerikaning Atlantik okeani soxilida Jeymstaun posyolkasini barpo etib, Virginiya mustamlakasiga asos soldilar (qirolicha YElizaveta sharafiga Shunday nomlangan). Shu vaqtdan inglizlar tomonidan Shimoliy Amerikani mustamlakaga aylantirish boshlandi.

1620 yilda Nyu-Plimutga asos solindi. Nyu-Gempshir (1622), Massachusets (1628), Konnektikut (1634-1637), Rod-Aylend (1636-1643) nomli mustamlakalar vujudga keltirildi, bu mustamlakalarni «Yangi Angliya» deb atashar edilar.

Ingliz burjua inqilobi davrida mustamlakalar bilan metropoliyaning aloqalari zaiflashib, hindular bilan kurash kuchayib ketganligi tufayli ingliz mustamlaklari ichki boshqarish ishlarida to'la mustaqillikni saqlagan holda «Yangi Angliyaning birlashgan mustamlakalari» (1642-1643 y) degan nom ostida ittifoq tuzdilar. Markaziy rayonda Nyu-Jersi (1664), Pensilvaniya (1681) degan mustamlakalar tashkil topdi. Janubda Virginiyadan tashqari Merilend (1634), Shimoliy Karolina va Janubiy Karolina (1663), Jorjiya (1733) degan mustamlakalar tashkil topdi.

Angliyadagi dastlabki jamg'arish jarayoni (g'ov tutish, hunarmandlarning ko'plab sinishi va sh.k) tufayli juda ko'plagan ishsizlar mustamlakalarga ko'chib kela boshladi, bundan tashqari diniy ta'qiblar tufayli ham keluvchilar ko'p edi. Bu esa Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarini yanada mustahkamladi va burjua inqilobidan keyin kuchaygan Angliya Yangi Gollandiyani va uning Yangi Amsterdam shahrini bosib oldi hamda Yangi Gollandiyani mustamlaka va shaharni Nyu York deb atay boshladi.

Umuman 1606 yildan 1733 yilgacha Shimoliy Amerikada Angliyaning 13 mustamlakasi barpo qilindi (Virginiya, Jorjiya, Janubiy Karolina, Shimoliy Karolina, Merilend, Delaver, Pensilvaniya, Nyu-York, Konnektikut, Rod-Aylend, Nyu-Gempshir, Massachusets, Nyu- Jersi)

1754 yilda Shimoliy Amerikada Frantsiya bilan harbiy to'qnaShuvlar bo'lib o'tdi, 2 yildan keyin esa 7 yillik urush boshlanib (1756-1763), bu urush Frantsiyaning mag'lubiyati bilan tamom bo'ldi va Kanada bilan Florida Angliyaga o'tdi, Luiziana Ispaniyaga o'tdi.

Inglizlar mustamlaklarni egallash uchun hindularga qarshi shafqatsiz urush olib bordilar. Inglizlar kelguncha Atlantika okeani bilan Missisipi daryosi o'rtasidagi territoriyada 200 mingga yakin hindu yashagan. Hindular bu vaktda ibtidoiy jamiyatda yashardilar. Ular ovchilik, baliqchilik dexqonchilik va chorvachilik bilan Shug'ullanganlar. Yevropaliklar ulardan kartoshka, makkajo'xori, pomidor, qovoq, tamaki kabi ekinlarni yetishtirishni o'rganganlar.

Mustamlakachilarning hindularni qullarga aylantirish yo'lidagi urinishlari hech qanday natija bermadi. Asir olingan hindular qochib ketar, o'zlarini-o'zlari o'ldirar yoki og'ir mehnatdan tezda halok bo'lardilar, ular o'z mustaqilliklari uchun mustamlakachilarga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Lekin qabilalar orasida

ahillikning yo'qligi, qurol -yarog'larning past darajasi ularni mag'lubiyatga olib keldi.

Hindularni qullarga aylantirish yo'lidagi harakatlar bekor ketgach amerikalik savdogarlar va kema egalari juda katta foyda keltiruvchi qul savdosiga o'zlarini urdilar. Ular 1619 yildan boshlab Afrikaning g'arbiy qirg'oqlaridan negrlarni olib kelib, Amerikada sotar edilar (1 negrning bahosi Afrikada 100 gallon romga (10 funt sterling) teng edi. Amerikada uni 30-60 f.s.ga pullar edilar).

1760 yilda inglizlarnig Shimoliy Amerikadagi mustamlakalarida 300 mingdan ortiq qul negr bor edi, 1775 yilda ularnig soni 450 mingga etdi.

Qul-negrlar plantatsiyalarda shafqatsiz asoratga solinardilar, ular har qanday ijtimoiy va siyosiy huquqlardan maxrum qilingan edilar. Janubdagi mustamlakalarda negrlarni ozod qilish qonun bilan taqiqlab qo'yilgan edi. Qochishga uringan qullar qattiq jazolanar, ularning yuzlariga tamg'a bosilar, quloklari, o'ng qo'li kesilar edi. Qo'zg'olon ko'targan qulni o'ldirganlik uchun 455 funt tamaki mukofot berilardi. Lekin Shunga qaramay XVIII asr oxirigacha negrlarning 50 dan ortiq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.

Qul-negrlardan tashqari mustamlakalarda oq tanli qullar ham mavjud edi, ular «asoratga tushgan xizmatkorlar» deb atalardi. Amerikaga kelish uchun mablag'i bo'lmaganlarni kemalarda bepul olib kelardilar va ularni 2 -7 yilga sotib yuborardilar. Shuningdek qarzini to'lolmay qamoqqa tushganlar, mayda o'g'rilik qilgan shaxslar majburiy mehnatga hukm qilinardi.

Angliyada qamoqqa hukm qilinganlar, hatto o'lim jazosiga hukm qilinganlar ham ba'zan mustamlakalarga 7-14 yilga majburiy mehnatga yuborilar edilar, bundan tashqari bolalarni o'g'irlab, ularni mustamlakalarga olib kelib sotardilar.

XVIII asning II yarmida mustamlakalarning ko'pchiligi Angliya qiroli tomonidan tayinlanadigan gubernatorlar orqali boshqarilar edi. Gubernator mansabdor shaxslarni lavozimlariga tayinlash va mustamlakalardagi qonun chiqaruvchi yig'inlarning qarorlari ustidan veto qo'yish huquqiga ega edi. Qonun chiqaruvchi yig'inlar gubernatorlarga mablag' ajratishni belgilab berish huquqiga ega bo'lganliklari uchun gubernatorlar ma'lum bir ma'noda ularga yon berisha majbur edilar. Gubernatorlar va qonun chiqaruvchi yig'inlar o'rtasida doimo kurash borardi.

Mustamlaklarda hokimiyat gubernatorlar hamda savdo va katta yyer egalari (plantatsiya) oligarxiyasi qo'lida edi. Siyosiy huquklar juda ozchilikning monopoliyasi edi. Qonun chiqaruvchi yi 'inlarga va mansablarga saylanish uchun juda yuqori mulkiy tsenzlar belgilangan edi. Mulkiy tsenz doimiy yashash tsenzi bilan to'ldirilgan edi Shuning uchun ham, masala, Pensilvaniyada ovoz berish huquqiga qishloq aholisining 8 foizi, shahar aholisining 2 foizi ega edi. Massachusetsda hokimyat 2 oila - Gatchinsonlar va Olivyerlar qo'lida edi. Nyu-Yorkda er magnatlari oligarxiyasi - Livingstonlar va De Lanseylar hukmronlik qilardi, Virginiya gubernator hokimiyatining tayanchi qirg'oq bo'yida joylashgan yirik plantatorlar edi.

Iqtisodiy umumiylikning rivojlanishi hamda Angliya bilan Frantsiya o'rtasida Shimoliy Amerikada mustamlakalar egallash uchun kurashning kuchayishi mustamlaklarni siyosiy va harbiy jihatdan birlashtirish maslasini qo'ydi.

Milliy ozodlik harakatining asoschilaridan biri, yirik olim, yozuvchi va siyosiy arbob Benjamin Franklin 1754 yilda Shu masalaga bag'ishlangan kongress chaqirish tashabbusi bilan chiqdi. Metropoliya tomonidan qo'llangan qarshi tadbirlar hamda bu vaqtda milliy va iqtisodiy aloqalarning hali yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli bu tashabbus amalga oshmay qoldi.

Amerikaliklarning bir yarim asr davomida metropoliyadan uzoq erlalardagi umumiy territoriyada birgalikda yashab kelganligi Shimoliy amerikaliklar millatining tashkil topishini taqazo qilgan ob'ektiv omillardan biri bo'ldi.

Mustamlaklar iqtisodiy mustaqilligining o'sishi va ichki aloqalarning yo'lga qo'yilishi millat shakllanishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi.

Mustamlaklarda XVIII asrning 60 yillariga kelib narx-navolarda, kreditlarda, kommertsiya huquqida bir qadar o'xshashlik vujudga keldi. Mustamlaklarni bir-biri bilan bog'lovchi yo'llar, pochta aloqalari paydo bo'ldi.

Mustamlaklar bilan metropoliya o'rtasidagi kurashning keskinlaShuvi.

Angliya hukumati merkantilizm siyosatini o'tkazib, savdo va sanoat burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib, mustamlakalarda sanoat ishlab chiqarishiga katta to'siqlar qo'ydi. Mustamlakalar Angliyaning tayyor mahsulotlarini sotuvchi bozorga, xom ashyo bazasiga, pul mablag'lari manbaiga aylandi. Mustamlakalarning boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan savdo aloqalari Navigatsion aktlar yordamida cheklab qo'yilgan edi. Metall buyumlar ishlab chiqarish, jun sanoati kabi ko'pgina tarmoqlar taqiqlab qo'yilgan yoki juda cheklab qo'yilgan edi. 1763 yilgi farmonga ko'ra mustamlakachilarning Allegan tog'larining orqasidagi yerlarga ko'chib borishi taqiqlab qo'yildi.

1764 yilda mustamlaklarga keltiriladigan tovarlardan olinadigan boj yanada ko'paytirildi, Shu maqsadda bu erda ingliz floti kuchaytirildi, ular bu erga keltirilayotgan kontrabanda mahsulotlarni musodara qilar edilar.

1765 yilda qo'shinlarni joylashtirish to'g'risida qonun qabul qilinib, unga ko'ra mustamlakachilar askarlar uchun kazarmalar qurib berishi, askarlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashlari kerak edi.

Shu yili «Gerb solig'i» joriy qilinib, barcha yuridik va xo'jalik hujjatlari, e'lonlar, gazetalar bu soliqni to'lashlari kerak edi. Bu soliq mustamlakalar aholisining ommaviy noroziligiga sabab bo'ldi. Barcha shtatlarda «Hurriyat farzandalari» nomli va Shunga o'xshash demokratik tashkilotlar paydo bo'la boshladi.

Bu soliqdan mustamlaka burjaziyasi ham norozi edi, ularning vakillari kurashga rahbarlik qildilar. Mustamlakalardagi savdogarlar Angliyadan tovar olib kelishni to'xtatganliklarini va ingliz tovarlariga boykot e'lon qilganliklarini bildirdilar. Natijada Angliya parlamenti 1766 yilda «Gerb solig'i»ni bekor qildi va bojxona qonunlarini yumshatdi.

Lekin 1767 yilda Angliya Taunshend qonunlarini joriy qilib, mustamlakalarga keltiriladigan bir qancha tovarlarga yuqori boj belgilandi va Amerikada inglizlarning ma'muriy, sud va davlat apparatini kuchaytirshga harakat qilindi.

Taunshend qoununlari Shimoliy Amerikadagi mustamlakalarda xalq harakatining yanada kuchayishga olib keldi. Bu davrda mustamlakalardagi «Muxbirlik komitetlari» katta rol o'ynadi. Ular mustamlakalar aholisini Angliyaga

qarshi kurashda birlashtirar, har bir mustamlakalardagi xalq harakatlarini boshqa mustamlakalardagi kurash bilan muvofiqlashtirishga intilar edilar.

Ingliz hukumati Amerikaga qarshi qo'shin yubordi, lekin u norozilikni yanada kuchaytirdi. Boston ishchilar askarlar uchun kazarma qurishdan bosh tortdilar. Askarlarning aholi bilan bo'lgan 1770 yil martdagi to'qnaShuvida tinch aholi o'ldirildi. Xalq ommasining g'azabi ostida hukumat shahardan qo'shinlarni olib chiqishga majbur bo'ldi.

1773 yilda Angliya parlamenti Ost-Indiya kompaniyasiga Amerikada choy sotish bo'yicha monopoliya huquqini berdi. Bu esa mustamlakalarni unga qarshi chiqishiga olib keldi. Bostonda (Massachusets shtati) bu kompaniya choyini kemadan tushirishga yo'l qo'ymadilar. Bostonlik xizmatchi Semyuel Adams boshchiligidagi bir guruh bostonliklar hindular kiyimini kiyib olib, ingliz savdo kampaniyasiga tegishli choyni dengizga tashlab yubordilar ("Boston choyxo'rligi"). Ingliz hukumati bunga javoban Boston portini qamal qilib, yopib qo'ydi. Massachusets ilgarigi o'z-o'zini boshqarish huquqidan maxrum qilindi, shahar kengashi taqiqlandi.

Metropoliya bilan mustamlakalar o'rtasida ziddiyatlarning ana Shu tarzda kuchayib borishi mustaqillik uchun urushning boshlanishiga zamin tayyorladi.

2. MUSTAQILLIK URUSHI VA AQSHNING TASHKIL TOPISHI.

Angliya bilan uning Shimoliy Amerikadagi mustamlakalari o'ratasidagi ziddiyatlar juda keskinlashdi. Inglizlar mustamlakalarda istehkomlar qurdilar, garnizonlarni ko'paytirdilar Massachusets isyon ko'tarishda aybdor, deb e'lon qilindi. Kolonistlarning bo'ysunishi yoki isyon ko'tarishdan boshqa iloji qolmagan edi.

Massachusetsda Angliyaga qarshi kurashga tayyorgarlik ketayotgan edi. 1774 yilda viloyat kongressi chaqirildi, bu kongress qonun chiqaruvchi inqilobiy organ bo'lib qoldi. Xavfsizlik komiteti ijroiya hokimiyati edi. Harbiy komitet tashkil etildi va militsiyaga odam olish o'tkazildi. Qurol-yarog'lar va oziq-ovqatlar sotib olindi, yashirin omborlar qurildi, bu ishlarda «Hurriyat farzandalari» jamiyati muhim rol o'ynadi. Boshqa mustamlakalardagi progressiv kuchlar ham qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rishni talab qilmoqda edi.

1774 yil sentabr-oktabr oylarida Filadelfiyada mustamlaka shtatlar vakillaridan iborat kengash – birinchi Kontinental kongress chaqirildi. Kongress Angliya bilan munosabatlarni uzmasada, Angliyaning mustamlakalarga nisbatan qo'llagan choralarini keskin qoralab chiqdi. Kongressda "Huquqlar Deklaratsiyasi" qabul qilinib, unda mustamlakalar aholisining o'z-o'zini boshqarishga, yashashga, mulkga va erkinlikga huquqlari borligi ko'rsatildi. Lekin hali bu mustaqillikning e'lon qilinishi emas edi.

Mustamlakalardagi qurolli to'qnaShuvlar 1774 yil oktabrida Kentukki va Tennessida boshlanib ketdi, 1775 yil aprelda Shimoliy Karolinada fuqarolar urushi boshlanib ketdi.

1775-yil aprelda inglizlarning Konkord va Leksingtonga (Boston yaqinida) yuborilgan qo'shinlari qo'zg'olonchilardan engildilar, bu erda qo'zg'olonchilar hindulardan o'rgangan yoyilib saf tortish taktikasini qo'llagan edilar.

Boston yaqinidagi qo'zg'olonchilar erishgan bu g'alaba butun mustamlakada metropoliyaga qarshi urush boshlash uchun signal bo'ldi. Ingliz harbiy kuchlarining

asosiy bazasi bo'lgan Bostonni esa qo'zg'olonchilar bir yilga yaqin qamal qildilar va inglizlar bu erdan dengiz orqali chiqib ketishga majbur bo'ldilar.

Inqilobning asosiy kuchlari ishchilar, hunarmandlar va fermyerlar bo'lib, bular faqat milliy mustaqillik uchun kurashmasdan Shuningdek ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy huquqlar uchun ham kurashdilar. Biroq xalq ommasi uyushmagan edi. Ommaviy harakatga rahbarlik qilishni yirik burjuaziya bilan quldorlar o'z qo'llariga olgan edilar. Lekin ular xalq inqilobidan qo'rqardilar va ingliz toj-taxti bilan kelishib qo'ymoqchi edilar. Ularning maqsadi metropoliyaning hukmron sinflari ega bo'lgan huquqlarga ega bo'lib olish edi.

Shu bilan birga sinfiy kuchlar o'rtasida tabaqalanish jarayoni bormoqda edi. Quldorlar, yirik burjuaziya, ruhoniylarning bir qismi mustaqillik uchun kurashning avj olib borishdan qo'rqib, loyalistlar lageriga o'tib ketdilar va qirol tomonida turib kurashdilar.

Burjuaziyaning bir qismi esa metropoliyaga qarshi kurashga boshchilik qildi, ular ichida Tomas Jefferson, Patrik Genri, Semyuel Adams kabilar bor edi.

1775 yil 10 mayda Filadelfiyada II-Kontinental kongress ochildi. II-Kongress tarkibi loyalistlar tarafdorlari ko'p bo'lgan I-Kongressdan uncha farq qilmas edi. Lekin endigi vaziyat juda o'zgarib ketgan edi va kongress qo'zg'olon ko'targan mustamlakalarning markaziy inqilobiy hukumatiga aylandi. U mustamlakalarni Angliya bilan urush holatda ekanligini e'tirof etdi va armiya tuzish haqida qaror qabul qildi. Virginyalik yirik plantator, iste'dodli sarkarda va ajoyib siyosiy arbob Jorj Vashington (1732-1799) armiyaga bosh qo'mondon qilib tayinlandi.

Kongress Shu bilan birga qirolga petitsiya yuborib, unda Angliyaga o'z sadoqatini ta'kidladi va barcha masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishni so'radi. Angliya hukumati petitsiyani rad etib, ,,mustamlakalarni isyon holatida" deb e'lon qildi, ular bilan savdo-sotiqni taqiqladi, ularni to'la qamal holatida ekanligini e'lon qildi. Muntazam armiya 55 ming kishiga, flot 28 ming kishiga etkazildi.

Angliya urush olib borish uchun kuchli flotga ega edi va qo'zg'olon ko'targan mustamlakalarni dengizdan qamal qila boshladi. Lekin Angliyada katta armiya yo'q edi va u Chet davlatlardan qo'shin yollashga harakat qildi. Angliya qiroli Georg III 1775 yildayoq rus imperatritsasi YEkaterina II ga murojaat qilib, undan 20 ming kishilik qo'shin so'ragan edi. Lekin rus imperatritsasi qat'iy rad javobini berdi. Shundan keyin inglizlar nemis davlatlaridan 29 ming askar yollashga erishdilar. Natijada urushning dastlabki davrida Angliyaning harbiy flot va armiya bo'yicha ustunligi mustamlaka shtatlar uchun katta xavfni yuzaga keltirdi. Urush oxiriga kelib Angliyaning Shimoliy Amerikadagi qo'shinlarining soni 56 ming kishiga etgan edi, Vashington armiyasida esa ko'pi bilan 20 minggacha askar bor edi, lekin uni ko'p sonli xalq qo'shini va partizan otryadlari qo'llab-quvvatlardi.

Ingliz ma'murlari hindu qabilalarini, negrlarni mustamlakalardagi qo'zg'olonchilarga qarshi otlantirmoqchi bo'ldilar. Lekin hindularning ko'pchiligi bu urushda Angliya tomoniga o'tmadilar. Ozodlik berilarkan, deb aldangan bir necha ming negr ingliz otryadlariga kelib qo'shilgan edi, ammo ingliz qo'shinlari chekinayotganda ularning deyarli hammasini inglizlarning o'zlari o'ldirdilar.

1775 yilning oxirlarida 20 mingga yaqin loyalist metropoliya tomonida turib urushdi, ruhoniylarning ko'pchiligi aksilinqilobiy agitatsiyani kuchaytirib

yuborganliklari tufayli kongress 1776 yil 2 yanvarda ular ustidan nazorat olib borishni mahalliy ma'murlarga topshirdi. So'ngra kongress loyalistlarni qurolsizlantirish va ularning mol-mulkini musodara qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Mamlakatning deyarli hamma joylarida tuzilgan «xavfsizlik komitetlari» bu qarorlarni amalga oshirishga kirishdilar.

Xalq ommasining dunyoqarashining shakllanishida va milliy mustaqillikni targ'ib qilishda atoqli burjua inqilobiy respublikachi-demokrat va ma'rifatparvar Tomas Peyn (1737-1809) tomonidan 1778 yil yanvarida yozilgan «Tetik fikr» ("Aql-idrok rasoligi") degan pamflet katta rol o'ynadi. Peyn mustamlakalar aholisini Britaniya hukmron sinflarining zulmiga qarshi, monarxiyaga qarshi qurolli qo'zg'olonga chaqirdi. U demokratik respublika, erni natsionalizatsiya qilish, qariganda va ishsiz qolganda yordam tariqasida beriladigan jamoatchilik fondi yaratish g'oyalarini himoya qilib chiqdi. Peyn 1774 yilda Franklin tavsiyasi bilan Filadefiyaga kelib, Amerika xalqining ozodlikga erishish va mustaqillik e'lon qilinishi uchun olib borgan kurashida faol ishtirok etdi.

Peyn Qo'shma SHtatlarning dastlabki diplomatlaridan bir edi. Peyn keyinchalik frantsuz burjua inqilobida qatnashdi.

1776 yil bahorida burjuaziyaning inqilobiy qanoti kongressda hal qiluvchi g'alabaga erishdi. Bir qator keskin tadbirlar o'tkazildi, hamma yomon ko'rgan Navigatsiya aktlari bekor qilindi va Amerika portlari barcha mamlakatlar kemalari uchun ochib qo'yildi.

Kongress Yevropada Angliyaga dushman bo'lgan mamlakatlardan ittifoqchilar topish, qurol-yarog' va kemalar olish uchun Tashqi aloqalar maxfiy komitetini tashkil qildi.

1776 yil 10 mayda kongress barcha mustamlakalarga qirol amaldorlari o'rniga Yangi hukumatlar tuzishni taklif etdi. Bir qancha mustamlakalarda bu tadbirlar allaqachon amalga oshirilgan edi. Bir qator mustamlakalarda mustaqillik e'lon qilingan bo'lib, konstitutsiyalar ishlab chiqilgan, er egaligi aristokratiyasining imtiyozlari bekor qilingan edi.

Kongressning loyalistlarni qurolsizlantirish va ularning mulklarini musodara qilish to'g'risidagi qarori burjua inqilobining eng muhim tadbirlardan biri bo'ldi. Buning natijasida qirolga, anglikan davlat cherkoviga, yirik feodallarga tegishli er mulklar musodara qilindi. Pensilvaniyada Vilyam Pennaning, Merilenddi Lord Baltimorning yerlari musodara qilindi. Virginiyada Lord Ferfaksning 6 mln akr eri, Nyu - Yorkda umumiy summasi 3 mln dollarga teng bo'lgan 59 pomeste, Massachusetsda 300 aristokrat oilasiga tegishli mulklar musodara qilindi.

Bu davrda "muxbirlik, xavfsizlik, kuzatish komitetlari"ning faoliyati kengaydi. Bu komitetlar mustamlakalar o'rtasida aloqa o'rnatar, inglizlarga qarshi tashviqot olib borar, militsiya saflariga chaqiruv o'tkazar, qurol-yarog' to'plar va razvedka o'tkazar edi. Shu bilan birga loyalistlarga qarshi terrorni amalga oshirar, ularning mol-mulkini musodara qilardi. Shu maqsadalarda davlatga xiyonat qilishda gumon qilinganlarning «qora ro'yxati» tuzilardi. Dushmanga yordam berishda gumon qilingan shaxslar Angliyaga chiqarib yuborilardi. Davlatga xiyonat qilingani sudda tasdiqlanganlar esa qatl qilinardi.

1776 yil 4 iyulda kongress 13 shtatning mustaqilligi to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi. Yangi mustaqil davlat – Amerika Qo'shma SHtatlari tashkil topdi. Deklaratsiya matni xalqqa to'p salutlari va qo'ng'iroklar ovozi ostida o'qib eshittirildi.

Deklaratsiya loyihasini Jefferson burjua demokratik ruhda yozgan edi. Lekin u kongressning o'ng qismi tomonidan juda ham o'zgartirilib yuborildi. Jefferson loyihasida qulchilik va qul savdosi juda qoralangan va uni «inson tabiatiga qarshi qaratilgan shafqatsiz urush» deb baholagan edi. Lekin Janubiy Karolina va Jorjiya quldorlarining talabi bilan Deklaratsiya loyihasidan qulchik va qul savdosini qoralovchi paragraf olib tashlandi.

Mustaqillik deklaratsiyasi kishilarning yashashga, ozodlikga, tenglikga, baxtga intilishga haqi borligini e'lon qilib, Yangi hukumat ta'sis etishga haqi borligini, ya'ni xalq suverenitetini e'tirof qildi.

Respublikachilik va demokratiya ruhida tuzilgan bu deklaratsiya juda katta ahamiyatga ega edi. Ilg'or Yevropa va Amerika tafakkuri ta'sirida vujudga kelgan bu deklaratsiya boshqa mamlakatlardagi siyosiy g'oyalarga ham katta ta'sir ko'rsatdi. U barcha odamlarning tengligi, ularning yashashga, ozodlikka, baxtli bo'lishga intilish huquqi borligini e'lon qildi. U xalq suvereniteti va millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash printsipini mustahkamladi.

Mustamlakachilar armiyasi Bostonni qamal holatida ushlab turdi. 1776 yil martida inglizlar Bostondan ketishga majbur bo'ldilar. Lekin kemalarga tushgan qirol qo'shini general Gou boshchiligida Nyu-Yorkga hujum qilib, uni egallab oldilar. Bunday sharoitda Vashington inqilobchilar armiyasini Trentonga yo'llab, inglizlarga qattiq zarba berdi va ularning hujumini to'xtatib turdi. Lekin 1877 yil yozida inglizlar flot yordamida Filadelfiyani egalladilar.

Urush davrida inqilobchilar armiyasi va xalq ommasi juda og'ir qiyinchiliklarni boshdan kechirdilar. Qurol-aslaha etishmasdi. Ko'ngillilar armiyasining soni doimo o'zgarib turardi. Armiyaga qurol-aslaha va oziq-ovqat etkazib beruvchi savdogarlar ularning narxini to'xtovsiz oshirib borardilar. Zobitlar ichida xoinlar ham bor edi. Vashingtonning eng yaqin o'rinbosari general Li inglizlar bilan aloqada edi. Mamlakatda qirol tarafdorlari – loyalistlar ham ko'pchilikni tashkil etardi. Ular inglizlarga josuslik ma'lumotlarini etkazib berishar, o'zlarining qurolli otryadlarini tuzib, inglizlarga xizmat qilardilar. Ular ko'pgina joylarda vatanparvarlarning uy-joylariga o't qo'yib, oila a'zolarini o'ldirar edilar. Loyalistlarga qarshi kurashish uchun butun mamlakat bo'ylab Xavfsizlik qo'mitalari tashkil qilingan edi.

Ingliz qo'mondonligi Janubni Yangi Angliyadan ajratib qo'yib, bu erdagi inqilobiy armiyani yanchib tashlamoqchi edi. Shu maqsadda general Burgoynning yirik otryadi Kanadadan chiqib, general Gou qo'shini bilan birlashishga harakat qila boshladi. Lekin inqilobchi armiya qo'mondonligi bu rejani sezib qoldi va Burgoynning qo'shini Saratoga yonida qurshovga olindi va 1777 yil 17 oktabrda taslim bo'ldi.

Kongress Frantsiya va Ispaniyani qo'zg'olon ko'targan shtatlarga ittifoqchi qilib olish uchun B.Franklinni Yevropaga yubordi. Mustabid tuzum hukm surgan

Frantsiya va Ispaniya hukumatlari Angliya bilan eski hisob-kitoblarni to'g'rilab olish uchun bu imkoniyatdan foydalanishga harakat qildilar.

Frantsuz kapitalistlari mustamlakachilarni qurol-yarog', porox, to'plar bilan ta'minlab turdi. Frantsiya hukumati Vashingtonning shaxsiy kafolati asosida qo'zg'olon ko'targan shtatlarga 21 mln. livr zayom berdi. Saratoga yonidagi mag'lubiyatdan keyin Frantsiya hukumati AQSHning mustaqilligini tan oldi va 1778 yil 6 fevralda u bilan ittifoq va savdo shartnomasini tuzdi. Tez orada Ispaniya ham AQSH bilan ittifoq tuzdi. YOsh Amerika respublikasining diplomatiyasi eski mustamlakachi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlardan unumli foydalandi.

Frantsiya va Ispaniyaning AQSH tomonida turib urushga kirishi Angliyaning dengizdagi ahvolini keskin yomonlashtirib yubordi. Mustamlakalarni qamal qilish mumkin bo'lmay qoldi.

Inglizlar Saratoga yonida mag'lubiyatga uchrashgach, asosiy harbiy harakatlarni Janubga olib o'tdilar. Ular CHarlstonga tushib, Yorktaunga yo'l oldilar. Lekin ingliz qo'shinining ahvoli yomonlashdi. Angliya bosh qo'mondoni Kornvallis boshchiligidagi armiya Vashington va frantsuz generali Roshambo qo'shinlari tomonidan qurshovga olindi va 1871 yil 19 oktabrda taslim bo'ldi. Ingliz hukumati keyingi yili urushni tugatish to'g'risida AQSH bilan muzokaralarni boshladi. 1783 yil 3 sentabrda Versalda sulh bitimi imzolandi. Angliya AQSHning mustaqilligini tan oldi. Allegandan to Missisipigacha bo'lgan hududlar AQSHga qo'shildi. Ispaniya Floridani va Menorka orolini o'ziga qaytarib oldi, Frantsiya esa Senegal va Vest-Indiyadagi bir qator mayda orollar bilan kifoyalanishga majbur bo'ldi.

1775-1783 yillarda Amerika xalqining mustaqillik uchun olib borgan urushi mustamlakachilikga qarshi qaratilgan inqilobiy urush edi. Bu urush natijasida mustamlakachilik yo'q qilindi, mustaqil milliy davlat tashkil topdi. Shimoliy Amerika millatining madaniyati va ishlab chiqaruvchi kuchlari erkin rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Boshqaruvning respublika shakli o'rnatilishi, Mustaqillik deklaratsiyasi va inson huquqari to'g'risidagi deklaratsiyaning e'lon qilinishi XVIII asrda Yevropadagi inqiloblar uchun kuchli turtki bo'ldi.

CHerkovning davlatdan ajratilishi ham muhim burjua - demokratik yutuq edi.

Inqilob davrida va inqilobdan keyin Shimoliy shtatlarda qulchilik taqiqlandi, lekin subtropik o'simliklar o'sadigan Janubi-G'arbiy shtatlarda qulchilik saqlanib qoldi.

Mustaqillik uchun olib borilgan urush natijasida jahon maydonidagi xalqaro kuchlar nisbati o'zgardi, jumladan Angliyaning dengizdagi va mustamlakalardagi hukmronligi birmuncha pasaydi.

Shimoliy Amerikadagi qurolli qo'zg'olonning g'alaba qozonish Lotin Amerikasi mamlakatlarida ispan-portugal mustamlakachilariga qarshi milliy-ozodlik harakatini yuzaga keltirdi.

Amerika burjua inqilobi Frantsiyaga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu inqilobda ishtirok etib, keyinchalik Frantsiyaga qaytganlarning ko'pchiligi frantsuz burjua inqilobida faol ishtirok etdilar.

3. AQSH KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI.

Mustaqillik uchun olib borilgan urushning ancha uzoq cho'zilishiga (1775-1783) AQSHning konfederativ davlat tuzilishi va yosh respublikaning kuchsiz davlat hokimyati ham sabab bo'lgan edi.

AQSHning birinchi konstitutsiyasi «Konfederatsiya va mangu ittifoq moddalari» nomi bilan kongress tomonidan 1781 yilda qabul qilingan bo'lib, keyingi 2-3 yil ichida barcha shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan edi. Bu konstitutsiyaga ko'ra har bir shtat mustaqil davlat birligi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, umumiy dushmanga qarshi kurashda birlashish belgilab qo'yilgan edi. Kongress 1 palatadan iborat bo'lib, har yili barcha shtatlardan teng mikdorda vakillar saylanardi. Prezident lavozmi joriy qilinmagan bo'lib, kongress soliq yig'ish huquqiga ega emas edi, shtatlar o'z valutalarini saqlab qolgan edilar. Kongress ixtiyorida tashki qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash uchun mablag' yo'q edi. Shuning uchun ham Kongress xarajatlarni qoplashning yagona yo'li bo'lgan oltin va kumush bilan qoplanmagan qog'oz pullarni ko'plab chiqarishni amalga oshirdi. Har bir shtat o'z puliga ega bo'lib, juda ko'p miqdorda pul chiqarilardi. Natijada qog'oz pullarnig qadri 1779 yilda 40 marta, 1781 yilda 100 marta pasayib ketdi.

«Konfederatsiya moddalari» XVIII asrda hukmronlik qilib kelayotgan absolyutistik-monarxistik shakldagi siyosiy markazlaShuvga, uning oqibatida yuzaga keluvchi zo'ravonlik, umumiy armiya, politsiya va byurokratiyaga, og'ir soliq zulmiga qarshi qaratilgan edi.

Bu konstitutsiya «tabiiy huquq» g'oyasini o'zida aks ettirib, har qanday markazlashishni salbiy holat deb baholardi. Fermyerlar, hunarmandlar va ishchilarning keng ommasi bu konstitutsiyani qo'llab quvvatladilar. Ular markazlashgan kuchli hokimyat tuzishga qarshi chiqdilar, chunki burjuaziya bunday hokimyatdan xalq ommasini bosib turishda foydalanadi, deb xavfsirar edilar. Xalq ommasi shtatlarning mustaqilligi saylov huquqini va boshqa demokratik o'zgarishlarni kengaytirishga yordam beradi deb umid bog'lardilar.

Xalq qo'zg'olonlarining ko'tarilish xavfi burjaziya va quldorlarni o'zaro jipslashtirdi va AQSHdagi siyosiy tuzumni qayta qurishga, hukmron sinflarning manfaatlarini mustahkam himoya qila oladigan davlat apparatlarini vujudga keltirishga da'vat etdi. Ulargao'z hukmronliklarini mustahkamlab beradigan qattiqqo'l hokimyat kerak edi. Konfederatsiya bunday hokimyatni yarata olmadi. SHtatlar hindular bilan to'xtovsiz urush olib borayotgan edilar, buning uchun esa markaziy hokimiyatni mustahkamlash kerak edi. Ittifoqni qayta tuzish harakatiga er spekulyantlari va sertifikat egalari, Virginiya quldorlari boshchilik qildilar. G'arbdagi yerlarni qo'lga kiritish uchun ular hindularni tor-mor keltirishlari va skvattyerlarning juda ko'plab oqib kelishlarini zo'r kuch bilan to'xtatib qolishlari kerak edi.

Konfederatsiya tuzumi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va uning xalqaro ahvolini mustahkamlash uchun g'ov bo'lib qolgan edi.

Yevropa davlatlari zaif davlat bilan hisoblashib o'tirmas edilar, ular ayrim shtatlardagi separatchilik mayllarni qo'llab-quvvatlar edilar. Konfederatsiya kongressi tashqi savdoni yo'lga qo'ya olmadi, har bir shtatning o'z bojxona tarifi va valuta sistemasi bor edi. Bulardan ko'rinib turibdiki yagona davlat tashkil qilishni iqtisodiy va siyosiy sabablar taqazo qilayotgan edi.

Konstitutsiyani qaytadan ko'rib chiqish uchun chaqirilgan konvent Filadelfiyada 1787 yil 25 maydan 17 sentabrgacha davom etdi. Majlislar nihoyatda maxfiy o'tdi. Aslida «Konfederatsiya moddalari»ni ko'rib chiqish 13 shtatning qonun chiqaruvchi kengashlari roziligisiz amalga oshirilishi mumkin emas edi. Konvent chaqirilganda amaldagi konstitutsiyaga tashqi aloqalar, shtatlar o'rtasidagi savdo-sotiq va ichki bozorni kengaytirish to'g'risidagi o'zgartirishlar kiritiladi deb e'lon qilingan edi. Lekin konvent konstitutsiyani qabul qilishga vakolati bo'lmagan holda konstitutsiyani qabul qildi.

Konvent ishtirokchilari orasida inqilobning demokratik qanotidan Franklindan (82 yoshda) boshqa birorta ham vakil yo'q edi. Bunda reaktsiya ideologi bo'lib qolgan A. Gamilton katta rol o'ynadi. U AQSHda Angliyadagi kabi konstitutsion monarxiya joriy qilish taklifi bilan chiqdi, lekin uning taklifi qo'llab - quvvatlanmadi.

Shuningdek Fraklinning konstitutsiyaga mulkiy tsenz va quldorlarga yon berishni kiritmaslik haqidagi taklifi ham qabul qilinmadi.

4 oy davom etgan munozaralardan keyin Vashington raisligi ostida ishlab chiqilgan konstitutsiya AQSH tarixida katta rol o'ynadi. U yirik burjuaziya bilan quldorlar o'rtasida o'zaro keliShuv bo'lib xizmat qildi. Bu konstitutsiyada inqilobning demokratik tendentsiyalari o'z ifodasini topmagan bo'lsa ham, Amerika xalqining qo'lga kiritgan g'alabalarini yozib qo'ydi. Bu konstitutsiya cheklangan bo'lishiga qaramay, o'sha davr uchun ilg'or bo'lgan liberal ruhdagi siyosiy (qarashlarni) tamoyillarni o'zida aks ettirar edi.

1787 yilgi Konstitutsiyaga binoan AQSH davlatlar ittifoqidan (konfederatsiyadan) ittifoqchi federal davlatga aylandi. Ammo shtatlar o'z chegaralarida, o'ziga xos xususiyatlarni va muassalarni saqlagan holda yashayverdilar.

Konstitutsiya ijodkorlari Monteskening hokimiyatning taqsimlanishi va teng huquqliligi to'g'risidagi g'oyalariga asoslandilar. Butun ijroiya hokimiyat 4 yilga saylanadigan prezident qo'lida to'plangan bo'lib, u ayni vaqtda ham davlat boshlig'i, ham hukumat boshlig'i bo'lib hisoblanadi. Prezident 2 pog'onali tizim asosida (saylovchi vakillar tomonidan) saylanadi.

Prezident va u tomonidan tayinlanadigan ministrlar (sekretarlar) kongress oldida javobgar emas. Prezident qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni ham hisoblanadi. U qonun chiqaruvchi hokimyatga nisbatan veto qo'yish huquqiga ega.

Konstitutsiyaga binoan qonun chiqaruvchi hokimyat - kongress 2 palatadan: senatdan hamda vakillar palatasidan iboratdir. Vakillar palatasiga har bir shtatdan aholi soniga qarab vakil saylanardi, senatga esa har bir shtatdan 2 ta vakil yuborilardi. (Vakillar palatasiga saylov muddati 2 yil, senatga 6 yil). Har 2 yilda senat tarkibining 1/3 qismi Yangilanib turish kerak.

Hamma saylovlar juft sonli yillarda o'tkaziladi. Qonun kuchga kirishi uchun u ikkala palata tomonidan tasdiqlangan va unga prezident veto qo'ymagan bo'lishi kerak.

Oliy sud eng yuqori sud organi bo'lib, uning a'zolari senatning roziligi bilan prezident tomonidan umrbod tayinlanadi. (Oliy sud qonunlarning konstitutsiyaga mosligini tekshiradi, AQSH tarixida bu sud ancha reaktsion rol o'ynagan).

Saylov huquqi shtatlar konstitutsiyalari tomonidan turli shtatlarda turlicha belgilanar edi, mehnatkashlarning juda katta qismi mulk tsenzi, ma'lumot tsenzi, o'troqlik tsenzi tufayli saylov huquqidan maxrum edi. 3 mln. oq tanli aholidan 120 mingga yaqini saylov huquqiga ega edi.

Konstitutsiyada mehnatkashlarning huquqlari to'g'risida hech narsa deyilmagan edi. Konstitutsiya yirik mulqdorlar huquqini va ularning mol-mulkini himoya qilardi. Spekulyantlar va sudxo'rlarning talabi bilan konstitutsiyaga barcha davlat qarzlarini tan olish to'g'risida, quldorlar esa qochoq qullarni qaytarib keltirish, Shuningdek Afrika negrlarini 20 yil mobaynida olib kelishni qonuniy deb hisoblash to'g'risida modda kiritildi.

Shunday qilib, 1787 yil 17 sentabrda konvent tomonidan ma'qullangan konstitutsiya xalq suverenitetini cheklab qo'ydi. U burjua - demokratik erkinliklarni kafolatlovchi huquqlar to'g'risidagi billni ham o'z ichiga olmagan edi.

Konstitutsiya kuchga kirishi uchun shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi (tasdiqlanishi) kerak edi. Konstitutsiya tarafdorlari va uning muxoliflari vujudga keldi. Konstitutsiya tarfdorlari - federalistlar partiyasi yirik burjuaziyaning, quldorlar va yirik yer egalarining ko'pchiligini manfaatlarini ifoda etuvchi reaktsion doiralarni birlashtirardi. Ularnig rahbari J. Vashington, Jon Adams Gamilton edi.

Antifederalistlar burjua-demokratik va so'l liberal tendentsiyani ifoda etib, ularning keng ommaga ta'siri kuchli edi. Ular hokimiyat monarxiya qo'liga o'tib ketadi, deb xavfsirar edilar. Demokratlar uchun antifederalizm federal konstitutsiyaga qarshi, uni demokratlashtrish uchun kurash vositasi edi. Antifederalistlarning rahbarlari T.Jefferson, Patrik Genri edi.

Xalq ommasi ham konstitutsiyaga qarshi chiqdi.

5 ta shtatda konstitutsiyani ratifikatsiya qilish ancha oson kechdi, boshqa shtatlarda esa unga qarshi chiqqanlar ko'pchilikni tashkil qilib, ular Yangi konstitutsion konvent chaqirishni talab qilib chiqdilar.

Konstitutsiyani ratifikatsiya qilish jarayonida unga bir qator tuzatishlar kiritildi. Demokratik elementlarnig taziyqi ostida 1789 yil sentabrda konstitutsiyaga kiritilgan 10 tuzatish qabul qilindi, bu tuzatishlar 1791 yil dekabrda kuchga kirdi, bu qo'shimchalar «Huquqlar to'g'risida bill (qonun)» deb atalgan edi va u quyidagilardan iborat edi: so'z, matbuot, yig'ilish, shaxs, arznomlar topshirish erkinligi, qurol taqish huquqi, hakamlar sudi, doimiy armiyadan voz kechish, cherkovni davlatdan ajratish, shtatlar mustaqilligi kafolati.

Konstitutsiya mavjud 13 ta shtatga Yangi shtatlar qo'shilishining demokratik tamoyillarini belgilab berdi. Aholisi 60 mingdan kam bo'lmagan shtatlar teng huquqli a'zo bo'lishi belgilab qo'yildi, bu esa AQSHni yirik milliy davlatga aylanishiga yordam berdi.

1789 yilda kuchga kirgan bu Konstitutsiya Shimoliy Amerikaliklar millatinig rivojlanish jarayonida muhim bosqich bo'ldi. Konstitutsiya konfederatsiya davrida mavjud bo'lgan har bir shtatning chegaralarini va valutasini bekor qildi. Bu tadbir ichki bozorning rivojlanishiga katta yordam berdi.

1789 yilda kongressga saylovlar bo'lib o'tdi. Jorj Vashington Amerika Qo'shma SHtatlarining birinchi prezidenti bo'ldi.

4. AQSHNING XX ASR 1-YARMIDAGI TARAQQIYOTI.

Amerika xalqi 1775-1783 yillardagi inqilobiy urush natijasida o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritdi. Keyingi o'n yilliklarda yosh respublika o'sib, mustahkamlanib bordi. Mamlakatning Shimoli-sharqiy qismida sanoat inqilobi boshlanib, proletariat va burjuaziya shakllandi. Shimoli-g'arbdagi kengliklarda minglab mayda fermer xo'jaliklari tashkil topdi. Janubda va janubi-g'arbda qulchilikga asoslangan plantatsiya xo'jaliklari Yangi hududlarga yoyildi. X1X asr o'rtalariga kelib Yangi davlatning chegaralari belgilandi.

Amerika Qo'shma SHtatlari tashkil topgan davridanoq bir qancha qulay omillar uning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishiga yordam berdi. AQSH juda keng va hosildor hududlarga, katta miqdordagi ko'mir, temir, mis, qo'rg'oshin va boshqa er osti boyliklariga ega edi. Mamlakatning janubiy hududlarida Yevropada talab katta bo'lgan paxta, tamaki va boshqa ekinlarni yetishtirish mumkin edi. Mamlakatda iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan feodalizmning barcha qoldiqlari tugatilgan edi.

Yevropa davlatlari XVIII asr oxirida uzoq cho'zilgan urushlar davriga kirdilar. Bu urushlar 1815 yilgacha davom etib, Yevropa davlatlarining kuchi va e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. AQSHning davlat arboblari Yevropadagi urushlardan hukmron sinflar manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildilar.

AQSHning birinchi prezidenti Jorj Vashington (1789-1797) o'z vatandoshlariga murojaaat qilib "Yevropaliklar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqqan davrda biz o'zimizga berilgan geografik ustunlikdan aql bilan kerakli darajada foydalana olsak, ularning aqlsizliklaridan o'zlarimiz uchun foyda (daromad) chiqarib olishga erishamiz",- deb yozgan edi. J.Vashington prezidentligi davrida mamlakat moliyasi mustahkamlandi, milliy bank tashkil etildi, yagona pul birligi joriy qilindi va davlat qarzlarini to'lash boshlandi.

Aqsh burjuaziyasi XVIII asrning 90-yillaridan boshlab Yevropadagi bir-biriga dushman bo'lgan koalitsiyalar bilan juda manfaatli savdoni yo'lga qo'ydi. Bu savdo AQSH flotini tez o'sishiga olib keldi. AQSH flotining tonnaji 1792 yildan 1807 yilgacha 2 martadan ko'proqqa – 564 ming tonnadan 1268 ming tonnagacha o'sdi.

AQSH qulay vaziyatdan foydalanib, sotib olishlar va bosqinchilik yo'llari bilan o'z hududini kengaytirib bordi. 1803 yilda AQSH 15 million dollarga Frantsiyadan Missisipi daryosidan g'arbda joylashgan Luizianani sotib oldi, natijada AQSHning hududi deyarli 2 marta kengaydi. (Napoleon Bonapart Luizianani 1800 yilda Ispaniyadan tortib olgan edi. Napoleon Amerikadagi mustamlakalarini himoya qilish imkoniyatiga ega emas edi va pulga muhtoj bo'lgan edi).

AQSH Florida yarim orolini egallagan kuchsiz Ispaniya bilan hisoblashib o'tirmadi va 1810-1818 yillar davomida Floridani bosqichma-bosqich bosib oldi. Natijada 1819 yilda Ispaniya Floridani AQSHga berishga majbur bo'ldi. Bundan tashqari qit'aning 42-paralleldan yuqorida joylashgan barcha g'arbiy qismi AQSHga o'tdi. Bu bilan amerikaliklarning Tinch okeani sohillariga ekspansiyasi uchun keng yo'l ochildi.

Milliy-ozodlik kurashi natijasida Ispaniya Janubiy Amerikadagi barcha mustamlakalaridan deyarli mahrum bo'lgan bir vaqtda AQSH butun G'arbiy yarim shar xalqlari taqdiri ustidan hukmron bo'lishni ko'zlab, 1823 yilda Monro

doktrinasini e’lon qildi. Bu doktrinaning mohiyati Shundan iborat ediki, AQSH Yevropa davlatlarining Lotin Amerikasidagi va umuman Amerika qit’asidagi voqealarga aralashishiga qarshi edi. AQSH prezidenti Monro tashabbusi bilan ilgari surilgan bu doktrina “Amerika amerikaliklar uchun!” shiorini ilgari surdi. AQSH hukumati Yevropa mamlakatlarini Amerikada Yangi mustamlakalar bosib olish harakatini to’xtatishga chaqirdi. Aslida Yevropa davlatlari tomonidan bu erda mustamlakalar bosib olish xavfi bo’lmasada, AQSH o’zining bu tashabbusi bilan Lotin Amerikasida siyosiy etakchilik qilish maqsadini amalga oshirishni ko’zlagan edi.

AQSH umuman Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun olib borilayotgan kurashni yoqlagani holda, oradan 20 yilcha o’tib o’zining eng yaqin qo’shnisi Meksikaga qarshi urush boshladi. AQSHning janubiy shtatlaridan chiqqan quldorlar Meksika hukumatidan Texas prpovintsiyasida xo’jalik yuritish uchun juda arzon baholarda er sotib oldilar va amalda uni bosib oldilar. Amerikalik quldorlar 1836 yilda Texas provintsiyasini “mustaqil” respublika deb e’lon qildilar. Bu esa AQSH bilan Meksika o’rtasida urush chiqishiga olib keldi (1836-1848).

Urush AQSHning to’la g’alabasi bilan yakunlandi. Meksika Texasdan tashqari Kaliforniya, Arizona va Yangi Meksikadan, ya’ni o’z hududining yarmidan ajraldi va tovon sifatida 15 million dollar oldi. Yevropa davlatlari, eng avvalo Angliya AQSHning bu hatti-harakatlaridan qattiq norozilik bildirdilar, lekin SHarqdagi mustamlaka masalalari bilan band bo’lgan bu davlatlar Amerikadagi voqealarga katta e’tibor bermasdilar. AQSHning eng so’nggi qo’lga kiritgan eng yirik hududi 1867 yilda Rossiyadan 7,2 mln. dollar evaziga sotib olgan Rus Amerikasi (Aleut orollari va Alyaska) bo’ldi.

AQSHda ikki partiyali tizimning shakllanishi.

AQSHda hokimyat vakillik organlariga ma’lum bir siyosiy guruhlar, platformalarning nomzodlarini saylab qo’yuvchi 2 partiyali tizim shakllandi. Dastlabki davrlarda partiyalar yuqorida – kongress fraktsiyalarida va shtatlar legislaturalarida tashkil qilingan edi, keyinchalik asta-sekin ular bilan saylovchilar o’rtasida vertikal aloqa o’rnatila boshlandi va professional siyosatchilar instituti shakllandi. AQSH prezidentligiga nomzod u yoki bu partiya tomonidan ko’rsatiladigan bo’ldi.

20-yillarda AQSHning ichki siyosiy hayotida muhim o’zgarishlar yuz berdi. Fermyerlar, hunarmandlar va ishchilar sonining ko’payishi va ularning o’z siyosiy huquqlari uchun kurashining kuchayishi natijasida ko’pgina shtatlarda mulk tsenzi bekor qilindi va katta yoshdagi oq tanli aholi uchun umumiy saylov huquqi joriy qilindi. Ko’p sonli Yangi saylovchilar paydo bo’ldi. Fermyerlar, hunarmandlar va ishchilarning ko’pchiligi Chet el tovarlariga bojxona tariflarining oshishidan, 1816 yilda Filadelfiyada tashkil qilingan AQSH Bankidan yirik er chayqovchilari va sanoatchilarning kreditlar olishidan norozi edilar. Bu bank davlat pul fondini o’zida saqlar va banknotalar chiqarardi. Ko’pchilik fermyerlar bu bankdan qarzdor bo’lib qolgan edilar. Plantatsiya egalari va fermyerlar Yevropadan keladigan sanoat tovarlariga solinadigan bojlarning pasaytirilishi, hindularni G’arbga quvib borib, Yangi yerlarni bosib olinishi tarafdorlari edilar. Plantatsiya egalari, fermyerlar,

hunarmandlar va hatto ishchilar 1828 yildagi prezident saylovlarida o'zining hindularga qarshi urushlarda ishtiroki bilan tanilgan general Endryu Jeksonni saylash uchun birlashdilar. Dastlab kambag'al bo'lgan Jekson boyib ketdi va plantatsiya egasiga aylandi. U fermyerlar va plantatsiya egalari o'rtasida ustalik bilan ish yuritib, ularni o'zi tomoniga og'dira oldi. Jekson yirik kapitalistlarni rag'batlantirilishiga qarshi chiqib, o'zini xalq manfaatlarining himoyachisi sifatida ko'rsatdi. Plantatsiya egalari Jeksonni Janubdagi qulchilik bilan Shimoldagi yollanma mehnat va fermerchilikni murosaga keltiruvchi shaxs deb bildilar. Jekson tarafdorlari o'zlarini demokratik partiya deb atay boshladilar, bu partiya 1828 yilda tashkil topgan deb hisoblanadi.

Jekson prezidentligi davrida (1829-1837) bojxona tariflari ancha pasaytirildi va omma ichida salbiy fikr uyg'otgan AQSH Markaziy banki tugatildi. Moliya tizimini markazlashtirishdan voz kechilishi xususiy bank egalarining manfaatlariga mos kelardi. Ko'plab mayda va o'rta tadbirkorlar va fermyerlarning kreditga muhtojligi sababli bunday xususiy banklar soni tez ko'payib bordi.

Jekson Yangi Demokratik partiyada rahbarlik rolini o'ynadi. Bu partiyada Shimolning va tez o'sib borayotgan G'arbning yer egalari katta rol o'ynardi.

Janubga qat'iy ravishda qarama-qarshi turgan Respublikachilar partiyasi Yangi siyosiy kuch bo'lib maydonga chiqdi. Bu partiya 1854 yilda CHikagoda tashkil topdi. Uning etakchisi Avraam Linkoln qul negrlarni ozod qilish va tub agrar islohot o'tkazish orqali amerikacha demokratiya asoslarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Prezidentlikga nomzodlarni ko'rsatuvchi asosiy partiyalardan tashqari mamlakatda mayda, uncha muntazam bo'lmagan siyosiy birlashmalar ham bor edi. Tarkibida ko'pgina muhojirlar bo'lgan Amerika "ishchilar partiyalari" asosan dastlab 10 soatlik, keyinchalik 8 soatlik ish kuni, ish haqini oshirish, "mehnat odamlariga" er berilishini ta'minlash kabi an'anaviy talablar bilan chiqardilar. Ular xalq maorifiga katta e'tibor berib, bepul umumiy o'rta maktablarni keng yoyilishini talab qilib chiqardilar. AQSHda shaxsiy erkinlik, mulk va oila farovonligi eng oliy qadriyatlar hisoblanganligi uchun jamiyatda utopik sotsializm va marksizm g'oyalari deyarli yoyilmadi.

AQSH yagona davlat bo'lgani bilan unda ikki xil tuzum – qulchilik va erkin kapitalizm yonma-yon yashardi, Shimoliy shtatlarning konstitutsiyasi qulchilikni taqiqlab qo'ygan edi.

Shimoliy va Janubiy shtatlarning manfaatlari kongressda ham o'zaro ajralib turardi. Har bir tomon ittifoqqa Shimol va Janubdan teng sonli vakillar qabul qilinishini kuzatib borardi. 1820 yilda Missuriya bitimi deb atalgan bitim tuzilib, u Yangi yerlarda qulchilik masalasi umummilliy masalaga aylanganini ko'rsatdi. Missisipi daryosidan g'arbdagi hudud sh.k. bo'yicha 36^0 30^1 parallel bo'yicha 2 qismga – janubga qarab quldorlik va Shimolga qarab erkin hududga ajraldi. Aslida bu quldorlarning g'alabasi bo'lib, qulchilik hududi chegarasi ancha kengaydi, Shimol esa yon berishga majbur bo'ldi.

Shimol jamoatchiligi qullarga achinish bilan qarardi, lekin kamdan-kam odam ularning ozodligi uchun kurashishga jar'at eta olardi, chunki qullar plantatsiya egalarining xususiy mulki hisoblanardi. Qullar ba'zan qo'zg'olon ko'tarardilar, lekin

ko’pincha erkin shtatlarga qochib, u erdan Kanadaga o’tib ketardilar. Qullarni ozod qilish harakati ishtirokchilari abolitsionistlar[1] deb atalardi. Abolitsionistlar qochoq qullarni ozod etish uchun yashirin yo’llar tashkil etardilar.

Shimol burjuaziyasi, hunarmandlari va fermyerlarining bir qismi 1848 yilda Buffalo shahrida Yangi partiya – frisoylyerlar partiyasini tashkil qildilar (“fri soyl” – ozod er). Ishchilar va negrlar ham bu partiyada ishtirok qilardilar. Frisoylyerlar qulchilikni Yangi yerlarga yoyilishiga qarshi bo’lib, g’arbdagi yerlarni skvattyerlarga[2] tekin tarqatishni va bu yerlarni yirik er spekulyantlariga sotilmasligini talab qilib chiqdilar.

Meksikadagi bir qator hududlar AQSHga qo’shib olingach, Yangi siyosiy inqiroz yuzaga keldi. Kaliforniya kongress tomonidan erkin shtat deb e’lon qilindi. Nyu-Meksiko va YUta esa bu erda janubliklar ko’pchilik bo’lgani uchun quldorlik shtatlari deb e’lon qilindi. Keyinroq Kanzas va Nebraska ham janubliklar ko’pchilikni tashkil qilgani uchun quldorlik shtatlariga aylandi.

Janub quldorlari butun mamlakatda qulchilikni qonunlashtirishga, kongressni biron-bir shtatda qulchilikni bekor qilish huquqidan mahrum qilishga harakat qilardilar. AQSH Oliy sudi ham qulchilikni saqlab qolish tarafdori edi, bu sud 1857 yilda qulchilikni taqiqlovchi har qanday qonun konstitutsiyaga xilof ekanligini e’lon qildi.

Bu vaqtda siyosiy sahnaga chiqqan Respublikachilar partiyasi Janub siyosatidan norozi bo’lgan barcha kuchlarni birlashtira oldi. Respublikachilarga 1860 yilda prezident qilib saylangan Avraam Linkoln rahbarlik qilardi. A.Linkoln haqiqatan ham “xalq” prezidenti bo’lib, kambag’al oilada tug’ilgan, bolalikdan og’ir mehnatda o’sib, tirishqoqligi natijasida bilim olib, advokat bo’lib etishgan edi. Linkoln o’zining vijdonliligi, to’g’riso’zligi, og’ir siyosiy bahslarda g’alaba qozona olishi, oqko’ngilliligi, odamlar bilan tez til topa olishi bilan ajralib turardi.

5. AQSHDA FUQAROLAR URUSHI VA REKONSTRUKTSIYA DAVRI.

A.Linkolnning 1860 yildagi prezident saylovlarida g’alaba qozonishi quldorlarning siyosiy hokimyatdan mahrum bo’lganligini bildirardi. Bunday vaziyatda Janub o’zboshimchalik bilan AQSHdan ajralib chiqishga qaror qildi.

1861 yil qish-bahorida janubdagi 11 ta shtatdan iborat Janubiy Konfederatsiya tashkil topdi, Richmond uning markazi va D.Devis prezidenti deb e’lon qilindi. Janubliklar 13 aprelda CHarlston buxtasidagi Samter fortini o’qqa tutdilar va uni egallab oldilar. 15 aprelda Linkoln janubliklarni isyonchilar deb e’lon qildi va 75 ming kishilik qo’shin to’plashga farmon berdi. Shu tariqa AQSH tarixidagi eng qonli va vayronali bo’lgan 4 yillik fuqarolar urushi boshlanib ketdi.

Sanoat quvvati va odam resurslari bo’yicha Shimol ustunlikga ega edi, lekin Janub harbiy jihatdan kuchli edi. Janubliklarda professional zobitlar, qurol-yarog’ zahirasi katta bo’lib, ular tez va qat’iy g’alaba ularga muvaffaqiyat keltirishini bilardilar.

Urushning boshidagi beparvolik va tez harakat qilmaslik Shimolliklarga qimmatga tushdi. 1861 yilda Shimolliklar faqat mag’lubiyatga uchradilar va sal

[1] Аболиционизм – қулчиликнинг бекор қилинишини талаб қилиб чиққан ижтимоий ҳаракат.
[2] Skvatterlik – erkin yerlarni o’zboshimchalik bilan egallab olish.

bo’lmasa poytaxt Vashington janubliklar tomonidan egallanishi mumkin edi. Shimol armiyasiga ko’ngillilarning to’xtovsiz kelib turishi natijasida 1861 yil oxiriga borib askarlar soni 650 ming kishiga etdi. Lekin qo’mondonlik yo’l qo’ygan xatolar tufayli jangda ustunlikga erishib bo’lmadi.

1862 yilda ham federal qo’shinlar ustunlikga erisha olmadilar. Shimol armiyasining Konfederatsiya poytaxti Richmondni egallash uchun 3 marta uyushtirgan hujumi natijasiz tugadi. Janubliklarning R.Li qo’mondonligidagi qarshi hujumini to’xtatish uchun G’arbdagi qo’shinning bir qismini olib kelishga to’g’ri keldi.

Urushni “inqilobchasiga” olib borish orqali Shimol foydasiga o’zgartirishga erishildi. Front orqasidagi tartib-intizomni kuchaytirish, soliqlarni oshirish bilan birga 1862 yil 20 maydagi gomstedalar to’g’risidagi qonun va 22 sentabrdagi qullarni ozod qilish to’g’risidagi akt hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’ldi. Gomsteda to’g’risidagi qonunga binoan mamlakatning AQSHga qarshi isyonda ishtirok etmagan har bir fuqarosi 10 dollar boj to’lash evaziga gomsted – erkin yerlardan ferma uchun 160 akr (64 gektar) er olish huquqiga ega bo’ldi. Bu erda 5 yil yashab, unga ishlov berganidan keyin er unga bepul xususiy mulk qilib beriladigan bo’ldi. Bu Respublikachilar partiyasi tomonidan 1860 yilda va’da qilingan agrar masalaning tubdan hal qilinishi edi. Bu qonun bevosita harbiy ahamiyatga ega bo’lmasada, u keng xalq ommasini Janub ustidan g’alaba qozonishga undadi, chunki Shusiz G’arbdagi yerlarga ko’chib borib bo’lmas edi.

Ikkinchi qonun qullarni 1863 yil 1 yanvardan ozod deb e’lon qildi. Konfederatsiya hududida uning o’z qonunlari amal qilayotgan bo’lsada, endilikda qullar qaysi tomonda turib urushish kerakligini yaxshi bilardilar. Quldorlar tomonidan olib borilgan qattiq terrorga qaramasdan Konfederatsiya o’zining mustahkam front orqasidan mahrum bo’ldi, negrlar ommaviy ravishda Shimolliklar tomoniga o’tib, federal armiyada xizmat qila boshladilar.

Janub qamal qilingan katta lagerga o’xshardi, bu erda eng zarur mahsulotlarning etishmasligi kuchayib borardi. Uning uncha katta bo’lmagan sanoati urush ehtiyojini qondira olmas edi, dengiz qamali esa Yevropaga paxta xom ashyosini olib chiqish va u erdan oziq-ovqat va dori-darmonlarni olib kelish imkoniyatini bermas edi. Janubning moddiy va inson resurslari tugab borayotgan bo’lsada, hali uning harbiy kuchlari tor-mor qilinmagan edi.

Janubliklar Li qo’mondonligi ostida 1863 yil bahorida Virginiya yo’nalishida CHanselorvill yonida federal qo’shinga qattiq zarba berdilar, lekin bu isyonchilarning so’nggi katta g’alabasi edi. Shimol esa o’z armiyasini qayta tiklab olib, qarshi hujumga o’tish imkoniyatiga ega edi. Shimol sanoati armiyani zarur mahsulotlar bilan to’liq ta’minlab turardi.

Janubliklarning Li boshchiligidagi armiyasi Gettisberg (Pensilvaniya) yonida to’xtatildi va 1863 yil iyulida Virginiyaga uloqtirib tashlandi. Grant qo’shinlari esa konfederatchilarning Missisipi daryosidagi mustahkamlangan tayanch punkti bo’lgan Viksberg shahrini qo’lga kiritdilar. Bu urushda burilish yuz berganini bildirar edi. 1864 yil bahorida federal qo’shin Konfederatsiyaning yuragi bo’lgan Jorjiya shtatiga hujum boshladi. Kuzda ularning qo’mondoni general Uilyam SHerman Janubning eng yirik sanoat markazi bo’lgan Atlantani egalladi. Grant qo’shinlari 1865 yil

aprelda hujum bilan Richmondni egalladi. 9 aprelda Lining 28 ming kishilik armiyasi taslim bo'ldi. Janubning boshqa generallari ham urushni to'xtatdilar. Umumiy hisobda 175 ming kishi taslim bo'ldi. Har ikki tomondan 600 mingdan ko'proq inson hayotini olib ketgan fuqarolar urushi ana Shunday tugadi.

Urush Avraam Linkolnning hayotiga ham zomin bo'ldi. 1865 yil 14 avgustda teatrda quldorlar tomonidan yollangan qotil – aktyor Jon Uilks Bus uning hayotiga yakun yasadi. Linkolnning o'limi butun Amerikani motamga soldi. U turli siyosiy qarash va e'tiqodga ega bo'lgan millionlagan amerikaliklarning hurmat va muhabbatini qozongan edi. Linkoln Janubga nisbatan kuch ishlatish tarafdori emas edi, u AQSHni avvalgi, hamma shtatlar uchun teng bo'lgan konstitutsiya asosida qayta tiklash, qulchilikning bekor qilinganligini e'tirof etish tarafdori edi.

AQSHda qulchilikni bekor qilinishi Konstitutsiyaga 13-o'zgarish sifatida kiritildi. Lekin sobiq Konfederatsiya shtatlarini ittifoqqa qabul qilish, sobiq quldorlar va ozod qilingan negrlarning maqomi, hokimyatning tuzilishi masalalari hal qilinmagan edi. AQSHning hukmron doiralari ichida bu borada yakdillik yo'q edi. Tadeush Stivens va CHarlz Samner boshchiligidagi bir guruh respublikachi kongressmenlar Janub ustidan harbiy diktatura o'rnatish, isyonning faol ishtirokchilarini fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish, negrlarga fuqarolik huquqlarini berish taklifi bilan chiqdilar.

Linkoln vafotidan keyin prezident bilan kongress o'rtasida ixtilof kuchaydi. Sobiq vitse-prezident Endryu Jonson obro'-e'tiborga, Shuhratga ega emas edi. Uning tinchlik o'rnatish siyosatining dastlabki natijalari o'ziga qarshi chiqdi. U 1865 yil mayida plantatsiya egalarini fuqarolik, siyosiy va mulkiy huquqlarini tiklash to'g'risida amnistiya haqida farmon chiqarib, o'z zimmasiga juda katta ma'sulyat oldi.

Urush davrida musodara qilingan plantatsiyalarni sobiq egalariga qaytarishga to'g'ri keldi, ular qora tanli aholini zo'ravonlik va qo'rqitish yo'li bilan o'zlariga ishlashga majbur qildilar. Avvalgi tartiblarga qaytishni istamagan negrlar va ularga hayrihoh bo'lgan oq tanli aholiga qarshi dahshatli jazolashlarni amalga oshiruvchi ko'p sonli terrorchi tashkilotlar, Shu jumladan o'z shafqatsizligi bilan mashhur bo'lgan ku-kluks-klan tashkiloti paydo bo'ldi. Plantatsiya egalari hokimyatga ega bo'lishgach, shtatlarning qonunchilik majlislari orqali sobiq qullarni erdan, erkin ko'chib yurish, so'z va yig'ilishlar erkinligidan mahrum qilishga, oq tanlilar bilan nikohga kirishni taqiqlovchi qonunlarni – "qora kodekslarni" qabul qilinishiga erishdilar. Bularning hammasi ilgarigi qulchilik tizimini qayta tiklash sari tutilgan yo'l edi.

Janubda plantatsiya egalari bilan ozod qilingan qullar o'rtasida Yangi fuqarolar urushi boshlanishi xavfi paydo bo'ldi. Ozod qilingan negrlar o'z tashkilotlarini tuzib, er uchun, fuqarolik huquqlari uchun kurash boshladilar. O'z navbatida plantatsiya egalari AQSH kongressiga saylovlar o'tkazishib, 1865 yil dekabrida Janubning Yangi senatorlari va vakillari Vashingtonga keldilar. Ular ichida hatto Janub Konfederatsiyasining sobiq vitse-prezidenti Aleksandr Stefens ham bor edi. AQSH kongressining radikal kayfiyatdagi a'zolari ularni majlislar zaliga kiritmaslik, Rekonstruktsiyani davom ettirilishini kongress zimmasiga yuklash va

Janubdagi ishlar bo'yicha tergovni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilinishiga erishdilar.

Kongress 1866 yil iyulda AQSH Konstitutsiyasiga 14-tuzatishni kiritdi. U Konfederatsiya rahbarlarini davlat mansablarini egallash huquqidan mahrum etdi va negrlar huquqini oq tanlilar huquqi bilan tenglashtirdi. "Qora kodekslar" taqiqlandi.

Respublikachilar saylovlarda g'alaba qozonib, kongressda 2/3 dan ko'proq ovoz to'plab, Rekonstruktsiyani (qayta qurish) amalga oshirishga kirishdilar. 1867 yilda Janubda harbiy holat joriy qilindi va shtatlarning avvalgi konstitutsiyalari bekor qilindi. 14-tuzatish asosida qora tanli aholining huquqlari tiklandi. Janubni harbiy okruglarga ajratish vaqtinchalik tadbir sifatida, ya'ni 14-tuzatish shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilingach tugatilishi ko'zda tutildi. Bu favqulodda tadbirlar tufayli 1868 yil iyuliga kelib Janub shtatlari uni ratifikatsiya qildilar va Fuqarolar urushining qo'lga kiritgan yutuqlari asrab qolindi.

Tub Rekonstruktsiya janubiy shtatlarga kiritilgan armiyaga tayangan holda , lekin yakobincha terrorsiz va diktaturasiz Janub hayotini majburiy ravishda demokratiyalashtirishni bildirar edi. Hamma narsa qonun yo'li bilan hal qilinardi, Konstitutsiyaning 14-tuzatishi 1870 yilda 15-tuzatish bilan to'ldirildi, unda AQSHda ovoz berish huquqi fuqaroning tanasining rangi, irqiy kelib chiqishi va o'tmishda qul bo'lgani bilan cheklanmasligi belgilab qo'yildi.

Gomsteda to'g'risidagi 1862 yilgi qonun Janub shtatlariga ham joriy qilindi. Lekin ozod qilingan negrlarning ko'pchiligi mulkdorlarga aylana olmadilar va ularning jamiyatdagi mulkiy tengsizligi yana uzoq davrlargacha saqlanib qoldi. Lekin qora tanli aholi o'rtasida savodsizlikning tugatilishi sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi, 1880 yilga kelib savodsizlar miqdori 70 % ga qisqardi. Negrlar o'zlarining siyosiy huquqlaridan faol ravishda foydalanib, saylab qo'yiladigan organlarga, Shu jumladan kongressga ham saylanardilar, ular ishtirokida Janub shtatlarida "Rekonstruktsiya hukumatlari" tashkil etilardi. Bu hukumatlar islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashdilar. Janub konstitutsiyalarining qayta ko'rib chiqilishi ularni ittifoqqa Yangi asosda qabul qilinishining hal qiluvchi sharti bo'ldi.

Bu bilan Rekonstruktsiya o'zining asosiy vazifasini bajardi. 1868 yilda Shimol armiyasining sobiq qo'mondoni general U.Grant prezident qilib saylandi, uning prezidentligi davrida mamlakatda tadbirkorlik faoliyati sezilarli darajada kuchaydi.

Tez rivojlanib borayotgan kapitalizm Shimol bilan Janub o'rtasidagi farqlarni evolyutsion yo'l bilan, tabiiy ravishda yo'qolib borishiga olib keldi va 70 yillarga kelib tub Rekonstruktsiya yo'qqa chiqdi. Janubiy shtatlardagi "Rekonstruktsiya hukumatlari" o'rniga Demokratik partiyaning janubiy qanoti kela boshladi. Uning kongressga ta'siri kuchaydi. Ana Shunday sharoitda Konstitutsiyaning 14 va 15-tuzatishlarini tan olishni istamagan va qora amerikaliklarni ijtimoiy jihatdan asoratga solishni ko'zda tutgan reaktsiya kuchlari jonlanib qoldi. Kongress tomonidan 1876 yilda ku-kluks-klan faoliyatining taqiqlanishi ham katta samara bermadi.

1876 yilda demokratik partiyadan prezidentlikga nomzodi ko'rsatilgan Semyuel Tilden respublikachilar nomzodi Ruterford B.Xeysdan ko'p ovoz to'pladi. Lekin saylov natijalarini qayta ko'rib chiqishda ko'pchilik ovoz Xeysga berildi.

Natijada 2 partiya rahbarlarinig o’zaro keliShuvi amalga oshdi: AQSH prezidentligi avvalgidek respublikachilar qo’lida qoldi, lekin buning evaziga u Janubdagi shtatlarda turgan federal qo’shinni olib chiqishga va’da berdi. Xeys hokimyatga kelgach, 1877 yilda Janubdagi federal qo’shinlarni olib chiqishga farmon berdi va bu bilan Rekonstruktsiya jarayoni tugadi.

FUQAROLAR URUSHI VA JANUBNI REKONSTRUKTSIYA QILINISHINING AHAMIYATI.

Bu ikki voqea o’zaro bog’langan bo’lib, Shimolning Janub ustidan g’alabasi doirasidan chiqib ketardi. Qulchilikni tugatish masalasi mamlakatni fuqarolar urushiga olib keldi. Tarixchilar AQSHdagi Fuqarolar urushini burjua-demokratik inqilob bilan tenglashtiradilar. Ularning umumiy tomoni Shundan iboratki, jadallik bilan rivojlanib borayotgan kapitalizm o’ziga to’sqinlik qilayotgan har qanday to’siqlarni – mustabid monarxiya, siyosiy tarqoqlik, feodalizm sarqitlari va Shuningdek qulchilikni ham yo’q qilib tashlardi. Rivojlanmagan kapitalizm qulchiliksiz yashay olmas edi, rivojlanganidan keyin esa uni yo’q qilib tashladi.

Fuqarolar urushining asosiy yakuni qulchilikni bekor qilinishidan iborat bo’ldi. Amerika iqtisodiyotining boshqa unsurlari – sanoat, savdo, fermerlikga asoslangan qishloq xo’jaligi undan oldin ham muvaffaqiyatli rivojlanib kelmoqda edi, jumladan AQSHning Shimoli-sharqida 60-yillarda sanoat to’ntarishi amalga oshgan edi. 1862 yilda qabul qilingan gomstedalar to’g’risidagi qonun agrar masalani hal qilishda dunyo tarixidagi eng progressiv qonun hisoblanadi. 1861 yildan 1884 yilgacha hokimyat tepasida turgan respublikachilar partiyasi tadbirkorlar manfaatini ko’zlab bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Janubning fuqarolar urushidan keyingi ahvolini ko’radigan bo’lsak, u AQSHning Shimoli va G’arbidan orqada qolishda davom etdi. Plantatsiyalarning bir qismi egalaridan olinib, Yangi xo’jayinlar qo’liga o’tdi, bir qismi mayda uchastkalarga ajratilib, ijaraga berildi. Plantatsiyalarda ilgarigidek qora tanli aholi ishlardi, lekin endi ular batraklar va ijarachilar sifatida mehnat qilib, hosilning bir qismini yer egalariga berardilar. Janubda ham oilaviy fermyerlar soni o’sib bordi. Qulchilikning bekor qilinishi Janubda yollanma ish kuchi bozorining shakllanishi uchun shart-sharoit yaratdi, lekin u tub Rekonstruktsiya davrida ham to’la shakllanib bo’lmadi. Qora tanli aholini irqiy jihatdan kamsitilishi buning asosiy sababi edi, negrlarni asosan eng og’ir va iflos ishlarga jalb qilar edilar.

Rekonstruktsiya Janubni AQSHning erkin Shimol va G’arb kabi regionga aylantirish masalalarini to’la hal qila olmadi. Buning uchun plantatsiya egalaridan yerlarni tortib olish va bu yerlarni negrlar, kambag’al oq tanli aholi o’rtasida taqsimlab berish kerak edi. Radikal respublikachilar rahbarlari bunday tadbirlarni amalga oshirish tarafdorlari edilar, lekin bu tadbirlar AQSH uchun uzoq davom etadigan larzalar va qon to’kilishlarni keltirib chiqarardi. Voqealar esa tadrijiy (evolyutsion) yo’l bilan ketdi.

Qora tanli amerikaliklarning o’z fuqarolik huquqlari uchun kurashi to’la muvaffaqiyat bilan yakunlanishi uchun deyarli 100 yil kerak bo’ldi. Bu faqat ularning kurashlari ta’siri ostidagina emas, balki butun amerika jamiyatining umuminsoniy qadriyatlarni e’tirof etishi va inson huquqlariga hurmat bilan qarashi natijasida ham amalga oshdi.

5. AQSHNING X1X ASR OXIRLARIDAGI IQTISODIY TARAQQIYOTI.

1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi AQSH uchun katta ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Kapitalistik Shimolning quldorlik Janub ustidan g'alabasi AQSHda sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham kapitalistik munosabatlarning erkin rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bunga yana mamlakatda keng maydonlarning mavjudligi, tabiiy resurslarning ulkan zaxiralari ham yordam berdi.

Fuqarolar urushidan keyin G'arbda katta hududlarning o'zlashtirilishi va u bilan bog'liq holda temir yo'llar, shosse yo'llar, daryo kanallari, gavanlar qurilishining avj olishi sanoatning rivojlanishiga, ichki bozorning rivojlanishiga olib keldi. Amerika burjuaziyasi Yeevropa sarmoyasidan va texnikasining ilg'or yutuqlaridan samarali foydalandi.

X1X asrning choragida eng avvalo ishlab chiqarish hajmi o'sib bordi. 1873-1878, 1882-1885 va 1893-1897 yillardagi iqtisodiyotni larzaga solgan ortiqcha ishlab chiqarishning davriy inqirozlari sanoat taraqqiyoti yo'nalishini o'zgartira olmadi.1870 yildan 1900 yilgacha bo'lgan davrda cho'yan eritish 8 baravar (13,8 mln.tonnagacha), po'lat eritish 150 baravar (11,2 mln.tonnagacha), ko'mir qazib olish 10 baravar (212,3 mln.tonnagacha) o'sdi. 1860 yildan 1900 yilgacha bo'lgan davrda AQSHda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymati 6 baravar o'sdi. Hukumat tomonidan temir yo'l kompaniyalariga berilgan yer uchastkalari va kreditlar natijasida temir yo'llarning qurilishi juda kuchaydi. 1860-1900 yillar davomida AQSHdagi temir yo'llar uzunligi 49,3 ming kilometrdan 320,2 ming kilometrga etdi, ya'ni jeyarli 6,5 baravar o'sdi. 1900 yilga kelib barcha shtatlar temir yo'llar orqali bir-birlari bilan bog'landilar, to'rtta magistral esa Tinch okeani va Atlantika okeani sohillarini o'zaro bog'ladi.

1870 yilda AQSHda 50 milliondan ko'proq aholi yashardi, lekin ishchi kuchi etishmasdi. Mamlakatda sanoatning rivojlanishida muhojirlar katta rol o'ynadi. X1X asrning so'nggi 30 yili davomida AQSHga 14 millionga yaqin muhojirlar kelgan bo'lib, ularning asosiy qismi Yeevropa mamlakatlaridan edi. AQSHdagi qulay iqtisodiy imkoniyatlar muhojirlar oqimining asosiy sababi edi. X1X asrda muhojirlarning yarmidan ko'prog'ini malakasiz xodimlar – qora ishchilar va uy xizmatkorlari, chorak qismiga yaqinini dehqonlar va yana shunchasini sanoat ishchilari tashkil qilardi. 1890 yilda AQSH aholisining 33 % ini muhojirlar va ularning bolalari tashkil qilardi.

Tadbirkorlar ish kuchi etishmasligini ishlab chiqarishni ratsionallashtirish bilan to'ldirishga harakat qilardiar. Fan va texnikaning eng Yangi kashfiyotlari tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy qilinardi. AQSHda 1860 yildan 1890 yillargacha bo'lgan davrda turli xil kashfiyotlar uchun 440 mingga yaqin patentlar berildi. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz berib, neft qazib olish va uni qayta ishlash, elektroenergetika, ximiya, rezina ishlab chiqarish, avtomobilsozlik kabi Yangi tarmoqlar rivojlana boshladi. Mashhur kashfiyotchi T.Edison 1882 yilda birinchi issiqlik elektr stantsiyasini qurdi, asr oxiriga borib esa mamlakatda 2800 elektr stantsiyasi ishlab turardi. Mamlakatda sanoat, transport va maishiy hayotni elektrlashtirish boshlandi. AQSHda ishlab chiqarishni kontsentratsiyalash va

monopolizatsiyalash asosida yirik ommaviy ishlab chiqarishga o'tila boshlandi. D.Rokfeller tomonidan 1870 yilda tashkil qilingan "Standart Oyl" kompaniyasi ana shunday birinchi yirik korporatsiya edi. U 12 yildan keyin trestga aylanib, AQSH neft sanoatidagi monopoliyaga aylandi. 1887-1897 yillar trestlarning gullab-yashnash davri bo'ldi. Rokfeller trestidan tashqari Karnegining po'lat kompaniyasi, "Ameriken shugar rifayning kompani" shakar monopoliyasi, "Jeneral elektrik" elektrotexnik tresti va boshqalar eng yirik monopolistik birlashmalar bo'lib qoldi. Alyumin ishlab chiqarish, spirtli ichimliklar, gugurt, tamaki va boshqa sanoat tarmoqlarida ham trestlar tashkil topdi. Korporatsiyalar 1900 yilda mamlakatdagi korxonalarning 8 % ini tashkil qilgan holda sanoat mahsulotining 59,5 % ini ishlab chiqdilar.

Bank ishida ham kontsentratsiyalashish yuz berdi. "Kuk, Leb end kompanii", Rokfeller, Morgan, Mellon va boshqa banklar turli korxonalarni moliyalashtirib turardilar. Sanoat taraqqiyotining, ayniqsa katta mablag'larni talab qiluvchi Yangi tarmoqlar taraqqiyotining ehtiyojlari savdo-sanoat va bank sarmoyasining birlashuviga olib keldi. Natijada bu sarmoyani nazorat qiluvchi kam sonli guruh tashkil topdi. AQSHda X1X asrning so'nggi choragida mamlakat iqtisodiyotini nazorat qiluvchi "60 oila" haqida gap borardi. Lekin amermka biznesida har biri o'z faoliyatiga ega bo'lgan 3 shaxs etakchilik qilardi, bular – neft bo'yicha Rokfeller, moliya bo'yicha Morgan va po'lat ishlab chiqarishda Karnegi edi. XX asr boshida Karnegi o'z korxonalarini Morganga 500 million dollarga sotgach, AQSHda bir necha milliard dollar boylikka ega bo'lgan "katta ikkilik" qoldi. AQSH aholisining 1 % i qo'lida mamlakat milliy boyligining yarmi to'plangan edi.

Qishloq xo'jaligida ham jadal o'sish yuz berdi. Ikkinchi Amerika inqilobi (fuqarolar urushi) Janub oligarxiyasi hokimyatining ag'darilishiga, uning iqtisodiy bazisi bo'lgan quldorlik latifundiyalarining tugatilishiga, qullarning ozod qilinishiga va G'arbdagi yyerlarning demokratik tamoyillar asosida taqsimlanishi to'g'risidagi tarixiy qarorning qabul qilinishiga olib keldi. Buning natijasida qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadal o'sishi va sarmoyalarni erkin kiritish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. Quldorlik latifundiyalarining yo'q qilinishi va g'arbdagi erlani taqsimlash to'g'risida qonun – gomsted-aktning qabul qilinishi AQSHda qishloq xo'jaligida kapitalizm taraqqiyotining fermerchilik yo'lining g'alaba qozonishiga olib keldi. Gomsted-aktning hayotga joriy qilinishi katta hududlarning tezlik bilan o'zlashtirilishiga, kapitalistik munosabatlarning jadal va erkin rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratdi. 1868 yildan 1900 yilgacha gomsted-akt bo'yicha ko'chib kelganlarga umumiy maydoni 80 million akrga teng bo'lgan 600 mingga yaqin yer uchastkalari ajratib berildi.

Erkin fermerning erkin erdagi mehnati o'z natijasini ko'rsatdi. O'rta va mayda fermyerlar qatlamining mavjudligi AQSHning iqtisodiy sohadagi muvaffaqiyatlarining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining soni 6,2 milliondan 10,4 million kishiga etdi, fermer xo'jaliklarining umumiy soni esa 2,0 milliondan 5,7 million kishiga etdi. 1870-1900 yillar davomida ishlov beriladigan yerlar maydoni 2,2 baravar ko'paydi (189 mln.akrdan 415 mln.akrga etdi), qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti 2 baravar ko'paydi. AQSH oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish va eksport qilish sohasida

etakchi davlatga aylandi. Yangi qishloq xo'jalik mashinalarining qo'llanilishi va sun'iy o'g'itlardan foydalanish ana shunday ko'rsatkichlarga erishishga yordam berdi. Lekin X1X asrning oxirida qishloq xo'jaligida muhim jarayon - mayda ishlab chiqaruvchini siqib chiqarish jarayoni boshlandi. 1890 yilga kelib bo'sh yyerlar fondining kamayib ketishi, mayda fermyerlarning tovar-pul munosabatlariga tortilishi fermyerlarning tabaqalanishini kuchaytirdi. Mayda fermyerlar ahvolining yomonlashishi, qarzdorlikning o'sishi ijarachilar sonini ko'payishiga olib keldi, XX asr boshiga kelib ijarachilar soni 2 millionga etdi. SHu bilan birga yirik kapitalistik fermer xo'jaliklari kuchaydi, 1900 yilda bunday fermyerlar soni 1 millionga yaqin bo'lib, yyerlarning 43 % i va etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining yarmi tegishli edi.

6. AQSH birinchi jahon urushi arafasida va urush yillarida.

Birinchi jahon urushi arafasiga kelib iqtisodiy jihatdan jahonning qudratli davlatiga aylangan edi. 1900-1912 yillarda mamlakat aholisi 76 mln. kishidan 95 mln. kishiga etdi. Milliy boylik shu davr ichida 88,5 mlrd. dollardan 165 mlrd. dollarga etdi. AQSH sanoat va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti bo'yicha boshqa mamlakatlardan ancha ilgarilab ketgan edi. XX asrning dastlabki o'n yili davomida qishloq xo'jaligining yillik mahsuloti qiymati 4,7 mlod. Dollardan 8,5 % mlrd. dollarga, sanoat ishlab chiqarishida esa 11,4 mlrd. dollardan 20, 7 mlrd. dollarga ko'paydi. AQSH sanoati 1909 yilda Angliyaga nisbatan 2 baravar, Germaniyaga nisbatan 2, 5 baravar mahsulot ishlab chiqardi. AQSH 1913 yilda 31 mln. tonna cho'yan va po'lat, 560 mln. tonna ko'mir, 248 mln. tonna neft ishlab chiqardi. 1898-1908 yillar davomida 3,3 mlrd. dollarlik oltin qazib olindi. Xo'jalikning barcha iarmoqlarida fan va texnikaning eng Yangi yutuqlaridan keng foydalanildi. Yangi ixtirolar sanoat va savdoning o'sishiga yordam berib, aloqa vositalarining ahamiyatini kuchaytirdi. Sanoatning ximiya, rezinka, elektrotexnika, avtomobilsozlik kabi tarmoqlari rivojlanib bordi. Agar avtomobil zavodlari 1900 yilda 4 ming avtomobil sotgan bo'lsalar, 1916 yilga kelib bu ko'rsatkich 1,5 mln. avtomobilga teng bo'ldi. Avtomobilsozlikning rivojlanishi o'z navbatida shosse yo'llar qurilishiga turtki berdi. Birinchi jahon boshlanishiga kelib AQSHda chorak million mil shosse yo'llari qurilgan edi. Temir yo'llar qurilishi ham tez rivojlanib, shu davrga kelganda temir yo'llarning uzunligi 264 ming milga etdi. AQSH tashqi savdosi ham rivojlanib, uning aktiv savdo balansi 2,25 mlrd.dollraga teng edi. 1910 yilga kelib AQSHning yillik eksport mahsulotlarining qiymati 2 mlrd. dollradan oshib ketgan edi.

AQSH butun X1X asr davomida qarzdor davlat hisoblanardi. Lekin X1X asr oxiriga kelib, AQSH dunyoning eng yirik sanoat mamlakatiga aylangach va uning tashqi savdosi o'sgach, AQSHga chet el sarmoyalari kirib kelishi bilan bir vaqtda AQSH chetga sarmoya chiqarishni ham boshlab yubordi. AQSH birinchi jahon urushi boshlangan vaqtda chet davlatlardan 4-5 mlrd. dollar qarzdor bo'lishiga qaramasdan, uning chet ellarga chiqargan sarmoyasi 1899 yildagi 500 million dollardan 1913 yilga kelib 3 milliard dollarga etdi, ya'ni 14 yil davomida 5 baravardan ko'proq o'sdi.

1899-1913 yillar davomida AQSHning Yevropadagi kapital qo'yilmalari 35 baravar, Xitoy va Yaponiyada 20 baravar o'sdi. AQSHning Kanadadagi kapital

qo’yilmalari 75 mln. dollarga etib (Kanadadagi barcha chet el sarmoyalarining 24 % i), u faqat Angliya sarmoyasidan keyinda turardi.

Karib dengizi mamlakatlarida – Kuba orolida, Markaziy Amerikaning Kosta-Rika, Nikaragua, Gonduras, Salvador, Panama, Gaiti va San-Domingoda Amerika kapitali hukmron mavqega ega bo’lib, bu mamlakatlar iqtisodiyotini o’ziga bo’ysundkrgan edi.

Xitoyda Amerika sarmoyasining miqdori 1902 yildan 1914 yilgacha 19,7 mln. dollardan 49,3 mln. dollarga etdi, uning asosiy qismi Shanxayda edi.

AQSH tashqi savdosi ham o’sib bordi va 1870 yildagi 1,5 mlrd. dollardan 1900 yilda 2,7 mlrd. dollarga va 1913-1914 yillarda deyarli 4,5 mlrd. dollarga etdi. AQSH o’z savdo ekspansiyasini eng avvalo Yeevropa, Kanada va Karib dengizi hududlariga - Meksika, Markaziy Amerika respublikalari, Vest-Indiya va Janubiy Amerikaning shimoldagi respublikalari – Kolumbiya, Venesuela, Ekvadorga qaratdi.

AQSHning hukmron doiralari mamlakatning harbiy qudratini dunyoga namoyish qilishga harakat qildilar. SHu maqsadda 1907-1909 yillarda butun amerika floti dunyo bo’ylab safarga chiqib, dunyoning ko’pgina portlariga kirib bordilar. Bu safar mamlakat xazinasiga 20 million dollarga tushdi. Bu bilan AQSH imperializmi o’z qudratini butun dunyoga namoyish qildi. Bu kemalarning ko’pchiligi Lotin Amerikasi xalqlari va hukumatlariga qarshi qaratilgan yurishlardi ishtirok etdi.

Birinchi jahon urushi boshlanib ketgach, Germaniya o’z betarafligini e’lon qildi va urushayotgan tomonlarga qurol-yarog’, xom ashyo sotib, katta boylik to’pladi. Urush AQSH taraqqiyotiga katta ta’sir ko’rsatdi. AQSH mahsulotlari qiymati 1914-1918 yillar mobaynida 24 mlrd.dan 64,4 mlrd.gacha ko’paydi. Lekin sanoat taraqqiyoti notekis bordi, urush ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi rivojlanib, boshqa tarmoqlar (to’qimachilik, charm-teri, qog’oz va b.) keskin qisqardi. Urush AQSH monopoliyalarining yanada o’sishiga yordam berdi. AQSHning 1914-1918 yillardagi tashqi savdodagi sof daromadi 10,1 mlrd. dollarga teng bo’ldi.Yeevropa davlatlarining oltinlari AQSH xazinasiga oqib kela boshladi. Amerika Qo’shma Shtatlari qarzdor davlatdan qarz beruvchi (kreditor) davlatga aylandi va Antanta davlatlariga 10,3 mlrd. dollar atrofida qarz berdi. Savdo munosabatlari va kreditlar AQSHni Antanta davlatlari bilan aloqalarini kuchaytirdi va Antaataning mag’lubiyatga uchrashi Amerika Qo’shma Shtatlarining bu davlatlardagi daromadlarini yo’q qilinishini bildirardi.

AQSH o’z betarafligidan foydalanib urushga puxta tayyorgarlik ko’rdi. 1915 yil dekabrida katta harbiy flot qurish to’g’risida qonun qabul qilindi. 1916 yil iyunida milliy mudofaa to’g’risida qonun qabul qilinib, 200 ming kishilik doimiy armiya va 450 ming kishilik militsiya tuzish ko’zda tutildi.

1916 yildagi prezident saylovlarida AQSHning urushga kirish masalasi asosiy masala bo’lib qoldi. “Vilson bizni urushdan qutqaradi” degan shior bilan chiqqan demokratik partiya saylovlarda g’alaba qozondi. Lekin Vilson prezidentlikka saylangach, Germaniyaning suv osti urushini kuchaytirganini bahona qilib AQSHni urushga tortishga qaratilgan harakatni kuchaytirdi.

Germaniya 1917 yil fevraldan boshlab cheklanmagan suv osti urushini boshlab yuborgach, AQSH Germaniya bilan bo'lgan diplomatik aloqalarni uzdi. Rossiyada fevral burjua inqilobi g'alaba qozonib, mamlakatda urushdan chiqish uchun ommaviy harakat kuchaygach, AQSHning hukmron doiralari urushni o'z manfaati yo'lida yakunlash uchun harakat qildi va 1917 yil 6 aprelda Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. AQSHning hukmron doiralari Rossiya urushdan chiqsa To'rtlar ittifoqi Angliya va Frantsiyani mag'lubiyatga uchratishidan xavfsirardilar.

Amerika Qo'shma Shtatlarining urushga kirishi mamlakat ichida va tashqi siyosatda reaktsiyaning kuchayishi bilan birga bordi. Butun mamlakat militarlashtirildi. 1917 yil 18 maydagi qonun bilan 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan barcha erkak aholiga nisbatan (27 mln.ga yaqin) harbiy majburiyat joriy qilindi. Harbiy va savdo flotini qurilishi kuchaytirildi. Harbiy holat bahonasi ostida demokratik erkinliklar deyarli tugatildi. Ish tashlashlar va imperialistik kuchlarga qarshi qatag'onlar kuchaydi.

Lekin Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati urushda Germaniyaning mag'lubiyatga uchrashi uning harbiy kuchlarining batamom zaiflashib qolishiga olib kelishini hamda urushdan keyingi Yeevropada Angliya va Frantsiya gegemonligining kuchayib ketishini istamas edilar. Shuning uchun ham AQSH hukumati urushayotgan har ikki tomonning yanada zaiflashishiga va keyinchalik bu davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazishga intildi. SHu maqsadda faqat 1918 yil bahoriga kelib AQSH qo'shinlari Yeevropaga keltirila boshlandi va 1918 yil avgustida, ingliz-frantsuz qo'shinlari nemis qo'shinlarini tor-mor eta boshlagach, Amerika qo'shinlari harbay harakatlarni boshlab yubordilar.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Shimoliy Amerikaga Yevropalik mustamlakachilar qachondan boshlab kirib kela boshladilar?
2. Angliyaning Shimoliy Amerikadagi dastlabki mustamlakasiga qachon asos solindi?
3. Angliyaning Shimoliy Amerikadagi mustamlakalarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida so'zlab bering.
3. Angliya Shimoliy Amerikadagi mustamlakalariga nisbatan qanday siyosat olib bordi?
4. Shimoliy Amerikadagi Mustaqillik urushi qaysi yillarda bo'lib o'tdi?
5. Birinchi Kontinentall Kongress qachon bo'lib o'tgan?
6. Ikkinchi Kontinental Kongress qachon bo'lib o'tdi?
7. AQSHda Mustaqillik Deklaratsiyasi qachon qabul qilindi?
8. Mustaqillik Deklaratsiyasi loyihasini kim yozgan edi?
9. Mustaqillik urushida mustamlaka shtatlar qo'shiniga kim rahbarlik qilgan edi?
10. Mustaqillik urushida AQSH bilan Angliya o'rtasidagi yakunlovchi sulh qachon tuzildi?
11. AQSHning "Konfederatsiya va mangu ittifoq moddalari" nomli konstitutsiyasi qachon qabul qilingan edi?
12. AQSHning federal konstitutsiyasining qabul qilinishi haqida so'zlab bering.
13. Yevropa davlatlarining Mustaqillik urushi davrida AQSHga nisbatan olib borgan

siyosatlari haqida so’zlab bering.

14. Mustamlakalarda qirol hokimyatiga qarshi kurashda qaysi tashkilotlar faol ishtirok etdi?
15. Konstitutsiyani qabul qilish jarayonida uning tarafdorlari (federalchilar) va muxoliflari (antifederalchilar) tutgan pozitsiyalar haqida so’zlab bering.
16. Mustaqillik urushidan keyin AQSHdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol to’g’risida so’zlab bering.
17. AQSHning XIX asr birinchi yarmidagi taraqqiyoti haqida so’zlab bering.
18. AQSHdagi siyosiy partiyalarning tashkil topishi haqida so’zlab bering.
19. AQSHning “Monro doktrinasi” haqida so’zlab bering.

Adabiyotlar:

1. Porshnev B. F. Yangi tarix T-1 T. 1967.
2. YUrovskaya E.E Novaya istoriya T-1 M. 1983.
3. Apteker T.A. Istoriya amerikanskogo naroda. Kolonialnaya era. M. 1961.
4. Apteker G.A. Amerikanskaya revoltsiya 1763-1783. M. 1962.
5. Sevstyanov G.N. Voyna za nezavisimost i obrazovanie SSHA. L. 1978.
6. Fursenko A.A. Amerikanskaya revolutsiya i obrazovanie SSHA. L. 1978.
7. Yakovlev N.N. Vashington. M. 1976
8. Istoriya SSHA v 4-x toma. M. 1980-1987.
9. Vsemrnaya istoriya. T-5,6,7. M. 1958.
10 YUrovskaya E,E i dr. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki. 1-P. M. 1998.

10 -Mavzu: PORTUGALIYA XVII-ASRNING 2-YARMI – XX-ASR BOSHIDA.

Reja: 2 soat

1. “Portugaliya manifesti” va mustaqillikning tiklanishi.
2. Markiz Pombalaning davlat faoliyati.
3. Portugaliya XIX asr boshlarida.
4. 1826 yil Xartiyasi. 1828-1834 yillardagi fuqarolar urushi.
5. XIX asr oxirlarida Portugaliya iqtisodiyoti va siyosati.

1. Portugaliya 1581 yildan boshlab Ispaniya mustamlakasi hisoblanardi. Mustamlaka zulmi mamlakatda norozilikni kuchaytirdi va u 1637-1638 yillarda Evora shahridagi qo`zg`olonni keltirib chiqardi. Bu qo`zg`olon ispan qo`shinlari tomonidan bostirildi.

Evora qo`zg`oloni bostirilgach shaharliklar va dehqonlar kurashdan chetlashdilar. Lekin fidalgu (portugal zodagonlari) oddiy provintsial ispan dvoryanlari maqomiga o`tishni istamadilar. Ular tomonidan 1640 yil 1 dekabrda Lissabonda o`tkazilgan to`ntarish natijasida qadimgi portugal urug`idan bo`lgan gertsog Braganskiy Joan IV nomi bilan qirol deb e’lon qilindi (1604-1656). 1641 yil yanvarda umumportugal korteslari yig`ilib, Portugaliya mustaqilligi tiklanganligini

asoslovchi “Portugaliya manifesti”ni qabul qildilar. Yangi hokimyat vatanni himoya qilish shiori ostida jamiyatni birlashtira oldi va Restavratsiya uchun olib borilgan portugal-ispan urushlarida mustaqillikni himoya qilishga erishib, 1868 yilda sulh tuzishga erishdi.

Ispan qirollari bepisandlik bilan qarashgan korteslarni chaqirish g`oyasi Restavratsiyani tayyorlashda katta rol o`ynadi, lekin korteslarning o`zlari o`z mohiyatiga ko`ra absolyutistik (mustabid) davlatga qarshi edi. Joan IV vafotidan keyin Portugaliya navbatdagi sulolaviy inqirozni boshdan kechirdi va 1667 yildagi tinch saroy to`ntarishidan keyin qirolning kichik o`g`li Pedru II (1648-1706) taxtga chiqdi. Uning hukmronligi davrida korteslar 1697-1698 yillarda so`nggi marta chaqirilib, bu tabaqaviy-vakillik tashkilotining deyarli to`rt asrdan ko`proq tarixiga yakun yasaldi.

Portugaliyaning XVII-XVIII asrlar chegarasidagi tashqi siyosatida betaraflikka intilish kuchli bo`lsada, har doim ham bunga erishib bo`lmadi. Jumladan u Ispan merosi uchun bo`lgan urushda ishtirok etdi va Angliyaning ittifoqchisi bo`lgani uchun o`zining Afrikadagi mulki bo`lgan Seutidan mahrum bo`ldi. Bu urush xazinani bo`shatib, mamlakat moliyasi va iqtisodiyotini izdan chiqardi. 1687 yildan boshlab Portugaliyada qog`oz pullar muomalaga kiritildi. Braziliyada oltin va olmos konlari topilgach ahvolni yaxshilashga erishildi. Bu erdan Portugaliyaga 1699 yilda 0,5 tonna, 1720 yilda 25 tonna oltin keltirildi, uning 1/5 qismi taxtga tegishli edi.

Qirollikning bosh xazinachisi graf Eriseyra o`zining merkantilistik siyosati bilan milliy sanoat va savdoni rag`batlantirdi va mamlakatdan oltinning olib chiqib ketilishiga katta to`siqlar qo`ydi. Qirollikning o`zida milliy to`qimachilik sanoati yuzaga keldi, lekin 1703 yilda Angliya bilan bitim tuzilib, Britaniya orollarida Portugaliya vinolarini muntazam sotish evaziga mamlakat bozori ingliz gazlamalari uchun ochib qo`yildi. Bitimda ingliz-portugal harbiy aloqalari ham o`rin olgan edi.

Dabdabali qirol saroyi ehtiyojlari uchun mebelsozlik va kareta san’ati, gilamchilik, zargarlik rivojlandi, milliy rassomlar, xaykaltaroshlar, arxitektorlar tayyorlash yo`lga qo`yildi. Tarix bo`yicha Qirol Akademiyasiga asos solindi, Koimbr universitetining ajoyib kutubxonasi tashkil qilindi. Portugaliya tarixi haqida hikoya qiluvchi XVI asr oxirida yozila boshlangan ko`p tomlik “Luzitaniya monarxiyasi” o`z yakuniga etkazildi. Mamlakat ichki resurslari kamligi sababli ko`p sonli qimmatbaho tadbirlar – Mafradagi saroy assambleyasi, Lissabondagi ulkan akveduk qurilishi – Braziliyadan keltirilgan oltinlar hisobidan amalga oshirildi.

2. Markiz Pombalning davlat siyosati.

1755 yil 1 noyabrda Portugaliyada kuchli zilzila sodir bo`ldi. Lissabon zilziladan juda katta talofat ko`rdi. Vayron bo`lgan binolar va olti metrlik to`lqin 50 mingdan ortiq odamning umriga zomin bo`ldi. Zilziladan keyin yuz bergan yong`in shaharni vayronaga va kultepaga aylantirdi. SHundan keyin yangi Lissabonni qayta tiklash, aniqrog`i yangidan qurish uzoq yillar davomida markiz Pombalning alohida g`amxo`rlik bilan qaraydigan masalasiga aylandi.

Qudratli ministr markiz Pombal (1699-1782) 1751-1777 yillar davomida Portugaliyani boshqarib turdi. U “ma’rifatli absolyutizm” tarafdori bo`lib, qirol hokimyatining har qanday cheklab qo`yilishiga qarshi edi, shu tufayli ham uning qirol bilan munosabatlari va unga ta’siri yaxshi edi. Uning siyosiy qarashlari qirol

hokimyatining ilohiy kelib chiqishi haqida absolyutistik Yevropada tarqalgan nazariyaga asoslangan bo`lib, xalq suvereniteti nazariyasini inkor etardi.

Pombalning davlat faoliyatini u qo`llagan shafqatsiz metodlar tufayli bir xil baho bilan izohlab bo`lmaydi. Qirol mustabid hokimyatining dushmani bo`lgan zodagonlarni zaiflashtirish maqsadida Pombal qirolga suiqasd uyushtirilgani bahonasi ostida mingdan ortiq fidalgu va ularning oila a'zolarini qamoqqa oldi, aristokratiyaning ko`plab vakillarini qatl qildi va turmaga tashladi. Keyin navbat iezuitlarga keldi, ular ispan zodagonlarining qirolga qarshi harakatlarini qo`llab-quvvatlashda ayblanib, 1759 yilda qirollikdan quvg`in qilindilar. Pombal inkvizitsiyani qirol tribunaliga aylantirdi, unga tegishli tsenzura faoliyatini esa davlat tuzilmalariga berdi.

Pombal shu bilan bir vaqtda armiya va flotni qayta tuzdi, davlat daromadlarini tartibga solishga harakat qildi. U 1761 yilda qit'aviy Portugaliyada qul savdosini bekor qildi. Ta'lim sohasida ham o`zgarishlar yuz berdi, Koimbr universiteti isloh qilindi, Astronomiya observatoriyasi tashkil qilindi, tabiatshunoslik tarixi muzeyi va botanika bog`i tashkil etildi. Pombal iqtisodiy sohada oltin va kumushni chetga chiqarishni taqiqlab, kompaniyalarga imtiyozlar berish orqali savdo va sanoatning rivojlanishini rag`batlantirdi. Ijarachilarni o`zboshimchalik bilan erdan haydab yuborish taqiqlanib, ijara muddatlari uzaytirildi. Bu tadbirlar iqtisodiyotni ancha jonlantirdi, lekin mayda xo`jayinlarni xonavayron qildi va jamiyatning barcha qatlamlarida norozilikni kuchaytirdi.

Pombal o`zining homiysi bo`lgan qirol Joze I (1714-1777) vafotidan keyin iste'foga chiqishni so`radi. YUzlab mahbuslar turmalardan chiqarildi, zodagonlar vakillari asmiy ravishda avf qilindi. Sud ishlarini qayta ko`rib chiqish boshlandi va 1781 yilda Pombal quvg`in qilinishga hukm qilindi. Pombalning dinga qarshi qaratilgan ko`plab qonunlari bekor qilindi. Iqtisodiy sohada esa, aksincha, uning islohotlari davom ettirildi. YAngi harbiy bilim yurtlari ochildi, Dengiz arsenali tashkil qilindi. 1799 yilda fanlar Akademiyasi tashkil qilindi.

3. Portugaliya XIX asr boshlarida.

Portugaliya 1793 yilda Ispaniya va Angliya bilan Frantsiyaga qarshi bitim tuzdi va portugal qo`shinlari Frantsiya hududidagi urush harakatlarida ishtirok etdi. Lekin tez orada Ispaniya Frantsiya bilan separat sulh tuzdi, Portugaliya oldiga esa qabul qilib bo`lmaydigan ultimatum shartlar qo`yildi: Angliya bilan munosabatlarni uzish, inglizlar uchun portlarni yopib qo`yish va bu portlarni ispanlar va frantsuzlarga berish, Portugaliya viloyatini garov tariqasida Ispaniyaga berish va boshqalar. Bu talablar rad etilgach Portugaliyaga ispan va frantsuz qo`shinlari bostirib kira boshladi. Qirol oilasi va saroy amaldorlari Braziliyaga jo`nab ketdilar.

Frantsuz inqilobi ta'siri ostida Portugaliyada ozodlik g`oyalari tarqala boshladi. Frantsiyaning okkupatsion qo`shinlari Portugaliyani talash bilan bir vaqtda inqilobiy nazariyalar ruhini ham olib keldilar. Mason lojalari soni ko`payib, siyosiy adabiyotlar oqimi kuchaydi. X1X asrning 20-yillari boshlariga kelib urush va Braziliya iqtisodiyotining ajralib ketishi hamda Portugaliya sanoati va vinochilik mahsulotlari uchun Braziliya bozorining yo`qotilishi xo`jalik qiyinchiliklarini yanada

kuchaytirib yubordi. Ispaniyadagi inqilobiy voqealar ham Portugaliyada siyosiy barqarorlikning izdan chiqishiga ta'sir ko`rsatdi.

1820 yil 24 avgustda Portudagi artilleriya polki konstitutsion tuzum o`rnatilishi talabi bilan qo`zg`olon boshladi. Ularni Lissabondagi harbiy qismlar qo`llab quvvatladi, qo`zg`olonchilarga hech kim qarshilik ko`rsatmadi. Vaqtli hukumat konstitutsiya qabul qilish uchun umumportugal korteslarini chaqirilishini e'lon qildi. Korteslar tomonidan 1822 yilda qabul qilingan konstitutsiya Portugaliyani konstitutsion monarxiya deb, barcha portugaliyaliklarning erkinligi va qonun oldida tengligini e'lon qildi. Konstitutsiyaning asosiy tamoyillaridan biri millat suvereniteti g`oyasi edi. Konstitutsiya mualliflari fikriga ko`ra millat o`zining jamoaviy irodasini uning vakillari tomonidan qabul qilinadigan qonunlarda ifodalaydi. Bu vakillar umumiy yashirin ovoz berish orqali bir palatali parlamentga saylanadilar va parlament qonunchilik hokimyatiga ega bo`ladi. 1822 yil konstitutsiyasi Portugaliyada konstitutsiyalikning eng kuchli ko`rinishi bo`lib, unga Braziliyadan qaytib kelgan qirol qasam ichdi.

1823 yil bahorida qirolning kichik o`g`li Migel (1802-1866) boshchiligida absolyutchilar isyon ko`tardilar. SHu tariqa "migelchilar urushi" nomi bilan ma'lum bo`lgan 11 yillik fuqarolar urushi boshlandi. Qirol jazo sifatida Migelni quvg`inlikka hukm qildi, lekin mustabid tuzumga qaytish tarafdorlari o`z fikrlaridan qaytmadilar.

1826 YIL XARTIYASI. 1828-1834 YILLARDAGI FUQAROLAR URUSHI.

1826 yilda qirol Pedro IV ning taxtga o`tirishi (1798-1834) Konstitutsion Xartiyani e'lon qilinishi bilan boshlandi. Xartiya 1822 yil konstitutsiyasi tamoyillaridan chetga chiqish bo`lib, qirol hokimyatini mustahkamlash uchun xizmat qilardi. Xartiya ommaviylikga ega bo`lmadi va jamiyatni birlashtirmadi, uni absolyutizm tarafdorlari ham, liberal g`oyalar tarafdorlari ham tan olmadilar. Pedro IV qarama-qarshi tomonlarni murosaga keltirish uchun o`zining 7 yashar qizi foydasiga taxtdan voz kechishga va agar Migel Xartiyani tan olsa uni qizi bilan nikohdan o`tishiga rozi ekanligini bildirdi. Migel bunga rozi bo`ldi, lekin uning tarafdorlari qirolga absolyut hokimyat hech qanday shartlarsiz to`la holda qaytib berilishini talab qilib chiqdilar, Ispaniya esa ularni pul, qurol yarog` va siyosiy jihatdan qo`llab-quvvatlab turdi.

Migel 1828 yilda Portugaliyaga qaytib keldi va qonuniy qirol sifatida tan olindi. Liberallar mamlakatdan qochib ketishga va o`z kuchlarini xorijda birlashtirishga majbur bo`ldilar. SHu yili Migelning hukmronligiga qarshi SHimoliy Portugaliyaning eng yirik markazi – Portu shahrida qo`zg`olon boshlandi va u SHimoliy Portugaliyaning deyarli barcha shaharlariga yoyildi. Qo`zg`olonni bostirish Migel tarafdorlarining terrori bilan qo`shilib ketdi. Migelchilar urushi davrida mamlakat siyosiy jihatdan 2 qutbga ajralganligi ham ko`zga tashlandi: Lissabon liberallarga qarshi bo`lib, migelchilar tarafida turgan bo`lsa, Portu Xartiya tarafdori edi. 1832 yil 8 iyulda Portugaliya qirg`oqlariga muhojir liberallar etib kelgach, fuqarolar urushi yanada avj oldi. 1834 yil 16 mayda Asseyseyra yonida migelchilarning mag`lubiyatga uchrashi bu urushga yakun yasadi. Migel yana quvg`inlikga hukm qilindi va u keyinchalik mamlakatga boshqa qaytib kelmadi.

Konstitutsiya tarafdorlarining g`alabasi to`la emas edi, chunki 1822 yil konstitutsiyasi juda radikal hisoblanib, uning o`rniga yangi konstitutsiya tasdiqlandi,

unda saylov huquqi yuqori mulk tsenzi bilan cheklab qo`yilgan edi. Konstitutsionalistlar lageri ichidagi kurash natijasida siyosiy beqarorlik vujudga kelgan bo`lsada, ijtimoiy taraqqiyot natijasida eski tartibotning bir qator institutlari tugatildi. 1834 yilda feodalizmga qarshi qaratilgan jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O`sha yillarda Braginskiylar oilasi yerlarining katta qismi uchinchi tabaqa vakillari qo`liga o`tib ketdi.

1836 yil sentabrida Lissabon garnizonida qo`zg`olon boshlandi. Qo`zg`olonni so`l konstitutsionalistlar qo`llab quvvatladi va ular "sentabrchilar" deb atala boshlandi. "Sentabrchilar" rahbari Pasush da Silva boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Lekin liberal davr uzoq cho`zilmadi, 1837 yil iyulida "sentabrchilar" hukumati quladi. Bir qator isyonlar, qo`zg`olonlar va vazirlar almashinuvidan keyin 1842 yilda Portu harbiy garnizonining isyoni hokimyatga o`ng konstitutsionalchi, 1826 yildagi monarxistik Xartiya tarafdori "xartiyachi" Koshta Kabralni olib keldi va qattiq boshqaruv tizimi joriy qilindi.

1846 yil bahorida Kabral diktaturasidan norozilik ochiq-oydin namoyon bo`ldi. Hukumatning soliqlarni ko`paytirish uchun qilgan harakati Portugaliya shimolida dehqonlarning qo`zg`oloniga olib keldi. Mari de Fonte rahbarligidagi qo`zg`olon tez kengayib bordi, unda aslzodalar vakillari ham ishtirok etdi. Qo`zg`olon butun mamlakatni qamrab oldi va 1846-1847 yillardagi ikkinchi fuqarolar urushiga aylandi. "Sentabrchilar" ham, migelchilarning qoldiqlari ham qo`llariga qurol oldilar. Kabral hukumati ag`darildi. "Sentabrchilar"ning yangi tuzilgan hukumati aholini tinchlantirish uchun darhol bir qancha liberal islohotlarni amalga oshirdi.

1849-1851 yillarda Kabral yana qisqa muddatga hokimyat tepasiga keldi. Harbiylarning yangi chiqishlari natijasida 1851 yilda Saldane mo`'tadil liberallar hukumati tuzildi. Bu hukumat moliyachilar va tadbirkorlar qo`llab-quvvatlashlariga tayanib qashshoq mamlakatni qayta tiklash yo`lidan bordi. "Tiklanish" harakati o`ng "sentabrchilar" va so`l "xartiyachilar"ni birlashtirdi. Ular qiyin sharoitda ish olib bordilar. Aholida soliqlarni to`lash uchun mablag` yo`q edi. Hukumat davlat qarzini oshirib yuborishga olib kelgan chet el zayomlarini olishga majbur bo`ldi. Konstitutsiyaga mahalliy hokimyat organlarining vakolatlarini kengaytirish, saylovchilar uchun mulk tsenzini pasaytirish kabi bir qator o`zgartirishlar kiritildi. Bu tadbirlar o`z samarasini berdi.

Portugaliya aholisi 1854 yilda 3,5 million kishi bo`lgan bo`lsa, 1870 yilda 4 mln.kishiga etdi. 1856 yilda Portugaliyada birinchi temir yo`l liniyasi qurib bitkazildi. 1868 yilda mustamlakalarda qulchilik bekor qilindi. Davlat qarzlarining ko`payib ketishi iqtisodiy taraqqiyotga to`siq bo`lib tursada, X1X asrning oxirgi choragida Portugaliya iqtisodiyoti ancha jonlandi.

Portugaliya X1X asr oxirlarida 5 mln aholiga ega bo`lgan Yevropaning eng qoloq mamlakatlaridan biri edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashab, qishloq xo`jaligi bilan band edi. Sanoat va transportdagi ishchilar soni 80 mingdan oshmas edi. Mamlakatda qayta ishlovchi sanoat deyarli bo`lmaganligi uchun foydali qazilmalar – temir rudasi, qalay, mamlakatning faxri bo`lgan dub po`kagi qayta ishlanmagan holda chetga chiqarilardi, faqat to`qimachilik va oziq-ovqat korxonalari bor edi. SHuningdek zaytun yog`i, baliq konservalari mahsulotlari, vino ham eksportga chiqarilardi. Mamlakat uchun zarur bo`lgan sanoat mahsulotlari chet

ellardan, eng avvalo Angliyadan keltirilardi, bu ikki davlat o`rtasida teng huquqli bo`lmagan harbiy-siyosiy ittifoq mavjud edi.

Portugaliya iqtisodiy jihatdan qoloq bo`lsada, ulkan mustamlakachilik imperiyasini o`z qo`lida mahkam ushlab turardi. Bu imperiya tarkibida Afrikadagi Angola, Mozambik, Gvineya-Bisau, YAshil burun orollari, San-Tome va Prinsipi, Hindistondagi Goa, Daman va Diu, Janubi-SHarqiy Osiyodagi Makao va Timor bor edi. Mustamlakalarning umumiy maydoni 2,1 mln kv.km.ga teng bo`lib, bu Portugaliyaning o`z hududidan deyarli 23 marta katta edi. Mustamlaka xalqlarning portugallar zulmiga qarshi kurashi deyarli to`xtovsiz davom etardi. Eng yirik qo`zg`olonlar Mozambikda (1894-1895), Angolada (1900-1903) bo`lib o`tdi, lekin bu qo`zg`olonlar portugallar tomonidan osonlik bilan bostirildi.

X1X asr oxirgi choragida Portugaliyada ham Ispaniyaga o`xshash monarxiya tuzumi va ikki partiyali tizim mavjud edi. “Rejenerados” (“Uyg`onish”) va Progreschilar partiyalari hokimyatni galma-gal boshqarardilar. Birinchi partiyada pomeshchiklar ustunlik qilsa, undan 1876 yilda ajralib chiqqan Progreschilar partiyasida burjuaziya ustunlik qilardi. Ikki partiya ham Angliyaning yordamiga tayanar, shuning uchun ham unga foydali bo`lgan siyosat yuritishga majbur edilar.

Turmush darajasining juda pastligi Portugaliya aholisini ish va yaxshi turmush sharoitini izlab Braziliyaga muhojirlikka ketishga majbur qilardi. Bularning hammasi mamlakat aholisini har ikki partiyaning olib borayotgan siyosatidan noroziligini kuchayishiga olib keldi. Parij Kommunasi va Ispaniyadagi 1868-1873 yillardagi inqilob ta’sirida Portugaliyada, asosan mayda burjuaziya ichida, monarxiyaga qarshi kayfiyat kuchaydi va u 1876 yilda Respublikachilar partiyasining tuzilishiga olib keldi.

70-yillar boshida Portugaliyada I Internatsionalning 30 ga yaqin sektsiyasi bor edi. 1875 yilda sotsialistik partiya tashkil topdi.

80-yillarda Portugaliya sanoati taraqqiyoti ancha jonlargan bo`lsada, mamlakatning iqtisodiy ahvoli og`irligicha qoldi. Budjet doimo kamomad bilan yakunlanardi, davlat qarzi tez o`sib borardi, chet el kreditlari uchun to`lanadigan foizlar mamlakat xarajatining 40 foizini tashkil qilardi. Bunday sharoitda hukumat o`zini bankrot deb e’lon qilishga majbur bo`ldi. Portugaliyaga qarz bergan kreditor davlatlar bundan juda norozi bo`ldilar va uni o`z mustamlakalari evaziga qarzlarni uzishga majbur qilmoqchi bo`ldilar. 1898 yilda Germaniya kantsleri Byulovning taklifi bilan Angliya-Germaniya bitimi tuzilib, unda Portugaliya o`z qarzlari uchun bu 2 davlatga o`z mustamlakalarini berishi kerakligi ko`zda tutilgan edi. Bitimga ko`ra Angliyaga janubiy Mozambik va markaziy Angola, Germaniyaga esa shimoliy Mozambik, Angolaning janubiy va shimoliy qismlari, Tinch okeanidagi Timor orollari o`tishi kerak edi. Germaniya buning evaziga Angliya hujum qilishga tayyorlanayotgan Bur respublikalariga yordam ko`rsatmasligi kerak edi.

Lekin tez orada Angliya tomoni Germaniya bilan ziddiyatlarning keskinlashib borayotganligini va ish katta urushga qarab ketayotganligini hisobga olib, yana o`zining “doimiy ittifoqchisi” bo`lgan Portugaliyaga qaytdi va unga katta miqdorda zayom berib, 1899 yilda u bilan maxfiy Vindzor bitimini tuzdi. Bu bitim Angliya-Portugaliya o`rtasida 1642 va 1661 yillarda tuzilgan ittifoqchilik shartnomalariga asoslanib Portugaliya va uning mustamlakalari hududlari daxlsizligini kafolatladi,

Portugaliya esa o`z navbatida o`zining Afrikadagi mustamlakalari hududlari orqali Bur respublikalariga qo`shin, qurol-yarog` va harbiy materiallar o`tkazmaslik majburiyatini oldi.

Angliyaning qanday ishonchsiz ittifoqchi ekanligini, uning ittifoqchilariga nisbatan bo`lgan munosabati vaziyatga qarab o`zgarib turishini quyidagi misoldan ham bilib olsa bo`ladi. Angliya Germaniya bilan bo`ladigan to`qnashuvdan qutulib qolish uchun 1913 yilda unga Portugaliya mustamlakalarini o`zaro taqsimlab olish to`g`risidagi bitimga qaytishni taklif etdi va hatto sahiylik bilan Angolani to`la holda Germaniyaga berishga rozi ekanligini bildirdi. Muzokaralar 1914 yil iyuligacha olib borildi va ikki tomon ham o`zaro kelishuvga erishdi. Lekin birinchi jahon urushining boshlanib ketishi Portugaliyani qutqarib qoldi.

Portugaliya XX asr boshida tez rivojlanib bordi: 1900 yilda mamlakatda 500 mingga yaqin ishchi bo`lib, ularning bir qismi respublikachilarni qo`llab-quvvatlardi. Armiya va flotda ham shunday kayfiyat tarqalayotgan bo`lib, 1902 va 1906 yillarda monarxiyaga qarshi chiqishlar bo`lib o`tdi. Tashvishga tushib qolgan qirol Karlush I parlamentni tarqatib yubordi va "Tiklanish" partiyasi rahbari Juan Frankuni hukumat boshlig`i qilib tayinladi. YAngi hukumat dastlab xalq harakatiga qarshi qatag`on qilishlar siyosatini olib bordi, lekin muvaffaqiyatga erisha olmagach, bir qator yon berishlarni amalga oshirdi, siyosiy avf e'lon qilindi va matbuot erkinligi joriy qilindi. Bu tadbirlar ham yordam bermagach, Franku yana zo`ravonlik yo`liga qaytdi, uning buyrug`i bilan Lissabon ko`chalarida namoyishchilar o`qqa tutildi. Bu respublikachilarning qattiq noroziligiga sabab bo`ldi.

Portugaliyada inqilob etilib kelayotganligi yaqqol namoyon bo`ldi. 1908 yil 1 fevralda anarxist tomonidan qirol karetasiga tashlangan bomba natijasida qirol Karlush 1 va uning o`g`li, taxt vorisi, halok bo`ldi.

YAngi qirol, Karlushning kichik o`g`li Manuel II ning kichik yon berishlar orqali inqilobni to`xtatish uchun qilgan harakatlari samarasiz ketdi. Respublikachilarning chiqishlari ko`payib bordi. Zobitlar orasida qo`zg`olon ko`tarishga tayyorlanayotgan fitnachilar tashkiloti bor edi. 1910 yildagi parlament saylovlarida respublikachilar avvalgi 4 o`rin o`rniga 14 o`rin olishga erishdilar.

1910 yil 3 noyabrdan 4 noyabrga o`tar kechasi Mashadu dush Santush boshchiligidagi fitnachilar qo`zg`olon ko`tardilar, bir qator garnizonlar ularni qo`llab-quvvatladilar. Ertalab xalq Lissabon ko`chalariga chiqdi.

5 oktabr kuni hukumat qo`shinlari taslim bo`ldi, Manuel II va uning yaqinlari Lissabondan qochdilar. Qo`zg`olon rahbarlari poytaxt munitsipaliteti kengashi balkonidan turib Portugaliyani respublika deb e'lon qildilar. Mamlakatda mashhur bo`lgan shoir Teofil Braga boshchiligida vaqtli hukumat tuzildi. Bu hukumat cherkovni davlatdan ajratish, dvoryan unvonlarini bekor qilish to`g`risida qonunlar chiqardi, Ta'sis majlisiga saylovlar o`tkazdi va bu majlis 1911 yil avgustida yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Deputatlar palatasi va senat qonunchilik hokimyatini amalga oshirardi, senat mahalliy hokimyat organlari tomonidan saylansa, deputatlar palatasi 21 yoshga to`lgan erkaklar tomonidan umumiy ovoz berish orqali saylanardi (mulksizlar va askarlardan tashqari). Parlament prezidentni saylardi, prezident o`zi tomonidan tayinlangan hukumat bilan birgalikda ijroiya hokimyatini tashkil etardi. Konstitutsiya matbuot erkinligi va din erkinligini e'lon qildi, monaxlik ordenlari

tugatildi, ular mulkining katta qismi milliylashtirildi. Ishchilar ish tashlash huquqiga ega bo`ldilar, sanoatda 8 soatlik ish kuni o`rnatildi.

1911 yil konstitutsiyasi o`z davri uchun eng progressiv konstitutsiyalardan biri edi. Lekin unda e'lon qilingan ko`pgina erkinliklar hayotda amalga oshgani yo`q. Hokimyat tepasiga kelgan respublikachilar chuqur ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarni amalga oshirmadilar, pomeshchik er egaligiga daxl qilmadilar, mustamlakalar Portugaliya tarkibida nomiga muxtoriyatga ega deb e'lon qilinsada ulardagi zulm saqlanib qoldi.

Inqilobdan keyin mehnatkashlar ahvoli yaxshilanmagani uchun ham urushdan oldingi yillarda mamlakatda ish tashlashlar soni ko`paydi.

Birinchi jahon urushi boshlanib ketgach Portugaliya siyosatchilari betaraflik saqlashga intilsalarda, lekin Angliyaga qaramligi tufayli Antanta tomonida turib urushga kirishga to`g`ri keldi. Lekin Portugaliyaning urushda ishtiroki ramziy ma'noda bo`ldi.

11 - Mavzu: NIDERLANDIYA BIRLASHGAN PROVINTSIYALARI RESPUBLIKASI XVIII-XX ASR BOSHIDA

REJA: 2 soat

1. Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi XVIII asrda.
2. Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi Napoleon urushlari davrida.
3. 1848 yil konstitutsiyasi.
4. Niderlandlar XIX asr oxiri - XX asr boshida.

Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi XVIII asrda jahon savdosidagi gegemonligini va avvalgi qudratini yo`qotib, ikkinchi darajali davlatga aylanib bordi. XVIII asrning ikkinchi yarmidagi ingliz-golland urushlari respublika iqtisodiyotini jiddiy ravishda izdan chiqarib, uning xalqaro maydondagi mavqeini pasayishini boshlab berdi. Lekin shunga qaramasdan u mustaqil respublika maqomini saqlab qola oldi.

Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi siyosiy tuzumi o`sha davr uchun juda progressiv bo`lib, shaharlar va qishloq jamoalari o`z-o`zini boshqarish huquqidan foydalanardilar, provintsiyalar katta muxtoriyatga ega edilar. Alohida provintsiyalari shtatlari vakillari tomonidan saylanadigan General shtatlar hokimyatning oliy organi hisoblanardi. Hokimyatning bu organlari bilan birgalikda provintsiyalarda hokim – statxauder lavozimi ham mavjud edi. An'anaga muvofiq mahalliy shtatlar bu lavozimga Oranskiylar knyazlik uyi shahzodalarini saylab qo`yardilar. Statxaudyerlar bir qator fuqarolik va harbiy hokimyatga ega edilar.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Niderlandlarning Angliya va Yevropa kreditorlari sifatidagi ahamiyati kuchaydi. 1780 yilga kelib golland

kapitalistlari Angliya milliy qarzlari obligatsiyalarining deyarli 3/7 (ettidan uch) qismini o`z qo`llariga olgan edilar. Bu yo`l bilan Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi savdo va sanoat sohasida Angliyaning raqobatchisidan uning yirik kreditoriga aylandi va o`z sarmoyalari bilan Angliyaning iqtisodiy qudoatining yuksalishiga yordam berdi.

Savdodagi vositachilikda ulkan mablag`larni qo`lga kiritgan golland savdogarlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ustidan o`z nazoratlarini o`rnatdilar va siyosiy hokimyatga egalik qilardilar. XVIII asrning ikkinchi yarmida respublikaning ichki siyosiy hayoti ikkita asosiy guruh to`qnashuvi bilan xarakterlanadi: savdo moliya oligarxiyasi respublika erkinligini, provintsiyalar manfaatlarining tarafdorlari bo`lib, yagona hukmdor hukmronligiga va davlat tashkilotlarinig markazlashishiga qarshilik ko`rsatardilar; statxauder bayrog`i ostida birlashgan shahzoda partiyasi esa inglizparast siyosat tarafdorlari edilar. Agar XVIII asrning 80-yillarigacha tashqi xavf haqida gap-so`z bo`ladigan bo`lsa oranjeyachilar partiyasi ustunlikka erishardilar, 1779 yilda Angliya bilan to`rtinchi urush boshlangach, Gollandiya tarixi sahnasiga vatanparvarlar partiyasiga birlashgan burjuaziya va dvoryanlarning eng radikal qismi chiqdi. Mamlakatning sharqiy provintsiyalarida vatanparvarlar mavqei kuchli bo`lib, ularni mayda byurgyerlar va aholining katta qismi qo`llab-quvvatlardi.

1. Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi Napoleon urushlari davrida.

XVIII asrdagi frantsuz inqilobi arafasida Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasidagi vaziyat murakkablashgan edi. Tez-tez sodir bo`lib turgan urushlar natijasida mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat yomonlashdi. Bu esa aholining asosiy qismining noroziligini kuchaytirdi. Vatanparvarlar partiyasi boshlanib ketgan xalq harakatini qo`llab-quvvatladilar va 1785 yilda hokimyatni o`z qo`llariga oldilar. Lekin 1787 yilda Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasi hududiga bostirib kirgan pruss qo`shinlari Prussiya va Angliya bilan ittifoqchilik an’analari tarafdorlari bo`lgan “orajeyachilar” hokimyatini qayta tikladilar. Pruss nayzalari yordamida “vatanparvarlar” harakatini bostirishga erishgan statxauder Villem V va savdo-moliya oligarxiyasi amalakat ichida qatag`on qilishlarni kuchaytirdi, tashqi siyosatda esa Frantsiyaga qarshi qaratilgan koalitsiyaga kiruvchi davlatlar bilan yaqinlashish yo`lidan bordi. SHuning uchun ham Frantsiya Konventi 1793 yil 1 fevralda Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasiga qarshi urush e’lon qildi. Frantsuz qo`shinlari g`alabaga erishib, 1794/95 yilning qishida mamlakatga bostirib kirgach, Villem V Angliyaga qochib ketdi.

Hokimyat tepasiga kelgan “vatanparvarlar” 1795 yil mayida Bataviya respublikasi tuzilganligini e’lon qildilar (Rim hukmronligiga qarshi qo`zg`olon ko`targan qadimgibatav qabilasining ismi). YAngi respublika Frantsiya bilan sulh va ittifoqchilik bitimlarini tuzdi va tez orada siyosiy jihatdan unga qaram bo`lib qoldi. Frantsuzlarning Gollandiya ustidan deyarli ikki o`n yillikga

cho`zilgan hukmronligi shu tariqa boshlandi. Bataviya respublikasining tuzilishi mamlakatda siyosiy qurilma borasidagi bahs-munozaralarning kuchayishiga olib keldi. Turli loyihalar muhokamasidan keyin 1798 yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi.

Bataviya respublikasida Direktoriya namunasidagi qonunchilik, sud ishi va moliyaning yagona tizimi joriy qilindi. Provintsiyalarning muxtoriyati bekor qilindi, shahar patritsiatining huquqlari juda cheklandi, dehqonlarning krepostnoy qaramlik qoldiqlari va dvoryanlarning imtiyozlari tugatildi, protestantlik cherkovi davlatdan ajratildi. 1806 yil iyunida Bataviya respublikasi Gollandiya qirolligiga aylantirildi va Napoleonning og`aynilaridan biri – Lui Napoleon uning hukmdori bo`ldi. 1810 yilga kelib esa Gollandiya Frantsiya imperiyasiga qo`shib olindi (dochernaya respublika sifatida).

Mamlakat 9 ta departamentga ajratilgan bo`lib, ular Parijga bo`ysunardilar. Iqtisodiy vaziyat keskinlashdi, milliy tuyg`ular bostirilardi. Golland askarlarining Ispaniya va Rossiyadagi urush maydonlariga yuborilishi frantsuz bosqinchilariga nisbatan nafratni yanada kuchaytirdi. Hech bir mamlakatda Frantsiya imperiyasining halokatini Gollandiyadagi kabi orziqib kutmagan edilar. SHuning uchun ham frantsuz imperatorining armiyasini dastlab Rossiyada, keyinchalik Leyptsig yaqinida mag`lubiyatga uchrashi Gollandiyada juda katta shod-xurramlik bilan kutib olindi. Napoleon o`z qo`shinlarini Gollandiyadan chaqirib olishga majbur bo`ldi, shundan keyin bu erdagi frantsuz ma’muriyati bir kun ham faoliyat olib bora olmadi.

Amsterdamda qo`zg`olon ko`targan xalq ommasi 1813 yil 15 noyabrda frantsuzlar hukmronligini ag`darib tashladi. “Oranjeyachilar” tarafdorlari yuzaga kelgan vaziyatdan ustalik bilan foydalandilar. Oradan bir necha kun o`tib Vaqtli hukumat tuzildi, bu hukumat Gollandiya taxtiga Niderlandiya Birlashgan Provintsiyalari Respublikasining so`nggi statxauderi Villem V Oranskiyning o`g`lini o`tqazishni taklif qildi.

1814 yil 29 martda Gollandiyada ancha liberal konstitutsiya qabul qilindi, unga ko`ra qonunchilik hokimyati provintsiya shtatlari tomonidan saylanadigan General shtatlar bilan hokimga tegishli edi. Lekin hokimning vakolatlari ancha katta edi. U yakka o`zi ijroiya hokimyatiga boshchilik qilar, urush va sulh masalalarini hal qilar va General shtatlar ustidan rahbarlikni amalga oshirardi. Vena kongressining Belgiya va Gollandiyaning birlashtirib, Birlashgan Niderlandiya qirolligini tashkil qilish to`g`risidagi qaroriga asosan konstitutsiyaga tegishli o`zgartirishlar kiritishga to`g`ri keldi. Bundan foydalangan Villem VI 1815 yil 16 martda o`zini Villem I nomi bilan Niderlandlar qiroli deb e’lon qildi. 1815 yil konstitutsiyasiga binoan qirol deyarli cheklanmagan vakolatlarga ega bo`ldi. Ministrlar parlament oldida javobgar emas edilar, budjet 10 yil muddatga tasdiqlanardi, yuqori palata deputatlari qirol tomonidan tayinlanardi. Faqat ikkinchi palata deputatlari provintsiya shtatlari tomonidan saylanardi. Matbuot to`g`risidagi qattiq qonun progressiv jurnalistlarni turmaga tashlash uchun yo`l ochib bergan edi, armiyada esa kaltaklash uslubi joriy qilindi.

Niderlandiya qirolligini tashkil qilinishi buyuk davlatlar tomonidan o`z manfaatlarini ko`zlab amalga oshirilgan edi, turli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida turgan, til va diniy to`siqlar bilan bir-birlaridan ajratilgan ikkita xalq (millat)ning manfaatlari esa hech kim tomonidan hisobga oinmagan edi. Ayniqsa iqtisodiy sohada katta farqlar bor edi. Belgiya provintsiyalari sanoat to`ntarishi yo`liga o`tgan edilar, Gollandiyada esa manufaktura va hunarmandchilik inqirozga yuz tutgan edi.

Qirol Villem I Gollandiyaning avvalgi qudratini qayta tiklash uchun Gollandiyaning 1,7 mlrd. guldendan iborat davlat qarzining yarmini Belgiya zimmasiga yukladi va bu erda Gollandiyadan olinadigan ko`p sonli soliqlarni joriy qildi. Golland savdogarlari uchun foydali bo`lgan va Belgiya sanoatchilarining manfaatlariga zarar etkazuvchi bojxona poshlinalari (bojlari) o`rnatildi. 1830 yildagi burjua inqilobi natijasida Belgiya Niderlandiyadan ajralib chiqdi. Gollandlarning inqilobni kuch bilan bostirish uchun qilgan harakatlari buyuk davlatlarning qarshiligiga uchradi. Gollandiya Bnlgiyaning mustaqilligini tan olishga majbur bo`ldi, Golandiya, Belgiya va Luksemburg o`rtasida chegara o`rnatildi.

2. 1848 yil konstitutsiyasi.

Sobiq Birlashgan Provintsiyalar qirollik maqomini saqlab qoldilar va 1848 yilgacha konstitutsion monarxiya shaklida bo`lib, qirol parlament ustida turardi. Liberal partiya qirolga cheklanmagan huquqlar bergan 1815 yil konstitutsiyasiga qarshi qaratilgan kurashga boshchilik qilardi. Liberallarning faol harakatlari va ular talabining xalq ommasi tomonidan qo`llab-quvvatlanishi 1840 yil 7 oktabrda qirol Villem I ni o`g`li Villem II foydasiga taxtdan voz kechishiga olib keldi. Lekin bu liberallarni qoniqtirmadi. Ularning rahbari, Leyden universitetining davlat huquqi professori Yoxen Rudolf Torbeke qirol xonadoni huquqlarini cheklovchi va parlament huquqlarini kengaytirishni ko`zda tutgan konstitutsiya loyihasini ishlab chiqdi. Uzoq davom etgan kurashlardan keyin 1848 yiloktabrda konstitutsiya loyihasi ma’qullandi. Mamlakatni siyosiy jihatdan qayta qurishga ko`maklashgan Y.R.Torbekening o`zi 3 marta hukumatga rahbarlik qildi.

1848 yil konstitutsiyasiga binoan parlamentning saylov huquqi va vakolatlari ancha kengaydi. Birinchi palata deputatlarini qirol tomonidan tayinlanishi bekor qilindi, ministrlarning parlament oldida javobgarligi o`rnatildi, budjet har yili tasdiqlanadigan bo`ldi. Keyingi yillarda turli konservativ kuchlarning qarshiligiga qaramasdan liberallarning dasturi asta-sekin amalga oshirila boshlandi. 1857 yilda maktab islohoti o`tkazildi, 1862-1863 yillarda mustamlakalarda qulchilik bekor qilindi, 1870 yilda mustamlakalarga xususiy sarmoya kiritish uchun yo`l ochib berildi.

Lekin bu islohotlar davlat siyosatiga ta’sir o’tkazishga va ijtimoiy munosabatlar tuzilishida o’zining mavqeini o’zgartirishga behuda uringan golland xalqining keng xalq ommasi ahvolini yaxshilamadi. 1850 yilda Amsterdamda mamlakatda birinchi ishchilar ittifoqi – olmosga ishlov beruvchilar Ittifoqi tashkil topdi, keyinchalik matbaachilar, kemasozlar va boshqa kasb ishchilarining ittifoqlari tuzildi.

YAngi konstitutsiyaning qabul qilinishi iqtisodiyotning jonlanishiga ham ko'maklashdi. Frantsuzlar bosqini davrida tushkunlikga uchragan sanoat tez tiklanibbordi. Uning tuzilishi o'ziga xos bo'lib, mustamlakalardan keltiriladigan xom ashyoni qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlar tez rivojlanib bordi. Shu bilan birga mustamlakalar uchun tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar – neftni qayta ishlovchi, tamaki, oziq-ovqat tarmoqlari ham jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

X1X asrning so'nggi 30 yilida monopoliyalar tashkil topib, kemasozlik, to'qimachilik tarmoqlari tez o'sdi, temir yo'llar qurilishi tezlashdi, bank ishi rivojlandi.

4. Niderlandlar XIX asr oxiri - XX asr boshida.

XIX- asrning ikkinchi yarmida Niderlandiya qirolligi asta-sekin konstitutsion monarxiyaga xos xususiyatlarga ega bo'lib bordi. Vilgelm III davrida boshlangan bu jarayon 1890 yilda taxtga o'tirgan Vilgelmina davrida ham davom etdi (u 1948 yilda vafot etdi).

Intensiv dehqonchilik va chorvachilik aholining asosiy mashg'uloti edi. Dehqonlar mashina, o'g'it, sifatli urug'lik va nasldor qoramollarni sotib olish uchun o'z yyerlarini garovga qo'yishga majbur edilar. Lekin chetga oziq-ovqat mahsulotlarini chiqarishdan keladigan asosiy daromad pomeshchiklar va savdogarlarga tegishli edi. 50-70 yillarda aholining deyarli yarmi o'z mulklaridan mahrum bo'lib, ijarachilarga aylangan bo'lsa, pomeshchiklar va savdogarlarning daromadlari 1 mlrd.guldenni tashkil qildi. Niderlandiyaliklarda mablag' jamg'arishga e'tibor kuchli bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sarmoya Buyuk Britaniyadagiga nisbatan 2 barobar ko'p edi. Lekin aholining katta qismi muhtojlikka duchor bo'lib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy etishmasdi. Amsterdamda 1870 yilda 260 ming aholining 100 ming zax erto'lalarda yashardi. Boshqa shahar va qishloqlardagi ahvol ham bundan yaxshi emas edi. Aholi orasida, ayniqsa bolalar o'rtasida o'lim yuqori bo'lib, har ming boladan 700 dan kamrog'i 10 yoshgacha yashardi. Gollandiya tarixchilari o'sha davr Niderlandiyasini paupyyerlar mamlakati deb atardilar.

Ikki tashqi omil – Suvaysh kanalining ochilishi va uning natijasida Niderlandiyaning o'z mustamlakalari bilan bo'lgan yo'lning ancha qisqarishi hamda Germaniyada sanoatning gurkirab o'sishi natijasida Gollandiya hududining tranzit qatnov yo'li sifatidagi ahamiyatining oshishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi. 70-80 yillarda golland savdo sarmoyasi metropoliyada qayta ishlovchi sanoatni rvojlantirish, yo'llar va kemalar qatnaydigan kanallar qurishga, mustamlakalarda qazib oluvchi sanoatni rivojlantirishga yo'naltirila boshlandi. Amsterdamni Shimoliy dengiz bilan bog'lovchi kanal qurildi. Uzoq yillar davomida tushkunlik holatida bo'lgan Rotterdam sanoqli yillar ichida dunyoning eng yirik portlaridan biriga aylandi. Golland savdo floti yana xalqaro ahamiyatga ega bo'lib bordi, bu vaqtga kelib unda umumiy suv sig'imi 800 ming tonnaga teng bo'lgan 700 kema bor edi. Temir yo'l tarmoqlarining uzunligi hozirgi darajaga (3,5 ming km.) yetdi.

1833 yilda Sanoat taraqqiyoti maxsus fondi tashkil qilindi. Kemasozlik va boshqa an'anaviy tarmoqlarda ishlab chiqarish kontsentratsiyasi jadal sur'atlar bilan bordi. X1X asr oxiriga kelib oziq-ovqat sanoatida yirik ishlab chiqarish ustunlik qilardi.

Niderlandiyada metallga ishlov beruvchi soha ham tez rivojlanib bordi. Bu erda sanoatning eng yangi tarmoqlariga asos solindi. 1891 yilda ishga tushgan uncha katta bo'lmagan elektr lampa zavodining xo'jayinlari "Filips" jahon radiotexnika kontserniga asos soldilar. Sun'iy ipak ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlar 1911 yilda AKYU jahon kontsernini tashkil qildilar.

Niderlandiyaning ulkan mustamlakachilik imperiyasining mavjudligi ham uning iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanishigda muhim rol o'ynadi. 33 ming kv.km.hududga va 6 mln.aholiga ega bo'lgan mamlakat 2,1 mln kv.km. hududga va o'z aholisidan bir necha barobar ko'p aholi yashaydigan mustamlakalarga ega edi. Niderlandlar Gollandiya Hindistoni, Gollandiya Gvianasi (Surinam), Kichik Antil orollari arxipelagiga egalik qilardilar.

Yavada barcha ishlov berilmaydigan yyerlar Niderlandiya davlati mulki bo'lib, u faqat gollandlarga ijaraga berilardi, ular esa asoratli shartnomalar asosida mahalliy aholini ekspluatatsiya qilardilar. Plantatsiyalarda eksport uchun kofe, guruch, shakarqamish va kauchuk etishtirilardi.

12 - Mavzu: LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI XVII-ASR O'RTALARI XX ASR BOSHLARIDA.

R E J A : 2 soat.

1. Ispaniyaning Amerikadagi istilolari.
2. Ispan mustamlakalarining XVIII asr oxiri –X1X asr boshlaridagi milliy ozodlik inqiloblari.
3. Lotin Amerikasida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi.
4. Argentina XIX asr oxiri – XX asr boshida.

MAVZU BO'YICHA TAYANCH TUSHUNCHALAR: X.Kolumb. Konkistadorlar. Tordesilyas shartnomasi. Metropoliya. Mustamlaka. Vest-Indiya savdo kompaniyasi. Kontrabanda savdosi. Plantatsiya. Enkomenda. Qosiq. Kreol. Komuneros. Frantsisko de Miranda. Gaiti oroli. Tussen Luvertyur. Vatanparvarlik xuntalari. Xose San-Martin. Simon Bolivar. Lyanerolar. Volontyerlar. Angostura. Syudad Bolivar. Frantsisko de Paula Santander. Idalgo. Morelos. General Iturbide. Imperator Pedro. Libertadorlar. Liberallar. Konservatorlar.

1. ISPANIYANING AMERIKADAGI ISTILOLARI.

1492 yilda Ispaniya qiroliga xizmat qilayotgan Xristofor Kolumb Amerikani kashf etgach, bu erga ispan mustamlakachilari – konkistadorlar yopirilib kela boshladi. Ular sarguzasht izlovchilar, kambag'allashgan dvoryanlar, monaxlar, sobiq jinoyatchilar, oson yo'l bilan boyishni ko'zlagan odamlardan iborat edilar. Ular safida yaxshi xayotni orzu qilgan dehqonlar va hunarmandlar ham ko'pchilik edi. Jasur va shafqatsiz ispan konkistadorlari 50 yil davomida hozirgi Lotin

Amerikasining katta qismini egallab oldilar, shu jumladan ular Meksikada atsteklar va mayyalar davlatini, Peruda inklar davlatini bosib oldilar. Braziliya esa portugallar tomonidan bosib olindi.

1494 yilda Ispaniya va Portugaliyaning Amerikadagi mulklarining chegaralarini belgilash yuzasidan Tordesilyas shartnomasi tuzildi. Bu shartnomaga ko'ra Janubiy Amerikaning Braziliyadan tashqari barcha hududi, butun Markaziy Amerika va Karib havzasi, Shimoliy Amerikaning ancha qismi Ispaniyaga tegishli bo'ldi.

Hindular davlatlarining kam sonli ispan mustamlakachilaridan mag'lubiyatga uchrashlarining asosiy sababi ispanlarda hali hindular ko'rmagan-bilmagan o'qotar qurollar va otning borligi edi.

XVII asrga kelib ancha mustahkamlanib olgan Gollandiya, Angliya va Frantsiya ham Amerikaga kirib kela boshladilar. Ular bu erda Kyurasao, YAmayka, Gaitining 1/3 qismini va Karib dengizidagi boshqa orollarni egalladilar, ular ilgari Ispaniyaga tegishli edi.

Barcha Yevropa davlatlarining Amerikadagi mustamlakalarda aholini asoratga solish tizimlari bir-birlariga o'xshash edi. Bu erdagi inson resurslari va tabiiy boyliklar Yevropalik hukmdorlarning mulki hisoblanib, mustamlakalarning metropoliyalar bilan bo'ladigan tovar ayirboshlash jarayoni qattiq monopoliyalashtirilgan edi.

Ispaniyada Amerika bilan bo'ladigan savdo 1503 yilda tashkil etilgan Savdo palatasi tomonidan faqat Ispaniyaning Seviliya porti orqali amalga oshirilardi, 1717 yildan boshlab Kadis porti ham bu savdoga qo'shildi. Bundan tashqari 1561 yildan boshlab ispan savdogarlari Amerikaga harbiy kemalar kuzatuvida yuboriladigan savdo flotiliyasi tarkibidagina yanvar (Panamaga) va avgust oylarida (Yangi Ispaniya – Meksikaga) borishlari mumkin edi.

XVII asrning 60 yillaridan boshlab Portugaliya ham Braziliya uchun ana shunday tartib o'rnatdi.

Frantsiya mustamlakalarida 1664 yildan boshlab Vest Indiya kompaniyasi, u tugatilgach Frantsiya hukumatining Qirollik kompaniyasi (1674 y) savdoda yakka hukmron edi. Gollandiya mustamlakalarida Niderlandiya Vest-Indiya kompaniyasi hukmronlik qilardi. Angliyaning savdo monopoliyasi 1651 yildagi «Navigatsion akt»dan boshlandi. Barcha davlatlar o'z mustamlakalarini boshqa mamlakatlar bilan savdo qilishlarini taqiqlab qo'ygan edilar va kontrabanda savdo taqib qilinardi.

Savdo monopoliyalari turli taqiqlash va cheklashlar yo'li bilan mustamlakalarni xom ashyo qo'shog'iga aylantirgan edilar va teng bo'lmagan savdo orqali bu mustamlakalarni talab, juda katta boyliklarni qo'lga kiritardilar.

Mustamlakalar aholisi zimmasiga turli soliqlar yuklatilgan edi.

IJTIMOIY-IQTISODIY TUZUM.

Amerika turli Yevropa davlatlari tomonidan va turli vaqtlarda mustamlakaga aylantirilgan bo'lsa ham u yerlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar mustamlakachilar o'rtasidagi farq bilan emas, balki bu hududlarning tabiiy iqlimi va geografik xususiyatlariga qarab farq qilgan. Tropik va subtropik zonada joylashgan Karib havzasida, Venesuela, Yangi Granada (h.Kolumbiya) qirg'oqlarida, Braziliya

va Gvianada yashovchi hindu qabilalari Yevropaliklar kelguncha ovchilik, termachilik va eng oddiy dehqonchilik bilan shug'ullanganlar va asoratga solish uchun yaroqsiz bo'lganlar. Bu hududlar qaysi davlatlar tomonidan egallab olinishidan qat'iy nazar, u yerlardagi tub aholi yo'q qilindi, barcha joyda Yevropaga shakarqamish, paxta, kakao, kofe va boshqa xil tropik mevalar etkazib beruvchi plantatsiya xo'jaliklari tashkil etilib, Afrikadan qullar keltirildi.

Mo''tadil va unga o'xshash zonalarda joylashgan La-Plata, CHili, Braziliyaning janubi-g'arbiy hududlarida va Meksikaning shimolida yashovchi hindularning ko'chmanchi qabilalari shafqatsizlarcha qirib tashlandi. Bu yerlarda yirik chorvachilik va donchilik markazlari tashkil topdi.

Ispanlar tomonidan bosib olingan Meksikaning janubiy va markaziy hududlari, Yangi Granada, Gvatemala, Salvador, Peruda ahvol boshqacha edi. Bu yerlarda mayya, atstek, chibcha, inklarning yuqori darajada rivojlangan tsivilizatsiyasi mavjud edi. Bu erdagi xalqlar qadimgi SHarqda mavjud bo'lgan Osiyocha ishlab chiqarish usuli va despotik davlat shaklidagi ijtimoiy taraqqiyot bosqichida turardilar. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik, tog'-kon ishlarida ming yillik mehnat ko'nikmalariga ega bo'lib, o'z davlat byurokratiyasi tomonidan asoratga solingan edilar va ispanlar uchun ishchi kuchi sifatida muhim ahamiyatga ega edilar. SHuning uchun ham ispanlar ularning jamoa tashkilotlarini o'z manfaatlari yo'lida ishlatishga harakat qildilar.

Hindular jamoasini asoratga solishning dastlabki shakli enkomenda bo'lib, unda bir necha jamoa ma'lum bir konkistadorga birkitib qo'yilgan. Hindular o'z qabila boshliqlari – qosiqlar qo'l ostida jamoa yerlarida mehnat qilishni davom ettirganlar, lekin hosilning bir qismini «homiylik» qilgani uchun o'sha konkistadorga berganlar va unga qarashli mulklarda (dala, kon, manufaktura, uyida va sh.o') ishlab berganlar.

Tadbirkorlar soni o'sib va hindular soni kamayib borgach, XV1 asrning 40-yillarida Yangi qonunlar qabul qilinib, enkomendalar soni kamayib, ular egasining huquqlari qisqardi. Jamoa a'zolarining katta ko'pchiligi davlat homiyligi ostiga o'tdi va pul shaklida jon solig'i to'lay boshladi.

Negr-qullar va hindu jamoalarining dehqonlari eng ezilgan qatlamni tashkil etardi. SHu bilan birgalikda Yevropadan kelgan ko'pgina aholi va ularning avlodlari bo'lgan kreollar ham qashshoqlikda yashardilar.

Jamiyatning yuqori qatlamini cherkov va mustamlaka ma'muriyatining yuqori lavozimli amaldorlari, oltin konlarining egalari, savdogarlar, kema egalari va katta yyer egalari tashkil etardi.

Yer-mulklar qirol taxtiga tegishli deb hisoblanganligi uchun ko'chmas mulk, eng avvalo er eng ishonchli mulk hisoblanardi va faqat ijaraga berilardi. XV11 asr boshlaridan er xususiy mulk sifatida sotila boshlandi.

Xususiy shaxslarga tegishli xo'jaliklar eng avvalo ichki va tashqi bozorga mahsulot etkazib berish uchun tashkil qilinar edi. Mustamlakalarning bir qator hududlarida qishloq xo'jaligida yollanma mehnatdan ham foydalanganlar. Lekin mustamlakalarning ko'pgina hududlarida aholini asoratga solishning turlicha shakllari – qarz uchun xo'jayinga ishlab berish, jamoa a'zolarining majburiy ishlab

berishlari yoki bo’lmasa Yevropadan yuborilgan katorgachilar mehnati, negr-qullarning mehnati kabi shakllari mavjud edi.

Mustamlakalarda ijtimoiy farqlar irqiy farqlar bilan birgalikda yanada murakkablashib ketardi. Nazariy jihatdan olganda odam terisining rangi shaxsning jamiyatdagi o’rnini o’z-o’zicha belgilay olmas edi, shuning uchun ham jamiyatning quyi qatlamlarida oq tanli kambag’allar, yuqori boy qatlamlarida yirik latifundiyalarga ega bo’lgan hindular uchrardi. Lekin terining oq rangda bo’lishi mustamlaka apparatida mansab egallashda, mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlarida ishtirok etishda, qurol taqib yurishda va Yevropacha kiyinish, bilim olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.

Mustamlakalarni boshqarish uchun Ispaniyadan yuborilgan amaldorlar bilan mustamlakalarda yashovchi oq tanli aholi va ularning avlodlari bo’lgan kreollar o’rtasida ham ahillik yo’q edi. Vitse-qirolik, general kapitanlik va gubernatorlik kabi yuqori boshqaruv organlarida Ispaniyadan yuborilgan amaldorlar ishlardi, mahalliy oq tanli aholi esa o’z-o’zini boshqarish organlarida va xalq lashkari tarkibida ish olib borardi.

2. ISPAN MUSTAMLAKALARINING XVIII ASR OXIRI –X1X ASR BOSHLARIDAGI MILLIY OZODLIK INQILOBLARI.

Mustamlakalarda mazlum xalqlarning kurashi to’xtovsiz davom etardi. Negrlar o’z xo’jayinlaridan qochib ketib, o’tish qiyin bo’lgan hududlarda aholi maskanlari tashkil etib, qo’shni plantatsiyalarga, shaharlarga hujum uyushtirardilar yoki atrofdagi hududlarda qullar bilan birgalikda qo’zg’olon ko’tarardilar. Hindular mustamlakachilarni quvib yuborish va o’z erkinliklarini tiklash yo’lidagi harakatlarini to’xtatmas edilar.

Qo’zg’olonchilar oq tanlilarni o’zlarining asosiy dushmani deb hisoblardilar, har ikki tomondan ham ko’plab odamlar qurbon bo’lardi.

SHu bilan birga Yevropadan ko’chib kelgan oq tanli aholining tarkibi ham bir xil emas edi. Ularning katta qismi qashshoqlikda yashardi. Bir qismi esa katta-katta boyliklarga ega edi. Mustamlakalarda tovar ishlab chiqarishning ko’payib borishi bilan mahalliy tadbirkorlar qatlami ham kuchayib bordi. Ularning ajdodlari Yevropalik bo’lganiga qaramay, bir-ikki avlod o’tgach ular kreollarga aylanib, Yevropadagi qarindoshlaridan begonalashib, o’zlarining mahalliy manfaatlariga ega bo’lib qolgan edilar. X1X asr boshiga kelib kreollar qo’lida juda ko’plab savdo uylari, konlarning deyarli yarmi, deyarli barcha manufaktura va yirik xususiy er mulklari to’plangan edi. Endilikda ular tobora ko’proq mustamlakachilar tomonidan o’rnatilgan cheklashlarni bekor qilinishini va erkin savdo o’rnatilishini talab qilib chiqmoqda edilar.

XVIII asrning 70-yillarida Yangi Granadada mustamlakachilarning cheklashlariga qarshi qaratilgan «komuneros» («umumiy ish himoyachilari») harakati paydo bo’lib, Janubiy Amerikaning katta kismiga yoyildi. Unda asosan shaharliklar ishtirok etib, o’z o’zini boshqarish huquqi berilishini va soliqlarni kamaytirilishini talab qilib chiqdilar. Ispanlar bu harakatni bostira oldilar. Mustamlakachilarga qarshi qaratilgan 3 kuch – hindular, negr-qullar va kreollar

uyushmasdan, bir-birlarini qo'llab-quvvatlamasdan harakat qilardilar, shuning uchun ham ispanlar ularning chiqishlarini osonlik bilan bostirardilar.

XVIII asr oxiriga kelib mustamlakachilar bilan mahalliy aholi o'rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashdi. Kreollar ispanlarning tashqi savdodagi monopoliyasining bekor qilinishini yanada qat'iyroq talab qilib chiqa boshladilar. Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarining mustaqillikga erishganidan va 1789 yildagi frantsuz inqilobining g'alabasidan ruhlanib ketgan mustamlakalardagi ilg'or fikrli kishilar ispanlar hukmronligiga tobora ko'proq qarshi chiqa boshladilar.

Venesuelalik kreol Fransisko de Miranda (1756-1816) mustamlakalar mustaqilligini talab qilib chiqqan dastlabki vatanparvarlardan biri edi. Ispan armiyasining podpolkovnigi, Kuba gubernatorining ad'yutanti bo'lgan Miranda kreollarning radikal doiralari bilan aloqa o'rnatdi va Ispaniya hokimyati taqibidan Shimoliy Amerikaga qochib ketishga majbur bo'ldi. U AQSHda Vashington va boshqa siyosiy rahbarlar bilan uchrashdi, keyinchalik Ispaniya bilan raqobatda bo'lgan buyuk davlatlardan yordam olish maqsadida Yevropaga bordi. U 1786 yilda Rossiyaga keldi. Amerikaning Tinch okeani sohillaridagi o'z mulklarini kengaytirishdan manfaatdor bo'lgan rus hukumati Mirandani xayrihohlik bilan kutib oldi. Ispan elchisi Mirandani Ispaniyaga berish haqida talab qilganda, YEkaterina II bu talabni rad etdi va Mirandaga yordam ko'rsatdi.

Rus hukumati tomonidan Mirandaga berilgan diplomatik pasport va katta pul mablag'i uning xavfsizligini ta'minlashga va keng faoliyat yuritishga imkon berdi. U Londonga borib, ingliz hukumatidan yordam olishga harakat qildi, lekin bu niyati amalga oshmagach, 1792 yilda Frantsiyaga borib, inqilobchilar armiyasida general lavozimida janglarda ishtirok etdi. Yakobinchilar diktaturasi davrida jirondachilar tarafdori bo'lgani uchun qamoqqa tashlandi. Ozod bo'lganidan keyin Angliyaga qaytib u erda mustamlakalarni ispanlar zulmidan ozod qilish to'g'risida keng tashviqot ishlarini olib bordi.

Gaitidagi inqilob.

1789 yildagi frantsuz inqilobi Gaiti orolidagi San-Domingo koloniyasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu erda bir necha ming oq tanli plantatsiya egalari yuz minglab negr-qullarni ishlatar edilar. 1792 yilda orolda negr-qullar va ozod negrlarning qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'olonchilar frantsuz ma'muriyatini qulchilikni bekor qilishga majbur qildilar. Plantatsiya egalari YAmaykadan inglizlarni yordamga chaqirdilar, lekin sobiq qul Tussen (1743-1803) boshchiligidagi Gaiti armiyasi inglizlarni mag'lubiyatga uchratdi va ularni oroldan chiqib ketishga majbur qildi. Orolga kelgan 15 ming kishilik ingliz qo'shinidan faqat bir mingi omon qoldi. Ingliz ekspeditsiyasi qo'mondoni Meitlend Tussenga asir tushdi va Gaiti mustaqilligini tan olib, u bilan bitim tuzdi. Tussen Ispaniyaga tegishli bo'lgan Gaitining sharqiy qismini ham ozod qildi.

Tussen o'z nomiga frantsuzcha «Luvertyur» («ochmoq») o'zini qo'shib olgan, bu bilan u o'z xalqining mustaqilligi sari yo'l ochishni nazarda tutgan, haqiqatan ham u Gaiti mustaqilligining «otasi» hisoblanadi. U juda ham iqtidorli bo'lib, qul vaqtidayoq savodini chiqarib, matematika va tibbiyotni o'rgangan edi. Tussen mustaqillik urushi davrida plantatsiya egalari yerlarini musodara qilib, sobiq qullarga taqsimlab bergan edi. 1801 yilda orolning deyarli oliy hukmdoriga aylangan Tussen-

Luvertyur demokratik konstitutsiyani e’lon qildi, Frantsiyaning mamlakat ustidan hukmronligi faqat nomigagina saqlanib qolgan edi.

Napoleon hokimyat tepasiga kelgach Frantsiya Gaitidagi sobiq mustamlakasi ustidan yana o’z hukmronligini o’rnatishga intilib, u erga bir necha o’n ming kishidan iborat ekspeditsion korpus yubordi. Gaiti xalqi bosqinchilarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Frantsuzlar qo’zg’olonchilarga ozodlik berish, armiya va hukumatda egallagan barcha lavozimlarini saqlab qolishga va’da qilib, sulh tuzishni taklif etdilar. Tussen-Luvertyur bu shartlarni qabul qildi. Lekin frantsuzlar xoinlik qilib uni ushlab oldilar va Frantsiyaga yuborib, turmaga tashladilar, u bu erda 1803 yilda halok bo’ldi.

Lekin Tussen-Luvertyurning o’limi ham, frantsuz bosqinchilarining vahshiyliklari ham Gaitilik vatanparvarlarni buka olmadi. Ikki yil davom etgan shiddatli janglardan keyin frantsuz bosqinchilari oroldan quvib chiqarildi. 43 ming frantsuz askaridan 35 mingi halok bo’ldi, korpus qo’mondoni general Leklerk ham bezgakdan vafot etdi. Oroldan kemalarga tushib qochib borayotgan 8 ming askar ham Frantsiyaga etib bora olmadi, yo’lda ularni ingliz floti ushlab, asirga oldi. Gaiti inqilobini bo’g’ib tashlashga bo’lgan urinish barbod bo’ldi.

Gaitidagi inqilob g’alabasi Amerikadagi ispan va portugal mustamlakalarida milliy-ozodlik harakatining yanada yuksalishiga katta ta’sir ko’rsatdi. Bu inqilob Lotin Amerikasidagi mustamlakachilikga qarshi birinchi inqilob bo’lib, u qulchilikni yo’q qildi va respublika e’lon qildi. Bu birinchi marta g’alaba bilan yakunlangan qullar qo’zg’oloni edi.

X1X asr boshlariga kelib kreollarning Ispaniyadan mustaqil bo’lib ajralib chiqishga bo’lgan harakatlari yanada kuchaydi. Mustamlakalarda fitnachi guruhlar ish olib borar, frantsuz inqilobining «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi» va boshqa hujjatlari nashr qilinib tarqatilardi. Mustaqillik uchun kurash olib borayotganlar Londonda yashayotgan Miranda bilan aloqa bog’lagan edilar.

Napoleon urushlari va Ispaniyaning frantsuzlar tomonidan okkupatsiya qilinishi natijasida mustamlakalarning metropoliya bilan bo’lgan savdosi deyarli to’xtab qoldi. Bu esa mustamlaka tovarlarining inglizlar va Ispaniyaning boshqa raqiblari bilan bo’ladigan kontrabanda savdosining kengayishiga yordam berdi. Buenos-Ayres, Montevideo, Karakas, Varakrus, Gavanada katta savdo markazlari tashkil topib, ular orqali Yevropa bozorlariga mo’yna, kakao, kofe, qand, xinin, qimmatbaho metallar va toshlar chiqarilardi. Bu yerlarda mustamlakalarni Ispaniyadan ajralib chiqishini talab qiluvchi savdo burjuaziyasi qatlami tashkil topdi. Ichki bozor ham kengayib bordi. Ispaniya bir qancha cheklashlarni bekor qilib, mustamlakalar o’rtasida savdo-sotiqqa ruxsat qilgan bo’lsa ham yaqinlashib kelayotgan bo’ronni to’xtatib qolish mumkin emas edi.

Frantsiya va Ispaniya bilan urush holatida bo’lgan Angliya 1806 yilda ispan mustamlakalarini bosib olish maqsadida Buenos-Ayresga harbiy ekspeditsiya yubordi. Miranda ham Londondan AQSHga borib, xaloskorlik ekspeditsiyasini tashkil etib, Venesuelaga kirib bordi.

Mirandaning Venesuelani ozod etish yo’lidagi urinishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Uning 200 kishilik ko’ngillilar otryadiga qarshi katta qo’shin yuborildi, Miranda mag’lubiyatga uchrab, Londonga qaytishga majbur bo’ldi.

Inglizlar La-Platada dastlabki davrda ancha muvaffaqiyatlarga erishdilar va Buenos-Ayresni egalladilar. Lekin kreollar rahbarligidagi shaharliklar qo'zg'oloni inglizlarni taslim bo'lishga majbur qildi. Inglizlarning o'n ming kishidan iborat Yangi qo'shini ham qo'zg'olonchilardan mag'lubiyatga uchradi va inglizlar La-Platadan chiqib ketishga majbur bo'ldilar.

Vatanparvarlarning ingliz mustamlakachilari ustidan Buenos-Ayresda qozongan g'alabasi muhim oqibatlarga ega bo'ldi. Bu g'alaba bu viloyatni ingliz mustamlakasiga aylanishdan saqlab qoldi va inglizlarga qarshilik ko'rsatish layoqatiga ega bo'lmagan ispan hokimyatining obro'sini tushirib yubordi, shu bilan birga mahalliy aholining o'z manfaatlari uchun kurasha olishini ko'rsatdi.

Bularning hammasi vatanparvarlik kayfiyatidagi kreollarni ruhlantirib yubordi va ular qo'zg'olon ko'tarish uchun qulay payt kuta boshladilar.

Napoleon Ispaniyani bosib olgach, ana shunday imkoniyat yuzaga keldi. Karakasda (Venesuela) va boshqa shaharlarda kreollar frantsuzlar asirligida yotgan ispan qiroli Ferdinand VII ning huquqlarini himoya qilish bahonasi ostida vatanparvarlik xuntalarini tuzib, ispan hokimyatini ag'darib tashladilar. Natijada bir qator joylarda hokimyat tinch yo'l bilan vatanparvar xuntalar qo'liga o'tdi. Lekin xuntalar o'z faoliyatlarida etarli darajada qat'iylik ko'rsata olmadilar. Natijada ispanlar Buenos-Ayresdan tashqari barcha joylarda o'z hokimyatlarini qayta tikladilar. Buenos-Ayresda vatanparvarlar mohir sarkarda general Xose San-Martin boshchiligida ko'ngillilar armiyasini tuzib, jazo ekspeditsiyasi qo'shinini to'xtatib qoldilar, keyinchalik hujumga o'tib, ispanlarni Chilida tor-mor etdilar va ularni Peruda ta'qib qila boshladilar. Vatanparvarlar Urugvay va Paragvayda ham mustamlakachilar hokimyatini tugatdilar.

Yangi Granada (hozirgi Kolumbiya) va Venesuelada ispanlarga qarshi kurash goh u tomonning, goh bu tomonning ustunligi bilan bordi. Ispaniya bu erga Puerto-Riko va Kubadan qo'shin tashlab, Karakasni egalladi. Vataniga qaytib kelgan general Miranda asir olinib, Ispaniyaga yuborilib turmaga tashlandi va u 1816 yilda turmada halok bo'ldi. Venesuelalik yosh aristokrat Simon Bolivar (1783-1830) vatanparvarlarga rahbarlik qildi. U Yangi Granadada uncha katta bo'lmagan armiya tuzib, And tog'larini oshib o'tdi va Karakasni ozod etdi.

Lekin ispanlar hindular va lyanerolarni (cho'lda yashovchi qabilalar) o'z tomoniga og'dirib oldilar. Napoleon tor-mor etilgach qirol Ferdinand VII ispan taxtiga o'tirdi va general Morilo boshchiligida jazo ekspeditsiyasi yuborildi. Ispanlar lyanerolar yordamida ikkinchi marta Venesuelani, keyinroq Yangi Granadani egallashga muvaffaq bo'ldilar.

Lekin mustamlakachilarning shafqatsizligi natijasida Andning har ikki tarafida ham partizanlar urushi kuchayib, umumxalq xarakterini oldi. Simon Bolivar 1816 yilda qullarga ozodlik berilishini va ozodlik urushi ishtirokchilariga chek yerlari berilishini va'da qildi.

S.Bolivar ispanlar bora olmaydigan port shahri bo'lgan Angosturada o'rnashib olib (bu shaharga Bolivar o'limidan keyin Syudad Bolivar – Bolivar shahri deb nom berdilar), Yevropadan ko'ngillilarni chaqirib olib, maxsus volontyerlar (ko'ngillilar) legionini tuzdi. Bu legion keyinchalik ispanlar bilan bo'lgan janglarda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bolivar boshchiligidagi ko'ngillilar armiyasi And tog'laridan

oshib o’tib Yangi Granadaga kirib bordi va ispanlarga qarshi olib borilgan bir necha janglardan keyin bu hududni ozod etdi. Tez orada Bolivarning armiyasi Venesuelaga qaytib keldi va ko’pgina og’ir janglardan keyin Venesuelani ham ozod qildi. Yangi Granada va Venesuela Buyuk Kolumbiya nomi bilan bitta respublikaga birlashtirildi, Bolivar uning prezidenti qilib, Yangi Granadalik vatanparvar, mohir davlat va harbiy arbob Fransisko de Paula Santander vitse-prezident qilib saylandi.

Lekin mustamlakalarni ispanlar zulmidan to’la ozod etish uchun hali ancha vaqt kerak edi. Peru vitse-qirolligida ispanlarning yaxshi qurollangan ko’p ming kishilik qo’shini turardi. Mustamlaka zulmidan xalos bo’lish uchun Peruni ispanlardan ozod qilish kerak edi. SHu maqsadda Peruga janubdan general San-Martin boshchiligidagi argentinalik, perulik va chililik vatanparvarlarning, shimoldan general Bolivarning venesuelalik, Yangi granadalik va ekvadorlik qo’shinlarining yurishi boshlandi. Urush 1826 yilning boshigacha – ispanlarning to’la mag’lubiyatigacha davom etdi.

Meksikadagi voqealar boshqacha tusda rivojlanib bordi. Bu erda yirik er mulklarga ega bo’lgan kreollarning yuqori qatlami ispanlarni qo’llab-quvvatlardi. 1810 yilda ruhoniy Idalgo boshchiligida hindular qo’zg’oloni boshlandi. Idalgo qirol monopoliyasini, jon solig’ini, qulchilikni bekor qilinganligini e’lon qildi, yerlarni hindular qabilalariga qaytarish to’g’risida farmon chiqardi. Uning chaqirig’iga javoban 80 mingga yaqin hindular qo’zg’olonda qatnashdilar, lekin yomon qurollanganliklari va uyushmaganliklari sababli mag’lubiyatga uchradilar. Idalgo asir olinib, otib tashlandi. Uning ishini Morelos davom ettirdi. Uning tashabbusi bilan chaqirilgan kongress 1813 yil 6 noyabrda Meksikani mustaqil deb e’lon qildi. 2 yildan keyin ispanlar Morelosni ushlab olib, qatl qildilar. Morelos vafotidan keyin uzoq cho’zilgan partizanlar urushi boshlanib ketdi. Ispaniyadagi liberal inqilob g’alabasidan qo’rqib qolgan boy kreollar va cherkov ahli 1821 yilda Meksikani Ispaniyadan ajralib chiqqanini e’lon qildilar. Ispanlar bilan hamkorlik qilgan general Iturbide 1822 yilda Meksika imperatori deb e’lon qilindi. Respublika tarafdorlari ko’p o’tmasdan imperatorni ag’darib tashladilar va mamlakat respublika deb e’lon qilindi. Keyinroq Iturbide hokimyatni qaytarib olishga harakat qilganida respublikachilar tomonidan qatl qilindi.

Amerikadagi ispan mustamlakalarida mustaqillik uchun olib borilgan urush vatanparvar kuchlarning g’alabasi bilan yakunlandi.

Portugaliya mustamlakasi bo’lgan Braziliyada 1822 yilda burjua inqilobi bo’lib o’tdi. Bu mamlakatda XVIII-asr davomida ishlab chiqaruvchi kuchlar juda tez yuksaldi, aholi soni o’n marta o’sdi. Napoleon qo’shinlari 1808-yilda Portugaliyaga kirib borgach, qirol saroyi Rio-de-Janeyroga ko’chib o’tdi va shundan keyin savdo monopoliyasi, cheklashlar, reglamentatsiyalar va mustamlaka tizimining boshqa elementlari tugatildi, Braziliyaning rivojlanishi yanada kuchaydi. 1815 yilda Braziliya Portugaliya qirolligining mustamlakasidan uning teng huquqli qismiga aylanib, Yangi siyosiy maqomga ega bo’ldi.

Yevropadagi urushlar tugagach va Portugaliyadagi 1820 yildagi inqilobdan keyin vaziyat tubdan o’zgardi. Portugaliya burjuaziyasi qirol Joan VI ni Yevropaga qaytarib olib kelgach, uning o’g’li, Braziliya shahzoda regenti Pedroni ham Portugaliyaga qaytarishga va Braziliyada mustamlakachilik tartiblarini qayta tiklashga harakat qildi. Bunga javoban Braziliya pomeshchiklari, fazenda egalari shahzoda saroyini o’rab

olib, uni shu erda qolishga «ishontirdilar», mahalliy xalq qo'shini yordamida portugaliyaliklar garnizonini tor-mor etdilar va Pedroni Braziliyaning mustaqilligi to'g'risida manifest chiqarishga majbur qildilar. Ular nihoyat 1822 yil 7 sentabrda Braziliyaning Portugaliya bilan munosabatlari batamom uzilganligi to'g'risidagi hukumat qarorini Pedroga tasdiqlatib oldilar. Braziliyada imperator Pedro I boshchiligida konstitutsion monarxiya joriy etildi.

Braziliyadagi inqilob juda tezlik bilan sodir bo'ldiki, negrlar qo'zg'olon ko'tarishga va inqilobning borishiga ta'sir ko'rsata olmadilar. Natijada Braziliya aholisining 1/3 qismi yana 60 yildan ko'proq qullikda, jamiyat esa quldorlik munosabatlari girdobida qolib ketdi.

Ozodlik urushlarida kreollar bilan bir qatorda negr qullar, hindular, erkin dehqonlar ham ishtirok etdilar. O'sha davrda hozirgi zamon tushunchasidagi partiyalar va dasturlar yo'q edi. Vatanparvar rahbarlarning g'oyalari keng xalq ommasi uchun dastur va bayroq hisoblanardi. Lotin Amerikasidagi mustaqillik urushi dohiylari bo'lgan Bolivar, San-Martin, Artigas, O Xiggins, Santander va boshqalarni xalqlar hurmat qilib xaloskorlar (libertadorlar) deb atardilar, haqiqatan ham ular o'z hayotlarini bu mamlakatlarni mustamlaka zulmidan ozod etishga bag'ishlagan edilar.

Ispaniyaning Amerikadagi mustamlakalaridagi mustaqillik urushini haqli ravishda inqilob deb ham ataydilar. Haqiqatan ham bu urush inqilobiy maqsadlarni – mustamlakachilarni quvib yuborish, mustaqillikni qo'lga kiritish, respublika tuzumini o'rnatish, qulchilikni bekor qilish, hindularni feodal zulmdan ozod qilish, irqiy kamsitishni tugatish, dehqonlarga er berish, ma'rifat tarqatish, demokratik erkinliklar o'rnatish, cherkovni davlatdan ajratishni ko'zda tutardi.

Ispanlar zulmidan ozod bo'lishdan iborat asosiy vazifa bajarilgan bo'lsa ham tub ijtimoiy o'zgartishlar amalga oshirilmadi: ko'pgina respublikalarda qulchilik faqat X1X asrning 50-60-yillarida bekor qilindi. Dehqonlarga er berilmadi, xo'jayinlari o'zgargani holda latifundiyalar saqlab qolindi. Hindular avvalgidek asoratga solindi, ba'zi respublikalarda esa (Argentina) ular qirib tashlandi, yerlari oq tanli mustamlakachilar tomonidan egallab olindi.

SHunga qaramasdan mustamlakachilikning tugatilishi va mustaqil respublikalarning tashkil topishi progressiv ahamiyatga ega edi. Milliy inqiloblarning g'alabasi Lotin Amerikasi xalqlarini aynib ketishdan va qirilib ketishdan saqlab qolib, mustaqil rivojlanish uchun yo'l ochib berdi hamda Yevropadagi feodal reaktsiyasiga qattiq zarba berdi. Mustaqillikga ega bo'lish kapitalizm taraqqiyoti uchun yo'l ochib berdi.

3. LOTIN AMERIKASIDA MUSTAQIL DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI.

Lotin Amerikasida mustamlakachilik tizimining inqirozga uchrashi natijasida bir qator mustaqil davlatlar tashkil topdi. Ular jumlasiga Gaiti (1804), Paragvay (1811), Argentina (1816), CHili (1818), Buyuk Kolumbiya (1819), Peru (1821), Meksika (1821), Markaziy Amerika Respublikalari Federatsiyasi (1821), Boliviya (sobiq Tog'li Peru Simon Bolivar sharafiga shunday nomlandi-1825), Urugvay (1830). Kuba va Puerto-Riko X1X asr oxirigacha Ispaniya mustamlakasi bo'lib qolaverdi.

Inqilob rahbarlari Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalarini birlashtirib, yagona davlat (AQSH) tashkil etilganidan namuna olib, respublikalarni birlashtirishga harakat qildilar. Lekin bu harakatlar muvaffaqiyatga erishmadi. Jumladan 1823 yilda tashkil topgan Markaziy Amerika respublikalari Federatsiyasi keyinchalik Kosta-Rika (1838), Nikaragua (1838), Gonduras (1838), Gvatemala (1839), Salvador (1841) davlatlariga ajralib ketdi. 1819 yilda tashkil topgan Buyuk Kolumbiya ham keyinchalik (1830 y) Venesuela, Kolumbiya va Ekvadorga ajraldi. 1844 yilda Gaitidan Dominikan respublikasi ajralib chiqdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining pastligi, feodalizm qoldiqlarining saqlanib qolganligi, sobiq mustamlakalar o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalarning yo'qligi bu tarqoqlikning asosini tashkil etardi.

Amerikadagi ispan mustamlakalarida mustaqillik uchun olib borilgan urush 15 yilga cho'zildi. Mustamlakachilar tomonidan shafqatsizlik bilan olib borilgan urush natijasida Venesuela aholisi 316 ming kishiga (45 %) qisqardi. Yangi Granadada 172 ming, Ekvadorda 108 ming, Meksikada 200 ming kishiga qisqardi. Ko'plab moddiy boyliklar yo'q qilindi.

Yosh respublikalar hukumatlari vayron qilingan xo'jalikni tiklash va iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun Chet ellik tadbirkorlarga kontsessiyalar berishga, Chet ellardan kreditlar olishga va buyuk davlatlarga boshqa yon berishlarga majbur bo'ldilar. Bu esa AQSH, Angliya va Frantsiyaning asta-sekin Lotin Amerikasi mamlakatlarining eng muhim pozitsiyalarini egallab, bu mamlakatlar taraqqiyotiga g'ov bo'lishiga olib keldi.

Yangi mamlakatlar siyosiy hayotida 2 asosiy oqim – liberallar va konservatorlar mavjud edi. Liberallar o'z atrofiga yosh savdo va sanoat burjuaziyasini, liberal pomeshchiklarni birlashtirgan edilar. Konservatorlar esa ko'proq darajada pomeshchik-feodallarning, ruhoniylarning, sobiq mustamlakachilarning manfaatlarini ifodalardilar.

Bu guruhlar har doim ham izchil siyosat olib boravermasdilar. Ular vaqti-vaqti bilan hokimyatni egallash yoki uni qo'lda saqlab qolish uchun o'z siyosiy dasturlarini o'zgartirardilar. Har ikkala guruh ham hokimyat uchun kurashda tez-tez qurol kuchidan foydalanishar, diktatorlik rejimlarini o'rnatishar, armiyadan siyosiy maqsadlarda foydalanardilar.

Buyuk davlatlar Yangi respublikalarning ichki ishlariga muntazam ravishda aralashib, urushayotgan guruhlarga qurol-yarog' sotishar, ularga sudxo'rlik qarzlari berishar, o'zaro nizolarni avj oldirib, ba'zan oshkora qurolli interventsiyadan foydalanardilar.

Lotin Amerikasini o'z votchinasi (meros mulki) deb hisoblagan AQSHning hukmron doiralari ayniqsa agressiv faoliyat olib bordilar. AQSH 1845 yilda Meksikaning Texas provintsiyasini anneksiya qildi. Keyingi yili esa Meksikaga urush e'lon qilib, uning aholisidan 800 ming peso kontributsiya undirib oldi hamda Meksikadan Yangi Meksika va Kaliforniyani tortib oldi.

1857 yilda kelib chiqishi hindulardan bo'lgan Benito Xuares Meksika prezidenti bo'ldi. SHu yili Yangi konstitutsiya qabul qilinib, «Islohotlar to'g'risida qonunlar» qabul qilindi, bu qonunlar o'zida burjua inqilobi dasturini aks ettirardi. Mamlakatdagi reaktsiya kuchlari hukumatga qarshi birlashdi. Mamlakatda fuqarolar urushi

boshlanib ketdi. Unda Xuares tarafdorlari qo'li baland kelgach, bu ishga Ispaniya, Angliya va Frantsiya aralashdi.
1862 yilda bu davlatlar Meksikaga qarshi qurolli kurash boshladilar. Meksikaliklarning qattiq qarshiligi Ispaniya va Angliya hukumatlarini bu erdan o'z qo'shinini chaqirib olishga majbur etdi. Frantsuz bosqinchilari esa mahalliy pomeshchiklar va cherkov ahli yordamida Meksikani imperiya deb, Avstriya ertsgertsogi Maksimilian Gabsburgni imperator deb e'lon qildilar.
Meksika xalqi Xuares rahbarligi ostida bosqinchilarga va ularning mamlakat ichidagi ittifoqchilariga sabot-matonat bilan kurash olib bordilar. Butun mamlakat bo'ylab partizanlar urushi avj oldi.
Urush Meksika xalqining to'la g'alabasi bilan yakunlandi. 1867 yilda bosqinchilar Meksikadan chiqib ketishga majbur bo'ldilar.
Buyuk davlatlar Lotin Amerikasidagi boshqa respublikalarga ham qurolli interventsiya boshlab yubordilar.
1838-1840 yillarda frantsuzlar harbiy floti Buenos-Ayresni qamal qildi, 1845-1850 yillarda Argentina poytaxti ingliz-frantsuz floti tomonidan qamal qilindi. 1864 yilda Ispaniya Peruga bostirib kirishga harakat qildi. Ispaniyaning agressiv harakatlariga Peru, Chili, Ekvador va Boliviya birgalikda qarshi chiqib, 1866 yilda Ispaniyani o'z rejalaridan voz kechishga majbur qildilar. Ispaniyaning Dominikan Respublikasini bosib olish uchun qilgan harakati ham natijasiz tugadi.
Paragvay X1X asrning 1-yarmida daslab Xose Gaspar Rodriges Fransia, keyin Karlos Antonio Lopes rahbarligida qoloq ispan mustamlakasidan o'z milliy mustaqilligini himoya qilayotgan ilg'or respublikaga aylandi. Angliya Paragvaydagi progressiv rejimni ag'darishni maqsad qilib qo'ydi. Uning qo'llab-quvvatlashi bilan Braziliya, Argentina va Urugvaydan iborat ittifoq tuzilib, u 1864 yilda Paragvayga urush e'lon qildi. Bu urush 5 yil davom qildi. Paragvay xalqi o'z mustaqilligini qahramonona himoya qilgan bo'lsa ham Angliya qo'llab-quvvatlab turgan 3 davlatdan iborat ittifoqqa qarshi tura olmadi. Urush Paragvayning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Mamlakatdagi erkak aholining 90 % ga yaqini urushda halok bo'ldi. G'olib davlatlar Paragvaydan 55 ming kvadrat mil hududni tortib oldilar, mamlakat katta miqdorda tovon to'lashga majbur bo'ldi.
Argentina ham murakkab yo'lni bosib o'tdi. Mamlakat mustaqillikga erishgach ikkita siyosiy guruh – unitarchilar va federalchilar guruhi tashkil topdi. Unitarchilar yosh burjuaziya manfaatlarini ifoda etib, yagona markazlashgan davlat tuzishga intilardilar. Federalchilar esa latifundiyachilar (katta yyer egalari) va cherkov ahli manfaatlarini ifodalab, federal tarqoqlikni yoqlab chiqardilar. 1829 yilda federalchilarning qo'li baland keldi. Ularning rahbari Rosas klerikal-pomeshchiklar diktaturasini o'rnatib, mamlakatning milliy rivojlanishini bir necha o'n yilga to'xtatib qo'ydi. 1852 yildagi fuqarolar urushidan keyin Rosas diktaturasi ag'darib tashlandi. Hokimyat tepasiga progressiv kayfiyatdagi burjuaziya va liberal pomeshchiklar kelib, bir qator islhotlarni amalga oshirdilar. Bu esa mamlakatda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga yordam berdi. Argentinaga ingliz sarmoyasi va Yevropalik muhojirlarning kelishi ko'paydi.
Chet el sarmoyalariga qaram bo'lgan Lotin Amerikasi mamlakatlari burjuaziyasi burjua-demokratik inqiloblarni amalga oshirishga qodir emas edi. Meksikadagi

«Islohotlar inqilobi» va Lotin Amerikasidagi boshqa mamlakatlardagi shunga o'xshash harakatlarning natijalari uncha katta emas edi, ularning hech biri feodal iqtisodiyot asoslarini yo'q qila olmas edi. Lotin Amerikasidagi ko'pgina mamlakatlarda latifundiyalar er egaligining hukmron shakli sifatida saqlanib qoldi va reaktsion-konservativ elementlar shu bazaga (asosga) tayanib diktatorlik rejimlarini o'rnatardilar.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Lotin Amerikasi xalqlari qachondan mustamlakaga aylantirila boshlandi?
2. Kam sonli ispanlarning qisqa vaqt ichida ulkan hududlarni bosib olishining sababi nimada edi?
3. Tordesilyas shartnomasi nima uchun tuzildi?
4. Yevropalik mustamlakachilarning Lotin Amerikasini mustamlakaga aylantirishda mahalliy aholiga nisbatan olib borgan siyosati haqida so'zlab bering.
5. Lotin Amerikasidagi mustamlakalardagi aholining ijtimoiy tarkibi haqida so'zlab bering.
6. Komuneros harakati haqida so'zlab bering.
7. Frantsisko de Miranda haqida so'zlab bering.
8. Gaitidagi qullar qo'zg'oloni haqida so'zlab bering.
9. Simon Bolivarning faoliyati haqida so'zlab bering.
10. Meksikadagi milliy-ozodlik harakati haqida so'zlab bering.
11. Braziliyadagi milliy-ozodlik harakati haqida so'zlab bering.
12. Lotin Amerikasidagi mustaqil davlatlar taraqqiyotining xususiyatlari haqida so'zlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998.
2. Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Evropi i Ameriki (1640-1870). Sostavitel E.E.YUrovskaya. M. 1990.
3. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax. T. 5-7. M. 1960.
4. Novaya istoriya (1640-1870). Pod red. A.L.Narochnitskogo. M. 1986.
5. Novaya istoriya. 1 period. Pod red. E.E.YUrovskoy. M. 1983.
6. Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.T.1. Pod red. E.E.YUrovskoy. M.1998.
7. Istoriya diplomatii v 5-ti tomax. M. 1961-1965.
8. Istoriya SSHA v 4-x tomax. M. 1980-1987.
9. Jahon tarixi. (G'arb mamlakatlari 1640-1918 yy).O'quv-uslubiy qo'llanma.Tuzuvchi Xolliev A.G. T. 2002.
10. Mualliflar jamoasi. Yangi tarix. T.1. T.1967.

13 – MAVZU: POLSHA XVII ASR IKKINCHI YARMI – XVIII ASR O`RTALARIDA

Reja: 2 soat

1. Rech Pospolitaya XVII asr ikkinchi yarmi XVIII asr o`rtalarida.

2. Polshada XVIII asr oxiridagi islohotlar. Polshaning taqsimlanib olinishi.
3. Polyak xalqining XIX asrdagi milliy ozodlik kurashi.
4. Polyak yerlari XIX asr oxiri XX asr boshida.

1. Rech Pospolitaya XVII asr ikkinchi yarmi XVIII asr o`rtalarida.

Polsha XVII-XVIII asrlarda Yevropaning yirik davlatlaridan biri edi. Ikki palatali seym va saylab qo`yiladigan qiroldan iborat bo`lgan yagona Rech Pospolitaya o`z ma'muriyati, sudi va qo`shinlariga ega bo`lgan Qirollikga va Litvaga ajralardi. Qirollik polyak yyyerlaridan tashqari ukrain yyyerlariga ham egalik qilardi. Litvada litvaliklardan tashqari beloruslar ham yashardi, shaharlarda nemis va yahudiy aholisi ham ko`pchilikni tashkil qilardi. Katolik dini hukmron din bo`lib, polyak va litvaliklarning katta ko`pchiligi shu dinga e'tiqod qilardi, ukrainlar va beloruslar pravoslav dinida edilar, shaharliklar orasida protestantlar ko`pchilikni tashkil qilardi, yahudiy aholisi ham o`z diniga e'tiqod qilardi. Katolik bo`lmagan aholi siyosiy va boshqa huquqlarga ega emas edi.

Bu davrning katta qismida polyak taxtini chet ellik qirollar egallagan edilar. 1668 yilda Vazlar sulolasining so`nggi vakili Yan II Kazimir taxtdan voz kechgach, faqat ikki marta polyak magnatlarining vakillari – Mixal Koribut Vishnevetskiy (1669-1673) va Avgust III (1733-1763) hukmronlik qildilar. Natijada ko`pincha polyak davlatining manfaatlari sulolalar manfaatlari uchun qurbon qilindi.

Rech Pospolitayaning xalqaro ahvoli murakkab edi, u kuchayib borayotgan va o`z hududlarini kengaytirishni ko`zlayotgan davlatlar bilan qo`shni edi. Bu holat ichki chuqur ziddiyatlar bilan qo`shilib ketib, mamlakatni bir qator qonli urushlar girdobiga tortdi.

Ukraina aholisi ichida milliy ong o`sib, ular milliy, ijtimoiy va diniy zulmda yashashga qarshi chiqdilar. XVII asr o`rtalarida dehqonlar va kazaklarning qo`zg`oloni ozodlik urushiga aylanib, unga getman Bogdan Xmelnitskiy rahbarlik qildi. U bir necha janglardan keyin o`zini pravoslavlarning homiysi va sharqiy slavyanlarning qarindoshi deb hisoblagan Rossiyadan yordam so`radi. 1654 yilda Pereyaslav radasida rus va ukrain xalqlarining birlashganligi e'lon qilinib, shundan keyin bo`lib o`tgan polyak-rus urushidan keyin so`l qirg`oq Ukraina va Kiev Polshadan ajralib chiqdi.

Polyak yyyerlari 1665-1660 yillarda shvedlar bosqiniga duchor bo`ldi. SHved qirolining polyak taxtiga bo`lgan da'vosini dastlab magnatlar va shlyaxtaning bir qismi qo`llab quvvatladi. Lekin shved bosqinchilarining zulmi polyak xalqini kurashga otlantirdi va Yan Kazimir shvedlarni haydab chiqarishga muvaffaq bo`ldi. Urush og`ir oqibatlarni keltirib chiqardi, aholining 30-40 % i xalok bo`ldi, shaharlar vayron qilinib, hunarmandchilik, savdo va madaniyatga katta zarar etkazildi. Bu voqealar davomida kuchayib borgan Brandenburg gertsogligi keyinchalik Prussiya qirolligiga aylanib, Polsha uchun xavfli qo`shni bo`lib qoldi.

SHimoliy urush davrida ham shvedlar yana Polshaga bostirib keldilar. Lekin Pyotr I Avgust II ni pul va qo`shin bilan ta'minlab, shvedlar tomonidan

yuborilgan Stanislav Leshinskiyga qarshi kurashda yordam berib, polyak taxtini saqlab qolishiga ko`maklashdi. 1709 yildagi Poltava jangidan keyin shvedlarning polyak yyyerlariga bo`lgan da'vosi yo`qqa chiqarildi. Harbiy jihatdan Polshaga nisbatan katta ustunlikka ega bo`lgan Rossiya davlati uning sharqiy qo`shnisiga aylandi. Janubda esa polyaklarning Turkiya bilan harbiy to`qnashuvlari davom etdi. Faqat YAn Sobeskiyning 1683 yilda Vena yonida turklar ustidan qozongan ajoyib g`alabasi Turkiyaning Polshaga qarshi bosqinchilik harakatlarini to`xtatdi.

Polsha barshchina tizimiga asoslangan agrar mamlakat edi. Pomeshchiklar qishloq xo`jalik mahsulotlarini chet ellarga chiqarar edilar. Mamlakatni xarobaga aylantirgan urushlar, qaram dehqonlarning unumsiz mehnati, tuproq hosildorligining pasayib ketishi qishloq xo`jalik mahsulotlari eksportining qisqaribketishiga olib keldi. Dehqonlar ommasining og`ir ahvoli va shaharlarning vayron qilinishi shusiz ham rivojlanmay qolgan ichki bozorni yanada yomonlashtirdi. Dehqonlar birlashib olib, o`z noroziliklarini qishloqlardan qochib ketish, barshchinaga borishdan bosh tortish va hatto isyonlar shaklida namoyish qilardilar. Dehqonlarning ana shunday katta qo`zg`olonlaridan biri 1651 yilda Podgaleda Stanislav Naperskiy boshchiligida bo`lib o`tgan edi. Hukmron tabaqa ichida boy magnatlar bilan shlyaxta ommasi ichida tafovut kuchaydi. Ersiz golitba shlyaxtasi qatlami shakallanib, ular magnatlar saroyiga yoki qo`shinga xizmat qilishga borardi.

SHu bilan birga mamlakatda magnatlar oligarxiyasining ta'siri kuchayib bordi. Ular mamlakatda islohotlar o`tkazishga bo`lgan harakatlarga qattiq qarshilik ko`rsatardilar.

2. Polshada XVIII asr oxiridagi islohotlar. Polshaning taqsimlanib olinishi.

Polshadagi islohotlar Stanislav Avgust Ponyatovskiy (1762-1795) hukmronligi davrida boshlandi. Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan ba'zi jonlanishlar ham islohotlar o`tkazilishiga ijobiy ta'sir ko`rsatdi. Ekin maydonlari kengaydi, hosildorlik oshdi, barshchinani obrok bilan almashtirish jarayoni kuchaydi, o`rtahol shlyaxtalarning mavqei oshdi, shaharlar tiklanib, aholi soni o`sdi, manufakturalar qurilib, hunarmandchilik rivojlandi. Ijtimoiy ongda ham o`zgarish yuz berdi. Jamoatchilikning ilg`or qismi G`arbdan kelayotgan Ma'rifatparvarlik g`oyalarini o`zlashtirib bordi. Milliy ziyolilar shakllana

boshladi. Qirol va ma’rifatli magnatlar Yevropa darajasida rivojlanayotgan ta’lim va madaniyatga homiylik qilardilar.

Talantli siyosatchi bo`lgan Stanislav Avgust islohotlarni amalga oshirishda mustaqil harakat qilishga intildi. Lekin qo`shni davlatlar Polsha ishiga aralashardilar. Rossiya Polshada xo`jayinlik qilishni istardi, Prussiya uning shimoliy va g`arbiy hududlariga suqulib kirishga intilardi. Qo`shni mamlakatlar Polshadagi katolik bo`lmagan aholining huquqlarini katoliklar bilan tenglashtirilishini talab qilardilar. Polshaning o`zida o`zga dinlar konfederatsiyasi tashkil qilinib, qirol dushmanlarini qo`llab quvvatlardilar, Polshaga chet ellik qo`shinlar kiritilardi. Barsk konfederatsiyasi 1768 yilda din va shlyaxtalar erkinligini himoya qilish shiori ostida chiqib, bu bilan birga Polsha mustaqilligiga qilinayotgan xurujlarga ham o`z noroziliklarini namoyish qildilar. SHu vaqtda Ukrainada ham dehqonlar qo`zg`oloni yuz berdi.

Bu voqealar natijasida Polsha 1772 yilda Prussiya, Avstriya va Rossiya tomonidan birinchi marta taqsimlanib olindi. Bu taqsimlab olinish o`tkazilishi kerak bo`lgan islohotlarning qiyinchiliklarini va kechiktirib bo`lmasligini ko`rsatdi. Magnatlar, ma’rifatli shlyaxtalar, shaharliklar, iqtidorli publitsistlar va qat’iyatli siyosatchilardan iborat kuchli vatanparvarlik partiyasi shakllandi. 1788-1792 yillardagi To`rt yillik seym davlat qurilishi, qo`shinni tashkil qilish, moliya, fuqarolik huquqlari sohalarida katta o`zgarishlar qildi. Islohotchilik harakatinineg eng katta yutug`i 1791 yil 3 mayda qabul qilingan Konstitutsiya bo`ldi. Bu Konstitutsiya vorisiy monarxiya va ishga layoqatli seymni ta’sis etdi hamda shaharliklarga bir qator huquqlarni berdi, dehqonlar ustidan hukumat va qonun vasiyligini o`rnatdi.

Polshadagi milliy yuksalish va islohotlar, XVIII asrdagi frantsuz inqilobining ta’siri ostida jamiyatning radikallashishi mamlakat ichida va uning tashqarisida qattiq qarshilikga uchradi. Bir guruh magnatlar Ekaterina II homiyligi ostida eski tartiblarni qayta tiklash uchun Targovits konfederatsiyasini e’lon qildilar. Polsha bilan Rossiya o`rtasida urush kelib chiqdi. Stanislav Avgust

Ekaterina II ning taziyqi ostida konfederatsiyaga qo`shildi. Prussiya va Rossiya 1793 yilda Rech Pospolitayaning bir qismini yana o`z hududlariga qo`shib oldilar.

1794 yil 24 martda Krakovda Tadeush Kostyushko boshchiligida milliy qo`zg`olon boshlandi. SHahar aholisi quyi qatlamlarining chiqishlari boshlanib, Varshava va Vilnoda xalq ommasi vatan xoinlarini jazoladi. Polyak Yakobinchilari keskin shiorlar bilan (shu jumladan dehqonlarni ozod qilish) chiqdilar. Kostyushko "Polanets universali"ni e'lon qilib, dehqonlarni shaxsan ozod qildi va barshchinani qisqartirdi (bu shlyaxtaning noroziligini keltirib chiqardi). Harbiy harakatlar polyaklar uchun muvaffaqiyatsiz kechdi. Kostyushko qo`shini Matseyovits yonida mag`lubiyatga uchradi va u yarador bo`lib, ruslar tomonidan asir qilib olindi. Rus armiyasi qo`mondoni Suvorov noyabrda Varshavani egalladi. 1795 yilda Avstriya, Prussiya va Rossiya Rech Pospolitayani uchinchi marta taqsimlab oldilar va Polsha davlatini tugatdilar.

3. Polyak xalqining XIX asrdagi milliy ozodlik kurashi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi Yevropa urushlari davrida polyak vatanparvarlari vatan mustaqilligini tiklashga harakat qildilar. Muhojirlikda tashkil qilingan polyak legionlari Frantsiya tomonida turib jang qildi. Polyak qo`shinlaridan o`z maqsadlari yo`lida foydalanishdan manfaatdor bo`lgan Napoleon Varshava knyazligini tashkil qilib, 1807-1809 yillarda ilgari Prussiya va Avstriya tomonidan tortib olingan polyak yyyerlarining bir qismini ham unga qo`shib yubordi. Napoleon Varshava knyazligida o`sha davr uchun progressiv bo`lgan Konstitutsiyani joriy qildi, o`z Fuqarolik kodeksini joriy qildi (dehqonlarning krepostnoy qaramligi bekor qilindi), zamonaviy boshqaruv va armiyani tashkil qildi. Bu armiya 1812 yilda Rossiyaga qarshi yurishda ishtirok etdi va Napoleon taxtdan tushguncha u bilan birga bo`ldi.

Vena kongressi 1815 yilda polyak yyyerlarini qaytadan taqsimlab, ularni yana yuz yillar davomida chet el monarxiyalari tarkibida qolishini mustahkamlab qo`ydi. prussiya buyuk polsha, pomore va boshqa hududlarni o`z qo`lida saqlab qoldi, avstriya galitsiyaga (bu erda nafaqat polyaklar, balki ukrainlar ham yashardi)

xo`jayinlik qilardi. rossiya 1795 yilda bosib olgan litva, belorus va ukrain aholisi yashaydigan hudularga endilikda etnik polyaklar erini ham qo`shib oldi hamda ulardan rossiya bilan sulolaviy uniya (ittifoqchilik) asosida polsha qirolligini tashkil qildi. qirollikning poytaxti varshava bo`lib, u o`z konstitutsiyasi, seymi, armiyasi va alohida boshqaruviga ega edi.

Polyak yyyerlarining taqsimlanib olinishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot omillarini nafaqat ichki vaziyat va omillarga, balki uni asoratga solgan davlatlardagi vaziyatga ham bog`liq qilib qo`ydi. Bu jarayonning mohiyati barcha hududlarda bir xil bo`lib, u feodalizmdan kapitalistik ishlab chiqarishga o`tishni tashkil qilardi, lekin uning sur'ati va xarakteri turlicha edi. Mintaqalar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarning buzilishi, chet elliklar ma'muriyatining milliy intilishlarni bostirishga urinishlari millatning shakllanishiga to`sqinlik qilardi. Lekin shu bilan birga xalqning ma'naviy jihatdan yaxlit bir butun ekanligini anglashga yordam bergan omillarning – til birligi, jamiyatning turli qatlamlari ichida kuchayib borayotgan milliy o`zlikni anglash, aholining ko`pchilik qismi e'tiqod qiluvchi katolik dini, ko`p asrlik boy tarixiy an'analar, yagona milliy adabiyot kabilarning roli va ahamiyati kuchaydi. Bularning hammasi milliy mustaqillikni tiklash g`oyalarini yanada kuchayishi uchun shart-sharoit yaratdi. X1X asrning katta qismi milliy qo`zg`olonlar davri bo`lib, garchi ular g`alaba qozonmasada, milliy his-tuyg`ularni qo`llab-quvvatlab va keskinlashtirib turdi.

X1X asrning birinchi yarmida polyak yyyerlarida sanoat taraqqiyoti sekinlik bilan bordi. Sileziya, Dombrov okrugi, Galitsiyadagi tuz konlarida qazib oluvchi tarmoqlar rivojlandi. Polsha Qirolligida qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash, to`qimachilik tarmoqlari rivojlandi. Agrar munosabatlarda ham o`zgarish yuz berib – dehqonlarga shaxsiy erkinlik berildi, lekin ular erga ega bo`lmadilar va ilgarigi majburiyatlarni bajarar edilar.

Dastlab Polsha Qirolligida polyaklar uchun iqtisodiy va madaniy sohalarda erkin faoliyat yuritish uchun katta imkoniyatlar ochildi.

Lekin, hatto bu yerdagi cheklangan erkinliklar ham Rossiya imperiyasida hukm surayotgan tartib-qoidalarga zid edi. Ma'muriy zo'ravonlik, konstitutsiyaning

buzilishi, seym huquqlariga xuruj qilish va muxolifatni bostirish, armiya qo'mondoni, aslida Qirollikdagi hokimyatni o'z qo'liga olgan buyuk knyaz Konstantinning o'zboshimchaligi – bularning hammasi Polsha jamiyatida norozilikni kuchaytirdi. Buning ustiga shlyaxta taqsimlab olish natijasida tortib olingan va ko'p sonli (dehqon bo'lmagan) polyak aholisi yashaydigan hududlarni ham Qirollikga qo'shib olishga umid qilardi. Qirollikda yashirin jamiyatlar tashkil topa boshladi (ular qatorida dekabristlar bilan aloqa o'rnatgan Vatanparvarlik jamiyati ham bo'lib, u 1825 yildan keyin tor-mor qilingan edi). 1830 yil noyabrda Frantsiya va Belgiyadagi inqiloblar ta'siri ostida Varshavada qo'zg'olon ko'tarildi.

Lekin polyak jamiyati ichidagi ziddiyatlar qo'zg'olonning kengayib borishiga to'sqinlik qildi. Qirollik amaldorlari imperator bilan kelishishga umid qilardilar, generallar qa'tiyat ko'rsatmadilar, seym faqat quyi qatlamning taziyqi ostida Nikolay 1 ni taxtdan chetlatish to'g'risida qaror qabul qildi. Ko'pchilik shlyaxtaning qarshi bo'lganligi sababli demokratlarning milliy ozodlik uchun kurashni ijtimoiy islohotlar bilan qo'shib olib borish haqidagi takliflari amalga oshmadi, chetdan kutilgan yordam esa kelmadi. Polsha va Rossiya armiyalari o'rtasidagi urush bir necha oy davom etdi. Rus qo'shinlari 1831 yil sentabrda Varshavani shturm bilan egalladilar, shundan keyin qatag'on qilishlar amalga oshirildi. 1832 yilda Qirollik konstitutsiyasi Organik statut bilan almashtirilib, unga ko'ra Polsha Qirolligi Rossiya imperiyasining rus ma'muriyati tomonidan boshqariladigan qismiga aylantirildi.

Lekin Polshadagi qo'zg'olon Yevropa reaktsiyasiga sezilarli zarba berib, Polsha masalasiga diqqatni jalb etdi va demokratiya uchun umumYevropa kurashida polyaklarning ishtirok etish g'oyasini ilgari surdi ("Biz va sizning ozodligingiz uchun"). G'arbda ko'p sonli polyak muhojirligi shakllanib u hurfikrlilik va madaniyat markaziga, siyosiy kurash maydoniga aylandi. Bu jarayon natijasida konservativ partiya (A.CHartorskiy rahbarligidagi bu partiya diplomatiyaga, davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarga umid qilardi) va demokratik lager (eng katta ta'sirga ega tashkilot – Polsha demokratik jamiyati) shakllandi. Bu lager polyak yerlarida targ'ibot va tashkilotchilik faoliyatini olib borish orqali bu yerlarda yangi inqilobiy yuksalishni

keltirib chiqarishga intilardi. Bu lager milliy va ijtimoiy inqiloblar g'oyasini ilgari surdi.

Hukumat vatanparvarlik jamiyatlarni va kayfiyatlarni qo'llab-quvvatlasada, yashirin faoliyatni qattiq ta'qib ostiga olardi. Millatni saqlab qolish uchun kurashning boshqa shakllarini izlash ham davom etardi. Jumladan, "organik mehnat" tarafdorlari iqtisodiyotni jonlantirish, xo'jalik yuritishning zamonaviy uslublarini joriy qilish, maorif va madaniyatni rivojlantirish takliflari bilan chiqdilar.

Demokratlar 1846 yilning boshida Polshaning barcha qismlarida qo'zg'olon ko'tarishni rejalashtirgan edilar. Qo'zg'olonni tayyorlashda chet eldagi polyak muhojirlari vakillari bilan birga yangi avlod konspiratorlari ham ishtirok etdi. YAngi avlod bu qo'zg'olonga dehqonlarni ham jalb etish, ularga er va fuqarolik huquqlarini berish tarafdorlari bo'lib, fevralda Krakovda tashkil qilingan isyonchilar hukumati bu haqda manifest chiqargan edi. Lekin Avstriya hukumati tomonidan gij-gijlangan dehqonlar ommasi shlyaxtaga qarshi kayfiyatda bo'lib, qo'zg'olonchilarga qarshi chiqdilar, ular pomeshchiklar mol-mulklariga o't qo'yib, ularni o'ldirdilar. Natijada qo'zg'olon boshlanmasdanoq mag'lubiyatga uchradi.

Yevropada 1848 yildagi inqilobiy voqealar polyak vatanparvarlarining faolligini oshirdi. Galitsiyada imperatorga petitsiya yuborish uchun imzo to'plandi, bunga javoban siyosiy mahbuslar ozod qilindi, barshchina bekor qilinganligi e'lon qilindi. Lekin Galitsiyada tashkil qilingan milliy tashkilotlar tugatildi. Prussiyadagi inqilobdan keyin Poznanda Markaziy milliy komitet tuzildi va polyaklarning qurolli otryadlari tashkil qilindi. Lekin Germaniyadag inqilob pasaygach polyaklarning harakati bostirildi. Polyak muhojirlari Frantsiya va Italiyadagi inqilobiy voqealarda ishtirok etdilar, polyak ko'ngillilari Vengriyadagi inqilobda qatnashdi.

1848 yil voqealari Polsha Qirolligiga yoyilmadi. Bu erda milliy harakat faqat chor Rossiyasi Qrim urushida mag'lubiyatga uchrab va Rossiyada islohotlar boshlanganidan keyin boshlandi. Bu vaqtga kelib Qirollikda turli siyosiy yo'nalish tarafdorlari tashkil topgan edi. Muxtoriyatga erishish uchun Peterburg bilan hamkorlik qilish tarafdorlari bor edi (unga A.Velepolskiy rahbarlik qilardi). Liberal shlyaxta va burjuaziya (ularni "oqlar" partiyasi deb atardilar) islohotlar va

mustaqillik tarafdori bo’lib, lekin bunga tinch yo’l bilan erishish tarafdori edilar. 50-yillarning oxiri – 60-yillarning boshida qo’zg’olon tarafdorlari shakllanib (“qizillar”partiyasi), ular 1772 yildagi mustaqil Polshani tiklash, tub ijtimoiy o’zgarishlarni amalga oshirishga chaqirardilar. Ular demokratik muhojirlik bilan, eng radikallari esa (YA.Dombrovskiy, Z.Padlevskiy, Z.Serakovskiy va b.) Rossiyadagi demokratik harakat bilan aloqada edi. Inqilobiy kayfiyat vatanparvarlik namoyishlarida va yashirin tashkilotlar tarmog’ini tashkil qilinishida namoyon bo’lardi.

Qo’zg’olonga tayyorgarlik oxiriga etmasdan turib, 1863 yil yanvarda boshlanib ketdi. Hukumat tomonidan o’tkazilishi ko’zda tutilgan rekrutlik qo’zg’olonchilar kuchini kamayib ketish xavfini keltirib chiqargani qo’zg’olonni erta boshlanishiga sabab bo’ldi. Qo’zg’olonchilar rus garnizonlariga hujum uyushtirdilar. Milliy hukumat tuzilib, milliy ozodlik uchun kurashga chaqiruvchi manifest chiqarildi va dehqonlar manfaatini ko’zlovchi er islohoti e’lon qilindi. Kuchlar teng bo’lmasligiga qaramasdan (polyaklarda doimiy armiya va zarur qurol-yarog’ yo’q edi) harbiy harakatlar partizanlik kurashiga aylanib, butun 1863 yil davomida va qisman 1864 yilda davom etdi.

CHor Rossiyasi qo’zg’olonni bostirdi va polyaklarga qarshi shafqatsiz qatag’onlarni amalga oshirdi. YUzlab qo’zg’olonchilar qatl qilindi, minglab odamlar katorga va surgunga yuborildi. Qirollikning ma’muriy alohidaligining so’nggi qoldiqlari ham tugatildi, polyak tili va madaniyatiga qarshi xurujlar boshlandi. Lekin shu bilan birga chor hukumati hali qo’zg’olonni bostirish yakuniga etmasdan turib 1864 yil martida agrar islohot o’tkazib, dehqonlar tomonidan ishlov berilib kelayotgan yerlarni ularning mulkiga aylantirdi.

Germaniya hukmronligi ostidagi polyak aholisining ahvoli ham og’ir edi. Maktablar va boshqa jamoat tashkilotlari nemislashtirildi, nemislarga berish uchun polyaklardan yerlarni sotib oish yo’lga qo’yildi.

Galitsiyada ahvol ancha yaxshi bo’lib, bu erda seym faoliyat ko’rsatardi, maktablarda polyak tilida o’qitish yo’lga qo’yilgan bo’lib, hokimyat polyaklarning mulkdor sinflaridan o’ziga tayanch izlardi.

Polyak yerlarining iqtisodiy taraqqiyoti ham turlicha edi. Ulkan rus bozori imkoniyatlariga tayangan holda Polsha Qirolligida sanoat intensiv rivojlanib bordi. Temir yo'llar qurildi, aktsionerlik jamiyatlari va banklar tashkil qilindi, chet el sarmoyasi jalb etildi. Germaniya va Avstriya hukmronligi ostidagi polyak yerlarida (Sileziyadan tashqari) sanoat uncha katta rol o'ynamadi. Qishloq xo'jaligida qishloqda tabaqalanish yuz berib, ersizlar soni oshib, ular batraklarga aylanardilar yoki shaharlarga ketardilar. Galitsiyada kam erli dehqonlarning ommaviy muhojirligi yuz berdi.

Germaniya hukmronligi ostidagi yerlarda dehqonchilik ancha yuqori darajaga erishgan bo'lib, umumgerman bozoriga kirishga muvaffaq bo'lgan yirik xo'jaliklar yangi agrotexnika va mashinalardan foydalanish imkoniyatlariga ega edilar.

Kapitalistik taraqqiyot natijasida ijtimoiy kuchlar nisbati ham o'zgardi. O'z mashg'ulot turini o'zgartirgan va qisman sinfiy qiyofasini yo'qotgan shlyaxta hukmron mavqeini yo'qotib, burjuaziya kuchaydi. Ishchilar harakati o'zining dastlabki qadamlarini tashladi. Dehqonlar ommasi ham o'z huquqlari uchun kurashga o'tdilar.

4. Polyak yerlari XIX asr oxiri XX asr boshida.

Rossiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya monarxiyalari hukmronligi ostida yashayotgan polyak xalqi oldida X1X asrning so'nggi o'n yilligi va XX asr boshida o'zlarining xalq sifatida milliy mavjudligini saqlab qolish masalasi turardi. Isyonchilik kurashi davri tugadi. Xalqaro munosabatlarda Polsha masalasi avvalgidek muhim rol o'ynamas edi. Mamlakatning turli hukmron davlatlar tarkibida bo'lgan mintaqalari o'rtasidagi tafovutlar kuchaydi. SHu bilan birga polyak tili va madaniyati chet davlatlar zulmi ostida bo'lgan polyak yerlarini birlashtiruvchi omil bo'lib qolmoqda edi. Katolik dini polyak yerlarida katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, millatni saqlab qolish omillaridan biri edi.

Polyak yerlaridagi milliy zulm va ijtimoiy hayot shakllari Polshani bosib olgan davlatlardagi vaziyat bilan bevosita bog'liq edi. CHor hukumati Polsha Qirolligida qatag'onlar siyosatini davom ettirib, intensiv sur'atda ruslashtirish

siyosatini olib bordi. Polyaklardan bo'lgan davlat xizmatchilari rus amaldorlari bilan almashtirildi. Deyarli hamma vaqt harbiy holat saqlanib qoldi. Polyaklar yashaydigan yerlar yangi nom – Vislabo'yi o'lkasi deb ataldi. Maktablarda rus tilida o'qitish joriy qilindi. Sud va ma'muriy boshqaruv idoralarida ish yuritish rus tilida olib borilardi. Rossiya imperiyasi tarkibidagi gubernalarda yashovchi polyak aholisining ahvoli bundan ham og'ir edi.

Germaniya imperiyasida ham polyak tili quvg'in ostiga olindi, rasmiy tashkilotlarda polyak tilidan foydalanish taqiqlangan edi. Maktablar ham nemislashtirildi. Kulturkampf doirasida katolik cherkovning ta'sirini kamaytirishga harakat qilindi. 1886 yilda Mustamlakachilik (Kolonizatsiya) komissiyasi tuzilib, u polyak yyer egalarining yyerlarini sotib olish va bu yerlarni nemislarga berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Polyak tilida yig'ilishlar o'tkazish taqiqlanib, polyak matbuoti quvg'in ostiga olindi.

Galitsiyadagi polyak xalqining siyosiy va madaniy taraqqiyoti uchun ancha qulay imkoniyatlar mavjud edi. Avstriya-Vengriya imperiyasi tashkil topgach imperator hokimyati polyaklarning mulkdor sinflariga, eng avvalo yirik yyer egalariga tayanishga harakat qildi. O'lka muxtoriyatga ega bo'lib, o'z seymi va Venadagi reyxsratda o'z vakillariga ega edi. Maktablarda polyak tilida o'qitish yo'lga qo'yilgan bo'lib, Krakov va Lvovda universitetlar faoliyat ko'rsatardi.

Polshaning barcha qismlarida qishloq xo'jaligida asta-sekin kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Polsha Qirolligida asr oxiriga kelibpomeshchik yer egaligi ancha qisqardi, qishloqda tabaqalanish yuz berdi, ersiz batraklar soni oshdi. Dehqonchilik madaniyati sekinlik bilan rivojlanib bordi. Galitsiyada ersiz va kam erli dehqonlarning chet ellarga ish izlab ketishlari kuchaydi.

Sanoat taraqqiyoti jihatidan Polsha Qirolligi polyak yerlarining boshqa qismlaridan ancha oldinda turardi. Galitsiya esa sanoat taraqqiyoti jihatidan eng qoloq o'lka hisoblanardi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib polyak yerlarida aholi ijtimoiy tarkibida o'zgarishlar yuz berdi. Dvoryanlar tabaqasi o'zlarining avvalgi

etakchilik mavqeini saqlab qola olmadilar. Burjuaziya kuchayib, o'z manfaatlarini himoya qilib chiqa boshladi. Dehqonlar ham o'z huquqlarini himoya qilishga harakat qila boshladilar. Sanoat proletariatiing o'sishi ishchilar harakatining kuchayishi bilan birgalikda bordi.

Polyak yerlarida oshkora faoliyat olib borish uchun imkoniyat yo'qligi sababli ziyolilar, o'quvchi yoshlar orasida yashirin to'garaklar tashkil topa boshladi. 1787 yilda muhojirlikda o'zining asosiy maqsadi mustaqilik va demokratik erkinliklar uchun kurash ekanligini e'lon qilgan Polyak ligasi tashkil qilindi va u Varshava bilan aloqada edi. Bu tashkilot 1893 yilda Milliy ligaga ("Liga narodova") aylantirilib, jamiyatning turli qatlamlariga o'z ta'sirini o'tkazishga intildi. Uning rahbarlari 1897 yilda Natsional-demokratik partiyani ("endeki") tashkil qildilar.

Galitsiyada siyosiy hayotda monarxiyaga xizmat qiluvchi va pomeshchiklar manfaatlarini himoya qiluvchi konservativ siyosatchilar asosiy rol o'ynardilar. Bu erdagi demokratlar o'z gazetalariga ega bo'lib, konservatorlar boshqaruvini tanqid ostiga olsalarda, ular ancha zaif edilar. Lekin Polshaning boshqa qismlariga nisbatan ancha oldin Galitsiyada dehqonlarning mustaqil harakati tashkiliy jihatdan shakllana boshladi. 1895 yilda dehqonlar partiyasi ("Stronnitstvo lyudove", keyinchalik "Polske stronnitsto lyudove") tashkil topdi.

Germaniya hukmronligi ostidagi polyak yerlarida polyak aholisi turli shirkatlarda (kredit, iqtisodiy, ma'rifatchilik va b.) birlashib, faoliyatning oshkora shaklidan foydalanardilar. Siyosiy hayotda germanlashtirishga qarshi turish uchun milliy jihatdan birlashish g'oyalarini ilgari surgan pomeshchiklar va ruhoniylar uzoq davr etakchilik rolini o'ynadilar. Milliy liga Polsha Qirolligi va Galitsiyadan keyin bu yerlarga ham o'z faoliyatini yoydi.

Bu davrda polyak ishchilarining harakatlari ham o'sib bordi. Lyudvik Varinskiy (ishchi bo'lgan) 1882 yilda Varshavada xitobnma nashr qilib, unda "Proletariat" sotsial-inqilobiy partiyasi tuzilganligini e'lon qildi. Sotsialistik inqilob partiyaning maqsadi deb e'lon qilindi. Yashirin tashkilotlar tuzish, ish tashlashlar kurash shakllari deb e'tirof qilindi, shu bilan birga terrorga ham yo'l

qo’yilishi ko’rsatildi. 1886 yilda bo’lib o’tgan sud bu partiyaning 4 nafar rahbarini qatl qilishga, boshqalarini katorgaga hukm qildi. Varinskiy 3 yildan keyin Shlisselburg qal’asida vafot etdi. 1892 yilda Varshavadagi tashkilotlar Polsha sotsialistik partiyasiga (PSP) birlashdilar. Polsha Qirolligi hududida yana bir sotsialistik partiya – Bund faoliyat ko’rsatardi.

Galitsiyada 1892 yilda Polsha sotsial-demokratik partiyasi (PSDP) tashkil qilindi.

14 – MAVZU: JANUBI-SHARQIY YEVROPA XALQLARI XVII ASRNING IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHIDA

Reja: 2 soat

1. Janubi-Sharqiy Yevropa va Usmoniylar imperiyasi.
2. Janubiy slavyanlar Gabsburglar monarxiyasi tarkibida.
3. Janubiy slavyanlarning milliy uyg’onishi.
4. Avstriya-Vengriyaning janubiy slavyan yerlari XIX asr 2-yarmida.

1. Janubi-Sharqiy Yevropa va Usmoniylar imperiyasi.

XVII asrda deyarli barcha Janubi SHarqiy Yevropa Usmoniylar hukmronligi ostida edi. Faqat Dubrovnik Respublikasi (Raguza) va CHernogoriya nisbiy mustaqillikka ega edilar. XVII - XVIII asrlarda Dunay knyazliklari ustidan turk sultonining zulmi yanada kuchayib borayotgan edi. Dalmatsiya va Ioniya orollari ustidan Venetsiyaning hukmronligi o’rnatilgan edi. Markaziy Yevropaga bostirib kirgan turklar XVI asrdayoq Vengriya qirolligining katta qismini (Buda va Pesht bilan birgalikda), Vengriyaning muxtor hududi bo’lgan Xorvatiya qirolligini qo’lga kiritgan edilar. Lekin ularning Zagrebni egallashga bo’lgan urinishlari xorvatlarning qarshiligi natijasida amalga oshmay qoldi. Janubi sharqdan kelayotgan xavf xristian davlatlarini birlashishga bo’lgan intilishlarini yuzaga chiqardi: Vengriya va Xorvatiyaning “qoldiqlarining qoldiqlari” Gabsburglarning Avstriya davlati

tarkibiga kirdi. Venani qamal qilgan turk qo'shinlari Avstriya va Polsha qo'shinlari tomonidan tor - mor etilgach (1683 y), avstriyaliklar turklarni Vengriya va Xorvatiyadan quvib chiqardilar.

Navbatdagi Avstriya-Turkiya urushidan keyin, 1690 yilda patriarx Arseniy boshchiligidagi o'n minglab serblar oilalari bilan Sava va Dunay daryolaridan o'tib Vengriyaning urushlar tufayli huvillab qolgan janubiy viloyatlariga ko'chib keldilar (Bachka, Banat, Srem). Avstriyaliklar XVI - XVIII asrlarda Vengriya va Xorvatiyaning janubiy chegaralarida turklar hujumlarini qaytarish uchun harbiy majburiyatli dehqonlar (granichar) manzilgohlaridan iborat hudud - Harbiy chegarani tashkil qildilar.

XVIII asr oxiriga kelib (1878 yilgacha) Sava va Dunay bo'ylab o'tgan Avstriya-Turkiya chegarasi barqarorlashdi. Napoleon urushlaridan keyin aholisi asosan katolik-xorvatlar va pravoslav serblardan iborat bo'lgan Dalmatsiya Dubrovnik bilan birgalikda Avstriya imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. SHunday qilib janubiy slavyan yerlari 2 ta mintaqaga – Avstriya va Turkiya tarkibidagi mintaqalarga ajraldi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan hamda milliy madaniyatning rivojlanish shart-sharoitlari jihatidan bir-biridan farq qilardilar.

Bolqon mintaqasi taqdiriga Usmoniylar imperiyasi bilan xristian davlatlari o'rtasida o'rta asrlardayoq yuzaga kelgan qarama-qarshilik katta ta'sir ko'rsatdi. XVIII asrning birinchi yarmida turklar xristian davlatlariga qarshi ancha muvaffaqiyatli kurash olib bordilar, ular Pyotr 1 ni mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'ldilar (1709 y). Avstriyaning mashhur sarkardasi Evgeniy Savoyskiy 1716-1719 yillarda turklarga qarshi muvaffaqiyatli jang olib bordi. Lekin turklar 1735-1739 yillarda qo'ldan boy berilgan yerlarni qaytarib olishga erishdilar.

Usmoniylar imperiyasining asosiy dushmani bo'lgan Rossiyaning Bolqonda paydo bo'lishi bilan muvaffaqiyat qat'iy ravishda turklarning dushmanlari tomoniga o'tdi.

1768-1774, 1787-1791, 1806-1812, 1828-1829, 1877-1878 yillarda bo'lib o'tgan urushlarda g'alaba ruslar tomonida bo'ldi, faqat Qrim urushida (1853-1856) Rossiya bir marta mag'lubiyatga uchradi. Turk sultoni hokimyatining zaiflashishi

uning Janubi-SHarqiy Yevropadagi mavqeining emirilishi va bu erdagi xalqlarning ozod qilinishi bilan birga bordi.

2. Janubiy slavyanlar Gabsburglar monarxiyasi tarkibida.

Gabsburglarning g'arbiy hududlarida XVIII asrda burjua munosabatlari va u bilan birgalikda aholining madaniy darajasi ancha tez bordi. Bu yerlarga asosan Alp oldi hududlari – sloveniyaliklar yashaydigan Krayna, SHtiriya, Karintin va Pomorya (X1X asrning 30-yillaridan boshlab sloveniyalik milliy arboblar bu hududlarni Sloveniya deb atay boshladilar) kirardi. Bu yerlarda qadimdan tog'-kon ishlari rivojlangan bo'lib, manufaktura ishab chiqarishi paydo bo'ldi. Pomeshchiklar va yirik savdo-sanoat burjuaziyasi asosan nemislar va italyanlardan iborat bo'lib, dehqonlar ommasi, mayda va o'rta qishloq xo'jayinlarining katta qismini, shuningdek hunarmandlar va savdogarlarni sloveniyaliklar tashkil qilardi.

Avstriyadagi boshqa, sharqiy hududlardagi janubiy slavyan yerlarida (Tisa va Dunay daryolari bo'ylab) XVII asrda serb xalqining iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar sohalaridagi muhim viloyati – Voevodina shakllandi. O'sha davrdagi Vengriya qirolligining janubi-sharqining bu norasmiy nomlanishi "voevoda" boshchiligida alohida serb siyosiy birligini tashkil qilish dasturi bilan bog'liq edi (dastur Banatdagi Timishoardagi serblar yig'ilishida 1790 yilda ilgari surilgan edi). Voevodinada – Bachka, Banat va Sremning bir qismi – serblar, vengyerlar, ruminlar, nemis-kolonistlar va boshqalar yashardi, serblar bu erda ozchilikni tashkil qilardi. Pomeshchik-feodallar sinfi asosan vengyerlardan iborat edi. Avstriya imperiyasidagi serb aholisining deyarli yarmini granicharlar tashkil qilardi.

Monarxiya tarkibidagi serblar 1690 yilda cherkov-maktab muxtoriyatiga ega bo'ldilar, bu milliy-madaniy muxtoriyat bo'yicha birinchi tajriba edi. Serblar o'z maktablarini va boshqa madaniy tashkilotlarni tuzishlari, cherkov ierarxlarini saylashlari mumkin edi. Lekin mustabid tuzum sharoitida muxtor tashkilotlar imperiya hokimyatining qattiq nazorati ostiga olingan edi. Voevodinada XVIII-XIX asrlarda melioratsiya ishlarining kuchaytirilishi natijasida u Avstriya imperiyasining asosiy qishloq xo'jalik viloyatiga aylandi. 1848 yilga kelib bu erda asta-sekinlik bilan

burjuacha ijarachilik va xutor xo'jaligi joriy qilina boshlandi. Uncha katta bo'lmagan sanoat asosan dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash bilan cheklanardi (tegirmonlar va b.).

Gabsburglarning janubiy slavyan yerlari o'rtasida Xorvatiya markaziy o'rinni egallardi. Bu erda milliy dvoryanlik saqlanib qolgan bo'lib, butun Vengriya qirolligida bo'lgani kabi, feodal konstitutsiya amal qilardi: amaldorlarni saylab qo'yuvchi dvoryanlarning o'z-o'zini boshqaruv organi – xorvat sabori (vakilllik yig'ilishi), jupaniya (viloyat, komitat) skupshinalari bor edi. Ma'muriyatni ban – imperatorning (venger-xorvat qirolining) vakili boshqarardi. Mamlakatda agrar soha rivojlangan bo'lib, g'allachilik, uzumchilik rivojlangan edi. Dunay va Sava daryolari bo'ylab, quruqlikdagi yo'llar orqali don, o'rmon mahsulotlari, charm va boshqa mahsulotlar tashilardi.

Qo'shni Dalmatsiyada uzumchilik bilan bir qatorda elkanli kemasozlik va dengiz kemachiligi xo'jalikning muhim tarmoqlari edi. Xorvatiyaning va u bilan qo'shni bo'lgan Harbiy chegarada serb aholisining katta qismi xorvatlar bilan aralashib yashashi bu erda o'ziga xos alohidalikni tashkil qilib, u X1X-XX asrlarda xorvat-serb munosabatlarida bir qator murakkabliklarni keltirib chiqardi.

3. Janubiy slavyanlarning milliy uyg'onishi.

Janubiy slavyanlarning milliy uyg'onishi. Feodalizmning inqirozi va burjua munoasabatlari hamda bozor aloqalarining rivojlanishi sharoitida janubiy slavyanlarda milliy ong va madaniyatning jonlanishi ko'zga tashlanib, milliy harakat mafkurasi shakllanib, siyosiy dasturlar ilgari surildi.bunda boshqa savyan xalqlariga e'tibor kuchaytirilib, ular bilan hamkorlik qilish g'oyalari ("o'zaro aloqadorlik") targ'ib qilindi. Rus madaniyatiga qiziqish milliy hayotning doimiy xususiyatiga aylandi. X1X-XX asr boshlarida Gogol, Pushkin, Turgenev, Tolstoy asarlarining tarjimalari ko'payib bordi, Glinka va CHaykovskiy musiqalari ijro qilinardi.

Ming yillar davomida nemislar hukmronligi ostida qolib kelgan slovenlarda XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida o'z milliy umumiyligini (birligini) anglash ongi tarqaldi. SHakllanib kelayotgan diniy va dunyoviy ziyolilar bu umumiylikni xalq o'rtasida targ'ib qildilar. Tarixchi Anton Linxart (1756-1795) va filolog Erney

Kopitar (1780-1844) milliy g'oyani asoslab berish uchun katta ishlar qildilar. Napoleon 1 tomonidan bosib olingan slovenlar erining katta qismi 1809-1813 yillarda Illiriya provintsiyasiga birlashishi milliy o'zlikni anglashga yordam berdi. YAnez Bleyveys 1844 yilda "Novitse" nomli sloven gazetasini chiqara boshladi.

Xorvatiyada dvoryanlar siyosiy an'analari uzluksiz davom etdi. Konservativ feodal dvoryanlar XVIII asr oxiridan madyarlashtirish siyosatiga, eng avvalo boshqaruv organlarida vengr tilini (lotin tili o'rniga) joriy qilinishiga qarshi chiqdilar. Uncha boy bo'lmagan dvoryanlar, shaharliklar, ruhoniylardan chiqqan bilimli kishilar guruhi XVIII asrning o'rtalaridan boshlab milliy ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqa boshladilar, lekin faqat X1X asrning 30-yillaridan boshlab ular jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlana boshlandilar. Illirizm nomli ijtimoiy harakat yuzaga kelib, uning mafkurachilari janubiy slavyanlarning hammasi qadimgi illiriyaliklarning avlodi bo'lgan yagona xalq deb hisoblardilar. Illirizm arboblari "xalq"da turli "tarmoqlar" mavjudligini (xorvatlar, serblar, slovenlar, bolgarlar) tan olgan holda, millatni saqlab qolish uchun janubiy slavyanlarni madaniyat sohasida birlashishga chaqirib, shu bilan birga siyosiy ittifoq tuzishni ham orzu qilardilar. Aptekachining o'g'li Lyudevit Gay (1809-1872) 1835 yilda "Novine xorvatske" bu harakat gazetasini nashr qilib, bu harakatga asos soldi.

Illirizmning ko'pgina arboblari Avstriya va Turkiyaning turli joylarida yashovchi xorvatlardan xorvat millatini birlashtirishga harakat qildilar. Graf YAnko Drashkovich 1832 yilda imperiya tarkibida kuchli Xorvat qirolligini tuzish dasturini ilgari surdi. Illirizm xorvat millatining bir qator talantli arboblarini etishtirib chiqardi, ular qatoriga shoirlar Ivan Majuranich, Stanko Vraz, publitsistlar L.Gay, Lyudevit Vukotinovich, Bogoslav SHulek, tarixchi Ivan Kukulevich va boshqalar kiradi. Milliy klub-qiroatxonalar, kitob nashr qilish uchun jamiyatlar tashkil qilindi. Kukulevich 1843 yil saborda birinchi marta ona tilida nutq so'zlab, bu tilni rasmiy til sifatida tan olinishga chaqirdi. Bu faqat 1847 yilga kelib amalga oshdi.

Lekin dvoryanlar va amaldorlarning bir qismi Vengriya tarkibida qolish tarafdorlari bo'lib, Xorvatiya 40-yillarda illirizm va vengrparast tarafdorlari o'rtasidagi siyosiy kurash maydoniga aylandi.

Voevodina serblari serb xalqining bir qismi sifatida XVIII asrda pravoslav dini va madaniy aloqalar orqali Rossiya bilan bog'langan edi. XVIII asr oxiri – XIX asrda Voevodina serb ijtimoiy harakatining markaziga aylandi. Boy savdogarlar 1826 yilda Avstriya imperiyasidagi slavyanlarning birinchi matbaachilik tashkiloti – Serb matitsasini tashkil qildilar. Voevodina yosh Serb knyazligiga dastlabki huquqshunos va muallimlarni etkazib berdi.

4. Avstriya-Vengriyaning janubiy slavyan yerlari XIX asr 2-yarmida.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sloveniya, Xorvatiya va Voevodinada iqtisodiy jonlanish yuz berdi. Qishloqda dehqonlarning ahvoli og'ir bo'lsada, X1X asrning 80-yilaridan boshlab, ayniqsa XX asr boshlarida dehqonchilik va chorvachilikda burjuacha munosabatlar jadal rivojlanib bordi. Pomnshchiklar mashinalardan tobora ko'proq foydalana boshladilar, boy dehqonlar qatlami batraklarni yollab, xalqaro bozorga kirib bormoqda edilar.

Avstriyaning Frantsiya va Pemont bilan bo'lgan urushda (1859) mag'lubiyatga uchraganidan keyin janubiy slavyanlar yerlarida siyosiy hayot faollashdi. Vena hukumati 1848 yildagi inqilobdan keyin Xorvatiya va Voevodinaning Vengriyadan ajralib chiqqanligini tan olgan edi. Bu bilan xorvatlar va serblarda milliy huquqlarni kengaytirish umidi paydo bo'ldi, lekin 60-yillarga kelib Gabsburglarning kuchli vengr dolryanlari bilan murosaga kelishdan manfaatdor ekanligi ma'lum bo'lgach, janubiy slavyanlarning muxolifatchi guruhlarining faolligi oshdi.

Xorvatiya sabori 1861 yilda Frants Iosifning markazlashtirish siyosatini rad etdi, serblar o'rtasida esa Voevodinaning tugatilishi (1860 y) va uni Vengriya qirolligi tarkibiga qaytarilishi qattiq norozilikni keltirib chiqardi.

Xorvat "narodnyaklari" 1861 yilda Avstriya-Vengriya monarxiyasi tashkil topishi arafasida Serbiya va Chernogoriyaning usmoniylarga qarshi siyosatini qo'llab-quvvatlashga va federativ Yugoslaviyani tuzishga tayyor ekanligini bildirdilar. Lekin 1868 yilda Avstriya-Vengriya hukumati tomonidan xorvatlarga venger-xorvat bitimi qabul qildirilib, unga ko'ra Xorvatiya Vengriya doirasida ma'muriy-sud va madaniy muxtoriyatga ega bo'ldi. Xorvatiyaning iqtisodiyoti va

moliyasi Vengriya hukumati qo'lida bo'lib, Vengriya bosh vaziri qirolga xorvat banining nomzodini ko'rsatardi. Xorvatiyaning mahalliy dvoryanlari, ayniqsa yirik yyer egalari yangi sharoitda o'zlarining ijtimoiy-siyosiy mavqelarini va imtiyozlarini saqlab qolish uchun venger hokimyatiga hayrihoh bo'lib, Vengriyaning Xorvatiyadagi hukmronligining tayanchi edilar.

Xorvatlar madaniyat sohasida ikkita yirik muvaffaqiyatga erishdilar: 1866 yilda Zagrebda Yugoslaviya san'at va fanlar akademiyasi tashkil qilindi, 1874 yilda esa universitet ochildi. Bu janubiy slavyanlardagi ana shu darajadagi dastlabki tashkilotlar edi.

Avstriya-Vengriyada konstitutsion tuzum asoslari o'rnatilganidan ko'p o'tmasdan Harbiy chegara demiliarlashtirildi. Uning sharqiy qismi Vengriyaga qo'shildi (1871 y), g'arbiy qismi Xorvatiyaga qo'shildi (1881 y).

Sloveniyada XIX asrning 60-yillarida milliy harakatning ijtimoiy asoslari ancha kengayib, yana "Birlashgan Sloveniya" shiori o'rtaga tashlandi.

XORIJIY ADABIYOTLAR

1. Новая история стран Европы и Америки. Первый период. / Под ред. А.В.Адо. – М., 1986.
2. Новая история. Второй период. / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. – М., 1984.
3. Новая история стран Европы и Америки. Первый период / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. – М., 1998.
4. Новая история стран Европы и Америки. Второй период / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. – М., 1998.
5. Источниковедение новой иновейщей истории Европы и Америки. М.В.ш. 2006.

INTERNET SAYTLARI

Ревякин А.В. Новая история стран Европы и Америки. М. Высщая школа. 2008. www. ozon.ru

Новая история стран Европы и Америки. XVI-XIX вв. М.В.Ш. 2006. Softodrom. ru

Коллектив авторов. Новая история стран Европы и Америки. XVI-XIX вв. М.В.Ш. 2007. bookz. ru

Новая история стран Европы и Америки. Первый период. М.В.Ш. 2006. www.alleng. ru

Новая история стран Европы и Америки. Начало 1870-1918 г. М.В.Ш. 2006. www.setbook. Ru

Родригес А.М. Новая история Европы и Америки. www.xodbox.ru

http: // grid, rug.nl /ahc/

http: // Librory. Byu. edu/-rdh/eurodocs/

http: // history.hanover,edu/texts.htm

http: // www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html

http: // english www. hss. cmu. edu/history

http: // www.ukans.edu/history/vl/

http: // www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml

http: // www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/

http: // classics.mit.edu.

http: // www.washlaw.edu/forint/

www. talant.spb.ru.wald.html

www.shool.edu.ru

www.inter-pedagogika.ru

www. wwings.ru

www.ppf.uni.udm.ru

ANNOTATSIYA

«Yangi tarix» fani insoniyat umumiy tarixining XVII asr o’rtalaridan XX asr boshlarigacha bo’lgan davrni o’z ichiga olib, tarixiy mezonlar bilan olinganda ancha qisqa davr hisoblansada, aynan shu davrda insoniyat tarixida katta iz qoldirgan bir qancha tarixiy voqealar bo’lib o’tdi. Yangi davrda ro’y bergan burjua inqiloblari jamiyat hayotida yangi bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani – bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat asoslarini yaratdi.

Yangi davrga xos bo’lgan yangiliklardan yana biri, bu davrga kelib sanoat to’ntarishi natijasida ming yillardan beri davom etib kelayotgan an’anaviy qo’l mehnati o’rniga mashina mexanizmlardan keng foydalanish yo’lga qo’yildi.

Yangi davrga kelib dinning jamiyatdagi hukmronlik mavqei ham zaiflashdi. Ilm-fanning rivojlanishi asosida jamiyatda juda ko’p ixtirolar, kashfiyotlar amalga oshirildi. Transport va energiyaning yangi turlari kashf etildi.

Yangi davrda milliy davlatlarning tashkil topish jarayoni o’z nihoyasiga etib, ulkan, shu bilan birga dunyoga hukmronlikni da’vo qiluvchi markazlashgan davlatlar tashkil topdi.

Yangi davrda mustamlakachilik siyosati oldingi davrlardagidan farq qilib, o’zining eng shafqatsiz va jirkanch shakliga ega bo’lib, dunyo etakchi kapitalistik davlatlar tomonidan taqsimlanib olindi. Natijada XX asr boshiga kelib dunyoning bosib olinmagan hududi qolmadi hisobi, bu esa o’z navbatida nafaqat yangi tarixda, balki butun insoniyat tarixida o’z ko’lami va qurbonlari jihatidan eng katta urushlardan bo’lgan birinchi jahon urushini keltirib chiqardi.

Tuzuvchi: “Tarix” kafedrasi o`qituvchisi: Artiqov X.

Muallif haqida ma’lumot

Artiqov Xudayar

Urganch Davlat universiteti Tarix kafedrasi o’qituvchisi

artiqov_58 @ mail.ru

MASLAHATLAR

Yangi tarix insoniyat tarixining uzviy qismi hisoblanib, u nisbatan qisqa davrni – XVII asr o`rtalaridan XX asr boshlarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Lekin ana shu davrda dunyo qiyofasini o`zgartirib yuborgan juda katta o`zgarishlar yuz berdi. Bu davrda ilm fan tez rivojlanib bordi va uning yutuqlari ishlab chiqarishga joriy qilinishi natijasida juda ko`plab ixtiro va kashfiyotlar amalga oshirildi.

Bu davrda Yangi jamiyatning iqtisodiy hayotining asosini tashkil qilgan mashinalashgan ishlab chiqarishda dastlab bug’ mashinalaridan foydalanilgan bo`lsa, keyinchalik ichki yonuv dvigatellari, elektr energiyasidan foydalanish ishlab chiqarishni jadal rivojlanishiga olib keldi.

Yangi davrda jamiyat siyosiy hayotida ham katta o`zgarishlar yuz berdi. Bir qator mamlakatlarda boshqaruvning respublika shakli, parlamentar monarxiya tartibotlari joriy qilindi. Ikki partiyali siyosiy tizim shakllandi. Milliy davlatlar tashkil topdi. Shu bilan birga kapitalizmning mustamlakachilik tizimi shakllandi.

Yangi tarixni o`rganish O`zbekiston tarixini o`rganishga nisbatan ancha murakkab hisoblanadi. Bu eng avvalo jahonning yetakchi davlatlari Yangi tarixini o`rganish hajm jihatidan katta materiallarni o`rganishni talab qilsa, ikkinchidan Jahon tarixining Yangi davriga doir ilmiy adabiyotlar o`zbek tilida juda kam, borlari ham ancha ilgari nashr qilingan adabiyotlardir, masalan, mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan Yangi tarix darsligining 1-tomi 1967 yilda, 2-tomi 1960-yilda nashr qilingan. Shu sababli ham Yangi tarixni o`rganayotgan talabalar ko`proq Internet, Ziyonet materiallaridan foydalansalar maqsadga muvofiq bo`lardi.

Shu bilan birga UrDU Axborot-resurs markazida Yangi tarix bo`yicha tayyorlan o`quv-uslubiy majmuaning elektron varianti ham mavjud, bu ham talabalarga shu fanni o`rganishda yordam beradi.

Yangi tarix fanini o`qitishda talabalar mashg'ulotga doir bilimlarni puxta o`zlashtirish uchun xar bir mavzuning eng muhim voqealarini yoritib beruvchi xarita, jadval, sxema va boshqa tarqatma materiallar tayyorlangan bo`lib, ular dars jarayonida qo`llanilib boriladi.

NORMATIV JUJJATLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

29.08.1997 y.
N 464-I

TA'LIM TO'G'RISIDA

I. Umumiy qoidalar (1 8 moddalar)

II. Ta'lim tizimi va turlari (9 19 moddalar)

III. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish (20 24 moddalar)

IV. Ta'lim tizimini boshqarish (25 29 moddalar)

V. Yakunlovchi xulosalar (30 34 moddalar)

I. UMUMIY QOIDALAR

1 - modda. Ushbu Qonunning maqsadi

2 - modda. Ta'lim to'jrisidagi qonun hujjatlari

3 - modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari

4 - modda. Bilim olish huquqi

5 - modda. Pedagogik faoliyat bilan shujullanish huquqi

6 - modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi

7 - modda. Davlat ta'lim standartlari

8 - modda. Ta'lim berish tili

7-modda. Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta’lim standartlari umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarini bajarish O’zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

14-modda. Oliy ta’lim

Oliy ta’lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minladi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o’quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta’lim muassasalarida) o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma’lumot to’jrisidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta’lim yo’nalishlaridan biri bo’yicha puxta bilim beradigan, o’qish muddati kamida to’rt yil bo’lgan tayanch oliy ta’limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo’yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim

Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgandir. Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim oliy o’quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad’yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KADRLAR TAYO’RLASh MILLIY DASTURI

(O’zbekiston Respublikasi 29.08.97 y. Qonuni bilan tasdiqlangan)

Mazkur Dasturga O’zR 09.04.2007 y. O’RQ-87-son Qonuniga muvofiq o’zgartirishlar kiritilgan

Umumiy qoidalar

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini
tubdan islox qilish omillari

2. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari
va uni ro’yobga chiqarish bosqislari

3. Kadrlar tayyorlashning Milliy modeli

4. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning
asosiy yo’nalishlari

5. Dasturni ro’yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar

UMUMIY QOIDALAR

O’zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma’naviy yangilanishini, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo’shilishni ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyjun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o’zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O’zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta’lim to’jrisida"gi O’zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo’lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’jri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbol

vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Oliy ta'lim

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shujullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniqmutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

"Magistr" darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shujullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta’lim muassasalari uchun professor-o’qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o’quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta’lim muassasalarida tarkibiy o’zgartishlar o’tkazish;

oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

o’qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distantsion ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o’zlashtirish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o’qitishni jadallashtirish;

xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta’limning insonparvarlik yo’nalishini ta’minlash.

YANGI TARIX FANIDAN BAHOLASH MEZONLARI

Maksimall ball – 100
Saralash ball - 55

Reyting ishlanmasi

t/r	Nazorat turlari	Soni	Ball	Jami ball
1	**J.B.** **1.1.** Amaliy mashg'ulotlarni bajarish **1.2.** TMI – yozma referat tayyorlash	 9 1	 3,89 5	 **35** **5**
2	O.B. **2.1.** Yozma ish (3 ta savol)	1	30 (10x3 =30)	**30**
3	Ya.B. **3.1.** Yozma ish (2 ta savol) 3.2. Test (10 ta)	1	30 (10x2=20) (10x1,0=10)	**30**
	Jami			**100**

Joriy nazorat - 40 ball
Maksimall 40 ball
Saralash 22 ball

Baho	Foiz (%)	Ball
”2”	0 – 54	0 – 21
”3”	55 – 70	22 – 28
”4”	71 – 85	28,4 – 34
”5”	86 – 100	34,4 - 40

Oraliq nazorat - 30 ball
Maksimall 30 ball
Saralash 16,5 ball

Baho	Foiz (%)	Ball
”2”	0 – 54	0 – 16,2
”3”	55 – 70	16,5 – 21
”4”	71 – 85	21,3 – 25,5
”5”	86 – 100	25,8 - 30

Yakuniy nazorat - 30 ball
Maksimall 30 ball
Saralash 16,5 ball

Baho	Foiz (%)	Ball
”2”	0 – 54	0 – 16,2
”3”	55 – 70	16,5 – 21
”4”	71 – 85	21,3 – 25,5
”5”	86 – 100	25,8 - 30

Mundarija

1. O’quv dasturi ..... 2-26 betlar.
2. Ishchi dastur..... 27-35 betlar.
3. Ta’lim texnologiyalari..... 36-41 betlar.
4. Test..... 42-48 betlar.
5. Nazorat uchun savollar..... 49-55 betlar.
6. Umumiy savollar..... 55-63 betlar.
7. Tarqatma materiallar..... 63-76 betlar.
8. Glossariy..... 76-79 betlar.
9. Referat mavzulari.....46-47 betlar.
10. Adabiyotlar ro’yhati..... 81-82 betlar.
11. Tayanch konspekt..... 83-91 betlar.
12. O’quv materiallari..... 92-296 betlar.
13. Xorijiy manbalar..... ... 297 bet.
14. Annotatsiya..... 298 bet.
15. Mualliflar haqida ma’lumot..... 299 bet.
16. Foydali maslaxatlat..... 299-300 betlar.
17. Normativ hujjatlar..... .. 300-304 betlar.
18. Baxolash mezonlari..... 305 bet.
19. Kalendar tematik reja……306-308 bet.
20. Mundarija ……...